

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

---

**MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI  
O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

**Shavkat Rahmatullayev**

**H O Z I R G I A D A B I Y  
O' Z B E K T I L I  
(darslik)**

**Toshkent  
"Universitet"  
2006**

"Hozirgi adabiy o'zbek tili" darsligi Milliy universitet "o'zbek filologiyasi" mutaxassisligi bo'yicha chop etgan namunaviy o'quv dasturi asosida muallif tomonidan tuzilgan ishchi dasturga amal qilib yozildi. Darslikda muallifning ko'p yillik ilmiy-pedagogik faoliyati inobatga olingan bo'lib, "Kirish", "Tovushlar tizimi", "Leksemalar tizimi", "Morfemalar tizimi", "Leksemashakllar tizimi", "Birikmalar tizimi", "Gapshakllar tizimi", "Frazemalar tizimi", "Alifbo. Adabiy yozish. Adabiy talaffuz" bo'limlарidan iborat. Darslikda hozirgi adabiy o'zbek tili hodisalari til qurilishiga tizim sifatida yondashib, o'rni bilan munozarali yo'sinda bayon qilindi. Yangicha talqin bilan yozilgan ilk darslik bo'lgani sababli kamchilik-nuqsonlardan xoli emasligi tabiiy. Darslik sifatini yaxshilashga qaratilgan fikr-mulohazalarni muallif samimiyat bilan qabul qiladi.

**Mas'ul muharrir: Abduzuhur Abduaazizov – O'zMU professori.**

**Taqrizchilar: Azim Hojiyev – O'zR FA akademigi;  
Hamidulla Dadaboyev – O'zMU professori.**

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi  
Oliy o'quv yurtlariaro ilmiy-uslubiy birlashmlalar faoliyatini  
muvofiqlashtiruvchi kengashi tomonidan OO'TV Vazirligining  
2005 yil 12 dekabrda 264- sonli buyrug'iiga binoan universitetlar  
o'zbek filologiyasi fakulteti talabalari uchun  
darslik sifatida tavsiya etilgan.

## K I R I SH

### O'quv predmetining nomlanishi va vazifasi

1- §. Til — kishilarga fikrashuv, fikrash quroli bo'lib xizmat qiladigan noyob ijtimoiy hodisa. Har bir tii uning sohibi bo'imish jamoaning bebafo mulki bo'lib, o'zi mansub jamoaning nomi bilan ataladi: o'zbek jamoasiga xizmat qiluvchi tilga o'zbek tili deyiladi.) O'zbeklar o'z tilidan ko'p asrlar davomida foydalanib keladi. Dastlab og'zaki muloqotni ta'minlagan o'zbek tili keyinchalik yozma shaklda ham namoyon bo'lgan. Yozma nutqda til hodisalaridan foydalanishning ma'lum me'yorlarini ishlab chiqish zaruriyat paydo bo'lgan. Til hodisalaridan ma'lum me'yor asosida foydalanish *adabiy o'zbek tilining* shakllanishiga olib kelgan.)

(So'zlashuv asosida shakllanib, so'zlashuv tili bilan yonma-yon yashab kelayotgan adabiy o'zbek tili ko'p asrlik tarixga ega bo'lib, taraqqiyot bosqichlari nuqtayi nazaridan o'tmish adabiy o'zbek tili va hozirgi adabiy o'zbek tili deb ajratiladi. Adabiy o'zbek tili o'z tarixiy taraqqiyotining har bir bosqichida ma'lum belgi-xususiyatlari bilan farqlanadi.)

Ushbu o'quv predmetida o'zbek tili bus-butun holda emas, balki uning hozirgi adabiy o'zbek tili deb ataladigan holati bayon qilinadi.

( "Hozirgi adabiy o'zbek tili" predmetining asosiy vazifasi — talabalarni shu tilning qurilishiga mansub hodisalar bilan ilmiy asosda tanishtirish, yuqori malakali filolog bo'lishi uchun poydevo r hosil qilish.)

### Hozirgi adabiy o'zbek tilining boshlanishini belgilash haqida

2- §. O'zbek tili taraqqiyotining ma'lum bir davri ruscha yozilgan asarlarda *starouzbekskiy yazik* deb nomlanib, bu nom *eski o'zbek tili* deb kalka qilingan. *Starouzbekskiy yazik* atamasi asli rus tilshunosligidagi *staroslavyanskiy yazik* atamasiga noo'rin taqlid natijasida yuzaga kelgan: staroslavyanskiy yazik — alohida tilning nomi, starouzbekskiy yazik deb esa o'zbek tilining oldingi taraqqiyot bosqichi nomlanadi. Umuman, bu atama tarkibidagi *eski sifatlovchisi* noto'g'ri tushunchani ("eskirgan" tushunchasini) uyg'atadi. Asli o'zbek tilining bu taraqqiyot bosqichini vaqt o'Ichovini asosga olib "XIII — XIX asrlar adabiy o'zbek tili" deb atash to'g'ri. Hozirgi adabiy o'zbek tili ham davr o'tishi bilan kechagi, "eski" til bo'lib qoladi, lekin uni "eski adabiy o'zbek tili" ga qo'shib yuborish mumkin emas. Davr o'tishi bilan "hozirgi adabiy o'zbek tili" ni "XX (va undan keyingi) asr adabiy o'zbek tili" deb nomlash lozim bo'lib qoladi.

XX asrning I choragi asli oldingi adabiy o'zbek tilidan hozirgi adabiy o'zbek tiliga o'tish davri bo'lgan. Shunga ko'ra hozirgi adabiy o'zbek tilining

boshlanishini 1929- yildan — yozma adabiy til me'yorlari — imlo qoidalari qabul qilingan vaqtdan boshlab belgilash to'g'ri bo'ladi.

### Til qurilishi haqida

Til qurilishi adabiyotlarda turlicha yondashib, turli izchiliikda va chuqurlikda bayon qilinadi. Shu sababli ushbu darslikda asosga olingan nuqtayi nazar qisqacha bayon qilindi.

### Til, lison va nutq; til birligi, lisoniy birlik va nutqiy birlik

3- §. *Til* murakkab qurilishga molik bo'lib, dastlab uning ikki holati — *lison* va *nutq* farqlanadi.

*Lison* — kishi miyasidagi til xotirasi qismida mavjud til birliklaridan va ulardan foydalanish qoidalariidan iborat boylik. *Nutq* esa ana shu boylikdan foydalanish jarayoni va shunday jarayonning hosilasi.

Lison kishi miyasidagi til xotirasi qismida mavjud mavhum hodisa bo'lib, aql bilan idrok qilinadi; nutq esa ana shu mavhum hodisadan foydalanish jarayoni natijasida yuzaga keladigan moddiy hodisa bo'lib, uni talaffuz birliklari sifatida eshitamiz (yozuvda esa ko'ramiz).

Lisonda mavjud hodisalarga *lisoniy birliklar* deyiladi; lisoniy birliklar ning nutq jarayoni natijasida moddiy shakl olgan holatiga *nutqiy birliklar* deyiladi.

Har bir kishining miyasidagi til xotirasi qismida lisoniy birliklarning va ulardan foydalanish qoidalarinin ramzları mavjud, har bir kishi ehtiyojga qarab bu ramzlardan foydalanib nutq hosil qiladi.

Ayrim adabiyotlarda til bilan nutq o'zaro dixotomiya, oppozitsiya hosil etuvchi hodisalar deb qaralib, *til ↔ nutq* tarzida baholanadi. Aslida til bilan nutq dixotomiyasi haqida, oppozitsiyasi haqida gapirish to'g'ri emas (*dixotomiya* yunoncha *dicha* — 'ikki qismga' + *tome* 'ajratish'; *oppozitsiya* lot. *oppositio* — 'qarama-qarshi holatda bo'lish'), chunki til bilan nutq — butun bilan qism munosabatidagi hodisalar. Nutqqa muqobil holda ajratiladigan hodisa deb til emas, balki lison ta'kidlanishi lozim. Bu munosabatni chizmada quyidagicha ko'rsatish mumkin:

T i l	
lison	
	nutq

Lison bilan nutq o'zaro dixotomiya hosil etadi, lekin zidlanuvchi (oppozitiv) hodisalar emas, balki asos va hosila munosabatidagi hodisalar. Bunday

munosabatni lisondagi boylikdan foydalarish jarayonini ham hisobga olgan holda quyidagicha chizma bilan ko'rsatish mumkin:

T i l		
lison	lisondagi boylikdan foydalanish jarayoni	nutq

Til hodisasi dastlab nutqda paydo bo'ladi, takror-takror ishlatalishi natijasida miyaning til xotirasi qismida bu hodisaning ramzi shakllanadi, keyinchalik ana shu ramzdan nusxa olib nutqiy birlik hosil qilinadi. Demak, asli til hodisalarini nutqdan lisonga ko'chadi va keyin-gina lisondan nutqqa olib chiqiladi. Bunday ikki tomonlama munosabatni chizmada quyidagicha aks ettirish mumkin:

T i l		
lison	lisondagi boylikdan foydalanish jarayoni	nutq
	lisondagi boylikdan foydalanish jarayoni	

Lisonda bor imkoniyatlar-gina nutqda vogelanadi, lisonning imkoniyatlari boy bo'lib, nutqda uning ma'lum bir qismi-gina namoyon bo'ladi deyishdan lison go'yo azaliy, tug'ma, mukammal degan fikr tushuniladi. Vaholanki hali tili chiqmagan go'dakning miyasidagi til xotirasi qismida hech qanday ramz bo'lmaydi; go'dak nutqni egallay boshlaganidan keyin-gina miyasida ramzlar paydo bo'ladi. Demak, lison azaliy (zot) emas, balki nutq asosida shakllanadigan, to'ldiriladigan boylik. Tilning taraqqiyoti nutq yordamida voqe bo'ladi. Har qanday yangilik, masalan, yangi leksema yasash, boshqa tildan leksema olish avvalo nutqda voqe bo'ladi, bu yangilik til taraqqiyoti qonunlariga zid bo'lmasa lisonda ramz sifatida muhrulanadi, ana shundan keyin lisondagi bu ramzdan nusxa olib nutq hosil qilinadi.

Yuqorida aytilgan mulohazalardan xulosa shuki, lisonni mutlaq, azaliy, birlamchi deb qarash asosli emas.

Tilni o'rghanish, o'rgatish ham lison asosida emas, nutq asosida amalgam shiriladi, chunki bevosita kuzatishda berilgan hodisa — nutq. Nutqni kuzatish orqali til qurilishini, til qurilishining lison deb ataladigan holatini anglashga harakat qilinadi. Tilshunosning tilni kuzatish, o'rghanish quroli — nutq. Tilga, lisonga xos hodisalarning mohiyati, bu hodisalar orasidagi munosabatlar nutqni kuzatish orqali aniqlanadi. Ushbu qo'llanmada hozirgi adabiy o'zbek tilining qurilishi mavhum fikrlash yo'li bilan emas, balki bevosita kuzatishda berilgan nutqiy hodisalar tahlili asosida bayon qilinadi.

## Til qurilishining asosiy birliklari haqida

4- §. Tilga tizim sifatida yondashib, til qurilishining asosiy birliklarini quyidagicha tavsiflash mumkin:

1. Til qurilishining asosida yotuvchi birliklar sifatida *til tovushlari* ta'kidlanadi. Til tovushlari til birliklariga qurilish ashyosi bo'lib xizmat qiladi. Til tovushi birlamchi qurilish birligi sifatida til birliklaridan tub leksemaga, tub morfemaga ifoda jihatni bo'ladi. Faqat ifoda jihatni bo'lishini nazarda tutib til tovushi bir jihatli birlik deyiladi.

Til tovushining ikki holati — lisoniy birlik holati va nutqiy birlik holati farqlanadi. Lisoniy birlik sifatida miyaning til xotirasi qismida mavjud ramzga teng bo'lib, ana shu ramzda til tovushiga xos belgi-xususiyatlar haqida axborat bo'ladi. Masalan, *u* tovushi haqida "ovozdan iborat", "og'iz bo'shilig'i tor holatda", "tovush hosil bo'lish oralig'i til yuzasining orqa qismida", "lablar aktiv qatnashadi" kabi axborat bor. Inson faoliyatini, shu jumladan til faoliyatini ham boshqaruvchi miyadan *u* tovushini aytish haqida "ko'rsatma" (impuls) berilsa, tovush hosil qilish a'zolari shu tovushning ramzida mujassam-lashgan axboratga binoan harakatga kelib, ko'rsatma asosida ma'lum holat egallaydi va o'pkadan ma'lum zarb bilan chiqarilayotgan havo oqimi nutq tovushi sifatida, nutqiy birlik sifatida namoyon bo'ladi.

Miyadagi til xotirasi qismida shu tildagi barcha til tovushlarining ramzi bo'ladi, bu ramzlar shu tildagi tovushlarning artikulatsion bazasini (nutq a'zolarini tovush hosil qilishga jalb etish ko'nikmalari yig'indisini) tashkil etadi. Boshqa tilga mansub tovushning noto'g'ri talaffuz qilinishi bunday tovush uchun miyaning til xotirasi qismida maxsus ramzning yo'qligi bilan izohlanadi. Bunday begona tovush uchun miyaning til xotirasi qismida ramz paydo bo'lsa, shundan keyin-gina bu tovushni to'g'ri talaffuz qilishga erishi-ladi. Masalan, o'zbek tili tovushlar tizimiga turkiy til sifatida sirg'aluvchi *j* tovushi xos bo'lmagan, eroniyligi til egalari bilan uzoq muddat birga yashash, doimiy muloqotda bo'lish natijasida bu tovush *ajdar*, *mujda*, *gijda* kabi til birliklari tarkibida o'zbek tiliga qabul qilingan, natijada bu tovush uchun miyaning til xotirasi qismida alohida ramz paydo bo'lgan.

Til tovushi o'zicha ma'no bildirmaydi, ma'no bildiradigan til birliklariga ifoda jihatni bo'lib xizmat qiladi.

Til tovushlarini o'rganuvchi va o'rgatuvchi tilshunoslik sohasiga *fonetika* deyiladi.

2. Asosiy, birlamchi til birliklari — *leksema* va *morfema*. Bulardan leksema yetakchi, morfemani o'ziga qo'shib oluvchi birlik, morfema esa tobe, leksemaga qo'shilib keluvchi birlik.

Til birligi bo'lish uchun bir butunni tashkil qiluvchi ikki jihat — ifoda jihatni va mazmun jihatni mavjud bo'lishi lozim. Leksemaning, morfemaning

ifoda jihatni bo'lib til tovushi xizmat qiladi, shunga ko'ra bu til birliklari segment til birliklari deyiladi (lot. *segmentum* – 'qism', 'parcha'). Leksema va morfemaning mazmun jihatni asosini ma'no (leksik ma'no va grammatik ma'no) tashkil etadi. Masalan, *qo'l-* leksemasining ifoda jihatni bo'lib *q*, *o'*, *l* tovushlarining shunday tartibda joylashgan qatori xizmat qiladi; mazmun jihatni asosini 'gavdaning yelkadan boshlanib, barmoq uchigacha davom etadigan qismi' ma'nosi tashkil etadi; *-di* morfemasining ifoda jihatni bo'lib *d*, *i* tovushlarining shunday tartibda joylashgan qatori xizmat qiladi, mazmun jihatini 'aniq yaqin o'tgan zamон' ma'nosi tashkil etadi.

Leksemani o'rganuvchi tilshunoslik sohasini *leksemika* deb nomladik (Adabiyotlarda *leksikologiya* deb yuritiladi). Morfemani o'rganuvchi tilshunoslik sohasiga *morfemika* deyiladi.

Leksemaning, morfemaning til birligi sifatida ikki holati – lisoniy birlik va nutqiy birlik holati farqlanadi. Lisoniy birlik sifatida leksema va morfema mavhum birlik hisoblanadi. Miyaning til xotirasi qismida har bir leksemaning, morfemaning alohida ramzi bo'lib, ana shu ramzdagi axboratdan foydalanish qoidalari ham mavjud; har ikkisi asosida leksemalarning, morfemalarning talaffuz birligi holati yuzaga keltiriladi; leksema va morfema ana shunday nutqiy birlik holatida moddiy birlik, segment birlik sifatida namoyon bo'ladi.

Til tovushi leksema uchun, morfema uchun qurilish ashyosi bo'lib xizmat qiladi, lekin til tovushi bilan leksema, morfema orasidagi munosabatni ierarxik (pog'onali) munosabat deb bo'lmaydi, chunki leksema, morfema til tovushlarini bir-biriga qo'shish yo'li bilan emas, balki ma'lum bir tovushga, tovushlar qatoriga ma'lum bir mazmunni birkitish yo'li bilan hosil qilingan.

3. Tom ma'nodagi pog'onali munosabat leksema va morfema bilan bularni qo'shib tuziladigan birlik – *leksemashakl* orasida mavjud. Leksemashakl – birlamchi tuzma birlik. Leksemashakl lisoniy birlik sifatida modeldan (qolipdan) iborat; bu qolip leksema va morfema bilan to'ldiriladi, natijada leksemashakl talaffuz birligi – nutqiy birlik sifatida namoyon bo'ladi, ana shu holatida moddiy birlikka, segment birlikka aylanadi. Masalan, ot leksemashakl tuzish qoliplaridan biri "leksema + sonlovchi + turlovchi" shakliga ega; ana shu qolipni *bola-* leksemasi, *-lar*, *-ni* morfemalari bilan to'ldirib, *bolalarni* leksemashakli tuziladi. Demak, leksemashakl lisoniy birlik sifatida supersegment birlik bo'lib, nutqiy birlik holatida segment birlikka aylanadi.

Leksemashakl qaysi leksema asosida tuzilsa, o'sha leksema mansub turkum nuqtayi nazaridan biror sintaktik vazifa bajarish uchun yetarli darajada grammatik shakllangan bo'ladi, shunga ko'ra leksemashakl birlamchi sintaktik birlik deyiladi.

4. Navbatdagi pog'onali munosabat leksemashakl va leksema bilan ularning sintaktik bog'lanishi natijasida tarkib topadigan *birikma* orasida voqe bo'ladi. Birikma ikki a'zoli bo'lib, o'zbek tilida tobe a'zo leksemashakl bilan, hokim a'zo esa leksema bilan ifodalanadi.

Birikma tushuncha anglatish uchun xizmat qiluvchi sintaktik birlik bo'lib, shunga ko'ra nominativ birlik deyiladi, shu jihatni bilan leksemaga o'xshaydi. Birikmaning asosiy vazifasi — predmetni, predmetning harakat-holatini ma'lum bir belgisi bilan birgalikda anglatish: *sifatli mato-, derazaning ko'zi-, tez yugur-* kabi.

Birikma — tuzma birlik; lisoniy birlik sifatida miyaning til xotirasi qismidagi qolipga teng, ana shu qolip leksemashakl va leksema bilan to'ldirilganidan keyin segment birlik holatiga o'tadi, o'z tabiatini va sintaktik vazifasiga binoan ma'lum grammatik shakl olib, birikmashaklga aylanganidan keyin talaffuz birligi sifatida nutqiy birlik bo'ladi.

5. Tilning eng muhim birligi — *gapshakl*, chunki fikr gapshakl bilan anglatiladi. Lisoniy birlik sifatida gapshakl miyaning til xotirasi qismida qolip holatida mavjud; ana shu qolipdagi axboratga binoan talaffuz birligi sifatida hosil qilingan nutqiy birlikka *jumla* deyiladi.

Gap uchun qurilish ashyosi bo'lib leksemashakl ham, birikmashakl ham xizmat qiladi, lekin bu yerda pog'onali munosabat yo'q; predikativlik ko'rsatkichlari bor leksemashakl, birikmashakl gaplik (predikativ) intonatsiyasi bilan talaffuz qilinsa, gapga teng holatiga o'tadi. Masalan, *ketdi* — fe'l leksemashaklga teng; predikativ ko'rsatkichlarga ega ushbu leksemashakl gaplik intonatsiyasi bilan talaffuz qilinsa, gapshakl holatiga o'tadi. Demak, gap lisoniy birlik sifatida supersegment birlik bo'lib, nutqiy birlik sifatida segment birlikka aylanadi.

6. *Frazema* — tabiatini murakkab til birligi. Mazmun jihatni bilan leksemaga tenglashsa, tuzilishi jihatidan birikmaga, gapshaklga teng. Lekin til birligi sifatida birikmadan, gapshakldan farqli holda qolipning o'zidan iborat emas, balki aniq leksemashakl, leksema bilan to'ldirilgan bo'ladi, shunga ko'ra frazema segment birlik deyiladi.

Asli frazema mazmun jihatni bilan ham leksemadan jiddiy farqlanadi: *ammamning buzog'i — lapashang, oshig'i olchi — ishi yurishib turibdi* kabi.

Yuqorida til qurilishiga mansub olti til birligi haqida dastlabgi ma'lumot berildi. Darslikning bo'limlarida bu til biriklarining tabiatini birma-bir bayon qilinadi.

## T O V U S H L A R T I Z I M I

---

1- §. Til tovushining lisoniy birlik holatini eshitib, ko'rib bo'lmaydi, faqat aql bilan idrok etish mumkin. Shunga ko'ra til tovushlari tizimini tasvirlash ularning nutqiy birlik (talaffuz birligi) holati asosida amalga oshiriladi. Til tovushlarini og'zaki yo'sinda tasvirlash talaffuz birliklari bilan, yozma yo'sinda tasvirlash esa harfiy ifodalar yordamida amalga oshiriladi.

Til birligi deb (nutqiy birlik deb ham) tovushning o'zini ko'rsatish lozim; harf — til birligini yozib ifodalash uchun o'ylab topilgan shartli, ikkilamchi vosita; harfni til birliklari qatoriga kiritish xato.

Til tovushini yozib tasvirlashda asosan amaliy yozuvga xizmat qiladigan alifboden foydalilaniladi. Lekin hozirgi amaliy alifboda "bir tovush — bir harf" munosabatiga to'liq erishilmagani sababli til tovushlari tizimini tasvirlashda alifboga qo'shimcha harflar kiritiladi. Ushbu darslikda hozirgi adabiy o'zbek tilining tovushlar tizimi hozir joriy etilgan o'zbek lotin alifbosiga kompyuter xotirasidagi kengaytirilgan lotin alifbosi imkoniyatlardan foydalanib quyidagi o'zgarishlarni kiritgan holda tasvirlandi:

- 1) o harfi o'rta-tor tovushni ifodalash uchun ishlatalib, o' harfidan foydalilmadi;
- 2) O'zbek tilining lablashgan keng tovushi à harfi bilan ifodalandi;
- 3) j harfi sirg'aluvchi tovushni ifodalash uchun qoldirilib, portlovchi tovush ç harfi bilan ifodalandi;
- 4) ch harflar tizmasi o'mniga e harfi, sh harflar tizmasi o'mniga ş harfi, ng harflar tizmasi o'mniga n harfi, g' harfi o'mniga g harfi ishlataldi.

### Kishi tanasining til tovushlarini hosil qilishda qatnashadigan a'zolari haqida

2- §. Tilning tovushlar tizimini tasvirlashdan oldin kishi tanasining til tovushlarini hosil qilishda qatnashadigan a'zolari faoliyati bilan zarur darajada tanishish lozim (Bu haqda to'liq ma'lumot "Tilshunoslikka kirish" o'quv predmetida beriladi).

Til tovushlari hosil qilishda qatnashadigan a'zolarning deyarli barchasi avvalo fiziologik (biologik) vazifa bajaradi; faqat ovoz hosil qilishga xizmat qiladigan a'zo — ovoz paychalari (bu paychalarning tarang tortilishini ta'minlovchi kemirchaklar ham) tovush hosil qilish uchun xoslangan. Bu paychalarni tovush paychalari deb nomlash xato, chunki bu paychalarni o'pkadan chiqariladigan havo oqimi zarb bilan ritmik tebratishi natijasida ovoz hosil bo'ladi. Bu yerda hosil bo'ladigan ovozning o'zi hali tovush emas, tovush og'iz bo'shilg'ida shakllanadi.

Har bir til tovushining talaffuzida tovush hosil qilishda xizmat qiladigan a'zolarning barchasi qatnashadi, faqat jarangsiz undosh deb nomlanadigan tovushlarning talaffuzida ovoz paychalari, sof og'iz tovushlari deb nomlanadigan tovushlarda burun bo'shlig'i, bo'g'iz usti bo'shlig'i qatnashmaydi.

To'siq bo'lmasa, tovush hosil bo'lmaydi. Ovoz paychalari havo oqimiga to'siq bo'lib, ritmik tebranadi, shunga ko'ra bu to'siq ovoz hosil qilish to'sig'i deyiladi. Ko'pchilik til tovushlarining tarkibiy qismi bo'lib shovqin qatnashadi. Shovqin og'iz bo'shlig'idagi turli a'zolar yordamida voqe bo'ladigan to'siqlar tufayli yuzaga keladi, bunday to'siqlar shovqin hosil qilish to'sig'i deyiladi.

Til yuzasining pastki jag' bilan birgalikda pastga tushishi (tilning tik yo'nalishdagi harakati) natijasida og'iz bo'shlig'inining hajmi o'zgaradi; ayni vaqtida til yuzasining ma'lum nuqtasi (qismi) boshqa qismiga nisbatan biroz ko'tarilib, og'iz bo'shlig'inining rezonatorlik holatini belgilaydi. Tovushning shakllanishida muhim yumush bajargani sababli til yuzasining biroz ko'tarilgan nuqtasi bilan tanglay orasida hosil bo'ladigan eng yaqin oraliq tovush hosil bo'lish oralig'i deb yuritiladi, tovushlarga bir jihatdan tavsif ana shu tovush oralig'inining o'miga ko'ra beriladi. Masalan, *q* tovushida tovush hosil bo'lish oralig'i til yuzasining chuqur orqa qismi bilan tanglayning orqa qismi orasida voqe bo'lishi sababli bu tovush chuqur til orqa tovushi deyiladi.

Tovush hosil qilish oralig'inining o'zi tovushni shakllantirmaydi, balki og'iz rezonatorining turlicha tus olishini ta'minlaydi. Tilning ana shu ko'tarilish nuqtasi tufayli og'iz bo'shlig'i rezonatori old qismiga va orqa qismiga bo'linadi, bu qismlarning o'zaro bir butun rezonatorni hosil etib turishi tovushdan tovushga farqli bo'ladi. Ko'rindaniki, tilning ko'tarilish o'rnii barcha til tovushlarining shakllanishida hal etuvchi omil bo'lib xizmat qiladi.

### **Til tovushlarining ovoz va shovqinning qatnashuvi asosidagi tasnifi**

**3- §.** Ovoz va shovqin til tovushlari tarkibida turlicha qatnashadi. Ayrim tovushlarning tarkibi faqat ovozdan, ayrim tovushlarning tarkibi esa faqat shovqindan iborat bo'ladi. Birinchi tur tovushni *ovoz tovush* deb, ikkinchi tur tovushni *shovqin tovush* deb nomladik (Bular adabiyotlarda unli tovush va jarangsiz tovush deb yuritiladi).

Ovoz tovushlarda ovoz paychalari to'liq darajada qatnashadi va og'iz bo'shlig'ida shovqin to'sig'i bo'lmaydi, masalan, **a** tovushida bo'lgani kabi. Shovqin tovush talaffuzida ovoz paychalari betaraf holat egallaydi, og'iz bo'shlig'ida shovqin to'sig'i bo'ladi, masalan, **t** tovushida bo'lgani kabi. Ko'rindaniki, bu jihatdan zidlanish ovoz tovush bilan shovqin tovush orasida mavjud.

Bu ikki turdan boshqa tovushlar ovoz bilan shovqin qatnashib shakllanadi. Bu yerda ham ichki zidlanish mayjud: ayrim tovushlar tarkibida ovoz shovqindan ustun bo'ladi, masalan, **n** tovushida bo'lgani kabi. Bunday tovushlarni *ovozdor tovush* deb nomladik (Adabiyotlarda sonor tovushlar deyiladi). Yana bir tur tovushlar tarkibida shovqin ovozdan ustun bo'ladi, masalan, **d** tovushida bo'lgani kabi. Bunday tovushlarni *ovozli tovush* deb nomladik (Adabiyotlarda jarangli tovush deb yuritiladi).

Til tovushlarining yuqorida aytib o'tilgan tasnifini chizmada shunday ko'rsatish mumkin:

Ovoz tovush: <b>a</b> , ...	O	←	
Ovozdor tovush: <b>n</b> , ...	Osh	←	—
Ovozli tovush: <b>d</b> , ...	Sho	←	—
Shovqin tovush: <b>t</b> , ...	Sh	←	—

Ko'rinaradiki, til tovushlarini ovoz va shovqinning ishtirokiga ko'ra avval ikkiga (unli va undosh deb) va keyin ikkinchi guruh tovushlarni yana ikkiga (sonor va shovqinli deb), so'ngra oxirgi tur tovushlarni yana ikkiga (jarangli va jarangsiz deb) ajratishda til tovushlari shu nuqtayi nazardan to'g'ri tasniflanmaydi.

O'z-o'zidan ayonki, dastlabgi tovushlar tarkibi jihatidan sodda tovushlar bo'lgan, shulardan ham avval ovoz tovushlar, keyin shovqin tovushlar shakllangan; shovqinga biroz ovoz qo'shib ovozli tovush turi, ko'proq ovoz qo'shib ovozdor tovush turi yaratilgan.

Adabiyotlarda til tovushlari tarkibida ovoz va shovqinning ishtirokiga ko'ra *unli tovush*, *undosh tovush*, *sonor tovush*, *shovqinli tovush*, *jarangli tovush*, *jarangsiz tovush* deb nomlanadi. Bu terminlar (*sonor* terminidan tashqari) – rus tilshunosligidagi *glasnyi zvuk*, *soglasnyi zvuk*, *shumnyi zvuk*, *zvonkiy zvuk*, *gluxoy zvuk* terminlarining kalkasi. Asli *glasnyi* terminini *unli* deb kalkalash to'g'ri bo'lмаган: *unli* desak, bu tovush tarkibida undan (ovozdan) tashqari shovqin ham qatnashadi degan fikr tug'iladi; *glasnyi* terminini shaklidan (nisbiy sifatligidan) kelib chiqib emas, balki mazmunidan kelib chiqib *un tovush* deb kalkalash to'g'ri edi. Hozirgi adabiy o'zbek tilida *un-* leksemasi deyarli ishlatilmasligini inobatga olib bu tovush turini *ovozi tovush* deb nomlashni ma'qul ko'rdik.

*Soglasnyi* termini *undosh* deb to'g'ri kalkalangan, lekin bu ruscha termin (demak, uning o'zbekcha muqobili ham) til hodisasining mohiyatini to'g'ri anglatmaydi: bu termin ostiga olinadigan *shumnyi* (jarangsiz) tovush turi tarkibida golos (ovoz) qatnashmaydi. Til tovushlarini yangicha tasniflashda bu termin o'z-o'zidan ortiqcha bo'lib qoldi.

*Sonor* termini hodisani to'g'ri nomlaydi, shunga qaramay bu terminning o'zbekcha muqobili sifatida *ovozdor* terminini tavsiya qildik.

Ruscha *zvonkiy*, *gluxoy* terminlari ham maqbul emas: "zvonkiy" bo'lish ovoz tovushlarga ham, ovoz dor tovushlarga ham xos, demak, hodisani aniq nomlamaydi; *zvonkiy* terminining o'zbekcha kalkasi *jarangli* terminini ham shunday baholash kerak.

*Gluxoy* termini o'ta noorin; bu terminni o'zbekchaishtirishda mustaqii yo'l tutilgan, lekin natija ijobjiy bo'lmagan: *jarangsiz* deyish hodisani nomlash emas, balki ma'lum bir belgining borligini inkor etishga teng. Tovushning tarkibidan kelib chiqib *zvonkiy* *zvuk* termini o'rniga *ovozi tovush*, *gluxoy* *zvuk* termini o'rniga *shovqin tovush* terminini ishlatdik. Til tovushlarini yangicha tasniflashda *shumnie zvuki* termini va uning o'zbekcha *shovqinli tovush* kalkasi o'z-o'zidan ortiqcha bo'lib qoldi.

Xullas, ovoz va shovqinning ishtirotiga ko'ra til tovushlaridan ovoz tovush turi bilan shovqin tovush turi o'zaro, ovoz dor tovush turi bilan ovozli tovush turi o'zaro zidlanish (oppositsiya) munosabatini, ovoz tovush — ovoz dor tovush — ovozli tovush — shovqin tovush turlari o'zaro pog'onali munosabatni (gradual munosabatni) aks ettiradi (<lot. *gradatio* — 'pog'onama-pog'ona kuchayish').

Tovush turlari orasidagi bunday zidlanish munosabati ham, pog'onali munosabat ham til tovushlarining bir butun tuzumni (sistemanı) tashkil etishi haqida gapirish uchun huquq bermaydi; bu yerda til tovushlari ma'lum bir nuqtayi nazardan bir butun tizim (vzaimosvyazanni ryad) hosil etishini ta'kidlash o'rinni.

Boshqa tillarda bo'lganidek, o'zbek tilidagi umumiylig qonuniyatlardan biri shuki, tovushlar tizimida eng oz miqdorni ovoz dor tovushlar tashkil qiladi, miqdorining ozligi jihatidan ikkinchi o'rinda ovoz tovushlar turadi; tovushlarning ko'pchiligi shovqin tovushlarga va ovozli tovushlarga to'g'ri keladi.

### O v o z   t o v u s h l a r

4- §. Hozirgi adabiy o'zbek tilining ovoz tovushlar tizimi — olti a'zoli: i, u, a, ä, e, ö. Ovoz tovushning boshqa tur tovushlardan farqli xususiyatlardan biri shuki, yolg'iz o'zini talaffuz qilish mumkin. Boshqa tur tovushlar ovoz tovush qo'shib-gina talaffuz qilinadi; bu xususiyat, masalan, tovushlarning alifbodagi nomlanishida ochiq ko'rindi: a, lekin be deyiladi.

Ovoz psychalarining ritmik tebranishi bilan hosil bo'ladigan ovoz og'iz bo'shlig'i rezonatori ta'sirida u yoki bu tovushga aylanadi. Ovoz tovushning shakllanishi tilning va lablarning harakat-holatiga bog'liq.

Lablar har olti tovushning shakllanishida turli darajada qatnashadi: aktiv qatnashsa, ya'ni lablar doira shaklini olib cho'chchaysa, bunday ovoz tovush

lablangan tovush deyiladi; lablar passiv qatnashsa, ya'ni doira shaklini olmasa, cho'chchaymasa, bunday ovoz tovush lablanmagan tovush deyiladi.

Yuqoridagi belgi asosida ovoz tovushlardan *i*, *e*, *a* lablanmagan, *u*, *o*, *ä* lablangan tovush deyiladi. Har ikki qator tovushlarda lablarning holati o'zaro farqli. Lablanmagan tovushlarda lablar odatdagi holatini *i* tovushida saqlaydi, *e*, *a* tovushlarida lablar yon tomonlarga harakatlanib, turli darajada kengayadi. Lablangan tovushlarda ham lablarning doira shaklini olib cho'chchayishi turli darajada bo'ladi: *u* tovushida eng kuchli darajada, *o* tovushida o'rtacha, *ä* tovushida esa kuchsiz darajada bo'ladi. Shuni hisobga olib *ä* tovushi lablashgan tovush deyiladi: Lablashgan deyish bilan lablanish kuchsiz darajada voqe bo'lishi ta'kidlanadi.

Ovoz tovushlarning shakllanishida tilning ikki yo'nalishdagi – yotiqligida (gorizontal) harakat-holati va tik yo'nalishdagi (vertikal) harakat-holati xizmat qiladi.

Tilning yotiqligida harakat-holati deganda tilning old (tishlar va lablar) tomonga yoki orqa (tishlardan uzoqlashish) tomonga harakatlanishi tushuniladi. Birinchi tur harakat bilan shakllanadigan tovush til oldi tovushi, ikkinchi tur harakat bilan shakllanadigan tovush til orqa tovushi deyiladi (Bu tovushlarni old qator tovush va orqa qator tovush deb nomlash ham mavjud).

Bu tavsif asosida *i*, *e*, *a* til oldi, *u*, *o*, *ä* til orqa tovushi deb ajratiladi. Bunday ikkiga guruhash ham hodisaga yuzaki yondashishni aks ettiradi. Aslida esa olti ovoz tovush bu belgi jihatidan o'zaro farqlanadi va quyidagicha qatorni tashkil qiladi: *i* – *e* – *a* – *ä* – *o* – *u*. Bu qatorda *i* – eng til oldi tovushi, *u* – eng til orqa tovushi; oradagi tovushlarda old qatorlik belgisidan orqa qatorlik belgisi darajama-daraja almashib, kuchayib boradi. Buni raqam yordamida quyidagicha ko'rsatish mumkin:

$$\begin{array}{cccccc} i & - & e & - & a & - & \ddot{a} & - & o & - & u \\ 0 & - & 0,2 & - & 0,4 & - & 0,6 & - & 0,8 & - & 1 \end{array}$$

Demak, olti ovoz tovush bu tavsif nuqtayi nazaridan pog'onali munosabatga asoslanadigan qatorni hosil etadi, lekin shu asosda ovoz tovushlar yaxlitligicha tuzum (sistema) hosil etishi haqida gapirib bo'lmaydi.

Tilning tik yo'nalishdagi harakat-holati deganda tilning pastki jag' bilan birgalikda pastga tomon tushishi-tushmasligi tushuniladi. Til pastga qancha tushsa, til bilan ustki jag' oralig'i shuncha kengayadi. Ovoz tovush til pastga kuchli darajada tushganda shakllansa, keng tovush deyiladi, til pastga tushmasa, o'z odatdagi holatida bo'lsa, tor tovush deyiladi, tilning pastga tushishi o'rtacha bo'lsa, o'rtacha-keng, o'rtacha-tor tovush deyiladi.

Bu tasnif asosida *i*, *u* tor tovush, *e* o'rtacha-keng, *o* o'rtacha-tor tovush, *a*, *ä* keng tovush deyiladi. Ovoz tovushlarning bu nuqtayi nazar asosida uchga gu-

ruhlanishi yuzaki yondashishni aks ettiradi. Aslida bu jihatni bilan olti tovushning har biri o'zaro farq qiladi.

Tor-kenglik belgisi jihatidan ovoz tovushlar *i* — *u* — *o* — *e* — *ä* — *a* qatorini tashkil qiladi; bu qatorda *i* tovushi — eng tor, *a* tovushi — eng keng tovush, oradagi tovushlar tor holatdan keng holatga bosqichma-bosqich o'tib boradi. Bunday bosqichma-bosqich farqlanish adabiyotlarda *e*, *o* tovushlariga nisbatan *e* o'rta-keng, *o* o'rta-tor deb ta'kidlanadi. Vaholanki eng tor tovushni 0 raqami bilan, eng keng tovushni 1 raqami bilan belgilasak, ovoz tovushlarning bu jihatdan farqi quyidagicha bo'ladi:

<i>i</i> —	<i>u</i> —	<i>o</i> —	<i>e</i> —	<i>ä</i> —	<i>a</i>
0 —	0,2 —	0,3 —	0,8 —	0,9 —	1

Demak, har olti tovush tor-kenglik belgisi jihatidan o'zaro farqlanadi, bu jihatdan ular orasidagi munosabat pog'onali munosabatga teng. Shunday pog'onali munosabat asosida bu olti tovush tizim hosil qiladi, lekin shunday belgi asosida bu olti ovoz tovush yaxlit tuzumni (sisteman) tashkil etadi deb bo'lmaydi.

Olti ovoz tovushga uch nuqtayi nazardan yondashib tuzilgan qatorlarni bir yerga to'plasak, manzara quyidagicha bo'ladi:

Lablarning qatnashish darajasiga	<i>i</i> — <i>e</i> — <i>a</i> — <i>ä</i> — <i>o</i> — <i>u</i>
ko'ra	—

Tilning yotiql yo'nalishdag'i hara-	<i>i</i> — <i>e</i> — <i>a</i> — <i>ä</i> — <i>o</i> — <i>u</i>
katiga ko'ra	—


Tilning tik yo'nalishdag'i haraka-	<i>i</i> — <i>u</i> — <i>o</i> — <i>e</i> — <i>ä</i> — <i>a</i>
tiga ko'ra	—

Ko'rindiki, ikki nuqtayi nazarga ko'ra — lablarning qatnashish darajasiga va tilning yotiql yo'nalishdag'i harakatiga ko'ra ovoz tovushlar ketma-ket bir xil o'rin oladi, chunki bu ikki nuqtayi nazarning negizi bir-biri bilan bog'liq: Til oldga tomon harakatlansa, lablar cho'chchaymaydi, orqaga tomon harakatlansa, lablar cho'chchayadi, masalan, *i*, *u* tovushlarida bo'lgani kabi. Ko'rindiki, yetakchi, hal qiluvchi deb tilning yotiql yo'nalishdag'i harakatini ko'rsatish to'g'ri.

Ovoz tovushlarning tabiatini belgilashda yuqorida tasvirlangan har uch nuqtayi nazardan yondashish hisobga olinishi lozim. Bu belgilardan muhimrog'i tilning har ikki yo'nalishdag'i harakati bo'lib, lablanmagan-lablanganlik belgisi tilning yotiql harakati belgisi bilan birlgilikda voqelanadi.

5- §. Adabiyotlarda hozirgi adabiy o'zbek tilidagi olti ovoz tovush muntazam tuzumni (sisteman) tashkil etadi deb ta'kidlanadi. Yuqoridagi tasvirlardan ayon bo'ladiki, bu olti tovush ikki nuqtayi nazardan (tilning yotiql harakati va lablarning qatnashish darajasiga ko'ra) bir xil tizimni, uchinchi nuqtayi nazarga ko'ra (tilning tik yo'nalishdag'i harakati nuqtayi nazaridan)

esa boshqacha tizimni hosil qiladi. Bularni uchburchakda aks ettirsak, quyidagi manzara voqe bo‘ladi:



Ko‘rinadiki, hozirgi adabiy o‘zbek tilidagi olti ovoz tovush asli tilning tik yo‘nalishdagi harakati (tor-kenglik) belgisiga ko‘ra muntazam tizim hosil qiladi; lekin shu asosda bu olti tovushdan har biri boshqa besh tovushning har biri bilan zidlanish (oppozitsiya) hosil etadi va shunga ko‘ra bu olti tovush bir butun tuzumni (sistemanji) tashkil etadi deyish mumkin emas. Tizim hosil etib turish hali tuzum hosil etish degan so‘z emas. Ayrim adabiyotlarda olti ovoz tovushning har biri boshqa besh tovush bilan oppozitsiya hosil etadi deyilib, quyidagi chizma yordamida ko‘rsatiladi:

$$\begin{array}{cccc} i & \sim & e & \sim \\ i & & i & \\ u & \sim & o & \sim \end{array} \begin{array}{c} a \\ \sim \\ \hat{a} \end{array}$$

Shu chizma asosida  $i \sim u$ ,  $i \sim e$ ,  $e \sim a$ ,  $a \sim \hat{a}$ ,  $u \sim o$ ,  $o \sim \hat{a}$  zidlanishlari mavjudligini ta‘kidlash mumkin, lekin  $e \sim o$  zidlanishi haqida gapirib bo‘lmaydi, chunki bu ikki tovush har uch belgi nuqtayi nazaridan umumiylukka ega emas, butunlay farqli. Demak, ushbu chizmadagi bir halqa ( $e \sim o$ ) uziladi, natijada bir butun tuzum haqida ham gapirib bo‘lmaydi.

Xullas, olti ovoz tovush hozirgi adabiy o‘zbek tilida tizim hosil etadi, shu tizimning a’zolari orasida ichki tuzum tashkil etib turish  $i$  tovushi bilan  $u$  tovushi orasida,  $a$  tovushi bilan  $\hat{a}$  tovushi orasida mavjud: tilimizda  $i$  tovushining  $u$  tovushiga,  $a$  tovushining  $\hat{a}$  tovushiga o‘tish hodisasi bor. Bunday hodisa imlo qoidalarida ham o‘z aksini topgan.

Har bir ovoz tovushning tabiatini yuqoridagi uch jihat (belgi-xususiyat) asosida ochiladi. Masalan,  $i$  tovushi "tordan kengroq, til oldi, eng lablanmaagan tovush" deb sharhanishi lozim. Bunday tavsiflarni ovoz tovushlarning uchburchak chizmasida joylanishiga qarab tuzish mumkin.

Shuni ham alohida ta‘kidlash lozimki, bunday tavsif ovoz tovushlarning tabiatini to‘liq ochib bermaydi. Masalan,  $u$  tovushini tavsiflashda tilning odadagi holatda bo‘lishini, orqa tomonga harakatlanishini, lablarning eng kuchli darajada cho‘chchayishini ta‘kidlashning o‘zi yetarli emas; til va

lablarning bir vaqtning o‘zida harakatlanib, ma'lum holatni egallashini hisobga olish bilan o‘zbek tilining bu ovoz tovushini to‘g‘ri talaffuz qilishga erishilmaydi. Nisbatan aniq tavsifga eksperimental fonetika yordamida erishiladi. Eng ishonchilisi — tovushning o‘zini talaffuz qilib namoyish etish.

Ayrim adabiyotlardagi bir fikrga — ovoz tovushlarni tavsiflashda tilning yotiq yo‘nalishdagi harakati belgisi ahamiyatsiz degan fikrga qat‘iy e’tiroz bildirish lozim. Ovoz tovushlarda (fonema nomi bilan atagan holda) bu belgi asosida zidlanish (oppozitsiya) hosil etish yo‘q deyish haqiqatga to‘g‘ri kelmaydi (Bu haqda fonemaga tavsif berishda to‘xtalamiz).

**6- §.** O‘zbek tilshunosligida hozirgi o‘zbek tilidagi *a* unlisi lablangan yoki lablanmagan tovush ekanligi haqida asossiz munozara bo‘ldi. Eksperimental fonetikada bu tovush lablangan tovush ekani tasdiqlanganiga qaramay *a* tovushini lablanmagan deyish ayrim dialektologik tadqiqotlarda hali ham uchraydi. Tarixan (hozirgi kunda ko‘pchilik turkiy tillarda ham) bu tovush lablanish jihatidan betaraf bo‘lgan, lekin o‘zbek tilining ichki taraqqiyot qonunlari asosida bu indifferent tovush bilan til oldi keng *a* tovushi zidlanishi hozirgi o‘zbek tilida *a* — *ä* zidlanishiga almashgan, indifferent tovush til orqa lablashgan tovushga aylangan. Buni hozirgi o‘zbek tilida *a* tovushining *v*, *q* tovushlari ta’siri bilan *ä* tovushiga o‘tishi qat‘iy tasdiqlaydi.

Hozirgi adabiy o‘zbek tilidagi ovoz tovushlar qisqa-cho‘ziqlik jihatidan betaraf (indifferent). Ovoz tovushlarda cho‘ziqlik qadimgi turkiy tilda paydo bo‘lib, o‘sha davrning o‘zidayoq yo‘qolgan; hozirgi adabiy o‘zbek tilidagi ovoz tovushlarga nisbatan qisqa-cho‘ziqlik belgisi haqida gapirish uchun asos yo‘q. O‘z tabiatiga ko‘ra qisqa bo‘lgan ovoz tovushning nutq oqimi sharoitida cho‘ziqroq talaffuz qilinishi — ikkilamchi, nutqiy hodisa.

Ovoz tovushlar qadimgi turkiy tilda qattiq-yumshoqlik belgisiga ko‘ra juftliklar hosil qilgan: *i* — *i*, *u* — *ü*, *o* — *ö* kabi. Ovoz tovushlarning bunday juftlik hosil etishi ko‘pchilik turkiy tillarda hozir ham mavjud. Hozirgi o‘zbek tiliga bu hodisa, masalan, *bol-* — *böl-* fe’llari orasida, *uch-* fe’li bilan *uch-* sa-noq soni orasida bo‘lgani kabi juz‘iy tarzda yetib kelgan. Ayrim shevalargagina xos bunday zidlanish tuzum sifatida o‘z kuchini yo‘qotgan, shu sababli adabiy tilda inobatga olinmaydi.

### Sh o v q i n t o v u s h l a r

**7- §.** Bu tur tovushlarning aytilishida ovoz psychaulari qatnashmaydi, betaraf turadi. O‘pkadan zarb bilan chiqariladigan havo oqimi og‘iz bo‘shlig‘ida shovqin hosil qiluvchi to‘sinqqa uchraydi, shu to‘sinqqa bog‘liq holda og‘iz bo‘shlig‘i turlicha holat egallaydi va turli tovushlarning shakllanishiga xizmat qiladi.

Hozirgi adabiy o'zbek tilida shovqin tovushlar o'nta: *p*, *f*, *t*, *s*, *ʂ*, *c*, *k*, *q*, *x*, *h*. Bulardan *p*, *f* tovushlarida tovush oralig'i lablarda voqe bo'ladi, shunga ko'ra bular lab tovushi deyiladi. Qolgan sakkiz tovushda tovush oralig'i tilning turli qismi bilan tanglay orasida voqe bo'ladi, shunga ko'ra bu tovushlar til tovushiari deyiladi. Sakkiz tovushdan *h* tovushining shakllanishida bo'g'iz usti bo'shlig'i ham qatnashadi, shunga ko'ra bu tovush bo'g'iz tovushi (aniqrog'i — til-bo'g'iz tovushi) deyiladi; qolgan yetti tovush — sof til tovushlari.

*p*, *f* tovushlari aytilayotganda til odatdag'i holatida bo'ladi, og'iz rezonatoriga ko'ra deyarli farq qilmaydi; *p* tovushida lablar odatdag'i holatida jipslashadi, havo oqimi shu jipslashuvni ochib tashqariga chiqadi, shunga ko'ra bu tovush portlovchi tovush deyiladi; *f* tovushida esa lablar biroz ochiladi va cho'chchayadi, havo oqimi shu oraliqdan sirg'alib tashqariga chiqadi; shunga ko'ra bu tovush sirg'aluvchi tovush deyiladi. Bu ikki lab tovushi o'zaro jiddiy farq qiladi, shunga ko'ra tizim hosil etmaydi.

Asli *f* tovushi — o'zlashtirma tovush; qadimgi turkiy tilda bunday tovush bo'limgan; o'zbek tiliga bu tovush avvallari arab, fors tillaridan o'zlashtirilgan leksemalar tarkibida, keyinchalik rus tilidan o'zlashtirilgan leksemalar tarkibida kirib kelgan.

Shovqin tovushlardan *t*, *s*, *ʂ*, *c* tovushlarida tovush oralig'i tilning old qismida, *q*, *x*, *h* tovushlarida esa tilning orqa qismida voqe bo'ladi, shunga ko'ra bu tovushlar til oldi va til orqa tovushlari deyiladi. Ko'rindiki, shovqin tovush hosil bo'lishida ham tilning old qismi aktivroq.

Til oldi tovushlari tovush oralig'i tilning qaysi nuqtasida paydo bo'lishiga qarab farqlanadi: *t* tovushida bunday oraliq til uchi bilan yuqori tishlar orasida, *s*, *ʂ*, *c* tovushlarida esa til uchi bilan yuqori milk orasida voqe bo'ladi.

Bu tovushlarning artikulatsiyasida ikki a'zoning holati ham farq qiladi: *s*, *ʂ* tovushlarida til oldi yuqori tishlarga yaqinlashadi, havo oqimi shu oraliqdan sirg'alib tashqariga chiqadi; *t* tovushida til oldi yuqori tishlarga, *c* tovushida esa yuqori milkka taqaladi, havo oqimi shu jipslashuvni ochib tashqariga chiqadi; ushbu xususiyatiga ko'ra *s*, *ʂ* tovushlari sirqaluvchi tovush, *t*, *c* tovushlari esa portlovchi tovush deyiladi.

Yana bir farqlanish *t* tovushining sof portlovchi tovush, *s*, *ʂ* tovushlarining sof sirg'aluvchi tovush, *c* tovushining esa qorishiq (portlovchi-sirg'a-luvchi) tovush ekanida namoyon bo'ladi: *c* tovushining tarkibi go'yo *t* tovushi bilan boshlanib, *ʂ* tovushi bilan tugaydi, lekin bu yerda *ts* tovushlari qotishib, yaxlit bir tovushni hosil qiladi.

Bu to'rt shovqin tovush yana bir jihatdan farqlanadi: *t*, *s* tovushlarida til yuzasining ko'tarilishi bir nuqtada bo'ladi, *ʂ*, *c* tovushlarida esa qo'shimcha

4-6489/2

ko'tarilish nuqtasi ham bo'ladi. Shu jihatdan *t*, *s* — bir to'siqli tovushlar, *ş*, *c* — ikki to'siqli tovushlar.

Demak, til oldi shovqin tovushlarga paydo bo'lish o'mniga, paydo bo'lish usuliga, tarkibiga, to'siqning miqdoriga ko'ra tavsif beriladi. Bu to'rt belgi-xususiyatni hisobga olgan holda til oldi shovqinli tovushlarda tuzum hosil etish u yoqda tursin. tizim hosil etish haqida ham gapirib bo'lmaydi; bu to'rt tovushni oddiy sanash, qator qo'yish mumkin xolos.

Shovqinli tovushlardan *k*, *q*, *x* til orqa tovushlari deyiladi. Bularda tovush oralig'i tilning orqa qismi bilan tanglayning orqa qismi orasida bo'ladi. Til oldi tovushlarida bo'lganidek, bu yerda ham tovush oralig'inining o'mni har xil: *k* tovushida bunday oraliq til orqa qismining old tomonida, *q*, *x* tovushlarida esa ort tomonida voqe bo'ladi. Shunga ko'ra *k* tovushi sayoz til orqa tovushi, *q*, *x* tovushlari esa chuqur til orqa tovushi deyiladi. Chuqur til orqalik belgisi *q*, *x* tovushlarida o'zaro farqli.

Bu uch tovushda ikki a'zoning holati quyidagicha: *x* tovushida til tanglayga yaqinlashadi, havo oqimi bu ikki a'zo oralig'idan sirg'alib o'tib tashqariga chiqadi; *k*, *q* tovushlarida esa til tanglayga jipslashadi, havo oqimi shu jipslashuvni ochib tashqariga chiqadi; shu xususiyati asosida *x* sirg'aluvchi tovush, *k*, *q* esa portlovchi tovush deb nomlanadi.

Ko'rindiki, til orqa shovqin tovushlar ikki jihatdan-gina tavsiflanadi. Shunga qaramay bu uch tovush o'zaro tizim hosil etmaydi. Demak, til oldi va til orqa shovqin tovushlar birgalikda ham na tizim, na tuzum hosil etmaydi.

### O v o z l i t o v u s h l a r

**8- §.** Bu tur tovushlarning aytilishida o'pkadan zarb bilan chiqayotgan havo oqimi ovoz psychalarida biroz tebranish hosil qilib o'tadi va og'iz bo'shlig'ida shovqin hosil qiluvchi to'siqqa uchraydi, og'iz rezonatorining turlicha bo'lishi asosida boshqa-boshqa tovush sifatida shakllanadi.

Hozirgi adabiy o'zbek tilida ovozli tovushlar sakkizta: *b*, *v*, *d*, *z*, *j*, *ç*, *g*, *ğ*. Bulardan *b*, *v* lab tovushlari, qolganlari — til tovushlari. Lablarning, tilning, og'iz rezonatorining holati *b* tovushida *p* tovushidagi holatga, *v* tovushida *f* tovushidagi holatga o'xshaydi.

Olti til tovushidan *d*, *z*, *j*, *ç* - til oldi tovushi, *g*, *ğ* — til orqa tovushi. Demak, bu yerda ham tilning old qismi — aktiv.

Tilning qaysi o'mni qaysi a'zo bilan tovush oralig'i hosil etishi *d* tovushida *t* tovushidagi, *z* tovushida *s* tovushidagi, *ç* tovushida *c* tovushidagi, *g* tovushida *k* tovushidagi, *ğ* tovushida *x* tovushidagi holatga o'xshaydi.

Sakkiz tovushdan *b*, *v*, *d*, *z*, *j*, *g*, *ğ* tovushlarida to'siq *p*, *f*, *t*, *s*, *k*, *x* tovushlarida bo'lganidek til yuzasining bir nuqtasida, *ç* tovushida esa *ş*, *c* tovush-

larida bo'lganidek ikki nuqtasida voqe bo'ladi. Demak, bu jihatdan ham *p - b*, *f - v*, *t - d*, *s - z*, *k - g*, *x - ǵ* juftlari o'zaro tizim hosil etadi.

Ko'rinadi, *q*, *h* shovqin tovushlarining ovozli tovush jufti yo'q; demak, bularda tizim munosabati yuzaga kelmagan.

Ayon bo'ladiki, tizim munosabati shovqin tovushlar qatori bilan ovozli tovushlar qatori orasida mavjud; shovqin tovush va ovozli tovushdan iborat olti juftlik bir jihatdan-gina — tarkibida ovozning qatnashmasligi yoki qisman qatnashuvi bilan farqlanuvchi kichik tuzumni (mikrosisteman) tashkil etadi; ovozli eshi yo'qligi sababli *q*, *h* tovushlarida bunday tuzum munosabati yo'q.

### O v o z d o r t o v u s h l a r

**9-** §. Bu tur tovushlarning aytilishida o'pkadan zarb bilan chiqariladigan havo oqimi ovoz paychalarini ovozli tovushlardagidan ko'ra kuchli darajada tebratadi, natijada ovoz shovqindan ustun bo'ladi, og'iz rezonatorining turli holatda bo'lishi asosida boshqa-boshqa tovush sifatida shakllanadi.

Hozirgi adabiy o'zbek tilida ovozdor tovushlar oltida: *y*, *m*, *n*, *ŋ*, *l*, *r*. Bular o'zaro keskin farq qiladi:

1) *y*, *l*, *r* — og'iz tovushlari, tarkibiga ko'ra — sodda, hosil bo'lish usuliga ko'ra *y* — sirg'aluvchi, *l*, *r* — portlovchi, lekin farqli: *l* tovushida til uchi yuqori milkka jipslashib turib ajraladi, shu onda havo oqimi til uchining ikki yonidan o'tib tashqariga chiqadi; oxirgi belgisi asosida *l* yon tovush deyiladi; *r* tovushida esa tilning uchi yuqori milkka tegib titraydi, shunga ko'ra *r* tovushi titroq tovush deb nomlangan.

2) *m*, *n*, *ŋ* tovushlarining artikulatsiyasida burun bo'shlig'i qo'shimcha rezonator sifatida qatnashadi: havo oqimi burun bo'shlig'ida aylanib, og'iz bo'shlig'i orqali tashqariga chiqadi; shunga ko'ra bu uch tovush og'iz-burun tovushi deyiladi. Bu uch tovush hosil bo'lish usuliga ko'ra bir xil, lekin *m* tovushida jipslashuv lablarda, *n* tovushida til oldi bilan yuqori milk orasida, *ŋ* tovushida til oldi bilan tanglayning old qismi orasida voqe bo'ladi. Tarkibi jihatidan *m*, *n* tovushlari — sodda, *ŋ* tovushi murakkab: *ng* tovushlarining qotishmasiga teng.

Ko'rindik, ovozdor tovushlar orasida o'xshashlikdan ko'ra farqlar ko'p, bu tovushlar o'zaro tuzum tashkil qilmaydi; boshqa tur tovushlardan ham keskin farqlanib, ajralib turadi.

**10-** §. Demak, til tovushlari tarkibida ovoz va shovqinning ishtirotiga ko'ra ovoz tovush, shovqin tovush, ovozli tovush, ovozdor tovush turlariga birlashadi. Ovoz tovush tarkibida faqat ovoz, shovqin tovush tarkibida faqat shovqin qatnashadi. Ovozli tovushning asosini shovqin tashkil qilib, biroz ovoz ham qatnashadi; ovozdor tovushda esa ovoz shovqindan ustun bo'ladi.

Tovushlarning shovqin tovush va ovozli tovush turlari hosil bo'lish usuliga ko'ra portlovchi, sirg'aluvchi, qorishiq (portlovchi-sirg'aluvchi) deb uchga guruhlanadi; ovozdor tovushlar ham (y sirg'aluvchisidan tashqari) asli portlovchi tovush bo'lib, har birining o'ziga xos qo'shimcha belgi-xususiyati mavjud.

Bu uch tur tovushlardan beshtasi — lab tovushlari, qolganlari — og'iz tovushlari; og'iz tovushlaridan bittasi — og'iz-bo'g'iz tovushi, uchtasi — og'iz-burun tovushi, qolganlari — sof og'iz tovushlari; og'iz tovushlarining bittasi — til o'rta, beshtasi — til orqa (ikkiasi — sayoz til orqa, uchtasi chuqur til orqa) tovushlari; qolgan ko'pchilik tovushlar — til oldi tovushlari. Ko'rinadiki, tovushlarning hosil bo'lishida tilning old qismi, aniqrog'i — tilning uch qismi aktiv qatnashadi.

Shovqin to'sig'i jihatidan ikki tovushda (j, ş) asosiy to'siqdan tashqari qo'shimcha to'siq ham mavjud.

Tarkibi jihatidan *c*, *ç*, *η* tovushlar qorishiq (ikki tovush qotishmasiga teng: *c* ← *tj*, *ç* ← *dj*, *η* ← *ng*).

Yuqorida berilgan izohlar asosida quyidagicha jadval tuzish mumkin:

Tarkibiga ko'ra	Hosil bo'lish usuliga ko'ra	Ovoz va shovqin- ning ishtiyo- kiga ko'ra	Hosil bo'lish o'mniga ko'ra						og'iz- bo'g'iz tovushi	
			og'iz tovushlari							
			lab tovush- lari	oldi	o'rta	orqa				
sodda	portlovchi	shovqin tovush	p	t	-	k	q	-	og'iz- bo'g'iz tovushi	
		ovozi tovush	b	d	-	g	-	-		
		ovozdor tovush	(m)	(n), l, r	-	-	-	-		
	sirg'aluvchi	shovqin tovush	f	s, [ş]	-	-	x	h		
		ovozi tovush	v	z, [j]	-	-	g̡	-		
		ovozdor tovush	-	-	y	-	-	-		
qorishiq	qorishiq	shovqin tovush	-	c	-	-	-	-	og'iz- bo'g'iz tovushi	
		ovozi tovush	-	ç	-	-	-	-		
		ovozdor tovush	-	(ŋ)	-	-	-	-		

I z o h. Qo'shimcha to'siqli tovushlar o'rta qavslarga, og'iz-burun tovushlari kichik qavslarga olindi.

Ushbu jadvalda aks ettirilgan tovushlar bir butun holda tizim ham, tuzum ham hosil etmasligi ochiq ko'rinib turibdi. Shunga qaramay ikki a'zoli mikrotuzum hosil etuvechi tovushlar mavjud: *p - b, f - v, t - d, s - z, š - j, k - g, x - ġ, c - ç*. Bu juft tovushlar o'zaro bir jihatdan — tarkibida ovoz qatnashmasligi yoki qisman qatnashuvi jihatidan farqlanadi, boshqa belgi-xususiyatlari o'zaro bir xil.

Xullas, hozirgi adabiy o'zbek tilida o'ziga xos sifat belgilariga ega 30ta tovush mavjud bo'lib, bu tovushlar o'zaro o'xhash va farqli tomonlari asosida ichki tizimlar hosil etadi: 6tasi ovoz tovush, 6tasi ovoz dor tovush, 8tasi ovozli tovush, 10tasi shovqin tovush; 8ta ovozli tovush bilan 8ta shovqin tovush ikki a'zoli mikrotuzumlar tashkil etadi.

## LEKSEMALAR TIZIMI

1- §. L e k s e m a — asosiy, birlamchi til birligi bo'lib, til qurilishining lug'at boyligiga mansub; shunga ko'ra lug'at birligi, leksik birlik deb ham yuritiladi. Lug'at boyligidagi leksemalar qatlamini o'rganuvchi sohaga L e k - s e m i k a deyiladi (Adabiyotlarda *leksikologiya* termini ishlataladi).

Leksema lisoniy birlik sifatida miyaning til xotirasi qismidagi ramzga teng; leksemadan foydalanishda ana shu ramzdan nusxa olinadi. Nutqda leksemaning o'zi mustaqil namoyon bo'lmaydi, chunki u butunga emas, qismga teng holatda bo'ladi, sintaktik belgi-xususiyat qo'shilganidan keyin butunga aylanadi. Leksemaning ana shunday qism holatida bo'lishi oxiriga chiziqcha yozib ko'rsatiladi: *nok-*, *pish-*, *shirin-*, *sekin-* — kabi. Masalan, *nok-* leksemasini talaffuz birligi sifatida *nok* tarzida yozsak, leksemani emas, balki lekse-mashaklni ("leksema + birlik son ko'rsatkichi + bosh kelishik ko'rsatkichi"ni) yozgan bo'lamiz. Demak, leksema til xotirasida lisoniy birlik sifatida mavjud bo'ladi, nutqda sintaktik tavsif olib qatnashadi.

Til birligi sifatida leksema ikki jihatning — ifoda jihatining va mazmun jihatining bir butunligidan iborat. Bu ikki jihat ajralmas bir butunni tashkil etishiga qaramay nisbiy mustaqillikka ega: har biri o'z taraqqiyot qonunlari asosida o'zgaradi. Shunga ko'ra leksemaning ifoda jihatni va mazmun jihatni mustaqil bayon qilinadi.

### LEKSEMANING IFODA JIHATI

#### Leksemalarning fonema tarkibi va bo'g'in tuzilishi

2- §. Leksemaning ifoda jihatni deganda avvalo qaysi til tovushlarining qanday tartibdagi qatori bilan ifodalanishi tushuniladi. Leksemaning (shuning-dek morfemaning ham) ifoda jihatni bo'lish vazifasini bajarishi bilan til tovushi fonema mavqeiga ega bo'ladi. Demak, til tovushi — tilning tovushlar tizimiga mansub birlik; fonema — til birligi (leksema, morfema) tarkibida birlamchi qurilish ashyosi vazifasini bajaradigan til tovushi. Fonema — til birligining ifoda jihatni bo'lib xizmat qiladigan va shu orqali til birliklarining o'zaro farqlanishini ham ta'minlaydigan til tovushi.

Fonema til qurilishidagi alohida bir hodisa, alohida birlik emas, balki til qurilishiga mansub tovushlarning ijtimoiy vazifa bajarish holati xolos: til tovushiga ijtimoiy vazifasiga ko'ra fonema nomi berilgan. Afsuski, fonema nazariyasi rivojlangan sari til tovushiga xos artikulyatsion belgi-xususiyatlar ham fonemaga tortib olinib, til tovushi tilning qurilish birligi sifatida umuman gapirilmaydigan, til birligi deb to'g'ridan to'g'ri fonema aytildigani bo'ldi,

"til tovushi" tushunchasi go'yo "fonema" tushunchasiga singdirildi. Aslida til qurilishiga xos birliklar (birlamchi qurilish birliklari) sifatida avvalo til tovushlari tasvirlanadi, keyin-gina shu til tovushlari ijtimoiy vazifasiga ko'ra fonema sifatida o'rganiladi.

Leksemalarning ifoda jihatni dastlab bir bo'g'inli leksemalar bo'yicha bayon qilinadi. Bo'g'inni tasvirlash nuqtayi nazaridan til tovushlari bo'g'in hosil qiladigan va bo'g'in hosil qilmaydigan tovush deb ikkiga ajratiladi. Birinchi turga ovoz tovush kiritilib, *sonant* deb nomlanadi (lot. *sonare* — 'jarangia-'), boshqa tovushlar ikkinchi turga birlashtirilib, *konsonant* deb nomlanadi (lot. *con* — 'birga'). Bo'g'inni tasvirlashda sonantni V harfi bilan, konsonantni C harfi bilan belgilash qabul qilingan [V harfi — *vokal* (lot. *vocalis* — 'ovozi') so'zining bosh harfi].

Bir bo'g'inli leksemalarning ko'pchilik qismida ifoda jihatni bo'lib uch fonema CVC tartibida keladi: *bosh-*, *bo'sh-*, *besh-*, *bo'l-*, *bil-*, *bel-* va b. Ifoda jihatni ikki fonemadan iborat leksemalar oz bo'lib, bular ikki turli: VC, CV; asosan VC turiga to'g'ri keladi: *ish-*, *osh-*, *ot-*, *o't-*, *et-*, *uch-* va b.; CV tur leksemalar juda oz: *ye-*, *de-*. Ifoda jihatni qator keladigan ikki konsonant bilan tugaydigan VCC, (*ust-*, *ort-* kabi), CVCC (*qirq-*, *turt-* kabi) turkiy leksemalar ham sanoqli.

Ifoda jihatni faqat yakka ovoz tovushga teng leksema hozirgi o'zbek tilida yo'q; yakka ovoz tovush bilan ifodalananadigan deb u olmoshini ko'rsatish to'g'ri emas, chunki bu olmosh *ul-*, *un-* shakllarida ham ishlataladi; hatto "to'liqsiz fe'l" deb nomlanuvchi *e-* ham *er-* shaklida uchraydi.

Adabiyotlarda uzoq vaqt "Bir bo'g'inli turkiy so'zlar azalan CVC tuzilishiga ega bo'lgan, VC, CV, V ko'rinishlari CVC ko'rinishi tarkibidagi birinchi, uchinchi, birinchi va uchunchi tovushni (fonemani) tashlash (talaffuz qilmaslik) natijasida yuzaga kelgan" mazmunli fikr hukmron bo'ldi. Tarixiy-etimologik nuqtayi nazaridan yondashish ko'rsatadiki, qadimgi turkiy tilda yakka ovoz tovushning o'zi bilan ifodalangan leksemalar mavjud bo'lgan. Masalan, qadimgi turkiy tilda 'uyqu' ma'nosini anglatuvchi *u-* leksemasi mavjud bo'lgan; *yog'och* leksemasi asli 'o'simlik' ma'nosini anglatgan *i-* leksemasidan yasalgan va b. ("O'zbek tilining etimologik lug'ati"ga qarang).

Fonema tarkibi VC ko'rinishli leksemalar qadimgi turkiy tilda 200dan ortiq bo'lgan; shu qadar ko'p leksemalar boshlanishidagi tovush tashlangan deyish mutlaqo mumkin emas.

Xullas, hozirgi adabiy o'zbek tilidagi bir bo'g'inli turkiy leksemalar CVC, VC, CV, VCC, CVCC ifoda jihatiga ega. Bunday leksemalar hozirgi o'zbek tili nuqtayi nazaridan tub deb qaraladi, shunga ko'ra ularning ifoda jihatni deb tarkibida qatnashuvchi fonemalar to'g'ridan to'g'ri ko'rsatiladi. Tarixan yondashilsa, manzara o'zgaradi: hozirgi o'zbek tili nuqtayi nazaridan

tub deb qaraladigan leksema asli yasama bo'lib chiqishi mumkin. Masalan, *til-* ot leksemasi asli 'gapir-' ma'nosini anglatuvchi *ti-* fe'lidan leksema yasovchi *-l* qo'shimchasi bilan, *bek-* sifat leksemasi asli 'mustahkam holatda bo'l-' ma'nosini anglatgan *be-* fe'lidan leksema yasovchi *-k* qo'shimchasi bilan, *yo'q-* inkor leksemasi asli 'yo'q qil-', 'emir-' ma'nosini anglatgan *yo:-* fe'lidan *-q* qo'shimchasi bilan yasalgan va b. ("O'zbek tilining etimologik lug'ati"ga qarang).

Yuqoridagi misollardan birinchi xulosa shuki, CVC tuzilishli leksemalarning barchasi azalan tub bo'lmagan; ikkinchi xulosa shuki, asli yasama (hosila) bo'lgan leksemalarda ularning ifoda jihatni deb fonemalar qatorini ko'rsatish hozirgi o'zbek tili nuqtayi nazaridan-gina o'rinni, tarixan, masalan, *til-* leksemasi oldin tarkib toptiruvchilarga *ti-* va *-l* tarzida ajratilib, keyin-gina bu ikki qismdan har birining ifoda jihatni deb fonemalarni ko'rsatish lozim.

Hozirgi adabiy o'zbek tilidagi turkiy leksemalar, shu jumladan bir bo'g'inlilar ham, qator joylashgan ikki konsonant bilan boshlanmaydi. Bunday leksemalar oxiri ham asli qator kelgan ikki konsonant bilan tugamaydi. *Ost-, ust-, ort-, old-, qayt-* kabi sanoqli leksemalar oxiridagi tovush tarixan keyin qo'shilgan qism bo'lib chiqadi. Masalan, *ort-* fe'li asli 'elka' ma'nosini anglatgan *ar-* leksemasidan *-it* qo'shimchasi bilan yasalgan, keyinchalik ikkinchi bo'g'indagi tor i tovushi talaffuz qilinmay qo'ygan, natijada qator ikki konsonantli holat yuzaga kelgan: *ar- + it = arit > art- > ärt-* ('yukla-'); *ost-* ot asli 'tag' ma'nosini anglatgan *as-* leksemasidan 'o'rinni' ma'nosini ifodalagan *-t* qo'shimchasi bilan hosil qilingan, natijada qator ikki konsonantli holat yuzaga kelgan va b. ("O'zbek tilining etimologik lug'ati"ga qarang).

Hozirgi adabiy o'zbek tilidagi turkiy leksemalar *f*, *h*, *ng* (*nj*), sirg'aluvchi *j* fonemalari bilan boshlanmaydi. Bu fonemalardan *n* turkiy bo'lib, asosan leksemaning oxirida (*keng* kabi), qisman ichida (*singil-* kabi) keladi; *f*, sirg'aluvchi *j* fonemalari asli turkiy bo'lmay, o'zbek tiliga boshqa tillardan olingan leksemalar tarkibida kirib kelgan, shu sababli o'zbekcha leksemalar boshlanishida uchramaydi; *h* tovushi *han-* tasvir birligi va undan yasalgan *hani-*, *hanra-* leksemalari boshlanishida qatnashadi; *had-*, *hovuch-*, *hori-*, *hur-* ('vovulla-'), *hurk-*, *ho'kiz-*, *ho'l* turkiy leksemalari boshlanishidagi *h* tovushi azaldan mavjud bo'lmay, keyinchalik orttirilgan ("O'zbek tilining etimologik lug'ati"ga qarang).

3- §. Bir bo'g'inli leksema yakka ovoz tovush bilan ifodalansa, shu tovushning o'zi bo'g'in hosil etadi, lekin bunday leksema hozirgi o'zbek tilida yo'q. CVC, VC, CV, VCC, CVCC tarkibli leksemalarda uch, ikki, to'rt tovushni bir fonetik cho'qqi bilan birlashtirish zaruriyat mavjud. Bunday tarkibdagi tovushlardan biri — sonant, boshqalari — konsonant bo'ladi; konsonant odatda sonant yordamida, ovoz tovush bilan birgalikda talaffuz qili-

nadi. Shunga ko'ra bo'g'in hosil etuvchi deb, leksemani fonetik jihatdan yaxlitlovchi deb ovoz tovushga aytildi, bo'g'inning fonetik cho'qqisi shu ovoz tovush ustiga to'g'ri keladi:

     - kabi.

Tub leksemalar (shuningdek hozirgi o'zbek tili nuqtayi nazaridan tub deb qaraladigan leksemalar) orasida ikki bo'g'inlilar anchagina. Bunday leksemalarda bo'g'inning qanday tovush bilan tugashi va boshlanishi asosida ajratiladigan turlari ham hisobga olinadi, chunki shu jihatdan har bir til (til oilasi) o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'ladi.

Bo'g'in ovoz tovush bilan tugasa, ochiq bo'g'in, boshqa tur tovush bilan tugasa, yopiq bo'g'in deyiladi; bo'g'lnarning V, CV turlari — ochiq bo'g'in, VC, CVC, CVCC turlari — yopiq bo'g'in.

Bo'g'in qanday tovush bilan boshlanishiga qarab ham ikki xil: ovoz tovush bilan boshlansa, noberk bo'g'in, boshqa tur tovush bilan boshlansa, berk bo'g'in deyiladi.

Bu ikki xil yondashuvni birlashtirib, bo'g'lnarning V turi noberk ochiq bo'g'in, VC, VCC turlari noberk yopiq bo'g'in, CV turi berk ochiq bo'g'in, CVC, CVCC turlari berk yopiq bo'g'in deyiladi.

"O'zbek tili etimologik lug'ati"ning *a*, *b* harflari qismidagi ikki bo'g'inli leksemalar bo'g'in tuzilishi jihatidan quyidagicha:


- 1) "berk ochiq + berk yopiq" (28ta): *baqir-*, *beshik-*, *bigiz-*, *bog'ich-*, *bujur-*, *huqoq-*, *bo'ron-*, *bo'g'ot-* kabi;
- 2) "berk ochiq + berk ochiq" (15): *baqa-*, *bela-*, *bobo-*, *bula-*, *bo'ka-* kabi;
- 3) "berk yopiq + berk yopiq" (15): *barmoq-*, *boldiz-*, *bosqon-*, *bujs'un-*, *buyrak-*, *burgut-* kabi;
- 4) "berk yopiq + berk ochiq" (10): *balqi-*, *boshqa-*, *burqi-*, *burg'i-*, *bo'xcha-* kabi;
- 5) "noberk yopiq + berk ochiq" (8): *avra-*, *ayna-*, *ayri-*, *alda-*, *alla-* kabi;
- 6) "noberk ochiq + berk yopiq" (7): *adash-*, *ayil-*, *ayiq-*, *ariq-* kabi;
- 7) "noberk yopiq + berk yopiq" (7): *ajrim-*, *ajriq-*, *ayg'ir-*, *arqon-*, *ach-chiq-* kabi;
- 8) "noberk ochiq + berk ochiq" (3): *aka-*, *api-*, *achi-*.

Yuqoridagi tasvirdan xulosa shuki, 1) noberk bo'g'in (ovoz tovush bilan boshlanadigan bo'g'in) oz; shunday bo'lishi tabiiy, chunki ovoz tovushlar tovushlar tizimining beshdan biriga to'g'ri keladi; 2) ikkinchi va keyingi

bo'g'in turkiy leksemalarda noberk (ovoz tovush bilan boshlanadigan) bo'g'in bo'Imaydi; 3) ko'pchilik leksemalarda birinchi bo'g'in — ochiq, ikkinchi bo'g'in — yopiq va b.

Ikki bo'g'inli leksemalarda ovoz tovushlarning bo'g'inlar bo'yicha qatnashuvida ham ma'lum qonuniyat mavjud: *e*, *o'* tovushlari ikkinchi (va keyingi) bo'g'inda kelmaydi; ikkinchi (oxirgi) ochiq bo'g'in odatda *u*, *o* (*ä*) tovushi bilan tugamaydi va b.

Leksema ikki bo'g'inli bo'lganida ular bir fonetik cho'qqiga birlashadi, bu vazifa ikkinchi bo'g'inning fonetik cho'qqisiga yuklanadi:



Bo'g'in — sof fonetik tushuncha: nutq oqimidagi eng kichik talaffuz birligi. Talaffuzga mansub bo'g'in tushunchasidan bu yerda leksemalarning ifoda jihatini tasvirlashda foydalaniildi.

### **Leksemalar tarkibida voqe bo'ladigan tovush jarayonlari, allofonema va alloleksema haqida**

1- §. Leksemalarning ifoda jihatida sodir bo'ladigan tovush o'zgarishlari o'zbek tili bo'yicha yetarli o'rganilmagan. Bu yerda ushbu murakkab masalalarning ayrim tomonlari to'g'risida mulohaza yuritiladi.

Leksemaning tovush tarkibida sodir bo'ladigan o'zgarishlar qanchalik murakkab ekani quyidagi leksemalar tahlilida ochiq ko'rindi.

*Ign-a-* leksemasi asli *yigina-* tovush tarkibiga ega bo'lgan va qadimgi turkiy tildayoq ikkinchi bo'g'inidagi tor ovoz tovush talaffuz qilinmay *yigna-* shakli yuzaga kelgan. Uch bo'g'inli leksemaning ikkinchi bo'g'inidagi tor ovoz tovushini talaffuz qilmaslik va shu usul bilan bunday leksemani ikki bo'g'inli leksemaga aylantirish (til iqtisodiyoti qonuni) — o'zbek tiliga tarixan mansub bo'lib, hozirgi tilda ham qisman amalda.

*Yigna-* shakli bu leksemaning asliga eng yaqin, lekin hozirgi o'zbek tilida bu shakl so'zlashuv tiliga xos deb belgilangan (O'TIL, I, 347): asli *igna-* va *niyna-* shakllari — ikkilamchi shakllar bo'lib, leksema boshlanishidagi *y* tovushini tashlash bilan va *y* tovushini *n* tovushiga, *g* tovushini *y* tovushiga almashtirish bilan yuzaga kelgan. Bu shakllar hozirgi o'zbek tili uchun adabiy shakl deb ko'rsatiladi ("Imlo lug'ati", 2003, 82).

*Niyna-* shakli O'TILga *nina-* shaklida xato yozib kiritilgan (I, 503). Asli *niyna-* shakli *yiyna-* shakli boshlanishidagi *y* tovushini *n* tovushiga almashtirib hosil qilingan (*yiyna-* shakli izohli lug'atda berilmagan). Bu leksemaning

*igna-* shakli tarkibidagi *g* tovushini *y* tovushiga almashtirib hosil qilingan *iyna-* shakli ham bor.

Xullas, *nina-* shaklini xato yozilgan shakl deb hisobdan chiqarsak, *yigna-* shaklini bu leksemaning tarixiy tovush tarkibiga eng yaqin, lekin hozirgi o'zbek tilida so'zlashuv tiliga xos shakl deb qarab nazardan soqit qilsak, *igna-* va *niyna-* shakkari qoladi. *Niyna-* shakli to'g'ridan to'g'ri *igna-* shaklidan hosil qilinmagan; oldin *yigna-* shakli tarkibidagi *g* tovushi *y* tovushi ta'sirida *y* tovushiga almashtigan, keyin bu *y* tovushi *n* tovushi ta'sirida *n* tovushiga almashtigan: *yigna-* → *yiyna-* → *niyna-*.

Qanday bo'lmasin, hozirgi adabiy o'zbek tili nuqtayi nazaridan bu leksemaning *igna-* va *niyna-* shakkariда *g* → *y* tovush almashtinuvi voqe bo'ladi. Shu asosda *g* va *y* tovushlarini birlashtiruvchi *g* fonemasi haqida, bu fone maning *g* (asosiy) va *y* (ikkilamchi) allofonemalari haqida gapirish mumkin, chunki ayni bir leksema saqlangani holda uning tarkibidagi bir fonema ikki allofonema sifatida namoyon bo'ladi: *igna-* → *iyna-* (→ *niyna-*).

Bu misolda *g* fonemasining *g* va *y* allofonemalari ushbu leksemaning ikki tovush ko'rinishida — alloleksemalarda yuzaga keladi. Demak, allofonemalar yolg'iz o'zicha emas, balki til birligi tarkibida (bu yerda — leksema tarkibida) voqe bo'ladi.

Tojikcha *nabera-* leksemasi (TjRS, 251) o'zbek tiliga ikkir.chi bo'g'inidagi *e* tovushini *i* tovushiga almashtirish bilan o'zbekchalaştirib olin-gan, chunki o'zbek tilida *e* tovushi leksemaning faqat birinchi bo'g'inida keladi: *nabera-* → *nabira-*. Keyinchalik *b* tovushi *v* tovushiga, ayni vaqtida *i* tovushi *a* tovushiga almashtirilgan: *nabira-* → *navara-*; shundan keyin *navara-* shaklining birinchi bo'g'inidagi *a* tovushi *e* tovushiga almashtirilgan: *navara-* → *nevara-*. *Nevara-* shaklida *a* tovushining *e* tovushiga almashtirilishi *chevara* leksemasi ta'sirida voqe bo'lgan deyish mumkin: *nevara-* — *chevara-*.

Bu misolda ikki xil tovush almashuvi voqe bo'ladi: 1) *b* tovushi *v* tovushiga, 2) *i* tovushi *a* tovushiga, birinchi bo'g'indagi *a* tovushi aksincha *e* tovushiga almashtadi. Birinchi bo'g'indagi *a* tovushining *e* tovushiga almashu-vini tashqi (tasodifiy) ta'sir natijasi deb nazardan soqit qilish mumkin, lekin *b* tovushining *v* tovushiga almashtinuvi o'zbek tilida mavjud tovush o'zgarishlari qoidalariqa muvofiq voqe bo'ladi: ovoz tovushlar oralig'ida *b* portlovchi tovushi *v* sirg'aluvchi tovushiga almashtadi; ikkinchi bo'g'indagi *i* tovushining *a* tovushiga almashuvi birinchi, uchinchi bo'g'indagi *a* tovushlari ta'sirida voqe bo'lgan deyish mumkin.

Qanday bo'lmasin, bu leksema misolda *b* fonemasi va uning *b*, *v* allofonemalari namoyon bo'ladi va bu allofonemalar ushbu leksemaning *nabira-* va *nevara-* alloleksemalarida yuzaga keladi. Albatta, *b* → *v* almashuvi bilan birlgilikda voqe bo'lgan *i* → *a* almashuvi ham hisobga olinishi kerak, lekin

bunday tovush almashuvi ma'lum qoida asosida yuz beradi deyish qiyin; shunga ko'ra tashqi ta'sir asosidagi almashuv deb baholash mumkin.

*Do 'mbay-* leksemasi hozirgi o'zbek tilida *do 'mpay-*, *do 'ppay-*, *to 'mpay-*, *to 'ppay-* shakllarida ham ishlataladi. Bu besh aloleksema O'TILga teng huquqli tarzda, birortasi ham so'zlashuv tiliga xos deb belgilanmay kiritilgan. Bosh aloleksema *do 'mbay-* bo'lib, undan hosilalar ikki chiziqqa birlashadi: 1) *do 'mbay-* → *do 'mpay-* → *do 'ppay-*, 2) *do 'mbay-* → *to 'mpay-* → *to 'ppay-*.

Birinchi chiziqdida oldin *b* tovushi *p* tovushiga, keyin *m* tovushi ham *p* tovushiga almashadi. Bu yerdagi tovush almashuvi leksema ichidagi yonmayon tovushlarning o'zaro ta'siri natijasida yuz beradi: *mb* → *mp*, *mp* → *pp*.

Ikkinci chiziqdida oldin leksema boshlanishidagi *d* tovushi *t* tovushiga, leksema ichidagi *b* tovushi *m* tovushiga, keyin *m* tovushi *p* tovushiga almashadi. Leksema boshlanishida jarangsizlanish (ovozsizlanish) voqe bo'ladi. Leksemaning ichida esa tovush almashinuvi yonma-yon tovushlarning o'zaro ta'siri natijasida yuz beradi: *d* → *t*, *mb* → *mp*, *mp* → *pp*.

Ko'rindiki, leksema ichidagi tovush almashinuvi har ikki chiziqdada bir xil.

Bu leksemaning aloleksemalarida *d* fonemasining *d* (asosiy) va *t* (ikki-lamchi) allofonemalari, *b* fonemasining *b* (asosiy) va *p* (ikkilamchi) allofonemalari namoyon bo'ladi. Bu misolda *m* tovushining *p* tovushiga almashuvi ikkinchi bosqichda voqe bo'ladi: *mb* → *mp* → *pp*.

Yuqorida tahlil qilingan uch leksemada *d* fonemasining *d* va *t* allofone malari, *g* fonemasining *g* sa *y* allofonemalari, *b* fonemasining *b*, *v*, *p* allofonemalari ushbu leksemalarning aloleksemalarini tarkibida namoyon bo'ladi.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, *d* va *t* tovushlari o'zbek tilining tovushlar tizimidagi ikki mustaqil tovush va har biri o'z o'mida leksemalarning ifoda jihatni bo'lib xizmat qiladi, shunga ko'ra ikki mustaqil fonemaga teng; lekin bu yerdagi tovush almashinuvida *t* tovushi *d* fonemasining ikkilamchi allofonemasi tarzida, *d* fonemasi tarkibidagi *d* - *t* zanjirining halqasi sifatida namoyon bo'ladi. Bu fikrni yuqorida tasvirlangan boshqa tovushlarga nisbatan ham takrorlash mumkin.

Leksemalar tahlili davom ettirilsa, boshqa fonemalar va ularning allofonemalari ham namoyon bo'ladi.

Yuqorida tasvirlangan aloleksemalar adabiy tilga mansub deb qaraladi. Bulardan ko'ra leksemalarning adabiy tilga va so'zlashuv tiliga mansub aloleksemalari ko'p bo'lib, bular alohida o'rganilishi lozim. Quyida "Imlo qoidalari"da "adabiy" deb aks ettirilgan hodisalarning leksemaga doir qismini tasvirlaymiz.

"Imlo qoidalari"ning 8- paragrafida leksema oxirida keladigan *b* tovushining *p* tarzida talaffuz qilinishi aytilgan: *ertalab* (yozilishi) — *ertalap*

(aytilishi). Leksemaning ma'lum bir qismida (bu yerda — oxirida) voqe bo'lgani sababli bunday tovush o'zgarishi odatda *pozitsion tovush o'zgarishi* deyiladi (lot. *positio* — 'o'rinishish'). Asli boshqa tovush o'zgarishlari ham ma'lum pozitsiyada voqe bo'ladi. Shunga ko'ra yuqoridagi tur tovush o'zgarishi asli *spontan tovush o'zgarishi* deb atalgani to'g'riroq (lot. *spontaneus* — 'o'z-o'zicha'). Ushbu tur misollarda *b* fonemasining *b* (asosiy) va *p* (ikkilamchi) allofonemalari namoyon bo'ladi.

Yuqoridagi kabi tovush o'zgarishi leksema oxirida keladigan *d* fonemasida ham voqe bo'ladi ("Imlo qoidalari"ning 13- paragrafida aks ettirilgan): *marvarid* (yozilishi) — *marvarit* (aytilishi). Bu tur leksemalarda *d* fonemasining *d* (asosiy) va *t* (ikkilamchi) allofonemalari namoyon bo'ladi.

Yuqorida tasvirlangan har ikki fonemada voqe bo'ladigan tovush o'zgarishida ovozli tovush shovqin tovushga almashadi (ovozsizlanish voqe bo'ladi).

Ovozli tovush bilan shovqin tovush juftliklari hozirgi o'zbek tilida sak-kizta, lekin leksema oxiridagi ovozli tovushning ovozsizlanishi faqat *b*, *d* tovushlarida voqe bo'ladi: turkiy leksema oxirida keladigan *v*, *z*, *j*, *ç*, *g*, *g'* ovozli tovushlari ovozsizlanmaydi (*reakтив* — *reaktif* kabi tovush o'zgarishi o'zbek tiliga emas, balki xorijiy tilga xos).

Qayta-qayta ta'kidlash lozim fikr shuki, fonemaning allofonemalari til birligining (bu yerda — leksemaning) tarkibida, aniqrog'i — alloleksemalar tarkibida yuzaga keladi. Fonema mustaqil til birligi emas, balki til birligiga ifoda jihatni bo'lib xizmat qiladigan birlik, shunga ko'ra fonema til birligining, bu yerda — leksemaning tarkibiy qismi sifatida mavjud, allofonemalar ham til birligining (alloleksemalarning) tarkibiy qismi sifatida paydo bo'ladi.

Allofonemalar bir fonemaning boshqa fonemaga almashinuv bilan voqe bo'ladi deyish noto'g'ri; bu yerda asli bir fonemaning allofonemalari boshqa-boshqa til tovushi bilan ifodalanishi haqida, bir fonemaning tovush ifodasiga ko'ra farqli ko'rinishlari haqida gapirish lozim.

Yuqorida fonemaga berilgan dastlabgi ta'rif allofonemalarni hisobga olgan holda quyidagicha tuzilishi kerak: Til birliklarining ifoda jihatni bo'lib keluvchi va shu asosda til birliklarini o'zaro farqlashga xizmat qiluvchi til tovushlari zanjiriga *fonema* deyiladi.

**2- §. Allofonemalar til taraqqiyotining ma'lum bir bosqichi doirasida belgilanadi;** til taraqqiyotining turli bosqichlariga mansub tovush o'zgarishlari allofonemalar deb qaralmaydi. Masalan, *yigina-* — *yigna-* misolida ikkinchi bo'g'indagi *i* tovushining talaffuz qilinmay qo'yilishi til taraqqiyotining oldingi bosqichida sodir bo'lgan, demak, o'sha davr nuqtayi nazaridan baholanganadi.

Til taraqqiyotining ayni bir bosqichida sodir bo'ladigan har qanday tovush o'zgarishlariga allofonemalar deyilmaydi. Jumladan, o'zgarish bir

tovushning o'zi doirasida voqe bo'lsa, bularga fonemaning variatsiyasi (tovlanishi) deyiladi. Masalan, hozirgi o'zbek tilidagi *i* fonemasi ikki konsonant oralig'ida o'ta qisqa, leksema boshlanishida va leksema ichidagi ochiq bo'g'inda biroz cho'ziqroq, leksema oxiridagi ochiq bo'g'inda esa 'e'ga moyilroq talaffuz qilinadi, lekin bularning barchasida ayni bir tovush asosi saqlanadi; shunga ko'ra bunday talaffuzlar allofonemalar emas, balki bir fonemaning tovianishi deyiladi: *bir, ikki, ikkinchi kabi*.

Shuningdek, ovoz tovushning til orqa konsonant ta'sirida ortqiroq talaffuz qilinishi ham fonemaning tovlanishi deyiladi, chunki bu yerda ham tovush asosi saqlanadi. Masalan, *a* ovoz tovushi til orqa *x* tovushi ta'sirida ortqiroq talaffuz qilinadi: *xat-*, *taxt-* kabi; lekin bunday o'zgarishda ayni bir tovush asosi saqlanadi, shunga ko'ra allofonemalar voqe bo'lmaydi.

Umurnan tovush jarayonlari turli-tuman bo'lib (Bular haqida muntazam ma'lumot "Tilshunoslikka kirish" kursida bayon qilinadi), ularning barchasiga nisbatan allofonemalar haqida (fonemaning tovlanishi haqida ham) gapirib bo'lmaydi. Jumladan, jonli so'zlashuvda o'ta murakkab tovush o'zgarishlari juda ko'p sodir bo'ladi. Masalan, Toshkent shevasida *nima qilayotibdi* lekse-mashakli *maqivotti* tarzida talaffuz qilinadi. Bunday murakkab tovush o'zgarishiga nisbatan allofonema haqida gapirib bo'lmaydi.

Manbalarda tasvirlanadigan tovush jarayonlaridan metateza hodisasida asli tovush o'zgarmaydi, balki o'rin almashadi (yunoncha *metathesis* – 'o'rin almashtirish'); demak, metateza tufaydi allofonemalar yuzaga kelmaydi, lekin alloleksemalar yuzaga keladi. Hozirgi o'zbek tilida adabiy til bilan so'zlashuv tili orasida quyidagi kabi metateza uchraydi: *tuproq-* (adabiy) – *turpoq-* (so'zlashuv tiliga xos), *qirg'iy-* (adabiy) – *qiyg'ir-* (so'zlashuv tiliga xos), *o'lcha-* (adabiy) – *o'chlal-* (so'zlashuv tiliga xos) kabi. Bu misollarda so'zlashuv tili shakli – ikkilamchi. Quyidagi misollarda adabiy til shakli ikkilamchi: *o'rgan-* (adabiy) – *o'gran-* (so'zlashuv tiliga xos), *kiprik-* (adabiy) – *kirpik-* (so'zlashuv tiliga xos), *termil-* (adabiy) – *telmir-* (so'zlashuv tiliga xos).

Tovush orttirish hodisasiga nisbatan ham allofonema haqida gapirish o'rini emas. Hozirgi adabiy o'zbek tilida leksema tarkibiga tovush qo'shish bilan hosil bo'ladigan alloleksemalar, shularda namoyon bo'ladigan allofonemalar deyarli yo'q. Bunday alloleksemalar, allofonemalar asosan adabiy til bilan so'zlashuv tili orasida voqe bo'ladi. Masalan, *qoida-*, *toifa-* kabi arabcha so'zlar adabiy tilda shu shaklida talaffuz qilinadi, lekin so'zlashuv tilida *oi* tovushlari oralig'iga y tovushi qo'shib aytildi; lekin bu ortirma tovush tu-fayli voqe bo'ladigan *i* – *yi* munosabatini allofonemalar deb talqin qilish to'g'ri emas.

Tovushning qatlanishini ham asli allofonema deb baholash to'g'ri bo'lmaydi. Masalan, *isi-* + *q* = *isiq* > *issiq-* kabilarda ss tovushlarini s fone-masining allofonemasi deb bo'lmaydi.

Leksema tarkibida qator kelgan ikki konsonant tovushdan birining tash-lanishi ham allofonemalarni yuzaga keltirmaydi; asli bunday tovush tashlash so'zlashuv tilida voqe bo'ladi: *to'rt-* — *to'r-*, *do'st-* — *do's-*, *baland-* — *balan-kabi*.

Xullas, aloleksemalar, ayni vaqtida allofonemalar asosan leksemalar tarkibidagi bir tovushni ikkinchi bir tovushga almashtirish natijasida yuzaga keladi (Misollari yuqoriroqda).

## IFODA JIHATI TUB VA HOSILA LEKSEMALAR

1- §. Leksemalarning ifoda jihatiga oid masalalardan biri — ularning tub yoki hosila ekanligi.

Leksemani tub deb belgilash — nisbiy tushuncha. Hozirgi til nuqtayi nazaridan tub deb qaraladigan leksemalarning ko'pi asli hosila leksema bo'lib, ular tarkib toptiruvchi ma'noli qismlarga faqat hozirgi til nuqtayi nazaridan ajratilmaydi. Masalan, *bosh-* leksemasi tarixan ham, hozirgi o'zbek tilida ham ma'noli qismlarga ajratilmaydi, shunga ko'ra aslan tub leksema deyiladi. *Boshqa-* leksemasi esa hozirgi o'zbek tili nuqtayi nazaridan tub deb qaraladi; aslida bu leksema tarixan *bash-* leksemasining 'ajralib turuvchi' ma'nosidan -*(i)q* qo'shimchasi bilan yasalgan *bashiq-* fe'lidan -*a* qo'shimchasi bilan yasal-gan sifat bo'lib, hozirgi o'zbek tilida bunday ma'noli qismlarga ajratilmaydi: (*bash-* + *iq* = *bashiq-*) + -*a* = *bashiqa-* > *bashqa-* > *bāshqa-* (Bu leksema tarkibini *bosh* + *qa* tarzida izohlash to'g'ri emas).

Asli qandayligidan qat'i nazar, hozirgi tilda tub deb qaraladigan lekse-malarning ifoda jihatni deb ular tarkibidagi tovushlar (fonemalar) ta'kidlanadi. Hosila leksemalarda esa ularning ifoda jihatni deb to'g'ridan to'g'ri tovushlarni (fonemalarni) aytish o'rinni emas. Masadan, *yaxshi-* leksemasi asli hosila lek-sema bo'lib, hozirgi o'zbek tilida tub deb qaraladi, shunga ko'ra uning ifoda jihatni deb to'g'ridan to'g'ri *y*, *a*, *x*, *sh*, *i* tovushlari (fonemalari) ko'rsatiladi. Shu leksemadan hosil qilingan *yaxshilik* leksemasida uning ifoda jihatni deb to'g'ridan to'g'ri tarkibidagi sakkiz tovushni (fonemani) ko'rsatish o'rinni emas, chunki bu leksema *yaxshi-* va -*lik* ma'noli qismlaridan tarkib topgan.

Demak, hozirgi o'zbek tilida hosila deb qaraladigan leksik birlik dastlab ma'noli qismlarga ajratiladi, ifoda jihatni deb avval shunday ma'noli qismlar ta'kidlanadi, keyin-gina har bir tub ma'noli qismning o'ziga nisbatan ifoda ji-hati deb tovush (fonema) ko'rsatiladi.

2- §. Hosila leksemalar turlicha yuzaga keladi: leksema yasaladi, leksema tuziladi, leksemaga aylanish voqe bo'ladi.

Mavjud leksemaga qo'shimcha qo'shib hosil qilingan leksema *yasama leksema* deyiladi. Bunda leksema qo'shimchaga nisbatan leksema yasalish asosi, qo'shimcha esa leksema yasovchi, hosila — yasalma, yasama leksema deyiladi. Masalan, *hikoyachi-* yasama leksemada *hikoya-* — leksema yasalish asosi, *-chi* esa — leksema yasovchi.

Leksema yasash vazifasini bajaradigan qo'shimcha leksema yasovchi affiks deyiladi (lot. *affixus* — 'biriktirilgan'). O'zbek tilidagi leksema yasovchi affikslar yasalish asosi bo'lib kelgan leksemaning ketiga qo'shiladi, shunga ko'ra leksema yasovchi suffiks deyiladi (<lot. *suffixus* — 'yoniga biriktirilgan'): *ish-* + *-chi* = *ishchi-*, *ish-* + *-chan* = *ishchan-*, *ish-* + *-la* = *ishla-* kabi:

( I SH - + - L A ) -	
leksema, ot leksema	leksema yasovchi,
leksema yasalish asosi	affiks (suffiks), fe'l leksema yasovchi
yasama leksema,	fe'l leksema

Boshqa tildan olingen leksemalar tarkibida kirib kelib, o'zbek tili manbaida ham leksema yasash vazifasini bajaradigan ayrim old qo'shimchalar — prefikslar mavjud (lot. *praefixum* <*prae* — 'oldida' + *fixus* 'biriktirilgan'). Masalan, hozirgi o'zbek tiliga tojik tilidan olingen leksemalar orasida *ha-*, *be-*, *no-*, *ser-* prefikslari bilan yasalgan leksemalar anchagini. Bulardan *be-*, *no-*, *ser-* prefikslari bir qancha o'zbekcha leksemalarga ham qo'shilib keladi, demak, o'zbek tilida leksema yasash vazifasini bajaradi: *notanish-*, *notinch-*, *noto'g'ri-*, *noo'rin-*, *noqulay-*; *bebosh-*, *betinim-*, *bechiqim-*; *serajin-*, *serildiz-*, *sertuk-*, *serunum-*, *serqatnov-* kabi; *ha-* prefiksida esa o'zbekcha leksemalarga qo'shilib yangi leksema yasash xususiyati deyarli yo'q.

3- §. Leksemani yasama leksema deyish uchun uning tarkibida yasalish asosi bo'lib kelgan leksema ham, yasovchi affiks ham hozirgi o'zbek tilida aniq ajralib turishi, yasalish asosi mustaqil leksema mavqeiga ega bo'lishi, boshqa yasama leksemalarga ham asos sifatida xizmat qilishi, affiks ham shunday xususiyatlarga ega bo'lishi lozim. Masalan, *ishchi-*, *ishchan-*, *notanish-*, *serildiz-*, *bechiqim-* kabi leksemalar tarkibida yasalish asosi bo'lib kelgan leksemaga va yasovchi affiksga (suffifiksga, prefiksga) aniq ajralib turadi; shunday leksemalarga qiyosan *beandisha-*, *bearmon-*, *serfarzand-*, *sergap-*, *serhosil-*, *noumid-*, *noqobil-* kabi yasalish asosi va yasovchi affiksi o'zbekcha bo'lmagan leksemalar ham ma'noli qismlarga ajratiladi, yasama leksema deyiladi, demak, bunday leksemalarda ham leksema yasalish tahlili amalga oshiriladi:

## ( S E R - + H O S I L - ) -

leksema yasovchi affiks (prefiks)	leksema, ot leksema
sifat yasovchi	leksema yasalish asosi yasama leksema, sifat leksema

4- §. O'zbek tilida leksema yasash vazifasini asli tojikcha fe'l asosi (ko'pincha hozirgi zamon asosi) ham bajaradi. Ot, sifat, son leksemaga fe'l asosini qo'shib leksema hosil qilish tojik tilida leksema tuzish (tuzma leksema) deyiladi: *bog'- + dor- = bog'dor- (dor - doshtan - 'ega bo'l - fe'lining hozirgi zamon asosi), dur- - 'uzoq' + bin- = durbin- (bin - didan - 'ko'r - fe'lining hozirgi zamon asosi), choryak- - 'to'rtdan bir' + kor- (koridan - 'ek - fe'lining hozirgi zamon asosi) =choryakkor- > chorakkor- > chorakor- kabi.*

Bunday tojikcha fe'l asoslari o'zbek tiliga bir qancha tojikcha leksemalar tarkibida kirib kelgan; ulardan ayrimlari keyinchalik o'zbekcha leksemalarga ham qo'shilgan. Shunday xususiyat *doshtan fe'lining dor-* hozirgi zamon asosiga xos: *yarador-, dongdor-, bo'ydor-, ilmoqdor-* kabi. Lekin *dor-* o'zbek tilida fe'l asosi deb tushunilmaydi, balki leksema yasovchi deb tushuniladi. Asli fe'l asosi ekanini e'tiborga olib affiks emas, affiksoid deb baholash to'g'riroq. Tojik tilida tuzma leksemalarga teng deb qaraladigan bunday birliklar o'zbek tilida yasama leksema deb baholanadi.

*Xona-, noma-, goh-* kabi tojikcha leksemalar, o'zbek tilida mustaqil ishlatalishidan tashqari, *ishxona-, oshxona-, taklifnoma-, ma'lumotnoma-, sayohatnoma-, sayrgoh-, oromgoh-* kabi leksemalarning tarkibida yasovchi qism sifatida qatnashadi; bir qancha leksemalarga qo'shiluvchi qism bo'lib kelgani sababli mustaqil leksemalik holatidan affiksoidlik holatiga o'tgan. Bular qatnashuvi bilan hosil qilingan leksemalar tojik tilida tuzma leksema deb qaraladi, lekin o'zbek tilida yasama leksemalarga tenglashtiriladi:

## ( I SH - + - X O N A ) -

ot leksema	leksema yasovchi,
leksema yasash asosi	affiksoid, ot leksema yasovchi

yasama leksema, ot leksema

Xullas, yasama leksemalarda yasalish asosi bo'lib leksema xizmat qiladi, leksema yasovchi vazifasini affiks (asosan suffiks, qisman prefiks), ba'zan

affiksoid bajaradi, hosila esa leksemaga teng bo'ladi: *ish-* + *-chi* = *ishchi-*, *be-* + *ish-* = *beish-*, *ish-* + *-xona* = *ishxona-* kabi.

**5- §.** Grammatik to'liq shakllangan ikki leksemani (leksemashaklni) teng holatda qo'shib tuzilgan leksemaga juft leksema deyiladi: *imo-ishora-*, *katta-kichik-*, *bugun-erta-* kabi. Juftlashuvchi qismlar leksemashaklga, hosila esa leksemaga teng bo'ladi: [(*imo*) + (*ishora*)].

Juftlashuvchi qismlar orasidagi tenglik munosabati yozuvda defis (chiziqcha) bilan ko'rsatiladi; har bir qism o'z fonetik cho'qqisiga ega bo'lib, ayni vaqtda yaxlitlovchi fonetik cho'qqi bilan birlashadi:



Tenglik munosabatining ko'rsatkichi sifatida ba'zan qismlar orasida *-u(-yu)* bog'lovchisi keladi, lekin bunda justlikdan uyushiqlikka tomon siljish yuz beradi: *to'y-tomosha-* → *to'y-u tomosha-* kabi.

Juftlashuvchi qismlar ayni bir turkumga mansub va odatda ayni bir grammatik shakldagi leksemashakllar bo'ladi; grammatik shakl bunday leksemaga bir butun holda qo'shiladi: [(*arz*) + (*dod*)]- + *im* + *ni* kabi. Bu umumiyoq qoidadan (qolipdan) istisno ikki mustaqil fe'lidan tuzilgan juft fe'l-larda uchraydi: birinchi qism *-b* ravishdoshi shaklida (leksemashaklga teng), ikkinchi qism esa leksemaga teng bo'ladi, har ikki qism birgalikda leksemaga teng bo'ladi: [(*bich-* + *ib*) + (*to'qi*)]- kabi.

Juft leksema qismlarini o'zaro yasalish asosi, yasovchi deb hukm chiqarib bo'lmaydi, bu qismlar teng huquqli holda birlashib yangi leksema vujudga keladi. Demak, juft leksemalarda leksema yasash emas, balki leksema tuzish voqe bo'ladi.

**6- §.** Bog'lanmaning (birikmaning, gapshaklning) leksemaga aylanishi bilan qo'shma leksema yuzaga keladi. O'zbek tilida birikma leksemashaklning leksemaga tobelanishi bilan tuziladi, ana shunday tuzilgan birikmalar semantik va fonetik jihatdan yaxlitlanib, qo'shma leksemaga aylangan; bunday yaxlitlanish natijasida leksemashakl bilan leksemaga teng qismlar orasida sintaktik aloqa so'nadi:

<i>[(K A L T A)]</i>	<i>X (K E S A K -)]</i>
sifat leksemashakl	ot leksema
asli sifatlovchi	asli sifatlanmish

*o t q o' sh m a l e k s e m a*

O'zbek tilida *katta qo'rg'on-* birikmasi tuzib ishlatiladi; shu bilan birga ayni shunday tuzilishli *kattaqo'rg'on-* ot qo'shma leksemasi ham mavjud. Birinchisi sintaktik birlikka, ikkinchisi esa leksik birlikka teng.

Qo'shma leksemalarning barchasi avval birikmaga teng holatda tuzilib, keyin leksemaga aylangan emas, albatta Tilda birikmaga teng birlikni qo'shma leksemaga aylantirish qolipi hosil bo'lganidan keyin qo'shma leksema shu qolip asosida to'g'ridan to'g'ri tuzilavergan: *sin/boshi, uchburchak* kabi.

Asli *kaltakesak-* tur qo'shma leksemalardan *kallakesar-* tur qo'shma leksemalarni farqlash kerak: Keyingi tur leksema birikmaga affiks qo'shish orqali hosil bo'ladi: [(*kalla*) *X (kes-)*] + *ar*. Lekin -(ar) affixsi — leksema yasovchi emas; demak, bunday misollarda affiksatsiya yo'li bilan leksema yashash voqe bo'lmaydi; asli sifatdosh shaklidagi birikmaning mazmunan va shaklan yaxlitlanishi yo'li bilan sifatga aylanishi yuz bergen; *kallakesar-* sifat leksemasi sifatlanmishsiz ishlatilib, o'z navbatida otga aylangan:

<i>( K A L L A ) X K E S - J</i>	<i>+ A R</i>
leksemashakl,	leksema,
ot leksemashakl,	fe'l leksema,
<i>tushum kelishigida</i>	<i>o'timli</i>
asli vositasiz to'ldiruvchi	asli to'ldirilmish
asli vositasiz to'ldiruvchili birikma	affiks, suffiks, shakl yasovchi, sifatdosh shakli yasovchi
	s i f a t d o s h → s i f a t → o t

7- §. Gap odatda leksemashaklga leksemashaklni tobelash bilan tuziladi; ana shunday tuzilgan ayrim gaplar semantik va fonetik jihatdan yaxlitlanib qo'shma leksemaga aylangan: *go'shtkuydi* kabi. Ushbu qo'shma leksemaning birinchi qismi bosh kelishik shaklida, ikkinchi qismi esa III shaxs shaklida yaxlitlanib, ma'no taraqqiyoti natijasida ot leksemaga aylangan:

<i>( G O' SH T ) X ( K U Y D I )</i>
ot leksemashakl,
bosh kelishikda
asli ega
qo'shma leksema, ot qo'shma leksema

Bunday tur qo'shma leksema predikativ bog'lanmani transformatsiyalash orqali ham hosil qilinadi; bunda zamon yasovchisi sifatdosh yasovchisiga almashtiriladi, tuslovchi tashlanadi:

### Asli predikativ bog'lanma

asli ega	asli kesim
ot leksemashakl,	fe'l leksemashakl,
bosh kelishikda	leks. + zamon yas. + III sh. tusl.
( b o' y )	X ( o' s- + -a- + -d i)
( b o' y )	X ( o' s- + -ar + - -)
	sifatdosh sh.yas.

Asli predikativ bog'lanma sifatdosh shakliga transformatsiya qilinib, sifatlovchi vazifasiga moslangan, sifatlanmishsiz ishlatalilib, ot qo'shma leksemaga aylangan.

**8- §.** Leksemalar boshqa til leksemasini kalkalash yo'li bilan ham hosil bo'ladi. Masalan, o'zbek tilida tarixan *xizmat-* leksemasidan *-kor* affiksoidi bilan *xizmatkor-* leksemasi yasalgan; keyinchalik *xizmat-* leksemasidan *-chi* affksi bilan *xizmatchi-* leksemasi yasaldi. *Xizmatchi-* leksemasi asli *slujashiy* leksemasini kalkalab o'zlashtirish natijasida yuzaga kelgan: *slujba* → *xizmat-*, *-ash* sifatdosh yasovchisi → *-chi*; *proizvodstvo* leksemasi *ishlabchigarish-* deb kalkalangan: asli *proizvodit* fe'lidan yasalgan bu ot o'zbek tiliga *ishlab chiqar-* fe'lining *-sh* otdosh shakli bilan kalkalangan; *kilovatt-chas* leksemasi o'zbek tiliga *kilovatt-soat-* tarzida yarim kalka sifatida olingen va b.

Umuman, kalkalashda leksema hosil qilishning deyarli barcha turlari o'z aksini topadi.

**9- §.** O'zR, O'zMU kabilar qisqarma so'z deyiladi. Asli bular — murakkab til birligini ixcham ifodalash usuli, shunga ko'ra *qisqartma* deb nomlanishi to'g'ri. *Abbreviatura* deb ataladigan bunday birliklar asli turg'un birikmaga teng atamani ixcham ifodalash uchun o'ylab topilgan (italyancha *abbreviatura* < lot. *brevus* — 'qisqa'). Masalan, O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi atamasi ixcham tarzda O'zR OO'MTV qisqartmasi bilan ifodalanadi. Bunday qisqartmani so'z deb (*qisqartma so'z deb*), so'z yasalishining (asli leksema yasalishining) bir turi deb baholash to'g'ri emas.

**10- §.** Leksema qaysi usul bilan hosil qilinmasin, yangi leksema yuzaga kelganidan keyin u til birligiga aylanadi; bunday til birligi hosil bo'lish jarayoni yakunlanganidan keyingi tahlil til birligining ichki tuzilishini tahlil qilish bo'ladi. Yangi leksema yuzaga kelishi doimiy jarayon ekanidan qat'i nazar, hosila leksemalarning ko'p qismi til taraqqiyotining o'tmisht bosqichiga, kechagi kuniga mansub bo'ladi. Shunga ko'ra leksematik tahlil (leksema

tarkibini tahlil qilish) asli tarixan yondashib amalgalashiriladi; demak, so'z yasalishi (leksema hosil bo'lishi) bahsi asli tarixiy leksikologiyaga qarashli.

**11- §.** Qanday usul bilan yuzaga kelmasin, hosila til birligi sifatida leksemaga teng bo'ladi; unga grammatic tavsif qo'shilganidan keyin leksemashaklga tenglashadi. Demak, hosila leksemaga teng bo'lismi hisobga olib so'z yasalishi haqida emas, leksema hosil bo'lishi haqida gapirish kerak.

Leksema hosil qilish usullaridan faqat biriga — affiksatsiyaga nisbatan yasalish haqida (yasalish asosi va yasovchi haqida) gapirish mumkin. Demak, so'z yasalishi (asli leksema yasalishi) yangi leksik birlik yuzaga kelishining faqat bir turiga nom bo'la oladi; boshqa turlarini ham qamrab olsak, keng tushunchadan — *leksema hosil qilish* tushunchasidan foydalanish to'g'ri.

**12- §.** Hosila leksema ma'lum bir turkumga mansub bo'ladi. Yangi leksema hosil qilish barcha turkumlarda voqe bo'lavermaydi. Bunday jarayon, masalan, ot, sisat, fe'l turkumlarida ko'p, ravish, modal birlik turkumlarida oz miqdorda voqe bo'ladi, son, olmosh turkumlarida esa yangi leksema hosil qilish deyarli yo'q.

## **LEKSEMALARDA IFODA JIHATIGA KO'RA VOQE BO'LADIGAN MUNOSABATLAR**

Leksemalarda ifoda jihatiga ko'ra voqe bo'ladigan munosabatlar deb omonimiya va paronimiya hodisalari ko'rsatiladi.

### OMOLEKSEMALAR

**1- §.** Ifoda jihatni teng leksemalar *omoleksemalar* deyiladi (yunoncha *homos* — 'bir xil'). Omoleksemalarni belgilashda talaffuz jihatidan bo'ladigan bir xillik ham, harfiy (grafik) ifoda jihatidan bo'ladigan bir xillik ham hisobga olinadi. Masalan, *tuy-* I ('kukun holatga keltir-') leksemasi bilan *tuy-* II ('his et-') leksemasi, *yon-* I ('predmetning o'ng yoki chap tomoni') leksemasi bilan *yon-* II ('o't ol-') leksemasi o'zaro bir xil talaffuz qilinadi va yoziladi.

Omoleksemalar turli grammatic shakllarga kirishi nuqtayi nazaridan yondashib *omonim omoleksemalar* va *omoform omoleksemalar* deb ajratiladi.

1. Omonim omoleksemalar barcha muqobil grammatic shakllarida teng keladi. Masalan, *qovoq-* I (ko'z ustidagi qovoq) — *qovoq-* II (o'simlik nomi), *chaq-* I ('zarb bilan yor-', 'parchala-') — *chaq-* II ('nayza sanchib ozor ber-') kabi.

Birinchi juft ham, ikkinchi juft ham o'zaro barcha muqobil shakllarida teng keladi: *qovoqni* I — *qovoqni* II, *govog'ini* I — *govog'ini* II, *qovoqla-*

*rimni I – qovoqlarimni II; chaqdi I – chaqdi II, chaqadi I – chaqadi II, chaqibdi I – chaqibdi II* kabi.

Omonim omoleksemalar asosan bir turkum leksemalari bo‘ladi. Bunday omonimiya ko‘pincha ot, fe'l turkumi leksemalarida uchraydi: *oy-* I (planeta nomi) — *oy-* II ('yilning o'n ikkidan bir qismi'), *chop-* I ('yugur-') — *chop-* II ('yer sathini qirqib ag'dar-') kabi. Omonim omoleksemalar sifat turkumi leksemalarida ham uchraydi: *och-* I ('ochqagan') — *och-* II ('me'yorga yetmagan' — rang haqida: *och ko'k*) kabi.

Har xil turkum leksemalari o‘zaro omonim omoleksema bo‘lishi uchun ular grammatic shakllanishga ega bo‘lmasligi kerak. Masalan, *albatta* I (*Albatta boraman* — ravish) — *albatta* II (*Boraman*, *albatta* — modal birlik). Bunday munosabat *balki* I modal birligi bilan *balki* II bog‘lovchisi orasida ham voqe bo‘lgan.

2. Omoforma omoleksemalar deb o‘zaro *ba'zi* grammatic shakllarida-gina teng keladigan omoleksemalarga aytildi: *burun-* I (kishi tanasidagi a'zoning nomi) — *burun-* II (payt ravishi — 'ilgari'), *soz-* I (muzika asbobining nomi) — *soz-* II ('yaxshi') kabi

Birinchi juftda ot leksema bilan ravish leksema o‘zaro bir necha shaklida teng keladi (*burun* I — *burun* II, *burundan* I — *burundan* II, *burunlari* I — *burunlari* II kabi), lekin boshqa shakllarida farqlanib turadi: ot leksemada *burnim*, *burning*, *burnimni* kabi shakllanishlar voqe bo‘lsa, ravish leksemada *burunroq* kabi shakllanish voqe bo‘ladi, demak, bu ikki leksema faqat ayrim grammatic shakllarida-gina teng keladi.

Ikkinci juftda esa ot leksema bilan sifat leksema o‘zaro ikki shaklida teng keladi (*soz-* I — *soz-* II, *sozlar* I — *sozlar* II), boshqa shakllarida esa farqlanib turadi: ot leksemada *sozni*, *sozim*, *sozlarimni* kabi shakllanishlar voqe bo‘lsa, sifat leksemada *sozroq*, *juda soz* kabi shakllanishlar voqe bo‘ladi.

2- §. Yuqoridagi omoleksemalarning lug‘atga kiritilish shakllari bir xil, shunga ko‘ra ular lug‘atlarda hisobga olinadi. Omoforma omoleksemalar deb faqat shunday hodisalarni-gina nazarda tutish yetarli emas: lug‘atga kiritish shakli har xil omoforma omoleksemalar chetda qolib ketadi. Vaholanki bularning mohiyati avvalgilari bilan bir xil. Masalan, *soz-* I — *soz-* II lug‘atda ko‘rsatiladi-yu, *tut-* I (daraxt turi va uning mevasi) — *tut-* II ('ushla-') holati umuman hisobga olinmaydi, chunki fe'l lug‘atga -*mog* affiksini qo‘shtgan holatda (*tutmog* shaklida) kiritiladi.

Omoforma omoleksemalar ot leksema bilan fe'l leksema orasida (Bular umumtil lug‘atida aks etmaydi), ot leksema bilan fe'l dan boshqa biror turkum leksemasi orasida voqe bo‘ladi (Keyingi tur omoleksemalar umumtil lug‘atida aks etadi).

Omonim omoleksemalar asli leksemalar omonimiyasi bo'lib, ularga bir xil grammatik ko'rsatkichlar qo'shiladi:

	$\emptyset I$	$im$	$\emptyset II$
<i>qovoq-</i> I		<i>ing</i>	<i>ning (+nisbatlovchi)</i>
		<i>i</i>	<i>ni</i>
<i>qovoq-</i> II	<i>lar</i>	<i>imiz</i>	<i>dan</i>
		<i>ingiz</i>	<i>ga</i>
		<i>lari</i>	<i>da</i>

Omoforma omoleksemalarda esa omoleksemalarga omomorfemalar qo'shiladi:

	$\emptyset I$	$im$	$\emptyset II$
<i>tyt-</i> I		<i>ing</i>	<i>ning (+nisbatlovchi)</i>
		<i>i</i>	<i>ni</i>
	<i>lar</i>	<i>imiz</i>	<i>dan</i>
		<i>ingiz</i>	<i>ga</i>
		<i>lari</i>	<i>da</i>
<i>ay(in)</i>			
<i>(gin), ing</i>			
<i>sin</i>			
<i>aylik</i>			
<i>ingiz, inglar, laring</i>			
<i>sinlar</i>			

Yuqorida keltirilgan misollar bir omoifodaga ikki omoleksema birlashadigan holatlarni aks ettiradi. Tilimizda bir omoifoda ostiga ikkitadan oltitagacha omoleksemaning birlashuvi kuzatiladi; bularning miqdoriy hissasi quyidagicha: ikki omoleksemali holat — 74,5 %, uch omoleksemali holat — 19 %, to'rt omoleksemali holat — 4 %, besh omoleksemali holat — 1 %, olti omoleksemali holat — 1,5 %.

M i s o l l a r: 1) *ot-* I ('ism') — *ot-* II (ish hayvoni) — *ot-* III (fe'l); bunda *ot-* I — *ot-* II munosabati — omonim omoleksemalar; *ot-* I — *ot-* III va *ot* II — *ot* III munosabati — omoforma omoleksemalar;

2) *o't-* I ('maysa') — *o't-* II ('olov') — *o't-* III (kish tanasidagi a'zoning nomi) — *o't-* IV (fe'l); bunda *o't-* I — *o't-* II, *o't-* I — *o't-* III, *o't-* II — *o't-* III munosabati — omonim omoleksemalar; *o't-* I — *o't-* IV, *o't-* II — *o't-* IV, *o't-* III — *o't-* IV munosabati — omoforma omoleksemalar;

3) *suz-* I (*sutni suz-*) — *suz-* II ('ovqatni idishlarga sol-') — *suz-* III (*ko'zini suz-*) — *suz-* IV (*suvda suz-*) — *suz-* V (*shoxi bilan suz-*); bunda voqe bo'ladigan o'n munosabatning har biri — omonim omoleksemalar;

4) *sur-* I (qorako'lning navi) — *sur-* II ('och kulrang, ko'kimtir') — *sur-* III ('quritilgan') — *sur-* IV ('beti qattiq') — *sur-* V ('siljit') — *sur-* VI ('ishqa-'); bunda *sur-* II — *sur-* III, *sur-* II — *sur-* VI, *sur-* III — *sur-* VI munosabatlari, shuningdek *sur-* V — *sur-* VI munosabati — omonim omoleksemalar, *sur-* I bilan *sur-* II, *sur-* III, *sur-* IV, *sur-* V, *sur-* VI munosabatlarining har biri — omoforma omoleksemalar.

3- §. Leksemalar turli grammatik ko'rsatkichlar olishi bilan leksemashakllar yuzaga keladi (Leksemashakllar alohida bo'limda tasvirlanadi); ana shunday leksemashakllar orasida ham omonimiya voqe bo'lishi mumkin. Bularni *omoleksemashakllar* deb yuritamiz. Masalan, *qovog'im* I bilan *qovoq'im* II, *tuting* I bilan *tuting* II omoleksemashakllar bo'lib, birinchisi omonim omoleksemalar asosida, ikkinchisi omoforma omoleksemalar asosida yuzaga chiqadi.

Omoleksemashakllar nutq birliklari orasida hosil bo'ladi, shunga ko'ralar omoleksemalar doirasi bilan cheklanmaydi. Nutqda omoleksemashakllarning rang-barang ko'rinishlari yuzaga keladi: *terim* I (*ter-* ot leksemasi + *im* nisbatlovchisi = leksemashakl) — *terim* II (*teri-* ot leksemasi + *m* nisbatlovchisi = leksemashakl); *yer* I (ot leksemashakl) — *yer* II (*ye-* fe'l leksemasi + *r* sifatdosh shakli yasovchisi : zamon shakli yasovchisi = leksemashakl); *yogamiz* I (*yog-* fe'l leksemasi + *a* zamon shakli yasovchisi + *miz* tuslovchisi = leksemashakl) — *yogamiz* II (*yoga-* ot leksemasi + *miz* nisbatlovchisi = leksemashakl) va b.

4- §. Omoleksemalarning voqe bo'lishiga olib keladigan sabablar asosan quyidagicha:

I. Qadimgi turkiy tildagi turkum sinkretizmining yo'qolishi oqibatida yuzaga kelgan. Turkiy tilning boshlang'ich taraqqiyot bosqichida ayni bir ifoda jihatiga ega birlik fe'l va ot, fe'l va sifat ma'nolarini anglatish uchun ishlatalvergan. Ana shunday hodisaga *turkum sinkretizmi* deyiladi. Qadiragi turkiy tildayoq yo'qolib ketgan bunday sinkretizmning qoldiqlari hozirgi o'zbek tiliga turli holatda, ba'zilari jiddiy tovush o'zgarishiga uchramasdan omoleksemalar sifatida yetib kelgan. Masalan, qadimgi turkiy tilning boshlang'ich taraqqiyot bosqichida *yuq-* birligi harakat ma'nosini ham ('qoldiq sifatida yopish-'), predmet ma'nosini ham ('yopishib qolgan qoldiq') anglatish uchun ishlatalgan; keyinchalik bunday sinkretizm yo'qolib, ikki leksemaga aylangan va shunday holatda hozirgi o'zbek tiliga omoleksemalar sifatida yetib kelgan.

II. Leksemalarning ifoda jihatida voqe bo‘lgan tovush o‘zgarishlari oqibatida teng kelib qolishi bilan yuzaga kelgan. Demak, bunday omonimiya tovush o‘zgarishlari asosida izohlanadi. Masalan, *oq-* I sifat leksemasi asli *a:q-* ifoda jihatiga, *oq-* II fe'l leksemasi esa *aq-* ifoda jihatiga ega bo‘lgan, sifat leksema tarkibidagi *a:* tovushiga xos cho‘ziqlik belgisi yo‘qolishi oqibatida bu ikki leksema omoleksemalar holatiga o‘tgan va shunday holatda *a* tovushi *a* tovushiga almashib hozirgi o‘zbek tiliga yetib kelgan; *oz-* I ravish leksemasi asli *a:z-* ifoda jihatiga, *oz-* ('oriqla-') fe'l leksemasi *ar-* ifoda jihatiga ega bo‘lgan, *a:* tovushi *a* tovushiga va *a* tovushlari *a* tovushlariga, *r* tovushi *z* tovushiga almashib hozirgi o‘zbek tiliga omoleksemalar tarzida yetib kelgan; *but-* I ('chot') ot leksemasi asli *but:t-* ifoda jihatiga, *but-* II ('bekam-u ko‘st mavjud') kesimlik leksemasi asli *but:b-* ifoda jihatiga ega bo‘lgan, ot leksema tarkibidagi *u:* tovushining cho‘ziqlik belgisi, kesimlik leksemasi tarkibidagi *ü* tovushining yumshoqlik belgisi yo‘qolishi oqibatida omoleksemalar yuzaga kelgan.

Ifoda jihatining teng kelib qolishi natijasida voqe bo‘lgan omonimiya:

1) o‘zbekcha leksemalar orasida bo‘ladi; ko‘pchilikni shunday omonimiya tashkil etadi: *bel-* I (kishi tanasining a’zosi) — *bel-* II (ish quroli), *yoz-* I (fasl nomi) — *yoz-* II (xatni yoz-) — *yoz-* III (dasturxonni yoz-), *ellik-* I (beshinchli o‘nlikning nomi) — *ellik-* II (ikki ellik xat) kabi;

2) o‘zbekcha leksema bilan o‘zlashma leksema orasida bo‘ladi:

a) o‘zbekcha leksema bilan tojikcha leksema orasida: *yor-* I ('ikkiga ajrat-') — *yor-* II ('mahbuba'); *bog-* I (*bir bog’ piyoz*) — *bog-* II ('mevazor') kabi;

b) o‘zbekcha leksema bilan arabcha leksema orasida: *sir-* I (bo‘yoqning nomi) — *sir-* II ('maxfiy ish, gap, narsa>'); *sana-* I ('donalab hisobla-') — *sana-* II ('muhim voqeа ta’kidlanadigan yil, oy, kun') kabi;

3) o‘zlashma leksemalar orasida bo‘ladi:

a) tojikcha leksemalar orasida: *soz-* I (muzika asbobining nomi) — *soz-* II ('yaxshi'), *bod-* I ('shamol') — *bod-* II ('shish') kabi;

b) arabcha leksemalar orasida: *safar-* I ('sayohat') — *safar-* II ('gal', 'marta'), *rasm-* I ('suvrat') — *rasm-* II ('urf-odat') kabi;

v) arabcha leksema bilan tojikcha leksema orasida: *karam-* I ('mehr-shafqat') — *karam-* II (sabzavotning nomi) kabi.

III. Omonimiya leksik ma’no taraqqiyoti natijasida voqe bo‘ladi. Bu tur omonimiyanı to‘g’ri belgilash ancha qiyin, chunki ko‘pma’nolilik bilan omonimiyanı farqlay bilish talab qilinadi. Ma’no taraqqiyoti natijasida yuzaga kelgan leksik ma’nolar boshqa-boshqa turkumga mansub bo‘lsa, o‘z-o‘zidan omoleksemalar haqida gapirish lozim: *o’rta-* I (ot) — *o’rta-* II (sifat) mi-

solida bo'lgani kabi. Agar bunday leksik ma'nolar bir turkumga mansub bo'lsa, ularning ideografik semalar tarkibiga suyanib hukm chiqarish kerak. Masalan, *kun-* I leksemasining leksik ma'nosiga ideografik semalar asosida beriladigan ta'rif bilan ('yerga issiqlik va nur taratib turuvchi planeta') shu leksemadan o'sib chiqqan *kun-* II leksemasiga ideografik semalari asosida beriladigan ta'rifni ('quyosh chiqqandan botgungacha bo'lgan vaqt') qiyoslasak, bu yerda ko'pma'nolilik haqida emas, balki omoleksemalik haqida gapirish lozimligi ayon bo'ladi.

Leksik ma'no taraqqiyoti natijasida voqe bo'lgan omoleksemalarga leksik ma'noning taraqqiyoti bayon qilingan o'rinda misollar berilgan; bu yerda bir necha misol keltirish bilan kifoyalanamiz: *yosh-* I ('umr') — *yosh-* II ('hali ko'p yashamagan'); *boq-* I ('qara-') — *boq-* II ('tarbiyala-', 'o'stir-'); *band-* I ('egallangan') — *band-* II ('tutqich', 'dum': *band* *bergan qovun*) kabi.

Shuni ta'kidlash lozimki, ot leksemaning sifatlashuvi, sifat leksemaning otlashuvi kabi nutqiy hodisa natijasida emas, balki ot leksema asosida sifat leksemaning, sifat leksema asosida ot leksemaning yuzaga kelishi natijasidagina omoleksemalar paydo bo'ladi. Masalan, *Yaxshiga yondash, yomondan qoch* jumlasida *yaxshi-*, *yomon-* sifat leksemalari otlashgan, lekin ot leksema ko'chgan emas. Ot leksema bajaradigan sintaktik vazifada sifat leksema kelgani sababli sintaktik vazifaga bog'liq holda nutqda predmetlik semasi qo'shiladi, otlashish yuz beradi, lekin predmetlik semasi doimiy sema bo'lmaydi.

Bir turkum leksemasi asosida boshqa bir turkum leksemasi yuzaga kelishi uchun turkumlik semasi ('predmet', 'belgi', 'harakat' kabi) bu leksemalarning semalar tarkibiga lison bosqichida birkitilgan bo'lishi kerak. Aks holda bir turkum leksemasining boshqa turkum leksemasi o'mida ishlatalishi voqe bo'ladi xolos.

Bir turkum leksemasi asosida boshqa bir turkum leksemasi yuzaga kelganda, turkumlik semasidan tashqari, leksemalarning ideografik semalar tarkibida ham jiddiy o'zgarishlar yuz beradi. Masalan, *issiq-* I sifat leksemasi asosida *issiq-* II ot leksemasi yuzaga kelgan. Bunda: 1) 'belgi' turkumlik semasi 'predmet' turkumlik semasiga almashgan, 2) sifat leksema ideografik semalari tarkibidagi 'me'yor (o'Ichov)', 'ortiq' semalari tashlangan, 3) 'harorat' semasi yana ham mavhumlik tomon taraqqiy etgan, ana shu mavhum sema ot leksemaning semantik mundarijasini tashkil etib qolgan. Demak, sifat leksema ideografik semalari tarkibidagi 'harorat' semasi kuchayib, qolgan ideografik semalarning so'nishi yo'li bilan ot leksema yuzaga kelgan.

IV. Omoleksemalalar leksema yasalishi natijasida ham yuzaga kelgan. Buning asosiy ko'rinishlari:

1. Tub leksema bilan yasama leksema orasida voqe bo'lgan: *bek-* I ('hukmdor') — *bek-* II (be- — 'mustahkam qil-' + k sifat yasovchisi: 'yopiq'); *kuya-* I ('yungli matoga tushadigan zararkunanda hasharot') — *kuya-* II (*kuy-* — *kuyib ko'mir bo'l-*' + a ot yasovchisi: 'kuyish natijasida hosil bo'ladigan qora zarralar') kabi.

2. Yasama leksemalar orasida voqe bo'ladi. Buning asosiy ko'rinishlari:

1) Bir leksemadan yasalishlarda voqe bo'ladi:

a) Bir affiksning o'zi yordamida yasaladi: *boshliq-* I (*bosh-* — 'boshlang'ich' + liq) — *boshliq-* II (*bosh-* — 'asosiy' + liq); *betla-* I (*bet-* — 'yuz' + la) — *betla-* II (*bet-* 'sahifa' + la). Bu leksemalarning har biri ayni leksemaning boshqa-boshqa leksik ma'nosidan yasalgan.

Yuqorida misollarda har bir leksema o'zicha mustaqil yasalgan, natijada omonimiya hosil bo'lgan. Yasama leksemalar orasidagi omonimiya boshqacha taraqqiyot natijasida ham yuzaga keladi. Masalan, *ayri-* I (<ayir- + i sifat yasovchisi) — *ayri-* II (ot); *kecha-* I (*kech-* + a ot yasovchisi) — *kecha-* II (ravish); *tepki-* I (*tep-* + ki) — *tepki-* II (ot) kabilarda ikkinchi leksema birinchi (asli yasama) leksemaning ma'no taraqqiyoti natijasida paydo bo'lgan;

b) har xil affiks yordamida yasaladi: *tiqin-* I (*tiq-* + in narsa-qurol ot yasovchisi) — *tiqin-* II (*tiq-* + in sifat yasovchisi); *soliq-* I (*sol-* + iq ot yasovchisi) — *soliq-* II (*sol-* + iq sifat yasovchisi) kabi.

2) Har xil leksemalardan yasalishlarda voqe bo'ladi:

a) Bir affiksning o'zi bilan yasaladi: *sochiq-* I (*soch-* I — 'boshdagi tuklar' + iq narsa oti yasovchisi) — *sochiq-* II (*soch-* II — 'har tomonga otib tashla' + iq narsa oti yasovchisi), *chog'la-* I (*chog'* - — 'chama' + la) — *chog'la-* II (*chog'* - — 'yaxshi holat' + la) kabi.

b) Har xil affiks bilan yasaladi: *kechik-* I (*kech-* — 'birin-ketin o't-' + ik ot yasovchisi) — *kechik-* II (*kech-* ravishi + ik fe'l yasovchisi), *ochiq-* I (*och-* fe'l + iq sifat yasovchisi) — *ochiq-* II (*och-* sifati + iq fe'l yasovchisi) kabi.

V. Alovida hodisa sifatida *ideal* I — *ideal* II kabi omoleksemalarni ko'rsatish lozim. Bular ruscha sifatni o'ziga xos usul bilan olish natijasida voqe bo'ldi: ruscha *idealbny* kabi sifatning sifat yasovchisi tugallanmasi bilan birga tashlandi va ayni vaqtida bu qo'shimchalar oldidagi yumshatish belgisi ham tashlandi: *idealbny* → *idealb* → *ideal* kabi. Natijada bunday yo'l bilan hosil qilingan sifat unga parallel ravishda o'zlashgan ot (*ideal*) bilan omoleksemaga aylandi: *general* (ot) — *general* (sifat: *general plan*), *kapital* (ot) — *kapital* (sifat: *kapital remont*) kabi.

5- §. Omonimiya ba'zan salbiy hodisa deb baholanadi. Aytishlaricha, omonimiya fikrni to'g'ri va tez anglashga xalaqit beradi. Shu jihatdan til

uchun ortiqcha yuk deb qaraladi. Bu fikrga qo'shilish qiyin. Chunki omonimning yolg'iz o'zi bilan gapshakl tuzib, fikr anglatish kamdan kam uchraydi. Matn esa odatda omonimiya tufayli yuzaga keladigan qiyinchilikni bartaraf etadi.

Nutqda ikki xil tushunilishi mumkin bo'lgan holatlarga ba'zan ongli ravishda yo'l qo'yiladi, shu asosda so'z o'yini hosil qilinadi. Buni omonimiya dan qisman bo'lsa-da ijobiy foydalanish deb baholash kerak. Ikkinchidan, omonimiyadan maxsus poetik janr — tuyuq tuzishda keng foydalaniladi. Ma'lumki, tuyuq xalq og'zaki ijodiyotida ham, yozma badiiy adabiyotimiz tarixida ham alohida o'rinn egallagan.

Askiyada omonimiyadan ustalik bilan foydalaniladi.

Umuman, omonimianing voqe bo'lishi tilning o'z xususiyati bilan izohlanadi: Har bir tilda tovushlar soni sanoqli, shu tilda ishlatiladigan tovush kombinatsiyalari ham cheksiz emas. Ikkinchidan, leksemalarning ifoda jihatida ham, ma'no jihatida ham uzlucksiz o'zgarishlar bo'lib turishi bilan omonimianing paydo bo'lishi tabiiy hodisa deb qaralishi lozim.

### OMOLEKSEMALARGA YONDOSH HODISALAR

6- §. Omoleksemalarga eng yaqin turuvchi hodisa — *omofonlar*. Omoleksemalar talaffuz jihatidan ham, yozilishi jihatidan ham teng keladi, omofonlar esa talaffuz jihatidan teng keladi-yu, harfiy ifoda jihatidan farq qiladi. Demak, til birligi sifatida leksemalarning bir jihat — talaffuz jihat teng kelib qolsa, omofonlar voqe bo'ladi.

Til asli tovush tili bo'lgani sababli harfiy ifoda emas, balki talaffuz hal etuvchi omil deb qaraladi va shu asosda omofonlar ko'pincha omoleksemalar qatoriga qo'shiladi.

Adabiy nutqda omofonlar quyidagi hollarda voqe bo'ladi:

1) ko'pincha ovozli (jarangli) tovushning ovozsizlanishi (jarangsizlanishi) natijasida: *bop* (< *bob*) — *bop*, *tup* (< *tub*) — *tup*, *yot* (< *yod*) — *yot*, *sutxo'r* (< *sudxo'r*) — *sutxo'r*; *nufus* (< *nufuz*) — *nufus* kabi;

2) urg'usiz ovoz tovushning boshqa tovushdek talaffuz qilinishi natijasida: *kampaniya* — *kampaniya* (< *kompaniya*) kabi.

So'zlashuv nutqida omofonlarning turli ko'rinishlari voqe bo'ladi: *qalay* (ma'dan nomi) — *qalay* (< *qanday*), *to'r* (baliq, qush tutish quroli) — *to'r* (< *to'rt*) kabi va b.

7- §. Til birliklari sifatida leksemalar talaffuzda farqlanib, harfiy ifoda jihatidan teng kelib qolsa, *omograflar* yuzaga keladi. Hozirgi adabiy o'zbek tilining yozma ko'rinishida omograflar asosan ayrim tovushlar uchun aliboda mustaqil harf olinmay, bu tovushlarni ko'rsatish vazifasi alibodagi boshqa harflarga yuklanishi natijasida, demak, sun'iy ravishda paydo bo'ldi:

1) o harfi bilan ikki farqli tovushni (sharq tillariga, shu jumladan o'zbek tiliga mansub leksemalar tarkibidagi tovushni va rus tilidan olingen leksemalar tarkibidagi tovushni) yozish natijasida: *rom-* I, *rom-* II, *rom-* III va *rom-* IV (ichimlik nomi), *tom-* I, *tom-* II, *tom-* III va *tom-* IV ('jild') kabi;

2) j harfi bilan qorishiq (portlovchi-sirg'aluvchi) tovushni va sirg'aluvchi tovushni yozish natijasida: *jin-* I, *jin-* II va *jin-* III (ruscha < inglizcha gin) kabi;

3) Mana bu missolda birinchi, ikkinchi banddag'i holat birgalikda voqe bo'lgan: *jom-* I (tojikcha) — *jom-* II (ruscha);

4) i harfini ruscha leksemalardagi ы harfi o'rniga yozish natijasida: *sir-* I ('emal') — *sir-* II ('yashirin ish, gap') — *sir-* III (< *sir*) kabi.

**8- §.** Tovush tizimi teng, lekin urg'u o'rniga ko'ra farqlanadigan leksemalar ham mavjud. Bunday leksemalarda urg'u o'rnining har xilligi talaffuzda farq keltirib chiqaradi, shu asosda bunday leksemalar omograflar qatoriga qo'shiladi. Agar urg'u belgisini qo'yish zaruriyatini hisobga olsak, bunday leksemalarni omograflar qatoriga qo'shmay, alohida hodisa sifatida ajratish ma'qul. Misollar: *atlás-* ('tovdanuvchi silliq ipak matoning maxsus usul bilan to'qilgan turi') — *átlas-* ('ma'lum maqsad bilan tuzilgan xaritalar to'plami'), *matemátik-* ('matematika mutaxassis') — *matematik-* ('matematikaga oid') kabi.

### LEKSEMALARDA PARONIMIYA

**9- §.** Ikki leksemani o'zaro *paronim* deyish uchun (yunoncha *para* — *yonidagi*): 1) yasama leksemalar bo'lishi, 2) ayni bir leksemadan yasalgan bo'lishi, 3) ayni bir turkumga mansub bo'lishi, 4) yasovchi morfemalarining mazmun jihatida umumiylit bo'lishi, 5) yasovchi morfemalari ifoda jihatidan o'xshash bo'lishi kerak.

Rus tilidan o'zbek tiliga o'zlashgan quyidagi g'arb tillariga mansub leksemalar sanalgan talablarga mos keladi, demak, paronimlar deb qaraladi:

1) *abonent-* ('abonnement egasi') — *abonnement-* ('biror narsadan ma'lum muddat foydalanish huquqini beradigan hujjat'); bu yerda: a) yasash asosi — *abon-*, b) yasovchilar: *-ent*, *-ement*;

2) *adresat-* ('pochta yuborilgan kishi yoki tashkilot') — *adresant-* ('pochtani yuboruvchi kishi yoki tashkilot'); bu yerda: a) yasash asosi — *adres-*, b) yasovchilar: *-at*, *-ant*;

3) *diplomat-* ('bir hukumatning boshqa hukumat bilan muloqotga vakolatli amaldor kishisi') — *diplomant-* ('diplom ishi yozayotgan kishi'); bu yerda: a) yasash asosi — *diplom-*, b) yasovchilar: *-at*, *-ant*;

4) *ekonomika-* ('iqtisodiyot') — *ekonomiya-* ('iqtisod qilish', 'tejamkorlik'); bu yerda: a) yasash asosi — *ekonom-*, b) yasovchilar: *-ik*, *-iy*.

O'zbek tili leksemalaridan quyidagi juftlarni paronimlar deyish mumkin:

1) *o'pqin-* ('katta oqin suvning doira shaklida aylanib, turli narsalarni o'z ichiga tortib ketadigan yeri') — *o'pqon-* ('o'pqin ostidagi bo'sh yer, suv torilib ketadigan chuqurlik');

2) *quyqa-* ('suyuqlik ostiga yig'iladigan cho'kindi') — *quyqum-* ('suyuqlikdan ajraladigan chiqindi');

3) *sevikli-* ('ko'ngil qo'ygan') — *sevimli-* ('kimdir xush ko'radigan, yoqtiradigan');

4) *qopag'on-* ('qopish, tishlash odati bor') — *qopong'ich-* ('o'zidan o'zi qopaveradigan');

5) *urish-* (*ur-* fe'lining otdosh shakli) — *urush-* (ot);

6) *alifbe* (kitob) — *alifbo* (harflar sirasi) kabi.

Ham mazmun jihatidan, ham talaffuz jihatidan o'xhashlik borligi tufayli bunday paronimlarni farqlab, o'z o'rniда ishlatish ma'lum qiyinchilik tug'diradi, biri o'rniда ikkinchisini xato ishlatib qo'yish hollari uchraydi.

Leksik paronimlar ancha sodda talablar asosida ham belgilanadi: tovushlar tizimi faqat bir tovushga ko'ra farqlanib turadigan ikki leksema ham o'zaro paronim deb qaratadi. Shunday talab bilan yondashish yetarli deyilsa, *alpoz-* ('ahvol', 'yo'sin') — *alfoz-* (*laфz-* leksemasining ko'pligi), *abzal-* (asli *afzor*: 'asbob', 'egar-jabduq') — *afzal-* ('yaxshi', 'ortiq'), *xalos-* ('ozod': *xalos qil-*) — *xolos-* ('faqat'), *tiz-* ('ipga shodala-') — *chiz-* ('chiziq tushir-'), *xush-* ('yaxshi', 'yoqimli') — *hush-* ('kishining sezish, idrok etish, anglash qobiliyati'), *rux* (shaxmat donalaridan birining nomi) — *ruh* ('kishining his-tuyg'ularini aks ettiruvchi kayfiyati'), *obba* (hayrat ifodalaydi) — *abbo* (tash-vish ifodalaydi) kabi juftliklarni paronim deyish mumkin. Talaffuzdag'i o'xhashlik tufayli bunday leksemalarni ishlatishda ham qiyinchilik, noo'rin ishlatish voqe bo'ladi.

## LEKSEMANING MAZMUN JIHATI

1- §. Leksemaning miyaning til xotirasi qismidagi ramzida (ifoda jihatiga haqidagi axboratga birkitelgan holda) mazmun jihatiga haqidagi axborat ham mavjud bo'ladi. Leksemaning mazmun jihatida ikki hodisa farqlanadi: 1) ma'lum bir vogelikni nomlashi (nominativ vazifa bajarishi; lot. nominatio — 'nom'), 2) ma'lum bir ma'noni anglatishi (signifikativ vazifa bajarishi; lot. signifikatio — 'ma'no', 'farq'). Leksema avvalo vogelikni nomlash uchun yaratiladi, keyin unga ma'lum mazmun birkiteladi. Masalan, *qosh-* leksemasi

kishi tanasi a'zolaridan birining nomi bo'lib, uning bosh ma'nosи 'qovoq ustini qoplab turadigan zich o'siq tuklar' deb ta'riflanadi.

Leksemaning mazmun jihatи ancha murakkab bo'lib, uning asosini leksik ma'nо tashkil qiladi. Leksemaning voqelikka nisbat beriladigan lug'aviy mazmuniga leksik ma'nо deyiladi. Masalan, *kuz-* leksemasi 'yoz bilan qish oralig'idagi fasl' ma'nosini, *to'rt-* leksemasi 'uch bilan besh oralig'idagi butun miqdor' ma'nosini, *gapis-* leksemasi 'ma'lum bir fikrni tovushlar vositasida ma'lum qil-' ma'nosini anglatadi.

Leksik ma'nо asli til tovushlarining ma'lum bir qatoriga birkitilgan holda yuzaga keladi va mavjud bo'ladi. Tovushlar qatori bilan leksik ma'noning o'zaro bog'liqligi tabiatan bo'lmay, bir til egalari orasida shartlashilgan, e'tirof etilgan tarzda bo'ladi. Shunga ko'ra har bir leksemani shu tilda gapiruvchi kishilarning barchasi bir xil leksik ma'noda ishlatadi va tushunadi.

2- §. Leksik ma'nо bilan u bildiradigan voqelik — boshqa-boshqa hodisalar. Leksik ma'noda voqelikdagi predmetning, belgining yoki shular orasidagi munosabatlarning o'zi emas, balki ular haqidagi tushuncha aks etadi. Shunga ko'ra leksik ma'nо deb odatda tushuncha ta'kidlanadi.

Leksik ma'nо bilan tushuncha o'zaro bog'liq, lekin teng emas. Leksik ma'nо til qurilishiga xos, tushuncha esa tafakkurga xos. Har ikkisi umumlashtirishga asoslanadi, lekin tushuncha fikrlash qobiliyatining natijasi sifatida insonga nisbatan belgilanadi, leksik ma'noga xos umumlashtirish esa har bir tilning o'zi doirasida voqe bo'ladi. Shunga ko'ra leksik ma'nо har bir til uchun xususiy bo'ladi.

Masalan, *ko'z-* leksemasining bosh leksik ma'nosи — 'qarash, ko'rish a'zosi'. Bu leksema bilan yana bir necha leksik ma'nolar anglatiladi. Quyidagi birikmalarda bu leksemaning turli leksik ma'nolari namoyon bo'ladi: *tizzaning ko'zi, taxtaning ko'zi, bulogning ko'zi, ignaning ko'zi, xurjunning ko'zi, uzukning ko'zi, derazaning ko'zi, kartoshkaning ko'zi*. Bu leksemaning leksik ma'nolari boshqa tilga, masalan, rus tiliga tarjima qilinsa, leksik ma'nolarga xos milliylik yaqqol ko'rindi. O'zbekcha *ko'z-* va ruscha *glaz-* leksemalari asosan bosh leksik ma'nosida-gina muqobil; *ko'z-* leksemasining boshqa ma'nolari rus tilida tamoman boshqa leksemalar muqobil. Yuqorida sanalgan o'zbekcha birikmalar tarkibidagi *ko'z-* leksemasiga rus tilida quyidagilar muqobil: *kolennaya chashechka, suchok v doske, mesto, otkuda byot rodnik, ushko igli, otverstiye nariva, odna polovina (otdeleniye) peremetnoy sumi, kamen v kolse, otdelnoye steklo okna, glazki kartofela*.

Demak, har bir leksemaning leksik ma'nolari o'ziga xos mundarijaga ega bo'ladi, har bir tilda o'ziga xos tizim hosil qiladi.

Leksik ma'noning asosini tushuncha tashkil etadi Yuqorida tasvirlangan *ko'z-* leksemasining har bir leksik ma'nosи boshqa-boshqa tushunchani

anglatadi, boshqa-boshqa voqelikni nomlaydi. Leksema bilan tushuncha teng kelishi uchun bunday leksema faqat bir leksik ma'noli bo'lishi lozim; boshqa hollarda leksema bilan tushuncha orasida tenglik bo'lmaydi; leksema necha leksik ma'noli bo'lsa, bu leksema bilan shuncha tushuncha anglatiladi. Shunga ko'ra leksemaning mazmun jihatni tushunchadan keng, boy bo'ladi.

3- §. Leksik ma'no bilan tushuncha orasida tenglik termin leksemalarda bo'ladi (lot. *terminus* – 'chegara'). Termin leksema notermin leksemadan o'z ma'nosining aniq ta'riflab, chegaralab, belgilab qo'yilganligi bilan farq qiladi. Shunga ko'ra termin har vaqt ayni bir tushunchani anglatadi. Masalan, tilshunoslikdagi *urg'u-* termini 'havo oqimiga beriladigan zarb yordamida leksemashaklning talaffuz jihatidan bir butunligini hosil etish usuli' tushunchasini, adabiyotshunoslikdagi *qofiya-* termini 'she'r misralari oxirining tovush jihatidan bir xilligi' tushunchasini anglatadi.

Har bir termin odatda ma'lum bir sohaniki bo'ladi. Ammo shunday hollar ham uchraydiki, bir leksema ayni vaqtida bir necha sohaning termini bo'lib ham xizmat qiladi. Masalan, *tekislik-* leksemasi geografiyada ham ('ravnina' ma'nosida), matematikada ham ('ploskost' ma'nosida) termin sifatida ishlataladi. Asli bunday holatga yo'l qo'yмаган ма'гул.

Ba'zan bir sohaning o'zi doirasida ikki har xil tushuncha ayni bir leksema bilan anglatiladi. Bunday salbiy holatga umuman yo'l qo'yib bo'lmaydi. Masalan, o'zbek tilshunosligida *daraja-* leksemasi uzoq vaqt ikki har xil hodisaning nomi sifatida ishlataldi: *sifat darajalari-, fe'l darajalari-*; keyinchalik ikkinchi hodisa *nisbat-* termini bilan nomlandi; *qaratuvchi-* leksemasi ham uzoq vaqt kelishikning va bo'lakning nomi sifatida ishlataldi, hozir bo'lakning nomi sifatida *qaratuvchi-* termini qabul qilindi.

Ko'pma'nolilik notermin leksemada tabiiy, hatto zaruriy holat deb qaralsa, terminda g'ayriqonuniy, chalkashlikka olib keladigan, qiyinchilikni yuzaga keltiradigan holat deyiladi. Chunki notermin leksema nutqda har gal bir leksik ma'nosи bilan ishlataladi. Ko'pma'noli (aniqrog'i har xil ma'noli) terminda esa uning bir ma'nosи boshqa ma'nosini istisno qilib turavermaydi. Shunga ko'ra ayni bir matnda har xil mazmun duch kelib qoladi. Bunday salbiy holat asosan termin bir sohaning o'zida ko'pma'noli (har xil ma'noli) bo'lganida yuz beradi.

Biror kasb yoki sohaga doir tushunchani anglatadigan, leksik ma'nosи aniq ta'riflangan, ishlatalishi ma'lum doira bilan cheklangan leksemaga *termin* deyiladi. Biror kasb yoki soha terminlarining jami shu kasb yoki sohaning terminologiyasi deyiladi.

Barcha terminlar mohiyat jihatidan bir xil emas. Fan-texnika sohalarida ishlataladigan terminlarda-gina ular anglatadigan tushuncha aniq ta'riflanadi,

shunga ko'ra ularning ishlatilish doirasi ham aniq cheklangan bo'ladi, bunday terminlarda leksik ma'no taraqqiyoti uchun ham imkoniyat bo'lmaydi. Masalan, *fonema-*, *morfema-* (tilshunoslik), *chekanka-* (*chilpish*), *kultivatsiya-* (qishloq xo'jaligi) terminlarida shunday (Ilm-fanning taraqqiyotiga, muallifga bog'liq holda voqe bo'ladigan ayrimliklar tushunchaning aniq ta'riflanishiga xalal yetkazmaydi).

Ba'zan leksema ma'lum bir kasb-hunarga, sohaga xos bo'ladi-yu, lekin u anglatadigan tushuncha aniq ta'riflanmagan bo'ladi. Shu sababli bunday leksemalar leksik ma'no taraqqiyotiga uchrashi mumkin. Masalan, *kitob-*, *daftар-*, *qalam-*, *qog'oz-* kabi leksemalar asli ma'lum bir sohaniki. Shunga qaramay bu leksemalar bir necha leksik ma'noda ishlatiladi. Jumladan, *qalam-* leksemasi 'ingichka grafitning ustini yupqa yog'och bilan qoplab tayyorlangan yozuv quroli' ma'nosini anglatadi; bu leksema ayni vaqtida 'yozuvchi', 'qalamkash' (*qalam ahli*) ma'nolarini ham anglatadi.

Terminning keng ommalashib ketishi ham uni notermin leksemaga aylantiradi: *plan-*, *planlashtirish-*, *budget-* kabi leksemalar hozir keng miyosda ishlatilib, ularning termin ekanligi sezilmas holga yetgan.

4- §. Ikki hodisani farqlash kerak: termin yaratish bor va termin o'zlashtirish bor. Bu ikki hodisa alohida-alohida baholanishi lozim. Termin asosan ikki yo'l bilan yaratiladi:

1. Tilda mavjud leksema yangi ma'noda — terminologik ma'noda ishlatiladi. Buni *terminologik ma'noli leksema* deb atash mumkin. Masalan, *qo'shimcha-* leksemasi asli 'dopolneniye' ma'nosini anglatadi: *Takliflar bo'yicha qo'shimcha va tuzatishlar bormi?* Bundan tashqari, *qo'shimcha-* leksemasi yana terminologik ma'noga ham ega: *ko'plik qo'shimchasi-*, *kelishik qo'shimchasi-* kabi.

Terminologik ma'no bilan unga asos bo'lgan leksik ma'no orasidagi bog'lanish ozmi-ko'pmi sezilib turadi, shu sababli bunday ma'nolar bir leksemaning ma'nolari sifatida birlashadi. Masalan, *gap-* leksemasi o'zbek tilida avvalo 'razgovor' ma'nosini anglatadi; *Gapni Tavhidiy boshladi* (Abdulla Qahhor). Bu leksemaning yana bir leksik ma'nosи — 'ziyofat': *Chol o'ldi, o'g'il yeb yotibdi: gap-gashtak, bazm, uloq, mehmon-izlom inchunun* (Oybek). Bulardan tashqari, *gap-* leksemasi grammatik termin bo'lib ham xizmat qiladi: *gap bo'laklari-*, *qo'shma gap-* kabi.

Misollardan ko'rindik, terminologik ma'no kashf etish tub leksemaga ham, yasama leksemaga ham xos.

2. Termin maxsus yasaladi. Buni yuqoridaq hodisadan farqlab *termin leksema* deb atash mumkin. Masalan, *bosim-*, *ko'rsatkich-*, *kelishik-*, *turlovchi-*, *tuslovchi-* kabilar — o'zbek tilida yasalgan termin leksemalar. Bunday leksema odatda faqat termin sifatida xizmat qiladi.

Termin leksema yasashda ikki hołat bor:

a) o'zigacha parallel yasalish yo'q bo'ladi, yangidan yasaladi: *urg'u-* – 'udareniye', *yuklama-* – 'chastitsa', *sifatdosh-* – 'prichastiye', *ravishdosh-* – 'deyeprichastiye' kabi;

b) o'zigacha parallel yasalish bor bo'ladi: *birlik-* – 'edinstvo' va *birlilik-* – 'edinstvennoye chislo', *kesim-* – 'lomot', 'kusok' va *kesim-* – 'skazuyemoye' kabi. Bunda bir yasama leksemaga parallel ravishda qayta yasash voqe bo'ladi, yasalma har gal yangi leksik ma'noni anglatishga xizmat qiladi. Bunday yasalish oz uchraydi.

Terminologik ma'no o'zi uchun asos bo'lgan leksik ma'noga nisbatan ikkilamchi, hosila ma'no bo'ladi. Termin leksemada (agar u ko'p ma'noli bo'lsa) taraqqiyot aksincha yuz beradi: terminologik ma'no birlamchi, boshqa leksik ma'no terminologik ma'noga nisbatan ikkilamchi, hosila ma'no bo'ladi: *urg'u-* – tilshunoslik termini, *urg'u-* – 'alohida e'tibor' kabi.

### Leksik ma'noning semalari

5- §. Leksik ma'no mavhum hodisa bo'lib, uning mohiyati, mundarijasini aniq tasvirlash uzoq yillar davomida muammo bo'lib kelar edi. XX asr tilshunosligining eng muhim yutuqlaridan biri leksik ma'noni uzvlarga parchalab o'rghanish usulining kashf etilishi bo'ldi. Bu usul avval *komponent analiz metodi* deb, keyinchalik *semik analiz metodi* deb nomlandi (*komponent* – lot, *componentis* – 'tarkib toptiruvchi', 'qatnashuvchi', *sema* – yunoncha *sema* – 'belgi'). Leksik ma'noning semalari voqelikka nisbat berib ajratiladi. Bunda semalar keng tushunchadan tor tushunchaga tomon ketma-ket belgilanadi. Masalan, *qo'l-* leksemasi bosh leksik ma'nosining semalarini ajratishda avval 'jonli predmet' tushunchasi (jonsiz predmetlarga zid qo'yib), keyin 'kishi' tushunchasi (boshqa jonlilarga zid qo'yib) hisobga olinadi; shundan keyin 'kishi tanasi', 'kishi tanasining a'zosi' semalari belgilanib, so'ngra ta'riflanayotgan a'zo tananing qaysi qismida qanday joylashgani (yelkadan barmoq uchigacha), qanday vazifani bajarishi (ushlash) aniqlanadi; yuqorida sanalgan belgilardan har biri ta'riflanayotgan leksik ma'noning semalari hisoblanadi, leksik ma'no ana shu semalar asosida ta'riflanadi. Yuqorida sanalgan belgililar (semalar) asosida *qo'l-* leksemasining bosh leksik ma'nosini 'kishi tanasining yelkadan boshlanib barmoq uchigacha davom etadigan, ushslash vazifasini bajaradigan a'zosi' deb ta'rifladik. Bu ta'rifni *qo'l-* leksemasining shu leksik ma'nosiga "O'zbek tilining izohli lug'ati'da berilgan ta'rif bilan qiyoslang: 'odamning barmoq uchlardan yelkasigacha bo'lgan qismi, a'zosi'.

Bu izohli lug'at tuzilgan yillarda leksik ma'no semik tahlil usuli bilan o'r ganilmas edi; hozir qayta tuzilayotgan izohli lug'atda leksik ma'nolar semik

tahlil asosida ta'riflanishi lozim; shunda oldingi nashrida yo'l qo'yilgan juda ko'p nuqsonlar bartaraf qilinadi.

Leksik ma'no tarkibida ajratiladigan semalar *ideografik sema* deb nomlanadi (yunoncha *idea* – 'tushuncha', *graphike* – 'yozuv'). Leksik ma'noga ta'rif ideografik semalar asosida tuziladi. Masalan, semik tahlil usuli bilan *aka-* leksemasining leksik ma'nosini tarkibiga kiruvchi quyidagi ideografik semalar aniqlanadi: a) 'kishi', b) 'erkak', v) 'tug'ishgan' ('bir ota-onaning farzandi'), g) 'yoshi katta'. Ushbu ideografik semalar asosida leksik ma'no ta'rifini quyidagicha tuziladi: 'bir ota-onaning yoshi boshqalaridan katta erkak farzandi'. Ko'rinadiki, leksik ma'no ta'rifiga ideografik semalarni to'liq va ay-nan kiritish shart emas, ulardan zarur va maqbul tarzda foydalaniлади.

Leksik ma'noning ideografik semalarini aniqlashda bevosita voqelikning o'ziga murojaat qilinadi, chunki leksema bilan (leksik ma'no bilan) ma'lum bir voqelik to'g'ridan to'g'ri nomlanadi, ma'lum bir ma'no ham shunday birktiladi. Ideografik semalarni leksemalarni o'zaro qiyoslab belgilash boshqa maqsadlar bilan (masalan, leksemalarning leksik-semantik guruqlarini o'rganishda) amalga oshiriladi (Bu to'g'rida keyinroq gapiriladi).

### Baho semasi

**6- §.** Leksemaning mazmun jihatida, voqelikni nomlashdan tashqari, nomlanayotgan voqelikka munosabat ham bildiriladi. Voqelikka munosabat bildirish belgisiga *baho semasi* deyiladi. Masalan, *qush-* va *qushcha-* leksemalari leksik ma'no anglatishiga ko'ra bir xil, baho ifodalashiga ko'ra farqli. *Qush-* leksemasi baho semasi jihatidan betaraf anglatilayotgan narsaga ijobjiy yoki salbiy munosabat ifodalanmaydi; *qushcha-* leksemasida bunday munosabat ifodalanadi. Demak, *qushcha-* leksemasining semantik mundarijasi *qush-* leksemasiniidan boy.

Leksemaning mazmun jihatida asosiy hodisa – leksik ma'no; baho semasi leksik ma'noni qurshab turadi. Baho semasi asosan uch xil ifodalanadi: 1) morfema yordamida, 2) leksemaning o'zi bilan, 3) kontekst yordamida.

Baho semasining morfema yordamida ifodalanishi *morfologik ifodalanish* deyiladi. Hozirgi o'zbek tilida bunday vazifani -*cha* (*qushcha-* kabi), -*gina* (*qizginam* kabi), -*jon* (*otajonim* kabi), -*chak*, -*choq* morfemalari (*kelinchak*, *qo'zichiq*- kabi) bajaradi. Bu morfemalar ijobjiy munosabat ifodalashga xizmat qiladi.

Baho semasi leksemaning o'zi bilan ifodalansa, *leksik ifodalanish* deyiladi. Bunda baho semasi leksemalarning o'zaro semantik munosabatida ochiq ko'rinadi. Masalan, *yuz-*, *bet-*, *aft-*, *bashara-* leksemalari ayni bir leksik ma'noni anglatadi, baho semasining ifodalanishiga ko'ra esa farqli. Baho semasi jihatidan eng betaraf leksema – *yuz-*. Ikkinci o'rinda *bet-* leksemasi

turadi, lekin bu leksemada vogelikka salbiy munosabat aniq seziladi. Masalan, *Yuzingni yuv*, *Betingni yuv* jumlalarida fikr bir, lekin munosabat boshqa-boshqa: ikkinchi jumla odatda kattaning kichikka yoki umuman mensimay muomala qilishda ishlataladi. *Aft-*, *bashara-* leksemalarida salbiy baho semasi yana ham kuchli ifodalananadi: *Aftingni yuv*, *Basharangni yuv* kabi.

Umuman, baho semasi kuchaya borgan sari bunday leksemaning boshqa leksemalar bilan bog'lanish imkoniyati, ishlatalish doirasi toraya boradi. Masalan, *aft-*, *bashara-* leksemalari asosan ayollar nutqida ishlataladi, shunda ham ko'pincha *quri-*, *ol-*, *ko'tar-* kabi bir necha fe'l leksema bilan-gina bog'lanib keladi: *Afting qursin*, *Basharang qursin*, *Aftingdan olsin* kabi. Xuddi shunday bog'lanishlarda *yuz-*, *bet-* leksemalari deyarli ishlatilmaydi. Aksincha, oddiy, betaraf tasvirlarda asosan *yuz-*, *bet-* leksemalari ishlatilib (*Yuzini yuvib kirib ketdi* kabi), *aft-*, *bashara-* leksemalari bunday hollarda deyarli ishlatilmaydi.

Baho semasi asli betaraf baholi leksemani o'z ishlatalish doirasidan boshqa bir doiraga ko'chirish tufayli ifodalansa, *kontekstual ifodalish* deyiladi (lot. *contextus* - 'zich aloqa', 'bog'lanish'). Masalan, *bosh-* leksemasi kishi tanasining a'zosiga nisbatan, *kalla-* leksemasi esa hayvon tanasining a'zosiga nisbatan ishlataladi. Bulardan har biri o'z ishlatalish doirasida baho semasi jihatidan betaraf: *Boshini quyi soldi*. *Kalla solib sho'rva pishirdi* kabi. Ammo *kalla-* leksemasi hayvondan odamga ko'chirib ishlatsa, salbiy baholi bo'lib qoladi. Odatda *bosh-* leksemasi bilan aqlilik anglatilsa, *kalla-* leksemasi shuning aksi uchun ishlataladi: *Kalla deb oshqovoqni ko'tarib yurgan ekansan-da, og'ayni!* kabi. Bunday o'rinda *kalla-* leksemasini *bosh-* leksemasi bilan almashtirib bo'lmaydi.

Umuman, *bosh* bilan bog'liq salbiy tushunchalar odatda *kalla-* leksemasi yordamida anglatiladi: *kallavaram-*, *kallaxum-* (*xumkalla-*), *kalla ur-* (*kalla qo'y-*) kabi. Shu nuqtayi nazardan quyidagi matnda *kalla-* leksemasining ishlatilgani xato: *Bu oltin kallaning bahosi yuksak, Dushmanlar bunga xun to'lashi kerak!* (Yashin).

Quyidagi matnda shoir leksemalarning baho semasidan juda ustalik bilan foydalangan (Birinchi misradagi *bosh-* leksemasi oxirgi misradagi *kalla-* leksemasini baho semasi jihatidan juda bo'rttirib turibdi): *Bu Ja'farning boshini silar Muallimi: "Barakalla", – deb, U Ja'farga tushar dakkilar: "Hay, tezroq yur, qora kalla!" – deb* (Shayxzoda).

Kontekstual ifodalishning bir turi deb baho semasining *situativ ifodalishini* ko'rsatish mumkin (fr. *situation* - 'holat', 'vaziyat'). Bunday ifodalishda har safar konkret nutq situatsiyasi nazarda tutiladi. Masalan, *olim-* leksemasi shunday fazilati bor kishiga qarata ishlatsa, baho semasi betaraf bo'ladi; agar bu leksema taqlidchiga, soxta intiluvchiga qarata mazax tariqa-

sida ishlatilsa, bu leksema salbiy bahoga ega bo'lib qoladi: *Olimimiz o'z mu-lohazalarini bayon qilmoqchilar-ku* kabi.

Baho semasi bilan voqelikka ijobjiy yoki salbiy munosabat ifodalanadi. O'zbek tilida morfologik usul bilan voqelikka ijobjiy munosabat bildiriladi. Leksik ifodalanishda esa ijobjiy munosabat ham, salbiy munosabat ham bildiriladi (*chehra-, bashara-* leksemalarida bo'lgani kabi). Kontekstual, situativ ifoda usulida odatda voqelikka salbiy munosabat bildiriladi. Ijobjiy yoki salbiy munosabat bildirilmagan hollarga nisbatan betaraf baho semasi haqida gapiriladi. Leksemalarning asosiy qismi baho semasi jihatidan betaraf bo'ladi.

### Lisoniy ma'no va nutqiy ma'no

7- §. Lisoniy ma'no — leksemadan til birligi (lisoniy birlik) sifatida anglashiladigan ma'no. Nutqda leksemaning lisoniy leksik ma'nosi namoyon bo'ladi. Shu bilan birga nutqda leksema turli shart-sharoit ta'siri bilan yangicha ma'noni anglatish uchun ham ishlatiladi. Bu ikki tur ma'no *lisoniy ma'no va nutqiy ma'no* deb farqlanadi; birinchisi *uzual ma'no* deb, ikkinchisi *kontekstual ma'no* deb ham yuritiladi (lot. *usus* — 'odat', 'qoida'; lot. *contextus* — 'zich aloqa', 'bog'lanish'); nutqiy ma'no *leksik qo'llash* ham deyiladi.

Lisoniy ma'no bilan nutqiy ma'no quyidagicha farq qiladi:

1. Lisoniy ma'no til birligi bo'lib, shu tilda gapiruvchilar tomonidan tan olingan, qabul qilingan bo'ladi. Nutqiy ma'no esa individual nutq hodisasi bo'lib, shu tilda gapiruvchilar orasida umumlashmagan, qabul qilinmagan, ayrim muallif nutqiga-gina xos bo'ladi.

2. Lisoniy ma'no lug'at boyligi tarkibiga kiradi, shunga ko'ra u umumtil lug'atida beriladi va ayrim izohlanadi. Nutqiy ma'no esa umumtil lug'at boyligi tarkibiga kirishi mumkin bo'lgan imkoniyat, shunga ko'ra u umumtil lug'atida berilmaydi.

3. Lisoniy ma'no shu tilda gapiruvchilar uchun umumiyo bo'ladi. Nutqiy ma'no esa shu tilda bor lisoniy ma'nolardan birining ayrim muallif nutqida yangicha berilishi, yangicha baholanishidir. Nutqiy ma'no shu tilda gapiruvchilar tomonidan tan olinsa, ko'pchilik nutqida ishlatilsa, shunda-gina u lisoniy ma'noga aylanadi.

4. Lisoniy ma'no matnda namoyon bo'ladi: lisoniy ma'no har galgi konkret matnda yuzaga kelmaydi, balki shu matngacha shakllangan bo'ladi, matn uni yuzaga chiqarib beradi. Nutqiy ma'no esa konkret matnning o'zida voqe bo'ladi: ma'lum bir muallif tuzgan matnda shakllanadi, shu matn doirasida mavjud bo'ladi.

5. Lisoniy ma'no leksemana birkiladi va barqaror bo'ladi. Nutqiy ma'no esa shu leksemaning o'ziniki deb emas, balki u ishlatilgan matnniki deb

qaraladi, shunga ko'ra barqaror bo'lmaydi: shu matn bo'lmasa, shunday matn sababli paydo bo'lgan nutqiy ma'no ham yo'qoladi.

6. Lisoniy ma'no biror voqelikni nomlash uchun xizmat qiladi (Bunda obrazlilik ham ifodalanishi mumkin). Nutqiy ma'no esa asosan obrazlilik yaratish uchun xizmat qiladi. Nutqiy ma'no biror voqelikning nomi bo'lmay (Bunday vazifani lisoniy ma'no bajaradi), balki voqelikning o'zgacha ifodasi bo'ladi.

Yuqorida sanalgan belgilarni asosida quyidagi badiiy parchalarni kuzataylik:

— *Ayb o'zingizda! — Saidaga qo'lini bigiz qilib. — Odamlar bilan aymoqi bo'lib, kattalarни betga chopar, beandisha, yoshlarни shapshak qilib qo'ydingiz!* (Abdulla Qahhor).

Bu personaj nutqida *aymoqi bo'l-* fe'l yangicha matnda berilgan. O'simlikning o'sish jarayonini anglatuvchi bu fe'l kishilar orasidagi munosabatga ko'chirilgan. Bu leksik qo'llashda *aymoqi bo'l-* fe'lining lisoniy ma'nosiga suyanib ('o'z-o'zicha, erkin o's-), 'ko'pchilikdan ajralib turmaslik' kabi ma'no hosil qilingan. Bunday nutqiy ma'no *aymoqi bo'l-* leksemasini individual qo'llash natijasida yuzaga kelgan.

— *Qalandarov yaxshi tashkilotchi deymiz, lekin bu chiroyli gulasta qanaqa gullardan bog'langanini bilmaymiz* (Abdulla Qahhor). Bu matnda ishlatalgan *gulasta-* leksemasi asli 'bir qancha gulning bog'lami'ni anglatadi; bu matnda esa leksik qo'llash tufayli bir kishining (Qalandarovning) tashkilotchilik mahoratini anglatish uchun ishlatalgan.

Nutqiy ma'no ayniqsa nazmda ko'p voqe bo'ladi. Masalan, quyidagi to'rtlikning uchinchi misrasida *kumush-, zumrad-* leksemalari *qish-, bahor-* leksemalariga mohirlik bilan individual bog'lab ishlatalgan, natijada *kumush-* leksemasi bilan 'oq' ma'nosini, *zumrad-* leksemasi bilan 'yashil' ma'nosini anglatishga erishilgan:

*Har faslning o'z xislati bor,  
Har faslning o'z fazilati.  
Kumush qishdan, zumrad bahordan  
Qolishmaydi kuzning ziynati... (Uyg'un).*

Nutqiy ma'noni anglash uchun ba'zan ancha keng matn bilan tanishish zurur bo'ladi. Bunday hollarda nutqiy ma'no o'ta individual, shartli bo'lasi, keng izohni talab qiladi. Masalan, mana bu nutqiy ma'noni muallif o'zi istagancha tushuntirish uchun qanchalik keng kontekst tuzgani o'z-o'zidan ko'rinish turibdi:

— *Biz hozir muhokama qilayotgan illatlarni Zulfiqorov undirib, Zulfiqorov o'stirgani yo'q!* — dedi Saida. — *Bu illatlarning chuqrilaizlari o'zimizda bo'lgan; qay sabab bilan bo'lmasin, kolxoziimizda vujudga kelgan*

"ob-havo sharoiti" uni ko'kartirgan, ayrim hollarda g'ovlatib yuborgan. Biz hozir bu illatlarning g'ovlab ketgan joyini ko'rib turibmiz. Bu "ob-havo sharoiti", bir tomonidan, illatni ko'kartirgan, o'stirgan bo'lsa, ikkinchi tomonidan, odamlarni shu illatlarga ko'niktirgan, bularni payqamaydigan qilib qo'ygan. Hammadan mana shu yomon!

"Kolxoza ob-havo sharoiti" degan gap Qalandarovga tegib ketdi (Abdulla Qahhor).

"Sinchalak" povestining nega shunday nomlanishini anglash uchun ushbu asarni o'qib chiqish lozim. Bu yerda qush nomi voyaga yetgan qizga ko'chiriladi, avval salbiy tavsifdek beriladi, keyin ijobiya aylanadi, oxiri "gap jussada emas, o'z ishining to'g'riliqiga ishonchda, iroda kuchida, ko'pchilikka suyanib ish tutishda" degan mazmun kelib chiqadi.

Leksik qo'llash hamma vaqt o'rinni bo'lavermaydi. Leksemaning semantik mazmuniga, shu leksema bilan boshqa leksemalar orasidagi ma'no munosabatlariga zid kelmaydigan leksik qo'llash-gina ijobiylari bo'ladi. Shunday talabga javob beradigan nutqiy ma'no shu leksemaning mazmun jihatidagi mavjud imkoniyatni davom ettiradi. bora-bora lisoniy ma'noga aylanishi mumkin.

Boshqa hodisalar qatori, nutqiy ma'no ham "Nutqda faqat lisonda bor narsa-gina namoyon bo'ladi" degan fikr asosli emasligini tasdiqlaydi. Asli lisonga barcha ma'lumot avval nutqdan o'tadi va keyin-gina lisondan nutqqa qalqiydi; til taraqqiyotiga nutq doim hissa qo'shib turadi. Zotiylikni (substantiallikni) faqat *lison* → *nutq* yo'naliishida talqin qilish hodisalarni baholashda biryoqlamalikka olib keladi.

## LEKSEMAALARDA KO'PMA'NOLILIK

1- §. Bittadan ortiq ma'no anglatish (ifodaflash) hodisasiga ko'pma'nolilik deyiladi. Bunday xususiyat til birligi sifatida leksemaga ham xos.

Hozirgi adabiy o'zbek tilidagi leksemalarning deyarli yarmi birma'noli. Yangi yaratilgan leksema (yangi o'zlashtirilgan leksema ham) boshlang'ich ishlatilish davrida birma'noli bo'ladi, biror vogelikning nomi sifatida yuzaga kelib, keyinchalik uning mazmun jihatida turli-tuman o'zgarishlar yuz beradi, shunday o'zgarishlarning ma'lum bir qismi natijasida birma'noli leksema yangi leksik ma'no kashf etib, ko'pma'noli leksemaga aylanadi.

Termin ham odatda birma'noli bo'ladi (Termin izohlangan sahifalarga qarang).

Eng tor kontekstli leksema odatda birma'noli bo'ladi, bunday leksema faqat bir ma'no yo'naliishidagi leksemalar bilan (ba'zan faqat bir leksema bilan) bog'lanib keladi, shunday bog'lanishdan tashqarida mustaqil ishlatalmasligi ham mumkin. Masalan, *o'taka-* leksemasi juda tor kontekstli va bir-

ma'noli: *o'takasi yorildi* iborasi tarkibida ishlatalib, 'jigardan ajralib chiqadi-gan sarg'ish-yashil rangli achchiq suyuqlik to'planadigan pufakcha' ma'nosini anglatadi.

Leksemaning ma'nolari asli kontekstda shakllanadi va namoyon bo'ladi: kontekst qanchalik rang-barang bo'lsa, bu leksemaning ma'nolari shunchalik ko'p bo'ladi. Bunda shu leksema bilan bog'lanib keladigan leksemalarning miqdori emas, balki turli-tuman semantik yo'nalishdagi leksemalar bo'lishi muhim.

Leksik ko'pma'nolilik — ko'pqirrali, murakkab hodisa. Buning ustiga de-yarli har bir leksemaning leksik ma'no taraqqiyoti alohida-alohida yondashishni, izohlashni talab qiladi. Shu sababli leksemalarning leksik ma'nolarini aniqlash va tartiblash juda qiyin. Adabiyotlarda leksemalarning ko'pma'noliligi haqida bildiriladigan fikrlar o'ta mavhum bo'lib, leksik ma'no taraqqiyoti haqida umumiy tasavvur hosil etishga xizmat qiladi.

### **Leksik ma'noning taraqqiyot yo'llari**

2- §. Leksik ma'no odatda bir predmet, belgi, harakatning nomini boshqa bir predmet, belgi, harakatga ko'chirish yo'li bilan rivojlanadi. Bunday ko'chirishning tabiatini, mavqeini har bir tilning o'zidagi semantik qonuniyatlar belgilaydi.

Ko'chirishlar asosan quyidagilar: metafora yo'li bilan ko'chirish, funk-sional ko'chirish, metonimiya yo'li bilan ko'chirish, sinekdoxa yo'li bilan ko'chirish. Ko'chirish qorishiq holda (metafora-funksional, metafora-metoni-miya, metonimiya-funksional tarzida) ham uchraydi (Misollari quyiroqda).

Biror predmet, belgi, harakatning nomi boshqasiga o'zaro tashqi (shakli, rangi kabi jihatlari bilan) o'xshashligi asosida ko'chirilsa, metafora yo'li bilan ko'chirish deyiladi (yunoncha *metaphora* — 'ko'chirish'). Masalan, yo'l- leksemasi asli 'yurish joyi' ma'nosini anglatadi. Shunday o'xshashlik asosida bu leksema 'satr' ('bir chiziq bo'ylab joylashtirilgan yozuv') ma'nosini ham anglata boshlagan.

Metafora yo'li bilan ko'chirishning asosiy ko'rinishlari:

1. Bir predmetning nomi boshqa bir predmetga shakliy o'xshashlik asosida ko'chiriladi: *og'iz-* (odamning og'zi) — *og'iz-* (shishaning og'zi), *qo'litiq-* (odamning qo'litiq'i) — *qo'litiq-* (dengizdag'i qo'litiq), *tish-* (odamning tishi) — *tish-* (arraning tishi), *etak-* (kiyimning etagi) — *etak-* (tug'ning etagi) kabi.

I z o h. Bunday ko'chirish natijasida ba'zan zid ma'no ham tug'ilishi mumkin. Masalan, *bosh-* leksemasining birinchi ma'nosidan metafora yo'li bilan ko'chirish asosida 'ibtido', 'muqaddima' ma'nosini hosil bo'lgan: *maqlolaning boshi-* kabi. Bundan tashqari, 'oxir', 'xotima' ma'nosini ham o'sib

chiqqan: *boshi herk ko'cha-* kabi. Bir leksemaning bunday zid ma'nolarni anglatishi hodisasi *enantiosemiya* deyiladi (yunoncha *en-* – 'yaqin', *anti-* – 'qarshi'). Yana qiyoslang: *Koridorning u boshidan bu boshigacha stullar qo'yilgan*. Bu jumlada *bosh-* leksemasi umuman 'tomon' ma'nosiga ega bo'lib qoladi.

2. Bir predmetga (ba'zan harakatga) xos belgining nomi boshqa bir predmetdagi belgiga ko'chiriladi: *achchiq-* (*achchiq qalampir-*) – *achchiq-* (*achchiq gap-*), *to'g'ri-* (*to'g'ri chiziq-*) – *to'g'ri-* (*to'g'ri gap-*), *jonli-* (*jonli tabiat-*) – *jonli-* (*jonli suhbat-*), *tez-* (*tez yur-*) – *tez-* (*tez odam-*) kabi.

I z o h. Bir predmet nomini boshqa bir predmetga belgi sisatida ko'chirish ham mavjud: *tosh-* ('qattiq jism') – *tosh nok-* ('qattiq'), *oltin-* (qimmatbaho ma'danning nomi) – *oltin yaproqlar-* ('sap-sariq') kabi. Bunda narsaning nomi belgini anglatib keladi. Yuqoridagi misollarda esa belgining nomi bir predmetdan boshqasiga ko'chiriladi.

3. Bir predmetga xos harakatning nomi boshqa bir predmetning harakatiga ko'chiriladi: *savala-* (nimani) – *savala-* (kimni), *cho'k-* (*cho'kkala-*) – *cho'k-* (imoratning cho'kishi) – *cho'k-* (odamning qariganda cho'kishi), *o'l-* (jonlilarda hayotning tugashi) – *o'l-* (*o'simlik palagining so'lishi*, *qurishi*) kabi.

3- §. Biror predmetning nomi boshqasiga ular bajargan vazifasidagi o'xshashlik asosida ko'chirilishi funksional ko'chirish deyiladi (lot. *funktio* – 'faoliyat', 'vazifa'). Funksional ko'chirish ham o'xshashlik asosida voqe bo'la-di. Bu jihatdan u metafora yo'li bilan ko'chirishga juda yaqin. Farq shundaki, metafora yo'li bilan ko'chirishda predmetlar orasidagi tashqi ko'rinish jihatdan, material jihatdan o'xshashlik asosga olinsa, funksional ko'chirishda vazifa jihatidan o'xshashlik nazarda tutiladi. Masalan, qush tanasidagi uchish uchun xizmat qiladigan a'zo *qanot-* deyiladi. Shunga o'xshash vazifani bajaruvchi qism samolyotga nisbatan ham *qanot-* deb nomlangan.

Shuningdek, ilgarilari *ko'mir-* leksemasi 'ko'mib yondirish usuli bilan o'tindan tayyorlangan yoqilg'i' ma'nosini anglatar edi. Hozir esa 'yer qatlamida tabiiy yo'l bilan hosil bo'lgan qattiq va qora rangli yoqilg'i' ma'nosiga ko'chdi. Endi bu ikki ma'nodan asosan keyingisi ko'p uchraydi. Yuqoridagi yoqilg'inining ikki turini farqlash lozim bo'lib qolsa, bular sifatlovchi keltirish yo'li bilan farqlanadi: *pistako'mir-*, *toshko'mir-* deb nomlanadi.

Yana misollar: *chiroq-* (qora chiroq – sham chiroq – kerosin bilan yo-qiladigan chiroq – elektrolampochka), *siyoh-* (yozuv uchun ishlataladigan qora rangli suyuqlik) – *sivoh-* (yozuv uchun ishlataladigan suyuqlik, rangi har xil bo'laveradi) kabi.

Funksional ko'chirishda ko'pincha shakliy o'xshashlik ham qatnashadi. Masalan, yuqorida keltirilgan *qanot*- leksemasida shakl jihatidan, *ko'mir*- leksemasida rang jihatidan, *siyoh*- leksemasida holat (suyuq) jihatidan o'xshashlik bor. Shu sababli bu ko'chirishlarni funksional – metaforik ko'chirish deb baholash mumkin.

4- §. Bir predmetning, belgining, harakatning nomi boshqasiga o'xshashlik asosida emas, balki o'zaro bog'liqlik asosida ko'chirilishi metonimiya yo'li bilan ko'chirish deyiladi (yunoncha *metonymia* – 'qayta nomlash'). Masalan, *dasturxon*- leksemasi 'ovqatlanish uchun yoziladigan bumat'ni anglatadi; bu leksema bilan ovqatning o'zi, 'dasturxonga qo'yiladigan noz-ne'mat' ham bildiriladi.

Metonimiya yo'li bilan ko'chirishning asosiy ko'rinishlari:

1) Bir predmetning nomi shu predmetdagi boshqa bir predmetga ko'chiriladi: *bosh*- ('kishi organizmining bo'yindan yuqori qismi') – *bosh*- ('miya': *Boshim og'ridi*), *ich*- ('ichki tomon') – *ich*- ('qorin bo'shlig'ida joylashgan a'zolar': *Ichim og'ridi*) kabi.

2) Bir predmetning nomi shu predmetga asoslangan o'chov birligining nomi bo'lib xizmat qiladi: *kun*- ('quyosh') – *kun*- ('sutkaning yorug' qismi'), *oy*- – ('yerning yo'ldoshi') – *oy*- ('yilning o'n ikkidan bir qismi'), *jo'ra*- ('o'rtoq') – *jo'ra*- ('ikki qismdan iborat bir kiyimlik mato': *bir jo'ra atlas*) kabi.

3) Bir predmetning nomi shu predmet asosida hosil bo'ladigan predmetga ko'chiriladi: *til*- (nutq a'zosi) – *til*- ('nutq'), *choy*- (o'simlik) – *choy*- (ichimlik), *dam*- ('nafas', 'havo') – *dam*- ('tinim', 'vaqt', 'daqiqa') kabi.

4) Belgining nomi shunday belgisi bor predmetga ko'chiriladi: *ko'k*- (rang nomi) – *ko'k*- ('ko'kat'), *ko'k*- ('osmon'), *kir*- ('iflos') – *kir*- ('ifloslangan yoki yuvilgan kiyim-kechak'), *yupqa*- (qalinning aksi) – *yupqa*- (taom nomi), *chuqur*- (sayozning aksi) – *chuqur*- ('o'ra') kabi.

I z o h. Bu banddag'i holat metafora yo'li bilan ko'chirishga o'xshash, lekin farqli: metafora yo'li bilan ko'chirishda bir predmetdagi belgining nomi boshqa predmetdagi belgiga ko'chiriladi (*oq qog'oz* – *oq gvardiya*- kabi), metonimiya yo'li bilan ko'chirishda esa belgining nomi predmetga ko'chiriladi (*oq* – rang nomi → *oq* – predmetning nomi: *ko'zning oqi*- kabi).

5) Harakatning nomi shu harakat natijasida hosil bo'ladigan predmetga ko'chiriladi: *atala*- – *atala*- kabi.

Nutqda *Fuzuliyni o'qib tugatdim*, "Toshkent ogshomi"ni o'qib turaman kabi ishlatishlar ham bor. Bularda asli atoqli va turdosh otdan tuzilgan (*Fuzuliy asarlari*, "Toshkent ogshomi" gazetasini kabi) birikma o'rniga atoqli otning o'zi ishlataladi. Natijada atoqli ot yangi leksik ma'no anglatmaydi, balki

o‘z ma’nosini saqlagan holda turdosh ot ma’nosini ham o‘z ustiga oladi. Yuqoridagi misollardan farq qiluvchi bu hodisa asosida tejamkorlik qonuni yetadi. Qiyoq qiling: *Yaxshi odamga yondash, yomon odamdan qoch.* — *Yaxshiga yondash, yomondan qoch.* "Mushtum" jurnaliga obuna bo‘ldim. — "Mushtum"ga obuna bo‘ldim.

Yuqorida aytilganlardan qat’i nazar, *Fuzuliy ni o‘qidim* bilan "Toshkent oyshomi"ni o‘qidim o‘zaro teng emas. Birinchisida muallif nomini aytish bilan asari ko‘zda tutiladi, ikkinchisida esa atoqli otning o‘zi — asarning nomi. Demak, metonimiya ozmi-ko‘pmi birinchisi o‘xshaydi. Agar *Fuzuliy ni o‘qidim* kabilarda metonimiya yo‘li bilan ko‘chirish voqe bo‘layotir desak, shunda ham lisoniy metonimiya haqida emas, balki nutqiy metonimiya haqida gapirish mumkin. Lisoniy birlik sifatida, masalan, *Fuzuliy* atoqli oti 'asar' ma’nosiga ega emas. Bunday ma’no shu atoqli otga nutqdagi vaziyati sababli vaqtincha birktiladi, shunday kontekstdan tashqarida yo‘qoladi. Demak, atoqli otni bunday ishlatishni kontekstual metonimiya deb atash mumkin.

5- §. Bir predmetning nomi boshqa bir predmetga qism bilan butun mu nosabati asosida ko‘chirilishi sinekdoxa yo‘li bilan ko‘chirish deyiladi (yu noncha *synekdoche* — 'nazarda tutish'). Sinekdoxa yo‘li bilan ko‘chirish metonimiya yo‘li bilan ko‘chirishning bir ko‘rinishi deyiladi. Sinekdoxa yo‘li bilan ko‘chirishning o‘ziga xos xususiyati miqdor belgisiga asoslanishidir.

Sinekdoxa yo‘li bilan ko‘chirish ikki xil:

1) Bir predmetning nomi sifatida unga xos biror qismning nomi ishlatiladi (qism orqali butun anglatiladi): *tuyoq-* (qism) — *tuyoq-* (butun: *Bahona bilan tuyoqqa ega bo‘lib qoldi*), *tirnoq-* (qism) — *tirnoq-* (butun: *Dunyoda tirnoqqa zor odamlar oz deysizmi?!*), *yostiq-* (qism) — *yostiq-* (butun: — 'hayot', 'umr': *Yostig‘ini quritaman*), *yurak-* (qism) — *yurak-* (butun: *Bu otashin yurak..*) kabi.

2) Bir predmetning nomi sifatida shu predmetni ham o‘z ichiga olgan butunning nomi ishlatiladi (butun orqali qism anglatiladi): *bosh-* (butun) — *bosh-* (qism — 'boshning ustki qismi': *Do‘ppi boshiga tor keldi*), *qo‘l-* (butun) — *qo‘l-* (qism — 'barmoq': *Besh qo‘l barobar emas*), *panja-* (butun) — *panja-* (qism — 'barmoqlar': *Besh panjangni og‘zingga tiqma*), *osh-* (umuman ovqat) — *osh-* (palov) kabi.

### Leksik ma’no taraqqiyotining natijalari

6- §. Turlicha ko‘chirishlar natijasida leksik ma’noda ikki xil hodisa yuz beradi: 1) ma’noning hajimi o‘zgaradi, 2) ma’noning miqdori e‘zgaradi.

Leksik ma’no ha ming’ o‘zgarishi ikki xil natijaga — leksik ma’no haj mining kengayishiga yoki torayishiga olib keladi:

1. Leksik ma'no hajmining kengayishi avvallari tor doiradagi voqelikni anglatgan leksemaning keyinchalik keng doiradagi voqelikni anglatish uchun xizmat qilishidir. Masalan, *non-* leksemasi avvallari bu predmetning tandirda pishiriladigan turini-gina anglatgan, hozir esa shu predmetning barcha xillarini anglatadi.

Aniq ma'noring mavhum ma'noga o'tishi ham leksik ma'no hajmining kengayishi hisoblanadi. Masalan, *otlan-* fe'lasi asli ko'chmanchilik davriga xos muayyan bir harakatni ('boshqa joyga ko'chish uchun otga minish, otga yuklanish'ni) anglatgan. Hozir esa umuman 'biror joyga borish uchun hozirlanish, kiyinish' ma'nosiga ko'chgan. Bunda avvalgi aniq ma'no o'mini mavhum ma'no olib. Bu leksema hozir faqat keyingi, keng ma'noda-gina ishlatalidi. Yana solishtiring: *ulya-* — *uylan-* ('uy-joyli qil-' — 'uy-joyli bo'l-') — *wyla-* — *wylan-* ('xotin olib ber-' — 'xotin ol-').

Atoqli otning turdosh otga (yoki boshqa biror turkum leksemasiga) aylanishi ham leksik ma'no hajmining kengayishi deb ko'rsatiladi: *Xosiyatxon-* — ayol kishining nomi — *xosiyatxon-* — atlasning turi, *Hotamtoy-* — afsonaviy qahramon — *hotamtoy-* — 'saxiy' kabi.

2. Leksik ma'no hajmining torayishi avvallari keng doiradagi voqelikni anglatgan leksema keyinchalik tor doiradagi voqelikni anglatishidir. Masalan, *qishloq-* leksemasi aslida 'qishlaydigan joy' ma'nosini anglatgan (*qish-* — *qishla-* — *qishlog-*). Keyinchalik, ko'chmanchilik hayotiga xos lavha yo'qolib, o'troqlashish natijasida yangi, tor hajmli leksik ma'no hosil bo'lgan. Endi *qishloq-* leksemasi 'qishloq xo'jaligi bilan shug'ullanadigan aholi yashaydigan joy' ma'nosini anglatadi. Shuningdek, *yarog-* leksemasi ham (*yara-* fe'lidan yasalgan) asli 'kerakli, lozim bo'ladigan narsa-qurol' ma'nosini bildirgan (*Kerak-yarog'ingni olib ol* jumlasida shu ma'noring izi saqlangan). Keyinchalik esa, leksik ma'no torayib, 'hujum qilishda ishlataladigan qurol' ma'nosini anglatishga o'tgan. *Emchi-* leksemasi ilgari 'davolovchi' ma'nosini anglatgan bo'lsa, hozir faqat 'emlovchi' ma'nosini anglatadi.

Turdosh otning (yoki boshqa biror turkum leksemasining) atoqli otga aylanishi ham leksik ma'noring torayishi deb ko'rsatiladi: *po'lat-* — (turdosh ot) — *Po'lat-* (atoqli ot), *hotir-* (sifat) — *Botir-* (atoqli ot), *o'lmas* (fe'l: *o'lma-s*) — *O'lmas-* (atoqli ot) kabi.

7- §. Yuqorida ta'kidlangan taraqqiyot yo'llari natijasida leksik ma'noring hajmi emas, balki miqdori o'zgarishi mumkin. Bir leksik ma'no asosida boshqa bir leksik ma'noring yuzaga kelishi o'z navbatida ikki xil hodisaga — ko'pma'nolilikka yoki omonimiyyaga olib keladi (Bulardan birinchisi ko'p, albaita).

Leksik ma'noring taraqqiyot yo'llariga nazar tashlasak (Shular bayon qilingan sahilarga qarang), metafora yo'li bilan ko'chirish, sinekdoxa yo'li bilan ko'chirish va funksional ko'chirish natijasida ko'pma'nolilik voqe bo'lishini ko'ramiz (Taraqqiyot ma'no miqdorining o'zgarishiga olib kelsa, albatta), chunki bunda avvalgi va keyingi leksik ma'nolar bir leksemaning ma'nolari sifatida birlashadi.

Metonimiya yo'li bilan ko'chirishga keltirilgan besh punktning oldingi uch punkti asosida ko'pma'nolilik yuzaga keladi, to'rtinchi, beshinchi punkti asosida esa omonimiya voqe bo'ladi (Yana "Omoleksemalar" bahsiga qarang).

### **Leksik ma'no taraqqiyoti va semik tahlil**

8- §. Ko'pma'noli leksemada ma'no taraqqiyotini semik tahlil usuli bilan o'rghanish bu jarayonni ravshanroq tasavvur qilish imkonini beradi. Bunday yondashuvni *tuz-* I leksemasi asosida namoyish qilamiz.

*Tuz-* I leksemasining bosh leksik ma'nosi *ovqatga tuz sol-* kabi bog'lanishda namoyon bo'ladi. *Tuz-* I 1 anglatadigan narsa — 'modda', shaklan — 'kristall', rangi — 'oq', ta'mi — 'sho'r', ishlatalish doirasi — 'ovqat', vazifasi — 'namakni rostlash, maza kiritish'. Sanalgan semalar asosida bu leksik ma'noni 'namagini rostlash, maza kiritish uchun ovqatga qo'shiladigan sho'r oq kristall modda' deb ta'riflaymiz.

Bu leksemaning ikkinchi leksik ma'nosi (*tuz-* I 2) *sho'rvaning tuzi* kabi bog'lanishlarda namoyon bo'ladi. Bu yerda 'modda' semasi yo'qoladi, shu bilan bog'liq holda moddaga (jismga) xos belgilarni ko'rsatuvchi semalar ham ketadi. 'Predmet' tushunchasi saqlanadi-yu, lekin 'aniq narsa' tushunchasi 'mavhum narsa' tushunchasiga almashadi, demak, leksik ma'no aniqlikdan mavhumlikka tomon siljiydi, natijada 'modda' semasi o'mini 'tuzli-tuzsizlik' semasi egallaydi. Ikkinci leksik ma'noring mundarijasini tashkil etuvchi bu sema birinchi leksik ma'no tarkibidagi 'namakni rostlash, maza kiritish' semasining birinchi subsemasi asosida yuzaga kelgan. Bu yerdagi ma'no taraqqiyoti ko'chirish yo'llaridan metonimiyaga to'g'ri keladi: predmet — shu predmet ta'siri natijasida voqe bo'ladiyan predmet.

*Tuz-* I 3 ma'nosi bu leksemaning *Gapida tuz bor* kabi bog'lanishida namoyon bo'ladi. Bu leksik ma'no *tuz-* I 2 ma'nosidan o'sib chiqqan: birinchi leksik ma'nodagi 'maza kiritish' subsemasi va ikkinchi leksik ma'noring 'tuzli-tuzsizlik darajasi' semasi uchinchi ma'no uchun potensial semalar bo'lib xizmat qilgani, shular asosida 'mazmun, mantiq' semasi yuzaga kelgan va bu sema uchinchi leksik ma'noring mundarijasini tashkil etgan. Bu yerda leksik ma'no taraqqiyoti mavhumdan mavhumga chizig'i bo'ylab borgan. Bunday

taraqqiyotni an'anaviy ko'chirish yo'llaridan birortasiga kiritib bo'lmaydi (Zaruriyat tug'ilsa, metonimiya deb ketiladi).

*Tuz-* I 4 ma'nosi bu leksemaning *tuzini* ye- kabi bog'lanishida namoyon bo'ladi. Bu leksik ma'no birinchi leksik ma'no tarkibidagi 'modda' va 'ovqatga qo'shiladigan' semalari asosida shakllangan. Bu leksik ma'noni 'ovqat' deb ta'rifladik. Bu yerda ma'no taraqqiyoti yo'llaridan sinekdoxa voqe bo'lgan: *tuz-* — qism (ovqatdagi bir modda) — *tuz-* — butun (issiq ovqat).

Nihoyat, *tuz-* I leksemasining beshinchi leksik ma'nosi terminologik ma'no bo'lib, oldingi to'rt leksik ma'nodan keskin farq qiladi. *Ingлиз tuzi-, o'rta tuzlar-* kabi turg'un birikmalarda (tarkibli terminlarda) namoyon bo'ladijan bu ma'no fanda quyidagicha ta'riflanadi: 'kislota tarkibidagi vodorodni biror metall bilan to'liq yoki qisman almashtirish natijasida hosil bo'ladijan kimyoviy modda'. *Tuz-* I 5 asli semantik kalka: rus tilida *sol* leksemasiga birkitilgan bu ilmiy tushunchani o'zbek tilida ifodalash talabi paydo bo'lganida ruscha *sol* leksemasining o'zbek tilidagi muqobili *tuz-* leksemasi olinib, unga shu mundarija birkitilgan. Semantik kalkada yangi ma'no yuzaga keladi, lekin bu jarayon leksik ma'no taraqqiyotining an'anaviy ko'chirish yo'llaridan keskin farq qiladi, shu sababli alohida hodisa sifatida baholanadi.

Ko'rindiki, leksik ma'no taraqqiyoti bilan yangi leksik ma'noning yuzaga kelishida avvalgi leksik ma'no tarkibidagi sema saqlanadi, tashlanadi, yangi sema bilan almashtiriladi, yangi sema kiritiladi; shu kabi o'zgartirishlar natijasida yangi leksik ma'no shakllanadi.

*Tuz-* I leksemasining leksik ma'nolarini va ular tarkibiga mansub ideografik semalarni chizmada quyidagicha ko'rsatish mumkin:

№	Ideografik semalar	Leksik ma'nolar				
		1	2	3	4	5
1	<b>predmet</b>	+	+	+	+	+
2	<b>modda</b>	+	-	-	[+]	+
3	<b>kristall</b>	+	-	-	-	[+]
4	<b>oq</b>	+	-	-	-	-
5	<b>sho'r</b>	+	+	-	-	-
6	<b>ovqatga qo'shiladigan</b>	+	-	-	[+]	-
7a	<b>namagini rostlaydigan</b>	+	[+]	-	-	-
7b	<b>maza kiritadigan</b>	+	-	[+]	-	-
8	<b>tuzli-tuzsizlik darajasi</b>		+	[+]	-	-
9	<b>mazmun, mantiq</b>			+	-	-
10	<b>issiq ovqat</b>				+	-
11	<b>kimyoviy modda</b>					+

Chizmada birinchi leksik ma'no tarkibidagi yettinchi deb belgilangan sema a, b deb ikki qisqli holatda keltirildi (Bir semaga birlashuvchi bunday semantik belgini *subsema* deb nomladik), chunki bu leksemaning ayrim ma'nolari o'z taraqqiyotida shu semaga butunicha emas, balki uning subsemasiga asoslangan bo'lib chiqdi.

Tuz- I leksemasini kuzatish ko'rsatdiki, ko'pma'noli leksemada bosh leksik ma'noning semalar tarkibi boshqa leksik ma'nolarning semalar tarkibidan murakkabligi bilan ajralib turadi. Semalar tarkibining murakkab bo'lishi terminologik ma'noga ham xos: Tushunchani ilmiy ta'riflash o'z-o'zidan shunga olib keladi.

Tilshunoslikda leksema yagona ma'noni anglatadi, bir leksema anglatadigan ma'nolar umumiy, yagona ma'noning leksik-semantik variantlariga teng deb qarash ham mavjud. Leksemalarga yuqorida berilgan va bundan keyin beriladigan tasvirlardan bu nuqtayi nazarning to'g'ri emasligi ochiq ayon bo'ladi.

### Leksik ma'nolarning turlari

9- §. Leksik ma'no tilning taraqqiyoti davomida ham sifat, ham miqdor jihatidan o'zgaradi. Shu asosda leksik ma'nolarni hozirgi leksik ma'no va avvalgi leksik ma'no deb ikkiga guruhlash mumkin. Tilning o'tmishtaraqqiyot bosqichiga mansub, hozirgi lug'at boyligi tarkibida qatnashmaydigan leksik ma'no avvalgi leksik ma'no deyiladi. Avvalgi leksik ma'no ikki xil: 1) eski leksik ma'no, 2) etimologik leksik ma'no.

Eski leksik ma'no tarixiy leksikologiyada o'rganiladi (Bu soha tarixiy semasiologiya deb ham yuritiladi). Hozirgi leksik ma'noni o'rganuvchi soha tasviriy leksikologiya deyiladi (Bu sohani tasviriy semasiologiya deb ham ataydilar).

Til taraqqiyotining o'rganilayotgan bosqichiga mansub leksik ma'no hozirgi leksik ma'no deyiladi. Masalan, ko'z- leksemasining yuqorida tasvirlangan ma'nolari o'zbek tilidagi hozirgi leksik ma'nolardir.

Hozirgi leksik ma'nolar bosh ma'no va hosila ma'no, to'g'ri ma'no va ko'chma ma'no, nominativ ma'no va figural ma'no deb bir necha nuqtayi nazardan tasnif qilinadi. Bu tasniflar biri ikkinchisini istisno qilmaydi, balki ayni bir hodisaga har xil yondashishni aks ettiradi. Leksik ma'noning yuqoridagicha turlari ko'pma'noli leksemalar asosida belgilanadi.

10- §. Leksik ma'nolar avvalo bosh ma'no va hosila ma'no deb farq qilinadi. Boshqa bir leksik ma'noning yuzaga kelishi uchun asos bo'lgan ma'no bosh ma'no deyiladi. Bosh ma'noning taraqqiyoti bilan yuzaga kelgan leksik ma'no hosila ma'no deyiladi. Bir leksemaning leksik ma'nolari tizimidagi birlamchi leksik ma'no to'ng'ich bosh ma'no deyiladi. O'zidan keyingi

ma'noning taraqqiy etib chiqishi uchun asos bo'lgan hosila ma'no nisbiy bosh ma'no deyiladi. Masalan, *ochiq-* leksemasining bosh ma'nosi — 'berklanmagan' (*yopiq-* leksemasining antonimi): *ochiq eshik-*, *kitobni ochiq qoldir-* kabi. Quyidagi ma'nolar shu bosh ma'nodan taraqqiy etib chiqqan hosila ma'nolar: 2) *ochiq gapir-* ('tushunarli qilib', 'aniq', 'yashirmay'), 3) *ochiq odam-* ('xushmuomala'), 4) *ochiq bo'g'in-* ('ovoz tovush bilan tugaydigan').


*Toza-* leksemasining bosh ma'nosi — 'ozoda', 'ifloslanmagan', 'kirlanmagan': *toza sinf-*, *toza hovli-* kabi. 'Sof, hech narsa aralashmagan' ma'nosi shu bosh ma'nodan o'sib chiqqan: *toza muruch-*, *toza spirit-* kabi. Yuqorida ta'kidlangan hosila ma'no boshqa bir leksik ma'no uchun — 'yaxshi', 'yuqori nav' ma'nosi uchun asos bo'lgan: *toza choy-*, *toza mato-*, *toza charm-* kabi. Birinchi hosila ma'no bosh ma'nodan, ikkinchi hosila ma'no esa birinchi hosila ma'nodan o'sib chiqqan. Shunga ko'ra birinchi hosila ma'noni nisbiy bosh ma'no deb atash mumkin. *Toza-* leksemasi 'hech qoldirmay' ma'nosini ham anglatadi: *toza ter-* kabi. Bu leksemaga bog'liq yana bir ma'no bor — 'o'ta darajada', 'rosa'. Lekin bu ma'no (kuchaytirish ma'nosi) yuqorida ta'kidlangan leksik ma'nolardan keskin farq qiladi. Bu ma'no tabiatan grammatik ma'no bo'lib, uni shu leksemaning leksik ma'nolariga bog'lash ham qiyin: *toza charcha-*, *toza kutir-* kabi.

*Toza-* leksemasining leksik ma'nolarini shunday joylab va bog'lab baholash mumkin:

To'ng'ich bosh ma'no

Hosila ma'no/ nisbiy bosh ma'no

Hosila ma'nolar



Ba'zi hollarda leksemaning to'ng'ich bosh ma'nosi aslida hosila ma'no bo'lib chiqadi. Bunday leksemaning avvalgi leksik ma'nosi unutilib, etimologik ma'noga yoki eski ma'noga aylangan bo'ladi. Shunga ko'ra hozir to'ng'ich bosh ma'no holatida hosila ma'no keladi. Masalan, *tila-* fe'lining dastlabgi ma'nosi *til-* leksemasining 'nutq', 'nutq a'zos'i' ma'nosi bilan bog'lanadi ('ayt-'). Ammo *tila-* fe'lining bu ma'nosi hozir unutilgan. Endi bu leksemaning to'ng'ich bosh ma'nosi deb 'so'ra-' ma'nosi ko'rsatiladi. Avvalgi ma'noga nisbatan keyingisi asli hosila ma'no bo'lib, hozir to'ng'ich bosh ma'noga aylangan: *Tila tilagingni* kabi.

**11-** §. Leksik ma'nolar yana to'g'ri ma'no va ko'chma ma'no deb ham ikkiga guruhlanadi. Leksemaning bosh leksik ma'nosi odatda to'g'ri ma'no bo'ladi (Etimologik jihatdan-gina bosh ma'no hosila ma'no bo'lib chiqishi, demak, ko'chma ma'no bo'lib chiqishi mumkin). Masalan, *tosh*- leksemasingin bosh leksik ma'nosi — 'qattiq tog' jism'. Bu ma'no — to'g'ri ma'no ham. Shuninglek, *ushoq-* leksemasingin bosh leksik ma'nosi — 'nonning mayda parchasi'. Bu ma'no — to'g'ri ma'no ham.

Hosila ma'no odatda ko'chma ma'no bo'ladi. Masalan, *tosh*- leksemasingin *tosh nok-* kabi bog'lanishdagi 'qattiq' ma'nosi shu leksemaning 'qattiq tog' jism' ma'nosiga nisbatan hosila ma'no, shuning bilan bir vaqtida ko'chma ma'no ham. Solishtiring: *ushoq-* — 'nonning mayda parchasi' (bosh to'g'ri ma'no), *ushoq-* — 'mayda', 'jussasi kichik' (kishiga nisbatan; hosila ko'chma ma'no).

Ma'noni ko'chirish asosida yotgan obraz so'nishi, unutilishi mumkin. Shunga qaramay bunday leksik ma'no ko'chma ma'no deb qaralaveradi. Masalan, *tog'ning beli-*, *qozonning gulog'i-*, *choynakning burni-*, *stolning oyog'i-* kabi ishlatishda ko'chirish asosida yotgan obraz so'ngan; bunda *bel-*, *quloq-*, *burun-*, *oyoq-* kishi a'zolarini eslatib turmaydi. Lekin bu hol yuqoridagi birikmalarda bu leksemalar anglatadigan leksik ma'nolarning ko'chma ma'no ekanini o'zgartirmaydi.

*Eslatma.* Ko'chma leksik ma'no va nutqiy ma'no — boshqa-boshqa hodisalar (Lisoniy ma'no va nutqiy ma'no bayon qilingan sahifaga qarang).

**12-** §. Leksik ma'nolar nominativ (nomlovchi) ma'no va figural (majoziy) ma'no deb ham farqlanadi (lot. *figura* — 'obraz', 'ko'chirish'): *qulning kaliti-* — nominativ ma'no ('ochqich'), *g'alabaning kaliti-* — figural ma'no ('hal etilish, erishuv yo'li'); *nordon mevalar-* — nominativ ma'no, *nordon gaplar-* — figural ma'no ('yoqimsiz'); *terla-* ('ter chiqar') — nominativ ma'no, *terla-* ('ruhan azoblan-', 'o'sal bo'l-') — figural ma'no; *qizar-* ('qizil rangga kir-') — predmetga nisbatan nominativ ma'no, *qizar-* ('uyal-') — kishiga nisbatan figural ma'no va b.

Nominativ ma'no — biror narsa, belgi yoki harakatning nomi bo'lib xizmat qiluvchi ma'no. Nominativ ma'no vogelik bilan bevosita bog'lanadi. Masalan, *gul-* leksemasingin nominativ ma'nosi o'simlik turlaridan birini anglatadi (Bu nominativ ma'no — shu leksemaning bosh to'g'ri ma'nosi ham). Shu leksema *yigitlarning gulি-* kabi bog'lanishda 'sara', 'noyob' kabi ma'noni anglatadi. Bu ma'no — figural ma'no, chunki bunday ma'no shu hodisaning nomiga aylangan emas. Bunday ma'no obrazlilik, majoz hosil etish uchun xizmat qiladi. *Gul-* — o'simlik nomi — bevosita vogelik bilan

bog'lanadi, *gul-* — 'sara', 'noyob' ma'nosi figural ma'no bo'lib, voqelik bilan bu leksemaning nominativ ma'nosi orqali bog'lanadi.

Figural ma'no ba'zan xuddi nominativ ma'nodek gavdalanadi: shu ma'noni anglatuvchi leksema (nominativ ma'no) bo'lmaydi, topilgan izohlar ham biror leksemaning figural ma'nosi bo'lishi mumkin. Masalan, *tuz-* leksemasining *gapning tuzi-* birikmasidagi ma'nosini *qaymoq-*, *mag'iz-* leksemalarining figural ma'nosi orqali-gina izohlash mumkin: *gapning mag'izi-*, *gapning qaymog'i-* kabi. Sinonim bo'la oladigan nominativ ma'no topilmasa ham, yuqoridaqicha holatlar figural ma'no deb belgilanadi.

Leksemaning to'ng'ich bosh ma'nosi nominativ ma'no bo'ladi. Har bir leksemada to'ng'ich bosh ma'no bitta. Lekin nominativ ma'no bir necha bo'lishi mumkin. Chunki nominativ ma'noni belgilashda voqelik bilan bevosita bog'lanishning mavjud bo'lishi, shu ma'no voqelikning nomi bo'lishi shart qilib qo'yiladi. Bu talabga, to'ng'ich bosh ma'nodan tashqari, hosila ma'no ham javob berishi mumkin. Masalan, *til-* leksemasining bosh to'g'ri ma'nosi — 'og'izda joylashgan va ta'm-maza bilishga xizmat qiladigan a'zo'. Shunga nisbatan *til-* leksemasining 'nutq a'zosi' ma'nosi — hosila ma'no. Bu ma'no voqelik bilan bevosita bog'lanadi, voqelikning nomi bo'lib xizmat qiladi, shu sababli nominativ ma'no hisoblanadi.

Shu leksemaning yana *til-* — 'nutq', *til-* — 'fikrlashuv quroli bo'lib xizmat qiluvchi ijtimoiy hodisa', *til-* — 'ma'lumot olish uchun tutib keltirilgan asir', *til-* — 'puflab chalinadigan muzika asbobida havo oqimiga to'siq vazifasini bajaruvchi qism' kabi leksik ma'nolari bor. Bu ma'nolar ham — shu leksemaning nominativ ma'nolari, chunki ular o'zi anglatadigan voqelikning nomi bo'lib xizmat qiladi, voqelik bilan bevosita bog'lanadi.

*Til-* leksemasining 'nozik tomon', 'sir' (*dehqonchilikning tilini bil-, mashinaning tilini bil-*), 'ifodalananayotgan tuyg'u, kechinma' (*kuyning tili-*) kabi ma'nolari — figural leksik ma'nolar.

Har bir mustaqil leksema nominativ ma'no anglatadi. Shu bilan birga, nominativ ma'no unutiladi ham. Masalan, *tom* ma'noda, *tom* ma'nosi bilan kabi bog'lanishlardagi *tom-* leksemasining nominativ ma'nosi juda nursizlanib qolgan. Nominativ ma'nosi unutilgan, yo'qolgan leksema juda tor leksik kontekstli bo'lib, doim ma'lum bir leksema qurshovida ishlatiladi. Natijada bu leksemaning leksik ma'nosi shu kontekst doirasida-gina izohlanadigan bo'lib qoladi. Masalan, yuqoridaqigi *tom-* leksemasi faqat *ma'no-* leksemasi bilan-gina bog'lanib keladi va 'to'la', 'to'liq' kabi ma'noni anglatadi (Asli arabcha bo'lib, tilimizdag'i *tamom-* leksemasining o'zagiga borib bog'lanadi, lekin o'zbek tilida bu bog'lanish sezilmaydi, natijada bu leksemaning nominativ ma'nosi anglashilmay qoladi).

Nominativ ma'nosи so'нган leksemalar asosan eskirgan leksemalarga, shuningdek boshqa leksemalar bilan ma'no munosabatini, yasalish jihatidan bog'lanishini yo'qotgan leksemalarga to'g'ri keladi: *basir-* (arabcha, ma'nosи — 'ko'ruchchi': *Basir bo'lgur* — ayollarning "teskari" qarg'ishlaridan), *baxsh-* (tojikcha, ma'nosи — 'atash': *baxsh et-*), *bahr-* yoki *bahra-* (arabcha, ma'nosи — 'hissa', 'nasiba', 'foyda': *bahra ol-*), *ado-* (tojikcha, ma'nosи — 'o'tash', 'bajarish': *ado et-*), *yit-* (*yo'qolib-yitib ket-*), *sun-* (*bo'ysun-* < *bo'yin sun-*) kabi.

13- §. Til tarixiga, jamiyatning moddiy boylik tarixiga asoslanib, shuningdek leksemaning asl tuzilishidan kelib chiqib tiklanadigan leksik ma'no etimologik leksik ma'no deyiladi (yunoncha *etymon* — 'haqiqiy', 'asl'). Masalan, *til-* ot leksemasi hozir 'og'iz bo'shlig'ida joylashgan, ta'm-maza bilish uchun xizmat qiladigan a'zo' ma'nosini anglatadi. Qadimgi turkiy tilda ham shunday ma'noni anglatgan bu ot leksema asli 'gapir-' ma'nosini anglatgan *ti-fe'lidan -l* morfemasi bilan yasalgan; hozirgi o'zbek tilida 'eng katta aka' ma'nosini anglatuvchi *og'a-* ot leksemasi asli 'uzoq yasha-' ma'nosini anglatgan *aq-* fe'lidan -a morfemasi bilan yasalgan: *aq-* + *a* = *aqa-* > *og'a-*; 'onaning aka-ukasi' ma'nosini anglatuvchi *tog'a-* ot leksemasi asli 'ona' ma'nosini anglatgan *tay-* oti bilan *og'a-* (< ag'a-) otining birlashuvni natijasida yuzaga kelgan: *tay-* + *ag'a-* = *tayag'a-* > *ta'ug'a-* > *tag'a-* > *tog'a-*; hozirgi o'zbek tilidagi 'jag'lar oralig'idagi bo'shilq' ma'nosini anglatuvchi *og'iz-* I leksemasi asli qadimgi turkiy tildagi 'teshik' ma'nosini anglatgan *ag'-* otidan kichraytirish ma'nosini ifodalagan -(i)z morfemasi bilan hosil qilingan ("O'zbek tilining etimologik lug'ati"ga qarang).

Umuman, hozirgi o'zbek tilida mavjud har bir leksemaning etimologik ma'nosini axtarish ijobiy natija beravermaydi. Hozir tub deb qaraluvchi leksemalarning talay qismida ularning etimologik ma'nosini aniqlab bo'lmaydi. Masalan, *ish*, *bosh*, *qo'l*, *og*, *oz* kabi leksemalarga qarata etimologik ma'no haqida gapirish qiyin. Hatto bunday leksemalarning bosh leksik ma'nosи ham izohlashga yo'l qo'ymaydi, shartli tarzda qabul qilinadi.

Etimologik leksik ma'no haqida gapirish uchun leksema tuzilishi, mazmuni jihatidan o'zgarishlarga uchrab, avvalgi leksik ma'nosini yo'qotgan bo'lishi va bu yo'qotilgan leksik ma'noni tiklashga imkoniyat mavjud bo'lishi kerak. Bunday leksemalar qisman tub, asosan yasama bo'ladi (yoki tarixan yasama bo'lib chiqadi).

Masalan, *chek-* fe'lи hozir 'tamaki yoki nashadan tayyorlangan narkotiklarni iste'mol qil-' ma'nosini anglatadi; *chilim chek-*, *nasha chek-* kabi, keyinchalik — *nos chek-*; hozir asosan *papiroс chek-*. Bu fe'lning etimologik leksik ma'nosи — 'tort-' . Bunday ma'no asli *chilim-*, *nasha-* leksemalari bilan

bog‘lanishda namoyon bo‘ladi (Tutunni tortish harakatini bildiradi). Xuddi shu ‘tort-’ ma’nosi asosida *azob chek-*, *riyoza chek-* kabi bog‘lanishlar voqe bo‘lgan. Keyinchalik bu fe'lning leksik ma’nosi asosan ‘narkotiklarni iste'mol qil-’ tushunchasi yo‘nalishida taraqqiy etadi (Bunga shu fe'l bilan bog‘lanib keladigan leksemalarning mazmun jihatni sabab bo‘ladi): umuman tortish — kayf qiluvchi tutunni tortish — kayf qiluvchi narsadan foydalanish (ichimlikdan tashqari; vulgar ishlatishda ichimlikka qarata ham aytildi). Tilda *nos chek-* kabi bog‘lanish *chek-* fe'l ‘tort-’ ma’nosidan ‘narkotiklarni iste'mol qil-’ ma’nosiga o‘tgani tufayli mumkin bo‘lgan.

I z o h. *Imzo chek-* kabi bog‘lanishdagi *chek-* — boshqa fe'l ('ur-, 'bos-' ma’nosini anglatuvchi alohida fe'l bo‘lgan, *chekich-* oti shu fe'l dan yasalgan).

Etimologik leksik ma’noni tiklash tub leksemalarga qaraganda yasama leksemalarda ancha yengil bo‘ladi, chunki yasama leksema tarkibidagi leksema bilan morfema etimologik ma’noni ozmi-ko‘pmi ko‘rsatib turadi. Masalan, *keskin-* leksemasi hozir ‘qat’iy’, ‘shiddatli’ kabi ma’nolarni anglatadi. Aslida bu sifat ‘qirq-’ ma’nosini anglatuvchi *kes-* leksemasiga *-kin* sifat yasovchisini qo‘sib yasalgan, shunga ko‘ra bu leksemaning etimologik ma’nosi deb ‘kesuvchan’, ‘qirquvchan’ kabi ma’noni ko‘rsatish mumkin.

Shuningdek, *unash-* fe'l hozir ‘qiz bilan yigitning turmush qurishi haqida kelish-’ ma’nosini anglatadi. Aslida bu fe'l *una-* leksemasi va ‘birgalik’ ma’nosini ifodalovchi *-sh* morfemasidan tuzilgan; *una-* leksemasi esa ‘ko‘n-’ ma’nosini anglatadi. Demak, *unash-* asli ‘ikki tomonlama ko‘nishni bildirgan (Shunday ma’no anglashilgan davrda *-sh* morfemasi birgalik affaksi deb tushunilgan). Leksik ma’no taraqqiyoti tufayli *unash-* fe'l hozir *una-* fe'lining birgalik shakli deb qaralmaydi. Hozirgi o‘zbek tili nuqtayi nazaridan *unash-* mustaqil fe'l leksemaga aylangan (*unashdi* = *unadilar* kabi ishlatishdagi *-sh* affaksi ko‘plik ma’nosini ifodalaydi).

### Leksik ma’noning lug‘aviy (leksik) konteksti

14- §. Ko‘pma’noli leksemaning har bir leksik ma’nosi odatda ma'lum semantik doiraga mansub leksemalar bilan bog‘lanishi jarayonida namoyon bo‘ladi. Leksik ma’noning namoyon bo‘lishida zarur sharoit bo‘lib xizmat qiladigan bunday leksemalar belgilovchi leksik kontekst deyiladi. Masalan, *tuz-* I leksemasining bosh leksik ma’nosi bu leksema *sol-*, *tashla-*, *qo‘sh-*, *aralashtir-*, *tot-*, *yala-*, *tush-* kabi fe'llarga bog‘lanib kelganida, *tuz-* I leksemasiga esa *qoratikan-*, *yirik-*, *mayda-*, *bir siqim-*, *osh-* kabi leksemalar bog‘lanib kelganida namoyon bo‘ladi.

*Tuz-* I leksemasiga ikkinchi ma’nosida oziq-ovqatni anglatadigan leksema, shuningdek *past-*, *baland-*, *raso-* leksemalari bog‘lanib keladi; *tuz-* I

leksemasi *baland qil-*, *past qil-*, *ko'r-* fe'l leksemalariga bog'lanadi: *sho'rva-ning tuzi-*, *qaylaning tuzi-*, *xamirning tuzi-*; *tuzi past-*, *tuzi raso-*; *tuzini* *baland qil-*, *tuzini past qil-*, *tuzini ko'r-* kabi.

*Tuz-* I leksemasingin uchinchi ma'nosi esa tamoman boshqacha leksik kontekstda namoyon bo'ladi: nutqni bildiruvchi *so'z-*, *gap-* kabi leksemalar bilan bog'lanadi: *gapping tuzi-*, *Gapida tuz-* bor kabi.

*Tuz-* I leksemasi to'rtinchi ma'nosida *ye-*, *ich-*, *oqla-*, *andisha qil-*, *ko'r qil-* kabi fe'llar bilan bog'lanishda namoyon bo'ladi: *Tuzini ichib*, *tuzlug'iga tupurdi* kabi.

Beshinch - terminologik - ma'noda *tuz-* I leksemasi quyidagicha aniqlovchilar olib keladi: *ingiz tuzi-*, *kaliy tuzi-*, *oltingugurt kislotasining tuzi-*, *o'rtal tuzlar-* kabi; bu tarkibli terminlarni *ol-*, *hosil qil-* kabi fe'llar boshqarib keladi: *oltingugurt kislotasining tuzlarini hosil qil-* kabi.

Ko'rinadiki, har bir leksik ma'no o'z belgilovchi leksik kontekstiga ega. Bunday leksik kontekst ba'zi leksik ma'nolarda ko'proq leksemalardan, ba'zi leksik ma'nolarda esa ozroq leksemalardan tashkil topadi. Shu asosda keng leksik kontekst va tor leksik kontekst haqida gapiriladi.

Leksik kontekst har bir leksik ma'noda aniq chegaralanib turmasligi mumkin. Shunda ham, baribir, leksik ma'nolar o'z leksik kontekstlarida farq qiladi. Masalan, *tuzla-* leksemasi 'ma'lum muddat tuzga bulab qo'y-' ma'nosida *go'sht-* leksemasi bilan, 'namakobda uzoq saqlash yo'li bilan tayyorla-' ma'nosida *bodring-*, *karam-*, *pomidor-*, *baqlajon-* kabi o'simliklarni anglatadigan leksema bilan bog'lanadi. Ko'rinadiki, bu leksemaning birinchi leksik ma'nosi tor leksik kontekstli, ikkinchi leksik ma'nosi esa nisbatan keng leksik kontekstli va bu leksik ma'nolarda leksik kontekstlar aniq chegaralanib turibdi.

*Tuzla-* leksemasi yana ikki ma'noni anglatadi: 3) 'gap bilan yeng-', 4) 'boplab alda-, laqillat>'. Bu ikki ma'nosida *tuzla-* leksemasi kishini anglatuvchi leksema bilan bog'lanib keladi, leksik kontekstini aniq leksemalar bilan cheklab bo'lmaydi. Demak, bu ikki leksik ma'noning leksik konteksti avvalgi ikki leksik ma'noning kontekstidan ko'ra noaniqroq. Uchinchi, to'rtinchi leksik ma'nolarning leksik kontekstidagi farq bu leksemalarga bevosita bog'lanadigan leksemada emas, balki boshqa leksemalarda ko'rindi. Shu asosda yaqin leksik kontekst va yiroq leksik kontekst haqida gapiriladi. Masalan, *Sotuvchini tuzladim* jumlasini yuqoridagi har ikki leksik ma'noda ham tushunish mumkin. *Tuzla-* leksemasi qaysi leksik ma'noda ishlatalganini tekstdagi boshqa leksemalar (yiroq leksik kontekst) bildirib turadi. Quyidagi jumlada ishlatalgan *dallol-*, *pul-*, *mol-*, *top-*, *sot-* leksemalari *tuzla-* fe'li 'boplab alda-, laqillat'-ma'nosi bilan qatnashganini bildirib turadi: *Dallol bo'lib pul topishni ko'zlabman*, *Qo'lin siltab, mol sotganni tuzlabman* (O.Qo'chqorbekov).

## Leksik ma'noning grammatik tabiatি

15- §. Ko'pma'noli leksemaning leksik ma'nolari, leksik konteksti bilan bir qatorda, boshqa belgi-xususiyatlarida ham farq qilishi mumkin. Yuqorida tahlil qilingan *tuz-* I leksemasining leksik ma'nolalarini, masalan, nisbatlash (egalik) paradigmasing morfemalarini olishi jihatidan kuzataylik. Bu leksema ikkinchi leksik ma'nosida doim uchinchi shaxs nisbatlovchisini olib keladi, qolgan leksik ma'nolarda esa nisbatlovchi olib ham, olmay ham ishlatila oladi. Nisbatlovchi olib ishlatilishi lozim bo'lsa, uchinchi ma'nosida faqat III shaxs nisbatlovchisi bilan keladi, birinchi, to'rtinchi, beshinchi ma'nolarda esa uch shaxs nisbatlovchilarining birlik va ko'plik ko'rsatkichlari bilan ishlatila oladi.

Bu leksema beshinchi (terminologik) ma'nosida ko'plik shakiida ishlatila oladi, boshqa ma'nolarda bunday xususiyat yo'q.

Demak, *tuz-* I leksemasi o'z leksik ma'nolari bo'yicha morfologik shakllarga kirishi jihatidan ham farqlanib turadi. Shu asosda har bir leksik ma'noning morfologik tabiatи haqida gapiriladi.

Bir leksemaning leksik ma'nolari sintaktik vazifada kelishi jihatidan ham farq qilishi mumkin. Masalan, *tuz-* I leksemasining leksik ma'nolarida bunday farq oz: ikkinchi, uchinchi leksik ma'nolarida qaratuvchi vazifasida kelmaydi va b.

Xullas, qanday va qaysi leksema bilan bog'lanishini, morfologik shakllarga kirish imkoniyatini, sintaktik vazifada kelishini hisobga olsak, har bir leksik ma'noning leksik konteksti, grammatik tabiatи namoyon bo'ladi. Aytiganchalarni *tuz-* I leksemasining leksik ma'nolari uchun quyidagi qurilmalarni tuzib namoyish qilish mumkin:

*Tuz- I 1:* a) *tuz + birlik + tushum kelishigi X sol-, sep-, tashla-, qo'sh-, aralashtir-, yela- ... : qiyymaga tuz sep- kabi;*

b) *tuz + birlik + bosh kelishik X tush-, kir-: Qozonga tuz tushdi kabi;*

d) [*o'rin ma'nosini anglatuvchi ot leksema + birlik yoki ko'plik + o'rin kelishigi] X tuz + birlik + bosh kelishik X bor, yo'q ..: Magazinda tuz bor kabi;*

e) *tuz + birlik + qaratqich kelishigi X mayda, yirik .. + III shaxs nisbatlovchisi..: tuzning yirigi- kabi;*

f) *mayda, yirik .. X tuz + birlik + biror kelishik: yirik tuz- kabi.*

*Tuz- I 2 :* a) [*oziq-ovqatni anglatadigan ot leksema + birlik yoki ko'plik + qaratqich kelishigi] X tuz + birlik + III shaxs nisbatlovchisi + tushum kelishigi X ko'r-, tot-, baland qil-, past qil-, raso qil- ..: qaylaning tuzini baland qil- kabi;*

b) [oziq-ovqatni anglatadigan ot leksema + birlik yoki ko'plik + qaratqich kelishigi] X *tuz* + birlik + III shaxs nisbatlovchisi + bosh kelishik X *past, baland, raso, ...* : *Sho'rvaning tuzi past* kabi;

d) *tuz* + birlik + III shaxs nisbatlovchisi + bosh kelishik X *past, baland* .. X ovqatni anglatadigan ot leksema: *tuzi past sho'rva-* kabi.

*Tuz- I 3* : a) *gap, so'z .. + birlik, ba'zan ko'plik + qaratqich kelishigi X tuz + birlik + III shaxs nisbatlovchisi + tushum kelishigi X bil-, angla-, chayna- ... gapning tuzini angla-* kabi;

b) *gap, so'z .. + birlik, ba'zan ko'plik + nisbatlovchi + qaratqich kelishigi X tuz + birlik + III shaxs nisbatlovchisi + bosh kelishik X bor, yo'q: Gapining tuzi bor* kabi;

d) *gap, so'z .. + birlik, ba'zan ko'plik + nisbatlovchi + o'rin kelishigi X tuz + birlik + bosh kelishik X bor, yo'q .. : Gapida tuz bor* kabi.

*Tuz- I 4*: a) [kishini anglatadigan leksema + birlik yoki ko'plik + qaratqich kelishigi] X *tuz* + birlik + nisbatlovchi + tushum kelishigi X *ich-, ye-, oqla-, andisha qil- ..* : [kimningdir] *tuzini oqla-*;

b) [*bergan*] *tuz+birlik+nisbatlovchi + jo'nalish* kelishigi X *rozi bo'l-..* [*bergan*] *tuziga rozi bo'l-* kabi;

d) *tuz + birlik + tushum kelishigi (belgisiz)* X *ber- .. tuz ber-* (frazema);

e) *tuz + birlik + nisbatlovchi + bosh kelishik X ko'r qil- .. : Bergan tuzim ko'r qiladi* kabi.

*Tuz- I 5* : a) *kaliy, natriy .. X tuz- + birlik yoki ko'plik + III shaxs nisbatlovchisi + biror kelishik: kaliy tuzi-, magniy tuz(lar)i-* kabi;

b) *o'rta .. X tuz + ko'plik + biror kelishik: o'rta tuzlar-, nordon tuzlar-* kabi.

Leksik kontekst va grammatik tabiat yuqorida ko'pma'noli leksemaga nisbatan belgilandi. Aslida leksik kontekst va uning tor yoki keng bo'lishi, morfologik va sintaktik tabiat bir ma'noli leksemaning leksik ma'nosiga ham xos xususiyat. Masalan, *tin-* ('havo') leksemasi — hozirgi o'zbek tilida juda tor leksik kontekstli birma'noli leksema: faqat *tin ol-* ('dam ol-') frazemasi tarkibida uchraydi va o'zining bosh nominativ ma'nosini bilan qatnashadi. Bu leksema doim birlik va belgisiz tushum kelishigi shaklida keladi.

Shuningdek, *kallak-* leksemasi *tol-* leksemasiga (daraxt nomiga) nisbatlovchi olib bog'lanib keladi (*tolning kallagi-* kabi), *ur-* fe'lliga (*kallak ur-* kabi) birlik va bosh kelishik shaklida bog'lanadi.

### Leksik ma'nolarda semantik bog'lanish

**16- §.** Har qanday sintaktik bog'lanish asosida semantik bog'lanish yotadi. Masalan, *Itni qopmaydi deb bo'lmas, otni tepmaydi deb bo'lmas* maqolini *Otni qopmaydi deb bo'lmas, itni tepmaydi deb bo'lmas* tarzida tuzsak, se-

mantik bog'lanish talabiga rioya qilmagan bo'lamiz: ot qopmaydi, it tep-maydi.

Sintaktik bog'lanish ham, semantik bog'lanish ham ayni vaqtida ko'pma'noli leksemaning har bir leksik ma'nosi bo'yicha amalga oshadi. O'zaro sintaktik aloqaga kirishuvchi leksik ma'nolarning semalar tarkibida bir-biriga zid sema bo'lmasligi lozim, aks holda bunday leksik ma'nolarni semantik bog'lab bo'lmaydi. Masalan, *non-* leksemasi *ich-* leksemasi bilan bog'lanmaydi, chunki bu leksemalar anglatadigan leksik ma'nolar tarkibida o'zaro zid semalar mavjud. *Non-* leksemasining leksik ma'nosi tarkibida, boshqa ideografik semalar qatori, 'qattiq holatdagi' semasi bor, *ich-* leksemasining leksik ma'nosi tarkibida esa 'suyuq holatdagi' semasi bor; ana shu zid semalar bu leksemalarning semantik bog'lanishiga yo'l bermaydi.

Semantik bog'lanuvchi ma'nolar tarkibida umumiy (bir xil) sema bo'lishi muhim. Bunday umumiy sema bu leksik ma'nolarning semantik bog'lanishini va bir-biri uchun yaqin leksik kontekst bo'lib kelishini ta'minlaydi. Masalan, *non-* va *ye-* leksemalarining leksik ma'nolari tarkibida 'qattiq holatdagi', 'ozuqa', 'iste'mol qil-' ideografik semalarining mavjudligi bu leksik ma'nolarning semantik bog'lanishini ta'minlaydi. Bunday umumiy sema sintagmema deb yuritiladi (yunoncha *syntagma* — 'birlashtirilgan').

### **Semema — mustaqil til birligi**

**17- §. Leksema — til birligining, leksik birlikning nomi.** Adabiyotlarda leksemaning mazmun jihatida semema deyiladi. Biz *semema* terminiga bosh-qacha mundarija birkitish tarafdiriz.

Leksemanig mazmun jihatida asosiy hodisa — leksik ma'no, shu bilan birga baho semasi ham hisobga olinadi. Demak, leksik ma'no tushunchasi bilan semema tushunchasi teng emas.

Bundan tashqari, ko'pma'noli leksemada har bir leksik ma'no o'ziga xos leksik kontekstga ega bo'ladi, har bir leksik ma'no grammatic tabiatiga ko'ra ham farqli bo'lishi mumkin.

Har bir leksik ma'noning o'ziga xos xususiyatlari sifatida baho semasida farq qila olishini, sinonimik munosabatga, antonimik munosabatga har bir leksik ma'no mustaqil ravishda kirishuvini, yangi leksema har bir leksik ma'no dan yasalishini ham ta'kidlash lozim (Shu hodisalar bayon qilingan bahslarga qarang).

Agar leksema bir ma'noli bo'lsa, yuqoridagi belgi-xususiyatlar leksemaga mansub bo'ladi va bunday leksema bir til birligiga (leksik birlikka) teng deb qaraladi. Agar leksema ko'pma'noli bo'lsa, bu belgi-xususiyatlar har bir leksik ma'no bo'yicha ayrim-ayrim mavjud bo'ladi, bunda har bir leksik ma'no o'zicha til birligi (leksik birlik) deb qaralishi lozim. Biz ana shunday belgi-

xususiyatlarga egaligini hisobga olib har bir leksik ma'noni alohida til birligi sifatida baholadik va *semema* termini bilan nomladik.

Masalan, *tin-* ot leksemasi — bir ma'noli, shunga ko'ra bu yerda leksema tushunchasi bilan semema tushunchasi teng keladi. *Tuz-* I ot leksemasi esa besh leksik ma'noli, demak, bu leksemaga besh semema birlashadi. Bunday birlashtirishda bu sememalar anglatgan ma'nolarning tarixan biri ikkinchisidan o'sib chiqqanligi asos bo'ladi. Lekin bunday birlashtirish ko'pma'noli leksema doirasida har bir sememani mustaqil til birligi (leksik birlik) deb qarashga monelik qilmaydi. Asli lug'at boyligini leksemalardan kelib chiqib emas, balki ko'pma'noli leksemalarga birlashtiriladigan har bir sememadan (leksosemadan) kelib chiqib hisoblash to'g'ri.

## **LEKSEMALAR (LEKSOSEMELAR) ORASIDAGI SEMANTIK MUNOSABATLAR**

Leksemalar (leksosememalar) o'zaro sinonimik, antonimik (opozitiv) va boshqa tur semantik munosabatlarda bo'ladi.

### **Leksemalarda (leksosememalarda) sinonimik munosabat (leksosinonimlar)**

1- §. Ideografik semalari teng, bir yoki bir necha jihatni o'zaro farqli leksemalar (leksosememalar) leksik sinonimlar (leksosinonimlar) deyiladi (yu-noncha *synonimos* — 'birgalikda nomlash'). Masalan, *yalqov-*, *dangasa-* leksemalari hozirgi adabiy o'zbek tilida ayni bir ideografik semalar yig'imiga ega, ayni bir leksik ma'noni ('mehnat qilishni yoqtirmaydigan') anglatadi va ayrim belgi-xususiyati bilan farqlanib turadi, shunga ko'ra bu leksemalar o'zaro sinonim deyiladi.

Leksosinonimlik kamida ikkita leksema (leksosemema) orasida vujudga keladi va tom ma'noda leksik paradigmaga teng bo'ladi: 1) sinonimlarning leksik ma'nosi (ideografik semalari) teng bo'lgani sababli ularni tanlab ishlatalish mumkin, 2) shu xususiyatiga ko'ra sinonimlar muntazam tuzum hosil etadi, 3) sinonimlik til qurilishining o'ziga xos ichki (intralingvistik) hodisa bo'lib, semantik mikrotuzum deyiladi.

Sinonimik mikrotuzum ko'pincha *sinonimik qator* deb nomlanadi. Bu til hodisasini *sinonimik uya* deb nomlash ham mavjud. Keyingi termin bilan nomlash ushbu til hodisasini aniqroq anglatadi: *qator* deyishda sinonimlarning o'zaro zich munosabatdagi birliklar ekani ta'kidlanmaydi, *uya* deyishda esa ta'kidlanadi.

Sinonimik munosabatga kirishuvchi leksik birliklarning miqdori cheklanmagan bo'ladi: ikki va undan ortiq bo'laveradi.

Sinonimik uya til taraqqiyotiga bog'liq holda o'zgarishi mumkin: ayrim sinonim iste'moldan chiqib, uyadan ham chiqib ketadi, uyaga yangi sinonim qo'shiladi.

Leksik birliklar o'zaro sinonim bo'lishi uchun ular umumiylikka ham, farqli belgiga ham ega bo'lishi lozim: leksik ma'nno tarkibidagi ideografik semalari teng bo'ladi; farqlanish odatda biror ideografik semaning ma'nno qirrasi, baho semasida, nutq ko'rinishiga birktilish belgisida voqe bo'ladi. Sinonimlar o'zaro yuqorida sanalgan har uch jihat bilan yoki ikki jihat bilan, hatto bir jihat bilan farq qilishi mumkin. Sinonimlarga bunday uch jihatdan yondashib beriladigan tavsif — ularni uchg'a tasniflash emas, balki sinonimlarni har xil nuqtayi nazardan baholash; shunga ko'ra bunday tavsiflar bir-birini inkor qilmaydi.

Agar ikki leksema (leksosemema) har jihatdan teng bo'lsa, o'zaro farqlovchi belgiga ega bo'lmasa, *leksik dubletlar* deyiladi (Bu hodisani *absolut sinonimiya* deb nomlash ham mavjud). Leksik dubletlar odatda terminlarda uchraydi: ayni bir tushunchani anglatish uchun bir necha leksema ishlatalidi: *affiks* — *qo'shimcha* kabi. Bunday debletlardan biri asli ortiqcha deyiladi. Agar bunday leksemalarda biror jihatdan farqlanish yuz bermasa, bittasi iste'moldan chiqib ketadi. Demak, leksik dubletlar — o'tkinchi hodisa.

2- §. Leksik sinonimlar ideografik semasining ma'nno qirrasi bilan farqlanib tursa, *ideografik sinonimlar* deyiladi (*idea* — 'tushuncha', 'tasavvur'). Bunday sinonimlar *ma'nno sinonimlari* ham deyiladi. Masalan, *yanglish-, noto'g'ri-, xato-* leksemalari ayni bir ma'noni anglatadi (ideografik semalari teng), shunga ko'ra o'zaro sinonim; lekin ma'nno qirrasi farqli: *yanglish fikr-, noto'g'ri fikr-, xato fikr-* birikmalarining har birida fikrning chin emasligi anglatiladi, lekin xato fikrga nisbatan *yanglish fikr-* deyish bilan "ayblash" yumshatiladi, yanglish fikrga nisbatan *xato fikr-* deyish bilan "ayblash" kuchaytiriladi.

Yuzaki qaraganda yuqoridagicha holat *chaqqon-, epchil-* leksemalarida ham mavjuddek ko'rindi. Aslida bu leksemalar boshqa-boshqa leksik ma'noni anglatadi: "chaqqon"lik "epchil"lik emas, epchil kishi chaqqon bo'lishi ham, bo'lmasligi ham mumkin. Demak, bular — har xil leksik ma'noni anglatuvchi leksemalar: *chaqqon* leksemasi *oyoq-qo'li yengil* iborasi anglatadigan ma'noni, *epchil* leksemasi esa *ishning ko'zini biladigan* iborasi anglatadigan ma'noni bildiradi.

*Ora-* va *o'rta-* leksemalari ham bosh leksik ma'nosida o'zaro sinonim emas: *ora-* 1 — 'ikki nuqtani ajratib turuvchi oraliq (masofa, vaqt)' *o'rta-* 1 — 'ikki nuqtani ajratib turuvchi oraliqning qoq yarmidagi nuqta (masofa, vaqt)'.

Shunga ko'ra *Oraga qil ham sig'maydi* deyiladi-yu, lekin *O'rtaga qil ham sig'maydi* deyish xato. Bu yerdagi farq bir leksik ma'no doirasidagi farq bo'lmay, ayrim-ayrim ma'nolar mavjud. Shu sababli *Ikki o'rtadagi uzun masoфа Mening ko'zlarimning nuri-la to'lgan* (Hamid Olimjon) deb ishlatalish to'g'ri bo'lmaygan: *o'rta-* leksemasi oldidan *ikki-* miqdor sifatlovchisini ishlatalib bo'lmaydi, 'o'rta' uzun yoki qisqa bo'lmaydi; bu matnda asli *ora-* leksemasini ishlatalish lozim edi.

3- §. Sinonimlar o'zaro baho semasi bilan farqlansa, baholovchi sinonimlar deyiladi (Bu hodisa stilistik sinonimlar deb ham nomlanadi). Har bir sinonimik uyada odatda: a) baho semasi betaraf leksik birlik va b) baho semasi mavjud leksik birlik bo'ladi. Masalan, *yuz-, bet-, aft-, bashara-, chehra-* sinonimik uyada *yuz-* leksemasi, *kul-, iljay-, irjay-, tirjay-, ishshay-, hirningla-, tabassum qil-, xaxola-, xandon tashla-* sinonimik uyada *kul-* leksemasi baho semasi jihatidan betaraf, qolgan leksemalarda esa baho semasi bo'rtib turibdi.

Sinonimlarda baho semasi: 1) ijobiy bo'ladi: *chehra-, jilmay-, tabassum qil-* leksemalaridagi kabi; 2) salbiy bo'ladi: *aft-, bashara-, irjay-, tirjay-, ishshay-* leksemalaridagi kabi. Leksemalarni tanlab ishlatalishda sinonimlarning baho semasiga alohida e'tibor beriladi, chunki baho semasi shu leksema (leksosemema) anglatayotgan voqelikka so'zlovchining ijobiy yoki salbiy munosabatini bildirib turadi.

4- §. Sinonimlar o'zaro nutq uslublariga birkitilish belgisi bilan farqlansa, uslubiy sinonimlar deyiladi. Masalan, *yuz-, bet-, aft-, bashara-, chehra-* sinonimlaridan *yuz-* leksemasining ishlatalishi nutq uslublari bo'yicha chegaralanmagan, *bet-, aft-, bashara-* leksemalari asosan so'zlashuv nutqida, *chehra-* leksemasi esa asosan badiiy nutqda ishlataladi.

Uslubiy sinonimlar quyidagicha voqe bo'ladi:

1) umumnutq leksemasi (nutqning barcha ko'rinishlarida ishlatalaveradi-gan leksema) bilan badiiy nutq leksemasi orasida: *nur-* — umumnutq leksemasi, *yog'du-* — badiiy nutq leksemasi, *peshana-* — umumnutq leksemasi, *manglay-* — badiiy nutq leksemasi, *xat-* — umumnutq leksemasi, *maktab-* — badiiy nutq leksemasi kabi;

2) umumnutq leksemasi bilan rasmiy nutq leksemasi orasida: *tuga- - tamom bo'l-, qatnash- - ishtirok et-* kabi;

3) umumnutq leksemasi bilan so'zlashuv nutqi leksemasi orasida: *yana- - tag'in-, boshqa- - bo'lak-, almash- - alish-* kabi;

4) so'zlashuv nutqi leksemasi bilan badiiy nutq leksemasi orasida: *aft- - chehra-, bo'lak- - o'zga-* kabi.

5- §. Yuqorida sinonimlarga uch jihatidan yondashildi. 1) leksik ma'no qirrasi jihatidan, 2) baho semasi jihatidan, 3) nutq ko'rinishlariga xoslanish belgisi jihatidan. Shu tavsiflar asosida sinonimik uyaning bosh leksemasi bel-

gilanadi. Sinonim uyadagi bosh leksemaga *dominanta* deyiladi (lot. *dominantis* — 'hukmron').

Dominanta deb odatda sinonimik uyadagi leksik ma'no mundarijasi bar-cha sinonimlar uchun umumiy, baho semasi betaraf, umumnutqqa xos leksema tanlanadi. Masalan, *yuz-*, *bet-*, *aft-*, *bashara-*, *chehra-* sinonimlaridan *yuz-* leksemasi, *shirin-*, *mazali-*, *lazzatli-*, *laziz-* sinonimlaridan *shirin-* leksemasi — dominanta.

Dominantani belgilab olish sinonimlar lug'atini tuzish ishida katta ahamiyatga ega: a) sinonimik uya shu dominanta asosida lug'atdan joy oladi; b) sinonimlar anglatgan ma'no shu dominantaning ma'nosiga asosida tariflanadi, so'ngra shu uyadagi har bir sinonimning o'ziga xos ma'no qirrasi, baho semasi, nutqiy xoslanish belgisi va boshqa xususiyatlari tasvirlanadi.

#### 6- §. Sinonimik munosabat:

1) bir tilning o'z leksemalari orasida bo'ladi. Bu — har bir tilning o'z ichki taraqqiyoti bilan yuzaga keladigan holat. Masalan, *gapir-*, *so'zla-*; *yanch-*, *tuy-* kabi sinonimlar o'zbek tilining o'z imkoniyati asosida yuzaga kelgan;

2) o'z leksema bilan o'zlashma leksema orasida bo'ladi. Masalan, *oz-*, *kam-*; *barcha-*, *hamma-*; *toza-*, *pok-*; *yolg'on-*, *soxta-* (o'zbekcha — tojikcha); *ayirma-*, *farq-*, *tafovut-*; *bo'lak-*, *qism-*; *kishi-*, *inson-*, *odam-*; *uyushma-*, *itti-fog-* (o'zbekcha — arabcha) kabi;

3) o'zlashma leksemalar orasida ham voqe bo'ladi. Masalan, *analiz-*, *tahlil-* (yunoncha — arabcha), *maktub-*, *noma-* (arabcha — tojikcha); *rasm-*, *odat-* (arabcha — arabcha) kabi.

Demak, sinonimik munosabat avvalo o'zbek tili lug'at boyligidagi o'z qatlama leksemalari orasida voqe bo'ladi. Shu bilan birga, boshqa tildan leksema o'zlashtirish oqibatida ham sinonimik munosabat yuzaga kelishi mumkin.

#### 7- §. Sinonimik uyadagi leksemalar tuzilishiga ko'ra turlicha bo'lishi mumkin. Sinonimik munosabat:

1) tub leksemalar orasida bo'ladi: *bop-*, *mos-*; *yoq-*, *tomon-*; *o'rIN-*, *joy-* (ayrim leksik ma'nolarida) kabi;

2) tub leksema bilan hosila leksema orasida bo'ladi: *pog'ona-*, *bosqich-*; *tuga-*, *tamom bo'l-* kabi;

3) hosila leksemalar orasida bo'ladi. Bunda yasash asosi bo'lgan leksemalar o'zaro:

a) sinonim bo'ladi: *sanoqli-*, *hisobli-* (*sanoq-*, *hisob-*); *g'azablan-*, *quhr-lan-* (*g'azab-*, *qahr-*) kabi;

b) yaqin ma'noli bo'ladi: *kuyla-*, *xonish qil-* (*kuy-*, *xonish-*); *yosh-yalang-*, *yigit-yalang-* (*yosh-*, *yigit-*) kabi.

I z o h l a r: 1. Ayni bir leksemadan har xil affiks bilan yasalishlar ham sinonimik munosabat hosil etishi mumkin. Bunda asli affikslar sinonim bo'ladi. Masalan, *ilmog*, *ilgak* sinonimlarida asli *-moq*, *-gak* affikslari o'zaro sinonim. 2. Ba'zan bir o'zakning har xil ko'rinishlaridan yasalishlar ham sinonimik munosabat hosil etadi. Bunday holat asosan arabcha o'zlashtirmalarda voqe bo'ladi. Masalan, *haqsiz*-, *huquqsiz*- leksemalari asli arabcha o'zakning birlik (*haq*) va ko'plik (*huquq*) shakllaridan yasalgan; *taqqosla*-, *qiyos qil*- sinonimlaridagi *qiyos*, *taqqos* qismlari asli bir arabcha o'zakdan hosil qilingan.

Demak, sinonimlarning yuzaga kelishiga sabablardan biri — leksema hosil qilinishi.

8- §. Sinonimik uyadagi leksemalar tildagi mavqeい jihatidan ham turlicha bo'ladi. Sinonimik munosabat:

1) umumtil birliklari orasida bo'ladi: *chumoli*-, *qumursqa*;- *kun*-, *quyosh*;- *chop*-, *yugur*- kabi;

2) umumtil birligi bilan shevaga xos birlik orasida bo'ladi: *asal*-, *bol*;- *yana*-, *tag'in*;- *ozg'in*-, *orig*- kabi;

3) shevalarga xos birliklar orasida bo'ladi: *g'o'ra*-, *dovuchcha*;- *sapcha*-, *xamak*-, *bolacha*-, *tugunak*- kabi.

Demak, sinonimiyaga umumtil nuqtayi nazaridan yondashuv bilan adabiy tilning o'zi nuqtayi nazaridan yondashuv farq qiladi. Shevalarga xos birliklar — adabiy til sinonimiyasining boyish manbalaridan biri.

9- §. Shu o'rinda evfemizm tufayli voqe bo'ladigan sinonimik munosabatni ham ta'kidlab o'tish kerak. Qo'pol, yomon taassurot qoldiradigan leksemani bunday xususiyati yo'q leksema bilan almashtirish hodisasiga evfemizm deyiladi (yunoncha *euphemeo* — 'yaxshi, silliq gapiraman'). Hodisaning o'zidan tashqari, ana shunday "silliqlovchi" leksema ham evfemizm deb yuritiladi. Masalan, *o'l*-, *qazo qil*;- *ikkiqat* - *xomilador*;- *semiz* - *go'shtdor*-, *to'la*- kabi.

10- §. Sinonimiya ko'pma'nolilik hodisasi bilan uzviy bog'langan, chunki sinonimik munosabat leksemalarda leksik ma'nolar bo'yicha voqe bo'ladi. To'g'ridan to'g'ri leksema bilan leksema sinonim bo'lishi uchun ular bir leksik ma'noli bo'lishi lozim. Ko'pma'noli leksemalarda har bir semema boshqa bir leksema bilan (agar u birma'noli bo'lsa) yoki semema bilan (agar u ko'pma'noli bo'lsa) sinonimik munosabatga kirishadi. Masalan, *bosh*- leksemasi bir sememasida *to'ng'ich*- leksemasi bilan, ikkinchi sememasida *asosiy*- leksemasi bilan sinonimik munosabat hosil qiladi.

Leksik ma'no turlari jihatidan qaraganda sinonimik munosabat:

1) bosh (to'g'ri) ma'nolar orasida bo'ladi; bu — asosiy holat: *butunlay*-, *tamomila*- kabi;

2) bosh (to'g'ri) ma'no bilan hosila (ko'chma) ma'no orasida; bunday hodisa anchagina uchraydi: *to 'ng 'ich-, bosh-; puxta-, pishiq-* kabi:

3) hosila (ko'chma) ma'nolar orasida bo'ladi; bunday holat ko'p emas. Masalan, *gapning mag 'zi-, gapning tuzi-* birikmalaridagi *mag 'iz-, tuz-* leksemalari o'zaro hosila ma'nolarida sinonim bo'ladi.

**11- §.** Leksik qo'llash (nutqiy ma'no) asosida sinonim yuzaga kelmaydi. chunki nutqiy ma'no lisoniy birlik deb emas, balki nutq hodisasi deb qaraladi. Sinonimik munosabat lisoniy birliklar orasida yuzaga keladi, shu asosda *uzual sinonimiya* deb yuritiladi (lot. *usus* — 'odat', 'qoida'). Sinonimik munosabat lisoniy ma'no bilan nutqiy ma'no orasida voqe bo'lsa, *kontekstual sinonimiya* (*nutqiy sinonimiya*) deb nomlanadi.

Kontekstual sinonimiya rang-barang bo'lib, nutqda muhim vazifa bajaradi. Bunday sinonimik munosabat nutqning o'zida voqe bo'ladi, shu aniq nutqdan (matndan) tashqarida yo'qqa chiqadi. Bunday sinonimik munosabat, masalan, olmosh bilan boshqa turkum leksemasi orasida, olmosh bilan birikma, jumla, hatto abzas orasida, shaxs, narsa, mavhum tushuncha nomi bilan shuning tasviriy muqobili orasida (*Pushkin, "Yevgeniy Onegin"ning muallifi* kabi) paydo bo'ladi va b.

Masalan, Abdulla Qahhorning "Sarob" romani haqida fikr bildirilganda har gal *Abdulla Qahhor* deb qaytaraverish uslubni buzadi. Shu sababli kontekstual sinonimiyanidan keng foydalananadi: bir o'rinda *adib* deyilsa, ikkinchi o'rinda *yozuvchi* deb, uchinchi o'rinda *roman muallifi* yoki *muallif* deb ishlataladi. Lug'aviy birliklar sifatida *adib-, yozuvchi-, muallif-* leksemalari o'zaro sinonim emas, lekin ma'lum bir kontekst doirasida bu leksemalar o'zaro va *Abdulla Qahhor* atoqli otiga kontekstual sinonim bo'lib keladi.

**12- §.** Sinonimik munosabat til taraqqiyotining muayyan bir bosqichi doirasida belgilanadi. Shunga ko'ra ilgari poetik asarlarda qo'llanib, hozir iste'moldan chiqib ketgan *kavkab-* (arabcha 'yulduz') leksemasi bilan *yulduz*-leksemasi hozirgi o'zbek tili nuqtayi nazaridan sinonimlar deb qaralmaydi. Har xil ijtimoiy tuzumga taalluqli tushunchalarni anglatadigan leksemalar ham o'zaro sinonim deb qaralmaydi, chunki bularni hozirgi tilda biri o'mida ikkinchisini ishlatib bo'lmaydi: *sudya-, qozi-, militsioner-, politsiyachi-* kabi.

Sinonimlar — tilning boy ekanini, taraqqiyot darajasini ko'rsatib turuvchi hodisalardan biri. Sinonimlar yordamida nozik ma'no qirralari anglatiladi, voqelikka turlichcha baho, munosabat ifodalanadi. Sinonimlardan birini tanlab ishlatish bilan voqelikning ma'lum bir qirrasi bo'rttirib anglatiladi, ifodalanadi. Sinonimlarni ishlatishda har gal ular orasidagi ayirmalar bilan hisoblashishga to'g'ri keladi. O'z fikrini anglatishda, voqelikka o'z munosabatini ifodalashda yagona o'rinli leksemani sinonimlari orasidan tanlab ola bilish kerak.

Sinonimlardan yana nutqni ixcham, ravon tuzishda, shuningdek talaffuzni qulaylashtirishda ham foydalaniлади. Bulardan tashqari, sinonimlar bilan juft leksemalar ham tuziladi: *or-nomus-, haxt-saodat-* kabi.

### Leksemalarda (leksosememalarda) antonimik (*oppozitiv*) munosabat (leksoantonimlar)

13- §. Ideografik semalaridan odatda bir semasi zid, qolgan semalari ay-nan ikki leksema (leksosemema) biri ikkinchisiga nisbatan *antonim* deyiladi (yunoncha *anti* — 'zid', 'qarshi'; *onyma* — 'ism'). Bunday ma'no munosabati *opposativ* munosabat ham deyiladi (lot. *oppositivo* — 'zid qo'yish'). Masalan, *oz-* — *ko'p-*, *tez-* — *sekin-, jonli-* — *jonsiz-* leksemalari orasida bo'lgani kabi.

Antonimlik ikki til birligi orasidagi ma'no munosabati bo'lib, ikkisi bir-galikda *antonimik juftlikni* tashkil qiladi. Antonimlardan biri yoki har ikkisi o'z sinonimiga ega bo'lishi mumkin, lekin shunda ham antonimik juftlik holati buzilmaydi. Masalan, *ko'p-* leksemasingin *mo'l-*, *bisyor-* kabi sinonimlari mavjud, shunga ko'ra bu leksemalar *oz-* — *ko'p-*, *oz-* — *mo'l-*, *oz-* — *bisyor-* kabi antonimik juftliklarda qatnashadi.

Antonimik munosabat odatda bir turkum leksemalari orasida bo'ladi (yuqoridagi misollar). Bu — asosiy holat. Ba'zan antonimik munosabat ot leksemaning belgi ma'nosi bilan sifat leksema orasida voqe bo'ladi: *bosh-* ('to'ng'ich') — *kenja-* kabi.

Sifat leksemaga fe'l leksemaning sifatdosh shakli antonim bo'ladi. Bunda sifatdosh shakli fe'l leksemaning bo'lishli shaklidan ham, bo'lishsiz shaklidan ham hosil qilingan bo'lishi mumkin: *xom-* — *pishgan-*, *o'tkir-* — *o'tmas-* kabi. Sifat leksema bilan ma'no munosabatiga kirishuvi oqibatida bunday sifatdosh shaklidagi fe'lning ma'nosida yangi mundarija yuzaga keladi, mustaqil lekse-maga aylanadi (*pishgan-* — *pishmagan-*, *pishgan-* — *xom-*; *o'tmas-* — *o'tar-*, *o'tmas-* — *o'tkir-* munosabatlarini qiyoslang).

Antonimik munosabat asosan belgi anglatuvchi leksemalarda mavjud, ayniqsa sifat leksemalarda, ravish leksemalarda ko'p: *yaxshi-* — *yomon-*, *och-* — *to'q-*, *yaqin-* — *uzoq-* kabi. Fe'l leksemalarda u qadar ko'p emas: *ol-* — *ber-*, *kir-* — *chiq-* kabi. Ot leksemalarda esa antonimik munosabat asosan belgi-holat otlarida, biror belgisiga ko'ra zidlash mumkin bo'lgan voqelikni anglatuvchi otlarda mavjud: *tinchlik-* — *urush-*, *mehr-* — *nafrat-*, *aka-* — *uka-*, *opa-* — *singil-*, *amaki-* — *tog'a-* kabi. Antonimik munosabat ba'zi turkumlarda (masalan, son, olmosh turkumlarda) umuman yo'q.

Ko'rindiki, barcha leksemalar (leksosememalar) antonimik munosabat hosil etavermaydi. Semema anglatadigan leksik ma'no o'z ziddiga ega bo'la olsa-gina, antonimik munosabat voqe bo'lishi mumkin. Masalan, *kitob-*, *soat-*, *ko'z-* leksemalarining leksik ma'nolarida bunday zidlanuvchi ma'no mu-

nosabati hosil etish imkoniyati yo'q; *toza-*, *arzon-*, *avval-* leksemalarining leksik ma'nolarida esa bunday imkoniyat bor: *toza-* — *iflos-*, *arzon-* — *qimmat-*, *avval-* — *keyin-* kabi.

Antonimlar ifoda jihatiga ko'tra har xil bo'lishi lozim: *sog'* — *kasal-* kabi. Antonim leksemalar bir asosdan yasalgan bo'lishi mumkin, bunda leksema yasovchi affikslar o'zaro antonim bo'ladi: *ongli-* — *ongsiz-* kabi. Demak, antonimlar boshqa-boshqa leksema bo'lishi kerak (Sinonimlarda ham xuddi shunday).

Ba'zan bir leksemaning leksik ma'nolari o'zaro zidlanish hosil etadi: *bosh-* ('muqaddima') — *bosh-* ('oxir') kabi. *Ko'chaning boshi-* birikmasida ko'chaning boshlanishini ham, oxirini ham tushunish mumkin. Bunday holatni antonimik munosabat deb emas, balki ko'pma'nolilik doirasida voqe bo'ladigan hodisa deb baholash to'g'riroq. Fanda *enantiosemiya* deb yuritiladigan bunday hodisa juda oz uchraydi (yunoncha *en* — 'oldidagi').


Ma'no jihatidan antonimlar o'zaro bog'lanishli bo'ladi: birini aytish bilan shuning ziddi ko'z oldiga keladi, birining ma'nosi antonimiga qarshi qo'yilganda aniq gavdalanadi: *qalin-* — *yupqa-* kabi.

Oddiy inkoring o'zi hali antonimlik emas. Masalan, *ayt-* — *aytma-*, *aytar-* — *aytmas-* kabilar biri ikkinchisining inkori, lekin ulami o'zaro antonim deb bo'lmaydi. Asli bular — ikki leksema emas, balki bir leksemaning ikki (bo'lishli va bo'lishsiz) shakli. Antonimik munosabat esa ikki leksema orasida voqe bo'ladi, bunda inkor etish yangini nomlash orqali yuz beradi. Masalan, *shirin-* — *achchiq-* leksemalari biri ikkinchisini o'zi anglatadigan ma'nosi bilan, yangini nomlash bilan inkor etadi.

Demak, antonimik munosabat hosil etuvchi leksemalar biri ikkinchisini yangini nomlash orqali inkor etishi, leksik ma'nolar biri ikkinchisining ziddi bo'lishi lozim. Masalan, *dono-* va *ahmoq-*, *bir-* va *ming-*, *yiqil-* va *tur-* leksemalari o'zaro antonim emas, chunki bular yuqoridagi shartlarga javob bermaydi. *Dono-* leksemasiga *nodon-* leksemasi, *ahmoq-* leksemasiga *aqli-* leksemasi antonim. *Tur-* leksemasining bosh (to'g'ri) ma'nosiga *yot-* leksemasining bosh (to'g'ri) ma'nosi antonim, lekin *yiqil-* leksemasiga antonim yo'q.

Shuningdek, *ana-* — *mana-*; *shu-* — *o'sha-*, *u-* — *bu-* ko'rsatish birliklari o'zaro zid ma'nolarni bildirmaydi. Bu birliklarning ma'nosidagi farq — zid yo'nalishda emas, balki bir yo'nalishda yotuvchi masofa (vaqt) oralig'ida.

Qiyoslang:



14- §. Sinonimik munosabatda bo'lganidek, antonimik munosabatda ham leksik ma'noga asoslaniladi. Birma'noli leksemalarda to'g'ridan to'g'ri lek-

sema bilan leksema antonimiyasi haqida gapirish mumkin, masalan, adabiy tildagi *pakana-* — *novcha-* leksemalarida bo'lgani kabi.

Ko'pma'noli leksemalarda esa har bir leksik ma'no o'z antonimiga ega bo'lishi mumkin. Masalan, *tirik-* leksemasining bir sememasiga *o'lik-* leksemasining bir sememasasi (*tirik tabiat-* — *o'lik tabiat-*), *tirik-* leksemasining boshqa bir sememasiga *lanj-* leksemasining bir sememasasi (*tirik osh-* — *lanj osh-*) antonim.

Ko'pma'noli leksemaning har bir sememasiga antonim bo'lishi shart emas. Masalan, *baxil-* leksemasining bir sememasiga antonim bor (*baxil odam-* — *saxiy odam-*), lekin boshqa bir sememasiga antonim yo'q (*baxil-* leksemasining nazarda tutilayotgan sememasiga *ich(i) qora* iborasi sinonim, *ko'ngli(i) oq* iborasi antonim). Demak, antonimik munosabat ham, xuddi sinonimik munosabatda bo'lganidek, leksemalar orasidagi munosabat emas, balki sememalar orasidagi munosabat.

Antonimiya turli leksik ma'nolar orasida voqe bo'ladi:

- 1) bosh (to'g'ri) ma'nolar orasida: *inson-* — *hayvon-* kabi;
- 2) bosh (to'g'ri) ma'no bilan hosila (*ko'chma*) ma'no orasida: *kichkina-* — *devday-* kabi;
- 3) hosila (*ko'chma*) ma'nolar orasida: *uzoq (qarindosh)* — *yaqin (qarin-dosh)* kabi. *Boshdan oyoq* kabi ishlatalishda har ikki leksema hosila (*ko'chma*) ma'nosi bilan qatnashadi.

Odatda biror leksemaga xos leksik ma'noni ta'riflashda bu leksik ma'noning sinonimi bilan antonimi ham hisobga olinadi. Masalan, *quyuq choy-* birikmasidagi *quyuq-* leksemasining ma'nosini ta'riflashda uning sinonimini (*achchiq-*) va antonimini (*suyuq-*) ko'rsatish foydali: "quyuq-: ach-chiq- leksemasiga sinonim, suyuq- leksemasiga antonim" kabi.

Ba'zi leksik ma'nolarga ham sinonim, ham antonim keltirish imkoniyati bo'lmaydi. Masalan, *suyuq choy-* birikmasidagi *suyuq-* leksemasining leksik ma'nosiga antonim bor (*quyuq choy-*), lekin sinonim yo'q (*bemaza choy-* birikmasidagi *bemaza-* leksemasini sinonim deb bo'lmaydi, chunki quyuq choy ham bemaza bo'lishi mumkin).

**15- §. Leksik qo'llash (nutqiy ma'no) asosida antonimik munosabat hosil bo'lmaydi** (Sinonimik munosabatda ham shunday). Lisoniy ma'no bilan nutqiy ma'no orasida zidlanish voqe bo'lsa, uni *kontekstual antonimiya* deb nomlaydilar. Bunday antonimiya har gal nutqning o'zida voqe bo'ladi, konkret nutqdan (matndan) tashqarida yo'qqa chiqadi. Masalan, *o't-* ('olov') leksemasi bilan *suv-* leksemasi (shuningdek *u-* ko'rsatish birligi bilan *bu-* ko'rsatish birligi) o'zaro antonim emas; ma'lum matnda-gina antonimik munosabat hosil etib turishi mumkin: *O'tga ham, suvga ham o'zini urishga tayyor* (Oybek). *Dam u uchiga boradi, dam bu uchiga keladi* kabi.

Antonimik munosabat til birlklari orasida voqe bo'ladi. Shunga ko'ra *ilmiy* leksemasi bilan *ilmga xilof-* birikmasini o'zaro antonim deb bo'lmaydi, chunki birinchisi — til birligi, ikkinchisi — erkin birikma, nutq birligi. Asli *ilmiy-* leksemasiga *g'ayriilmiy-* leksemasi antonim. *Ilmiy-* bilan *ilmga xilof-* munosabatini kontekstual antonimiya deyish mumkin.

Antonimlar, avvalo, leksemalarning leksik ma'nosini izohlashda ma'lum ahamiyatga ega. Ikkinchidan, antonimlardan antiteza hosil etishda foydalani-ladi (fr. *antithese* — 'zid qo'yish'). Bunday antiteza maqollarda ayniqsa ko'p: *Yaxshidan ot qolar, yomondan dod* (*ot-* — *dod-* munosabati — kontekstual antonimiya); *Kattaga hurmatda bo'l, kichikka izzatda bo'l* kabi. Uchinchidan, antonimlar bilan juft leksema tuziladi; bunda yo ma'no umumlashadi, yoki yangi leksik ma'no anglashiladi (keyingisi — asosiy holat): *erta-kech-, qishin-yozin-, o'g'il-qiz-, keldi-ketdi-* kabi.

### Leksemalar (leksosememalar) orasidagi assosiativ semantik munosabatlar

16-. §. Leksemalar (leksosememalar) orasidagi assosiativ munosabatlar asli ekstralivingistik hodisa bo'lib, vogelikdagi shunday munosabatlarning tildagi (leksemalardagi) in'ikosidan, nomlanishidan iborat (lot. *associatio* — 'birlashish').

Sinonimik, antonimik (oppositiv) munosabatlarda bo'lganidek, assosiativ semantik munosabat ham umumiyligi (integral) va farqli (differensial) ideografik semalar asosida belgilanadi. Leksemalarni birlashtirish, guruhlashda leksik ma'nolar tarkibidagi umumiyligi ideografik semalar asos bo'ladi, bunday leksemalarni ichki tasniflash va tavsiflash esa farqli ideografik semalar bo'yicha amalga oshiriladi.

1. Leksik ma'nesi darajama-daraja farqlanib (ortib, kuchayib) boruvchi leksemalar orasidagi munosabat: *bino-* — *koshona-* — *qasr-* leksemalari o'zaro, *xalta-* — *to'rva-* — *qop-* — *qanor-* leksemalari o'zaro, *toy-* — *qulun-* — *do'nan-* leksemalari o'zaro, *chaqaloq-* — *go'dak-* leksemalari o'zaro shunday ma'no munosabati hosil etadi.

Leksemalar (leksosememalar) orasidagi bunday semantik munosabatni ziddiyat deyish o'rini emas. Barcha til birlklari orasidagi munosabatlar ziddiyatga (oppositsiyaga) asoslanadi deb tushunish natijasida leksemalar orasidagi har qanday farqlanishni ham ziddiyat deb talqin qilish yuzaga keldi. Aslida 'zidlanish'ni 'farqlanish'ning bir ko'rinishi deb baholash lozim. Yuqorida tasvirlangan hodisani *darajali semantik munosabat* deyish kifoya.

Darajali semantik munosabat ikki leksema orasida ham voqe bo'laveradi; lekin uch va undan ortiq leksema orasida voqe bo'lsa, leksik ma'noning darajama-daraja farqlanib (ortib) borishi ochiqroq ko'rindisi.

2. Keng tushunchani, jins tushunchasini, butun tushunchasini anglatuvchi leksema (leksosemema) bilan tor tushunchani, tur tushunchasini, qism tushunchasini anglatuvchi leksema (leksosemema) orasidagi semantik munosabat. Bunday hodisa *pog'onali semantik munosabat* deyiladi. Masalan, *bola-* ('farzand') leksemasi bilan *o'g'il-, qiz-* leksemalari, *daraxt-* leksemasi bilan *tol-, terak-* kabi leksemalar, *ot-* ('ish hayvoni') leksemasi bilan *ayg'ir-, baytaf-* leksemalari, *vaqt-* leksemasi bilan *on-, lahma-* leksemalari, *qo'y-* leksemasi bilan *qo'chgor-* leksemasi o'zaro shunday ma'nno munosabati hosil etadi.

3. Tur tushunchasini anglatuvchi leksemalar (leksosememalar) orasidagi semantik munosabat. Bunday hodisa *teng qiymatli semantik munosabat* deyiladi. Masalan, *tol-, terak-, qayin-* leksemalari o'zaro, *karch-, tilim-* leksemalari o'zaro, *kitob-, daftar-, ruchka-* leksemalari o'zaro shunday ma'nno munosabati hosil etadi.

### **Leksemalarni (leksosememalarni) semantik guruhashch haqida**

1- §. Leksemalarning (leksosememalarning) leksik ma'nno asosida guruhanishiga leksik-semantik guruh (LSG) deyiladi. Eng yirik LSG deb leksemalarning turkumlarga ajratilishi ko'rsatiladi: ot leksemalar LSGi, fe'l leksemalar LSGi kabi. Bunday LSGlarga leksemalar leksik ma'nosida tarkibidagi bosh ideografik sema (eng keng ko'lamli sema) asosida birlashtiriladi; masalan, 'predmet' semasi asosida ot leksemalar LSGi, 'predmetning harakat-holati' semasi asosida fe'l leksemalar LSGi ajratiladi.

Har bir turkum LSGi o'z navbatida bir qancha LSGlarga, agar bunday ajratilgan LSG hajman katta bo'lsa, o'z navbatida yana kichikroq LSGlarga ajratiladi. Hajman eng kichik LSG-gina (masalan, predmetning hidini anglatuvchi LSG *xushbo'y-, sassiq-, qo'lansa-* kabi sanoqli leksemalardan-gina iborat) yana LSGlarga bo'linmaydi, faqat ichki tasnif amalga oshiriladi (masalan, ijobjiy yoki salbiy hidni anglatishiga ko'ra, leksik ma'nosining darajalanishiga ko'ra tasniflanadi).

LSGdan tashqari, leksemalar semantik maydonlarga (SM) ham birlashtiriladi. SMning LSGdan asosiy farqi shuki, bir necha turkum leksemalari bir arxisema asosida qamrab olinadi. Masalan, 'nutq faoliyati' SMga 'nutq' arxisemasi asosida ot leksemalar ham, fe'l leksemalar ham birlashtiriladi va b.

Leksemalarni tizim sifatida o'rganish nuqtayi nazaridan LSGlar muhim ahamiyatga ega. LSGlarga ajratilish asosan ot, sifat, fe'l, ravish turkumlariga xos. Har bir turkum leksemalari LSGlarga turlich raqishda ajratiladi. Leksemalarni LSGlarga ajratish va ichki tasniflash semalar (ma'nno uzvlari) asosida amalga oshiriladi. Leksemalarni LSGlarga birlashtirishni va ajratishni semik tahlil (ma'nno uzvlari asosidagi tahlil) usuli bilan amalga oshirish orqali tilning

lug'at boyligini tizim sifatida chuqur anglash va tavsiflashga erishiladi. O'zbek tili lug'at boyligini shunday usul bilan o'rganish avj olib bormoqda.

2- §. Ot leksemalar leksik ma'nosining tabiatiga qarab turli-tuman LSGlarga ajratiladi; masalan, dastlab kishi otlari va narsa otlariga ajratilib, kishi otlari o'z navbatida qarindosh-urug'chilik nomlari, amal-mansab nomlari kabi LSGlarga birlashtiriladi. Juda ko'p LSGlar narsa otlarida mavjud: tana a'zolarining nomlari, kiyim-kechak nomlari, o'simlik nomlari va b.

Ayrim LSGlar hajman keng bo'lib, o'z navbatida yana kichikroq LSGlarga ajratiladi; masalan, hayvon nomlari LSGi uy hayvonlarining nomlari, yovvoyi hayvonlarning nomlari LSGlariga, bular o'z navbatida yana kichikroq LSGlarga ajratiladi.

Turkiy tillar bo'yicha, shu jumladan o'zbek tili bo'yicha ot leksemalar doirasida qanday LSGlar mavjudligi hali to'liq aniqlanmagan, faqat qavm-qarindoshlik nomlari, tana a'zolari nomlari, hayvon nomlari kabi bir necha LSGlar o'rganilgan.

Qavm-qarindoshlik nomlari LSGi o'z navbatida bir necha kichikroq LSGlarga ajratiladi. Bunda LSGni turlicha asoslar bilan ajratish mumkin. Qavm-qarindoshlik nomlari doirasida, masalan, 'bir avlod kishilar nomlari' LSGini ajratish va quyidagicha tasvirlash mumkin.


Yosh jihatidan kishi dastlab *bola-* deyiladi va bu tushuncha o'zbek tilida *farzand-, surriyot-* leksemalari bilan ham anglatiladi. Bu leksemalar sinonimik uyaga birlashib, paradigmatic munosabat hosil etadi. LSGga bu sinonimik uyaning dominantasi (bosh leksemasi) sifatida *bola-* leksemasi kiritiladi. Bola yosh jihatidan *chaqaloq-* va *go'dak-* deb farqlanadi, bu leksemalar o'zaro darajali ma'no munosabati hosil etadi: 'yangi tug'ilgan bola' – 'emizikli bola'. *Bola-* leksemasida 'jins' semasi yo'q, shunga ko'ra jins *o'g'il bola-, qiz bola-* deb farqlanadi; odatda *o'g'il-, qiz-* leksemalarining yolg'iz o'zi ishlatiladi; bu leksemalar o'zaro antonimik (oppozitiv) munosabat hosil qiladi.

*O'g'il* balog'at yoshiga yetish oldida *o'spirin-*, balog'at yoshiga yetganida *yigit-* deyiladi; bu leksemalar o'zaro darajali semantik munosabat hosil etadi. Bunday darajali munosabat hosil etish *qiz-* leksemasiga nisbatan yo'q: *qiz*-leksemasining o'zi ishlatilaveradi.

Oila qurayotgan yigit *kuyov-*, qiz esa *kelin-* deyiladi; *yigit-* – *kuyov-*, *qiz-* – *kelin-* leksemalari darajali semantik munosabat, *kuyov-* – *kelin-* leksemalari esa antonimik (oppozitiv) munosabat hosil qiladi. Kuyov bilan kelin oila sifatida yashay boshlaganidan keyin *er-* bilan *xotin-* deyiladi; bu leksemalar antonimik (oppozitiv) munosabat hosil qiladi; *kuyov-* – *er-, kelin-* – *xotin-* munosabati esa darajali semantik munosabatning bir ko'rinishiga teng.

Oilada bola tug'ilganidan keyin er *ota-* mavqeiga, xotin esa *ona-* mavqeiga erishadi; *ota-* – *ona-* leksemalari antonimik (oppozitiv) munosabat

hosil etadi; *er-* – *ota-*, *xotin-* – *ona-*, *ota-* – *bola-*, *ona-* – *bola-* leksemalari esa darajali semantik munosabatning ko'rinishlarini aks ettiradi. Shundan keyingi semantik munosabat yana *bola-* leksemasidan boshlab keyingi avlod uchun takrorlanadi. Aytilganlarni chizmada quyidagicha aks ettirish mumkin:



3- §. Sifat leksemalar leksik ma'nosining tabiatiga ko'ra, bosh ideografik semasi asosida quyidagicha LSGlarga ajratiladi:

1) kishining aqliy hamda hissiy belgi-xususiyatini bildiruvchi sifatlar: *aqlili-, ahmoq-, dono-, nodon-, ziyrak-, xushyor-, sinchkov-, dovdir-, loqayd-, o'jar-, to'pori-, shaddod-, dangasa-, qaysar-, yuvosh-, mo'min-qobil-, mag'-rur-, hokisor-* kabi;

2) kishining jismoniy belgi-xususiyatini bildiruvchi sifatlar: *semiz-, ozg'in-, cho'loq-, mayib-, g'ilay-, kar-, soqov-, yosh-, qari-, keksa-* kabi;

3) kishining ruhiy belgi-xususiyatini bildiruvchi sifatlar: *xursand-, xushchaqchaq-, xafa-, g'amgin-, ma'yus-, tashvishli-, tetik-, tajang-, darg'azab-, baquvvat-, ojiz-, zaif-* kabi;

4) kishi qiyofasi belgisini bildiruvchi sifatlar: *chiroyli-, go'zal-, xushbichim-, xunuk-, badbashara-* kabi;

5) kishining ijtimoiy holatini bildiruvchi sifatlar: *boy-, badavlat-, o'rtahol-, kambag'al-, qashshoq-, faqir-, yetim-, musofir-* kabi;

6) rang-tus bildiruvchi sifatlar: *og-*, *gora-*, *ko'k-*, *yashil-*, *sariq-*, *qizil-*, *malla-*, *zangor-* kabi;

7) ta'm-maza bildiruvchi sifatlar: *shirin-*, *lazzatli-*, *achchiq-*, *chuchmal-*, *nordon-*, *sho'r-*, *bemaza-* kabi;

8) hid bildiruvchi sifatlar: *xushbo'y-*, *badbo'y-*, *sassiq-*, *go'lansa-* kabi;

9) harorat bildiruvchi sifatlar: *issiq-*, *sovug-*, *iliq-*, *salqin-* kabi;

10) tinch-notinchlik bildiruvchi sifatlar: *tinch-*, *jimjit-*, *sokin-*, *bezovta-* kabi;

11<sup>1</sup>) ho'l-quruqlik bildiruvchi sifatlar: *ho'l-*, *quruq-*, *nam-*, *shilta-*, *shalabto-* kabi;


12) vazn bildiruvchi sifatlar: *og'ir-*, *yengil-* kabi va b.

Sifat leksemalarda ajratiladigan LSGlardan biri — ko'lam sifatlari. Bu LSGga mansub sifatlar predmetning masofa (oraliq), shakl, hajm jihatiga ko'ra belgisini anglatadi. Oraliq ko'lamini bildiruvchi sifatlar predmet ko'laming uch jihatni — bo'y ko'lami, en ko'lami, yon ko'lamidan birini anglatadi (Misollari quyiroqda). Shakl ko'lamini bildiruvchi sifatlar predmetning ayni vaqtida ikki — en va yon — ko'lamini anglatadi: *yo'g'on-*, *ingichka-* kabi. Hajm ko'lamini bildiruvchi sifatlar esa predmetning ayni vaqtida uch — bo'y, en, yon — ko'lamini anglatadi: *yapaloq-*, *yassi-* kabi.

Oraliq (masofa) ko'lamini bildiruvchi sifatlar predmetning: 1) bo'y ko'lamini anglatadi (Misollari quyiroqda); 2) en ko'lamini anglatadi: *keng-*, *tor-* kabi; 3) yon ko'lamini anglatadi: *qalin-*, *yupqa-* kabi.

Bo'y ko'lamini bildiruvchi sifatlar o'z navbatida predmetning: a) balandlik ko'lamini anglatadi: *baland-*, *yuksak-*, *novcha-*, *pakana-* kabi; b) chuqurlik ko'lamini anglatadi: *chuqur-*, *sayoz-* kabi; v) uzunlik ko'lamini anglatadi: *uzoq-*, *olis-*, *yaqin-* kabi.

Ko'lam sifatlari tasnifini quyidagicha chizma bilan ko'rsatish mumkin:



4- §. Fe'l leksemalar bo'yicha ajratiladigan LSGlar boshqa turkum leksemalarida ajratiladigan LSGlarga qaraganda ko'proq o'rganilgan.

Fe'l leksemalar odatda quyidagi LSGlarga ajratiladi:

1) 'harakat' arxisemasi bilan ajratiladigan LSG: *kel-*, *ket-*, *bor-*, *yur-*, *yugur-*, *uch-*, *suz-* kabi;

2) 'holat' arxisemasi bilan ajratiladigan LSG: *oqar-*, *qoray-*, *isi-*, *sovi-*, *qizi-*, *susay-*, *qaqqay-*, *shalpay-*, *gerday-*, *junjik-*, *gangi-*, *sevin-*, *qo'rq-* kabi;

3) 'sezgi' arxisemasi bilan ajratiladigan LSG: *ko'r-*, *eshit-*, *hidla-*, *tot-*, *paypasla-* kabi;

4) 'tovush' arxisemasi bilan ajratiladigan LSG: *gapis-*, *vovulla-*, *chirqira-* kabi va b.

Yuqorida ta'kidlangan LSGlardan har biri murakkab tarkibli bo'lib, o'z navbatida kichikroq LSGlarga ajratiladi. Masalan, 'tovush' arxisemasi asosida ajratiladigan LSG quyidagi uch kichikroq LSGga ajratiladi: a) kishiga mansub tovushlarni bildiruvchi fe'llarning LSGi (Misollari quyiroqda); b) jonli tabiatga mansub tovushlarni bildiruvchi fe'llarning LSGi: *ma'ra-*, *bo'kir-*, *sayra-*, *miyovla-*, *chirqilla-* kabi; v) jonsiz tabiatga mansub tovushlarni bildiruvchi fe'llarning LSGi: *guldura-*, *shitirla-*, *shovulla-*, *sharaqla-*, *jarangla-* kabi.

Kishiga mansub tovushlarni bildiruvchi fe'llarning LSGi o'z navbatida yana kichikroq LSGlarga ajratiladi: a) 'til tovushlari' semasi bilan ajratiladigan fe'llar: *de-*, *so'zla-*, *hikoya qil-* kabi; b) kishi hosil qiladigan boshqa tovushlarni bildiradigan fe'llar: *yo'tal-*, *xirilla-*, *xaxola-* kabi.

'Til tovushlari' semasi bilan ajratiladigan LSG adabiyotlarda "nutq fe'l-lari" deb nomlanib, o'z navbatida yana bir necha semantik guruhlarga ajratiladi: a) 'izhor' fe'llari: *gapis-*, *so'zla-*, *va'z qil-* kabi; b) 'da'vat' fe'llari: *buyur-*, *chaqir-*, *unda-* kabi va b.

5- §. Ravish leksemalar miqdori oz bo'lib, quyidagi ma'no guruhlariga ajratiladi:

1) tarz ravishlari: *yayov-*, *piyoda-*, *astoydil-*, *to'satdan-*, *tez-*, *sekin-*, *yo'l-yo'lakay-*, *ko'r-ko'rona-* kabi;

2) payt ravishlari: *hozir-*, *boya-*, *bugun-*, *kecha-*, *ertalab-*, *kechqurun-*, *avval-*, *doim-* kabi;

3) maqsad ravishlari: *ataylab-*, *jo'rttaga-*, *qasddan-* kabi;

4) miqdor ravishlari: *ko'p-*, *mo'l-*, *ancha-*, *oz-*, *kam-*, *picha-*, *biroz-* kabi.

Ba'zi adabiyotlarda *juda*, *o'ta*, *eng*, *g'oyat*, *nihoyatda* kabilar daraja ravishlari deyiladi. Asli bu birliklar leksik ma'no anglatmaydi, balki leksema oldida kelib, 'kuchaytiruv' ma'nosini (grammatik ma'no) ifodalaydi; shunga

ko'ra shakl yasovchi morfemaga teng bo'lib, sifat va ravish leksemalarning orttirma shaklini yasaydi: eng arzon, juda ko'p kabi.

## LEKSEMALARING (LEKSOSEMALARING) ISHLATILISH DOIRASI

1- §. Leksemalar ishlatilish doirasi jihatidan avvalo ikkiga guruhanadi: ishlatilish doirasi chegaralanmagan qatlam va ishlatilish doirasi chegaralangan qatlam.

Ishlatilish doirasi chegaralanmagan qatlamni barcha o'zbeklar uchun umumiyligi bo'lgan leksemalar tashkil qiladi. Bu qatlamdagi leksemalar, yashash joyi, kasbi, madaniy saviyasi, jinsi, yoshi va boshqa belgilaridan qat'i nazar, o'zbekcha gapiradigan har bir kishining nutqida ishlatiladi, o'zbek tilida gapi-ruvchilarning barchasi uchun tushunarli bo'ladi. O'z-o'zidan, bunday leksemalar kundalik turmushda zarur narsa, belgi kabilarning nomi bo'ladi.

Turkum nuqtayi nazaridan yondashilsa, ishlatilish doirasi chegaralanmagan qatlamga butunicha (ba'zi juz'iy istisnolar bilan, albatta) yordamchilar deb nomlanadigan grammatik turkumlarga mansub birliklar kiritilishi lozim. Chunki, birinchidan, bunday birliklar o'zi ko'p emas, har gal shu oz miqdordagi birliklarga murojaat qilinadi. Ikkinchidan, bular asli grammatik vositalar sirasiga kiradi: leksik tomondan ko'ra grammatik tomon ustun turadi, bu hol ularning umumiyligi va zaruriy bo'lishini ta'minlaydi. Undovlar ham ishlatilish doirasi jihatidan grammatik turkumlar qatori baholanadi.

Mustaqil turkumlardan son leksemalar va olmosh leksemalarning deyarli barchasi ishlatilish doirasiga ko'ra chegaralanmagan. Qolgan turkumlarda (ot, sifat, fe'l, ravish, shuningdek modal birliklarda) har bir leksema alohida yondashib baholanishi kerak. Dialektlarga ko'ra voqe bo'ladigan ba'zi fonetik ayirmalarni hisobga olmaganda (chunki bu leksemalar adabiy tilda yagona talaffuz me'yoriga bo'ysunadi), ishlatilish doirasi chegaralanmagan qatlamga *ko'z-*, *qo'l-*, *oyoq-*, *bilak-*, *tirsak-*, *yaxshi-*, *yomon-*, *qora-*, *sariq-*, *ko'k-*, *kel-*, *ket-*, *o'tir-*, *tur-*, *yur-*, *tez-*, *sekin-*, *erta-*, *kech-* kabi juda ko'p misollar keltirish mumkin. Hozirgi adabiy o'zbek tili leksik boyligining asosini xuddi shunday leksemalar tashkil qiladi.

2- §. Leksemalarning ishlatilish doirasi jihatidan chegaralinishi turlicha. Shunga ko'ra chegaralangan qatlam o'z navbatida ikkiga guruhanadi: ishlatilishi territoriyaga ko'ra chegaralangan leksemalar va ishlatilishi kasb-korga ko'ra chegaralangan leksemalar.

Ishlatilishi territoriyaga ko'ra chegaralangan til hodisalari *dialektizm* deyi-ladi (yunoncha *dialektos* – 'tilning mahalliy ko'rinishi').

Dialektizm — umumtilga emas, balki shu umumtilning mahalliy ko'ri-nishlari bo'lgan dialektlarga xos hodisa; shunga ko'ra bular odatda biror dialektning vakillari nutqida ishlatalib, ko'pincha boshqa dialektlarning vakil-lariga, shuningdek adabiy tilga ham xos bo'lmaydi.

Dialektizm asosan uch turli:

1. Lug'aviy dialektizm — lug'aviy birliklardagi turi (Misollari quyiroq-da).

2. Grammatik dialektizm — grammatik hodisalardagi turi (masalan, ba'zi dialektlarda o'r'in ma'nosi uchun -ga, aksincha, jo'nalish ma'nosi uchun -da ishlatalishi kabi).

3. Fonetik dialektizm — tovush talaffuzi va tovush o'zgarishiga bog'liq turi (masalan, ovoz tovushlarning ba'zi dialektlarda cho'ziqroq va yumshoqroq talaffuz qilinishi, ayrim dialektlarda bir tovush o'miga boshqa tovushning kelishi va b.).

Adabiy tilning lug'atiga birinchi galda barcha o'zbeklar uchun umumiyligini bo'lgan leksemalar tanlab olinadi. Bu umumiyligini qatlama ayrim dialektlarga xos leksemalar hisobiga boyitib boriladi.

Aslida adabiy til lug'atining bir qismi avval dialektlarniki bo'lib, adabiy tilga xos deb qaralishi bunday leksemaning umumlashib ketishiga sabab bo'lgan.

Dialektizm umumtil lug'at boyligining nisbatan oz miqdorini tashkil etadi. Shu oz miqdordagi leksemalardan ham adabiy tilga saylab kiritiladi. Dialektizmlarning umumtil boyligiga aylanishi ma'lum shart-sharoitga bog'liq. Masalan, shu dialektizm anglatgan ma'no uchun adabiy tilda boshqa nom bo'imasligi kerak; agar adabiy tilda shunday ma'noni anglatuvchi leksema bo'lsa, yangi qabul qilinayotgan leksema leksik ma'no qirrasida, baho sema-sida, nutq ko'rinishlariga xoslanish belgisida va boshqa jihatlarida ayrimlikka ega bo'lishi lozim.

Biror dialektizmnning adabiy tilga ko'chishini boshqa bir hodisadan — dialektizmnning badiiy asarda ishlatalishidan farqlash kerak. Badiiy asarda ishlataligan har bir leksema adabiy tilga qabul qilingan deb qaralmaydi. Badiiy asar voqelikni qanday bo'lsa — shunday aks ettirishi sababli unda til hodisalari ham o'z tabiiy holatida namoyon bo'ladi. Agar dialektizm biror muallif asarida-gina uchrab qolmay, barcha ishlatadigan lug'aviy birlikka aylansa, umumlashib ketsa, shunda bunday birlik adabiy tilga kirib boradi. Aks holda, badiiy asarda ishlataliganidan qat'i nazar, dialektizmligicha qolaveradi.

Masalan, Abdulla Qahhor o'z povestini ("Sinchalak") dialektizm bilan atadi, bu leksemani povest matnida ham ishlatdi. Lekin shu bilan *sinchalak*-leksemasi adabiy til lug'atiga o'tdi deb bo'lmaydi, albatta (Adabiy tilda shu ma'no chittak- leksemasi bilan anglatiladi). Demak, yozuvchi dialektizmnini ba-

diyi asar matniga kiritadi, bunday leksemaning adabiy til lug‘aviy birligiga aylanishi esa til amaliyotiga bog‘liq.

Tilning biror mahalliy ko‘rinishida ishlatiladigan barcha leksemalar shu dialektniki deb qaraladi, lekin dialektizm deb shulardan bir qismi-gina ajratiladi. Bunda adabiy til bilan dialekt uchun mushtarak leksemalar hisobdan chiqariladi.

Dialektagi leksema adabiy tildagi leksemadan ko‘pincha tovush jihatni bilan farqlanib turadi: ayni bir leksema adabiy tilda va turli dialektlarda har xil talaffuz qilanadi. Masalan, *kangul-* – *ko‘ngul-* – *ko‘ngil-*, *oka-* – *aka-*, *jur-* – *yur-*, *gal-* – *kel-*, *bala-* – *bola*, *turpoq-* – *tuproq-* kabi. Bular – tilning mahalliy ko‘rinishlariga xos bir necha leksema emas, balki umumtilda bor bir leksemaning turlicha talaffuzi; shunga ko‘ra bunday farqlanishlar leksik dialektizm deyilmaydi.

3- §. Dialektizm deb belgilanuvchi birlik adabiy tilda (shuningdek boshqa dialektlarda ham) umuman yo‘q bo‘lishi yoki o‘z leksik ma’nosida, leksik ma’nosining tarmoqlanishida, baho semasida va boshqa jihatlarida farqlanib turishi kerak.

Leksik dialektizm ikki turli bo‘ladi: a) dialektizm-leksema, b) dialektizm-semema.

Faqat shu dialektda-gina ishlatilsa-yu, adabiy tilda yo‘q bo‘lsa, *dialektizm-leksema* deyiladi. Bunday leksema lug‘aviy birlik sifatida adabiy til uchun bus-butun yangi, noma'lum bo‘ladi. Masalan, *xamak-*, *sapcha-*, *balacha-*, *tugunak-* (*tuynak-*) leksemalaridan har biri boshqa-boshqa dialektniki, bulardan birortasi ham adabiy tilga qabul qilinmagan. Hozirgacha har bir territoriyada shu predmet o‘z leksemasi bilan anglatiladi.

Xuddi shuningdek holat *narvon-*, *shoti-*, *zangi-* leksemalariga ham xos. Lekin bu misoldagi birinchi leksema, har holda, adabiy tilga olingen deb qaraladi (Markaz joylashgan dialektning leksemasi ekanligi bilan izohlansa kerak). Demak, dialektlardan biriniki bo‘lgan leksema adabiy tilga xos leksema-maga aylanadi, qolganlari dealektizmligicha turadi.

Dialektga xos leksema adabiy tilga ba‘zan yakka o‘zi emas, balki turg‘un birikma tarkibida kirib kelishi mumkin. Masalan, *shiypon-* leksemasi adabiy tilga *dala shiyponi-* turg‘un birikmasi tarkibida o‘tdi.

Ba‘zi hollarda biror dialektagi leksema boshqa dialektagi leksema bilan yoki adabiy tildagi leksema bilan ifoda jihatiga ko‘ra bir xil bo‘ladi-yu, mazmun jihatiga ko‘ra farqlanib turadi. Buni *dialektizm-semema* deyiladi. Masalan, *pashsha-* – *chivin-*, *chivin-* – *pashsha-*, *lagan-* – *tovoq-*, *tovoq-* – *lagan-* leksemalarida bo‘lgani kabi. Bu yerda ayni bir leksik ma’no har xil dialektda boshqa-boshqa leksemaning lug‘aviy mundarijasini tashkil qiladi: ruscha *muxa* bir dialektda *pashsha-* deyilsa, boshqa bir dialektda *chivin-* deyil-

ladi; aksincha, ruscha *komar* avvalgi dialektda *chivin-* deyilsa, keyingi dialektda *pashsha-* deyiladi va b. Bu yerda leksemalar go'yo o'rın almashib qolgandek bo'ladi.

Dialektlarga ko'ra ba'zan leksemalarning ma'nó hajmida ham farq mayjud bo'ladi. Buni dialektizm-sememaning bir ko'rinishi deb baholash kerak. Masalan, ba'zi dialektlarda meva turlaridan birining ho'li ham, qurug'i ham o'rik- deb nomlanaveradi, boshqa bir dialektda esa o'rik- deb faqat ho'l mevaga aytildi, qurug'i esa *turshak-* deyiladi. Demak, o'rik- leksemasining ma'nó hajmi bir dialektda keng, boshqa dialektda esa tor bo'lib chiqadi.

**4- §. Ishlatilish doirasi kasb-korga ko'ra chegaralangan lug'aviy birliklar professionalizm** deyiladi (lot. *professio* — 'kasb-kor', 'mutaxassislik').

Dialektizm ma'lum joyda yashovchilar uchun-gina tushunarli bo'lsa, professionalizm ma'lum kasb-kor egalari doirasida ishlatilib, shularga tushunarli bo'ladi.

O'z dialektining ta'siri bilan izohlanadigan ba'zi ayrimliklarni hisobga olmaganda, shu kasb egasi qaysi territoriyada yashashidan qat'i nazar, professionalizm ular uchun odatda umumiyl bo'ladi.

Professionalizmlarning asosiy qismini har bir kasb-korda shu sohaning terminlari tashkil qiladi. Masalan, ipakchilik terminlari kabi. Professionalizm turli fan-texnika, maktab-ma'orif sohalarida, ma'muriy-xo'jalik ishlarida va boshqa sohalarda ham mavjud.

Dialektizmda bo'lganidek, professionalizmlik ham nisbiy tushuncha. Bunday birlik o'z sohasidan chiqib, ishlatish doirasidagi chegaralaniш yo'qolib, umumtil mulkiga aylansa, professionalizmlik muhrini yo'qotadi. Ko'pgina ma'muriy-xo'jalik, fan-texnika, maktab-ma'orif, qishloq xo'jaligi terminlari keng ommalashib, umumlashib, umumtil birligiga aylanib ketgan: *shartnoma-, qonun-, kredit-, kultivatsiya-* va b

Yakka leksemalardan tashqari, *madaniy-oqartuv muassasalari-, mehnat daftarchasi-* kabi ko'pgina turg'un birikmalar ham mavjud. Bunday professionalizm ayniqsa matematika, fizika, kibernetika kabi fan sohalarida ko'p uchraydi.

**5- §. Ishlatilish doirasi chegaralangan qatlamlar sifatida jargonizm, argotizm kabi hodisalar ham tilga olinadi.**

Biror kasb-kor egalari nutqida yoki ijtimoiy tabaqa vakillari nutqida ishlatilib, umumtildagidan o'zgacha leksik ma'nó anglatuvchi lug'aviy birlik *jargonizm* deyiladi (fr. *jargon* — 'lahja'). Jargon asli bir qancha leksemalarning yig'indisidan iborat bo'lib, bular shu tildagi leksemalarning o'zi bo'ladi yoki boshqa tildan olib ishlatiladi. Jargonda bunday leksema umumtildagi leksik ma'nosida emas, o'zgacha ma'noda ishlatiladi. Masalan, *Ishlar besh, Akang*

*gapni qiyadi* kabi jumlalardagi *besh-*, *qiy-* leksemalari shu ishlatalishida jargonizm bo'ladi.

Argotizm ham asli jargonizmning bir ko'rinishi bo'lib, tarbiyasi buzuq, qo'li egri shaxslar orasida shu guruhning o'ziga-gina tushunarli ma'noda ishlataladigan leksemalar yig'indisidan iborat (fr. *argot* — 'lahja') Masalan, *loy-* ('pul' ma'nosida), *bedaria-* ('nagan' ma'nosida), *xit-* ('xavf' ma'nosida) kabi.

## LEKSEMALARING (LEKSOSEMEMALARING) ZAMONIYLIGI

1- §. Til, ayniqsa uning lug'ati doim o'sish-o'zgarishda. Bunday o'sish-o'zgarish tez va uzil-kesil sodir bo'imaydi. Shu sababli zamoniyligi jihatidan har xil birliklar yonma-yon yashab turadi. Lug'at boyligida zamoniyligi jihatidan ikki asosiy qatlama mavjud: zamonaviy qatlama va zamondosh qatlama.

Zamonaviy qatlama bugungi til amaliyotida odatdagida, rasmona deb qaraluvchi leksemalar kiritiladi. Bu qatlamdagida leksemalar na yangilik va na eskilik bo'yog'iga ega bo'lmaydi. Leksemalarning ko'pchiligi — xuddi shunday.

Zamonaviy qatlama mansub deb belgilashda leksemaning yakka shaxslar nutqidagi mavqeい emas, balki umumtildagi mavqeい asosga olinadi.

Leksemani zamonaviy qatlama kiritishda ularning nutqda ishlatalish miqdori ham asosga olinmaydi. Nutqda ko'p ishlataladigan leksema odatda zamonaviy qatlama mansub bo'ladi. Zamonaviy qatlama, bulardan tashqari, nutqda oz ishlataladigan leksemalar ham kiritiladi.

Zamonaviy qatlama kiritiluvchi leksema shu til egalarining barcha a'zolariga tanish bo'lishi ham, barchaning nutqida ishlatalishi ham shart emas. Har bir sohaning terminologiyasi bilan odatda shu sohaning vakili-gina tanish bo'ladi, boshqalarga bu terminlarni bilish zaruriyati ham bo'lmaydi; umum-nutqda bunday terminlar ishlatilmaydi ham. Shunga qaramay terminlar zamonaviy qatlama kiritilaveradi.

Zamonaviy qatlama kiritiladigan leksema bir asosiy talabga javob berishi kerak: na yangilik va na eskilik bo'yog'i bo'lmasisligi lozim.

Ko'rinaliki, leksemalarning zamoniyligini aktiv-passiv qatlamlar deb nomlash va tavsiflash to'g'ri bo'lmaydi. Aktiv-passivlik lug'at boyligiga boshqa jihatdan — miqdoriy jihatdan yondashish bo'lib, lug'at boyligini bunday o'rganish ham, albatta, muhim amaliy va nazariy xulosalarga olib keladi.

Yangilik yoki eskilik bo'yog'i bor leksemalar lug'at boyligining zamondosh qatlamini tashkil qiladi. Bunday qatlama tilning har bir taraqqiyot bosqichida mavjud bo'ladi, chunki lug'at boyligi doim o'sib-o'zgarib turadi. Shu sababli lug'at boyligida zamondosh qatlama ham yashaydi.

Zamondosh qatlamda o'zaro biri ikkinchisining aksi bo'lgan hodisalar mavjud: yangilik bo'yog'i bor leksemalar va eskilik bo'yog'i bor leksemalar.

### N e o l o g i z m

2- §. Yangilik bo'yog'i bor leksemaga *neologizm* deyiladi (yunoncha *neos* – 'yangi'). Neologizm tilga umuman mansub bo'lishi yoki yakka shaxs nutqiga xos bo'lishi mumkin. Birinchisi umumtil neologizmi deb, ikkinchisi individual nutq neologizmi deb yuritiladi. Leksemikada asosan umumtil neologizmi o'rganiladi. Individual nutq neologizmi uslubga xos hodisa deb qaraładi.

Har qanday neologizm dastlab individual nutqda yuzaga keladi. Bunday neologizm ko'pchilik tomonidan tan olinsa, tilning taraqqiyot qonunlariga mos holda hosil qilingan bo'lsa va tilda ma'lum ma'noni anglatish uchun zarur deb qaralsa, shunda-gina umumtil neologizmiga aylanadi, yakka nutq doirasidan chiqadi. Agar bunday talablarga javob bermasa, individual nutq doirasida qolib ketadi. Umumtil neologizmi tilda ma'lum vaqt ishlatalganidan keyin yangilik bo'yog'ini yo'qotadi va ko'pincha odatdagagi, zamonaviy leksemaga aylanib ketadi.

3- §. Leksik neologizm o'z mohiyatiga ko'ra ikki guruhgaga ajraladi:

- Leksema yaxlitligicha neologizm bo'ladi; buni *neologizm-leksema* deb nomlash mumkin: (*paxta*) *yakkaziroatchiligi-*, *ma'muriyatichilik-* kabi.
- Leksema emas, balki uning sememalaridan biri neologizm bo'ladi; buni *neologizm-semema* deb nomlash mumkin: *o'tkirlashtir-* (*obostryat* leksemasining kalkasi) kabi.

Neologizm-leksema bilan neologizm-semema asli bir hodisa, chunki har ikkisi leksik ma'noga asoslanadi: birinchisi yangi monosemem (birma'noli) leksema bo'ladi, ikkinchisi esa polisemem (ko'pma'noli) leksemaning keyingi, yangi ma'nosi bo'ladi. Shunga ko'ra neologizmning bu turlarini "leksik neologizm", "semantik neologizm" deb nomlash to'g'ri bo'lmaydi.

Leksik ma'no taraqqiyotidan ko'ra tilda leksema yasash va leksema o'zlashtirish miqdor jihatidan ustun turadi, shu sababli neologizm-sememadan ko'ra neologizm-leksema ko'p bo'ladi.

4- §. Leksemaning yangi bo'lishi boshqa-yu, yangilik bo'yog'iga ega bo'lishi boshqa. Har qanday yangi leksema neologizm bo'lavermaydi. Massalan, *kompyuter-*, *ksereks-*, *birja-* kabilar – o'zbek tiliga yaqin vaqlarda kirib kelgan leksemalar, lekin bu leksemalarni neologizm deb bo'lmaydi, chunki bu leksemalar hozirgi o'zbek tilida yangilik bo'yog'ini yo'qotib, odatdagagi leksemaga aylangan.

Demak, neologizm – o'ta nisbiy tushuncha. Avvalo, til taraqqiyotining har bir bosqichi o'z neologizmiga ega bo'ladi, bir bosqichda neologizm deb

qaralgan hodisa ikkinchi bosqichda ham neologizm bo'lishi shart emas. Masalan, 30- yillar nuqtayi nazaridan *shpal-*, *seyalka-* kabi leksemalar neologizm deb baholansa, hozirgi o'zbek tilida bular odatdagi, zamonaviy leksemaga aylangan; 20- yillar nuqtayi nazaridan neologizm deb qaralgan *aeroplan-*, *yo'qsil-* (proletariy) kabi leksemalar esa arxaizmga aylangan (Arxaizm quyi-roqda bayon qilinadi).

Ikkinchidan, neologizmni belgilashda shu hodisaning tilda (individual neologizmning esa nutqda) qancha vaqt mavjudligi ham ahamiyatsiz. Leksema juda qisqa vaqt ichida neologizmligidan chiqib ketishi ham, uzoq vaqt neologizmligicha qolib ketishi ham mumkin. Umumtil neologizmi odatdagi, zamonaviy leksemaga tez aylanadi; individual nutq neologizmi esa, qancha vaqt o'tmasin, o'z yangilik bo'yog'ini yo'qotmasligi, umuman neologizmligicha qolib ketishi mumkin. Masalan, *tuzum-* leksemasi 20 – 30- yillarda neologizm edi, hozir odatdagi leksemaga aylangan; G'afur G'uromning ilk poeziyasida uchraydigan *mozollan-* (*mozollangan qo'llar* – "Olqish", "Tagdo'zi"), *fashistlan-* (*fashistlanaroq* – "To'qinish"), *qo'ng'irla-* (*Qo'zichoqning barrasiday mayda qo'ng'irlab* – "Non") kabilar o'zi ishlatilgan asar doirasida individual nutq neologizmligicha qolib ketgan.

##### 5- §. Neologizm ikki xil talabga (ehtiyojga) ko'ra paydo bo'ladi:

1. Yangi voqelikning yangi nomi sifatida. Bunda neologizm o'zi anglatayotgan voqelikning yagona nomi bo'ladi, nominativ vazifani o'taydi: *konfliktsizlik* (adabiyotshunoslik termini), *kosmodrom-* (Har ikki leksema yangilik bo'yog'ini tezda yo'qtdi), *mahkamachilik-* kabi.

2. Nomlangan voqelikning yangi nomi bo'ladi. Haqiqiy neologizm asli shu. Bunda o'zigacha nomlangan voqelikni yangidan nomlaydi, natijada sinnenimiya tug'iladi. Masalan, *fotokartochka-* leksemasi avval neologizm sifatida *suvrat-* leksemasi bilan sinonimik munosabat hosil etdi. Natijada *suvrat-* va *rasm-* leksemalarining leksik ma'nolarida chegaralanish, xoslanish voqe bo'layotir. Bu har ikki leksema 'kartina' ma'nosini ham, 'fotokartochka' ma'nosini ham anglataverar edi. Hozir esa *suvrat-* leksemasi asosan 'kartina' ma'nosini, *rasm-* leksemasi asosan 'fotokartochka' ma'nosini anglatish uchun ishlatilmoqda.

Neologizm quyidagi yo'llar bilan paydo bo'ladi:

1) Leksema yasash orqali. Bunda ikki hodisani farqlash kerak:

a) Yangidan yasash yo'li bilan hosil qilinadi: *almashlab* (*ekish*), *aqidaparastlik-* umumtil neologizmlaridagi, *sho'xshanlan-* (G'afur G'uom, "Baxt tongotari"), *kuzaytir-* ('kuzga aylantir-' – G'afur G'uom, "Biz tinchlik istaymiz") individual nutq neologizmlaridagi kabi.

b) Mavjud leksemaga parallel ravishda yasash yo'li bilan paydo bo'ladi. Bu yo'l bilan asosan individual nutq neologizmi hosil bo'ladi: *sezim-* (*sezgi-*

leksemasiga nisbatan; G'afur G'ulom, "Qalblarning mojarosi"), *shaklcha*- (*shaklan-* leksemasiga nisbatan), *mazmuncha*- (*mazmunan-* leksemasiga nisbatan: .. *shaklcha ko'p sodda*, *mazmuncha salmoqdar qarorlar..* — G'afur G'ulom, "Hech qanday bir qo'rg'on bormikan. .") hollaridagi kabi.

2) Leksemaning leksik ma'no taraqqiyoti yo'li bilan paydo bo'ladi. Masalan, *bekat-* leksemasining 'transport vositalarining to'xtash joyi' ma'nosi kabi. Bu leksema asli 'uzoq qatnov yo'lidagi to'xtab, dam olib, tunab o'tiladigan joy' ma'nosini anglatadi.

3) O'zlashtirish orqali paydo bo'ladi: *detal-* leksemasining 'tafsilot', 'mayda-chuyda' ma'nosi kabi: *Qiladigan ishlaringizning ba'zi detallari haqida mana bu kishi ma'lumot beradi*. *Detal-* leksemasining 'qism' ma'nosi hozir neologizmlikdan chiqqan.

### A r x a i z m

6- §. Eskilik bo'yog'i bor til birligi *arxaizm* deyiladi (yunoncha *arshaios* — 'qadimgi'). Leksemalardagi turiga *leksik arxizm* deyiladi.

Leksik arxaizm o'z mohiyatiga ko'ra ikki guruhni tashkil qiladi:

a) Leksema yaxlitligicha arxaizm bo'ladi. Buni *arxaizm-leksema* deb nomlash mumkin: *sas-* (G'afur G'ulom, "Avval o'qi"), *yit-* (G'afur G'ulom, "Biz tinchlik istaymiz"), *zamla-* (G'afur G'ulom, "Ozarbayjonlik paxtakor qardoshlarga") kabi.

b) Leksema emas, balki uning sememalaridan biri arxaizm bo'ladi. Buni *arxaizm-semema* deb nomlash mumkin: *tik-* ('ek-' ma'nosida — G'afur G'ulom, "Terimchi qizlarga") kabi.

Leksik arxaizmnning har ikki turi leksik ma'noga asoslanadi. Shunga ko'ra arxaizmnning bu turlarini "leksik arxaizm", "semantik arxaizm" deb nomlash to'g'ri bo'lmaydi. Arxaizm-leksema monosemem leksemaning eskirishi natijasida, arxaizm-semema esa polisemem leksemaga xos sememalardan birining eskirishi natijasida yuzaga keladi.

Har ikki turdag'i arxaizmnning voqe bo'lishi tilning o'z taraqqiyot yo'li bilan bog'liq (arxaizmga aylanuvchi leksik ma'noni o'z leksema yoki o'zlashgan leksema anglatishidan qat'i nazar).

Arxaizm-sememaga nisbatan arxaizm-leksema ko'p bo'ladi.

7- §. Leksemaning (sememaning) eski bo'lishi boshqa-yu, eskilik bo'yog'iga ega bo'lishi boshqa. Arxaizm hozirgi tilning lug'atiga xos bo'lib, boshqa lug'aviy birliklardan eskilik bo'yog'i borligi bilan farqlanib turadi.

Hozir ishlatishdan umuman chiqib ketgan, til taraqqiyotining o'tmish bosqichiga mansub bo'lgan leksik birliklarni bugungi kun nuqtayi nazaridan arxaizm deb baholash mumkin emas. Bular o'tmishning leksik birliklari bo'lib, arxaizm yoki arxaizm emasligi til taraqqiyotining o'sha bosqichiga

ko'ra belgilanadi. Masalan, *ulus-* ('xalq'), *oqcha-* ('pul'), *qusur-* ('kamchilik', 'nuqson') kabi leksemalar, *nuqta-* leksemasining 'o'rin', 'tomon' ma'nosi, *et-* leksemasining 'go'sht' ma'nosi (Bu ma'no ba'zi dialektlarda, shuningdek maqol va matallar tarkibida saqlangan) – o'tmish lug'atiga mansub birliklar. Bunday leksik birliklar o'tmishda yaratilgan yoki o'tmish tasvirlangan asarlarda ishlatiladi. Bular o'sha davr koloritini hosil qilish uchun hozir yaratilgan asarlarga ham kiritiladi.

Hozirgi o'zbek tilida yozilgan hamda davrimizni tasvirlaydigan asarlarda o'tmish lug'aviy birliklarini ishlatmagan ma'qul. Bunday lug'aviy birliklarning hatto poetik nutqda ishlatilishini ham oqlab bo'lmaydi.

Eski leksemani boshqa tilga mansub leksemani ishlatishdan farqlash kerak. Ba'zan na hozirgi o'zbek tilida va na o'tmish o'zbek tilida yo'q leksemani ishlatish ham uchraydi. Bunday leksema o'zbeklar uchun mutlaqo notanish bo'ladi, chunki bular o'zbek tili lug'atidan emas, balki boshqa til lug'atidan olib ishlatiladi. Masalan, *zufos-* leksemasi (asli arabcha *zifofun* – 'nikoh to'yi-' ma'nosidagi leksema – G'afur G'ulom, "Qor"; bu she'ning keyingi nashrida *zufos ogshom* o'rniga *to'y ogshomi* deb berilgan) arab tili lug'atidan olib, *tulup-* so'zi ('po'stin': *Oyoqda valenka, egnida tulup..* – G'afur G'ulom, "Qish") rus tili lug'atidan olib ishlatilgan.

**8- §.** Arxaizmning paydo bo'lish sababini izohlash ko'pincha qiyin bo'ladi. Arxaizm asli leksik birlikning biror jihatni eskirib, o'z o'rmini boshqa leksik birlikka bo'shata borishi natijasida paydo bo'ladi. Bu jarayon turlituman sabablar bilan voqe bo'ladi. Arxaizm umuman sinonimiyaga asoslanadi, shunga ko'ra arxaizmning paydo bo'lishini izohlashda sinonimik munosabatdagi leksik birliklarning holatiga, taraqqiyotiga suyanish lozim. Bunda asosan quyidagi sabablar ko'rsatiladi:

1) Sinonimlar nutqda bir xil ishlatilmasligi tufayli ulardan ba'zilari arxaizmga aylanadi: avvallari ko'p yoki boshqalari bilan teng ishlatilgan leksik birlik o'z sinonim(lar)iga qaraganda nutqda oz ishlatilib, arxaik tus oladi. Masalan, *yordam-*, *ko'mak-* sinonimlaridan *ko'mak-* leksemasi arxaizmga aylan-gan.

2) Polisemem leksemaning o'z sinonimi bor sememasi, bir tomondan, shunday sinonimning mavjudligi ta'sirida, ikkinchi tomondan, shu polisemem leksemaning boshqa sememasi ta'sirida o'z o'rmini bo'shata boradi. Natijada bunday sememaning ham, sinonimning ham tildagi mavqeい o'zgaradi. Masalan, *boq-* leksemasida 'tarbiyal-', 'parvarish qil-' sememasi ustun bo'la borishi bilan bu leksemaning 'ko'z tashla-' sememasi arxaizmga aylanmoqda ('ko'z tashla-' ma'nosi hozir asosan *qara-* leksemasi bilan anglatiladi).

Yuqoridaq holatlar arxaizmning paydo bo'lishini chuqur izohlab bermaydi. Arxaizmning paydo bo'lishidagi asl sabablarni aniqlash murakkab

lingvistik tekshirishlar o'tkazishni talab qiladi. Chunki arxaizmning yuzaga kelishi tilda sodir bo'lib turadigan hodisa bilan — leksemalarga xos semantik taraqqiyot, siljish, o'zgarishlar bilan bog'liq. Bunday jarayonni, bir tomondan, til taraqqiyotining faqat hozirgi bosqichi bilan chegaralangan holda o'rGANIB bo'lmaydi; ikkinchidan, arxaizmga olib keladigan har bir jarayon har gal individual yondashishni talab qiladi.

9- §. Arxaizm tilda avvalo uslubiy vosita sifatida yashaydi va shunga ko'ra arxaizmdan quyidagi maqsadlarda foydalaniladi:

1) nutqqa ko'tarinki, nazokatli ruh berish uchun. Bunday vazifa bilan arxaizm asosan she'rarda ishlataladi. Shunday xususiyat ayniqsa G'afur G'ulom she'reyatiga xos:

*Siz ko'ning q o p q a s i n qoqqan soatda*

*Quyosh ko'z uqalab uyg'anar edi.*

("Ko'k b o' s a g\* a s i d a");

*Har bitta shaftolu misoli kulgu,*

*Shafaqday nim pushti, s a r i n, beg'ubor.*

("Sog'inish");

2) nutqqa hazil-mutoyiba, kinoya, masxara ruhini berish uchun. Arxaizmdan bunday foydalanish avvalgisiga nisbatan oz uchraydi. Masalan, quyidagi matnda arxaizm achchiq kinoya ifodalash maqsadi bilan ishlataligan: *Bular ketgandan keyin Said Jalolxon g'ayratiga chidolmay sh a m sh i r sug'urdi va havoda o'ynatib, askarga f a r m o n b e r d i* (Abdulla Qahhor, "Bashorat").

Arxaizmning kinoya, masxaralash ruhini hosil etish uchun ishlatalgani matndan ochiq sezilmasa, uni ohang yordamida, yozuvda esa qo'shtirnoqlar vositasida maxsus ifodalash zaruriyati tug'iladi. Masalan, quyidagi matnda bunday leksema qo'shtirnoqlarga olingan: *Yag'rin tashlab, jilmayib o'tar ekan, Biz aminning "ehson"iga minnatdor* (G'afur G'ulom, "Ikki vasiqa").

### I s t o r i z m

10- §. O'tmish voqeligini nomlash zaruriyati bilan hozirgi tilda ishlatalgan eski leksik birlik *istorizm* deyiladi (*yunoncha historia* — 'tekshirish', 'tadqiqot'). Masalan, *bo'nak-, qarol-, quloq-* leksemalarining G'afur G'ulomning "Ko'kan" asarida ishlatalgani kabi.

Istorizm leksemalarda (qisman frazemalarda) uchraydi. Leksik istorizm ko'pincha istorizm-leksema bo'ladi, istorizm-semema juda oz. Masalan, *qozi-, to'ra-* (Abdulla Qahhor, "Anor"), *amin-, pristav-* (Abdulla Qahhor, "O'g'ri") kabilar — istorizm-leksema; *kartochka-* ('non olish taloni' — G'afur G'ulom, "Yangi yil she'rei"), *saroy-* ('xon qasri' — G'afur G'ulom, "Alisher") kabilar — istorizm-semema.

Istorizmdan anaxronizmni farqlash kerak. *Anaxronizm* (yunoncha *ana* — 'orqaga', *chronos* — 'vaqt') — bir davrga xos voqelikni nomlaydigan leksik birlik bilan boshqa davr voqeligini nomlab yuborish hodisasi. Bunday xato ko'pincha o'tmish haqida yozilgan asarda uchraydi. Masalan, XV asr tasvirlanayotgan asardagi personaj nutqida *o'zbek-* leksemasining ishlatalishi — anaxronizmga teng: *Shu davrda o'zbek va fors tillaridagi ash'orlari..* — Oybek, "Navoiy" (Shu personaj nutqining davomida Oybek "Fors ash'orida "Foni", turkiy ash'orda "Navoiy" taxallus qo'llagan.." deb to'g'ri ishlatadi).

### Arxaizm va istorizm

**11- §.** Arxaizm va istorizm — o'zaro keskin farq qiladigan hodisalar. Shunga ko'ra bulami birgalikda emas, balki alohida-alohida baholash lozim. Bular orasidagi asosiy farqlar quyidagicha:

1. Arxaizm — mavjud voqelikning nomi. Istorizm — o'tmish voqeligining nomi.

2. Arxaizm — mavjud voqelikning boshqa bir, o'zgacha nomi. Istorizm esa o'tmish voqeligining nomi bo'lib, hozirgi tilda uning o'rmini bosa oladigan boshqa leksik birlik yo'q.

3. Arxaizm tilning tasvirlanayotgan davri lug'atiga xos bo'ladi. Istorizm esa tilning tasvirlanayotgan davri lug'atiga xos bo'lmaydi, balki o'tmish davr lug'atiga xos birlikdan vaqtincha foydalanish voqe bo'ladi.

4. Arxaizm o'zi nomlayotgan voqelikni anglatuvchi leksik birlik bilan yonma-yon yashaydi. Istorizm esa odatda o'zi anglatadigan voqelikning yagona nomi bo'ladi.

5. Arxaizm leksik birliklarning o'zaro sinonimik munosabati bilan bog'liq holda baholanadi. Istorizmda esa bu yo'q.

6. Arxaizm bugungi kunda odatdagи deb qaraluvchi leksik birlikning uslubiy sinonimi bo'ladi. Istorizmda bunday holat yo'q.

7. Arxaizm sinonimiya bilan bog'liq bo'lgani sababli bir sinonimik uyaga mansub birliklarning qiyligiga asoslanadi, nutqda shu sinonimlardan eng o'rinnisi tanlab ishlatalidi. Istorizm esa yakka bo'lib, keragida shu leksik birlikning o'ziga murojaat qilinaveradi.

8. Arxaizm, nominativ vazifadan, davrni gavdalantirish vazifasidan tashqari, uslubiy vosita bo'lib ham xizmat qiladi. Bunday vazifa — arxaizmnинг lug'at boyligida saqlanib turishiga asosiy sabablardan biri. Istorizm odatda uslubiy vosita bo'lib kelmaydi.

9. Arxaizmnинг paydo bo'lishi leksik birliklarning yangicha uslubiy munosabatga kirishuvi bilan bog'liq; bunday munosabat natijasida lug'at hech narsa yo'qotmaydi: ayni bir voqelikni nomlovchi birliklardan ba'zisida eskilik bo'yog'i hosil bo'ladi xolos. Istorizm esa lug'atdan ma'lum bir leksik birlik-

ning tushib qolishiga teng: vogelikning yo'qolishi shu vogelikning nomi bo'lgan leksik birlikni keraksiz qilib qo'yadi.

10. Arxaizm har bir til uchun xususiy bo'ladi. Istorizmda esa tillararo ma'lum umumiylit borligi ko'zga tashlanadi.

11. Arxaizm – asosan tilning o'z taraqqiyot qonunlari bilan izohlanuvchi hodisa; bunday izoh lingvistik omilga asoslanishi kerak. Istorizm esa birinchi galda jamiyatning ijtimoiy, siyosiy, madaniy taraqqiyoti tarixiga (ekstralingvistik omilga) ko'ra izohlanadi; shu sababli istorizmning paydo bo'lishini izohlash nisbatan oson.

12. Arxaizmning va istorizmning lug'at boyligiga odatdag'i leksik birlik sifatida qaytishi juda oz uchraydi. Shunda ham arxaizmning qaytishi bilan istorizmning qaytishi mohiyat jihatidan keskin farq qiladi: arxaizm eskilik bo'yog'ini yo'qotadi-yu, odatdag'i leksik birlikka aylanib ketadi, leksik ma'noda katta o'zgarish sodir bo'lmaydi; istorizmning qaytishida esa uning leksik ma'nosi tubdan o'zgaradi, ma'no jihatidan yangilanadi, go'yo yangi leksik birlikka aylanadi.

Xullas, davrni gavdalantirish vazifasini nazardan soqit qilsak, arxaizm bilan istorizm orasida umumiylit qolmaydi. Demak, neologizm bilan bir qatorga arxaizm-gina qo'yilishi kerak, istorizm esa alohida hodisa sifatida ayrim baholanishi lozim.

## LEKSEMALARING (LEKSOSEMEMALARING) TILNING VAZIFAVIY KO'RINISHLARIGA XOSLANGANLIGI

1- §. Tilning avvalo ikki asosiy funksional (vazifaviy) ko'rinishi ta'kidlanadi:

1) *adabiy til* – ma'lum me'yorlarga kiritilgan, qoidalarga bo'ysundirilgan ko'rinishi;

2) *so'zlashuv tili* – tabiiy, ishlov berilmagan, ma'lum me'yorlarga bo'ysundirilmagan ko'rinishi.

Me'yorlar asli adabiy til uchun ishlab chiqilsa-da, ular ayni vaqtida so'zlashuv tiliga ham bilvosita xizmat qiladi. Leksemalarning biror til ko'rinishiga xoslanganligi shu me'yorlarga suyanib hal etiladi. Leksik birliklarning tilning qaysi vazifaviy ko'rinishiga xoslanganligi leksik me'yor asosida belgilanadi (Leksik me'yor adabiyotlarda *leksik norma* deb yuritiladi).

Tilning vazifaviy ko'rinishlari jihatidan yondashib leksemalarni avvalo ikki katta qatlama ajratish kerak: a) umumtil qatlami, b) tilning vazifaviy ko'rinishlariga xoslangan qatlami. Leksemalarni bunday qatlamlarga ajratish darslikning oldingi bo'limlarida berilgan tasnif va tavsiflarga asoslanadi, suyanadi. Leksemalarga zamoniyligi jihatidan, ishlatilish doirasi jihatidan berilgan tavsiflar, sinonimik uya va undagi dominanta haqidagi, termin va

terminologik ma'noni belgilash haqidagi, baho semasi haqidagi fikrlar leksemalarni tilning vazifaviy ko'rinishlari jihatidan baholash uchun ma'lum darajada zamin hozirlaydi.

Umumtil qatlamiga xos leksik birliklar tilning barcha vazifaviy ko'rinishlarida ishlatilaveradi, bularda tilning biror vazifaviy ko'rinishiga birkilik bo'lmaydi. Lug'at boyligining asosiy qismini xuddi shunday birliklar tashkil qiladi.

Leksemalarni zamoniyligi jihatidan zamonaviy va zamondosh deb ajratishdagi birinchi qism, ishlatilish doirasi jihatidan chegaralanmagan va chegaralangan deb ajratishdagi birinchi qism asosan umumtil leksemalarini qamrab oladi. Sinonimik uyada umumtil birligi — dominanta; dominantaning sinonimlari odatda tilning vazifaviy ko'rinishlari bo'yicha xoslangan bo'ladi.

Lug'at boyligidan umumtil birliklarini emas, balki tilning vazifaviy ko'rinishlari bo'yicha xoslangan birliklarini chegaralab olish, farqlab olish odat tusiga kirgan. Ko'pincha umumtil leksemalarining xususiyatlari emas, balki tilning vazifaviy ko'rinishlariga xoslangan qatlama birliklarining xususiyatlari tasvirlanadi (Xuddi shunday holat avvalgi bahslarda ham o'z aksini topgan).

**2- §. Tilning vazifaviy ko'rinishlari jihatidan leksemalar ikkiga guruhlanadi:** 1) adabiy tilga xoslangan leksemalar, 2) so'zlashuv tiliga xoslangan leksemalar.

So'zlashuv tiliga xoslangan leksemalar lug'at boyligining oz qismini tashkil qiladi. Bu qatlamga avvalo *oddiy leksik birliklar* deb yuritiladigan leksemalar kiritiladi. Bunday leksik birliklar adabiy tilga xos deb ham qaralmaydi, biror dialektniki ham bo'lmaydi. Shunday leksik birliklarga *tuzuk-, binoyidek-, nozanday-, jinday-, zig'ircha-, naynov-* kabi leksemalarni misol qilib ko'rsatish mumkin.

Jargonizm, argotizm so'zlashuv tiliga xos bo'ladi. Bulardan tashqari, so'zlashuv tiliga dialektizmlar xos bo'ladi. Dialektizmlar asosan tilning xuddi shu ko'rinishida saqlanib, ishlatilib keladi.

Adabiy tilga xoslangan deb ishlatilishi adabiy tilning o'zi bilan-gina cheklangan leksemalarga aytildi; bunday leksemalar so'zlashuv tiliga xoslangan bo'lmaydi. Agar leksik birlik adabiy tilda ham, so'zlashuv tilida ham ishlatilaversa, bunda u umumtil qatlamiga mansub deb qaraladi (Bunday leksik birlik adabiy tilga xos ekanligidan qat'i nazar).

Demak, adabiy tilga xoslik boshqa-yu, adabiy tilning o'ziga-gina xoslanganlik boshqa. Leksik birlikni adabiy tilga xos deb belgilashda uni so'zlashuv tiliga zid qo'yish yo'q, faqat so'zlashuv tilidan olish-gina bor (Bunda leksik birlik so'zlashuv tiliga ham xosligini yo'qotmaydi). Adabiy tilga xoslangan deyishda esa so'zlashuv tiliga zid qo'yish bor. Bunday leksik birlik ayni

vaqtida ham adabiy tilga, ham so'zlashuv tiliga xoslangan bo'la olmaydi (aks holda umumtil qatlamiga xos bo'lib qoladi).

Adabiy tilning shakllanishi, yuzaga kelishi aslida yozuv bilan, matbaa bilan bog'liq. Shunga ko'ra adabiy til ba'zan *yozma til* deb ham yuritiladi.

**3- §.** Ko'zlangan maqsad va qo'yilgan vazifa jihatidan adabiy tilning quyidagi ikki turi farq qiladi: a) rasmiy til, b) badiiy til. Adabiy tilning bu ikki turi har xil vazifani bajaradi, har xil maqsadlarga xizmat qiladi. Har ikkisida ham fikr anglatiladi. Rasmiy tilda fikr isbotlash yo'li bilan anglatilsa, badiiy tilda tasvirlash yo'li bilan anglatiladi; rasmiy til bunga fikrlar zanjiri vositasida erishsa, badiiy til obrazlar zanjiri vositasida erishadi. Badiiy tilda estetik maqsad ham ko'zlanadi, rasmiy tilga esa bunday maqsad xos emas.

Yuqoridagi farqlanishlar asosida rasmiy tilda va badiiy tilda leksik birliklarning ishlatalishi ham, leksik birliklardan qanday maqsadlar bilan foydalanish ham farq qiladi. Masalan, rasmiy til uchun leksemalarning to'g'ri ma'noda ishlatalishi asosiy holat hisoblanadi. Terminlar asli xuddi shu rasmiy tilga xoslangan bo'ladi.

Badiiy tilda esa, aksincha, leksemalarning ko'chma ma'noda qatnashuvi o'rinli, hatto zaruriy deb qaraladi. Terminlar esa badiiy til uchun yet bo'ladi va b.

Tilning vazifaviy ko'rinishlari jihatidan badiiy asar tili alohida baholansi kerak. Vogelikning in'ikosi bo'lgan badiiy asarda kishi faoliyatining baracha tomonlari tasvirlanadi. Shunga ko'ra badiiy asardan tilning barcha vazifaviy ko'rinishlariga mansub leksik birliklar o'rin olishi mumkin. Muallif nutqi adabiy tilni aks ettirsa, personaj nutqida so'zlashuv tiliga xos birliklar ham ishlatalishi mumkin.

Badiiy asarda badiiy tilga xos birliklar ustun vaziyat egallaydi, tilning boshqa vazifaviy ko'rinishlariga mansub birliklar tobe holatda qatnashadi. Tilning har xil vazifaviy ko'rinishlariga xos birliklarning qatnashuvi badiiy tilga xos yaxlitlikni buzmasligi, badiiy til to'qimasida o'ziga yarasha o'rin olishi va vazifa bajarishi kerak.

O'zbek adabiyoti tarixida hokim vaziyatni she'riyat egallagani sababli leksik birliklar doirasida *poetik leksemalar* guruhi paydo bo'lgan. Bular orasida arxaizmlar ham, odatdag'i lug'aviy birliklar ham bor. Masalan, *ildam-* (G'afur G'ulom, "Bizning poytaxtimiz"), *ko'ks-* (G'afur G'ulom, "Oltin medal"), *tasanno-* (G'afur G'ulom, "Qasam") kabi leksemalar odatdag'i leksik birliklar; *osuda-*, *bo'sag'a-* (G'afur G'ulom, "Biz yengamiz") kabi leksemalar — arxaizmlar.

Bunday leksik birliklar ba'zan *kitobiy leksemalar* deb belgilab yuboriladi. Aslida kitobiy leksemalar deb rasmiy tilga xoslangan leksik birliklarni nomlash ma'qul. Bular orasida odatdag'i leksik birliklar ham, arxaizmlar ham bor.

Masalan, *iborat*-, *qayd et*-, *muzokara*-, *zimma*-, *amalga oshir*-, *ishtirok et*-  
kabilar odatdag'i kitobiy leksemalar bo'lib, *nazaran*- ('nisbatan'), *nufuz*-  
(-'ta'sir') kabilar — arxaizm kitobiy leksemalar.

4- §. Yuqorida tilning vazifaviy ko'rinishlari jihatidan tavsif leksemaga  
bir butun holda yondashib berildi. Aslida bunday yo'l tutish o'zini monose-  
mem leksemaga nisbatan-gina oqlaydi. Polisemem leksemada esa tilning vazifaviy  
ko'rinishlariga xoslanganlik har bir sememaga qarata alohida-alohida  
baholanishi kerak. Bir leksemaning sememalari til vazifaviy ko'rinishlarining  
boshqa-boshqa turiga birkilgan, xoslangan bo'lishi mumkin. Bunday birkiti-  
lishda sememaga xos baho semasi ham muhim rol o'ynaydi.

Demak, tilning vazifaviy ko'rinishlari jihatidan birkilish aslida lekse-  
maga emas, balki sememaga xos xususiyat; monosemem leksemada ham  
xuddi shunday: semema bitta bo'lgani sababli go'yo leksemaning o'zi xoslan-  
gandek bo'lib ko'rindi.

Masalan, *yo'tal*- leksemasi to'g'ri ma'nosida (*Bola yo'taldi kabi*) —  
umumtilga xos birlik bo'lsa, ko'chma ma'nosida ('gap bilan madad ber-',  
'hissa qo'sh-') — so'zlashuv tiliga xoslangan birlik; *yo'g'onlash*- leksemasi  
'semir-', 'to'lish-' ma'nosida — umumtilga xos birlik bo'lsa, 'yuqori mansabga  
o'tir-' ma'nosida — so'zlashuv tiliga xoslangan birlik; *nusxa*- leksemasi 'na-  
muna', 'kopiya' ma'nolarida — umumtilga xos birlik bo'lsa, 'turq' ma'nosida  
— so'zlashuv tiliga xoslangan birlik; *yigit*- leksemasi 'yosh erkak' ma'nosida  
— umumtilga xoslangan birlik bo'lsa, 'jazman' (kavaler) ma'nosida — so'z-  
lashuv tiliga xoslangan birlik; *noz*- leksemasi 'ishva', 'jilva' ma'nosida — po-  
etik tilga xoslangan birlik bo'lsa, 'karashma' ma'nosida so'zlashuv tiliga  
xoslangan birlik.

5- §. Leksemalarning tilning vazifaviy ko'rinishlari bo'yicha xoslanishini  
ayni bir leksik birlikning har xil talaffuz qilinishi va shunga ko'ra tilning har  
xil vazifaviy ko'rinishlariga xoslanishidan farqlash kerak. Keyingi hodisa bir  
necha leksik birlik orasidagi munosabatni emas, balki bir leksek birlikning  
talaffuz jihatidan ko'rinishlari orasidagi munosabatni aks ettiradi. Masalan,  
adabiy tilga xos *norasida*-, *nasiba*-, *nobud*-, *igna*-, *la'nat*- leksemalarining  
*norasta*-, *nasva*-, *novut*-, *nina*-, *na'lat*- kabi talaffuz ko'rinishlari so'zlashuv  
tiliga xoslangan.

6- §. Leksik birliklarga tilning vazifaviy ko'rinishlari jihatidan beriladi-  
gan tavsif (nutqiy tavsif) va uslubiy (stilistik) tavsif o'zaro zich bog'langan,  
lekin farqli.

Uslubiy tavsif odatda baho semasiga asoslanadi. Arxaizmlik ham — us-  
lubiy tavsif.

Baho semasi betaraf leksik birliklar odatda umumtilga mansub bo'ladi. Baho semasi betaraf bo'limgan leksik birliklar esa odatda tilning vazifaviy ko'rinishlariga xoslangan bo'ladi. Salbiy baho ifodalovchi leksik birlik ko'pincha so'zlashuv tiliga xoslangan bo'lsa, ijobjiy baho ifodalovchi birlik adabiy tilga xoslangan bo'ladi.

Nutqiy tavsif doim baho semasiga bog'liq deb o'yash to'g'ri emas. Masalan, terminlarda baho semasi betaraf bo'ladi Shunga qaramay termin umumtil qatlamiga kiritilmaydi, balki adabiy tilning ilmiy turiga xoslangan bo'ladi.

Leksik birliklarni professionalizm, dialektizm deb guruhashlar aslida nutqiy tavsif bo'lib, bunday tafsiflashlarda ham baho semasi hisobga olinmaydi.

**7- §. Leksemalarning tilning biror vazifaviy ko'rinishiga xoslanganligi** boshqa-yu, tilning barcha vazifaviy ko'rinishlarida ishlatilaverishi boshqa. Leksik birlikni tilning o'zi mansub vazifaviy ko'rinishidan boshqasiga ko'chirish, tilning boshqa vazifaviy ko'rinishida ishlatish odatda uslubiy maqsadni ko'zlab amalga oshiriladi. Masalan, arxaizmni oddiy leksik birliklar qurshovida ishlatish ko'pincha kinoya, mazax ruhini hosil etish uchun xizmat qilgani kabi ("Arxaizm" bahsiga qarang).

Leksik birlikni tilning bir vazifaviy ko'rinishidan ikkinchisiga ko'chirib ishlatish hamma vaqt ham o'rinali bo'lavermaydi. Bunda matn hal etuvchi o'rindan tutadi. Agar ko'chirilayotgan birlik umumtil qatlami birliklari qurshovida, betaraf baholi birliklar bilan tuzilgan matnda ishlatilsa, bunday ko'chirish yaxshi kutib olinadi. Aks holda ko'chirish salbiy qabul qilinishi, ko'zga qadalib turishi mumkin.

Masalan, quyilagi baytda arxaizm (*puchmog* — 'burchak') umumtil qatlami birliklari qurshovida berilgan, lekin bu matnda salbiy baholi *axlat*- leksemasining qatnashuvi ko'tarinki (ijobjiy) baholi arxaizmning ishlatilishini rad etadi; shunga qaramay arxaizm ishlatilgan ekan, buni nutqiy xato (uslubiy xato) deb ta'kidlash kerak: *Yurak puchmog 'inda qolgan axlatni Qalam bilan tozalov — shoirning ishi* (G'afur G'ulom, "She'r ham sobun").

Bu kabi nutqiy xato she'riyatda ko'pincha oddiy lug'aviy birliklarni ishlatish sababli ham voqe bo'ladi. Bunday holat anchagina uchrab turgani sababli *prozaizm* deb alohida nom olgan (lot. *prosa* — 'oddiy').

Oddiy leksik birlikning ko'tarinki ruhdagi matnda ishlatilishiga *prozaizm* deyiladi. Prozaizm ko'pincha she'riyatni xalqchil qilish, xalq tiliiga yaqinlashtirish maqsadi tufaydi yuz beradi. Shunga qaramay prozaizmni ba'zi hollarda oqlab bo'lmaydi. Bu masala chuqur o'rganishni talab qiladi. Quyida bir necha misolni tahlil qilish bilan cheklanamiz.

She'riyatda lug'at boyligidagi barcha birliklardan foydalanaverish mumkin emas. Masalan, bog'lovchilarini, ayniqsa biriktiruvchi teng bog'lovchilarini

ishlatishdan tiyilish kerak, chunki bular "sinqiq maydon"da o'rinni ortiqcha egallaydi xolos. She'riyatda bunday bog'lovchilarga emas, balki intonatsiyaga zo'r beriladi. Quyidagi matnda va bog'lovchisi faqat satrlarni hijo jihatidan tenglash uchun-gina ishlatilgan: *Tezroq erta bo'lsin, — deyman men Va sanayman kunlar o'tishin* (Gulchehra, "Gul ochajak inson orzusi"). Asli birinchi misra oxiridagi kishilik olmoshi (*men*) ham hech qanday yangi axborat bermaydi, demak, ortiqcha.

Tilning har xil vazifaviy ko'rinishlariga xoslangan leksik birliklarni yonma-yon joylashtirish, ayniqsa qofiyalash ijobiy bo'lavermaydi. Buni quyidagi bayt misolida yaqqol ko'rish mumkin: *Nechun shuncha yoqimli hayot, Nechun qalbim sevinchlarga boy?* (Musharraf, "Baxtlisan deydi"). Birinchi misradagi poetik birlik (*nechun*) bilan oddiy lug'aviy birlikni (*shuncha*) yonma-yon keltirish uslubni buzib turibdi.

Quyidagi individual qo'llashda ham leksik birlikning nutqiy xoslanganligi (shuningdek baho semasi) yetarli hisobga olinmagan: *Biri do'stlik hurmati uchun Tutsa guldan bejirim buket, Birin yonib yonog'i gulgun Yuzlaridan o'par ketma-ket* (R.Abdurashidov, "Ona guldastasi"). Bu matnda boshqa tilga mansub leksema (*buket*) oddiy lug'aviy birlik bilan bog'lab ishlatilgan: nutq oqimini *buket-* leksemasi yuqoriga ko'tarsa, *bejirim-* leksemasi pastga tortadi.

**8- §.** Til boyligidan foydalanishda, tilning ifoda vositalarini ishlatishda tutiladigan yo'lga *uslub (stil)* deyiladi (yunoncha *stylos* — qadimgi yunonlarda yozuv quroli xizmatini bajargan o'tkir uchli qalamcha).

Har bir muallifda (hatto bir muallifning turli asarlarida) tilning vositalaridan foydalanishda o'ziga xoslik bo'ladi. Bunday o'ziga xoslik individual nutq xususiyati bo'lgani sababli uni xususiy uslub deb yuritiladi. Masalan, tildan foydalanishidagi umumiy va xususiy tomonlarini hisobga olgan holda shoir G'afur G'ulom uslubi Uyg'un uslubidan farq qiladi.

Bu shoirlarga xos xususiy uslub leksik birliklarni tanlashda va ishlatishda ham, leksemashakllarni o'zaro bog'lashda va joylashtirishda ham, jumla tuzishda va gapshaklning tuzilish jihatidan turlariga murojaat qilishda ham, hatto fonetik imkoniyatlardan foydalanishda ham ko'rindi.

G'afur G'ulom uslubiga xos xususiyatlardan eng ko'zga tashlanib turadigani lug'aviy birliklardan foydalanishda o'ziga erk berib yuborishida ko'rindi. G'afur G'ulom o'zga til lug'aviy birliklariga, shuningdek eski lug'aviy birliklarga, arxaizmlarga ko'p murojaat qiladi.

Uslub janr xususiyatlari bilan belgilanadi deb o'ylash xato. Masalan, G'afur G'ulom uslubi poeziyada qanchalik ajralib tursa, prozada ham shunchalik ayrimliklarga ega. Prozaik sifatida G'afur G'ulom bilan Abdulla Qahhorni o'zaro uslub jihatidan tenglashtirib bo'lmasisligi shubhasiz.

Uslub yozuvchini qiziqtirgan mavzular doirasi bilan ham belgilanmaydi. Ayni bir vogelikning o'zi ikki yozuvchi tomonidan turlicha tasvirlanishi, bunda til vositalaridan turlicha foydalanish yuz berishi mumkin.

Xullas, uslubni belgilashda har bir muallifning asarlarini (hatto har asarini) boshqa muallifning asarlariga qiyoslab o'rganish til hodisalarining avvalo tilning vazifaviy ko'rinishlariga xoslanishini hisobga olib amalga oshirilishi kerak. Shunda-gina aniq bir fikr aytish mumkin bo'ladi. Bunda o'zarो farqli holatlar-gina emas, balki umumiyliliklar ham chuqur tahlil etilishi lozim.

## LUG'AT BOYLIGIDAGI O'Z QATLAM VA O'ZLASHGAN QATLAM

1- §. Har bir til asosan o'z lug'at boyligi va grammatic qurilishi asosida o'z taraqqiyot qonunlari bo'yicha o'sib, takomillashib boradi. Bundan tashqari, xalqlar orasidagi iqtisodiy, madaniy, siyosiy aloqalar natijasida bir til qurilishiga xos birliklar (asosan lug'aviy birliklar, qismangina fonetik va grammatic birliklar) ikkinchi tilga o'tadi, shu tilga singib, uning boyligiga aylanadi. Shu nuqtayi nazardan yondashib hozirgi adabiy o'zbek tili lug'at boyligida ikki qatlam ajratiladi: 1) o'z qatlam, 2) o'zlashgan qatlam.

O'z qatlam deganda aslan shu tilniki bo'lgan leksemalar va shular asosidagi yasalishlar, shuningdek o'z affiks bilan boshqa til leksemalaridan yasalishlar tushuniladi.

O'zbek tili lug'at boyligidagi eng qadimgi qism umumturkiy leksemalaridan iborat. Bunday leksemalar ko'pchilik turkiy tillarda hozir ham ishlataladi. Umumturkiy leksemalarning asosini *bosh-*, *ko'z-*, *qosh-*, *qo'l-*, *yuz-*, *uch-*, *yot-*, *bo'l-* kabi bir bo'g'inli tub leksemalar tashkil qiladi. Bulardan tashqari, o'zbek tili lug'at boyligidagi umumturkiy qatlamda *ona-*, *bola-*, *bobo-*, *gora-*, *tekin-* kabi ikki bo'g'inli tub leksemalar ham anchagina.

Hozirgi o'zbek tili lug'at boyligida, ko'pchilik turkiy tillar uchun umumiy bo'lgan qismdan tashqari, o'zbek tilining o'z mustaqil taraqqiyoti natijasida paydo bo'lgan qism ham mavjud. Buni, bir tomonidan, o'zbek tilining o'zi doirasidagi yangi-yangi yasalishlarda ko'rsak, ikkinchi tomonidan, leksemalarning leksik ma'no taraqqiyoti natijalarida ko'ramiz. Masalan, *boshlang'ich-*, *belgili-*, *yutuqli-*, *yonilg'i-*, *yoqilg'i-*, *yollanma-*, *yozuvchi-* kabi leksemalar — o'zbek tilining o'z imkoniyatlari bilan yasalgan leksemalar.

Bulardan tashqari, boshqa tildan olingan leksemaga o'zbekcha affiksni qo'shib leksema yasash ham avj olgan. Masalan, *jangchi-*, *xizmatchi-*, *traktorchi-*, *eksavatorchi-*, *paroxodchilik-* kabilarda leksema yasash asosi — boshqa til leksemasi, yasovchilar esa — o'zbek tiliniki.

Buning aksi, ya'ni o'zbekcha leksemaga boshqa tilga xos morfemani qo'shib leksema hosil qilish ham uchraydi. Masalan, *bebosh-* (*bevosh-*), *bishi-*, *bilimdon-*, *tug'ruqsona-* kabilar shu yo'l bilan yasalgan.

O'zlashgan qatlama xos leksemalarni o'z qatlam leksemalaridan ajratib olish hamma vaqt yengil bo'lavermaydi. Bularni o'zaro farqlashda ko'pincha leksemalarning tovush tuzilishiga suyanib (ba'zan harfiy ifodasini ham hisobga olgan holda) fikr yuritiladi.

Tovush tuzilishi jihatidan o'z qatlama xos leksemalarning asosiy belgilari deb quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

1) O'zbekcha tub leksemalar asosan bir bo'g'inli, qisman ikki bo'g'inli bo'ladi (uch bo'g'inli, hatto ikki bo'g'inli leksemalar tarixan hosila leksema bo'lib chiqadi);

2) Bir bo'g'inlarda CVC turi asosiy o'rinni egallaydi, VC turi ikkinchi o'rinda, CV turi esa uchinchi o'rinda turadi;

3) Ikki bo'g'inli leksemalar ko'pincha ochiq bo'g'lnlardan tuzilgan bo'ladi;

4) O'zbekcha leksemalar *r*, *l*, *v*, *h* tovushlari bilan boshlanmaydi;

5) O'zbekcha leksemalarda *j* sirg'aluvchi tovushi, *h* bo'g'iż tovushi (ayrim undov va tasvir birliklaridan tashqari) qatnashmaydi;

6) Leksemalarning oxiri *e*, *u* tovushi bilan tugamaydi (ayrim undov va tasvir birliklaridan tashqari);

7) Birinchi bo'g'indan keyingi bo'g'in ovoz tovush bilan boshlanmaydi;

8) Leksema boshlanishida, ko'pincha leksema oxirida ham ikki va undan ortiq konsonant qatorasiga kelmaydi (*ost-*, *ust-*, *old-*, *ort-* kabi bir necha leksema bundan mustasno);

9) Urg'u leksemashaklning odatda oxirgi bo'g'inida bo'ladi.

Grafik jihatdan o'zbekcha leksemalarda tutuq belgisi ishlatalmaydi.

Yuqorida sanalgan holatlarning aksi o'zlashgan leksemalarning asosiy belgilari deb qaralishi mumkin.

Leksemalarning mazmun jihatni ham ularning o'z qatlama yoki o'zlashgan qatlama mansubligidan dalolat berib turadi. Ma'nio tarmoqlanishi ko'pincha o'z qatlama mansub leksemalarga xos bo'ladi; o'zlashgan leksema mada ko'pma'nolilik voqe bo'lishi uchun bunday leksema tilda uzoq vaqt yashashi, shu til lug'atiga singib ketishi kerak.

Bundan tashqari, hozirgi o'zbek tili lug'at boyligidagi o'z qatlama aniq ma'noli leksemalar, o'zlashgan qatlama esa mavhum ma'noli leksemalar ko'p va b.

2- §. O'zbek tiliga leksema o'zlashtirishning manbalari turli davrlarda turlicha bo'lgan. O'zbek tiliga leksema o'zlashtirishdagi qadimgi manbalar deb fors va arab tillari ko'rsatiladi; rus tilidan leksema o'zlashtirish bularga

nisbatan ancha keyingi vaqtarda sodir bo'la boshlagan. Fors, arab tillaridan leksema o'zlashtirish tarixan ko'p bo'lgan, hozir esa siyraklashgan. Hozirgi o'zbek tilida rus tilidan o'zlashtirishlar o'mini bevosita g'arb tillarining o'zidan o'zlashtirish oldi: *birja-, broker-, makler-, debitor-, kreditor-* kabi.

O'zlashgan leksemalar hozirgi adabiy o'zbek tili lug'atida salmoqli o'rین tutadi. Til taraqqiyotining borishi o'zlashgan qatlamning ayniqsa baynalmilat (internatsional) leksemalar hisobiga yana-da boyib borishini ko'rsatib turibdi.

Umuman, keyingi vaqtarda lug'atning boyish jarayonida o'z yasashdan ko'ra o'zlashtirish ustun bo'lib bormoqda. Chunki o'zlashtirish – o'z yasasha nisbatan yengil yo'l. Jamiyat taraqqiyotining hozirgidek tez sur'atlar bilan borishi til amaliyotida ham har on hozirjavoblikni talab qilmoqda. Tillar orasida o'zlashtirishning faollasha borishiga asosiy sabab – shu.

Leksema o'zlashtirish bir tildan ikkinchi bir tilga bevosita leksema olish yo'li bilan voqe bo'ladi. Bu yerda ikki hodisani farqlash kerak: a) bir tilga ikkinchi bir tilning o'z leksemasi o'zlashadi, b) o'zlashtirilayotgan leksema o'z navbatida o'sha tilning o'zi uchun ham o'zlashma bo'ladi. Masalan, o'zbek tiliga rus tilining o'z leksemalari juda oz o'zlashgan; ko'pchilik leksemalar esa rus tiliga g'arb tillaridan o'zlashgan leksemalarga to'g'ri keladi. Rus tilidan o'zbek tiliga o'zlashgan, aslida ruscha leksemalarga *stol-, pol-* kabilarni misol qilib ko'rsatish mumkin.

Rus tilidan o'zbek tiliga o'zlashgan, lekin aslida ruscha bo'lmagan leksemalar asosan baynalmilat leksemalarga to'g'ri keladi. Bular orasida *gips-, diafragma-, dialect-, kafedra-, komediya-, fizika-, grammatika-, planeta-, teatr-* kabi yunoncha leksemalar, *senzura-, deputat-, rektor-, dekan-, konstitutsiya-, ekskursiya-* kabi lotincha leksemalar, *polkovnik-, rota-, metrika-* kabi polyakcha leksemalar, *vaxta-, soldat-, ofitser-, gastrol-, shtab-, shturman-, kater-* kabi nemischa leksemalar, *drap-, triko-, kashne-, kabinet-, kapitan-, artilleriya-, ataka-, general-, desant-, flot-, repertuar-* kabi fransuzcha leksemalar, *vokzal-, rels-, tramvay-, budjet-, futbol-, basketbol-, voleybol-, boks-, kross-, tort-* kabi ingлизча leksemalar, *balerina-, opera-, benzin-, bank-, kar naval-* kabi italyancha leksemalar mavjud.

Bunday leksemalar o'zbek tiliga asosan rus tilidagi yozilishi va aytilishi bilan olingan; o'zbek tili nuqtayi nazaridan faqat ba'zi kichik o'zgartirishlarga yo'l qo'yilgan: *otpusk- – otpuska-, rels- – rels* kabi.

3- §. O'zbek tili lug'atidagi arabcha leksemalarning oz qismi-gina bevosita arab tilining o'zidan olingan. Bunday o'zlashtirish asosan O'rta Osiyoga islam dinining kirib kelishi, mакtab-madrasalarda arab tilining din tili sifatida targ'ib qilinishi bilan, eng muhimi – sharq olamida fan tili deb arab tilining qabul qilinganligi kabi omillar bilan bog'liq. Demak, arab tilidan bevosita o'zlashmalar asosan fanga va dingga doir leksemalarga to'g'ri keladi.

Ko‘pchilik arabcha leksemalarning o‘zbek tiliga o‘zlashuvida fors tilining o‘rni katta. Asli bunday leksemalar oldin fors tiliga o‘zlashgan, keyin-gina o‘zbek tiliga o‘zlashtirilgan. Bunday yo‘l bilan o‘zlashgan leksemalar asosan kundalik turmushda uchraydigan narsa va hodisalarning nomlariga to‘g‘ri keladi.

Arabcha so‘zlar o‘zbek tiliga ko‘pincha aynan olinmay, ma'lum darajada o‘zlashtirib, o‘zbekchalashtirib, ko‘p hollarda o‘zbek tilining tovushlariga moslashtirib olingan.

Ma'lumki, arab tilida uchta qisqa ovoz tovush (*a*, *u*, *i*) va shularning cho‘ziq shakli mavjud. Bulardan o‘zbek tili ovoz tovushlariga qisqa shakllari to‘g‘ri keladi, shunga ko‘ra o‘zbek tiliga olingan arabcha leksemalar tarkibidagi qisqa tovushlar jiddiy o‘zgarishga duchor bo‘lmagan. Hozirgi adabiy o‘zbek tili ovoz tovushlari qatorida cho‘ziq tovushlar yo‘q, shunga ko‘ra arab tilidan olingan leksemalar tarkibidagi cho‘ziq ovoz tovushlar odatda qisqa tovushlarga almashtiriladi. Arabcha leksemalarni o‘zlashtirishda ular tarkibidagi cho‘ziq **a**: tovushi asosan o‘zbekcha **ä** tovushiga almashtirilganini alohida ta‘kidlash lozim, chunki bu yerda tovushni faqat miqdoriy (cho‘ziqlik) jihatidan-gina emas, balki sifatiy (lablanish) jihatidan ham sezilarli o‘zbekchalashtrish voqe bo‘ladi.

Arab tilining tovushlar qatoridagi bir qancha tovushlar o‘zbek tilining tovushlar qatorida yo‘q, shu sababli bunday arabcha tovushlar o‘zbek tilidagi eng yaqin muqobiliga almashtirilgan: ikkita **t** tovushi **t** tovushiga, uchta **s** tovushi **s** tovushiga, to‘rtta **z** tovushi **z** tovushiga almashtirilgan, faqat uchta **x** tovushidan **xe** tovushi harf bilan ta‘minlanib, hoyi hutti va hoyi havvaz tovushlari bir tovushga (**h**) birlashtirilgan va b.

Fors tilidan o‘zlashtirishlar ham tarixan salmoqli bo‘lgan. Fors tilidan o‘zlashtirilgan leksemalarda jiddiy tovush o‘zgarishlari sodir bo‘lmagan, chunki o‘zbek tili bilan fors tilining tovushlar qatori orasidagi farqlar u qadar katta emas: *andisha-*, *baland-*, *gap-*, *daromad-*, *jon-*, *zar-*, *mayda-*, *nam-*, *ozoda-* va b.

Hozirgi adabiy o‘zbek tili lug‘atida boshqa sharq tillaridan o‘zlashtirilgan leksemalar ko‘p emas. Masalan, xitoycha *qay-* leksemasi rus tili orqali *chay-* (> *choy-*) shaklida, xitoycha *lagman-* leksemasi *lag‘mon-* shaklida, *mantu-* leksemasi *manti-* shaklida uyg‘ur tili orqali o‘zlashgan va b.

4- §. Leksemalar asosan ikki yo‘l bilan o‘zlashtiriladi: 1) jonli so‘zlashuv orqali, 2) bosma manbalar orqali.

1) Jonli so‘zlashuv orqali o‘zlashtirish har xil til vakillarining o‘zaro bevosita muloqoti natijasida voqe bo‘ladi, bir tilga xos leksema ikkinchisiga so‘zlashuv tiliga xos shaklida o‘zlashadi, keyin bu leksema adabiy tilga ham o‘tishi mumkin. Adabiy tilga o‘tishida ba’zan bu leksemaning so‘zlashuv

tiliga xos shakli saqlanadi, ko'pincha esa so'zlashuv tiliga xos shaklidan voz kechilib, adabiy tilga xos shaklida olinadi.

Masalan, arabcha *tanur*-, tojikcha *kabutar*- leksemalari o'zbek tiliga jonli so'zlashuv orqali *tandir*-, *kaptar*- shaklida o'zlashgan va adabiy tilda shu shakli rasmiylashgan; *podnos*-, *krovat*- leksemalari rus tilidan jonli so'zlashuv orqali *patnis*-, *karavot*- shaklida o'zlashtirilib, adabiy tilda ham shu shakli rasmiylashgan.

Bunday holatlar o'zlashtirilayotgan leksema talaffuz jihatidan noqulay bo'lganida yoki o'zlashtirilayotgan tilga tovush jihatidan bo'ysundirish lozim bo'lganida yuz beradi. Masalan, ruscha *yar*- leksemasini o'zbekcha talaffuzga moslash natijasida tamoman yangi fonetik birlik — *chor*- yuzaga kelgan va u adabiy tilga ham shu shaklida olingan.

Jonli so'zlashuv orqali o'zlashmalarda tovush o'zgarishi albatta voqe bo'ladi deb o'yash to'g'ri emas. O'zlashayotgan leksema talaffuz jihatidan qiyinchilik tug'dirmasa, bunday leksemalar o'z tovush shaklini saqlagan holda so'zlashuv tiliga kirib kelaveradi. Tojik tilidan o'zlashmalarning ko'pchiligi — xuddi shunday holatda olingan leksemalar.

2) Bosma manbalar orqali o'zlashtirishda ikki hodisani farq qilish kerak:

a) Ikkinci bir tilda yozilgan adabiyotni o'zbek tiliga tarjima qilish yo'li bilan o'zlashtiriladi. Bunda kundalik matbuotning hissasi katta bo'ladi. Gazeta sahifalari bunday o'zlashtirmalarni o'rganish uchun ayniqsa boy material beradi.

b) O'zbek badiiy adabiyotining o'zi orqali o'zlashtiriladi. Bular yozuvchining boshqa millat tili va adabiyotini chuqur o'rganishi asosida voqe bo'ladi. Bunday hollarda yozuvchidan juda ehtiyojkorlik va did talab qilinadi. Yozuvchilar o'z ona tilini boyitishda faol qatnashadi. Ularning muqaddas burchi — avvalo o'z ona tili boyligidan to'liq va mohirona foydalanish. Shuning bilan birga, o'z ona tilini o'zga tildan leksema o'zlashtirish yo'li bilan boyitishning ham ahamiyati katta. Lekin bu ish yozuvchidan, o'z ona tilidan tashqari, o'zi murojaat qilayotgan tilni, ayniqsa uning lug'at boyligini chuqur o'rgangan bo'lishini talab qiladi. Aks holda leksema tanlashda xatoga yo'il qo'yishi mumkin.

5- §. Leksema o'zlashtirishning usullari ikki turli: o'zicha olish va kalkalab olish.

1. O'zicha olishda leksema aynan yoki juz'iy tovush o'zgarishi bilan qabil qilinadi (Yuqorida keltirilgan misollarga qarang).

2. Kalkalab olishda o'zlashtirilayotgan leksemaning leksik ma'nosi va ma'noli qismrlarga bo'linishi saqlanadi, lekin o'zlashtiruvchi tilning materiali bilan to'ldiriladi. Ikkinci til leksemasidan qismma-qism nusxa olish yo'li bilan yasalgan (tuzilgan) leksema *kalka* deyiladi (fr. *calque* — 'nusxa

ko'chirishda ishlataladigan yupqa qog'oz', 'nusxa'). Masalan, *chalasavod-* leksemasi — ruscha *polugramotny* leksemasidan nusxa olish yo'li bilan hosil qilingan kalka.

Haqiqiy kalka deb birinchi galda *umumxalq-* (*obshenarodnyj*) kabi leksemalarni ko'rsatish lozim. O'zga til leksemasi tarkibidagi qismlarga o'z tili dan qism keltirish va bu qismlarni mexanik ravishda birlashtirib leksema hosil qilish xuddi shu tur misollarda o'z aksini topgan. Ko'pchilik kalkalarda ular tarkibidagi qismlar mexanik ravishda emas, balki o'ziashtiruvchi tilning qoidalari asosida birlashtiriladi. Demak, bunday kalkalarda o'zlashtiruvchi tilning leksema yashash usuli qatnashadi. Bunday yasalishni o'zicha yashash (ya'ni boshqa tilning ta'siridan xoli holda yashash) deb bo'lmaydi, lekin o'z yashash deb baholash haqiqatga to'g'ri keladi.

Kalkalash asosan ikki xil bo'ladi:

1) To'liq kalkalash. Bunday yo'l bilan hosil qilingan kalkanining barcha qismlari o'z tili materialidan tuziladi (yuqoridagi misollar).

2) Yarim kalkalash. Bunday kalka tarkibida o'z material bilan bir qatorda o'zlashtirish manbai bo'lgan tilning materiali ham qatnashadi. Masalan *buldozerchi-, ekskavatorchi-* kabi kalkalarda leksemaning bir qismi-gina o'z material bilan berilgan.

Kalka asli leksema o'zlashtirishdagi grammatick usul hisoblanadi, chunki kalkalash leksema tarkibidagi ma'noli qismlardan nusxa olishga asoslanadi. Ba'zi hollarda esa ikkinchi bir tildagi leksemaning ta'sirida o'sha leksema anglatadigan tushunchani o'zlashtirish sababli qabul qiluvchi tildagi biror leksema ana shu leksik ma'no birkitiladi. Bunday leksik ma'no boshqa tildagi leksema ta'sirida voqe bo'lgani tufayli kalka deb yuritiladi. Bunday kalka grammatick kalkadan farqlash uchun *semantik kalka* deb nomланади.

Semantik kalkada ham nusxa ko'chirish saqlanadi: bir tildagi leksema boshqa tildagi muqobili qidirib topiladi va shu topilgan leksemaga o'zlashtirilayotgan leksik ma'no yuklanadi. Masalan, ruscha *krujok-* leksemasining ko'chma ma'nolaridan birini ('kishilarning biror mashg'ulotni birqalikda o'tkazish uchun tuzgan birlashmasi') o'zlashtirish talabi tug'ilganda o'zbek tilidan shu ruscha leksemaning to'g'ri ma'nosiga ('doiracha') muqobil topilib (*to'garak-*), shu leksemaga o'zlashtirilayotgan ko'chma ma'noni anglatish yuklangan; *legkovaya mashina* turg'un birikmasini o'zlashtirish talabi tug'ilganda *legkovaya* leksemasining o'zbekcha muqobili yengil- leksemasiga shunday ma'noni anglatish vazifasi birkitilgan (*engil mashina-*). *Yo'ldosh-* (*Yer yo'ldoshi-*), *keskinlashtirish-* (*obostryat*), *yuklama-* (*nagruzka* — 'o'qituvchi o'quv yili davomida bajaradigan ishlar hajmi') kabilar ham nisbatan yangi semantik kalkalar qatoriga kiradi.

Umuman, kalkalash yasama leksemada ham, qo'shma leksemada ham, turg'un birikmada ham voqe bo'ladi. Masalan, *muzyorar-* leksemasi ruscha *ledokol* qo'shma leksemasining, *ish haqi-, temir yo'l-* kabilar — ruscha *zaratnaya plata* (→ *zarplata*), *jeleznaya doroga* turg'un birikmalarining kalkasi.

6- §. Leksema o'zlashtirishni boshqa til leksemasini ishlatish hodisasidan farq qilish kerak. Leksema o'zlashtirish — tabiiy, qonuniy holat; boshqa til leksemalarini ishlatish — g'ayriqonuniy holat. Chunki bunday leksemani ishlatishga hech qanday ehtiyoj bo'lmaydi, u faqat ayrim shaxs nutqining xususiyatini-gina aks ettiradi. Tilning (nutqning) sofligi uchun kurashni umuman o'zlashtirishlarga qarshi emas, balki o'zga til leksemasini nokerak holda ishlatishga, o'zga til hodisalaridan befarq foydalanish hollariga qarshi olib borish kerak. Masalan, quyidagi matnda o'zga til leksemasini nokerak ishlatish namunasi juda yaxshi aks ettirilgan: "Mushayt qilma!" — *dedi oldinga tushib olgan Ra'noga* (Hakim Nazir).

Bu o'rinda gap ruscha leksemani buzib talaffuz qilish va yozish haqida borayotgani yo'q. Masalan, quyidagi matnda ham xuddi shunday buzib talaffuz qilish va yozish o'z aksini topgan, lekin bu leksemani o'zga til leksemasi deb bo'lmaydi; bu leksema o'zbek tiliga o'zlashgan: *Kecha Mehri opam tuzatib ketganla. Kampiris qilib* (Hakim Nazir). Yana bir misol: *Odamning nastroyeniyasi* (*ular bu so'zni shu tariqa ruscha aytishardi*) *svetoforga o'xshasa kerak-da* (Pirimqul Qodirov). Bu parchadagi *svetofor-* leksemasi o'zbek tiliga o'zlashgan, *nastroyeniye-* leksemasi esa o'zlashmagan (Bu ma'no o'zbek tilida *kayfiyat-* leksemasi bilan anglatiladi), demak, noo'rin ishlatilgan.

7- §. Umuman, leksema o'zlashtirishlarga munosabat o'zgarib turadi: ba'zan leksema o'zlashtirish lug'atni boyitish yo'llaridan biri sifatida ijobiy baholanadi, ba'zan tilning sofligiga futur yetkazadigan salbiy hodisa deb qoralanadi. Bu har ikki nuqtayi nazarda jon bor.

Tildan tilga leksema o'zlashtirish — hayot talabi bilan yuz beradigan va rad etish befoyda jarayon. Leksema o'zlashtirishga qarshi harakatlar fanda *purizm* degan nom ham olgan (lot. *purus* — 'toza'). Leksema o'zlashtirish barcha tillar orasida sodir bo'lib kelgan va bundan keyin ham kuchayadi-yu, so'nmaydi. Soxta milliy g'ururga berilib o'zlashtirma leksemalarga qarshi chiqish kaltabinlik deb baholanishi kerak. Keyingi yillarda o'zbek ziyorilari orasida yaxshi niyat bilan boshlangan bunday harakat ijobi natija bilan yakunlanmagani tabiiy.

Masalan, *stadion-* leksemasi o'rniga yangi yasalgan *o'yingoh-* leksemasini ishlatish tavsiya qilindi, lekin hayot bu taklifning o'rinli emasligini tezda ko'rsatdi: futbol maydonini *o'yingoh-* desak, sportning boshqa turlari (masalan, voleybol, basketbol, boks va boshqalar) o'tkaziladigan maydonlarni (sahnlarni) nima deb ataymiz? Shu qatordagagi faqat *stadion-* leksemasini al-

mashtirish bilan nimaga erishamiz? Hayot *oliygoh-*, *tayyoragoh-*, *ro'znomal-*  
*oynoma-* kabi almashtirishlarni ham rad etdi.

O'zbek tili lug'atining sofligi uchun kurashamiz deb bir til lug'atidan olingan leksema o'rniiga boshqa til lug'atidan olingan yoki shunday birlik asosida yasalgan leksemani tavsiya etish o'zbek tili lug'atini soflashtirmasligi aniq: *institut-* (lotincha) — *oliygoh-* (arabcha + tojikcha), *fakultet-* (lotincha) — *kulliyot-* (arabcha) kabi almashtirishlar lug'atimizning sofligini mutlaqo ta'minlamaydi. O'zlashtirma leksema o'zbekcha leksema bilan almashtirilsagina, lug'atimiz sofligiga xizmat qiladi: *sovet-* (ruscha) — *kengash-* (o'zbekcha) misolidagi kabi. Lekin bunday almashtirishlar juda oz bo'ldi.

Umuman, birorta til yo'qliki, uning lug'atida boshqa tildan olingan leksema bo'lmasa. Har qancha xitoy devori tiklamaylik, leksema tildan tilga o'taveradi. Demak, umuman leksema o'zlashtirishlarga qarshi emas, balki noo'rin, ortiqcha o'zlashtirishlarga qarshi chiqish kerak. Qaysi til leksemasi bo'lishidan qat'i nazar, til lug'atiga singib ketgan leksemani quvish harakati zararli deb baholanishi lozim.

## HOZIRGI ADABIY O'ZBEK TILI TASVIRLANGAN LUG'ATLAR HAQIDA

Til qurilishiga mansub segment birliklarning — leksemaning, frazemaning (shuningdek morfemaning ham) ifoda jihatiga va mazmun jihatiga xos belgi-xususiyatlar tasvirlanadigan, izohlanadigan manbaga lug'at deyiladi.

Lug'atdan ensiklopediyani farqlash kerak (fr. *encyclopédie* — 'mukammal bilim majmui'). Lug'at bilan ensiklopediya faqat bir nuqtada — alifbo tartibida tuzilishiga ko'ra o'xshash. Lug'atda til qurilishiga mansub birliklarga lingvistik talqin beriladi. Ensiklopediyada esa ma'lum bir nom bilan ataluvchi voqelik haqida har tomonlama ma'lumot beriladi, shunga ko'ra ensiklopediya ot turkumi asosida tuziladi, unga yakka leksemalardan tashqari yirik nominativ birliklar — turg'un birikmalar ham vokabula sifatida kiritiladi (lot. *vocabulum* — 'nom', 'boshlovchi so'z'); ensiklopediyada atoqli ottlarga — kishi familiyasi, ismi, ota ismiga, joy nomlariga keng o'rinn beriladi. Ensiklopediya voqelikni bir butun qamrab olgan holda (masalan, "Katta ensiklopediya" kabi) yoki voqelikning ma'lum bir qismini, biror sohani qamrab olgan holda tuziladi (masalan, "Meditina ensiklopediyasi" kabi). O'zbek tilida tuzib chop etilgan ensiklopediya hozir jiddiy o'zgartirishlar bilan yangidan nashr qilinmoqda.

Lug'atda til taraqqiyotining o'tmish bosqichi yoki hozirgi bosqichi tasvirlanadi. Turkiy tilning (o'zbek tilining) o'tmish taraqqiyot bosqichiga mansub leksemalar Mahmud Koshg'ariydan boshlab bir qancha allomalar tuzgan lug'atlarda tasvirlangan; turkiy til lug'atchiligi ma'lum davrda ancha taraqqiy etgan bo'lib, bunday qo'lyozma lug'atlarni sinchiklab o'rganish lozim.

Hozirgi o'zbek tili bo'yicha tuzilgan lug'atlarning deyarli barchasini (dialektologik lug'atdan tashqari) adabiy til tasvirlangan lug'at deyish mumkin. Ko'pchilik lug'atlarda hozirgi adabiy o'zbek tilining boyligi yaxlit holda tasvirlanadi, masalan, ikki jildli "O'zbek tilining izohli lug'ati" (1981) kabi. O'zbek tilida tuzilgan lug'atlar orasida eng mo'tabari deb ikki jildli izohli lug'at ta'kidlanadi. Hozir bu lug'at jiddiy qayta ishlanib, ko'p jildli lug'at tarzida nashrga tayyorlanmoqda.

Izohli lug'atlar lug'at boyligidagi ma'lum bir tur hodisalar bo'yicha ham tuziladi. Masalan, lug'at boyligining frazeologik qatlami Sh. Rahmatullayevning "O'zbek tilining frazeologik lug'ati"da (1992), leksik sinonimlar A. Hojiyevning "O'zbek tili sinonimlarining izohli lug'ati"da (1974), leksik antonimlar Sh. Rahmatullayev, N. Mamatov, R. Shukurovlarning "O'zbek tili antonimlarining izohli lug'ati"da (1980), leksik omonimlar Sh. Rahmatullayevning "O'zbek tili omonimlarining izohli lug'ati"da (1984) tasvirlangan.

Lug'atlarning izohli lug'atdan boshqa turlari ham ko'p. Masalan, leksemalarning to'g'ri yozilishi imlo lug'atida (Imlo lug'ati. "O'qituvchi", 2003), leksemalarning ma'noli qismalarga ajratilishi morfem lug'atda (A.G'.G'ulomov, A.N. Tixonov, R.Q.Qo'ng'uров. O'zbek tilining morfem lug'ati, 1977), leksemalarning nutqda qo'llanuvchanligi I.A. Kissennenning "Slovar naiboleye upotrebitevnix slov sovremennoogo uzbekskogo literaturnogo yazyka" (1972) lug'atida aks ettirilgan. Leksemalarni oxiridan boshlanishiga tomon alifbo tartibida joylab tuzilgan lug'at ham mavjud (R.Qo'ng'uров, A.Tixonov. "O'zbek tilining chappa lug'ati", 1969). Hozirgi adabiy o'zbek tili lug'atidagi leksemalarning asl shakli va ma'nosida sodir bo'lgan o'zgarishlar Sh. Rahmatullayevning "O'zbek tilining etimologik lug'ati"da (I jild, 2000; II jild, 2003) izohlandi.

Yuqoridaagi kabi umumtil lug'atlaridan tashqari ayrim soha terminlari tasvirlangan lug'atlar ham anchagina, masalan, A. Hojiyevning "Lingvistik terminlarning izohli lug'ati" (1985, 2002) kabi. Terminologik lug'atlar odatda izohli lug'at tarzida tuziladi.

Bir til leksik birliklariga boshqa tildan muqobil keltirib tuziladigan lug'atlar ham mavjud bo'lib, bulardan asosan ikkinchi tilni o'rganishda foydalaniadi: ruscha-o'zbekcha lug'atdan (1983) o'zbek tili lug'at boyligini o'rganishda, o'zbekcha-ruscha lug'atdan (1988) rus tili lug'at boyligini o'rganishda foydalaniadi. Bunday lug'at tarjimon uchun asosiy yordamchi bo'lgani tufayli tarjima lug'ati deb atab yuborilgan.

Lug'atlar tilning boyligini aks ettiruvchi xazina bo'lib, til o'rganishga, nutq madaniyatini oshirishga beminnat xizmat qiladi.

## M O R F E M A L A R T I Z I M I

1- §. Morfema til qurilishining leksemadan keyingi asosiy birligi bo'lib, leksemadan farqli holda grammatic ma'nō ifodalashga xizmat qiladi (yunoncha *morphe* – 'shakl').

Leksema ham, morfema ham til birligi (lisoniy birlik) sifatida qismga teng. Leksema o'z turkumi nuqtayi nazaridan grammatic tavsif olganidan keyin-gina butun holatiga o'tadi va nutqqa chiqadi. Morfema ham odatda o'zi mansub turkum leksemasiga qo'shilgan holda nutqqa chiqadi. Leksema – yetakchi birlik, morfema qo'shiladigan birlik, morfema – leksemaga qo'shiladigan birlik (Shu xususiyatini nazarda tutib morfema *qo'shimcha* deb nomlanadi).

Morfema ham leksema kabi mavhum birlik: miyaning til xotirasi qismida ramz sifatida aks etgan bo'ladi va shu holatida lisoniy birlik deyiladi. Lisoniy birlik sifatida morfema ifoda jihatining va mazmun jihatining bir butunligidan iborat. Masalan, *keldim* birligining oxiridagi *-m* qismi morfemaga teng; uning ifoda jihatni bo'lib *m* fonemasi xizmat qiladi; mazmun jihatni esa 'I shaxs birlikka nisbat berish' ma'nosidan iborat.

Morfemaning mazmun jihatni deb u ifodalaydigan grammatic ma'noga aytiladi. Morfemaning mazmun jihatni teksemaning mazmun jihatidan soddarоq: leksema vogelikning nomi bo'lib, nominativ vazifa ham bajaradi, morfemada esa nomlash vazifasi yo'q, faqat signifikativ vazifa bajaradi: grammatic ma'nō ifodalaydi.

Morfemaning lisoniy birlik holatidagi ramzida uning ifoda jihatni va unga xos belgi-xususiyatlari haqida, shuningdek mazmun jihatni va unga xos belgi-xususiyatlari haqida axborat mavjud. Morfemadan har galgi foydalanish ana shu axborat mujassamlashgan ramzdan nusxa olib amalga oshiriladi; morfemaning ana shunday jarayon natijasida moddiy birlik sifatida namoyon bo'ladigan vakili *morf* deb nomlanib, nutqiy birlik deyiladi. Demak, morfemaning til xotirasi qismidagi lisoniy birlik holatini va talaffuz birligi sifatidagi nutqiy birlik holatini farqlash kerak.

Xullas, leksema bilan morfema orasida juz'iy o'xshashlik mavjud: har ikkisida ifoda jihatni bo'lib fonema xizmat qiladi, har ikkisi lisoniy birlik sifatida qismga teng. Boshqa muhim belgi-xususiyatlari bilan leksema va morfema o'zaro jiddiy farqlanadi. Morfemani yagona til birligi deb, leksemani morfemaning bir turi deb talqin etish noto'g'ri. Agar shunday noto'g'ri fikrga qo'shilsak, til qurilishining lug'at bosqichi o'z mustaqil birligiga ega emas degan fikrga tarafdar bo'lamiz. Bunday fikr til qurilishining bosqichlarini tizim sifatida o'rganishga zid. Leksema – til qurilishining lug'at bosqichiga mansub birlik, morfema – til qurilishining morfemalar bosqichiga mansub

birlik: leksema — leksik birlik, morfema — grammatic birlik. Morfema — grammatic ma'no ifodalashga xizmat qiladigan eng kichik segment til birligi.

2- §. Adabiyotlarda morfemaga tildan (anig'i — lisondan) kelib chiqib va nutqdan kelib chiqib ta'rif beriladi. Birinchi tur yondashuvda "Morfema — tilning eng kichik ma'noli birligi.." deyiladi. Bunda morfemaga til qurilishini tarkib toptiruvchi birlik deb qaraladi, lekin misol sifatida so'z (*suvchi*) keltirilib, bu so'z *suv lug'aviy* morfemasiga va -*chi* qo'shimcha (umumlashma, affiksal, grammatic) morfemaga ajralishi ta'kidlanadi, demak, ikkinchi tur yondashuvga — "morfema — so'z tarkibida ajratiladigan ma'noli qism" degan fikrga, ya'ni morfemani nutqdan kelib chiqib baholashga qaytiladi.

Morfemani "so'zning eng kichik ma'noli qismi" deb nutqdan kelib chiqib ta'riflashdan ko'ra "tilning eng kichik ma'noli birligi" deb ta'riflash to'g'riroq; lekin "eng kichik ma'noli birlik" deb leksik birlikni ham qamrab olish noto'g'ri. Morfemaning asosiy belgisi — grammatic ma'no ifodalovchi birlik ekanı ta'rifga kiritilishi lozim. Shunda "lug'aviy morfema", "o'zak morfema" tushunchalari va terminlaridan voz kechiladi, bular o'rniga *leksema* terminining o'zi ishlataladi. Ayni vaqtida "qo'shimcha (umumlashma, affiksal, grammatic) morfema" tarzidagi izohlardan faqat "grammatic" izohining o'zi yetarli bo'ladi.

Morfemani "affiksal" deb izohlash — tor: morfemaning boshqa turlari qamrab olinmaydi (Bular to'g'risida quyiroqda gapiriladi). Morfemaga ("qo'shimcha morfema" "ga") "umumlashma" izohining keltirilishi ham noo'rin: Bu belgi barcha til birliklariga xos. Xullas, morfemani til qurilishining grammatic ma'no ifodalaydigan eng kichik segment birligi deb ta'riflash yetarli.

### **Morfemalarning tabiatiga ko'ra tasnifi**

3- §. Morfemalarni tabiatiga ko'ra affiks, affiksoid, leksik tabiatli morfema deb uch turga ajratish mumkin. Affiks — biror qismga, jumladan leksemaga zinch qo'shib ishlataladigan morfema (< lot. *affixus* — 'biriktirilgan'). Masalan, *keldim* birligi tarkibida qatnashayotgan -*di*, -*m* morfemalari affiksiga teng, chunki -*di* qismi *kel-* qismiga, -*m* qismi *keldi-* qismiga bevosita qo'shiladi. Affiks qo'shiladigan qismiga a s o s deyiladi.

Affikslar leksemaning ketiga yoki oldiga qo'shilib kelishiga qarab suffiks va prefiks deb farqlanadi. Leksemaning (asosning) ketiga qo'shiladigan affiksiga suffiks deyiladi (< lot. *suffixus* — 'tirkalgan'). Yuqorida keltirilgan -*di*, -*m* affikslari — suffikslar. O'zbek tilidagi affikslar — suffiks tabiatli.

Leksemaning (asosning) oldiga qo'shilib keladigan affiksiga prefiks deyiladi (lot. *praefixum* < *prae* — 'oldindagi', *fixus* — 'biriktirilgan'). O'zbek tili morfemalari tizimiga prefiks xos emas; lekin tojik tilidan olingan leksemalar tarkibida kirib kelib, keyinchalik o'zbekcha leksemalarga ham qo'shib ishl-

tila boshlagan ayrim prefikslar mavjud: *be-*, (*beish-* kabi), *ser-* (*serunum-* kabi).

4- §. Affiksoid deb asli leksik birlik bo'lib, keyinchalik xuddi affiks kabi grammatic ma'no ifodalashga xizmat qilib, affiks kabi bir necha leksemalarga qo'shib kelish xususiyatiga ega bo'lgan birlikka aytildi (lot. *affixoid* – 'affiksga o'xshash'). Masalan, lug'atimizda *xona-* leksemasi mavjud (*katta xona-kabi*), shu bilan birga *-xona* affiksoidi ham mavjud (*ishxona-, oshxona-, choyxona-* kabi); *noma-* leksemasi ham (*vassalom, noma tamom* kabi), *-noma* affiksoidi ham (*taklifnoma-, aybnoma-, ruxsatnoma-* kabi) mavjud.

Tojik tilidan olingan leksemalar tarkibida tilimizga kirib kelib, keyinchalik o'zbekcha so'zlarga ham qo'shilish xususiyatiga ega bo'lgan, asli tojikcha fe'lning asosiga (ko'pincha hozirgi zamon asosiga) teng birliklar ham o'zbek tili nuqtayi nazaridan affiksoidga tenglashtiriladi. Masalan, *aybdor-, bo'ydor-, yag'rindor-* kabi leksemalar tarkibida qatnashadigan *-dor* qismi asli tojikcha *doshtan* ('ega bo'l-') fe'lining hozirgi zamon asosiga teng. Tojik tilshunosligida bunday qism qatnashadigan leksema tuzma leksema deyiladi, demak, bunday qism leksemaga tenglashtiriladi; o'zbek tilshunosligida esa affiksga o'xhatilib affiksoid deb qaraladi. Affiksoidlar leksema yasovchilik vazifasini bajaradi.

5- §. Leksik tabiatli morfema affiksdan (shuningdek affiksoiddan ham) keskin farq qiladi: o'zi taalluqli leksemaga zikh qo'shilmaydi, balki ayrimligi saqlanadi, leksemaga o'xhashlik belgisi shu xususiyatida namoyon bo'ladi. Lekin grammatic ma'no ifodalashiga ko'ra affiksga tenglashadi. Tashqi jihat (leksemaga zikh qo'shilmasligi) emas, mazmun jihat (grammatic ma'no ifodalashi) asosida bunday birlikni leksik tabiatli morfema deb nomlash mumkin.

Bunday morfema deb, masalan, ot turkumi doirasida *bilan, uchun* kabi ko'makchilarga, sifat va ravish turkumlari doirasida *eng, juda* kabi kuchaytiruv birliklariga, fe'l turkumi doirasida *-ber-, -ol-, -bo'l-* kabi ko'makchi fe'l-larga aytildi.

Morfema-affikslar, morfema-affiksoidlar, leksik tabiatli morfemalar darslikning keyingi qismlarida turkumlar bo'yicha ta'kidlanadi.

6- §. Affiks bilan hosil qilinadigan grammatic shakl sintetik shakl deyiladi: *kel+di+m, kel+a+man* kabi. Bunda affiks asosga to'g'ridan to'g'ri qo'shiladi: *kel-* asosiga *-di* affiksi, *keldi-* asosiga *-m* affiksi qo'shilishi kabi.

Leksik tabiatli morfema bilan hosil qilinadigan grammatic shakl analitik shakl deyiladi: *kel+a+qol-, ish+dan+keyin* kabi. Bu yerda grammatic ma'no ifodalaydigan vosita leksik tabiatli morfema bo'lgani uchun asosga odatda to'g'ridan to'g'ri qo'shilmaydi, balki ma'lum bir grammatic shakl hosil qiluvchi orqali qo'shiladi: Yuqoridagi misollarda *-qol-* ko'makchi fe'l'i *kel-* asosiga

-a ravishdosh shakli yasovchisi orqali, *keyin* ko'makchisi *ish-* asosiga -dan kelishik shakli orqali qo'shilgani kabi.

Ayrim adabiyotlarda grammatic ma'noning *kela gol-* tarzida ifodalanishi analitik-sintetik (sintetik-analitik) shakl deb ajratiladi. Vaholanki bu yerda grammatic ma'no ko'makchi fe'lning o'zi bilan ifodalanadi; ko'makchi fe'l leksemalik xususiyatini qisman saqlagani sababli asosga emas, balki grammatic shakllangan birlikka — leksemashaklga teng birlikka qo'shiladi: *kela gol-* qurilmasida *kela* qismi fe'lning ravishdosh leksemashakliga teng. Xuddi shunday xususiyat ko'makchilarda ham saqlangan: *keyin* ko'makchisi o'zi qo'shiladigan qismning chiqish kelishigidagi leksemashaklga teng bo'lishini talab qiladi.

*Ish bilan* qurilmasida ham ko'makchi *ish-* asosiga emas, balki "leksema + birlik + bosh kelishik" tuzilishli leksemashaklga qo'shiladi; demak, bu yerda leksik tabiatli morfema asosga emas, balki ma'lum bir grammatic shakl hosil etuvchi morfema olgan qismga qo'shiladi. Ko'rindiki, *ishdan keyin* bilan *ish bilan* qurilmalari analitik shakl sifatida bir xil.

*Kelayotir, keladigan* kabi qurilmalar alohida izoh talab qiladi. Bular — *-yotir, -digan* affiksleri bilan hosil qilingan sintetik grammatic shakllar. Bunday affiksning boshqa affikslardan farqi shuki, fe'l asosiga -a/-y ravishdosh shakli orqali qo'shiladi. Chunki *-yotir* affiksi asli *yot-* fe'lining sifatdosh shakliga teng bo'lib, affiksga aylanganidan keyin ham leksemalik (ko'makchi fe'llik) xususiyatini bir nuqtada — o'zi qo'shiladigan qismning ravishdosh shaklida bo'lishini talab qilishida saqlab qolgan. Xuddi shunday xususiyat *-digan* affiksida ham saqlangan: Bu affiks *tur-* ko'makchi fe'lining -gan sifatdosh shakli asosida yuzaga kelgan.

Yuqoridagi izohlar *-yotib* affiksiga ham taalluqli. Hozirgi adabiy o'zbek tilida bu affiksning jiddiy tovush o'zgarishlariga uchragan *-yap* talaffuz shakli ko'p ishlataladi. Hozir mustaqil affiks deb qaraladigan *-yap* affiksi, xuddi *-yotib* affiksi kabi, asosga -a/-y ravishdosh yasovchisi orqali qo'shiladi: *kel+a+yotib+di* → *kel+a+yap+di* kabi.

Xullas, affiksning asosga to'g'ridan to'g'ri qo'shilishi qoidasidan bu affikslarda chetga chiqilishining o'z izohi bor.

### Morfemalarning vazifasiga ko'ra tasnifi

7- §. Morfemalar bajaradigan vazifasiga ko'ra dastlab leksema yasovchilar va shakl hosil qiluvchilar deb ikkiga guruhanadi.

Leksema yasovchi morfemaning vazifasi — mavjud leksemaga qo'shilib yangi leksema yasash, shu yo'l bilan tilning leksik qatlamiga yangi birlik qo'shish. Bunday usul bilan hosil qilingan leksemaga yasama leksema deyi-

ladi. Masalan, *ishchi-*, *ishia-*, *ishchan-* leksemalari — *-chi*, *-la*, *-chan* affiks-lari bilan hosil qilingan yasama leksemalar.

Shakl hosil qiluvchi morfemalarning vazifasi — mavjud leksemaga qo'shilib, uning turli grammatik shakllarini hosil qilish. Shakl hosil qiluvchi morfemalar o'z navbatida ikki xil: shakl yasovchilar va shakl o'zgartiruvchilar.

Shakl yasovchilar leksemaga boshqa bir leksema bilan sintaktik bog'lanish tufayli emas, balki obyektiv voqelikka ko'ra ma'lum grammatik ma'noni ifodalash talabi bilan qo'shiladi. Masalan, ot leksemaga grammatik son ma'nosini ('ko'plik' ma'nosini) ifodalovchi *-lar* morfemasi obyektiv voqelikka (predmetning ko'p ekanligiga) ko'ra qo'shiladi. Shakl yasovchi morfemalar keyinroq har bir turkum bayonida tasvirlanadi.

Shakl o'zgartiruvchi morfema leksemaga boshqa bir leksema bilan bog'lanish tufayli qo'shiladi va o'sha leksemaning tabiatiga ko'ra tanlab qo'shiladi. Masalan, tushum kelishigi morfemasi *-ni* ot leksemaga o'timli fe'l leksema bilan bog'lanish tufayli qo'shiladi.

Shakl o'zgartiruvchi morfema sintaktik vazifa bajaradi deyish qismaningina to'g'ri. Masalan, kelishik morfemasi sintaktik vazifa tufayli qo'shiladi, sintaktik vazifa ko'rsatkichi hisoblanadi. Nisbatlovchi (egalik qo'shimchasi) ham shakl o'zgartiruvchi, lekin sintaktik vazifa ko'rsatkichi emas.

Demak, shakl o'zgartiruvchi morfema shakl yasovchi morfemadan sintaktik vazifa bajarishi asosida farqlanadi deyish to'g'ri bo'lmaydi. Shakl o'zgartiruvchi uchun biror leksemaga boshqa leksema bilan sintaktik bog'lanish tufayli qo'shilishini va o'sha bog'lanayotgan leksemaning tabiatiga ko'ra tanlab qo'shilishini asosiy belgi deb ta'kidlash ma'qul.

## MORFEMANING IFODA JIHATI

1- §. Morfemaning ifoda jihatini deb birinchi galda uning qaysi fone-ma(lar) bilan ifodalanishi tushuniladi. Morfemalar tuzilishi jihatidan sodda va qo'shma bo'ladi. Sodda morfemalarda-gina ifoda jihatini deb to'g'ridan to'g'ri fonema ko'rsatiladi. Masalan, *keldim* birligi tarkibida qatnashayotgan *-di*, *-m* sodda morfemalarining ifoda jihatini bo'lib *d*, *i*, *m* fonemalari xizmat qiladi; *di* tovushlarining shunday tizmasiga ma'lum mazmunning (bu yerda — 'aniq yaqin o'tgan zamon' ma'nosining) birkitilishi bilan *-di* morfemasi, *m* tovushiga 'I shaxs birlik' ma'nosining birkitilishi bilan *-m* morfemasi yuzaga kel-gan. Til tovushi morfemaning (til birligining) ifoda jihatini sifatida fonema mavqeiga ega bo'ladi. Morfemalarning ifoda jihatini odatda affiks morfemalar asosida tasvirlanadi.

Affikslarning ifoda jihatı bo'lib yakka fonema yoki bir necha fonemaning tizması xizmat qiladi. Ifoda jihatı yakka fonemaga teng affiks ovoz tovush bilan yoki ovoz tovushdan boshqa tur tovush bilan ifodalanadi.

Hozirgi adabiy o'zbek tilidagi olti ovoz tovushdan affiksning ifoda jihatı bo'lib *a*, *i* fonemalari xizmat qiladi. Bunday cheklanish affikslarning qadimgi turkiy til taraqqiyotining ilk davridayoq shakllanib bo'lgani bilan izohlanadi. Eng qadimgi ovoz tovushlar qattiq *a*, *i*, *u*, *o* tovushlari bo'lib, o'sha davrlarda affikslarning ifoda jihatı sifatida *a* tovushi (va uning yumshoq *a* ko'rinishi), *i* tovushi (va uning yumshoq *i* ko'rinishi), qismangina *u* tovushi (va uning yumshoq *u* ko'rinishi) xizmat qilgan. Keyinchalik *u* (*ü*) ifodasiga ega affiks *i* (*ü*) ifodasiga aylangan. Qattiq-yumshoq zidlanish o'z kuchini yo'qtgan adabiy o'zbek tilida indifferent (qattiq-yumshoqlik jihatidan betaraf) *a*, *i* ovoz tovushlarining o'zi affikslarning ifoda jihatı vazifasini bajara boshlagan.

Yakka ovoz tovush ifoda jihatı bo'lgan affikslar tarixan (qadimgi turkiy tilda) anchagina bo'lib, hozirgi adabiy o'zbek tiliga shularning bir qismi yetib kelgan. Bunday affikslar leksema yasovchilar orasida ham, shakl hosil qiluvchilar orasida ham mavjud. Masalan, hozirgi adabiy o'zbek tilida ifoda jihatı *a* fonemaga teng ot leksema yasovchi (*do'mbir+a* kabi), fe'l leksema yasovchi (*bo'sh+a-* kabi), fe'lning zamon shaklini yasovchi (*kel+a+man* kabi) affikslar mavjud va b.

Olti ovoz dor *y*, *l*, *r*, *m*, *n*, *ŋ* tovushlari qadimgi turkiy tilda ham affiksning ifoda jihatı bo'lib xizmat qilgan, hozirgi adabiy o'zbek tilida ham xizmat qiladi; farqi shuki, bunday ifoda jihatiga ega affikslar qadimgi turkiy tilda hozirgi adabiy o'zbek tilidagidan ko'ra boy va rang-barang bo'lgan.

Sakkiz ovozli tovushdan affiksning ifoda jihatı bo'lib qadimgi turkiy tilda besh tovush (*b*, *v*, *g*, *z*, *g'*) xizmat qilgan, hozirgi o'zbek tilida esa to'rt (*b*, *v*, *z*, *g'*) tovush xizmat qiladi; qadimgi turkiy *g* tovushi (fonemasi) bilan ifodalanish hozirgi o'zbek tilida asosan *k* fonemasi bilan ifodalanishga al-mashgan: *ti:r+ig* (Devon, I, 367) → *tirig* > *tirik* kabi. Demak, qadimgi turkiy tilning ilk taraqqiyot bosqichida -*g*, -*k* bir affiksning ikki ko'rinishi sifatida ishlataligan, keyinchalik -*k* ko'rinishi saqlanib, -*g* ko'rinishi istemoldan chiqib ketgan.

Qadimgi turkiy tilda 'o'rın' ma'nosini ifodalovchi -*t* affiksi (*üs+t* > *ust* kabi) -*d* allomorfemasiga ega bo'lgan (*al+d* > *old* kabi), bu allomorfema shu leksema tarkibida hozirgi o'zbek tiliga yetib kelgan, lekin bu morfema hozir mustaqil morfema sifatida ajratilmaydi, shunga ko'ra hozirgi o'zbek tilida *d* tovushi morfemaning ifoda jihatı sifatida uchramaydi.

Affiksning ifoda jihatı sifatida ç tovushidan foydalanimagan. Bunga ushbu tovushning murakkab tarkibli ekani sabab bo'lgan deyishga asos yo'q, chunki bu tovushning shovqin tovush eshidan — tarkibi murakkab *ch*

tovushidan morfemaning ifoda jihatasi sifatida foydalanylган (*tin+ch* каби) Balki *ç* tovushi boshqa ovozli tovushlardan (shuningdek qorishiq *ch* tovushi dan ham) ancha keyin yuzaga kelgандир.

Ovozli sirg‘aluvchi *j* tovushining affiksga ifoda jihatasi bo‘lib kelmasligi tabiiy: bu tovush asli turkiy (o‘zbekcha) tovush emas, o‘zbek tiliga fors tili dan o‘zlashgan bir necha leksema tarkibida kirib kelgan.

O‘nta shovqin tovushdan affiksning ifoda jihatasi bo‘lib qadimgi turkiy tilda ham, hozirgi o‘zbek tilida ham asosan besh tovush (*k, t, ch, sh, q*), affikslarning ikkilamchi allomorfemasi tarkibida ikki tovush – *s* tovushi (*kelar* – *kelmas* каби) va *p* tovushi (*kelib* – *kelip*) xizmat qiladi.

Shovqin tovushlardan *f* tovushi qadimgi turkiy tilda bo‘lmagan, shunga ko‘ra bu tovush bilan ifodalangan affiks ham o‘z-o‘zidan yo‘q. Asli *h* tovushi to‘g‘risida ham shu fikrni aytish mumkin. Faqat *x* tovushidan affiksning ifoda jihatasi sifatida foydalilmaganini izohlash qiyin.

2- §. Shu o‘rinda orttirma tovush masalasiga aniqlik kiritish kerak. Agar affiksning ifoda jihatasi ovoz tovushga teng bo‘lsa, boshqa tur tovush bilan tugagan asosga to‘g‘ridan to‘g‘ri qo‘shilaveradi: *bosh + i* каби; asos ham ovoz tovush bilan tugagan bo‘lsa, orada *s* tovushi orttiriladi: *ota + si* каби, *ba’zan-gina y* tovushi orttiriladi: *fido+yi* каби. Affiks ovoz tovushdan boshqa tur tovush bilan ifodalangan bo‘lsa, ikki xil qo‘shiladi: 1) ovoz tovush bilan tugagan asosga to‘g‘ridan to‘g‘ri qo‘shiladi: *qatla+m* каби; 2) boshqa tovush bilan tugagan asosga to‘g‘ridan to‘g‘ri qo‘shila olmaydi, asos bilan affiks oralig‘iga ovoz tovush orttiriladi: *chiq+im* каби.

Bunday orttirma tovush affiksning ifoda jihatasi tarkibiga kirmaydi, shunga ko‘ra yuqorida misollarda qatnashayotgan -*i* va -*si*, -*i* va -*yi*, -*m* va -*im* o‘zaro affiksning ikki ko‘rinishiga teng deb bo‘lmaydi.

Orttirma tovush bo‘lib ko‘pincha *i* tovushi, lab ohangdorligi saqlangan o‘rinlarda *u* tovushi (*uy+um* каби), *ba’zangina s, y, a* tovushi (*tut+am* каби) keladi.

Eslatma. Leksemaga qo‘shilishi mobaynida morfema tarkibida (ham leksema, ham morfema tarkibida) voqe bo‘ladigan tovush jarayonlari o‘z o‘rnida tasvirlanadi.

3- §. Qo‘shma affikslarning ifoda jihatasi deb avval tarkibidagi tub affiks lar ajratiladi, keyin-gina bunday qismlarning ifoda jihatasi deb fonemalar ko‘rsatiladi. Masalan, -*dagi* affiksi asli -*da*, -*gi* morfemalarining o‘zaro qo‘shilib, bir butun holda qo‘shma affiksga aylanishi bilan yuzaga kelgan; demak, -*dagi* affiksi tarkibida ifoda jihatasi deb avval -*da* va -*gi* morfemalari ajratiladi, keyin-gina bu qismlarning ifoda jihatasi deb ular tarkibidagi to‘rt fonema ta‘kidlanadi.

Qo'shma affikslar asosan mavhum ot leksema yasovchi affikslarga to'g'ri keladi: *-chilik* (*dehqonchilik-*, *mo'chilik-* kabi), *-garchilik* (*yog'ingarchilik-*, *ovoragarchilik-* kabi); shakl hosil qiladigan affikslar orasida ham mavjud: *-dagi* (*yugoridagi*, *uydagi* kabi) va b.

Hozirgi adabiy o'zbek tilidagi *-lan*, *-lash* affikslari ham — qo'shma affiks, lekin o'z tabiatini bilan yuqoridagi affikslardan farq qiladi. Qo'shma *-chilik*, *-garchilik* kabi affiksni tarkib toptiruvchi *-chi*, *-gar*, *-lik* qisimlaridan har biri asli leksema yasovchi affiksga teng, qo'shma affiks sifatida ham leksema yasovchiga teng; *-dagi* affiksini tarkib toptiruvchi birinchi qism (*-da*) shakl o'zgartiruvchiga, ikkinchi qism esa nisbiy sifat yasovchiga teng. Asli *-gi* affiksini leksema yasovchidan ko'ra shakl yasovchi deb baholash to'g'riroq. Shunday nuqtayi nazardan turib bu qo'shma affiks tarkibidagi har ikki qismni va bir butun holda qo'shma affiksni ham shakl hosil qiluvchi deb qarash mumkin.

Yuqoridagi qo'shma affikslardan farqli holda *-lan*, *-lash* qo'shma affikslarining birinchi qismi leksema yasovchiga, ikkinchi qismi shakl yasovchiga teng. Bu affikslar bir butun holda leksema yasovchi deb qaraladi, lekin ayni vaqtida ular tarkibidagi shakl yasovchi o'z ma'nosini, demak, vazifasini yo'qotmaydi. Qiyos qiling: *-la* affiksi fe'l leksema yasaydi (*o'ngla-*, *yaqinla-* kabi), *-n*, *-sh* — shakl yasaydi: *o'ngla+n-*, *yaqinla+sh-* kabi; *-lan*, *-lash* affikslari tarkibidagi *-la*, *-n*, *-sh* qismlari ham xuddi shunday vazifani saqlaydi: *g'urur+lan-*, *og'ir+lash-* kabi. Ko'rinaridiki, *-lan*, *-lash* — sof leksema yasovchi affiks emas, balki ayni vaqtida ham leksema yasovchi, ham shakl yasovchi vazifasini bajaradigan affiks.

### Omomorfemalar

4- §. Ifoda jihatini teng morfemalarga (affikslarga) omomorfemalar (omo-affikslar) deyiladi. Ifoda jihatini yakka fonemaga teng omoaffikslar qadimgi turkiy tilning ilk taraqqiyot bosqichidayoq yuzaga kelgan bo'lib, bunday ko'p sonli omoaffikslarning asosiy qismi hozirgi o'zbek tiliga yetib kelgan.

Qadimgi turkiy tilda leksemalarni o'zaro farqlashga xizmat qiladigan qattiq *a* fonemasi va yumshoq *ä* fonemasi, shuningdek qattiq *o* fonemasi va yumshoq *ö* fonemasi mavjud bo'lgan. Masalan, hozirgi o'zbek tilidagi *bo'la*-I ('xolavachcha') leksemasi asli *bola* fonemalar tizimiga, *bo'la*-II ('durkun') leksemasi esa *bola* fonemalar tizimiga ega bo'lgan. Bu misollarda *o* va *ö*, *a* va *ä* boshqa-boshqa fonemaga teng.

Omoaffikslarda manzara boshqacha: qattiq *a* va yumshoq *ä* bir fone-maning ikki ko'rinishiga teng holatda bo'ladi. Qattiq ovoz tovush qatnashgan asosga ushbu affiksning *-a* ko'rinishi, yumshoq *o*voz tovush qatnashgan

asosga esa -a ko'rinishi qo'shilgan: *qan+a = qana-* > *qâna-*, *til+a = tilâ-* > *tila-* kabi. Boshqa ovoz tovushlarda ham xuddi shunday.

Yakka fonema bilan ifodalangan omoaffikslarni o'zaro farqlash leksema yasovchilarda qiyin emas, chunki bunday omoaffikslardan har biri bir turkum leksemasidan boshqa bir turkum leksemasini yasaydi. Masalan, ifoda jihatı a fonemasiga teng omoaffikslar:

1) fe'l leksema yasaydi: a) ot leksemadan yasaydi: *qon+a = qona-* kabi, b) sifat leksemadan yasaydi: *bo'sh+a = bo'sha-*, v) tasvir birligidan yasaydi: *shildir+a = shildira-* kabi;

2) fe'l leksemadan ot leksema yasaydi: *taq- + a = taqa-* kabi;

3) sifat leksema yasaydi: a) fe'l leksemadan yasaydi: *chaq- + a = chaqa-*, b) ot leksemadan yasaydi: *chek+a = cheka* > *chekka-* kabi;

4) ravish leksema yasaydi: a) fe'l leksemadan yasaydi: *qo'sh+a = qo'sha-* kabi, b) tasvir birligidan yasaydi: *shart+a = sharta* > *shartta-* kabi. Bu yerda omonimlik leksema yasovchi affikslar orasida voqe bo'lgan.

Bunday omoaffikslik holati shakl yasovchi morfemalar orasida ham mavjud. Masalan, ifoda jihatı a fonemasiga teng omoaffikslar bilan fe'l leksemaning quyidagi shakllari yasaladi:

1) ravishdosh shakli yasaladi: *kel+a = kela* (*Kela* ishga tushib ketdi kabi);

2) zamon shakli yasaladi: *kel+a+di* kabi;

3) 'kuchaytiruv' ma'nosini ifodalaydigan shakl yasaladi: *urun- + a = uruna-* > *urna-* kabi;

4) 'takror' ma'nosini ifodalaydigan shakl yasaladi: *bur-+a = bura-* kabi.

Bir turkum leksemasining bunday to'rt shaklini yasovchi affikslarni o'zaro ajratish qiyin emas. Ifoda jihatı ayni bir fonemaga teng leksema yasovchi affiks bilan shakl yasovchi affiks esa yaqqol farqlanadi.

Ifoda jihatı i fonemasiga teng omoaffikslar orasida, leksema yasovchi va shakl yasovchi affikslardan tashqari, shakl o'zgartiruvchi affiks — III shaxs nisbatlovchisi ham bor: *ish+i = ishi-* kabi.

Omoaffikslar orasida ifoda jihatı yakka shovqin tovushga, ovozli tovushga, ovoz dor tovushga, shuningdek ikki, uch fonemaning tizmasiga teng affikslar ham anchagini.

5- §. Omoaffikslarning yuzaga kelishi turkiy tilning ilk taraqqiyot bosqichida voqe bo'lgan. Omoaffikslarning yuzaga kelishi omoleksemalarning yuzaga kelishidan keskin farq qiladi. Masalan, yakka ovoz tovush affiksning ifoda jihatı sifatida tanlanib, unga leksema yasash vazifasi ham, shakl hosil qilish vazifasi ham yuklangan. Bunday hodisa yuqorida tasvirlangan -a omoaffikslarida yaqqol o'z aksini topgan. Ko'rindiki, qadimgi turkiy tilda

affikslarga vazifa jihatidan sinkretiklik xos bo'lgan: ayni bir affiks bir necha vazifani bajarishga xizmat qildirilgan. Demak, bu yerda omomorfemalik holati qadimgi turkiy tildagi sinkretiklik holati asosida yuzaga kelgan deyish lozim. Bu ayniqsa bir affiks yordamida har xil turkum leksemasing yasalishida ochiq ko'rindi: ayni bir fonema bilan ifodalangan affiks ot leksemadan fe'l leksema va, aksincha, fe'l leksemadan ot leksema yasashga xizmat qildirilgan.

O'zbek tili taraqqiyotining keyingi bosqichlaridagina mazmun jihatining, vazifasining o'zgarishi oqibatida bir affiks asosida boshqa bir affiks ajralib chiqib, omoaffikslik holati yuzaga kelgan. Masalan, ot leksemalarda ko'plik shaklini yasovchi *-lar* affiksidan (*uy-* – *uylar-* kabi) nisbatlovchi, tuslovchi affiks tarkibida foydalanilib, modal ma'noni ('sizlash', 'senlash' ma'nolarini) ifodalashga erishilgan, 'sizlash' modal ma'nosini asosida 'hurmat' ma'nosini ifodalovchi *-lar* affiksi o'sib chiqqan. 'Hurmat' ma'nosini ifodalovchi bu affiks ot leksemashakl tarkibida nisbatlovchi affiksdan keyin, kelishik shaklidan oldin joylashgan: *opa + lar + im + ni* (*-lar* – 'ko'plik' ifodalovchi shakl) – *opa + m + lar + ni(-lar* – 'hurmat' ma'nosini ifodalovchi shakl) kabi. Ko'rindan, bu yerda ifoda jihatni o'zgarishsiz saqlangan, mazmun jihatida va vazifada jiddiy o'zgarish voqe bo'lgan, natijada bir affiksdan boshqa bir affiks o'sib chiqqan, omoaffikslik holati yuzaga kelgan.

## MORFEMALARING MAZMUN JIHATI

### Grammatik semema va uning semalar tarkibi

1- §. Morfemaning mazmun jihatni deganda bunday birlik ifodalaydigan grammatic ma'no tushuniladi. Quyida morfemalarining mazmun jihatni shakl hosil qiladigan morfemalar asosida bayon qilinadi.

Morfemaning mazmun jihatini xuddi leksemalardagi kabi *semema* deb yuritish, har ikkisini *leksik semema*, *grammatik semema* deb farqlash mumkin. Morfema ifodalaydigan grammatic (morfem) semema tarkibida ajratiladigan ma'no uzvlarini ham *sema* deb atash o'rindi.

Morfem semema tarkibida odatda bir necha sema ajratiladi. Masalan, *-m* affiksi sememasi tarkibida eng keng ko'lamli semadan tor ko'lamli semalarga borib 'til birligi', 'tisoniy birlilik', 'morfema', 'shakl hosil qiluvchi morfema', 'affiks', 'tuslovchi', 'shaxs', 'I shaxs', 'b<sup>il</sup>-lik' semalari ajratiladi; keng ko'lamli umumiyligi semalarni nazardan soqit qilsak, bu morfemaning o'ziga xos semalari deb oxirgi to'rt semani ko'rsatish yetarli.

Affiks sememasi tarkibida ajratiladigan bunday semalarga ideografik sema deyiladi. Bunday sema barcha tur morfemalar sememasi tarkibida mavjud bo'ladi.

Ayrim morfemalar sememasini tarkibida baho semasi ham mavjud. Masalan, *-ngiz* affiksi 'shaxs', 'II shaxs', 'birlik' ideografik semalari tarkibi bilan ishlatilganida baho ('sizlash') semasi ham qatnashadi: *kitobingiz* (=‘sening kitobing’ + ‘sizlash’ kabi). Xuddi shu affiks 'shaxs', 'II shaxs', 'ko‘plik' ideografik semalari tarkibi bilan ishlatilganida baho semasi betaraf bo‘ladi: *kitobingiz* (=‘sizlarning kitobingiz’ kabi).

Baho semasi ayrim tur morfem sememasini tarkibida mavjud bo‘lmaydi. Masalan, kelishik shaklini hosil qiladigan morfemalar sememasini tarkibida baho semasi yo‘q.

Demak, morfema sememasini tarkibiga xos deb ideografik semani va baho semasini ta‘kidlash to‘g‘ri, lekin baho semasi, birinchidan, umuman qatnashmasligi, ikkinchidan, betaraf ifodalanishi mumkinligi hisobga olinishi kerak. Baho semasining betaraf ifodalanishi musbat ifodalanishiga zid qo‘yib belgilanadi. Masalan, *-ngiz* affiksida bo‘lgani kabi.

### Morfemalarda ma‘no sinkretizmi

2- §. Agglutinativ til bo‘lganligi uchun o‘zbek tilida har bir grammatik ma‘no ayrim-ayrim morfema bilan ifodalashadi (< lot. *agglutinare* – ‘yelimalash’). Masalan, ot leksemalarda grammatik son ma‘nosini, kelishik ma‘nosini ifodalash uchun alohida-alohida morfema qo‘shiladi: *kitob+lar+ni* kabi. Bunda har bir morfema bir grammatik ma‘noni ifodalaydi.

Ayrim morfema-affikslar bir-biridan ajratib bo‘lmaydigan ikki grammatik ma‘noni ifodalashga xizmat qiladi. Masalan, buyruq-istik mayliga xoslangan *-ng* tuslovchisi ayni vaqtida shaxs ('II shaxs') va son ('birlik') ma‘nolarini ifodalaydi, hozirgi o‘zbek tilida ushbu affiks tarkibini shaxs va son ma‘nolarini ifodalovchi qismlarga ajratib bo‘lmaydi. Ana shunday affiksga nisbatan ma‘no sinkretizmi haqida gapiriladi (< yunoncha *synkretismus* – ‘birlashtirish’). Bunday hodisa hozirgi o‘zbek tilida, masalan, nisbatlovchi (egalik), tuslovchi (shaxs-son) affikslarida mavjud.

Asli I, III shaxsning *-(a)yin*, *-sin* affikslarini qiyoslasak, oxiridagi *n* qismi mushtarak ekanini ko‘ramiz. Tarixan bu affikslarda grammatik son ('birlik') ma‘nosi *-n* affiksi bilan ifodalangani ko‘rinadi; demak, bu yerda sinkretiklik azaliy emas, balki ikki ma‘noli qismning bir affiksga birlashib ketishi oqibatida yuzaga kelgan. I shaxsning *-(a)y* – *-(a)ylik* affikslarini qiyoslasak, *-(a)y* affiksi faqat shaxs ma‘nosini ifodalashi, 'birlik' ma‘nosi esa *-(a)ylik* affiksiga (*-lik* qismiga) zidlash natijasida belgilanishi ochiq ko‘rinadi.

Sinkretik holatdan agglutinativ holatga o‘tish II shaxs nisbatlovchilarida ayniqsa kuchli. I shaxsning *-miz-* morfemasi tarkibidagi *-(i)z* qismini 'ko‘plik' ma‘nosini ifodalaydigan morfema sifatida ajratish qiyin; lekin II shaxsning

-ngiz- morfemasi tarkibidagi bunday qismni bermalol ajratish mumkin, chunki bu shaxsning -nglar-, -laring- ko'rsatkichlari -ngiz- ko'rsatkichi tarkibidagi -(i)z qismini almashtirish bilan hosil qilingan; natijada I shaxsning -miz- morfemasi tarkibidagi -(i)z qismi ham ajraluvchi morfema ekani ochiq ko'riniq qolgan. Har holda, I shaxsning -miz- morfemasiga nisbatan hozirgi o'zbek tili nuqtayi nazaridan ma'no sinkretizmi haqida gapirish mumkin-u, lekin II shaxsning -ngiz-, -nglar-, -laring- ko'rsatkichlariga nisbatan ma'no sinkretizmi haqida gapirib bo'lmaydi.

Xullas, o'zbek tili morfemalariga nisbatan ma'no sinkretizmi haqida hozirgi o'zbek tili nuqtayi nazaridan yondashib, shunda ham juda cheklangan hollarga nisbatan-gina gapirish mumkin.

### Morfemalarda ko'pma'nolilik (polisememiya)

3- §. Morfemalar asosan bir ma'no ifodalaydi, monosemem bo'ladi (yunoncha *monos* — 'bir', 'yakka'). Masalan, -ni kelishik affksi 'o'zi qo'shilgan leksema anglatadigan predmet (keng ma'noda) o'timli fe'l anglatadigan harakat qaratilgan obyekt' ekanini ko'rsatadi: *kitobni o'qi-* kabi; -di zamon yasovchisi 'aniq yaqin o'tgan zamon' ma'nosini ifodalaydi: *Kitobni o'qidi* kabi.

Ko'pma'nolilik (polisememiya) — ayrim morfemalarga-gina xos xususiyat (yunoncha *poly* — 'ko'p'). Masalan, hozirgi o'zbek tilida -(i)ngiz- affksi ikki ma'noni ifodalashga xizmat qiladi: 1) 'ko'plik' ma'nosini ifodalaydi (Bunda 'shaxs' semasi saqlanadi, baho semasi betaraf bo'ladi): *kitobingiz (sizlarning)* kabi; 2) 'birlik' ma'nosini ifodalaydi (Bunda 'shaxs' semasi saqlanadi, 'sizlash' baho semasi qatnashadi): *kitobingiz (Sizning)* kabi. Demak, 'shaxs' semasi saqlanadi, 'son' semasi o'zgaradi ('ko'plik' → 'birlik'), shu bilan birga baho semasi ('sizlash') yuzaga qalqiydi, natijada bir morfema ikki grammatik ma'noni ifodalashga xizmat qiladi.

Shunga o'xshash hodisa tuslovchilarda ham mavjud. Masalan, -(i)ngiz tuslovchisi bilan 'II shaxs' semasi saqlangani holda: 1) 'ko'plik' ifodalanadi (baho semasi betaraf bo'ladi): *keldingiz (sizlar)* kabi; 2) 'birlik' ma'nosи 'sizlash' baho semasi bilan birgalikda ifodalanadi: *keldingiz (Siz)* kabi.

Ayrim adabiyotlarda *ukamga* (kimga?), *mehnatga* (nimaga?), *ishxonaga* (qayerga?), *peshinga* (qachonga?) kabi misollar asosida jo'naliш kelishigi affksi harakat yo'naltirilgan predmet, o'rin, payt ma'nolarini ifodalashi haqida gapirilar edi; hozir bunday (o'rin, payt kabi) ma'nolar kelishik affiksining ma'nolari emas, balki u qo'shiladigan leksemadan anglashiladigan ma'no ekanligi ta'kidlanadigan bo'lди.

Ko'pma'nolilik hodisasini ko'pvazifalilik hodisasidan farqlash kerak. Masalan, tushum kelishigi — bir vazifali; lekin bosh kelishik — ko'p vazifali; bu kelishikdagi leksema: 1) ega vazifasida, 2) izohlovchi vazifasida va boshqa vazifalarda keladi. Shu asosda bosh kelishikni ko'p ma'noli deb bo'lmaydi.

### Morfemalar orasidagi sinonimik munosabat

4- §. Sinonim bo'lish asosan leksema yasovchi morfemalarga xos. Masalan, *-dosh* affiksi ma'lum leksemalarga 'birgalik' ma'nosi bilan qo'shilganda *ham-* affiksoidiga sinonim bo'ladi: *fikrdosh-* — *hamfikr-*, *suhbatdosh-* — *ham-suhbat-* kabi.

Shakl hosil qiluvchi morfemalarning sinonimik munosabatda bo'lishi juda oz uchraydi. Masalan, rang-tus anglatuvchi sifat leksemalarda 'belgining me'yordagi holatdan oz, kuchsiz' ekanini ifodalovchi *-(i)sh* (*ko'kish-* kabi) va *-(i)mtir* (*ko'kimtir-* kabi) affikslari o'zaro sinonim, chunki bu affikslarda: 1) ifoda jihatni har xil, 2) ayni bir ma'nonai ifodalaydi, 3) ayni bir turkum leksemalariiga qo'shiladi, 4) ma'lum bir shart-sharoitda biri o'mida ikkinchisini ishlatalish mumkin va b. Bu sinonim affikslar orasidagi farq qaysi sifat leksemalarga qo'shilib kela olishida ko'rindi: *ko'kish-* — *ko'kimtir-* tarzida ishlatalish mumkin, lekin *oqish-* deb ishlataladi-yu, *oqimtir-* deb ishlatilmaydi va b.

Sinonim bo'lish talablariga *-tir(-dir)*, *-giz* (*-kiz*, *-qiz*, *-g'iz*) orttirma yasovchilar ham javob beradi: *ayttir-* — *aytkiz-*, *bildir-* — *bilgiz-* kabi. Lekin bu affikslarda ayni bir fe'l leksemaga qo'shilish oz uchraydi, ko'pincha har xil leksemaga (saylab) qo'shiladi: *yondir-* deyiladi-yu, *yongiz-* deyilmaydi va b.

Shakl hosil qiladigan morfemalar orasidagi sinonimik munosabatlar turkumlar, morfem paradigmalar bayonida ayтиб о'tiladi.

## SHAKL HOSIL QILUVCHI MORFEMALARDA PARADIGMATIK MUNOSABATLAR

1- §. Shveysariyalik olim F. de Sossyur til birliklari o'zaro assosiativ munosabatda bo'lishini ta'kidlagan (< lot. *associatio* — 'birlashuv'). Haqiqatda, til birliklari turli belgi-xususiyatlari asosida o'zaro birlashadi, biri ikkinchisini eslatadi, munosabat hosil qiladi. Daniyalik tilshunos L. Yelmslev *assosiativ munosabat* terminini *paradigmatik munosabat* terminiga almashtirdi (< yunoncha *paradeigma* — 'namuna'). Asli assosiativ munosabat termini paradigmatisk munosabat terminidan ko'ra keng tushunchani anglatadi, paradigmatisk munosabat assosiativ munosabatlarning bir ko'rinishiga teng. Til qurilishining tuzum ekanligi paradigmatisk munosabatlarda yaqqol namoyon bo'ladi.

Paradigma deb til birliklarining o'zaro umumiy semasiga ko'ra birlashdigan va farqli semasiga ko'ra zid munosabat hosil etib turadigan tizimiga aytiladi. Morfem paradigma deb shunday hodisaning morfemalardagi ko'rinishiga aytiladi.

Morfem paradigma kamida ikki morfemadan iborat bo'ladi, bu morfemalar o'zaro umumiy (integral) semasi asosida birlashib, farqli (differensial) semasi bilan zidlangan holatda yaxlit bir tuzumni tashkil etadi; leksemashakl tarkibida ayni bir o'rinni (pozitsiyani) egallab, ma'lum talabga ko'ra birini ikkinchisiga almashtirib ishlataladi. Masalan, ot leksemalarga xos grammatik son morfemalari paradigmasi ikki a'zoli: 'ko'plik' ma'nosini ifodalovchi *-lar* morfemasidan va unga zidlanib belgilanadigan 'birlik' ma'nosini ifodalovchi morfemadan iborat. Bu yerda 'birlik' ma'nosini ifodalovchi morfema fonema ifodasiga ega emas, shunga ko'ra nol ko'rsatkichli morfema deyiladi, Ø ramzi bilan ko'rsatiladi: *-Ø ↔ -lar*.

Shakl hosil qiluvchi morfemalarda turli-tuman paradigmalar mavjud; bular turkumlar bo'yicha xoslangan bo'ladi. Shunga ko'ra morfem paradigmalarni tasvirlashdan oldin lug'at birliklarining turkumlanishi bilan tanishish lozim.

### LUG'AT BIRLIKLARINING TURKUMLANISHI

2- §. *So'z turkumi* termini bir vaqtlar lug'at boyligidagi bir qatlammni — leksik birliklarni hisobga olib tuzilgan; keyinchalik lug'at boyligida ikkinchi bir qatlam — frazeologik birliklar ham mavjudligi tan olindi, turkumlanish leksik birliklarga-gina emas, frazeologik birliklarga ham mansubligi aniqlandi.

Demak, lug'at boyligini bir butun holda olib *so'z turkumlari* terminini ishlatib bo'lmaydi, endilikda bu termin tarkibidagi *so'z* qismi voqelikni to'g'ri atamaydigan bo'lib qoldi. Shuning uchun bu tushunchani *lug'at birliklarining turkumlanishi* termini bilan anglatish to'g'riroq. Lug'at birliklari dastlab lug'aviy birliklarga va grammatik birliklarga ajratiladi, lug'aviy birliklar o'z navbatida leksik birliklar va frazeologik birliklar deb guruhlanadi; leksik birliklar o'z doirasida, frazeologik birliklar o'z doirasida turkumlarga ajratiladi.

3- §. Adabiyotlarda leksik birliklar va grammatik birliklar birqalikda *so'z* termini bilan nomlanib, ot, sifat, son, olmosh, fe'l, ravish *so'zlar* mustaqil *so'z turkumlari* deb, ko'makchi, bog'lovchi, yuklama yordamchilar deb guruhlanadi, modal *so'z*, undov, taqlid *so'z* alohida-alohida turkumlar deb ajratiladi.

*So'z* termini adabiyotlarda turlicha mundarija bilan ishlataladi, shu jumladan leksemaning o'z turkumi nuqtayi nazaridan biror sintaktik vazifada kelish darajasida grammatik shakllangan ko'rinishi ham *so'z* deyiladi. Keyingi yillarda bunday mundarija *so'zshakl (slovoforma)* terminiga birkitildi, natijada

grammatik shakllangan leksik birlik *so'z* deb ham, *so'zshakl* deb ham ataladigan bo'ldi. Bunday mundarija *so'zshakl* terminiga (asli *leksemashakl* terminiga) birkilishi to'g'riroq.

4- §. Leksik ma'no anglatadigan birlikni *leksema* deb nomlash qabul qilingan. Shu nuqtayi nazarni davom ettirsak, grammatik ma'no ifodalaydigan birlikni *morfema* deb nomlash tabiiy; lekin aslida grammatik ma'no ifodalaydigan lug'at birliklarini affiks morfemalardan (shuningdek affiksoid morfemalardan) farqlab nomlash lozim. Ana shunday termin sifatida *grammatik turkumlar* terminidan foydalanish mumkin.

Demak, lug'at boyligida dastlab lug'aviy birlik turkumlari guruhi va grammatik birlik turkumlari guruhi ajratiladi. Lug'aviy birlik turkumlari tarkibidagi leksemalar turkumlari guruhiga ot, sifat, son, fe'l, ravish turkumlari kiritiladi. Bular nominativ va signifikativ vazifa bajaradi, birikmaning, gapning bo'lagi bo'lib keladi. Bu turkumlар asli birikma yoki gapning bo'lagi vazifasida kelishiga ko'ra mustaqil turkumlар deb nomlangan.

Ushbu turkumlarni mustaqil deb nomlashda leksik ma'no ham hisobga olingan. Lekin olmosh leksik ma'no anglatmaydi, shunga qaramay mustaqil turkumlар qatoriga kiritiladi. Ko'rindiki, hal qiluvchi belgi — birikmaning, gapning bo'lagi vazifasida kelish.

Mustaqil turkum deb belgilashda ushbu leksemalarda shakl o'zgarishi mavjudligi ham hisobga olinadi, lekin bu belgi mustaqil deb nomlanadigan turkumlarning barchasida mavjud emas: o'zbek tilida sifatga, songa, ravishga o'z turkumi tabiatini saqlab ishlatalganida shakl o'zgarishi xos emas.

Ko'rindiki, mustaqil turkum deb ajratishda asosiy belgi — birikmaning, gapning bo'lagi vazifasida kelish. Mustaqil turkumlik belgisini umumiy tarzda "sintaktik vazifa bajarish" deb izohlash to'g'ri bo'lmaydi, chunki kirish ham (asli *kirish bo'lak* deyish ma'qul) — sintaktik vazifa.

5- §. Lug'at birliklarining qaysi turkumga mansubligi ularning semantik mundarijasidagi turkumlik semasi asosida belgilanadi. Leksemaning turkumlik semasi 'predmet' bo'lsa, bunday leksema ot turkumiga, 'predmetning sifatiy belgisi' bo'lsa, sifat turkumiga, 'predmetning miqdoriy belgisi' bo'lsa, son turkumiga, 'predmetning harakat-holat belgisi' bo'lsa, fe'l turkumiga, 'harakat-holatning belgisi' bo'lsa, ravish turkumiga mansub deyiladi. Leksema qaysi turkumga mansub bo'lsa, shu turkumga xos shakl hosil qiluvchi morfemalarni olib leksemashaklga aylanadi va shu shakliga binoan biror sintaktik vazifada keladi.

Demak, leksemaning qaysi turkumga mansubligi, grammatik tabiatini uning semantik mundarijasi, aniqrog'i — turkumlik semasi asosida belgilanadi.

6- §. Turkumlik semalarining yuqorida ta'riflanishidan ko'rini turib-diki, besh leksik turkum orasida yetakchisi — ot turkumi: sifat, son, fe'l shu

turkum leksemasining belgilarini anglatadi. Fe'l — ikkilamchi yetakchi turkum: ravish shu turkum leksemasining belgisini anglatadi. Demak, leksik turkumlar orasida ot turkumi birinchi darajali, fe'l turkumi esa ikkinchi darajali yetakchi turkum mavqeiga ega.

7- §. Olmosh leksik ma'no anglatmaydi, odatda leksik ma'no anglatadigan leksema o'mida ishlatiladi, shunga ko'ra *olmosh turkumi* deb nomlangan. Bu turkum birlklari odatda leksik turkum birlklari o'miga ishlatiladi, shunga ko'ra leksik turkumlarni olmoshlovchi turkum deyish mumkin.

Olmosh turkumi birlklari semantik va grammatic jihatdan turli-tuman: qaysi turkum birligiga olmosh bo'lsa, o'sha turkum tabiatiga ega bo'ladi. Olmosh deb turkumlash semantik va grammatic belgi asosida emas, balki biror turkum birligi o'mida ishlatilishi asosida amalga oshiriladi. Olmosh turkumi o'zida bir necha turkum xususiyatlarini birlashtiradi.

Ko'rindiki, olmosh turkumini leksik ma'no anglatadigan turkumlar orasida emas, balki ularidan ajratib, ular uchun umumiy turkum sifatida joylashtirish to'g'ri.

8- §. Tasvir birlklari leksemalardan ham, grammatic birlklardan ham farq qiladi: biror tovush yoki ko'rinishning ramziy nomi deb qaraladi; morfemadan ham farq qiladi: shakl hosil etish vazifasini bajarmaydi. Shunga ko'ra tasvir birlklari turkumlar qatorida alohida ko'rsatiladi.

O'zbek tilshunosligida hali yetarli o'rganilmagan *mumkin*, *kerak*, *kisoya*, *iborat* kabi leksemalar alohida turkum — kesimlik leksemalari turkumi sifatida ajratilishi va nomlovchi turkumlar qatoridan o'rinn olishi kerak.

*bo'l-*, *qil-*, *et-*, *ayla-* fe'llari odatda fe'l leksema yasaydi, shunga ko'ra leksema yasovchi affiksoid deyiladi.

Ko'makchi fe'llar (-*boshla-*, -*ber-*, -*ol-*, -*qo'y-* kabi) fe'l leksemashaklini yasaydi, shunga ko'ra shakl yasovchi affiksoid deyiladi.

## GRAMMATIK BIRLIKLARNING TURKUMLANISHI

1- §. Adabiyotlarda "yordamchi so'zlar" nomi ostiga ko'makchi, bog'lovchi, yuklama birlashtiriladi. Bulardan ko'makchini leksemashakl tarkibiga kiradigan morfema deb, noparadigmatik morfemalar majmui deb baholadik. Demak, grammatic birlik turkumlari deganda avvalo bog'lovchi va yuklama nazarda tutiladi.

Adabiyotlarda modal so'zlar, undovlar, taqlid so'zları mustaqil turkum larga ham, yordamchi so'zlarga ham kiritilmay, alohida-alohida tur turkum deb qaraladi. Bulardan taqlid so'zları "tasvir birlklari turkumi" nomi bilan leksik birlik turkumlari qatoriga kiritib tasvirlandi.

Modal birlklar va undovlarni grammatic birlik turkumlari bo'lgani uchun bog'lovchi va yuklama turkumlari qatoriga qo'shish mumkin. Ushbu

to'rt turkum uchun umumiyligi deb ularning grammatik ma'no ifodalashi va birikmaning, gapshaklning bo'lagi vazifasida kelmasligi ta'kidlanadi. Bu turkumlarning har biri o'ziga xos belgilari bilan farqlanadi.

### Bog'lovchilar tarkibi

2- §. Bog'lovchi leksemashakllar orasidagi, gapshakllar orasidagi sintaktik munosabatni ta'minlaydi va ma'lum bir grammatik ma'noni ifodalaydi.

Bog'lovchilar sintaktik aloqaning qanday turini ifodalashiga ko'ra teng bog'lovchilar va ergash bog'lovchilar deb ikkiga guruhanadi. Ergash bog'lovchilar qo'shma gapshakl qismlarini bog'laydi (Bular "Qo'shma gapshakl" bahsida tasvirlanadi).

Teng bog'lovchilar sodda gapshakl tarkibidagi (shuningdek qo'shma gapshakl tarkibidagi) qismlarni o'zaro bog'laydi va quyidagi ma'no turlariga ajratiladi:

#### 1. Biriktiruv bog'lovchilari:

1) Nutqda eng ko'p va bog'lovchisi ishlatilib, uyushiq qator bilan ifodalangan sintaktik bo'lak a'zolarini bog'laydi:

a) sifatlovchida: *o'tkinchi va nohalo l bir narsa* (Odil Yoqubov); *boshlang'i ch va o'rtatahsil* (Abdulla Qahhor) kabi;

b) to'ldiruvchida: .. *o'zida g'ayrat va qanoat sezaboshladi* (Asqad Muxtor); *Saidiyni b e b o shli k, ya l q o v l i k va b u z i - i shda ayblab..* (Abdulla Qahhor) kabi;

d) hollovchida: *Bo'tana Amu .. b o'g'i q va sirli shovullay boshladi* (Asqad Muxtor); *Uboshini shunday tez va kutilmagan va qtda burdiki, ..* (Abdulla Qahhor) kabi;

e) egada: *Komil va aka - uka Ziyodulla bilan Iboldulla otlarni .. yolakka boshladilar* (Hamid G'ulom) kabi;

f) kesimda: *yolovchi qayiqqa sakrab chiqdi va .. eshka klar ni esa boshlaadi* (Hamid G'ulom). *Saidiy o'n g'a yiszilan ar va Kenjaning aftini ko'rib, biron mojaroboshlanishidan qo'rqa reedi* (Abdulla Qahhor).

2) Biriktiruv bog'lovchisi vazifasida *bilan* ko'makchisi ham ishlatilib, uyushiq qator a'zolarini bog'laydi:

a) egada: *stol ustida j o'mragi uchgan choynak bilan satakan turardi* (O'tkir Hoshimov) kabi;

b) to'ldiruvchida: .. *maxdum Ziyodulla bilan Iboldulla ni boshdan oyoq ko'zdan kechirdi* (Hamid G'ulom) kabi.

2. Zidlov bog'lovchilari: *ammo, lekin, biroq*. Bu bog'lovchilar sinonim bo'lib, uyushiq qator bilan ifodalangan kesimning a'zolarini o'zaro zidlab

bog‘laydi; bu a’zolar anglatayotgan harakat-holatdan biri-gina amalga oshuvini bildiradi:

1) *ammo bog‘lovchisi: Sherzod gapni nimadan boshlashni o‘ylar, a m-m o jo‘yaliroq so‘z topolmay qiyinalar edi* (O‘tkir Hoshimov). *Bo‘riboy buni sezdi, a m m o yonboshlab yotgan yerida qimir etmadi* (Hamid G‘ulom) kabi;

2) *lekin bog‘lovchisi: G‘o‘za sug‘orishni juda yaxshi biladilar, leki n amal qilmaydilar* (Oybek) kabi;

3) *biroq bog‘lovchisi: U .. qurilish tashkilotlari boshliqlarining ko‘zlariga qadalib qaragisi kelar, b i r o q hozir payti emasligini sezib..* (Odil Yoqubov) kabi.

3. Ayiruv bog‘lovchilari: *yo , yoki; goh ..; goh ..; dam.., dam..* kabi:

1) *yo, yoki bog‘lovchilari zidlab ayirish ma’nosini ifodalaydi:*

a) *yo bog‘lovchisi: Gulni ko‘rsa, tomon o sh a q i l i sh yo h i d l a sh o‘r n i g a s a n t i m e t r l a b o‘l ch a y b o sh l a y d i* (Asqad Muxtor);

b) *yoki bog‘lovchisi: Umarqul qizning so‘zlarini e sh i t m a d i m i yo k i o‘z i n i e sh i t m a g a n g a s o l d i m i, ..* (Hamid G‘ulom) kabi;

2) *goh.., goh..; dam.., dam bog‘lovchilari zidlanuvchilarning galma-gal voqe bo‘lishini ifodalaydi:*

a) *goh.., goh.. bog‘lovchisi: Paxtasi terib olingan dalalar esa g o h j i g a r r a n g, g o h s u r m a d a y q o r a y i b ko‘rinar edi* (Asqad Muxtor) kabi;

b) *dam.., dam.. bog‘lovchisi: .. hozir yotsa, azongacha d a m u yo n - b o sh i g a, d a m b u yo n b o sh i g a ag‘darilib azoblanishini biladi* (Asqad Muxtor) va b.

### **Yuklamalar turkumi**

3- §. Yuklama asosan gapshaklga bir butun holda, ba’zan biror sintaktik bo‘lakka qo‘shilib, so‘roq, ta’kid, taajjub kabi grammatik ma’nolarni ifoda-laydi.

Yuklamalarning bir qismi ko‘rinishi jihatidan affiksga o‘xshaydi, shunga ko‘ra affiks ko‘rinishli yuklamalar deyiladi; bunday yuklamalardan *-mi*, *-gina* (-*kina*, -*qina*), *-oq/-yoq*, *-ov/-yov* yuklamalari leksemashaklga qo‘shib yoziladi; *-chi*, *-ku*, *-da*, *-e*, *-a/-ya*, *-u/-yu*, *-ey/-ye* yuklamalari esa chiziqcha bilan (yarim qo‘shib) yoziladi. Yuklama leksemashakl tarkibiga kirmaydi, leksemashaklga qo‘shiladi; shuni hisobga olib yuqorida sanalgan barcha yuklamalarni chiziqcha bilan yozish to‘g‘ri; faqat *-mi* (shuningdek *-dir* guman yukla-

masi) leksemashakl tarkibida tuslovchidan oldin kelsa, qo'shib yozish shart bo'ladi: *kelgan eding-mi*, lekin *kelganmiding*; *kelgan-dir*, lekin *kelgandirman* kabi.

Ayrim yuklamalar tashqi ko'rinishi jihatidan leksemaga o'xshaydi, shunga ko'ra leksema ko'rinishli yuklamalar deyiladi va leksemashakldan ayrim yoziladi; *axir, faqat, nahot[ki], hatto[ki], xuddi, ham, esa*.

Yuklamalar odatda quyidagi ma'no turlariga ajratiladi: 1) kuchaytiruv va ta'kid yuklamalari, 2) so'roq va taajjub yuklamalari, 3) ayiruv va chegaralov yuklamalari, 4) aniqlov yuklamasi, 5) guman yuklamasi. Ayni bir yuklama qanday leksemashaklga qo'shilib kelishiga, qanday ohang bilan aytishiga qarab yuqoridagi boshqa-boshqa bandlarda ta'kidlangan ma'nolarni ifodalashi mumkin. Shuni hisobga olib yuklamalarni birma-bir keltirib, ular bilan ifoda-lanadigan ma'nolarni ta'kidlashni ma'qul topdik:

#### 1. -mi yuklamasi:

1) *so'roq* ma'nosini ifodalaydi: *Xolposh daladami?* (O'tkir Hoshimov) kabi;

2) 'noaniqlik' ma'nosini ifodalaydi, bunda takroran ishlatiladi: a) kesimga qo'shilib keladi: *Uning ovozidagi shu qahr sabab bo'ldimi, boshqami – Otaqo'zi buni bilolmay qoldi* (Odil Yoqubov) kabi; b) to'ldiruvchiga qo'shilib keladi: *Yo'ldosh qopmi, brezent palatkami – .. iflos bir narsaga cho 'qqayib o'tirib ..* (Asqad Muxtor) kabi; v) hollovchiga qo'shilib keladi: *Shu haftaning oxiridami, narigi haftaning boshidami .. ziyofat qilamiz-u,..* (Odil Yoqubov) kabi.

#### 2. -a/-ya yuklamasi:

1) *so'roq* ma'nosini ifodalaydi: *Qotil kim bo'ldi ekan-a?* (Hamid G'ulom) kabi;

2) *taajjub* ma'nosini ifodalaydi: *Bolaga o'xshaydi-ya!* (Oybek) kabi.

#### 3. -chi yuklamasi:

1) *so'roq* ma'nosini ifodalaydi: *Xotining-chi? U ham hech narsa demadimi?* (O'tkir Hoshimov) kabi;

2) 'harakatga undash' ma'nosini ifodalaydi: .. *o'z yog'ingda o'zing qovrulguncha dardingni aytsang-chi!* (Asqad Muxtor) kabi.

4. *nahot[ki]* yuklamasi 'so'roq bilan taajjub' ma'nosini ifodalab, odatda kesimi -sa affaksi bilan shakllangan gaplarda ishlatiladi: *N a h o t Otaqo'zi .. boshiga ko'tarib yurgan Jamol Bo'riboev shu odam bo'lsa?!* (Odil Yoqubov). *N a h o t k i hamma ishni boshdan boshlashga to'g'ri kelsa?* (Odil Yoqubov) kabi.

5. *ham* yuklamasi ta'kid ma'nosini ifodalab: I) egaga qo'shilib keladi: a) yakka holda ishlatiladi: *Orqa aravadagilar h a m yerga tushib, olomon to-*

*mon kela boshladilar* (Hamid G'ulom) kabi; b) takroran ishlatiladi: *Boshining guvullashi h a m, ko'zlarining achishishi h a m darrov bosildi* (O'tkir Hoshimov) kabi; 2) to'ldiruvchiga qo'shilib keladi: a) vositasiz to'ldiruvchiga: *Shu payt u boshliq ekanini h a m, obro'si tushishini h a m unutib ko'ziga yosh oldi* (Asqad Muxtor) kabi; b) vositali to'ldiruvchiga: *Rahimjonning boshiga tushgan kaltakning bir uchi sizga h a m tegadi* (Abdulla Qahhor) kabi; 3) hollovchiga qo'shilib keladi: a) payt hollovchisiga: *Temir yo'l vokzalining boshlig'i bilan gaplashganda h a m .. dilozorlik qildi* (Asqad Muxtor) kabi; b) o'rinn hollovchisiga: .. *egniga h a m shunaqa matodan qopga o'xshatib tikilgan ko'ylik kiygan .. edi* (O'tkir Hoshimov) kabi; v) tarz hollovchisiga: *U chindan h a m hozir jahon bo'ylab keza boshlaydi, chang yutadi ...* (Asqad Muxtor) kabi. 4) qaratuvchiga qo'shilib keladi: *Nahot uning boshiga tushgan musibatlar qizining h a m boshiga tushsa?* (Odil Yoqubov); 5) kesim vazifasidagi qo'shma fe'l qismlari orasida ishlatiladi: *Hatto boshda .. er-xotin ancha xafa h a m bo'lishgan, uni qizlariga ravo ko'rishmagan edi* (Odil Yoqubov) kabi; 6) ergash bog'lovchiga qo'shilib keladi: *Sh u n i n g u ch u n h a m Botirali otryadi .. keyin-gina jang qildi* (Hamid G'ulom) kabi; 7) ham yuklamasi uyushiq qator qismlari oldida takror ishlatilganida bog'lovchiga o'xshab ketadi, lekin ta'kid yuklamasiligicha qatnashadi: *Fazilatxon bizda h a m klub boshlig'i, h a m kutubxona mudiri bo'lib ishlaydilar* (Odil Yoqubov) kabi. Bunday ishlatishni *klub boshlig'i bo'lib h a m, kutubxona mudiri bo'lib h a m* tarzida transformatsiya qilinsa, ham yuklamaga tengligi ochiq ko'rindi.

6. esa yuklamasi ta'kid ma'nosini 'eslatish' ma'no qirrasi bilan birlgilikda ifodalaydi, odatda egaga qo'shiladi: *Ko'pchilik unga so'z berilishini talab qilar, rais e s a bosh tortar edi* (Abdulla Qahhor). *Tussiz tagdo'zi do'ppi qo'ndirilgan boshi e s a qori chala erigan cho'qqini eslatar edi* (Hamid G'ulom) kabi.

7. *hatto* yuklamasi ta'kid ma'nosini kuchli darajada ifodalaydi:

1) odatda kesimga qo'shiladi: *Keyin-keyin Salimxon uning fikriga tushuna boshladi, h a t t o ba'zi bir masalalarda u bilan bahslashadigan bo'ldi* (Abdulla Qahhor) kabi; 2) ta'kid ma'nosini yana-da kuchaytirish uchun *ham* yuklamasi bilan birga ishlatiladi: .. *h a t t o otani xushlamaydigan Haydar h a m dadasingning yonini olmadi* (Odil Yoqubov) kabi. Ushbu jumlalarda yuklamalar egaga qo'shib ishlatilgan.

8. -*ku* yuklamasi ta'kid ma'nosini 'hissiyot' ma'no qirrasi bilan birlgilikda ifodalaydi: 1) kesimga qo'shiladi: *Bu ishning har bir varag'idan shaxsiy g araz nici keiaadi-ku!* (Abdulla Qahhor) kabi; 2) egaga qo'shiadi: *Voniä Mirrobidov-ku uning achchiq kinoyalarini kulgiga olib qulog'ining yonidan o'tkazib yubordi* (Odil Yoqubov) kabi.

9. *-da* yuklamasi ta'kid ma'nosini 'pisanda' ma'no qirrasi bilan bиргаликда ifodalaydi: *Boshqa odam quribdi-da bu qishloqni!* (Odil Yoqubov). *Yubo-ravering-da, shu yerda o'lib-netib qolsa,..* (Abdulla Qahhor) kabi.

10. *xuddi* yuklamasi 'ta'kidlab o'xshatish' ma'nosini ifodalaydi: I) ba'zan yolg'iz o'zi ishlataladi: *Sherzodning ko'nglidagi istak ham x u d d i shunaqa arzimagan narsadan boshlanadi* (O'tkir Hoshimov). .. *x u d d i namgar-chilik kuz kechasini boshlab kirgan edi dahlizga* (Asqad Muxtor) kabi; 2) ko'pincha -dek affiksoidi bilan bиргаликда ishlataladi: a) ot leksemaga qo'shiladi: *Shukurov esa x u d d i mashhur donishmandning so'zini ting-layotgan yosh talabadek hadeb bosh irg'irdi* (Odil Yoqubov) kabi; b) fe'lning sifatdosh shakliga qo'shiladi: *Sirojiddin x u d d i arvohga duch kelgandek ko'zлari olaygancha yonbosh tomonga surila boshladi* (O'tkir Hoshimov) kabi; c) *bor* kesimlik leksemasiga qo'shiladi: .. *boshqarma oldidan o'tib ketayotganida esa x u d d i b i r zarur ishi borday kirgisi keldi* (Abdulla Qahhor).

11. *faqat* yuklamasi 'cheгаралаб та'kidlash' ma'nosini ifodalaydi: I) yolg'iz o'zi ishlataladi: *Kulolning ko'zлari hech narsani ilg'amay f a q a t qizchani ko'rayotgандек edi* (Asqad Muxtor) kabi; 2) ma'noni kuchaytirish uchun -gina yuklamasi bilan bиргаликда ishlataladi: *F a q a t .. ishga sho'ng'ib ketganda-gina bu o'ylar sal yodidan ko'tarilib,..* (Odil Yoqubov) kabi.

12. *-gina* yuklamasi 'faqat' ma'nosini ta'kidlab ifodalaydi: *Shunda-gina Farida boshini ko'tardi-da, .. auditoriyaga bir daqiqa qiziqsinib qarab qo'ydi* (O'tkir Hoshimov) kabi. Asli bu yuklamani chiziqcha bilan *shunda-gina* kabi yozish to'g'ri. *Faqat* va -gina yuklamalarini bir-biriga qo'shib ishlatalish ham uchraydi: .. *u f a q a t - g i n a o'zini ovutishga uringanday..* (Asqad Muxtor).

13. *-u/-yu* yuklamasi:

1) 'keyingi harakatning oldingi harakat tugashi bilan boshlanishi' ma'nosini ifodalaydi: *Birdan momugaldiroq gumburladi-yu, ketidan shiddat bilan jala quya boshladi* (O'tkir Hoshimov). *Ichkaridan yalangbosh, yalangoyoq Oliya yugurib chiqdi, chiqdi-yu, eriga otildi* (Odil Yoqubov) kabi;

2) 'ta'kidlab sanash' ma'nosini ifodalashga xizmat qiladi: .. *bir-ikki xonali boshpana qurib olsam-u, xonalarning bittasini kutubxona, bittasini qiroatxona qilib, yosh-yalanglarga.. ko'rgan-kechirganlarimni gapirib berib o'tirsam* (Odil Yoqubov). *Hammani to'ydirish g'amida yuradi-yu, o'zi to'yib non yomg'idi* (Hamid Gulyam) kabi

14. *-da* yuklamasi:

1) 'keyingi harakat oldingi harakatga tezda ulanib ketishi' ma'nosini ifodalaydi: *Devor tomonga qarab oldi-da, sochlarini tekislay boshladi* (O'tkir Hoshimov). ... *E'zozxon Uchqunni Tozagulning qo'lidan oldi-da, o'tirib emiza boshladi* (Hamid G'ulom) kabi;

2) 'ta'kid' ma'nosini 'istehzo' ma'no qirrasi bilan birgalikda ifodalaydi: *Qancha shohona shiypon soldirganingga ham, ... o'zing poygakda o'tirib, to'rda yonboshlab yotgan amiringga choy quyib berasan-da* (Abdulla Qahhor).

15. -oq/-yoq yuklamasi:

1) 'tezda' ma'nosini paytga, o'ringa bog'lab ifodalaydi: *Ikki qadah ichishi bilanoq boshi o'z-o'zidan aylanib, ...* (O'tkir Hoshimov). *U shu lahzadayoq o'tirgan stuli bilan chalqonchasiga yiqlila boshladi* (O'tkir Hoshimov). *Ochil buva odati bo'yicha ko'chaning boshidayoq mashinadan tushib, piyoda yurdi* (Asqad Muxtor) kabi;

2) .. *ma + s + dan* shaklidagi sifatdoshga qo'shib, 'hali boshlanmay turib' ma'nosini ifodalaydi: *Komil kitobdan boshini ko'tarmasdanoq savolga savol bilan javob berdi* (Hamid G'ulom) kabi.

16. -dir yuklamasi 'taxmin' ma'nosini ifodalaydi: *Men bu kitobni o'qimagandirman* kabi.

17. *na..., na...* yuklamasi 'ta'kidli inkor' ma'nosini ifodalaydi: *Qoni miyasiqa urib darg'azab bo'lib ketganidan na ko'zini uqalash, na ust-boshini qoqish xayoliga kelar, atrofga alanglar edi* (Asqad Muxtor) kabi. Bu yukläma bo'lishsiz shaklidagi fe'l leksemali jumlada ishlatsa, faqat 'ta'kid' ma'nosini ifodalashga xizmat qiladi: .. *na ko'zini uqalash, na ust boshini qoqish xayoliga kelmas edi* kabi.

### Modallar turkumi

4- §. Modallar gapshaklga bir butun holda qo'shib, so'zlovchining o'zi anglatayotgan fikrning aniqligiga, chinligiga ishonch darajasini, voqelikdan taajjublanishini, afsuslanishini ifodalaydi:

1. Fikrning aniqligini ifodalovchi modallar o'z navbatida quyidagicha guruhlanadi:

1) fikrning rostligini, realligini ifodalovchilar: *darhaqiqat, haqiqatan, haqiqatda, filhaqiqat* (eskirgan) kabi: *D a r h a q i q a t, b u m o j a r o n i n g b o s h q a o q i b a t l a r i h o z i r u n i n g k o 'z i g a o 'z-o'z i d a n b a r h a m t o p g a n v a t o p a y o t g a n d a y k o 'r i n a r e d i* (Abdulla Qahhor). *H a q i q a t a n, k e y i n r o q e s h i t s a, k e l i n i : "Y a n a o 'q i y m a n" d e g a n g a p c h i q a r i b d i* (Odil Yoqubov) kabi;

2) fikrning qat'iyligini ifodalovchilar: *shubhasiz, so'zsiz, shaksiz* kabi: *B u, sh u b h a s i z, b i z n i n g y u t u g ' i m i z* (Abdulla Qahhor) kabi;

3) anglatilayotgan vogelikning yuz berishiga ishonch bildiruvchi: *albatta* (She'riyatda *albat* shaklida ham uchraydi): *Lekin jigar.. Esga tushsa, achi-naman, a l b a t t a* (Uyg'un). ..*bu gapining ham ustidan chiqadi, a l b a t t a* (Odil Yoqubov) kabi;

4) anglatilayotgan vogelikning yuzaga kelishi tabiiy ekanini ifodalovchilar: *o'z-o'zidan, tabiiy* kabi: *T a b i i y, Yefim Yefimovich ham bu yangi do'stilaridan osonlikcha ko'ngil uzolmas edi* (Hakim Nazir) kabi;

5) fikrning chinligi, realligini eslatuvchilar: *rostdan, darvoqe, aslida (asli, ba'zan, aslan)* shaklida ham uchraydi): *D a r v o q e, bu gap raisning uyida ham aytigan edi* (Said Nazar) kabi.

2. Fikrning noaniqligini ifodalovchi modallar o'z navbatida quyidagicha guruhlanadi:

1) fikrning taxminiy ekanini ifodalovchilar: *shekilli, chog'i, chamasi* kabi: *Ha, yana bir ta'ziringni beradigan bo'ldim, ch a m a s i!* (Uyg'un). *Bu gapim raisga og'ir botdi sh e k i l l i, o'zi bosh bo'lib bolalarini dalaga olib chiqdi* (O'tkir Hoshimov) kabi;

2) fikrning gumonli ekanini ifodalovchilar: *ehtimol, balki* kabi: *B a l k i u yerlarda ko'p dilbar Manzaralar jilva qilgandir...* (Uyg'un). *Boshqa payt bo'lganida Latofat, e h t i m o l, bu faryodga chidab turolmasdi* (Odil Yoqubov) kabi;

3) fikrning tusmolli ekanini ifodalovchilar: *xoy-naxoy, aftidan, mazmuni* kabi: *Sharofat, a f t i d a n, bunaqa gaplar bilan .. shu yerda biron mojaroboshlab dod solmoqchi edi* (Abdulla Qahhor) kabi;

4) fikrning chinligiga gumon ham, ishonch ham ifodalovchilar: *har qalay, har holda* kabi: *Jahoning kattaligi aniq o'lchangancha yo'q; h a r h o l d a, bir soldatning qalbidan kichik bo'lur* (G'afur G'ulom) kabi.

3. Ayrim modallar yuz bergan voqe-a-hodisadan so'zlovchining taajjubini, afsusini ifodalaydi: *ajabo, attang, esiz, tavba, xayriyat* kabi: *A j a b o, shu o'zimizning Saodatmi?!* (G'afur G'ulom). *A t t a n g, shunday dolzarb vaqtida eng yaxshi brigadirimiz yotib qoldi-da* (Abdulla Qahhor) kabi.

5- §. Modallar asosan quyidagi turkumlarning birligidan ma'no taraqqi-yoti asosida o'sib chiqqan:

1. Ot leksemashakldan o'sib chiqqan: modallarning ko'pchilik qismini shular tashkil qiladi. Bunda modal:

I) tub leksemashaklga teng deb qaraladi: *ehtimol* kabi;

2) asli arabcha leksemaning tushum kelishigi shakliga teng bo'lib, o'zbek tili nuqtayi nazaridan tub deb qaraladi: *haqiqatan (haqiqat + an)* kabi;

3) asli predlog va leksemadan iborat bo'lib, o'zbek tili nuqtayi nazaridan tub deb qaraladi: *darhaqiqat* (tojikcha *dar* predlogi va arab tilidan o'zlashgan

*haqiqat* leksemasidan iborat bo'lib, tojik tilida analitik grammatic shaklli leksemashakl sifatida *dar haqiqat* tarzida ajratib yoziladi), *darvoqe* (Bu modal ham xuddi shunday tuzilgan: tojikcha *dar* predlogi + arabcha *voqe'* = *dar voqe'* – 'haqiqatda') kabi. Arxaik *filhaqiqat* modali esa arabcha *fi* predlogi, *al* aniqlik artikli va *haqiqat(un)* leksemasidan tuzilgan: *fi al haqiqat* → *fil-haqiqat*;

4) asli "ot leksema + atributiv shakl yasovchi" tarkibiga ega leksemashakldan o'sib chiqqan va ma'noli qismlarga ajratilmaydigan bo'lgan: *shubha + siz* = *shubhasiz*, *shakl + li* → shekilli kabi (Keyingi misolda kelgan *kll* tovushlarini talaffuz qilish qiyin bo'lgani sababli *kl* tovushlari oralig'iga i tovushi kiritilgan) kabi;

5) asli leksema va shakl hosil qiladigan morfemadan tuzilgan bo'lib, modal turkum birligi sifatida o'sib chiqqan, shakl hosil qiladigan morfemalar o'z grammatic mohiyatini yo'qotgan, ajratilmaydigan bo'lgan. Bunday modallar asli:

a) "leksema + birlik sonlovchisi + III shaxs nisbatlovchisi + bosh kelishik ko'rsatkichi" tarkibiga ega bo'lgan: *chama + ØI + si + ØII* = *chamasi, mazmun + ØI + i + ØII* = *mazmuni* kabi;

b) "leksema + birlik sonlovchisi + o'rin yoki chiqish kelishigi affixi" tarkibiga ega bo'lgan: *haqiqat + ØI + da* = *haqiqatda, rost + ØI + dan* = *rostdan* kabi (Keyingi modal ko'pincha *rostdan ham* shaklida yuklama bilan ishlataladi);

d) "leksema + birlik sonlovchisi + III shaxc nisbatlovchisi + o'rin yoki chiqish kelishigi affixi" tarkibiga ega bo'lgan: *asl + ØI + i + da* = *aslida, aft + ØI + i + dan* = *aftidan* kabi.

2. Otdan boshqa turkum leksemashakllaridan o'sib chiqqan:

- 1) Sifat leksemashakldan o'sib chiqqan: *tabiiy* kabi;
- 2) Ravish leksemashakldan o'sib chiqqan: *albatta* kabi;

3) Tojikcha *xoh-noxoh* fe'l shaklidan o'sib chiqqan; bunda *xoh* – 'ista', *no* – '-ma'; *xoh-noxoh* – 'ista-istama'; o'zbek tilida har ikki qism oxiridagi *h* tovushi *y* tovushiga, ikkinchi qismdagi birinchi *o* tovushi *a* tovushiga almashgan: *xoh-noxoh* → *xoynaxoy*; ma'noda ham jiddiy o'zgarish yuz bergen: 'ista-istama' → 'tusmol';

4) Bog'lovchidan o'sib chiqqan: *balki*.

3. Birikmashakl hokim a'zosining ellipslanishi (tushirilishi) natijasida yuzaga kelgan: *o'z-o'zidan aniq* → *o'z-o'zidan* kabi.

4. Birikmashaklning modalga aylanishi bilan yuzaga kelgan: *har qalay, har holda* kabi.

Biror turkum birligi asosida modal birlik o'sib chiqqan bo'lsa, bunday hollarda odatda omonimiya voqe bo'ladi.

### Undovlar turkumi

6- §. Undov deb avvalo kishining his-xayajonini bevosita ifodalaydigan tovush birliklariga aytildi: *oh, eh, uh, uf, e, be, voy, a, o, iye, he, hah, ehha, o 'hho', voydod* kabi.

1. Undov bilan qanday his-hayajon ifodalanayotgani ko'pincha aniq bo'lmaydi; undovdan keyin (ba'zan oldin) keladigan jumlaning mazmuni undov qanday his-hayajonni ifodalashini, qanday ohangda talaffuz qilinishini ko'rsatib turadi.

Ba'zi undovlar aniq bir his-hayajonni ifodalashga xoslangan bo'ladi. Masalan, *be* undovi rozi bo'lmaslik, qo'shilmaslik kabi his-hayajonni, *iya* undovi 'ajablanish' kabi his-hayajonni ifodalaydi. Tinglovchining diqqatini tortish uchun ishlatiladigan *hoy* undovi ham aniq bir ma'noni ifodalaydi.

Ko'pchilik undovlar esa har xil ohang bilan aytilib, turli his-hayajonlarni ifodalashga xizmat qiladi. Undovning turli ma'nolari deb talqin qilinadigan bunday hodisa nutq sharoitida, kontekstda (qurshovda) aniqlashadi. Masalan, *eh* undovi 'sevinch'ni ifodalash uchun ishlatilsa, bir ohang bilan, 'xafalik'ni ifodalash uchun ishlatilsa, boshqa bir ohang bilan talaffuz qilinadi. Ayni bir undovning bunday turli his-hayajonni ifodalashini yozuvda aks ettirish qiyin. Shu tufayli undov bilan yonma-yon keladigan jumla tarkibida undovning qanday his-hayajonni ifodalab kelayotganini aniqlashtiruvchi vositalar (leksemalar) ishlatiladi: *Eh, qanday go 'zal manzara! — Eh, natija kutilgandek bo 'lma-di-da!* kabi. Undovlarga xos ana shunday ko'pqirralilik ularni ma'no ifodalashiga ko'ra tasniflashni qiyinlashtiradi.

2. Adabiyotlarda undovlarning ikkinchi ma'no turi deb xitob birliklariga aytildi. Bular his-hayajon birliklaridan keskin farq qiladi: biror harakatni qilish-qilmaslikka ko'rsatma beradi. Shunga ko'ra ikkiga guruhlanadi: 1) harakatni bajarishga chaqiruvchi undovlar. 2) harakatni bajarmaslikka chaqiruvchi undovlar.

1) Harakatni bajarishga chaqiruvchi undovlar hayvon va parrandalarga nisbatan ishlatishga xoslangan: *chu, tss* (otga), *xix* (eshakka), *moh-moh* (qo'yga), *tu-tu-tu* (tovuqqa) kabi.


2) Harakatni bajarmaslikka chaqiruvchi undovlar ham asosan hayvon va parrandalarga nisbatan ishlatishga xoslangan: *dirr, tak* (otga), *ish* (eshakka), *xo'sh* (ho'kizga), *kisht* (parrandaga) kabi.

3. Undovlarning alohida guruhi deb kishilar orasidagi muomala-murojaat birliklari keltiriladi. Undovga aylanmagan, hali leksemalik xususiyatini saqla-

gan bu birliklarni undov turkumiga kiritish o'ta shartli bo'lib, quyidagicha ma'nolarni bildirish uchun xizmat qiladi:

- 1) Ko'rishishni, xayrashishni bildiradi: *assalomu alaykum, assalom, salom; vaalaykum assalom; xayr* kabi.
- 2) tabrik, istak, minnatdorlik va unga javobni bildiradi: *hormang – bor bo'ling, salomat bo'ling; qutlug' bo'lsin – qulluq; rahmat – arzimaydi* kabi.
- 3) Biror faoliyatni ko'tarinki ijobjiy baholashni bildiradi: *balli, barakallo, ofarin* kabi.

7- §. Yuqorida aytig'an fikr-mulohazalarini hisobga olib turkumlarni quyidagicha joylashtirish mumkin:



## OT LEKSEMALAR TURKUMIGA MANSUB MORFEMALAR

### Morfem paradigmalar

1- §. Ot leksemalar turkumiga 'predmetlik' tushunchasi bilan bog'liq sonlash morfemalari paradigmaси, nisbatlash morfemalari paradigmaси, turlash morfemalari paradigmaси mansub. Ushbu morfem paradigmalarning ko'rsatkichlari ot leksemaldardan tashqari boshqa leksik turkumlarning ot tabiatli turiga ham qo'shiladi (Bular har bir turkum doirasida ta'kidlanadi). 'Predmetlik' tushunchasini emas, 'belgi' tushunchasini anglatadigan turkum leksemalariga ushbu paradigmalar ko'rsatkichi ular otlashganida (ot leksema holatida kelganida) qo'shiladi.

2- §. Sonlash morfemalari nisbatlash va turlash morfemalaridan o'z mohiyatiga ko'ra farqlanadi. Sonlash ma'nosini ifodalovchi morfema shakl yasovchiga teng bo'lib, ot leksemaga miqdor ma'nosini ifodalash uchun qo'shiladi: *kitob-* – *kitoblar-* kabi.

Turlash morfemalari ot leksemaga boshqa bir leksema bilan sintaktik bog'lanishiga ko'ra qo'shiladi, shakl o'zgartiruvchi deyiladi: *(kitob+lar)+ni* kabi.

Nisbatlash morfemalari ham odatda leksemaga boshqa bir leksema bilan sintaktik bog'lanishiga ko'ra qo'shiladi va shakl o'zgartiruvchi deyiladi: *[(kitob+lar)+im]+ni* kabi.

Turlash morfemalari ham, nisbatlash morfemalari ham sintaktik mohiyatlari: boshqa bir leksema bilan sintaktik bog'lanish tufayli qo'shiladi va o'sha leksemaning tabiatiga ko'ra tanlab qo'shiladi: (*sening*) X *kitobing*, *kitobingni* X (*ol-*) kabi. Bular orasidagi farq turlash morfemalari sintaktik vazifa ko'rsatkichi ekanida, nisbatlash morfemasi esa sintaktik vazifa ko'rsatkichi emasligida ko'rindi. Ushbu farqni hisobga olib faqat kelishikda o'zgarishningina *turlanish* deyish to'g'ri. Quyida sonlash, nisbatlash, turlash morfemalari tuzum hosil etib turuvchi paradigmalar sifatida bayon qilinadi.

### Sonlash morfemalari paradigmaси

3- §. Grammatik miqdor ma'nosini ifodalovchi morfemaga sonlovchi deyiladi; bunday morfemalar tuzumiga sonlash morfemalari paradigmaси deyiladi. Sonlash morfemalari ot leksemaga bevosita qo'shiladi: "leksema + sonlovchi": *olim* + Ø – *olim+lar*, *fasl* + Ø – *fasl + lar*- kabi.

Mantiqiy miqdor bilan grammatic miqdor o'zaro farq qiladi. Mantiqan atoqli ot yakka predmetni ataydi: *Sobir-*, *Chilonzor-* kabi. Ayni shu ism bilan bir necha predmet atalishi mumkin, lekin shunda ham ism har gal yakka predmetni ataydi.

Turdosh ot esa turning nomi sifatida mantiqan bittadan ortiq (ko'p) predmetni nomlaydi. Shu bilan birga turdosh ot yakka predmetni anglatib ham keladi. Masalan, *ko'chat-* leksemasi bitta ko'chatni ham, ko'p ko'chatni ham bildiradi. Ko'rinaridiki, atoqli otning yakka predmetni atashi bunday ot leksemaning semantikasiga bog'liq: turdosh ot leksemaning yakka yoki ko'p predmetni anglatishi esa, leksemaning semantik xususiyatidan tashqari, nutq vaziyatiga, leksik qurshovga bog'liq.

Otlarni yakka predmetni anglatishiga qarab birlik shaklida, ko'p predmetni anglatishiga qarab ko'plik shaklida deyish mumkin emas. *Sobir-, ko'chat-* leksemalari yakka yoki ko'p predmetni bildirishidan qat'i nazar — sonlash paradigmasining ayni bir shaklida — birlik shaklida. Shunday ot leksemalar ham borki, o'z semantik xususiyatiga ko'ra doim bittadan ortiq predmetni anglatadi: *xalq-, qo'shin-* kabi; lekin bunday leksemalar sonlash paradigmasining birlik shaklida deyiladi. Xullas, ot leksemaning o'z semantik xususiyatiga ko'ra yakka yoki ko'p predmetni anglatishi — boshqa hodisa, sonlash paradigmasining birlik yoki ko'plik shaklida bo'lishi — boshqa hodisa.

Odatda *daraxt-* birlik shaklidagi, *daraxtlar-* ko'plik shaklidagi ot leksema deyiladi; bunda sonlash paradigmasi asosida yondashiladi. Mantiqan esa *daraxtlar-* emas, *daraxt-* ko'p. Chunki *daraxt-* shakli yakka predmetni ham, shu turga mansub barcha predmetlarni ham bildiradi, bunda miqdor tushunchasi chegaralanmagan bo'ladi. *Daraxtlar-* shaklida *-lar* morfemasi miqdor tushunchasini chegaralaydi: daraxtning qandaydir to'dalari, xillari tushuniladi. Shu jihatdan yondashsak, turdosh ot leksemada predmetning ko'pligini leksemaning o'zi bildiradi, *-lar* morfemasi esa 'chegaralanganlik' semasini va unga zid qo'yib belgilanadigan morfema esa 'chegaralanmaganlik' semasini ifodelaydi.

Haqiqatda, o'zbek tilida yakkani ifodalovchi maxsus morfema yo'q, turdosh ot leksema ma'lum kontekstda-gina yakka predmetni bildirib keladi, alohida olinganda esa miqdor ma'nosini ifodalashi jihatidan noaniq bo'ladi. Asli *bola-* kabi leksema 'miqdor' ma'nosini ifodalashi jihatidan betaraf bo'lgan, 'bitta' ma'nosi *-lar* morfemasining 'bir necha' ma'nosiga zidlanishda yuzaga kelgan.

Demak, *bola-* shaklidagi ot leksemasi miqdor ma'nosini ifodalashi jihatidan betaraf, ana shunday betaraflik bunday shakldagi leksemaga bitta va bittadan ortiq miqdorni bildiradigan sifatlovchi keltiraverishga yo'l qo'yadi: *bitta bola- — bir necha (ko'p) bola-* kabi. Xullas, *bolalar-* ko'plik shakliga zid qo'yish asosida *bola-* birlik shakli yuzaga kelgan. Buni chizmada quyidagicha ko'rsatish mumkin:

Leksema	Sonlash morfemasi	Morfemaning mohiyati	Morfemaning ma'nosi
bola-	Ø I	birlik betaraf ko'plik	'xususan' → 'bitta' 'umuman' 'bittadan ortiq'
bola	—		
bola-	lar		

4- §. Hozirgi o'zbek tilida *-lar* affaksi omomorfema bo'lib, sonlash paradigmasing a'zosi sifatida bir necha ma'nolarni ifodalashga xizmat qiladi. Ushbu affiks nisbatlash paradigmasing, tuslash paradigmasing ayrim morfemalari tarkibida ham ishlatalidi. Boshqa morfem paradigmalar tarkibida qatnashadigan *-lar* affiksini sonlash paradigmasing a'zosi *-lar* affiksiga nisbatan omonim deyish mumkin. Bulardan tashqari nisbatlash morfemalari asosida yuzaga kelib, hurmat ma'nosini ifodalaydigan *-lar* morfemasi ham mavjud (Aytib o'tilgan hodisalar o'z o'mida bayon qilinadi).

### Nisbatlovchi morfemalar paradigmasi

5- §. O'zi qo'shilgan asosdan anglashiladigan predmetning (yoki predmet deb tasavvur qilinadigan belgining, harakatning) birlik yoki ko'plikdag'i uch shaxsdan biriga nisbat berilayotganini ifodalovchi morfemaga nisbatlovchi deyiladi; bunday morfemalar tuzumiga nisbatlovchi morfemalar paradigmasi deyiladi.

Nisbatlovchi morfemalar paradigmasi ayrim adabiyotlarda olti a'zoli deb ko'rsatilib, har bir morfema qolgan besh morfema bilan (kuchli yoki kuchsiz holatlarda) opozitiv munosabat hosil etishi quyidagi chizma yordamida aks ettirilgan:

[ -im ]	~	[ -imiz ]
[ -ing ]	~	[ -ingiz ]
[ -i ]	~	[ -lari ]

Bu chizmada III shaxs morfemasining ifoda jihatni *i* fonemasiga tengligi to'g'ri ko'rsatilgan, *-si* shaklida ta'kidlanmagan. I, II shaxs morfemalarida ularning ifoda jihatni *-im* kabi yozilgan, vaholanki bu morfemalar oldiga qo'shiladigan *i* tovushi ushbu affikslarning ifoda jihatni tarkibiga kirmaydi, demak, fonema emas, balki asos bilan affiksni tutashtirish uchun orttiriladigan tovush. Ko'rindaniki, nisbatlovchi affikslarning ifoda jihatiga I, II shaxsda va


III shaxsda turlicha yondashilgan. Asli an'anaviy usuldan chetga chiqmay har uch shaxs affikslarini *-(i)m-*, *-(i)ng-*, *-(s)i-*, *-(i)miz-*, *-(i)ngiz-* tarzida yozib ko'rsatish to'g'ri, shunda orttirma tovush fakultativ ekani ochiq bildiriladi.

Ushbu paradigma uchun umumiy ma'no 'qarashlilik' deb ta'kidlash qisman to'g'ri; asli 'egalik' ma'nosi, hatto 'qarashlilik' ma'nosi ham ushbu hodisani to'liq ifodalamaydi; shuni hisobga olib ushbu paradigmani *nisbatlash paradigmasi* deb, morfemalarini esa *nisbatlovchi* deb atashni lozim topdik.

Bu paradigmadan anglashiladigan ma'noni "narsa-buyumning shaxsga qarashliligi" deb izohlash tor, chunki nisbatlovchi affiks "narsa-buyum" ma'nosini anglatuvchi leksemalarga-gina emas, "kishi" ma'nosini anglatuvchi leksemaga ham qo'shiladi; shuningdek qaratuvchi vazifasida "shaxs (kishi)" ma'nosini anglatuvchi leksema-gina emas, "narsa" ma'nosini anglatuvchi leksema ham keladi. Ko'rindiki, umumiy ma'no — 'nisbat berish' ma'nosi; har uch shaxsda kishi yoki narsaning kishiga, III shaxsda esa bulardan tashqari narsaning narsaga nisbat berilishi ham ifodalanadi. Demak, 'shaxs' ma'nosini ifodalash jihatidan I, II shaxs affikslaridan III shaxs affiksi farqli: ham 'kishi', ham 'narsa' ifodalanadi.

Nisbatlash paradigmasidegi III shaxs morfemasi son ('miqdor') ma'nosini ifodalashi jihatidan ham I, II shaxs morfemalaridan farqli: I, II shaxs morfemalari ayni vaqtida ham shaxs, ham son ma'nosini ifodalaydi, bu shaxslarning morfemalari son ma'nosini ifodalashi jihatidan oppozitsiya (zidlanish) hosil qiladi; bunday zidlanish III shaxs morfemasida yo'q, shunga ko'ra son ma'nosini ifodalashi jihatidan betaraf. III shaxsning ko'plik shakli deb keltirilgan *-lari* affiksi tarkibidagi *-lar* qismi 'ko'plik' ma'nosini emas, modal ma'noni ('sizlashni) ifodalashga xizmat qiladi, son ma'nosining ifodalanishi betarafligicha qoladi.

Xullas, nisbatlovchi morfemalar paradigmasing asosi besh a'zoli bo'lib, ular orasidagi zidlanish munosabatini chizmada quyidagicha ko'rsatish mumkin:



Ko'rindiki, III shaxs morfemasi I, II shaxs morfemalari bilan 'shaxs' ma'nosining ifodalanishi jihatidan zidlanish hosil etadi. III shaxs morfemasi

son ma'nosini ifodalamasligi sababli bu jihatdan zidlanish haqida gapirib bo'lmaydi.


6- §. O'zbek tilidagi nisbatlovchi morfemalar paradigmasida 'shaxs' va 'son' ma'nolaridan tashqari modal ma'no ham ifodalanadi. Modal ma'no ifodalash 'birlik' ma'nosini ifodalovchi I, II shaxs morfemalarida emas, balki 'ko'plik' ma'nosini ifodalovchi morfemalarda yuzaga kelgan (Nisbatlovchilardagi bunday hodisa ko'plik kishilik olmoshlari ta'sirida voqe bo'lgan), natijada bu morfemalar ikki ma'noli (polisemem) morfemaga aylangan:

-miz- 1	'ko'plik', modal ma'no jihatidan betaraf,
-ngiz- 1	
-miz- 2	'birlik' va 'sizlash'.
-ngiz- 2	

Keyinchalik modal ma'no II, III shaxs birlik morfemalarini *-lar* affiksi bilan ishlatish orqali ham ifodalanadigan bo'lgan:

- ng- — II shaxs birlik,
- nglar- — II shaxs ko'plik va 'sizlash',
- laring- — II shaxs ko'plik va 'senlash',
- lari- — III shaxs 'sizlash', son ma'nosini jihatidan betaraf.

Xullas, nisbatlovchi morfemalar paradigmasining asosi — besh a'zoli; ko'p ma'nolilikni va modal ma'no ifodalanishini ham hisobga olsak, bu paradigma o'n a'zoli bo'ladi. Buni quyidagi chizma bilan ko'rsatish mumkin:



Bu yerda:

- 1) -m- — I shaxs birlik, modallik betaraf;
- 2) -miz- 1 — I shaxs ko'plik, modallik betaraf;

- 3) *-miz-* 2 – I shaxs birlik, 'sizlash';
- 4) *-ng-* – II shaxs birlik, modallik betaraf;
- 5) *-ngiz-* 1 – II shaxs ko'plik, modallik betaraf;
- 6) *-ngiz-* 2 – II shaxs birlik, 'sizlash';
- 7) *-nglar-* – II shaxs ko'plik, 'sizlash';
- 8) *-laring-* – II shaxs ko'plik, 'senlash';
- 9) *-i-* – III shaxs; son ma'nosi va modal ma'no jihatidan betaraf;
- 10) *-lari-* – III shaxs, 'sizlash', son ma'nosi jihatidan betaraf.

Ko'rindiki, I shaxs morfemalari uch a'zoli bo'lib: a) shaxs ma'nosining ifodalishiga ko'ra birlashadi, b) son ma'nosining ifodalishiga ko'ra *-miz-* 1 ('ko'plik') shakli *-m-* ('birlik') va *-miz-* 2 ('birlik') shakllari bilan zidlanish hosil qiladi, d) modal ma'noning ifodalishiga ko'ra *-miz-* 2 ('sizlash') shakli *-m-* (modal ma'no jihatidan betaraf) morfemasi bilan go'yo noto'liq zidlanish hosil qiladi, e) *-miz-* 1 va *-miz-* 2 munosabati ko'pma'nolilikka teng, f) *-m-* ('birlik') va *-miz-* 2 ('birlik') munosabati sinonimiyaga teng.

II shaxs morfemalari besh a'zoli bo'lib: a) shaxs ma'nosining ifodalishi shiga ko'ra birlashadi, b) son ma'nosining ifodalishiga ko'ra *-ngiz-* 1, *-nglar-*, *-laring-* shakllari *-ng-* va *-ngiz-* 2 ('birlik') shakllari bilan zidlanish hosil qiladi, d) modal ma'nuning ifodalishiga ko'ra *-ngiz-* 2 ('sizlash'), *-nglar-* ('sizlash'), *-laring-* ('senlash') shakllari *-ng-* (modal ma'no jihatidan betaraf) morfemasi bilan go'yo noto'liq zidlanish hosil qiladi, e) modal ma'no ifodalashi jihatidan *-nglar-* ('sizlash') va *-laring* ('senlash') shakllari o'zaro zidlanadi, f) *-ngiz-* 1, *-ngiz-* 2 munosabati polisememiyaga teng, g) *-ng-* ('birlik') bilan *-ngiz-* 2 ('birlik') munosabati, *-ngiz-* 2 ('sizlash') bilan *-nglar-* ('sizlash') munosabati sinonimiyaga teng.

III shaxs morfemalari ikki a'zoli bo'lib: a) shaxs ma'nosini ifodalashiga ko'ra birlashadi, b) son ma'nosini ifodalashiga ko'ra har ikki a'zo betaraf, d) modal ma'no ikkinchi a'zoda ifodalaniadi, demak, shu nuqtada noto'liq zidlanish mavjud.

Xullas, nisbatlash ma'nosini ifodalaydigan morfemalar bir paradigmaga birlashuvi shubhasiz. Lekin shu asosda bu paradigmanning har bir a'zosi qolgan har bir a'zosi bilan oppozitiv munosabat hosil qiladi deyish mumkin emas. I, II shaxs bo'yicha birlik shakllari o'zaro, ko'plik shakllari o'zaro, birlik va ko'plik shakllari o'zaro oppozitiv munosabat hosil qiladi. Lekin *-m-* (I shaxs birlik) morfemasi bilan *-ngiz-* 1 (II shaxs ko'plik) morfemasi orasida oppozitiv munosabat yo'q, chunki bu morfemalar orasida na shaxs ma'nosi jihatidan, na son ma'nosi jihatidan umumiylig yo'q, faqat 'nisbatlash' ma'nosini ifodalashiga ko'ra birlashadi. Ikki morfema sememasining bir semasi mushtarak, boshqa semasi (semalari) farqli (zid) bo'lsa-gina oppozitiv mu-

nosabat haqida gaphirish o'rini bo'ladi. Xullas, til hodisalari orasidagi har qanday munosabatni oppozitiv munosabat deb talqin qilish masalaga o'ta mavhum yondashishdan iborat.

### Turlash morfemalari paradigmasi

7- §. Odatda ot leksemaga qo'shilib, uning boshqa bir leksemaga sintaktik bog'lanishini va biror sintaktik vazifada kelishini ta'minlashga xizmat qiladigan morfemaga turlovchi deyiladi; bunday morfemalar tizimiga esa turlash (kelishik) morfemalari paradigmasi deyiladi.

Hozirgi o'zbek tilida quyidagi olti kelishikdan iborat tizim mavjud: bosh kelishik, qaratqich kelishigi, tushum kelishigi, chiqish kelishigi, jo'nalish kelishigi, o'rın kelishigi.

Bosh kelishikning fonema ifodasiga ega morfemasi yo'q, shunga ko'ra bu kelishikning ko'rsatkichi boshqa besh kelishikka zidlab nol ko'rsatkichli morfema deb belgilanadi va  $\emptyset$  ramzi bilan yozib ko'rsatiladi.

Nol ko'rsatkichli morfema sonlash morfemalari paradigmasida ham mavjud bo'lgani sababli bu morfemalarni  $\emptyset$  I,  $\emptyset$  II deb farqlaymiz.

Qaratqich kelishigining morfemasi to'rt ko'rinishga ega: *-ning*, *[-ning]*, *-ing*, *-n*. Bulardan *-ning* ko'rinishi asosiy allomorfema bo'lib, ayrim shart-sharoitda "yashirinishi" (belgisiz ishlatalishi) mumkin; ana shunday allomorfemani *[-ning]* tarzida yozib ko'rsatdik: *kitobning* (*mugovasi-*) – *kitob[ning]* (*mugovasi-*) kabi. Bu kelishik morfemasining *-ing*, *-n* shakllari juz'iy allomorfemalar bo'lib, ma'lum shart-sharoitda-gina namoyon bo'ladi: *-ing* allomorfemasi I, II shaxs birlik kishilik olmoshlariga qo'shiladi: *men+ing* kabi; *-n* allomorfemasi she'riyatda ishlataladi: .. *nafasin atri* (G'afur G'ulom) kabi.

So'zlashuv tilida *-ning* allomorfemasi *-ni* tarzida, *-ing* allomorfemasi *-i* tarzida (oxiridagi  $\eta$  tovushini tashlab) talaffuz qilinadi, shuning oqibatida tushum kelishigining *-ni*, *-i* allomorfemalari bilan shaklan teng kelib qoladi. Bunday omonimiya so'zlashuv tilida voqe bo'ladi; adabiy tilda qaratqich va tushum kelishiklarining affikslari aniq farqlab *-ning* va *-ni*, *-ing* va *-i* tarzida talaffuz qilinadi va shunday yoziladi. Qaratqich kelishigi morfemasini chizmada quyidagicha ko'rsatish mumkin:

Kelishik	M o r f e m a s i			
	Asosiy allomorfemalar		Juz'iy allomorfemalar	
	belgili	belgisiz	I, II shaxs birlik kishilik olmoshidan keyin	She'riyatda III shaxs nisbatlovchisidan keyin
Qaratqich	<i>-ning</i>	<i>[-ning]</i>	<i>-ing</i>	<i>-n</i>

Tushum kelishigining morfemasi ham to'rt ko'rinishga ega: *-ni*, *[-ni]*, *-i*, *-n*. Bulardan *-ni* ko'rinishi asosiy allomorfema bo'lib, ayrim shart-sharoitda "yashirinish" (belgisiz ishlatalish) xususiyatiga ega; ana shunday allomorfemani *[-ni]* tarzida yozib ko'rsatish mumkin: *kitobni* (*o'qi-*) – *kitob[ni]* (*o'qi-*) kabi.

Bu kelishik morfemasining *-i*, *-n* shakllari juz'iy allomorfemalar bo'lib, *-i* allomorfemasi I, II shaxs birlik kishilik olmoshlariqa qo'shiladi (*men+i* kabi), *-n* allomorfemasi she'riyatda III shaxs nisbatlovchisidan keyin qo'shiladi: *Sahar turib ochar chechagin* (Hamid Olimjon) kabi. Yuqorida ta'kidlangan to'rt allomorfema adabiy tilga mansub. Aytilganiarni chizmada quyidagicha ko'rsatish mumkin:

Kelishik	M o r f e m a s i			
	Asosiy allomorfemalar		Juz'iy allomorfemalar	
	belgi- li	belgi- siz	I, II shaxs birlik kishilik olmoshidan keyin	She'riyatda III shaxs nisbatlovchisidan keyin
Tushum	<i>-ni</i>	<i>[-ni]</i>	<i>-i</i>	<i>-n</i>

So'zlashuv tilida tushum kelishigi morfemasining bosh tovushi o'zi qo'shiladigan asos oxiridagi tovushning ta'sirida assimilatsiaga uchraydi: *bahorri* (*bahorni*), *kuzzi* (*kuzni*), *jamiyatti* (*jamiyatni*) kabi. Morfemaning bunday tovush tovlanishlari allomorfemalar deb emas, talaffuz shakllari deb baholanadi.

Chiqish kelishigining morfemasi – *-dan*. Hozirgi adabiy o'zbek tilida yozilgan asarda ba'zan-gina bu morfemaning *-din* talaffuz shakli uchraydi. So'zlashuv tilida *-dan* morfemasining boshlanishidagi *d* fonemasi o'zi qo'shiladigan asos oxiridagi tovush ta'sirida assimilatsiyaga uchraydi: *ishtan* (*ishdan*), *ottan* (*otdan*) kabi. Morfemaning bunday tovush tovlanishlari allomorfema deb emas, talaffuz shakllari deb baholanadi.

Jo'nalish kelishigining morfemasi uch allomorfema tarzida namoyon bo'ladi: *-ga*, *-ka*, *-qa*. Tarixan *-g'a* allomorfemasi ham mavjud bo'lgan; bu allomorfema hozirgi o'zbek tiliga *olg'a* leksemasi tarkibida yetib kelgan. Ko'rindaniki, jo'nalish kelishigi morfemasining allomorfemalari *k*, *g*, *q*, *g'* fonemalari bilan tugaydigan asosga qo'shilganida yuzaga keladi; bular to'g'risida leksemashakl tarkibidagi ma'noli qismlarning sintagmatik munosabatiga bog'lab gapiriladi.

O'rin kelishigining morfemasi – *-da*. Bu yerda ham xuddi chiqish kelishigi morfemasida bo'lganidek *-da* morfemasi boshlanishidagi *d* fonemasi o'zi qo'shiladigan asos oxiridagi tovushning ta'sirida assimilatsiyaga uchraydi:

*ishta* (*ishda*), *otta* (*otda*) kabi; -da morfemasining bunday tovush tovlanishi allomorfema deb emas, talaffuz shakli deb baholanadi.

8- §. Tushum kelishigi bilan qaratqich kelishigini farqlab ishlatishda quyidagi hodisaga asoslanish mumkin: Tushum kelishigi o'zi qo'shilgan ot leksemani o'timli fe'l leksemaga tobelaydi: *kitobni* X o'qi- kabi. Qaratqich kelishigi esa o'zi qo'shilgan ot leksemani ot leksema (yoki otlashgan leksema) asosiga tobelaydi, bunda keyingi leksema asosiga nisbatlovchi qo'shiladi: *kitobning muqovasi-* kabi. Demak, qaratqich kelishigining shakli — murakkab, go'yo qo'sh ko'rsatkichli: (asos+ning) X (asos+nisbatlovchi). Bunday murakkablik bosh kelishikdagi leksemashakl ega vazifasida kelganida ham voqe bo'ladi: (asos + Ø II) X (asos + tuslovchi): *Yomg'ir yog'maydi* kabi.

Ko'rinaradiki, ifoda jihatiga ko'ra olti kelishikni ikki xil guruhlash mumkin:

I 1. Ifoda jihatni nol ko'rsatkichli morfemaga teng kelishik (bosh kelishik);

I 2. Ifoda jihatni affiksga teng kelishiklar (qolgan besh kelishik).

II 1. Yakka ko'rsatkichli kelishiklar: tushum, chiqish, jo'naliш, o'rın kelishiklari.

II 2. Qo'sh ko'rsatkichli kelishiklar: qaratqich kelishigi (-ning + nisbatlovchi), bosh kelishik (qisman): Ø II + tuslovchi.

9- §. Kelishik paradigmasi a'zolarining mazmun jihatni o'ta mavhum: leksemalarni o'zaro 'kelishitirish'; vazifikasi — biror sintaktik bo'lak sifatida shakllantirish. Mazmun jihatining o'zga tomonida kelishik ma'nolari orasida ularni yagona tizimga birlashtiruvchi semani ajratish qiyin. O'zaro tuzum hosil etib turish makon kelishiklarida mavjud: Bu uch kelishik 'o'rın' semasi asosida birlashib va har biriga xos semasi bilan zidlanib tuzum hosil qiladi: -dan — 'harakatning chiqish o'rni', -ga — 'harakatning yo'naliш o'rni', -da — 'harakatning bo'lish o'rni'. Asli bu uch kelishik ikkiga guruhanadi: chiqish va jo'naliш kelishiklari — dinamik kelishiklar sifatida, o'rın kelishigi — statik kelishik sifatida. Chiqish va jo'naliш kelishiklari esa harakatning 'ma'lum nuqtadan yo'naliш' va 'ma'lum nuqtaga yo'naliш' ma'nosini ifodalab o'zaro ichki zidlanish hosil etadi.

Xullas, olti kelishikni ko'zda tutib ulardan har biri boshqa besh kelishik bilan oppozitiv munosabat hosil etadi deyish uchun yetarli asos yo'q; ayrim kelishiklar orasida ichki oppozitiv munosabat-gina mavjud. Asli kelishiklar orasida, F. de Sossyur ta'kidlaganidek, assosiativ munosabat mavjud deyish to'g'ri: Bir kelishik boshqasini eslatib turadi, leksemashakl tarkibidagi ma'noli

qismlar qatorida (aranjirovkasida) ayni bir o'qda (pozitsiyada) joy oladi va biri o'mini ikkinchisi almashtirib egallaydi.

Kelishiklarning sintaktik mohiyati leksemashakl tarkibida, leksemashaklning boshqa bir leksema bilan, leksemashakl bilan sintaktik bog'lani shida namoyon bo'ladi (Bular o'z o'mida bayon qilinadi).

### **Ot turkumi leksemasiga qo'shiladigan noparadigmatik morfemalar**

**10- §.** Ot turkumi leksemasiga mansub yuqoridagi uch paradigmadan tashqarida turadigan, o'zaro paradigmatic munosabat hosil qilmaydigan morfemalar ham anchagina. Bular orasida affikslar ham, affiksoidlar ham, leksik tabiatli morfemalar ham mavjud.

1. Ot turkumi leksemasiga qo'shiladigan noparadigmatik affikslar quyidagilar:

1) kichraytirish (shu asosda erkalash) ma'nosini ifodalovchi *-cha*, *-choq* (*-chak*) affikslari: *qizcha-*, *kitobcha-*; *toychoq-*, *qo'zichoq-*, *kelinchak-*, *tugunchak-* kabi;

2) 'iliq munosabat'ni ifodalovchi *-gina* affiksi: *bolaginam-*, *onaginang* X *o'rgilsin* kabi. Bu affiks 'faqat' ma'nosini ifodalovchi *-gina* yuklamasi bilan omonim: *bolam-gina*, *onang-gina* kabi;

3) 'hurmat' ma'nosini ifodalovchi *-lar* affiksi: *ona+m+lar+ni* kabi;

4) 'xoslik' ma'nosini ifodalovchi *-niki* affiksi: *ona + ØI +m+niki*, *Shohista + ØI + niki* kabi;

5) 'o'ringa nisbat berish' ma'nosini ifodalovchi *-dagi* affiksi: *uy+lar+imiz+dagi*, *qishloq+lar+dagi*, *tog'a+ØI + miz 2 + niki + dagi* kabi;

6) substantiv shakl yasovchi *-lik* affiksi: *qaysi qavat + ØI + da + lig + i + ni* kabi. Bu affiksning ish doirasi ancha keng: *kel + moqchi + lig + i + ni*, *bor + lig + i + ni*, *yaxshi + lig + i + ni* kabi. Asli bu *-lik* affiksi *ekan* yordamchisiga qo'shiladi, bu yordamchi ellipslanishi oqibatida undan oldingi qismga qo'shib keladi: (*qaysi*) *qavatda ekanligini* → *qavatdaligini* kabi.

2. Ot turkumi leksemasiga 'iliq munosabat' ifodalovchi *-jon*, *-boy* (*-voy*), *-xon*, *-oy* affiksoidlari qo'shiladi: *buvijon-*, *Olimjon-*, *Ravshanboy-*, *Komilaxon-*, *Tursunoy-* kabi. Bu affiksoidlar ayrim kishi atoqli otlarida ularning doimiy tarkibiy qismi sifatida qatnashadi: *Oyxon-*, *O'g'iloy-* kabi.

3. Ot turkumi leksemasiga qo'shiladigan leksik tabiatli morfemalar deb ko'makchilarni ko'rsatish lozim.

Ko'makchi adabiyotlarda bog'lovchi va yuklama bilan birlashtiriladi. Aslida ko'makchi bog'lovchi va yuklamadan keskin farq qiladi: ko'makchi leksemashakl tarkibiga kiradi, leksemani sintaktik vazifada kelishga hozirlaydi; bog'lovchi odatda leksemashakllar orasidagi sintaktik munosabatni ta'minlab, ma'lum bir grammatic ma'noni ifodalashga xizmat qiladi; yuklama odatda biror sintaktik vazifada kelgan leksemashaklga, shuningdek gapshaklga turlicha grammatic ma'no qo'shadi. Ko'rindiki, ko'makchini bog'lovchi, yuklama qatorida turadigan grammatic birlik turkumi deb talqin etish o'rinni emas; ko'makchi asli morfemaga teng deb baholanishi to'g'ri. Ko'makchilar ot leksemalar turkumiga mansub sintaktik shakl hosil qiluvchi bo'lib, leksik tabiatli morfemalar guruhini tashkil qiladi.

Ko'makchilar affiks morfemalardan farqli holda leksemaga kelishik ko'rsatkichidan keyin qo'shiladi, kelishik bilan ko'makchi birlashtiriladi analitik grammatic shaklga teng bo'ladi. Bunday analitik grammatic shakl tarkibida uch kelishikning: bosh, chiqish, jo'naliq kelishiklarining ko'rsatkichlari qatnashadi; sintaktik vazifani analitik grammatic shaklning ko'makchi qismi belgilaydi, uning oldidagi kelishik shakli sintaktik-semantik jihatdan betaraflashadi.

Har bir ko'makchi asosan bir grammatic ma'noni ifodalaydi; ko'makchilardagi ko'pma'nolilik asli ko'makchining o'ziga emas, balki ko'makchi qo'shilayotgan birlikdan (leksemadan, birikmadan) anglashiladigan lug'aviy ma'noga mansub bo'ladi. Masalan, *ilan* ko'makchisi odatda ot leksemaga qo'shilib kelganida 'birgalik[da]' ma'nosini ifodalaydi: *O'g'lingiz bilan birga boshlashib keldi* (Odil Yoqubov) kabi. Bu ko'makchi fe'lning otdosh shakliga qo'shilib kelganida keyingi harakatning oldindi harakat tugashi bilanoq yuz berishini ifodalaydi: *Shoira yo'lak boshida ko'zdan g'oyib bo'lishi bilan Abduvohid Sherzodga qarab iljaydi* (O'tkir Hoshimov) kabi. Bunday ma'noni *ilan* ko'makchisining yolg'iz o'zi ifodalamasligi, bunday ma'no fe'lning otdosh shakli tufayli ro'yobga chiqishi o'z-o'zidan ayon va b. Xullas, ko'makchi qatnashadigan qurilmaning ma'nosini ko'makchi ifodalaydigan ma'nodan ajratib baholash ma'qul.

Rus tili grammaticalari ta'sirida *sababli*, *tufayli*, *chog'li*, *osha*, *bo'ylab*, *bo'yicha*, *holda*, *yo'sinda*, *tomon*, *asosan*, *binoan*, *muvofig*, *qarata* kabi turli turkum leksemashakllari, shuningdek "ko'makchi ot" nomi bilan *ost-*, *ust-*, *tag-*, *old-*, *orqa-*, *ich-*, *o'rtta-*, *ora-*, *bosh-* kabi ot leksemalarning ma'lum kelishik shakllari ko'makchilar qatoriga nohaq ravishda kiritilgan.

Ayrim ko'makchilar orasida sinonimik munosabat mavjudligidan qat'i nazar (*kabi*, *singari*; *qadar*, *dovur*; *so'ng*, *keyin*; *beri*, *buyon*), ko'makchilar

rang-barang ma'nolarni ifodalashga xizmat qiladi, shunga ko'ra o'zaro paradigmal hosil qilmaydi.

4. Ko'makchiga sinonim *-dek* (*-day*), *-cha* affiksleri alohida baholanishi kerak. Bular kelishik shaklidan keyin qo'shilishiga ko'ra ko'makchiga o'xshaydi, lekin ifoda jihatiga va o'zidan oldingi qismga qo'shib yozilishiga ko'ra affiksga o'xshaydi. Shu xususiyatlarini hisobga olib bularni *affiks-ko'makchi* deb nomladik: *uka + ØI + m + + ØII + kabi* — *uka + ØI + m + + ØII + dek, uy + ØI + ing + ga + cha* — *uy + ØI + ing + ga + qadar kabi*. *Qadar* ko'makchisiga sinonim *-cha* affiks-ko'makchisi urg'u olmaydi, leksemashaklga qo'shilib keladi; shunga ko'ra *-cha* affiks-ko'makchisini asli boshqa affikslardan farqli holda leksemashaklga chiziqcha orqali yarim qo'shib yozish to'g'ri (Noparadigmatik morfemalarning turli-tuman belgi-xususiyatlari haqida leksemashakllar tizimi bahsida gapiriladi).

### SIFAT LEKSEMALAR TURKUMIDA SHAKL YASALISHI

1- §. Predmetning sifatiy belgisini anglatadigan leksemalarga sifat leksemalar turkumi deyiladi. O'zbek tilida sifat leksemaga shakl o'zgarishi xos emas, shunga ko'ra sifat leksema ot leksemaga shakl o'zgartiruvchisiz to'g'ridan to'g'ri bog'lanadi: *chiroyli uy-, keng ko'cha-, issiq non-* kabi.

Sifat leksemalarda shakl yasalishi bor, lekin sifat leksemalarning barcha leksik-semantik guruuhlariga birdek xos emas.

Tom ma'nodagi sifat leksema deb asliy sifatlarga aytildi: *qizil-, katta-, tetik-, issiq-, achchiq-* kabi. Bular predmetning sifatiy belgisini o'zicha, bevosita anglatadi. Nisbiy sifatlarda esa predmetning belgisi boshqa bir predmetga nisbat berilib anglatiladi: *bugungi- (suhbat-), kuzgi- (govun-)* kabi.

2- §. Shakl yasalishi asosan asliy sifatlarga mansub bo'lib, nisbiy sifatlarga ayrim shakl yasovchilarini-gina qo'shiladi.

Sifat leksemalarga qo'shiladigan eng keng qamrovli morfema — *-roq* affaksi. Bu affiks asli 'biroz' ma'nosini ifodalaydi. Masalan, *shirin-* leksemasi belgining ortiq-kamligini ifodalashi jihatidan betaraf shu leksemaning *shirin-roq-* shaklidan 'biroz shirin', 'nisbatan shirin' ma'nosi anglashiladi; *kuchli-, kuchsiz-* leksemalari bilan ularning *kuchliroq-, kuchsizroq-* shakllari orasidagi ma'no farqi ham xuddi shunday: 'biroz kuchli', 'nisbatan kuchsiz' kabi. Ko'rinadiki, bir predmetga xos belgi boshqa bir predmetdag'i shunday belgiga nisbatan ifodalanadi: *keng xona-* birikmasida *keng* sifat leksemashakli xonaning keng ekanligini o'zicha, bevosita, qiyoslanmagan holda anglatadi; *kengroq xona-* birikmasida *kengroq* sifat leksemashakli 'biroz keng' ma'nosini anglatadi, bunda belgi qiyosan aniqlanadi: agar xona o'zi keng bo'lsa, undan

ko'ra biroz keng xona tushuniladi; agar xona tor bo'lsa, undan ko'ra biroz keng xona tushuniladi.

Demak, *-roq* affiksi 'me'yordan oz' ma'nosini ifodalaydi deyish to'g'ri emas; ushbu affiks betaraf holda 'biroz', 'nisbatan' ma'nosini ifodalaydi, belgining ortiq-kamligi ma'nosi esa qiyoslanayotgan (nazarda utilayotgan) predmetdagi belgi asosida bildiriladi.

*Sal keng-, biroz keng-* kabi qurilmalar sifatlovchi-sifatlanmish birikmasiga teng, bu yerda belgining kuchsizligi leksik birlik yordamida anglatiladi. Shunga ko'ra bunday birlklardan anglashiladigan ma'noni *-roq* affiksi ifodalaydigani ma'no bilan bir qatorga qo'yish noto'g'ri: bular mustaqil hodisalar, shunga ko'ra *biroz kengroq-* tarzida har ikki usulni birgalikda ishlatish mumkin. *Biroz-* leksemasi va *-roq* affiksi juda o'xshash, lekin boshqa-boshqa ma'noni (*biroz-* leksik ma'noni, *-roq* esa grammatik ma'noni) bildiradi.

Shuningdek belgining *Yaxshi so'z boldan* (*boldan ko'ra, bolga qara-ganda*) *shirin* kabi qurilmalar bilan ifodalanadigan ma'nosi va *-roq* affiksi bilan ifodalanadigan ma'no – boshqa-boshqa hodisalar.

Asli sifat leksemaga qo'shiladigan *-roq* affiksi sifat tur ravish leksema-larga ham (*tezroq-, kechroq-* kabi), shuningdek ba'zan fe'l leksemaning ravishdosh shakliga ham (*o'yabroq gapir-* kabi) qo'shiladi.

3- §. Sifat leksema oldidan *eng*, *g'oyat*, *g'oyatda*, *bag'oyat*, *nihoyatda*, *juda* kuchaytiruv morfema-affiksoidlarini keltirish bilan sifat leksema anglatadigan belgi kuchli darajada ekanligi bildiriladi: *eng go'zal-*, *juda go'zal-* kabi. *Eng* va *juda* kuchaytiruvchilari ma'no jihatidan farqli: *eng* kuchaytiruvchisining semantik mundarijasida 'boshqalarga nisbatan' semasi bor (Belgining kuchli darajasi qiyoslab anglatiladi).

Ushbu kuchaytiruv morfemalari sifat tur ravish leksemalar bilan ham ishlatiladi: *eng tez-*, *juda tez-* kabi.

Belgining kuchli darajada ekanligi ayni sifat leksema bilan *xunukdan* *xunuk*, *xunuklarning xunugi* kabi qurilmalar tuzib ham ifodalanadi. Bu yerda belgining kuchli darajada ekan leksik-sintaktik usul bilan ifodalanadi.

4- §. Belgining kuchsiz darajada ekanini ifodalaydi deb *-(i)sh*, *-(i)mtir* affikslari ko'rsatiladi. Bu affikslarning ishlatilish doirasi juda chegaralangan bo'lib, rang-tus anglatadigan bir necha sifat leksemaga, shunda ham tanlab qo'shiladi: *ko'kish-*, *ko'kimtir-*, *sarg'ish-*, *sarg'imtir-*; *oqish-* (lekin *oqimtir*- shaklida ishlatilmaydi), *qoramtir-* (lekin *qorash-* shaklida ishlatilmaydi) kabi. Bu affikslar asli belgining kuchsiz darajada ekanini emas, balki 'leksemadan anglashiladigan rangga moyil'likni ifodalaydi: *sarg'ish-* – 'sariq rangga moyil', 'ranggi sariq bo'lib ko'rindigan'.

5- §. Belgining kuchli darajada ekanligi noto'liq takror deb ataladigan usul bilan ham ifodalanadi; bunday ifoda usuli *intensiv forma* deb yuritiladi. Bunda:

1) sifat leksemaning yopiq bo'g'inga teng bosh qismi olinib, shu leksemaning oldiga qo'shiladi, yozuvda chiziqcha bilan yarim ajratib yoziladi: *dum-dumaloq-* → *dum-dumaloq-, pakana-* → *pak-pakana-, butun-* — *but-butun-* kabi;

2) sifat leksemaning ochiq bo'g'inga teng bosh qismi olinib, unga *m, p* tovushini qo'shib yopiq bo'g'inga aylantiriladi va shu sifat leksemaning oldiga qo'shiladi: *ko'k-* → *ko'm-ko'k-, bo'sh-* → *bo'm-bo'sh-, yashil-* → *yam-yashil-, qizil-* → *qip-qizil-, qorong'i-* → *qop-qorong'i-* kabi;

3) sifat leksemaning ochiq bo'g'inga teng qismi olinib, unga *p* tovushi orttiriladi va bu orttirilgan tovush qatlanib, unga *a* tovushi orttiriladi, ana shunday qism sifat leksemaning oldiga qo'shiladi: *to'g'ri-* → *to'ppa-to'g'ri-, kunduzi-* → *kuppa-kunduzi-* kabi; *oq* sifat leksemasida *pp* tovushlaridan keyin *a* tovushini orttirmaslik mumkin: *oq-* → *oppa-oq-* → *oppoq-* kabi.

6- §. Ot leksemalarga qo'shilib, 'iliq munosabat' ifodalovchi *-gina* affaksi sifat leksemalarga ham qo'shiladi: *soddagina yigit-, nozikkina qiz-* kabi.

7- §. Sifat leksemalarga ot leksemaga qo'shiladigan substantiv shakl yasovchi *-lik* affaksi ham qo'shiladi. Bunda asli *-lik* affaksi gapshaklni qaratuvchili birikmaga transformatsiyalashda ishlatiladi: *Ukam sezgir.* → *ukamning sezgirligi-* kabi.

8- §. Yuqoridagi tasvirlardan ayon bo'ladiki, sifat leksemalarga qo'shiladigan affikslar, affiksoidlar va boshqa tur vositalar ifoda jihatidan ham, mazmun jihatidan ham turli-tuman bo'lib, bir butun paradigmaga birlashmaydi, noperadigmatik (yakka) morfemalar sifatida namoyon bo'ladi. Sifat darajalari deb kelingan hodisalarni yaxlit bir paradigmaga (tuzumga) birlashtirish uchun yetarli asos yo'q.

## SON LEKSEMLAR TURKUMIDA SHAKL YASALISHI

1- §. Predmetning miqdoriy belgisini anglatadigan leksemalarga son leksemalar deyiladi. O'zbek tilida son leksemaga shakl o'zgarishi xos emas, shunga ko'ra son leksema ot leksemaga shakl o'zgartiruvchisiz *to'g'ridan to'g'ri bog'lanadi: ikki kishi-, to'rt shahar-, besh yil-* kabi.

Son leksemalar *miqdor son* va *tartib son* deb ajratiladi. Miqdor son predmetning umuman ko'p-ozligini emas, balki ma'lum bir aniq yoki chamali miqdorini anglatishga xizmat qiladi.

Miqdor sonlardan dastlab *sanoq sonlar* ajratiladi. Lisoniy birlik deb avvalo asosiy sanoq sonlarga aytildi; son leksemalarning boshqa turlari sanoq

son asosida hosil qilinadi. Ma'lum tizim hosil etuvchi quyidagi 22 sanoq son *son birliklari* deyiladi: 1) birlik sonları: *bir-*, .. *to'qqiz-*; 2) o'nlik sonlar: *o'n-*, .. *to'qson-*; 3) yuqori miqdor sonları: *yuz-*, *ming-*, *million-*, *milliard-*.

Tarixan yuqori miqdor sonları tarkibida quyidagicha o'zgarish voqe bo'lgan: a) *yuz-*, *ming-* qatorida ilgari *tuman-* (10000), *lak-* (100000) sonları ishlatalgan; bu yerda keyingi son oldingi sondan o'n karra ko'p miqdorni anglatgan; b) ijtimoiy taraqqiyot natijasida *tuman-*, *lak-* sonları istemoldan chiqqan (*tuman-* sonı — turkiy, *lak-* sonı asli hindcha); bular o'rmini *million-*, *milliard-* sonları egallagan; bu yerda keyigi son oldingi sondan ming karra ko'p miqdorni anglatadi; *ming-* (1000), *million-* (1000000), *milliard-* (1000000000). *Million-* sonı fransuzcha bo'lib, 'mingta ming' ma'nosini, *milliard-* sonı ham fransuzcha bo'lib, 'mingta million' ma'nosini anglatadi. Zarurat tug'ilsa, *trillion-* sonı ham ishlataladi; bu son asli lotincha bo'lib, "mingta milliard' ma'nosini anglatadi. Ko'rindiki, 'o'n karralab' ko'payish 'ming karralab' ko'payishga almashgan.

*Yuz-*, *ming-* sonları oldidan sifatlovchi keltirilishi bu leksemalar asli ot leksema ekanini ko'rsatadi. Hatto *o'n-* sonı ham shunday xususiyatga ega bo'lgan: *sakson-*, *to'qson-* sonları asli *sakkiz-*, *to'qqiz-* birlik sonlarını sifatlovchi vazifasida *o'n-* leksemasiga bog'lab tuzilgan: *sakkiz o'n-* → *sakson-kabi*. *Oltmish-*, *yetmish-* o'nlikleri ham asli 'o'n' ma'nosini bildirgan mish-leksemasiga *olti-*, *yetti-* birlik sonları sifatlovchi tariqasida bog'lab tuzilgan deb taxmin qilinadi. Hozirgi o'zbek tilida yuqorida tilga olingan son leksemalar sodda son, tub son hisoblanadi.

Sanoq son matematikada ma'lum miqdorning nomi sifatida ishlataladi, shunga ko'ra ot leksema kabi turlanadi: *Besh* (5) *ikkiga* (2ga) *bo'linmaydi*. *To'qqizdan* (9dan) *ikkini* (2ni) *olsak*, *yetti* (7) *qoladi* kabi.

Sanoq son *kishi-*, *farzand-*, *o'g'il-*, *qiz-*, *ota-ona-* kabi kishi otlariga bevosita birikadi: *besh kishi-* (*farzand-*, *o'g'il-*) kabi. Sanoq son narsani anglatadigan otga birikkanida orada o'sha narsa uchun o'lchov birligi bo'lib xizmat qiladigan ot leksema qatnashadi. Masalan, daraxt, ko'chat kabilalar uchun o'lchov birligi vazifasini *tup-* leksemasi, qo'y, sigir kabilalar uchun esa *bosh-* leksemasi bajaradi: *uch tup olma-*, *ellik bosh qo'y-* kabi. Bunday vazifa-fada keladigan ot leksemaga *numerativ* deyiladi (lot. *numeratio* — 'sanash', 'hisob'). Bunday vazifada idish nomlari, vaqt o'lchovini, og'irlilik o'lchovini, hajm o'lchovini, sath o'lchovini, uzunlik o'lchovini, pul o'lchovini bildiradigan va boshqa tur leksemalar keladi.

2- §. 22 son birligi bilan 1tadan tortib 99999999999tagacha bo'lgan miqdor ifodalanadi. Bu qadar ko'p miqdorni ifodalashga sodda sonlar bilan ma'lum qoliqlar asosida hosil qilinadigan tuzma sonlar yordamida erishiladi.

Bunday tuzma sonlarni tuzish qoliplari lisonda mavjud bo'lib, har gal nutqda bu qoliplar miqdor birliklari bilan to'ldiriladi.

Tuzma sonlarning turlari va qoliplari quyidagicha:

1. O'nliklar orasidagi miqdorni ifodalovchi tuzma sonlar "o'nlik son + birlik son" qolipi bilan tuziladi: *o'n bir-, .. to'qson to'qqiz-* kabi. Bunda o'nlik songa birlik son qo'shiladi: *o'n va bir, o'n-u bir, o'n + bir*; shunga ko'ra bu son turini qo'shuvga asoslanadigan tuzma son deb atash mumkin.

2. Yuzliklarni ifodalovchi tuzma son bunday miqdor soni oldidan birlik sonni keltirish bilan ifodalanadi: *bir yuz-, .. to'qqiz yuz-* kabi. Bunda yuzlik son ot hukmida bo'lib, unga birlik son sifatlovchi vazifasida keladi; mohiyati jihatidan 'karra' ma'nosi ifodalanadi: *ikki yuz- = 'ikki karra yuz'* kabi. Shunga ko'ra bu son turini ko'paytiruvga asoslanadigan tuzma son deb atash mumkin: *ikki yuz- = 'ikki X yuz'* kabi.

3. Yuzliklar orasidagi miqdorning ifodalanishi o'nliklar orasidagi miqdorni ifodalash qolipi bilan tuziladi: a) "yuzlik + birlik": *ikki yuz uch-* kabi; b) "yuzlik + o'nlik": *ikki yuz o'n-* kabi; v) "yuzlik + o'nlik orasidagi birlik": *ikki yuz to'qson to'qqiz-* kabi.

4. Mingliklar (va undan yuqori miqdor birliklari) bunday son oldidan quyidagi son turlarini keltirib ifodalanadi: a) birlik sonni: *ikki ming-, .. to'qqiz milliard-* kabi; b) o'nlik sonni: *yigirma ming-, .. to'qson milliard-* kabi; d) o'nliklar orasilagi sonni: *yigirma bir ming-, .. to'qson to'qqiz milliard-* kabi; e) yuzlik sonni: *ikki yuz ming-, .. to'qqiz yuz milliard-* kabi; f) yuzliklar orasidagi miqdor sonni: *ikki yuz besh ming-, .. ikki yuz to'qson to'qqiz milliard-* kabi; g) yuqoridagi bandlarda ta'kidlangan barcha tur sonlarni: *to'qqiz yuz to'qson to'qqiz milliard to'qqiz yuz to'qson to'qqiz million to'qqiz yuz to'qson to'qqiz ming to'qqiz yuz to'qson to'qqiz-*.

Ko'rindiki, tuzma sonlarni tarkiblashda tenglik aloqasidan ham, tobelik aloqasidan ham foydalanilgan.

3- §. Miqdor sonlarining sanoq sondan tashqari donalik son, chama son, taqsim son, jamlovchi son turlari mavjud; bular affiks bilan va boshqa usul bilan hosil qilinadi.

*Donalik son* sanoq songa shakl yasovchi *-ta* affiksini qo'shib hosil qilinadi: *bitta-, .. millionta-* kabi. 'Dona' ma'nosi *-ta* affiksidan tashqari *dona, nafar* kabi leksemalar bilan ham ifodalanadi; *dona* leksemasi narsalarning sanog'ini bildirishda, *nafar* leksemasi esa kishilarning sanog'ini bildirishda ishlataladi: *ikki dona qalam-, uch nafar ottiq askar-* kabi.

4- §. *Chama son* predmetning miqdorini taxminlab bildiradi. Bunda miqdor asosan oz tomonga, ba'zan-gina ko'p tomonga chamanalanadi. Chama

ma'nosi sintetik usul — affiks bilan va analitik usul — son birliklarini juftlash bilan ifodalanadi.

1. Chama son quyidagi affiksler bilan yasaladi:

1) Donalik songa chama ma'nosini ifodalovchi *-cha* affiksini qo'shib yasaladi (odatda eng kichik donalik sondan-gina yasalmaydi): *uchtacha-*, *yuztacha-* kabi. Bunday yasalishda 'donalab' chamalash ma'nosi ifodalanadi: *o'ntacha* = yo to'qqizta, yo o'nta, yo o'n bitta kabi. Buni raqam bilan —/+10 deb ko'rsatish mumkin. Bu tur chama sonni donalovchi chama son deb atash mumkin.

2) *Yuz-, ming-* kabi yuqori miqdorni anglatuvchi sanoq songa *-larcha* affiksini qo'shib yasaladi; bu affiks tarkibidagi *-lar* qismi 'chegaralash' ma'nosini, *-cha* qismi 'chama' ma'nosini ifodalaydi: *yuzlarcha-* = 'yuzga yaqin', 'yuzga yetar-yetmas'. Buni raqam bilan — 100 deb ko'rsatish mumkin.

3) *O'n-, yuz-, ming-* va undan yuqori miqdorni anglatadigan son birliklaridan *-lab* affiksi bilan yasaladi: *yuzlab-*, .. *millionlab-* kabi. Bunday yasalishda chama 'bir necha' tarzida ifodaanadi: *yuzlab-* = 'bir necha yuzlarcha' kabi. Ko'paytiruv amalini eslatadigan bu chama son turini karralovchi chama son deb atash mumkin.

2. Chama son analitik usul bilan quyidagicha tuziladi:

1) Ketma-ket miqdorni ifodalaydigan birlik sonlari o'zaro juft holda ishlataladi: *uch-to'rt-* kabi. Bunda oz miqdorni ifodalovchi birlik son oldin, ko'p miqdorni ifodalovchi birlik son keyin joylashadi; shunga ko'ra 'ko'payuvchi chama' ma'nosi ifodaanadi: *uch-to'rt* = 'uch yo to'rt, yo besh' kabi. Ba'zan oz miqdorni ifodalovchi birlik son keyin keladi: *besh-to'rt-* kabi. Bunda 'kamayuvchi chama' ma'nosi ifodaanadi: *besh-to'rt-* = 'besh yo to'rt, yo uch' kabi.

*O'n-o'n ikki, uch-besh* kabi ishlatishda asli chama emas, balki 'eng ozi — eng ko'pi', 'ma'lum miqdor oralig'ida' kabi ma'no ifodaanadi.

2) Ketma-ket miqdorni ifodalaydigan ikki donalik son juft holda ishlataladi: *uchta-to'rtta-* kabi. Bu yerda chama ma'nosi 'dona' ma'nosi qo'shilgan holda ifodaanadi.

3) Ketma-ket miqdorni ifodalaydigan o'nlik sonlar juft holda ishlataladi: *o'ttiz-qirq-* kabi (Bunday juft son *o'n-yigirma-* tarzida tuzilmaydi). Bu yerda miqdor 'o'nlab' chamalanadi.

4) O'nlik son shu o'nlik sonni *besh-* soni bilan birga juftlab tuziladi: *o'ttiz-o'ttiz besh-* kabi. Bunda miqdor 'beshlab' chamalanadi. Bunday chama son *o'ttiz besh-qirq-* tarzida ham tuziladi.

Yuqori miqdor sonlarida 'ketma-ket'lik talabidan ba'zan chetga chiqiladi: *yuz-ikki yuz-* deb ham, *yuz-uch yuz-* deb ham tuzish mumkin.

3. Vaqtini chamarlab ifolalash uchun *soat birda kabi* qurilmaga kelishik-dan oldin, *-lar* affiksi qo'shiladi: *soat birlarda kabi*. Bunda 'yaqin', 'yetar-yetmas' kabi chama ma'nosi ifodalanadi.

5- §. *Tagsim son* miqdor sonlarining alohida turi bo'lib, quyidagicha hosil qilinadi:

1) Donalik songa *-dan* affiksini qo'shib: *ikkitadan*, *uchtadan*, *bir yuz o'ntadan* kabi.

2) Donalik sonni takrorlab, keyin *-dan* affiksini qo'shib: *ikkita-ikkitadan* kabi; ba'zan *-dan* affiksi har ikki dona songa qo'shiladi: *ikkitadan-ikkitadan* kabi.

3) Oldingi tur ifodalishdan keyin *bo'lib* yordamchisini qo'shib: *ikkita-dan-ikkitadan bo'lib* kabi.

4) *-ov* affiksi bilan yasalgan jamlovchi sonni takrorlab, keyin *bo'lib* yordamchisini qo'shib: *ikkov-ikkov bo'lib* kabi.

6- §. *Jamlovchi son* predmetning miqdorini to'dalab ifodalaydi, ayrim birlik sonlaridan-gina *-ov*, *-ala* affiksi bilan yasaladi:

1) Ikkidan sakkizgacha bo'lgan olti sanoq sondan (ba'zangina *o'n-* sanoq sonidan) *-ov* affiksi bilan yasaladi: *ikki + ov > ikkov-*, *uch + ov = uchov-* kabi.

*Bir-* sonidan *-ov* affiksi bilan yasalgan *birov-* leksemasi ikki xil ma'noni ifodalaydi: a) qiz bolalarning o'yinida *birov*, *ikkov* kabi sanoqni bildiradi; b) 'kimdir notanish kishi' ma'nosini bildiradi, bunda guman olmoshi *bo'ladi*.

*-ov* affiksi bilan yasalgan jamlovchi son ot tabiatli *bo'lib*, odatda ko'plik nisbatlovchisi qo'shilgan holda ishlatiladi, nisbatlovchidan keyin kelishik morfemasi qo'shiladi: *ikkov + imiz + ni* kabi.

2) Ikkidan oltigacha bo'lgan to'rt sanoq sondan *-ala* affiksi bilan yasaladi: *ikki + ala > ikkala-*, *uch + ala > uchchala-* kabi. Jamlovchi sonning bu turi ham ot tabiatli *bo'lib*, asosan ko'plik nisbatlovchisi va kelishik morfemasi qo'shilgan holda ishlatiladi: *ikkalamizni*, *beshalamiz* kabi. Bu tur jamlovchi son sifatlovchi vazifasida ham ishlatiladi, bunda nisbatlovchi va kelishik ko'rsatkichlari o'z-o'zidan qatnashmaydi: *ikkala talaba-*, *ikkala xona-* kabi.

7- §. Son birliklari bilan butun miqdor-gina emas, butunning qismiga teng miqdor ham ifodalanadi. Butun songa zid qo'yib bunday son turi *kasr son* deyiladi: *o'ndan ikki-*, *sakkizdan bir-* kabi. Bunday qurilmaning to'liq shakli asli *o'n bo'lakdan ikki bo'lak* shaklida tuzilgan, keyinchalik ixchamlikka intilib, *bo'lak* qismlari tashlangan, birinchi *bo'lak-* leksemasiga qo'shiladigan *-dan* affiksi sanoq songa qo'shiladigan *bo'lgan*: *o'n bo'lakdan → o'ndan* kabi. *O'n bo'lakdan ikki bo'lak-* ot tabiatli qurilma *bo'lib*, unga

nutqda kelishik morfemasi qo'shiladi; *bo'lak* leksemasi tashlanganidan keyin kelishik morfemasi sanoq songa (asli ushbu qurilmaga yaxlitligicha) qo'shiladigan bo'lgan: (*o'n bo'lak*) dan (*ikki bo'lak*)ni → (*o'ndan ikki*)ni kabi.

Butun son bilan kasr sondan tuzilgan songa *kasrlı son* (matematikada *aralash son*) deyiladi: *ikki butun o'ndan ikki-* kabi.

Kasr son ham, kasrlı son ham — tuzma son.


**8- §.** Sanoq sondan *-nchi* affixsi bilan yasalgan son turiga *tartib son* deyiladi: *ikkinchı-, yigirmanchı-* kabi. Son leksemalarning boshqa turlari miqdor ma'nosini anglatса, tartib son predmetning boshqa predmetlar qatorida nechanchi o'rinda ekanini ifodalaydi: *uchinchı-* soni 'ikkidan keyingi' ma'nosini bildiradi.

Tartib son sifat tabiatli bo'lib, sifatlovchi vazifasida keladi: *to'qqizinchı sinf-* kabi.

*Birinchi-, ikkinchi-* tartib sonlari *oliy nav-* kabi birikmalar qatorida ishlatalib, belgi (sifat) ma'nosini kashf etgan: *oliy nav-, birinchi nav-* kabi.

Tartib songa *-dan* affiksini qo'shib *birinchidan, ikkinchidan* kabi hosil qilingan leksemalar sira ma'nosini ifodalab, kirish bo'lak vazifasida keladi.

**9- §.** Son leksemalar turlarini quyidagicha jadval tuzib ko'rsatish mumkin:



## FE'L LEKSEMALAR TURKUMIGA MANSUB MORFEMALAR TIZIMI

1- §. Predmetning harakat-holat belgisini anglatadigan leksemaga fe'l leksema, bunday leksemalar birgalikda fe'l leksemalar turkumi deyiladi. Fe'l leksemalar turkumi ot leksemalar turkumidan keyin ikkinchi yetakchi turkum bo'lib, ravish turkumi leksemalari asosan shu turkum leksemalarining belgisini anglatadi.

Fe'l leksemalarni ko'makchi fe'llardan ajratish lozim. Fe'l leksemalar — leksik birlik, ko'makchi fe'llar — grammatick birlig: grammatick ma'no ifodalashga xizmat qiladi, shunga ko'ra morfemalarning bir turi — leksik tabiatli morfema deyiladi (Ko'makchi fe'llar o'z o'rniда tasvirlanadi).

Fe'l leksemalar predmetning *kel-*, *ber-* kabi turli harakatini anglatadi, shuningdek *uxla-*, *gulla-* kabi holatini ham harakat sifatida bildiradi.

Fe'l leksemalar semantik-grammatick belgi-xususiyatlarga boy bo'lib, bularning ayrimlari fe'l leksemaning o'zi bilan, ko'pchiligi esa turli tashqi vositalar bilan ifodalanadi.

### Fe'l leksemalarda o'timli-o'timsizlik

2- §. O'timli-o'timsizlik avvalo biror grammatick ko'rsatkich olmagan fe'l leksemaning o'zidan anglashiladi, harakat bilan ushbu harakat qaratiladigan predmet — vositasiz to'ldiruvchi orasidagi munosabat asosida belgilanadi.

O'timli yoki o'timsiz bo'lish fe'l anglatadigan leksik ma'noga bog'liq. Masalan, *tashla-* leksemasi 'nimanidir bir joydan boshqa bir joyga kuch bilan yo'naltir-' ma'nosini anglatadi. Ushbu ma'no ta'rifи tarkibidagi 'nimanidir' semasi bu fe'l leksema o'timli ekanini ko'rsatadi. *Yot-* leksemasi 'ma'lum bir sathni yotiq holatda egalla-' ma'nosini anglatadi. Ushbu ma'no ta'rifи tarkibida harakat qaratiladigan predmet (vositasiz to'ldiruvchi) mavjudligini ko'rsatadigan sema yo'q, shunga ko'ra bu leksema o'timsiz deyiladi.

Ko'rindiki, o'timli-o'timsizlik biror grammatick ko'rsatkich olmagan fe'l leksemalarda leksik-semantik hodisa sifatida mavjud. Lekin bunday fe'llarning o'timli ekan tashqi ko'rsatkichiga ega: bunday fe'lga bog'lanadigan vositasiz to'ldiruvchi — tushum kelishigidagi leksemashakl o'timlilikning tashqi markeri vazifasini bajaradi (fr. *marquer* — 'belgili qilish'). Demak, o'timli fe'l leksema biror grammatick ko'rsatkich olmagan holda *nimani*, *kimni* so'rog'iga javob bo'ladigan vositasiz to'ldiruvchini boshqaradi, o'timsiz fe'l leksemada bunday boshqaruv bo'lmaydi. Ko'rindiki, bunday fe'l leksemalarda o'timli-o'timsizlik sof semantik hodisa emas, balki semantik-sintaktik hodisa.

O'timli-o'timsizlik fe'l leksemalarga-gina xos muhim xususiyat bo'lib, fe'llikka mansub nisbat, orttirma kabi hodisalar o'timli-o'timsizlikka asoslanadi.

O'timli fe'l leksema vositasiz to'ldiruvchidan tashqari vositali to'ldiruvchini ham boshqarishi mumkin: *ol* — *kim kimdan nimani*, *ber* — *kim kimga nimani* kabi. Fe'l leksemaning o'timliligini belgilashda vositali to'ldiruvchining bor-yo'qligi ahamiyatsiz.

### Nisbat paradigmasi va unga yondosh hodisalar

3- §. Harakatning bajaruvchisi bilan harakat o'tadigan predmet — vositasiz to'ldiruvchi orasidagi o'zaro munosabatda bajaruvchining holatini belgilaydigan morfemaga nisbat yasovchisi deyiladi, bunday morfemalar nisbat shakllari paradigmasini tashkil etadi.

Nisbat paradigmasi o'zbek tilida majhul nisbat va unga zid qo'yib belgilanadigan aniq nisbat shakllaridan iborat. Majhul nisbat markerli: *-l* affixi bilan yasaladi: *ayt*- → *aytil*-, *yasa*- → *yasal*- kabi. Ba'zan *-l* affixi *-n* shaklida qo'shiladi: *ol*- → *olin*-, *sayla*- → *saylan*- kabi. Ko'rindaniki, majhul nisbat yasovchi affiks *-l*, *-n* allomorfemalari shaklida namoyon bo'ladi; bulardan *-l* asosiy, *-n* esa ikkilamchi allomorfema bo'lib, odatda fe'l leksema tarkibida *l* fonemasi mavjud bo'lsa, shu fonemaning ta'siri bilan affiksning ifoda jihatni bo'lib kelgan *l* tovushi *n* tovushiga almashadi, shuning natijasida *-l* va *-n* allomorfemalari, *l* fonemasining *l* va *n* allofonemalari yuzaga keladi.

Bajaruvchining majhullashishi fe'l leksemaga *-l* affiksini qo'shish bilan voqe bo'ladi, shunga ko'tra bu affiks majhul nisbat yasovchisi, bu affiks qatnashadigan sintaktik qurilma esa *majhul qurilma* deyiladi (Adabiyotlarda *passiv konstruksiya* termini ishlatiladi). Majhul qurilma hosil etish uchun asos bo'lgan sintaktik qurilmaga *aniq qurilma* deyiladi (Adabiyotlarda *aktiv konstruksiya* termini ishlatiladi).

Majhul nisbat affixsi qo'shilgan o'timli fe'l leksemaga zid qo'yib (oppozitiv munosabatda) bunday affiks qo'shilmagan holat *aniq nisbat* deb yuritiladi. Aniq nisbat shaklini yasovchi affiks yo'q, bu nisbatning shakli majhul nisbat shakliga zid qo'yib nol ko'rsatkichli morfema deb belgilanadi;

*Xatni ukam yoz + Ø + di.*




*Xat Ø — yoz + il + di.*

O'timli-o'timsizlikda harakat bilan vositasiz to'ldiruvchi munosabati asosga olinsa, nisbatda bajaruvchining holatida voqe bo'ladigan o'zgarish asosga olinadi: ega vazifasidagi bajaruvchi majhullashadi, sintaktik quril-

madan chiqadi, vositasiz to‘ldiruvchi esa ega vazifasiga o‘tadi. Rasmiy nutq turida bajaruvchi majhullashmay, vositali to‘ldiruvchi vazifasiga o‘tishi ham uchraydi: *Xat ukam tomonidan yozildi* kabi.

Aniq nisbatdagi fe'l leksema vositali to‘ldiruvchini ham boshqarishi mumkin. Bunday fe'l leksemadan majhul nisbat yasalganida vositali to‘ldiruvchi odatda o‘zicha saqlanadi:

*Xatni ukam menga ber + Ø + di.*



*Xat Ø —— menga ber + il + di.*

Demak, o‘zbek tilida majhul nisbatdan va unga zidlab belgilanadigan aniq nisbatdan iborat ikki a’zoli paradigma mavjud. Majhul nisbat o‘timli fe'l leksemadan yasaladi; bunda sintaktik qurilma "bajaruvchi ega + vositasiz to‘ldiruvchi + aniq nisbatdagi fe'l leksema" holatidan "ega vazifasiga o‘tkazilgan vositasiz to‘ldiruvchi + majhul nisbatdagi fe'l leksema" holatiga transformatsiya qilinadi (lot. *transformatio* – 'qayta qurilish'). Majhul nisbat yasalishi bilan uch a’zoli sintaktik qurilma odatda ikki a’zoli sintaktik qurilmaga aylanadi, ayni vaqtida bajaruvchi ega majhullashib, vositasiz to‘ldiruvchi ega vazifasiga o‘tadi. Bunday o‘zgarishda tushum kelishigi bilan bosh kelishik orasidagi aloqa-munosabat namoyon bo‘ladi: tushum kelishigi bosh kelishikka almashadi.

Majhul nisbat o‘timli fe'l leksemadan yasaladi, shunga ko‘ra aniq nisbatda deb faqat o‘timli fe'l leksemani-gina aytish to‘g‘ri. O‘timsiz fe'l leksema vositasiz to‘ldiruvchini boshqarmaydi; transformatsiyalanuvchi bo‘laklardan biri yo‘qligi sababli majhul nisbat yasab bo‘lmaydi. Demak, o‘timsiz fe'l leksema aniq nisbat – majhul nisbat yasalishi paradigmada qatnashmaydi.

4- §. O‘timsiz fe'lga qo‘shiladigan -l affixi majhul nisbat shaklini emas, balki shaxssizlik shaklini hosil qiladi: (*U uyga*) *bordi* → (*Uyga*) *borildi*, (*Ikki kilometr*) *yurdi* → (*Ikki kilometr*) *yurildi* kabi. Shaxssizlik ma’nosi majhullik ma’nosidan keskin farq qiladi. Asli -l affixi majhul nisbat yasovchisi bo‘lib, bu affiksdan shaxssizlik ma’nosini ifodalashda ham foydalilanadi. Ma’nodagi keskin farqni hisobga olib bu yerda hozirgi o‘zbek tili nuqtayi nazaridan -l omomorfemalari haqida gapirish to‘g‘ri.

Shaxssiz fe'l ko‘rinishda III shaxs shaklida bo‘ladi-yu, lekin III shaxs ma’nosi (umuman shaxs ma’nosi) ifodalanmaydi. Majhul nisbatdagi fe'l ko‘pincha III shaxs shaklida ishlataladi va bunda III shaxs ma’nosi ifodalanaadi. Aniq qurilmada vositasiz to‘ldiruvchi kishilik olmoshi bilan ifodalansa, majhul qurilmada egaga aylanadi va bunda majhul nisbatdagi fe'l uch shaxsda

tuslanadi: *Meni chaqirdi*. → *Men chaqirildim*. *Seni chaqirdi*. → *Sen chaqirilding* kabi.

5- §. Majhul nisbat orttirma shaklidagi fe'lidan ham yasaladi, chunki orttirma yasovchisi o'timsiz fe'lni o'timlilashadiradi: (*yur-* + *g'iz*) + *il-* kabi.

Demak, majhul nisbat o'timli fe'l leksemadan ham, o'timlilashgan fe'lidan ham yasaladi. Shunga ko'ra majhul nisbatga zid qo'yib o'timli fe'l leksemani ham, o'timlilashgan fe'l leksemani ham aniq nisbatda deb baholash to'g'ri: *Xatni yozdi* → *Xat yozildi* yasalishi o'timli aniq nisbat asosida, (*Mashina yurdi* →) *Mashinani yurg'izdi* → *Mashina yurg'izildi* yasalishi o'timlilashgan aniq nisbat asosida voqe bo'ladi. Buni chizmada quyidagicha ko'rsatish mumkin:

Aniq nisbat	Majhul nisbat
O'timli fe'l leksema:	<i>yoz</i> + <i>il</i> + <i>di</i>
O'timlilashgan fe'l leksema:	<i>yur</i> + <i>g'iz</i> + <i>il</i> + <i>di</i>

Asli *ayir-* leksemasi tarixan 'alohida bo'l-' ma'nosini anglatgan az-fe'lidan -r affiksi bilan yasalgan orttirma shakli bo'lib, hozirgi o'zbek tilida bunday qismlarga ajratilmaydi, shunga ko'ra *ayir-* leksemasi aniq nisbatdagi o'timli fe'l deyiladi.

Nazariji jihatdan majhul nisbat har bir o'timli, o'timlilashgan fe'lidan yasalishi kerak, lekin amalda shunday emas. Masalan, *Sen meni urding* deyiladiyu, *Men [sen tomonidan] urildim* deyilmaydi. Bunday cheklanishlar turli sabablarga ko'ra voqe bo'ladi.

6- §. O'zlik shakli ham o'timli fe'l leksemadan yasaladi, lekin majhul nisbat shaklidan keskin farq qiladi. Buni ayni bir fe'l leksemadan ushbu ikki shaklning yasalishida ochiq ko'rish mumkin:

*Kirni opamsovun bilan yuvdi.*

*Kir Ø —— sovun bilan yuvildi.*

*Kirni opamsovun bilan yuvdi.*

*Opamsovun bilan yuvindi.*

Ko'rindaniki, o'zlik yasalishida bajaruvchi aniqligicha saqlanadi, majhul-lashmaydi; vositasiz to'ldiruvchi yo'qoladi, harakat bajaruvchining o'zida voqe bo'ladi, vositali to'ldiruvchi odatda o'zgarishsiz saqlanadi. Demak, o'zlik shakli yasalishida sintaktik qurilma tamoman boshqacha transformatsiya qilinadi.

Ayrim o'timli fe'llardan o'zlik shakli yasalganda vositasiz to'ldiruvchi yo'qolmaydi, balki vositali to'ldiruvchiga aylanadi:

*Yozuvchi asarlarini maqtadi.*

*Yozuvchi asarlari bilan maqtandi.*

*Otam meni koyidi.*

*Otam mendan koyindi.*

Ba'zi o'timli fe'llardan o'zlik shakli yasalganda sintaktik qurilmada murakkab o'zgarish voqe bo'ladi:

*Xatti-harakatim qizimni ezdi.*

*Xatti-harakatimdan qizim ezildi.*

Bu yerda ega o'zicha saqlanmaydi, sabab holiga aylanadi; vositasiz to'ldiruvchi tashlanmaydi, lekin vositali to'ldiruvchiga aylanmay, egaga aylanadi; qurilmadan o'zlik ma'nosi ifodalananadi. Ushbu transformatsiyalanish eganing o'zicha saqlanmagani bilan o'zlik shakli yasalishidan farqlanadi, vositasiz to'ldiruvchining egaga aylanishi bilan majhul nisbat yasalishiga o'xshaydi; lekin transformadan o'zlik ma'nosi ifodalananadi.

O'zlik shakli faqat o'timli fe'l leksemadan yasaladi, lekin majhul nisbat orttirma yasovchisi qo'shilishi bilan o'timlilashgan fe'l dan ham yasaladi.

O'zlik shakli -n affixi bilan yasaladi: *yuvin-*, *taran-*, *yelpin-*, *qashin-* kabi. Ba'zi leksemalarga -n shaklida emas, -l shaklida qo'shiladi: *egil-*, *bukil-*, *yigil-* kabi. Ko'rindiki, o'zlik shakli yasovchi -n affixi birlamchi -n allomorfemasi shaklida va ikkilamchi -l allomorfemasi shaklida namoyon bo'ladi; demak, bu yerda n fonemasining n asosiy allofonemasi va l ikkilamchi allofonemasi voqe bo'ladi (Majhul nisbat yasalishida buning aksi bo'lishi yuqorida ta'kidlandi). Ayrim fe'l leksemalardan o'zlik shakli -sh affixi bilan yasaladi: *joylash-* kabi.

7- §. Har qanday o'timli fe'l leksemadan o'zlik shakli yasalavermaydi. Bunday shakl yasalishi uchun o'timli fe'l leksema anglatadigan harakat bajaruvchining o'zida, o'z ustida amalga oshadigan harakat bo'lishi lozim: *kiyin-*, *artin-* kabi.

*Ek-*, *sug'or-*, *hayda-*, *kes-* kabi o'timli fe'l leksemalardan o'zlik shakli yasalmaydi, chunki bunday fe'l leksema anglatadigan harakat bajaruvchining o'zida amalga oshirilmaydi.

8- §. *Quvon-*, *seskan-* kabi fe'llar — asli o'zlik shaklida, lekin bular tarixiy taraqqiyot natijasida tarkibiy qismlarga ajralmaydigan bo'lgan. Massalan, *seskan-* fe'li 'his qil-' ma'nosini anglatuvchi *sez-* fe'lining kuchaytirov ma'nosini ifodalovchi -k affixi qo'shilgan *sezik-* shaklidan 'o'zlik' ma'nosini ifodalovchi -n affixi bilan yasalgan: (*sez* + *ik* = *sezik-*) + *an* = *sezikan-* > *sezkan-* > *seskan-*. Tovush o'zgarishlari natijasida bu fe'l tarkibiy qismlarga ajralmas holatga kelgan. Bunday fe'llar hozirgi o'zbek tilida bir butun holda o'timsiz fe'l leksema deyiladi.

*Sevin-*, *ochil-* (ko'chma ma'noda) kabi fe'llar tarkibidagi ma'noli qismlarning chegarasi hozirgi o'zbek tilida aniq ko'rinish turadi, lekin bu yerda

-n, -l qo'shilgan leksemadan anglashiladigan ma'no bilan *sev-*, *och-* fe'llaridan anglashiladigan ma'no orasida bog'lanish hozirgi o'zbek tilida yo'qolgan: *sev-* — 'muhabbat bog'la-', *sevin-* — 'quvon-' kabi. Shunga ko'ra bunday fe'llarda ham o'zlik shakli yasovchisi ajratilmaydi, bunday fe'llar yaxlitligicha o'timsiz fe'l leksemaga teng deyiladi.

*Achin-, sig'in-, uchun-* kabilarda shakl yasovchi qo'shilgan asos o'timsiz, shunga qaramay o'zlik shakli yasovchi affiks qo'shilgan. Bundan qat'i nazar, asosdan anglashiladigan ma'no bilan shakl yasovchi qo'shilgan asos anglatadigan ma'no orasida bog'lanish yo'q; shunga ko'ra bunday fe'llar ham hozirgi o'zbek tilida ma'noli qismlargacha ajratilmaydi, yaxlitligicha o'timsiz fe'l leksema deyiladi.

E s l a t m a. *O'ylan-, so'kin-* kabi o'timli fe'llardan yasalishlar, *isin-, o'pkalan-, to'yin-, yumalan-, shoshil-, to'xtal-* kabi o'timsiz fe'llardan yasalishlar tarkibidagi -n / -l affiksi asli o'zlik shakli yasovchisi emas, balki 'birroz', 'ozmi-ko'pmi', 'ma'lum darajada' kabi ozaytirish ma'nosini ifodalovchi affiks.

**9- §. *Shodlan-, rohatlan-, zavqlan-, holsizlan-, o'ng'aysizlan-, foydalan-*** kabi fe'llar *-lan* affiksi bilan yasalgan bo'lib, bu qo'shma affiks tarkibidagi -n qismi o'zlik shakli yasovchisi sifatida ajralmaydi (masalan, *azoblan-, jabrlan-* fe'llarida ajraladi). Shu sababli bu tur leksemalar yaxlitligicha o'zlik ma'nosini ifodalanadigan o'timsiz fe'l leksema deyiladi.

**10- §. Xullas, o'zlik shakli sanoqli o'timli fe'l leksemalardan yasaladi;** bunda bajaruvchi ega vazifasida saqlanadi, vositasiz to'ldiruvchi yo'qoladi, fe'l anglatadigan harakat bajaruvchining o'zida amalga oshadi. Bajaruvchi ega o'z vazifasida saqlangani sababli sintaktik qurilma aniq qurilmaligicha (aktiv konstruksiyaligicha) qoladi. Demak, o'zlik shakli yasalishi juz'iy hodisa bo'lib, harakat bajaruvchining o'zida voqe bo'lishini ifodalaydi.

**11- §. Birgalik shakli, avvalo, sanoqli fe'llardan-gina yasaladi, ikkinchidan, o'timli fe'l leksemadan-gina emas, o'timsiz fe'l leksemadan ham yasaladi:** *yoz-* → *yozish-, uchra-* → *uchrash-* kabi. Uchinchidan, harakatni birlik yoki ko'plikdag'i o'zaro bog'liq ikki bajaruvchi amalga oshiradi: *Onam bilan opam quchoqlashdi* kabi. Bunday qurilmada *bilan* ko'makchisi va teng bog'lovchisi vazifasida keladi, undan 'birgalik' ma'nosini ifodalanib turadi. Har ikki bajaruvchi teng mavqega ega bo'ladi, birining harakati ikkinchisiga va aksincha yo'naltiriladi; sintaktik jihatdan bajaruvchilarni anglatadigan leksemashakllar bosh kelishikda uyushiq qatorni tashkil etadi. Uyushib kelgan leksemashakllardan III shaxs ma'nosini ifodalansa, kesim III shaxsda bo'ladi; uyushiq qatorda I shaxs kishilik olmoshi qatnashsa, kesimga I shaxs ko'plik tuslovchisi, II shaxs kishilik olmoshi qatnashsa, kesimga II shaxs ko'plik

tuslovchisi qo'shiladi: (*Onam bilan men*) *quchoqlashdik.* (*Onam bilan sen*) *quchoqlashdingiz* kabi.

Birgalik shakli o'timli fe'l leksemadan yasalganida sintaktik qurilmada quyidagicha o'zgarish voqe bo'ladi:

*Onam Ø meni quchoqladi.*

*(Onam bilan men) Ø quchoqlashdik.*

Bunda vositasiz to'ldiruvchining tushum kelishigi bosh kelishikka almashadi va bu leksemashakl ega vazifasidagi leksemashaklga *ilan* vositasida uyu-shadi. Ko'rinadiki, harakat qaratilgan vositasiz to'ldiruvchi yo'qolmaydi, balki mavjud bajaruvchiga bosh kelishik shaklida qo'shiladi, bajaruvchi ikkita bo'ladi; bu bajaruvchilar fe'ldan anglashiladigan harakatni bir-biriga nisbatan amalga oshiradi: o'timli fe'l o'timsizlashadi.

**12- §.** Birgalik shakli o'timsiz fe'l leksemadan yasalishi uchun bunday fe'l leksema vositali to'ldiruvchini boshqara olishi kerak. Birgalik shakli ya-salganda ana shu vositali to'ldiruvchining kelishigi bosh kelishikka almashadi va bunday leksemashakl ega vazifasidagi leksemashakl bilan uyushiq qator hosil qiladi:

*Men Ø ukamga uchrashdim.*

*(Men bilan ukam) Ø uchrashdik.*

Yuqorida tasvirlangan sintaktik qurilmalarda bajaruvchilar teng vaziyatda bo'ladi. Agar bajaruvchilardan birining mavqeい ustun qo'yilsa, sintaktik qurılma o'zgacha tuziladi:

1) *Onam Ø meni quchoqladi.*

*Onam Ø men bilan quchoqlashdi.*

2) *Ukam Ø menga uchrashi.*

*Ukam Ø men bilan uchrashdi.*

Birinchi tur transformatsiyada vositasiz to'ldiruvchi, ikkinchi tur transformatsiyada esa -ga kelishigida shakllangan vositali to'ldiruvchi *ilan* ko'makchisi yordamida shakllangan vositali to'ldiruvchiga almashadi; asosiy bajaruvchi esa ega vazifasida saqlanadi. Birinchi tur transformatsiyada o'timli fe'l leksema o'timsizlashadi, ikkinchi tur transformatsiyada fe'l leksema o'timsizligicha qoladi.

Xullas, birgalik shakli yasalishi juz'iy hodisa bo'lib, harakat ikki bajaruvchi orasida amalga oshirilishini ifodalaydi.

**13- §.** Birgalik shakli ifodalaydigan ma'no deb 'ko'maklashish' ma'nosi ham ta'kidlanadi. Bunday shakl faqat o'timli fe'l leksemadan yasaladi, sintaktik qurilmada quyidagicha o'zgarish yuz beradi:

*Onam Ø kir[ni] yuvdi.*

*Opam Ø onamga kir[ni] yuvishdi.*

Ko'rinaridiki, bunday transformatsiyada vositasiz to'ldiruvchi, demak, fe'l-ning o'timlilik xususiyati saqlanadi, tashqaridan bajaruvchi ega qo'shiladi, mavjud bajaruvchi ega esa vositali to'ldiruvchiga aylanadi. Harakatni asosan vositali to'ldiruvchi vazifasiga o'tgan bajaruvchi amalga oshiradi, tashqaridan qo'shilgan bajaruvchi esa harakatni amalga oshirishda yordamlashadi, aniqrog'i 'biroz', 'ma'lum darajada' bajaradi.

Demak, bunday yasalishda tashqaridan ko'maklashadigan bajaruvchi qo'shiladi va u mavjud bajaruvchini vositali to'ldiruvchiga suradi, vositasiz to'ldiruvchi esa o'zicha saqlanadi. Bunday transformatsiyalashni nisbat yasalishi deb bo'lmaydi, chunki nisbat yasalishida vositasiz to'ldiruvchi o'zicha saqlanmaydi, tashqaridan bajaruvchi ega qo'shilmaydi.

'Ko'maklashish' ma'nosini ifodalaydigan *-sh* affiksi bilan 'birgalik' ma'nosini ifodalaydigan *-sh* affiksi o'zaro omoaffikslar deb baholanishi to'g'ri. 'Biroz', 'ozmi-ko'pmi' ma'nosini ifodalaydigan *-sh* affiksi asli *oqar-* → *oqarish-*, *yori-* → *yorish-* kabi yasalishlardagi *-sh* affiksi bilan bog'lanadi: Bu yerda ham *-sh* affiksi 'biroz', 'ozmi-ko'pmi' ma'nosini ifodalashga xizmat qiladi. Asli *yur-* → *yurish-*, *bur-* → *burish-*, *tort-* → *tortish-* kabi yasalishlarda ham *-sh* affiksi 'biroz' ma'nosini ifodalaydi.

Ko'rinaridiki, 'ko'maklashish' ma'nosi ifodalanadigan qurilmani birgalik shakli yasalishidan ajratib, alohida hodisa sifatida talqin qilish lozim.

**14- §.** Birgalik shakli ifodalaydigan ma'nolar qatorida 'ko'plik', 'birdan ortiq shaxs tomonidan bajarilish' kabi ma'noning ta'kidlanishi to'g'ri emas, chunki bu yerda *-sh* affiksi faqat III shaxs tuslovchisi bilan birgalikda ishlataladi, 'ko'plik' (*Opalarim kelishdi* kabi) yoki 'sizlash' (*Opamlar kelishdi* kabi) ma'nosini ifodalashga xizmat qiladi; bu affiks tuslovchilar paradigmafiga mansub bo'lib, birgalik shaklidan keyin ham qo'shilaveradi: *quchoqlashishdi* = *qo'choqlashdilar* kabi.

Xullas, 'birgalik' ma'nosini ifodalaydigan *-sh* affiksidan tashqari 'biroz' ma'nosini ifodalaydigan *-sh* affiksi va 'ko'plik' ma'nosini ifodalaydigan *-sh* affiksi mavjud; bu uch affiks omomorfemalar deb baholanishi lozim.

**15- §.** Tarkibida *-n* qismi qatnashadigan *-lan* affiksi mavjud bo'lganidek, tarkibida *-sh* qismi qatnashadigan *-lash* affiksi ham mavjud. Bu qo'shma affiks tarkibidagi *-sh* qismi birgalik shakli yasovchisi sifatida ajralmaydi, *-lash* affiksi yaxlitligicha fe'l leksema yasaydi: *gaplash-*, *birlash-* kabi. Bunday yasama fe'llar birgalik ma'nosi ifodalanadigan o'timsiz fe'l leksema deyiladi.

*-lash* qo'shma affiksi tarkibidagi *-sh* qismi 'ko'maklashish', 'biroz' ma'nosini ifodalaydigan affikslarga teng holat ham mavjud: *ko'maklash-*, *yor-*

*damlash-*; *ravshanlash-*, *qalinlash-* kabi. 'Birgalik', 'ko'maklashish', 'biroz' ma'nolarini ifodalaydigan *-sh* affiksleri omomorfemalar deyilganidek, bunday ma'nolarni ifodalaydigan *-lash* qo'shma affiksleri ham omomorfemalar deb baholanishi kerak.

**16- §.** Orttirma shakli majhul nisbatdan ham, o'zlik shaklidan ham, birgalik shaklidan ham keskin farq qiladi.

Birgalik shakliga o'xhash tomoni shuki, orttirma shakli o'timli fe'l leksemadan ham, o'timsiz fe'l leksemadan ham yasaładi, lekin birgalik shakli juda cheklangan miqdorda yasaladi, orttirma shakli esa deyarli har bir o'timli va o'timsiz fe'lidan, hatto o'zlik shaklidagi, birgalik shaklidagi fe'lidan ham, orttirma shaklidagi fe'lidan ham yasalaveradi. O'zlik shakli va birgalik shakli orttirma shaklidan yasalmaydi.

Orttirma shaklining o'ziga xos yana bir xususiyati shuki, yasovchi affiksleri ko'p: *-tir*, *-t*, *-giz*, *-z*, *-r*, *-sat*. Bu affikslardan *-tir* affiksi asosan ikki shaklda (*-tir*, *-dir*), *-giz* affiksi esa sakkiz shaklda (*-giz*, *-kiz*, *-qiz*, *-g'iz*, *-kaz*, *-gaz*, *-qaz*, *-g'az*) ishlatalidi. Bu affikslarning allomorfemalari asosning oxirgi tovushi va asos tarkibidagi ovoz tovush ta'sirida yuzaga keladi.

Orttirma shaklining eng muhim belgisi shuki, sintaktik qurilmaga tashqaridan bajartiruvchi ega qo'shiladi; shuning uchun ham bunday shakl *orttirma* deb nomlanadi. Tashqaridan qo'shiladigan bajartiruvchi ega mayjud bajaruvchi egani odatda vositasiz to'ldiruvchiga aylantiradi. Sintaktik qurilmadagi bunday o'zgarish avvalo to'ldiruvchini boshqarmaydigan o'timsiz fe'llardan yasalishda ochiq ko'rindi (Bunda o'timlilashish voqe bo'ladi):

*Singlim Ø yig'ladi.*

*Akam Ø singlimni yig'latdi.*

Vositali to'ldiruvchini boshqaradigan ko'pchilik o'timli fe'l leksemalardan orttirma yasalganida bunday to'ldiruvchi o'zicha saqlanadi:

*Siz Ø menga o'xshaysiz.*

*Ukam sizni menga o'xshatadi.*

Vositali to'ldiruvchini boshqarmaydigan ayrim o'timsiz fe'l leksemalaridan orttirma yasalganida bajartiruvchi ega vazifasiga sabab holi o'tadi:

*Gaplaringdan men Ø hovliqdim.*

*Gaplaring Ø meni hovliqtirdi.*

Faqat vositasiz to'ldiruvchini boshqaradigan o'timli fe'l leksemalardan orttirma yasalganida tashqaridan bajartiruvchi ega qo'shiladi, buning ta'sirida bajaruvchi ega vositali to'ldiruvchi vazifasiga o'tadi; vositasiz to'ldiruvchi o'zicha saqlanadi:

*Men Ø vazifani bajardim.*

*Siz Ø menga vazifani bajartirdingiz.*

Ham vositasiz to'ldiruvchini, ham vositali to'ldiruvchini boshqaradigan o'timli fe'l leksemalarda bu to'ldiruvchilar o'zicha saqlansa, bajaruvchi ega boshqa bir shakldagi vositali to'ldiruvchiga aylanadi:

*Men Ø bu gapni unga aytdim.*

*Siz Ø men orqali bu gapni unga ayttirdingiz.*

Xullas, orttirma shakli o'timsiz fe'l leksemdan ham, o'timli fe'l leksemdan ham yasalganida bajartiruvchi ega odatda tashqaridan qo'shiladi; orttirma shaklining mohiyatini xuddi shu hodisa belgilaydi. Tashqaridan qo'shiladigan bajartiruvchining ta'siri bilan yuzaga keladigan o'zgarishlar fe'l leksemaning boshqaru xususiyatiga va boshqa ayrim jihatlariga bog'liq holda turlicha voqe bo'ladi.

**17- §.** Ortirma shakli yasovchi affiks ketma-ket ikkita qo'shilishi mumkin. Bunday qo'shilish o'timsiz fe'l leksemalarda ham, o'timli fe'l leksemalarda ham voqe bo'ladi: *o'ynattir-*, *yurg'izdir-*, *o'qittir-*, *bezatir-*, *boshlattirkabi*. Bunday yasalishlarda birinchi va ikkinchi bajartiruvchilar haqida gapirish lozim bo'ladi:

*Men Ø universitetda o'qidim.*

*Otam Ø meni universitetda o'qitdi.*

*Bobom Ø otamga meni universitetda o'qittirdi.*

**18- §.** Ortirma shaklidan o'zlik shakli, shuningdek birgalik shakli yasalmaydi; aksincha o'zlik shaklidan va birgalik shaklidan orttirma shakli yasaladi (Orttirma shakli majhul nisbatdag'i fe'l dan-gina yasalmaydi). O'zlik yasovchisi bilan orttirma yasovchisining, shuningdek birgalik yasovchisi bilan orttirma yasovchisining o'zaro almashmasligi, orttirma yasovchisining o'zlik shaklidan, birgalik shaklidan yasalaverishi orttirma shakli o'zlik va birgalik shakli bilan o'zaro paradigmatic munosabat hosil etmasligini ko'rsatadi.

O'zlik shaklidan, birgalik shaklidan majhul nisbatning yasalmasligi tabiiy: bunday shakklardagi fe'l o'timsizlashgan bo'ladi. Ortirma shaklidan majhul nisbat yasaladi, chunki bunday shakldagi fe'l o'timlilashgan bo'ladi.

Ko'rindiki, o'zlik shaklidagi, birgalik shaklidagi o'timsizlashgan fe'l aslida o'timsiz bo'lgan fe'l leksemalar qatori nisbat yasalishi paradigmidan xoli bo'ladi. Xullas, nisbat paradigmasi majhul nisbat va unga zidlanishda belgilanadigan aniq nisbatdan iborat; aniq nisbatdag'i fe'l o'timli fe'l yoki o'timlilashgan fe'l bo'ladi.

**19- §.** O'zlik shakli, birgalik shakli faqat o'timli fe'idan, shunda ham sanoqli fe'l dan yasaladi. Ayrim o'timli fe'llardan o'zlik shakli yasaladi-yu, birgalik shakli yasalmaydi va aksincha. Demak, o'zlik, birgalik shakli yasalishi

barcha o'timli fe'l leksemalarga mansub hodisa emas, ayrim o'timli fe'llarda gina voqe bo'ladigan juz'iy hodisa.

Majhul nisbat barcha o'timli fe'llardan ham, orttirma shakli yasalishi oqibatida o'timlilashgan fe'llardan ham yasaladi. Shunga ko'ra tom ma'nodagi nisbat deb majhul nisbatni aytish lozim. Majhul nisbat yasalishi uchun asos vazifasini bajaradigan fe'llarni majhul nisbatga zid qo'ygan holda aniq nisbatda deb belgilash to'g'ri. Shunda nisbat paradigmasi ikki a'zoli bo'ladi. Aniq nisbatda deb o'timli fe'l leksemalar, shuningdek orttirma shakli yasalishi bilan o'timlilashgan fe'llar belgilanadi, ana shunday fe'llarda aniq nisbat nol ko'rsatkichli morfema bilan ifodalanadi:

- 1) o'timli fe'llarda: *bil Ø-, ko'r Ø-, ol Ø-, ber Ø-, yoz Ø-* kabi;
- 2) o'timlilashgan fe'llarda:
  - a) *oqiz Ø-, chiqar Ø-, o'tirg'iz Ø-* kabi;
  - b) *yuvintir Ø-, kiyintir Ø-, uylantir Ø-* kabi;
  - d) *quchoqlashtir Ø-, mushtlashtir Ø-* kabi.

Demak, orttirma shakli yasalishi, sintaktik qurilmada o'ziga xos o'zgartirishlar hosil qilishi bilan birga, o'timsiz, o'timsizlashgan fe'l ni o'timlilashtiradi va shu orqali majhul nisbat yasalishi uchun sharoit yuzaga keltiradi. O'timsiz fe'l leksemadan, shuningdek o'zlik, birgalik shakli yasalishi bilan o'timsizlashgan fe'ldan majhul nisbat yasalmaydi.

Xullas, nisbat paradigmasi barcha fe'llar uchun umumiy hodisa emas; aniq nisbat va majhul nisbat zidlanishi faqat o'timli va o'timlilashgan fe'llarda-gina mavjud. O'zlik shakli, birgalik shakli — nisbat paradigmasisiga yondosh hodisalar. Ortirma shakli yasalishi ham nisbat yasalishi emas, alohida hodisa; lekin orttirma yasalishi nisbat yasalishi uchun zamin hozirlaydi.

**20- §.** Nazariy jihatdan bir fe'l leksemaga ayni bir morfem paradigmning ikki ko'rsatkichi qo'shilmaydi; paradigmning bir ko'rsatkichi ikkinchi-siga almashadi. Shu nuqtayi nazardan yondashib *bezantirildi, uchrashtririldi, tanishtirildi, bezattirildi* kabi yasalishlarni qanday izohlash mumkin? Bu fe'l-larning barchasi — -*l* affixsi bilan yasalgan majhul nisbatda; bu affiks qo'shilgan asos o'timlilashgan fe'l bo'lib, majhul nisbatga zid qo'ygan holda aniq nisbatda deyiladi. Bunday fe'llar tarkibidagi *-tir* affixsi nisbat yasovchisi emas, orttirma shakli yasovchisi. Ayni bir fe'lga ketma-ket ikkita orttirma shakli yasovchisining qo'shila olishi bunday yasovchi nisbat yasovchisi emasligini ochiq ko'rsatadi.

Qiyos qiling:

- 1) *beza Ø-* kim nimani (aniq nisbat)  
bezal- nima Ø (majhul nisbat)

2) *bezat Ø*- kim kimga nimani (aniq nisbat)

bezatil- kimga nima Ø (majhul nisbat)

3) *bezattir Ø*- kim kim orqali kimga nimani (aniq nisbat)

bezattiril- kim orqali kimga nima Ø (majhul nisbat)

Birinchi misolda majhul nisbat o'timli fe'lidan yasalgan; majhul nisbatga zid qo'yib bunday o'timli fe'l aniq nisbatda deyiladi. Majhul nisbat yasalishi bilan aniq nisbatdagi fe'lga xos sintaktik qurilmaning bajaruvchi ega bo'lagi maj-hullahadi, odatda sintaktik qurilmadan chiqadi, vositasiz to'ldiruvchi tushum kelishigi bosh kelishikka almashgan holda ega vazifasiga o'tadi.

Ikkinci, uchinchi misollarda orttirma shakli yasalishi bilan sintaktik qurilmaga tashqaridan bajartiruvchi ega qo'shiladi, shu munosabat bilan bajaruvchi ega vositali to'ldiruvchi vazifasiga o'tadi. Orttirma shakli ketma-ket ikki affiks bilan yasalsa, birinchi bajartiruvchi ikkinchi bajartiruvchining ta'sirida vositali to'ldiruvchi vazifasiga o'tadi. Bundan qat'i nazar, sintaktik qurilmada majhul nisbat yasalishiga bog'liq holda voqe bo'ladigan o'zgarishlar har uch misolda aynan.

Demak, *beza Ø*- fe'l qatori *bezat Ø*- , *bezattir Ø*- kabi fe'llar ham aniq nisbatda deb baholanishi lozim.

Xuddi shuningdek *yuv Ø*- → *yuvil-* qatori *yuvdir Ø*- → *yuvdiril-*, *yuvintir Ø*- → *yuvintiril-*, *quchoqlashadir Ø*- → *quchoqlashtiril-* kabi zidlanishlarda ham birinchi qism aniq nisbatda, ikkinchi qism majhul nisbatda deb baholanishi lozim.

O'zlik shakli, birqalik shakli yasalishida bajaruvchi majhullahmaydi, sintaktik qurilmadan chiqarilmaydi, ma'lum o'zgarish bilan saqlanadi, vositasiz to'ldiruvchi sintaktik qurilmadan chiqariladi yoki vositali to'ldiruvchiga aylantiriladi. Ko'rindaniki, bunday yasalishlarda aniq (aktiv) sintaktik qurilmalik holati saqlanadi, faqat o'timli fe'l o'timsizlashadi. Aytilganlarga ko'ra o'zlik shaklini, birqalik shaklini ayrim o'timli fe'llarga-gina xos shakl yasalishi deb baholash to'g'ri.

21- §. Nisbat paradigmasi va unga yondosh hodisalarini chizmada quydagicha ko'rsatish mumkin.

Nisbat paradigmidan xoli shakllar	Shaxsli fe'l shakllari		Shaxssiz fe'l shakllari
	Aniq nisbat	Majhul nisbat	
—	1) o'timli fe'l leksema: <i>yasa+Ø-</i>	<i>yasa + l-</i> <i>beza + l-</i>	—

	<i>beza+ Ø-</i> 2) o'timli fe'l lek-sema + ortirma shakli (qayta o'timli fe'l shakli):		
-	<i>yasa + t + Ø-</i> 3) o'timsiz fe'l lek-sema + ortirma shakli (o'timlilashgan fe'l):	<i>yasa- + t + il-</i>	-
-	<i>yur + giz + Ø-</i> 4) o'zlik shaklidagi fe'l + ortirma shakli (o'timlilashgan fe'l):	<i>yur + giz + il -</i>	-
-	<i>yuv + in + tir Ø-</i> 5) birgalik shaklidagi fe'l + ortirma shakli (o'timlilashgan fe'l)	<i>yuv+in+tir+il-</i>	-
	<i>uchra + sh + tir-</i>	<i>uchra+sh+tir+il</i>	-
1) o'timsiz fe'l leksema:  <i>bor-,</i> <i>kel-,</i> <i>foydalan-</i> <i>birlash-</i>	-	-	<i>bor + il-,</i> <i>kel + in-,</i> <i>foydalan+il-</i> <i>birlash + il-</i>
2) o'timli fe'l leksema + o'zlik shakli (o'timsizlashgan fe'l):  <i>yuv + in-</i>	-	-	<i>yuv + in + il-</i>
3) o'timli fe'l leksema + bir-galik shakli (o'timsizlashgan fe'l):  <i>uchra + sh-</i>	-	-	<i>uchra+sh+il-</i>

## Fe'lning bo'lishli-bo'lishsiz shakllari paradigmasi

1- §. Fe'lning bo'lishli va bo'lishsiz shakllari o'zaro zidlanadigan ikki a'zoli paradigma hosil qiladi. Bo'lishsiz shakl markerli bo'lib, asosan -ma affksi bilan yasaladi; bunday affiks qo'shilmagan shakl bo'lishli shakl deyiladi; bo'lishli shakl nol ko'rsatkichli morfema bilan ifodalanadi: *kel + Ø ↔ kel + ma-* kabi.

Bo'lishli-bo'lishsizlik ma'nosini ifodalaydigan morfema nisbat morfemidan keyin qo'shiladi, shunga ko'ra aniq nisbatdag'i fe'lning bo'lishli shakli *ko'r + Ø + Ø-, kel + tir + Ø + Ø-, yuv + in + tir + Ø + Ø-, mushtla + sh + tir + Ø + Ø* tarzida yozib ko'rsatiladi; bunda birinchi nol ko'rsatkichi aniq nisbat uchun, ikkinchi nol ko'rsatkichi bo'lishli shakl uchun yoziladi; bularни o'zaro rim raqamlari qo'yib farqlash zarur: *ko'r + Ø I + Ø II-* kabi.

Majhul nisbat, shuningdek o'zlik shakli va birqalik shakli affiks bilan yasaladi, shunga ko'ra Ø II ramzining o'zi yoziladi: *ko'r + il + Ø II-, yuv + in + Ø II-, mushtla + sh + Ø II-* kabi.

O'timsiz fe'l leksema nisbat yasalishidan xoli bo'lgani tufayli nisbat ko'rsatkichi yozilmaydi: *bor + Ø II- ↔ hor + ma-* kabi.

2- §. Ayrim fe'l shakllarida bo'lishsizlik ma'nosи *emas* morfemasi bilan ham ifodalanadi: *bor + ma + gan + man || bar + gan + emas + man* kabi. Umuman, *emas* morfemasi asosan fe'l bo'lmagan turkum leksemalariga qo'shiladi: *duradgor emasman, sinchkov emassiz* kabi.

3- §. Juda cheklangan holda *yo'q* inkor leksemasi bo'lishsiz shakl yasovchisi vazifasini bajaradi. Bunda *yo'q* leksemasi -gan, -yotgan affiksleri bilan yasalgan zamon shakliga qo'shiladi, zamon yasovchisidan keyin nisbat-lovchi qatnashadi: *bor+gan+ im + yo'q, bor+ a + yotgan + im + yo'q* kabi.

Bo'lishsizlik shaklining bunday yasalishini *bor+gan+emas+man* kabi shakl yasalishiga, shuningdek *hor+ma+gan+man* kabi shakl yasalishiga transformatsiyalash mumkin. Ko'rinishdiki, *borganim* *yo'q* kabi qurilma tarkibida qatnashayotgan *yo'q* qismi *emas*, -ma morfemalariga muqobil, shunga ko'ra bunday qurilma tarkibida qatnashadigan *yo'q* qismini inkor morfemasi deb atash mumkin. Demak, bu uch bo'lishsizlik shakli yasovchilarи o'zaro sinonim.

Tarixan *yo'q* leksemasi qatnashadigan bunday qurilma *Mening borganim* *yo'q* ko'rinishiga ega bo'lib, qaratuvchili birikmashakl ega vazifasida, *yo'q* leksemasi esa kesim vazifasida kelgan; qaratuvchining kelishigi bosh keli-shikka almashganidan keyin bu leksemashakl ega vazifasini, qurilmaning qolgan qismi (*borganim yo'q*) yaxlitlanib kesim vazifasini bajaradigan bo'lgan. Bunday sintaktik qayta bo'linish natijasida kesimning yangicha shakllanishi

vujudga kelgan. Bunday qurilmada shaxs-son ma'nosi tuslovchi bilan emas, nisbatlovchi bilan ifodalanadi:  $bor+ma+gan+man = bor+gan+im+yo'q$  kabi.

4- §. "Mustaqil fe'l + ko'makchi fe'l" qurilishli analitik grammatic shakllarda bo'lishsiz shakl yasovchisi uch xil qo'shiladi:

1) Mustaqil fe'lga qo'shib, shu fe'l anglatadigan harakatning voqe bo'lmasligini ifodalaydi:  $kel + ma + y + qo'y + di$  kabi;

2) Ko'makchi fe'lga qo'shib, harakat shu ko'makchi fe'l ifodalaydigan ma'noda voqe bo'lmasligini ifodalaydi:  $ayt+ \emptyset I+ib+qo'y+ma+di$  kabi;

3) Har ikki qismga qo'shib, bo'lishli shakl yasaladi; bunda bo'lishlilik ma'nosi qat'iy tarzda ifodalanadi:  $ayt+ma+y+qo'y+ma+y+di = 'albatta aytadi'$  kabi.

5- §. Ayrim istisnolardan tashqari, har bir fe'l shakli bo'lishli va bo'lishsiz shaklda ishlataladi:  $kel+\emptyset II \leftrightarrow kel+ma$ ,  $kel+\emptyset II+di \leftrightarrow kel+ma+di$ ,  $kel+\emptyset II+ib \leftrightarrow kel+ma+y$  kabi. Bu umumiy qoidadan ayrim cheklanishlar quyida gicha:

1) Maqsad ravishdoshi yasaladigan asos faqat bo'lishli shaklda bo'ladi:  $ko'rgani (< ko'rgali) keldim$  kabi;

2) -moqchi affiksi bilan yasaladigan istak mayli shaklida bo'lishsizlik -ma affiksi bilan yasalmaydi, balki emas morfemasi bilan yasaladi:  $bor+moqchi+emas+man$  kabi.

6- §. Bo'lishli-bo'lishsiz shakl yasalishi paradigmasini chizma bilan quyidagicha ko'rsatish mumkin:

Fe'l shakllari	Bo'lishli shakl	Bo'lishsiz shakl
1) Barcha fe'l shakllari (quyidagi juz'iy istisnolar bilan)	$bor+\emptyset II+di$ .....	$bor+ma+di$ .....
2) Analitik grammatic shaklda	$ayt+\emptyset I+ma+y+qo'y+ma+y+di$	$ayt+\emptyset I+ma+y+qo'ydi$ , $ayt+\emptyset I+ib+qo'y+ma+di$
3) -gan, -yotgan affiksi bilan yasalgan zamon shakllari	$bor+\emptyset II+gan+man$	$bor+ma+gan+man$ , $bor+gan+emas+man$ , $bor+gan+im yo'q$
4) -moqchi affiksi bilan yasalgan istak mayli	$bor+\emptyset II+moqchi+man$	$bor+moqchi+emas+man$
5) -gani (< -gali) affiksi bilan yasalgan maqsad ravishdoshi	$ko'rgani (keldim)$	-

## FE'LNING BOSHQA TURKUMLARGA MONAND SHAKLLARI

1- §. Adabiyotlarda "fe'lning funksional formalari" nomi bilan quyidagi hodisalar tasvirlanadi: 1) harakat nomi, 2) sifatdosh, 3) ravishdosh (Ba'zi adabiyotlarda bular qatoriga "sof fe'l" nomi bilan tuslovchili fe'l shakli ham qo'shiladi). Bu hodisalar "funksional forma" deb fe'lni ma'lum bir sintaktik vazifada kelishga moslashi tufayli nomlangan. Asli "sintaktik vazifada kelishga moslash" — bunday shakl yasalishlarining tashqi xususiyati. Bunday shakl yasalishlari avvalo fe'l turkumi doirasida uning ot turkumiga, sifat turkumiga, ravish turkumiga monand shakllarini yasaydi, shunday shakl yasalishi tufayli fe'lning otdosh (substantiv) shakli, sifatdosh (atributiv) shakli, ravishdosh (adverbial) shakli hosil qilinadi va fe'l leksemani ot kabi, sifat kabi, ravish kabi ishlatish imkoniyati paydo bo'ladi, fe'l leksema otdosh shakli orqali ot leksema, sifatdosh shakli orqali sifat leksema, ravishdosh shakli orqali ravish leksema bajaradigan sintaktik vazifada keladi. Eng ajoyib jihat shuki, ravishdosh shakli fe'l leksemani fe'l leksemaning o'ziga tobe bo'lak — hollovchi vazifasida bog'lash uchun xizmat qiladi.

### **Fe'lning otdosh shakli**

2- §. Adabiyotlarda bu hodisaning "harakat nomi" deb yuritilishi o'rinali emas, chunki predmetning nomi deb ot leksemaning o'zi, predmetga xos sifatiy belgining nomi deb sifat leksemaning o'zi aytilganidek, harakatning nomi deb fe'l leksemaning o'zi aytilishi to'g'ri. Fe'l turkumi doirasidagi ushbu shaklni sifatdosh, ravishdosh terminlari qatori o t d o sh sh a k l deb nomlash mantiqan to'g'ri bo'ladi.

Fe'lning otdosh shakliga xos (shuningdek sifatdosh, ravishdosh shakllariga xos) fe'llik belgilarini ta'kidlash o'rinsiz: fe'l shakli bo'lgani uchun bunday shakl yasalishiga xos bo'lgan o'timli-o'timsizlik, nisbat, o'zlik, birgalik, orttirma ma'nolari, boshqaruv xususiyati o'zicha saqlanadi. Otdosh shakli yasalishi tufayli fe'lga ot leksemaga xos shakllar qo'shiladi va shunga mos holda sintaktik vazifa bajaradi. Fe'lning otdosh shaklida fe'l anglatadigan harakat-holat predmet tarzida taqdim qilinadi.

3- §. Fe'lning otdosh shakli *-sh*, *-v*, *-mog* affiksleri bilan yasaladi.

1. *-sh* affiksi hozirgi o'zbek tilida eng ko'p ishlatiladi. Fe'lning bu affiks bilan yasalgan otdosh shakli sonlash paradigmasining odatda birlik shaklida ishlatiladi, nisbatlash va turlash paradigmalarining barcha shakllarida ishlatilaveradi. Qaysi kelishikda (qaysi ko'makchi bilan) ishlatilishiga mos ravishda ega, qaratuvchi, to'ldiruvchi kabi sintaktik vazifani bajaradi: *Kelishing* (*qiyin*

*bo'ldi). Aytishga (tilim bormaydi). Sayoq yurishning (oqibati – shu). Kelishi bilan (ishga tushib ketdi) kabi.*

-sh affixsi bilan yasalgan otdosh shaklning ot leksemaga aylanish hollari uchraydi; bunday hodisa ko'pincha kalkalash oqibatida voqe bo'ladi: *vxod – kirish-, vixod – chiqish-, beg – yugurish-, voyna – urush-* (<*urish-*) kabi.

2. -v affiksi hozirgi o'zbek tilida -sh affiksiga nisbatan oz ishlatiladi; boshqa xususiyatlari bilan -sh affiksidan farq qilmaydi: *Yozuv-chizuv ishlari bilan (ko'p shug'ullanadi)* kabi.

-v affiksi bilan yasalgan shaklning otga aylanishi -sh affiksi bilan yasalgan shakldagidan ko'ra ko'p voqe bo'ladi: *saylov-, qutlov-, qo'rquv-* kabi.

-v affiksi bilan yasalgan shaklga -chi affiksini qo'shib shaxs oti yasaladi: *o'quvchi-, yozuvchi-, sotuvchi-* kabi. Bunday yasalish tarixan *yozg'uchi* shakliga ega bo'lgan, -vchi tarkibidagi v qismi -g'u affiksining tovush o'zgarishi oqibatida yuzaga kelgan deb ham izohlanadi.

3. -moq affiksi hozirgi o'zbek tilida fe'lning otdosh shakli yasovchisi sifatida deyarli ishlatilmaydi; asosan *Yer haydamoq – bormoq-kelmoq ..* kabi iboralar tarkibida saqlanib keladi. *Taklif etilgan manzilga bormoq darkor* kabi ko'tarinki uslubda tuzilgan jumllalarda -sh affiksi emas, -moq affiksi ishlatiladi.

-moq affiksining oldingi ikki affiksdan muhim farqi shuki, -moqda zamon yasovchisi, -moqchi mayl yasovchisi shu affiks asosida hosil qilingan.

-moq affiksidan fe'llarni o'zbekcha lug'atga kiritish shakli sifatida foydalaniladi. Asli o'zbek tilida fe'lning maxsus infinitiv shakli yo'q. O'zbek tili lug'atiga fe'lning -moq shaklida kiritilishi shartli (*Ba'zi turkiy tillar lug'atiga fe'l – v shaklida kiritiladi*). Mahmud Koshg'ariy o'z lug'atiga fe'llarni arab tili grammatikasi ta'sirida aniq yaqin o'tgan zamon shaklida (*bordi, berdi* kabi) kiritgan. Eng to'g'ri yo'l – fe'lni qirg'iz tili lug'atida qilinganidek leksema holatida (*bor-, ber-* kabi) kiritish.

Umuman, yuqorida tasvirlangan uch affiks ayni bir ma'noni ifodalaydi, zamoniyligi, qo'llanuvchanligi va ba'zi boshqa belgi-xususiyati bilan o'zaro farqlanadi. Shu asosda bu uch affiksni sinonimlar deyish mumkin.

### **Fe'lning sifatdosh shakli**

4- §. Sifatdosh shakli fe'l anglatadigan harakat-holatni predmetning belgisi sifatida (sifatdan farqli holda aktiv belgisi tarzida) taqdim qiladi. Sifatdosh shakli hozirgi o'zbek tilida quyidagicha yasaladi:

1) -gan affiksi bilan yasaladi. Bu sifatdosh yasovchisi hozirgi o'zbek tilida eng ko'p ishlatiladi, harakatni o'tgan zamonda voqe bo'lgan belgi si-

fatida ifodalaydi: *kelgan* (*kunim-*), *o'qigan* (*kitobing-*), *bergan* (*va'dang-*) kabi.

Bu sifatdosh shakli *yot-*, *tur-*, *o'tir-*, *yur-* holat fe'llaridan yasalganida ushbu leksemalarning leksik ma'nosi ta'sirida hozirgi zamon ma'nosi ifodalashadi: *yonimda o'tirgan do'stim-*, *stol ustida yotgan kitob-* kabi.

-*gan* affixsi o'zi qo'shiladigan asosning qanday tovush bilan tugashiga qarab uch allomorfema shaklida namoyon bo'ladi: a) *k*, *g* tovushiga tugasa, -*kan* shaklida: *tik + kan*, *tug + gan* > *tukkan* (*tuggan* yoziladi) kabi; *k*, *q* tovushidan boshqa shovqin tovushga tugasa ham, -*kan* shaklida qo'shiladi: *yet + kan* (*etgan* yoziladi), *ich + kan* (*ichgan* yoziladi) kabi; b) *q*, *g'* tovushiga tugasa, -*gan* shaklida: *chiq + gan*, *yig' + gan* > *yiqqan* (*yig'gan* yoziladi) kabi; d) ovoz, ovozdor, ovozli tovushga tugasa, -*gan* shaklida: *ishla + gan*, *yur + gan*, *oz + gan* kabi.

2) -*yotgan* affixsi bilan yasaladi, harakatni hozirgi zamonda voqe bo'layotgan belgi sifatida ifodalaydi: *kel + a + yotgan* (*kishi-*), *o'qi + y + yotgan* (*kitobim-*) kabi. Ushbu qo'shma affiks asli *yot-* fe'lining -*gan* affixsi bilan yasalgan sifatdosh shakliga teng bo'lib, keyinchalik mazmunan va shaklan yaxlitlanib, affiksga aylangan.

Qiyos qiling: 1) *olma tishlab yotgan bola-*, 2) *olma tishlay yotgan bola-*. Bu birikmalarda ikki mustaqil fe'l o'zaro -*b* ravishdosh shaklida va -*a/-y* ravishdosh shaklida bog'langan. Keyinchalik -*b* ravishdoshi qatnashgan birikma o'zicha saqlangan, -*a/-y* ravishdoshi qatnashgan birikmada jiddiy o'zgarish voqe bo'lgan: *yot-* fe'li mustaqil leksik ma'no anglatishdan 'hozirgi' kabi grammatick ma'noni ifodalovchi affiksoid holatiga o'tgan, natijada -*gan* affixsi bilan yaxlitlanib, qo'shma affiks yuzaga kelgan. Bunday yaxlitlanishga -*a/-y* ravishdoshi shaklidagi fe'lda mustaqil ishlatalish xususiyatining yo'qola boshlagani ham sabab bo'lgan.

-*yotgan* yaxlitligicha qo'shma affiksga aylangan bo'lsa ham, *yot-* qismining asli fe'l leksemalik xususiyati qisman saqlangan: bu qo'shma affiks fe'l asosiga -*a/-y* ravishdosh affixsi orqali qo'shiladi: *kel + a + yotgan* kabi. Fe'l asosi ovoz tovush bilan tugaganda bu ravishdosh affiksining -*y* allomorfemasi qo'shiladi, qator kelib qolgan *yy* tovushlari talaffuzda singishib, bir *y* tovushi aytildi va shunday yoziladi: *o'qi + y + yotgan* > *o'qiyotgan* kabi. Bu yerda -*yotgan* affixsi fe'l asosiga go'yo to'g'ridan to'g'ri qo'shilayotgandek ko'rindi.

-*yotgan* affiksida hozirgi zamon ma'nosini *yot-* qismi ifodalaydi; to'rt holat fe'llaridan biri sifatida ham *yot-* fe'li hozirgi zamon ma'nosini ifodalashga xizmat qiladi: *yotibman* kabi; *yot-* fe'lining hozirgi zamon ma'nosini ifodalashi -*yotgan* qo'shma affiksida ham saqlangan.

3) *-digan* affiksi bilan yasaladi, harakat kelasi zamonda voqe bo'ladigan belgi sifatida ifodalanadi: *kel + a + digan* (*kishi-*, *yaxshi*) *ishla + y + digan* (*xodim-*) kabi. Ushbu qo'shma affiks asli *tur-* fe'lining *-gan* affiksi bilan yasalgan sifatdosh shakli bo'lib, keyinchalik *tur-* qismi tovush o'zgarishlari natijasida *di* talaffuz qilinadigan bo'lgan, mazmunan va shaklan yaxlitlanib, affiksga aylangan: *o'qi + y + turgan* > *o'qiydigan* kabi.

Qiyos qiling: 1) *o'qib turgan*, 2) *o'qiy turgan*. Bu birikmalarda ikki mustaqil fe'l -*b* ravishdoshi shaklida va -*a/-y* ravishdoshi shaklida bog'langan. Keyinchalik -*b* ravishdoshi qatnashgan birikma o'zicha saqlangan, -*a/-y* ravishdoshi qatnashgan birikmada yaxlitlanish voqe bo'lgan, chunki *tur-* fe'l mustaqil leksik ma'nou anglatishdan 'doimiy', 'kelgusi' kabi grammatik ma'noni ifodalovchi affiksoid holatiga o'tgan, -*gan* affiksi bilan yaxlitlanib, qo'shma affiks yuzaga kelgan. Bunday yaxlitlanishga -*a/-y* ravishdoshi shaklidagi fe'lning mustaqil ishlatalish xususiyati yo'qola boshlagani ham sabab bo'lgan.

-*digan* qo'shma affiksi tarkibidagi *di-* (< *tur*) qismi allaqachon shaklan va mazmunan o'zgarib ketgan bo'lsa ham, fe'l asosiga qo'shilishida leksemalik xususiyatini saqlagan: asosga -*a/-y* ravishdoshi shakli orqali qo'shiladi: *bor + a + digan*, *o'qi + y + digan* kabi.

Ko'rinaridiki, mustaqil fe'l asosiga -*gan* affiksini qo'shib o'tgan zamon ma'nosi ifodalangan. Hozirgi va kelasi zamon ma'nosi mustaqil fe'l sifatida *yot-*, *tur-* holat fe'llariga -*gan* affiksini qo'shib ifodalangan; keyinchalik *yot-*, *tur-* fe'llari qo'shimchaning tarkibiy qismiga aylangan.

Yuqorida tasvirlangan uch sifatdosh yasovchisi uch zamon ma'nosini ifodalashi jihatidan o'zaro mikrotizim hosil qiladi. Har uch zamon ma'nosini ifodalashiga ko'ra nutqda asosan shu uch sifatdosh shakli yasovchilari eng ko'p ishlataladi.

5- §. Fe'lning sifatdosh shakli *-r/-s*, *-ajak*, *-mish*, *-gusi*, *-asi* affiksilarini bilan ham yasaladi:

4) *-r* (bo'lishsiz shakldan keyin *-s*) affiksi bilan yasaladi. Bunday sifatdosh shaklidan 'umumzamon' ma'nosi ifodalanadi: *ko'rар ko'zim-*, *aytar so'zim-*; *tez yurar poyezd-*, *o'q o'tmas jilet-* kabi.

Bu sifatdosh shakli *bo'lar-bo'lmas* (*gaplar-*) kabi ayni bir fe'l leksemani bo'lishli-bo'lishsiz shaklda takrorlab ham ishlataladi; bunday shakldagi sifatdosh, otga bog'lanishdan tashqari, fe'lga ham bog'lanib, harakatning belgisini anglatadi: *Tong otar-otmas jo'nadik* kabi.

Bu sifatdosh yasovchisining *-r* shakli asosiy allomorfema bo'lib, *-s* shakli shu allomorfemaning tovush o'zgarishi natijasida paydo bo'lgan deyiladi: *o'qima + r* > *o'qimaz* > *o'qimas* kabi. Kelib chiqishi bir ekanini nazarda tutib bu affiksning *-r* va *-s* shakllarini allomorfemalar deb baholash to'g'ri.

5) Sifatdosh shakli hozirgi o'zbek tilida cheklangan holda -gusi, -ajak affiksleri bilan ham yasaladi: *kel + gusi yil-, bo'l + ajak shogirdim-, yozil + ajak asar-* kabi. -gusi affiksining -g'usi allomorfemasi sobiq singarmonizmning qoldig'i sifatida saqlanib keladi: *bo'l + g'usi avlod-* kabi.

*Kelasi* (*yil-*) kabi fe'l shakli asli -asi affiksi bilan yasalgan sifatdosh bo'lib, hozirgi o'zbek tilida bu affiks bilan sifatdosh deyarli yasalmaydi. Shuningdek *o'tmish (kunlar-)* kabi fe'l shakli ham asli -mish affiksi bilan yasalgan sifatdosh bo'lib, hozirgi o'zbek tilida bu affiks bilan ham sifatdosh deyarli yasalmaydi, mavjud yasalmalar otga aylangan: *o'tmish-, qilmish-qidirmish-* kabi; yangi yasalishlarda bu affiks ot leksema yasash vazifasini bajaradi: *sifatlannish-, qaralmish-* kabi.

### Fe'lning ravishdosh shakli

6- §. Ravishdosh shaklida fe'l anglatadigan harakat boshqa bir harakatning belgisi tarzida (ravishdan farqli holda aktiv belgisi tarzida) taqdim qilinadi. Ravishdosh shakli hozirgi o'zbek tilida quyidagi yasaladi:

1. -b affiksi bilan yasaladi. Bu ravishdosh yasovchisi hozirgi o'zbek tilida eng ko'p ishlatiladi, o'zi bog'lanib kelgan fe'ldan oldin boshlanib davom etib turgan harakatni belgi sifatida ifodalaydi: *o'ylab gapir-, hurmat qilib kel-, kulib kutib ol-* kabi.

Bu affiks bilan yasalgan ravishdosh quyidagi vazifalarni bajaradi:

1) Asosan ravish holi vazifasida keladi: *kuyunib gapir-* (= kuyungan holda gapir-) kabi. Hol vazifasida kelgan bunday ravishdosh shakli takroran ishlatilib, 'takror' ma'nosini ifodalaydi: *Yig'lab-yig'lab marza olsak, kulib-kulib sug'orasan* kabi.

2) Ergash gapshakl kesimini shakllantiradi; bunday kesimning mayli, zamoni, shaxs-soni bosh gapdag'i tuslangan kesimga qarab belgilanadi: *Kuz kelib, daraxtlarning bargi to'kila boshladi. Eshik ochilib, ko'pdan beri orziqib kutgan do'stim kirib keldi* kabi. Bunday jumlalar, masalan, *Daraxtlarning bargi kuz kelib to'kila boshladi* tarzida tuzilsa, sodda gapga teng bo'ladi: *kuz kelib bog'lanmasi hol bo'lak* vazifasida keladi.

3) "Mustaqil fe'l + ko'makchi fe'l" analitik shaklida go'yo ko'makchi fe'lni mustaqil fe'lga bog'lash vazifasini bajaradi: *aytib qo'y-, gapirib yubor-* kabi. Ravishdosh shaklining bu vazifasi – bir mustaqil fe'lning boshqa bir mustaqil fe'lga tobelab bog'lash vazifasining davomi: asli ikki mustaqil fe'l leksemani bog'laydigan shakldan mustaqil leksema bilan ko'makchi fe'lni (affiksoidni) bog'lashda ham foydalanilgan.

4) Ikki mustaqil fe'l leksemadan tarkib topgan qo'shma fe'l leksemalarda ham birinchi qism shu ravishdosh yasovchisi shaklida bo'ladi: *sotib ol-*, *olib sot-*, *olib kel-* kabi.

2. -*a/-y* affiksi bilan yasaladi. Bu affiks ikki allomorfema holatida namoyon bo'ladi: a) ovoz tovush bilan tugaydigan asosga -*y* allomorfemasi qo'shiladi: *o'qi + y*, *boshla + y* kabi; b) boshqa tur tovush bilan tugaydigan asosga -*a* allomorfemasi qo'shiladi: *ket + a*, *tush + a*, *qol + a* kabi.

Bu affiks bilan yasalgan ravishdosh quyidagi vazifalarni bajaradi:

1) Ravish holi vazifasida keladi; ravishdosh shaklidagi fe'l anglatadigan harakat tugashi bilanoq bu ravishdosh bog'langan fe'l anglatadigan harakat zudlik bilan bajarilishini ifodalaydi: *Kela ishgu tushib ketdi*. *Kulmay gapir* kabi. Hozirgi o'zbek tilida bunday ravishdosh yakka holda juda oz ishlatalidi, ko'pincha takrorlanib keladi; bunda 'takror' ma'nosi ifodalanadi: *Gapira-gapira charchadim* kabi.

2) "Mustaqil fe'l + ko'makchi fe'l" tuzilishli analitik grammatik shaklda go'yo ko'makchi fe'lni mustaqil fe'lga bog'lash vazifasini bajaradi: *kel + a qol-*, *o'qi + y boshla-* kabi. -*a/-y* ravishdosh shakli yasovchisining bunday vazifasi -*b* ravishdosh shakli yasovchisining xuddi shunday vazifasi kabi izohlanadi.

3) Ravishdoshning bu yasovchisi -*yotgan*, -*digan* affikslarini go'yo fe'l asosiga bog'lash vazifasini bajaradi: *kel + a + yotgan*, *boshla + y + digan* kabi. Ravishdosh yasovchisining bunday vazifada kelishi sifatdosh yasovchisi -*yotgan*, -*digan* affikslari tasvirida izohlandi.

4) Bu ravishdosh shakli bo'lishsiz shakldagi fe'l asosidan yasalganida -*b* ravishdoshining bo'lishsiz shakliga teng bo'ladi: *bilib-bilmay xatoga yo'l qo'ydim* kabi. Bunday shakldagi ravishdosh ba'zan -*mayin* shaklida ishlatalidi: *Ko'rmayin bosdim tikanni, tortadirman dardini* kabi.

7- §. Ravishdoshlar quyidagi affikslar bilan ham yasaladi:

1) -*gach* affiksi bilan. Bu affiks o'zi qo'shiladigan asosning qanday tovush bilan tugashiga qarab -*gach*, -*kach*, -*qach* allomorfemalari shaklida qo'shiladi (Bunday uch allomorfemaning namoyon bo'lish sharoiti -*gan* affiksi bayonida aytildi): a) *tik + kach*, *tug + gach* > *tukkach* (*tuggach* yo'ziladi) kabi; b) *chiq + qach*, *yig' + gach* > *yiqqach* (*yig'gach* yoziladi) kabi; d) *yur + gach*, *oz + gach*, *ishla + gach* kabi; e) *tush + kach* (*tushgach* yoziladi), *kes + kach* (*kesgach* yoziladi) kabi. Bu allomorfemalarda g fone-masining *g*, *k*, *q* allofonemalari yuzaga keladi (Tarixan -*g'ach* allomorfemasi ham mayjud bo'lgan, bu allomorfema tarkibida g fonemasining *g'* allofone-masi ham namoyon bo'lgan: .. *pinhon bo'lg'ach quyosh* kabi). Ko'rinaridiki,

bunday allomorfemalar asos oxiridagi fonemaning affiks boshlanishidagi fonemaga ta'siri natijasida yuzaga keladi.

Bu affiks o'zi qo'shiladigan fe'l anglatadigan harakat tugagandan keyin gina boshqa bir harakat boshlanishini ifodalaydi, shunga ko'ra bu ravishdosh shaklidagi fe'l payt holi vazifasini bajaradi; bu ravishdosh shaklidagi fe'l er-gash gap kesimi bo'lib keladi deyish to'g'ri emas. Qiyos qiling: *Bahor kelgach daraxtlar kurtak chiqara boshladi* = *Bahor kelgandan keyin daraxtlar kurtak chiqara boshladi* = *Daraxtlar bahor kelgach (bahor kelgandan keyin kurtak chiqara boshladi)*. Demak, -gach affiksi kesimni emas, hol bo'lakni shakllantirishga xizmat qiladi.

2) Ayrim fe'llardan -gani (tarixan -gali) affiksi bilan yasaladi. Bu affiks bilan yasalgan ravishdosh maqsad ma'nosini ifodalaydi (-sh uchun shakliga sinonim), shunga ko'ra maqsad holi vazifasida keladi: *Ko'rgani (< ko'rgali) bordik, Qachon jo nashingizni bilgani keldim* kabi.

Bu affiks ham -gach affiksida amal qiladigan qoidalar asosida -gani, -kani, -qani allomorfemalari shaklida namoyon bo'ladi, demak, bu yerda ham g fonemasining g, k, q allofonemalari yuzaga keladi: *Tabriklagani kelibdi, Papirosh chekkani tashqariga chiqdi, G'o'zapoya yiqqani* (yig'gani yoziladi) *ketdi* kabi.

3) -guncha affiksi bilan yasaladi. Bu affiks o'zi qo'shilgan fe'l leksemidan anglashiladigan harakat boshqa bir harakat boshlanishigacha voqe bo'lishini ifodalaydi: *Dehqon bahor kelguncha (= kelgunga qadar) biroz na-fasini rostlaydi* kabi.

Bu affiks bilan yasalgan ravishdosh shakli *Uni kaltaklaguncha meni kaltakla* kabi qurilmalarda -gandan ko'ra analitik grammatik shakli kabi zidlash ma'nosini ifodalaydi.

-guncha sifatdosh yasovchisining o'ziga xos xususiyati shuki, -gun va -cha qismlari orasida nisbatlovchi ishlatalish mumkin: *Gapimni aytib bo'lgu-nimcha sabr qiling* kabi. Ushbu affiksning bu xususiyati -guncha qo'shma affiks sifatida yaxlitlanmaganini, tarkibidagi chegara ma'nosini ifodalovchi -cha affiksi o'z mustaqilligini saqlaganini ko'rsatadi.

Bu affiks ham -gach, -gani affikslarida amal qiladigan qoida asosida -guncha, -kuncha, -quncha allomorfemalari shaklida namoyon bo'ladi, demak, bu yerda ham g fonemasining g, k, q allofonemalari yuzaga keladi: *puli tugaguncha, qorong'i tushkuncha (tushguncha yoziladi), uydan chiqquncha* kabi.

8- §. Fe'lllikka xos navbatdagi shakl yasalishlarini bayon qilishga o'tmay turib yuqorida tasvirlangan shakl yasalishlari to'g'risida ba'zi umumiy mulo-hazalarni ta'kidlaymiz.

1. Fe'lning otdosh, sifatdosh, ravishdosh shakllari — o'z yasovchilariga, o'z ma'no va vazifalariga ega uch mustaqil hodisa. Bu uch shakl yasalishlarini "fe'lning funksional formalari", "fe'l turlari" deb nomlash ularning mohiyatini ifodalamaydi. Shuni hisobga olib "fe'lning boshqa turkumlarga monand shaklli" deb nomiadik.

2. Turkumlarni ta'riflaganda ot leksemalar "predmetning nomi", sifat leksemalar "predmetning sifatiy belgisining nomi" deyilganidek fe'l leksemalarni ham "harakatning nomi" deyish tabiiy: fe'l ham nomlovchi turkum leksemasi. Shuni hisobga olib va sifatdosh, ravishdosh terminlariga monand holda "harakat nomi" deb kelingan hodisani *fe'lning otdosh shakli* deb nomladik.

3. Bu uch shakl yasalishi sintaktik mohiyatga ega: bunday yasalishlar bilan fe'l leksemada ma'lum bir sintaktik vazifani bajarish xususiyati paydo bo'ladi. Bu — har uch shakl uchun umumiyl xususiyat. Shu xususiyatiga ko'ra bunday shakl yasovchilari sintaktik mohiyatli shakl yasovchi morfemalar deyiladi. Bulardan farqli holda fe'lning bo'lishsiz shaklini yasovchi -ma affiksi morfologik mohiyatga ega.

Sintaktik mohiyat nisbat, orttirma shakllarini yasovchi morfemalarga ham xos, lekin bu yerda sintaktik mohiyat ichki: leksema bilan tuziladigan sintaktik qurilmaga ta'sir o'tkazadi, fe'l leksemaning sintaktik vazifa bajarishiga aloqasi yo'q.

4. Fe'lning otdosh shakli ot turkumi leksemasi bajaradigan vazifalarda keladi, shunga ko'ra hokim bo'lak (ega) vazifasida ham, tobe bo'lak (qaratuvchi, to'ldiruvchi kabi) vazifasida ham ishlatalidi. Fe'lning sifatdosh, ravishdosh shakllari esa asosan tobe bo'lak (sifatlovchi, hollovchi) vazifasida ishlatalidi. Sifatdosh otlashganda ot leksema bajaradigan vazifalar qatori ega bo'lib ham keladi. Lekin ravishdoshga bunday xususiyat xos emas. Ravishdoshning o'ziga xos vazifalari bo'lib, ravish holi vazifasida kelishdan tashqari, mustaqil bo'lmagan kesimni, uyushiq qatorning oldingi a'zosini shakllantiradi, mustaqil fe'lga ko'makchi fe'lni bog'lashda, hatto fe'l asosiga affiksni qo'shishda ham qatnashadi.

5. Fe'lning otdosh, sifatdosh, ravishdosh shakllari fe'l leksemashakl tuzishda, affikslarning qo'shilish tartibida ayni bir o'rinni (pozitsiyani) har uch shakl yasovchilaridan har gal biri egallaydi; yonma-yon joylashmaydi. Ana shu xususiyatiga ko'ra fe'lning otdosh, sifatdosh, ravishdosh shakllari o'zaro paradigma hosil etadi deyish mumkin.

6. Fe'lning otdosh shaklini yasovchi affikslar o'zaro sinonimik munosabat hosil etadi. Sifatdosh shaklini yasovchi affikslar o'zaro, ravishdosh shaklini yasovchi affikslar o'zaro mazmun jihatdan asosan 'zamon' semasi bilan birlashib, o'ziga xos semalariga ko'ra farqlanib ichki tizim hosil etadi. Faqat

*-gani* (*-gali*) ravishdosh yasovchisi keskin farqlanib turadi: bu affiks ma'nosida 'zamon' semasi yo'q, 'maqsad' ma'nosi ifodalanadi, shunga ko'ra maqsad holi vazifasida keladi; tuslanmaydigan shakl bo'lgani uchun bu affiksni mayl yasovchilari qatoriga o'tkazib bo'lmaydi.

7. Fe'lning otdosh shaklini yasovchi morfemalar hozirgi o'zbek tilida allomorfemalarga ega emas.

*-r* sifatdosh yasovchisi bo'lishsiz shakldan keyin *-s* allomorfemasi tarzida namoyon bo'ladi. Bu allomorfemalar kelib chiqishi jihatidan birlashsa ham (*r* > *z* > *s*), hozirgi o'zbek tilida mustaqil allomorfemalar sifatida baholanadi; lekin shu asosda *r* va *s* tovushlarini *r* fonemasining allofonemalari deyish qiyin.

*-a* ravishdosh yasovchisi ovoz tovushdan keyin *-y* shaklida qo'shiladi; o'zaro bog'lash qiyin bu ikki tovush ayni bir morfemaga ifoda jihatni bo'lib kelayotgani sababli *-a* va *-y* ifodalari bir morfemaning allomorfemalari deyiladi, lekin *a* va *y* tovushlarini *a* fonemasining allofonemalari deyish qiyin.

*g* fonemasi bilan boshlanadigan *-gan*, *-gusi* sifatdosh yasovchilarida, *-gach*, *-gani*, *-guncha* ravishdosh yasovchilarida asos bilan affiks orasida voqe bo'ladigan fonetik jarayon bu affikslarning *k*, *q* tovushlari bilan boshlanadigan allomorfemalarini yuzaga keltiradi; bu yerda *g* fonemasining *g*, *k*, *q* allofone malari to'g'risida gapirish mumkin.

## ZAMON SHAKLLARINI YASOVCHI MORFEMALAR PARADIGMASI

1- §. Harakat bilan uning amalga oshadigan vaqt ni orasidagi munosabatni ifodalovchi morfema zamon yasovchi morfema deyiladi; bunday morfemalar tizimi zamon yasovchilari paradigmasini tashkil etadi.

Fe'lning zamoni harakat amalga oshadigan vaqt ni obyektiv vaqtga nisbat berib belgilanadi, bunda nutq payti o'lchov qilib olinadi: harakat nutq paytidan oldin voqe bo'lgani ifodalansa, o'tgan zamon deb, nutq paytida voqe bo'layotgani ifodalansa, hozirgi zamon deb, nutq paytidan keyin voqe bo'lishi ifodalansa, kelasi zamon deb belgilanadi.

2- §. Hozirgi o'zbek tilida tom ma'noda zamon yasovchi morfemalar — aniq yaqin o'tgan zamon shakli yasovchi *-di*, hozirgi zamon shakli yasovchilari *-yotir*, *-moqda*, *-yap* affikslari. Zamon yasovchisi deb ta'kidlanadigan boshqa morfemalar asli fe'lning sifatdosh, ravishdosh shakllarini yasovchi affikslar bo'lib, tuslovchi qo'shilganidan keyin zamon yasovchisi vazifasiga o'tadi, zamon yasovchilari paradigmasining vakiliga aylanadi.

Hozirgi adabiy o'zbek tilida fe'lning sifatdosh, ravishdosh shakllari qatoriga qo'shilmaydigan *-di* affiksi ham asli sifatdosh shakli yasovchisi bo'lgan.

Demak, tarixni ko'zda tutib fikr yuritsak, fe'l zamonlari yasovchilari asli asosan fe'lning sifatdosh, ravishdosh shakllarini yasovchi affikslardan o'sib chiqqan. Bu affikslar hozirgi adabiy o'zbek tilida sifatdosh, ravishdosh shakli yasovchisi vazifasini ham, zamon yasovchisi vazifasini ham bajaradi.

Ikki har xil vazifani bajarishidan tashqari, bu affikslar ifodalaydigan ma'nolar orasida ham ma'lum farqlar mavjud. Eng muhimi shuki, bu affikslar — boshqa-boshqa paradigmalarning (fe'lning boshqa turkumlarga monand shakllarini yasovchi morfemalar paradigmasing va zamon shakli yasovchi morfemalar paradigmasing) vakillari. Sifatdosh, ravishdosh shakli yasovchisi sifatida bu affikslar sintaktik mohiyatga ega, zamon yasovchisi sifatida esa morfologik mohiyatga ega. Yuqorida aytilgan farqli belgi-xususiyatlarni hisobga olib hozirgi adabiy o'zbek tilida ikki vazifani bajaradigan bir affiks haqida emas, balki har xil mohiyatga ega ikki affiks haqida gapirish o'rini.

**3- §. Zamon yasovchilari paradigmasi** juda murakkab bo'lib, o'z ichida kelasi zamon, hozirgi zamon, o'tgan zamon subparadigmalariga ajraladi. Bulor orasida kelasi zamon subparadigmasi — eng sodda tuzilishli. Bu subparadigmalar morfemalarining o'zaro ierarxiyasini (bir-biriga asos bo'lishini) hisobga olib, bayonni kelasi zamon subparadigmaside boshlash to'g'ri.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, tuslovchining zamon yasovchisiga hech qanday bog'liq jihat yo'q; lekin misol berishda tuslovchi keltirilmasa, affiksning zamon yasovchisi ekani ko'pincha ochiq ko'rinxmay qoladi. Masalan, -*b* affiksi zamon yasovchisi ekani undan keyin tuslovchi qo'shilsa-gina aniq bo'ladi: *gapirib* — *gapiribman* kabi. Shuning uchun misollar tuslovchi qo'shilgan holda keltirildi.

### Kelasi zamon subparadigmasi

**4- §. Kelasi zamon shakllari quyidagicha yasaladi:**

1) *-a/-y* affiksi bilan yasaladi; kelasi zamonning boshqa turlaridan modal ma'no ifodalanmasligi bilan farq qiladi, shunga ko'ra sof aniq kelasi zamon shakli deyiladi: *gapir + a + man, so'zla + y + man* kabi.

Bu zamon shakli hozir voqe bo'lib turgan harakatni ham ifodalaydi: *Qiziqib qarayman* kabi. Shuni hisobga olib bu shakl hozirgi-kelasi zamon shakli deb ham yuritiladi.

Bunday yasalgan shakl umumzamon ma'nosini ham ifodalaydi: *Qush say-raydi* kabi.

2) *-r* affiksi bilan yasaladi; harakatning kelgusida bajarilishi noaniq tarzda, ehtimol tarzida ifodalanadi, shunga ko'ra taxminli kelasi zamon shakli deyiladi: *gapir + ar + man, so'zla + r + man* kabi. Bo'lishsizlik

qo'shimchasidan keyin bu affiksning -s allomorfemasi qo'shiladi: *gapir + ma + s + man* kabi.

Tarixan bu zamon shakli bilan harakatning doimiy tarzda albatta ro'yobga chiqishi ma'nosi ifodalangan: *Odam qadrin mehnat oshirar* (Maqol) kabi.

3) *-digan* affiksi bilan yasaladi, fe'l asosiga *-a/-y* ravishdosh yasovchisi orqali qo'shiladi; kelgusida amalga oshishi mo'ljal qilinayotgan harakatni ifodalaydi, shunga ko'ra mo'ljalli kelasi zamon shakli deyiladi: *gapir + a + digan + man, so'zla + y + digan + man* kabi. Bu affiksdan oldin (quyida izohlangan boshqa affikslardan oldin ham) *-a/-y* ravishdosh yasovchisining qo'shilish sababi sifatdosh bayonida aytildi.

4) *-(y)ajak* affiksi bilan yasaladi: *gapir + ajak + man, so'zla + yajak + man* kabi. Bu zamon shakli harakatning kelgusida albatta ro'yobga chiqishini ifodalaydi; shunga ko'ra qat'iy kelasi zamon shakli deyiladi. Kelasi zamonning bu shakli cheklangan holda — adabiy tilning rasmiy nutq turida ishlataladi.

### Hozirgi zamon subparadigmasi

5- §. Hozirgi zamon shakllari bilan aniq hozirgi zamon ma'nosi ifodalanib, quyidagicha yasaladi:

1) *-yotib* affiksi bilan yasaladi, bu affiks fe'l asosiga *-a/-y* ravishdosh affiksi orqali qo'shiladi: *gapir + a + yotib + man, so'zla + y + yotib + man* kabi. Keyingi misoldagi kabi yasalishda yonma-yon kelgan ikki *yy* tovushi bir tovushga singishadi: *so'zla + y + yotib + man > so'zlayotibman* kabi. Hozirgi zamonning bu shakli bilan harakatning oldinroq boshlanib, hozir uzlusiz davom etib turganligi ma'nosi ifodalanadi.

2) *-yap* affiksi bilan yasaladi. Asli *-yap* — mustaqil affiks bo'lmay, *-yotib* affiksining tovush jihatidan o'zgargan ko'rinishi: *-yotib* affiksi boshlanishidagi *y* tovushi o'zicha saqlangan, oxiridagi *b* tovushi *p* tovushiga, *o* tovushi *a* tovushiga almashgan, oradagi *ti* tovushlari talaffuz qilinmay qo'ygan: *-yotib > -yap*. Farg'ona dialektiga mansub bu affiks keyinchalik adabiy til affiksi mavqeiga ega bo'ldi. Asli *-yotib* affiksidan ajralib chiqqan *-yap* affiksi ham fe'l asosiga *-a/-y* ravishdosh affiksi orqali qo'shiladi: *gapir + a + yap + man, so'zla + y + yap + man > so'zlayapman* kabi. *-yotib* affiksi bilan yasalgan zamon shaklidan farqli holda *-yap* affiksi bilan yasalgan zamon shakli 'harakat oldin boshlanib, hozir uzlusiz davom etishi' ma'nosini emas, 'harakat hozir amalga oshish holatida' ekani ma'nosini ifodalaydi.

3) *-yotir* affiksi bilan yasaladi. Bu affiks ham fe'l asosiga *-a/-y* ravishdosh affiksi orqali qo'shiladi: *gapir + a + yotir + man* kabi. Bu yerda ham

qator kelgan *yy* tovushlari singishadi: *so'zla + y + yotir + man > so'zlayotirman* kabi. Hozirgi zamonning bu shakli *-yotib* affiksi bilan yasaligan zamon shaklidan faqat adabiy tilning rasmiy nutq turiga mansubligi bilan farqlanadi.

4) Holat *anglatuvchi yot-, o'tir-, tur-, yur-* fe'llaridan hozirgi zamon shakli *-b* ravishdosh affiksi bilan yasaladi: *yot + ib + man* kabi. Bu *to'rt* holat fe'lidan o'sib chiqqan ko'makchi fe'llar qatnashadigan analitik grammatik shakllarda ham hozirgi zamon *-b* affiksi bilan yasaladi: *gapir + ib + tur + ib + man* kabi. Hozirgi zamonning bu shakli bilan 'davomiylik' ma'nosini ifodalanadi.

5) *-moqda* affiksi bilan yasaladi. Bu affiks fe'lning otdosh shakli yasovchisi *-moq* affiksining *-da* o'rin kelishigi affiksi qo'shilgan shaklidan o'sib chiqqan bo'lib, harakatning davomli ekani ma'nosini ifodalaydi. Hozirgi zamonning bu shakli adabiy tilning rasmiy nutq turida ishlatiladi: *gapir + moqda + man* kabi.

6) *-yotgan* affiksi bilan yasalib, *-dir* guman yuklamasi qo'shilgan holda ishlatiladi: *gapir + a + yotgan + dir + man*. Bu shakl bilan harakatning oldin va hozir amalgalosha gumanli tarzda ifodalanadi.

### O'tgan zamon subparadigmasi

6- §. O'tgan zamon subparadigmasi murakkab shakl yasalishi tizimiga ega bo'lib, dastlab o'tgan zamonning birlamchi yasalish tizimini va ikkilamchi yasalish tizimini ajratish kerak. Birlamchi tizim — affikslar bilan yasalish, sintetik grammatik shakllar tizimi; ikkilamchi tizim — asosan *edi* affiksoidi bilan hosil qilinadigan analitik grammatik shakllar tizimi.

Tarixan *er-* fe'l mavjud bo'lib, keyinchalik bu fe'l leksik ma'no anglatish xususiyatini va shu bilan birga undan turli shakllar yasalishi xususiyatini yo'qotgan. Bu ikki hodisani nazarda tutib ushbu fe'l *to'liqsiz fe'l* deyiladigan bo'lgan. Hozirgi o'zbek tilida *to'liqsiz fe'l* degan fe'l yo'q, faqat *e-* fe'l asosidan hosil qilingan *edi*, *ekan*, *emish* affiksoidlari mavjud. Bulardan tashqari, *e-* asosidan hosil qilingan *esa*, *emas* ham mavjud bo'lib, allaqachon alohidalo'hida til birligiga: *esa* — ta'kid yuklamasiga, *emas* — inkor morfemasiga aylangan. Bulardan *emas* bo'lishsizlik ma'nosini ifodalaydigan affiksoid si-fatida ishlatiladi.

Uch affiksoid — *edi*, *ekan*, *emish* garchand asos (*e-*) va affiks (*-di*, *-kan*, *-mish*) qismlaridan tashkil topgani aniq sezilib tursa ham, bunday ma'noli qismlarga ajratilmaydi, yaxlitligicha affiksoid deyiladi. Bu affiksoidlarning ishlatilish doirasi ancha keng bo'lib, shu jumladan fe'lning uzoqroq o'tgan zamon shakllarini yasashda qatnashadi, analitik shakl hosil qiladi.

## 7- §. O'tgan zamonning sintetik shakllari quyidagicha yasaladi:

1) *-di* affiksi bilan yasaladi. Bunda harakatning nutq paytidan biroz oldin aniq amalga oshgani ifodalanadi, shunga ko'ra aniq yaqin o'tgan zamon shakli deyiladi: *gapir + di + m* kabi.

2) *-gan* affiksi bilan yasaladi. Bunda harakatning nutq paytidan anche oldin amalga oshgani ifodalanadi; aniq yaqin o'tgan zamon va uzoqroq o'tgan zamondan farqlab ushbu zamon yasalishini shartli ravishda aniq old o'tgan zamon deb nomlash mumkin: *gapir + gan + man* kabi. Bu zamon shakliga *-dir* guman yuklamasini qo'shish bilan harakatning aniq bajarilganiga guman bildiriladi: *gapir + gan + dir + man* kabi.

3) *-b* affiksi bilan yasaladi. Bunda harakatning nutq paytidan oldin amalga oshganidan keyinchalik xabardor bo'lish ma'nosi ifodalanadi, shunga ko'ra shartli ravishda darak old o'tgan zamon shakli deb nomlash mumkin: *gapir + ib + san* kabi.

8- §. O'tgan zamonning analitik grammatik shakllari asosan *edi* affiksoidi bilan hosil qilinadi. Bu affiksoid fe'lning o'tgan zamon shakllariga ham, hozirgi zamon shakllariga ham, kelasi zamon shakllariga ham qo'shilib, asosan uzoqroq o'tgan zamon ma'nosini ifodalashga xizmat qiladi:

1. O'tgan zamonning *-di* affiksi bilan yasaladigan sintetik shakli *edi* affiksidi bilan ishlatalmaydi. Qolgan ikki sintetik shaklga *edi* affiksoidi qo'shilib, o'tgan zamonni yana ham oldingiroq o'tgan zamon sathiga ko'chiradi:

1) *-gan* affiksi bilan yasalgan aniq old o'tgan zamon shakliga qo'shilib, bu shakldan uzoqroq aniq o'tgan zamon ma'nosi ifodalanadi: *gapir + gan + edi + m* kabi.

2) *-b* affiksi bilan yasalgan darak old o'tgan zamon shakliga qo'shilib, bu shakldan uzoqroq darak o'tgan zamon ma'nosi ifodalanadi: *gapir + ib + edi + m* kabi. So'zlashuv tilida bu shakl tovush o'zgarishlariga uchrab, *gapiruvdim* tarzida talaffuz qilinadi. Bu yerda *b* tovushi *v* tovushiga, undan oldingi *i* tovushi *u* tovushiga almashadi, *e* tovushi talaffuz qilinmaydi.

2. *edi* affiksoidi hozirgi zamonning quyidagi shakllariga qo'shiladi, harakatning amalga oshish payti hozirgi zamon ma'nosi ichki qirra sifatida saqlangan holda oldingiroq (uzoqroq) o'tgan zamon sathiga ko'chiriladi:

1) *-yotib* affiksi bilan yasalgan shakliga qo'shiladi: *gapir + a + yotib + edi + m (gapirayotuvdim)* kabi;

2) *-yotir* affiksi bilan yasalgan shakliga qo'shiladi: *gapir + a + yotir + edi + m* kabi (Bu shakl juda oz ishlataladi);

3) Holat fe'llarining *-b* affiksi bilan yasalgan shakliga qo'shiladi: *o'tir + ib + edi + m (o'tiruvdim)* kabi;

4) *-moqda* affiksi bilan yasalgan shakliga qo'shiladi: *gapir + moqda + edi + m* kabi (Bu shakl oz ishlataladi).

5) *-yotgan* affiksi bilan yasalgan shakliga qo'shiladi; *gapirayotgandirman* shaklidan farqli holda bu yerdagi yasalishda *-dir* guman yuklamasi qatnashmaydi: *gapir + a + yotgan + edi + m* kabi.

3. *edi* affiksoidi kelasi zamonning *-a/-y* affiksi bilan yasaladigan shakli (sof kelasi zamon shakli) bilan ishlatalilmaydi. Kelasi zamonning quyidagi shakllariga qo'shiladi:

1) *-digan* affiksi bilan yasalgan mo'ljalli kelasi zamon shakliga qo'shiladi: *gapir + a + digan + edi + m* kabi. Bunda kelasi zamon uzoqroq (oldingiroq) o'tgan zamon sathiga ko'chiriladi.

2) *-r* affiksi bilan yasalgan shakliga qo'shiladi: *gapir + ar + edi + m* kabi. Bunday shakldan taxminli emas, balki davomli (takroriy) o'tgan zamon ma'nosi ifodalanadi: *Yoshligimda Chig'atoy darvozaga ko'p kelar edim* kabi.

9- §. Analitik zamon shaklida *edi* affiksoidi o'miga *ekan*, *emish* affiksoidlarini ishlatalish mumkin:

1) *ekan* affiksoidini ishlatalish bilan 'eshitilganlik', 'keyin ma'lum bo'lganlik' ma'no qirrasi ifodalanadi: *gapir + gan + ekan + man* kabi;

2) *emish* affiksoidini ishlatalish bilan 'ishonchsizlik' ma'no qirrasi ifodalanadi: *gapir + gan + emish + man* kabi.

10- §. Zamon shakllari paradigmaсини chizmada quyidagicha joyalab ko'rsatish mumkin:

Subparadigmalar	Zamon shakli yasovchilar			
	Sintetik shakllar		Analitik shakllar	
	Affiks	Misol	Affiksoid	Misol
Kelasi zamon	<i>-a/-y</i>	<i>gapir + a + man</i> <i>so'zla + y + man</i>	—	—
	<i>-(a)r</i>	<i>so'zla + r + man</i> <i>gapir + ar + man</i>	<i>edi</i>	<i>gapir + ar + edi + m</i>
	<i>-(y)ajak</i>	<i>gapir + ajak + man</i> <i>so'zla + yajak+ man</i>	—	—
	<i>[-a/-y]</i>	<i>gapir + a + digan + man</i>	<i>edi</i>	<i>gapir + a + digan + edi + m</i>
	<i>-digan</i>	<i>so'zla + y + digan + man</i>		<i>so'zla + y + digan + edi + m</i>

Hozirgi zamon	<i>[-a/-y] -yotib</i>	<i>gapir + a + yotib + man so'zla + y + yotib + man (so'zlayotibman)</i>	<i>edi</i>	<i>gapir + a + yotib + edi + m (gapirayotuvdim) so'zla + y + yotib + edi + m (so'zlayotuvdim)</i>
	<i>[-a/-y] -yap</i>	<i>gapir + a + yap + man so'zla + y + yap + man (so'zlayapman)</i>	—	—
	<i>[-a/-y] -yotir</i>	<i>gapir + a + yotir + man so'zla + y + yotir + man (so'zlayotirman)</i>	—	—
	<i>holat fe'li + (i)b</i>	<i>yot + ib + man</i>	<i>edi</i>	<i>yotib + edi + m</i>
	<i>-moqda</i>	<i>gapir + moqda + man</i>	<i>edi</i>	<i>gapir + moqda + edi + m</i>
	<i>[-a/-y] -yotgan [+dir]</i>	<i>gapir + a + yotgan + dir + man</i>	<i>edi</i>	<i>gapir + a + yotgan + edi + m</i>
	<i>-di</i>	<i>gapir + di + m</i>	—	—
O'tgan zamon	<i>-gan</i>	<i>gapir + gan + man</i>	<i>edi</i>	<i>gapir + gan + edi + m</i>
	<i>-(i)b</i>	<i>gapir + ib + man so'zla + b + man</i>		<i>gapir + ib + edi + m (gapiruvdim) so'zla + b + edi + m (so'zlovdim)</i>

### MAYL SHAKLLARINI YASOVCHI MORFEMALAR

1-. §. Adabiyotlarda mayl kategoriyasi harakatning voqelikka munosabatini ko'rsatuvchi kategoriya deb, harakat bilan sub'ekt orasidagi (bajaruvchi bilan harakat orasidagi) aloqaning voqelikka munosabatini ifodalovchi grammatik kategoriya deb ta'riflanadi.

"Harakatning voqelikka munosabati" — juda keng tushuncha bo'lib, bo'lishli-bo'lishsizlikni ham, zamonni ham qamrab oladi; demak, bu tushunchani toraytirish lozim.

"Subyekt (bajaruvchi) bilan harakat orasidagi aloqa" deganda odatda fe'l leksemaning shaxslar bilan tuslanishi tushuniladi; demak, bu izohning maylga aloqasi yo'q.

Ta'rifdag'i "bajaruvchi bilan harakat orasidagi aloqaning voqelikka munosabati" tushunchasi "shaxslar bo'yicha tuslanishning voqelikka munosabati" deyishga teng bo'lib chiqadi. Ko'rindiki, bunday izohda ham modallik o'z aksini topmaydi. Bundan qat'i nazar, "harakat bilan subyekt orasidagi aloqa", "bajaruvchi bilan harakat orasidagi aloqa" tarzida hirikma tuzish mantiqan to'g'ri emas (*aloqa* leksemasi bu yerda noo'rin ishlatalig'an).

Ayrim adabiyotlarda ta'kidlanganidek, fe'l mayllari harakat bilan voqelik orasidagi aloqaga so'zlovchining munosabatini ifodalaydi deyish to'g'riroq, lekin bu yerda ham aniqlik yetishmaydi: qanday munosabat nazarda tutilishi aytilmaydi.

Ma'lumki, mayl deb harakatning buyurish, istash, maqsad, shart qo'yish yo'sinida amalga oshuvi tushuniladi. Ta'rifni ana shu tushunchalardan foydalanib, "Harakatning buyurish, istash, maqsad, shart qo'yish yo'sinida amalga oshuvini ifodalaydigan modal ma'nolar fe'l mayllari deyiladi" deb ta'riflash ma'qul.

Qaysi modal ma'noni ifodalashiga ko'ra o'zbek tilida istak mayli, maqsad mayli, shart mayli, buyruq mayli ajratiladi.

2- §. Adabiyotlarda fe'lning zamon yasalishi tizimi *aniqlik mayli* deb talqin qilinadi (Ba'zi adabiyotlarda bu hodisa *ijro mayli, xabar mayli* deb ham nomlanadi). Ayrim zamon shakllarida harakatning taxminli, gumanli, qat'yan amalga oshuvini ifodalaydigan ma'no qirrasi mavjud; lekin bu ma'no qirralari odatda asosiy ma'no — zamon ma'nosiga tobe holda qatnashadi; bu ma'no qirralari yuqorida keltirilgan mayl ma'nolaridan keskin farq qiladi. Aytilgan mulohazalarini inobatga olib, fe'l zamonlari paradigmاسini mayldan tashqarida turuvchi mustaqil hodisa deb baholash ma'qul. Mayl fe'l leksemaning barcha grammatik shakllarini qamrab oladigan hodisa deb qarash oqibatida zamon yasalishi ham mayl yasalishi doirasiga kiritilgan.

3- §. Istak mayli quyidagicha yasaladi:

1) -sa affixsi bilan yasaladi: *gapir + Ø I + Ø II + sa + ng, bor + Ø II + sa + m* kabi.

Qadimgi turkiy tilning ilk taraqqiyot bosqichida -sa affixsi: 1) leksema yasovchi vazifasini ham, 2) shakl yasovchi vazifasini ham bajargan: 1) *sub > suv + sa = suvsə-* ('suv ichishni ista-') — ot leksemadan fe'l leksema yasalgan; 2) *a:g-* ('biror tomonga egil-') + *sa* ('moyil') = *a:g'sa- > ag'sa- > aqsa-* ('bir oyog'i shikastli ekani tufayli chayqalib yur-') — fe'l leksemaning 'moyillik' ma'nosini ifodalovchi shakli yasalgan. Qadimgi turkiy tilga mansub bunday affiksal sinkretizm (ayni bir affiksdan leksema yasovchi sifatida ham, shakl yasovchi sifatida ham foydalanish) -sa affixsi misolida hozirgi o'zbek tiligacha yetib kelgan.

Asli 'istak' ma'nosi *-sa* affiksining bosh ma'nosi bo'lib, 'shart' ma'nosi keyinchalik yuzaga kelgan; bu affiksning ikki ma'nosini *-sa* 1, *-sa* 2 deb farqlash mumkin.

*-sa* 1 ma'nosi ushbu shakl yasovchisi qatnashgan fe'l leksemashakl mustaqil gapshaklning, qo'shma gapshakl tarkibidagi bosh gapshaklning kesimi vazifasida kelganida namoyon bo'ladi: *Shahardan tashqariga chiqib dam ol-sak* kabi. Istak maylining ushbu shaklida faqat kelasi zamon ma'nosi ifodalanadi.

2) *-gi + nisbatlovchi + kel-* qurilmasi bilan ifodalanadi: *gapir + Ø I + gi + m + kel + di* kabi. Bunday qurilma har uch zamon shaklida ishlatalidi: *gapir + Ø I + gi + m + kel + di, gapir + Ø I + gi + m + kel + a + yap + di, gapir + Ø I + gi + si + kel + gan + edi* kabi.

3) Buyruq mayli tuslovchilar paradigmasidegi I shaxs affiksi bilan ham istak ma'nosi ifodalanadi: *gapir + Ø I + Ø II + ay[in], gapir + Ø I + Ø II + aylik* kabi.

4- §. Maqsad mayli *-moqchi* affiksi bilan yasaladi; bu shakldan kelasi zamon ma'nosi anglashiladi: *gapir + Ø I + moqchi + man* kabi. O'tgan zamon shakli *gapir + Ø I + moqchi + edi + m, gapir + Ø I + moqchi + bo'l + gan + edi + m* tarzida yasaladi, o'tgan zamonda maqsad qilingan harakatning amalgalari oshmay qolgani ma'nosi ifodalanadi.

5- §. Shart mayli *-sa* affiksi bilan yasaladi, bunda *-sa* affiksi 'shart' ma'nosi bilan qatnashadi: *Gapirsam – tilim kuyadi, gapirmasam – dilim* kabi. Bu misolda shart mayli shaklidagi leksemashakl ergash gapshaklning kesimi vazifasida kelgan.

Quyidagicha tartiblangan sintaktik qurilmada shart mayli shaklidagi bog'lanma asli ergash gapshakl vazifasida emas, balki shart holi vazifasida kelgani ochiq ko'rinishi: *Daraxtlar bahor kelsa kurtak chiqara boshlaydi* kabi. Qiyos qiling: *Sen kelsang men ketaman. – Men sen kelsang ketaman.* Har ikki gapshaklda *sen kelsang* bog'lanmasi shart holi vazifasida kelgan.

Shart maylida har uch zamon ma'nosi ifodalanadi.

1. Shart maylining kelasi zamon shakllari quyidagicha yasaladi:

1) *-sa + tuslovchi: gapir + Ø I + Ø II + sa + ng ..* kabi;

2) *-a / -y + digan + bo'l + sa + tuslovchi: gapir + Ø I + Ø II + a + digan + bo'l + sa + ng ..* kabi;

3) *-(a)r + bo'l + sa + tuslovchi: gapir + Ø I + ar + bo'l + sa + ng ..* kabi.

2. Shart maylining hozirgi zamon shakli: *-a/-y + yotgan + bo'l + sa + tuslovchi* tarzida yasaladi: *gapir + Ø I + Ø II + a + yotgan + bo'l + sa + ng .. kabi.*

3. Shart maylining o'tgan zamon shakllari quyidagicha yasaladi:

1) *-gan + bo'l + sa + tuslovchi*: *gapir + Ø I + Ø II gan + bo'l + sa + ng .. kabi;*

2) *-sa + tuslovchi + edi*: *gapir + Ø I + Ø II + sa + ng + edi .. kabi.*

6- §. Xullas, mayl shakli yasovchi morfema istak maylida, maqsad maylida mavjud. Shart mayli yasovchisi asli istak mayli yasovchisidan o'sib chiqqan. Buyruq maylining maxsus affaksi yo'q (Bu mayl tuslovchi affikslar paradigmalari tasvirida bayon qilinadi). Shunga ko'ra buyruq mayli boshqa maxsus affiksli mayllar bilan bir paradigmaga birlashmaydi.

Istak mayli, maqsad mayli, shart mayli yasovchilar ham o'zaro zidlanish (oppozitsiya) hosil etmaydi: Ayni bir fe'l leksemashakl tarkibida istak mayli bilan shart maylining, maqsad mayli bilan shart maylining yasovchilar qatnasha oladi: *gapir + Ø I + gi + m + kel + sa .. gapir + Ø I + moqchi + bo'l + sa + m .. kabi.* Ko'rindaniki, bu uch mayl yasovchilar leksemashakl tarkibida bir pozitsiyada joylashuvchi va o'zaro almashinuvchi morfemalar emas, shunga ko'ra paradigma hosil etmaydi, faqat mayllikka xos modal ma'nolarni ifodalashi asosida birlashadi.

### TUSLOVCHI MORFEMALAR PARADIGMASI

1- §. Kesim vazifasidagi leksemashakl tarkibida harakat bajaruvchisining shaxs-sonini ifodalaydigan morfemaga *tuslovchi* deyiladi; tuslovchilar bilan shakl hosil qilinishiga *tuslanish* deyiladi. Tuslovchi morfemalar tuzumi paradigma hosil etadi.

Tuslovchi kesim vazifasida kelayotgan leksemaga ega vazifasida kelayotgan leksemadan (yoki nazarda tutilayotgan bajaruvchidan) anglashiladigan shaxs-son ma'nosiga muvofiq holda qo'shiladi, demak, qaysi shaxs-son tuslovchisining tanlab qo'shilishini ega vazifasida kelayotgan leksemashakl (yoki nazarda tutilayotgan bajaruvchi) belgilaydi: *Ukam gapirmadi, men gapirdim. [Siz] qachon kelasiz?* kabi.

Ayrim sintaktik qurilmalarda bajaruvchining shaxs-soni tuslovchi bilan emas, nisbatlovchi bilan ifodalanadi: *kel + Ø II + gan + ing + yo'q* kabi.

Tuslanish deganda asli shaxslar bo'yicha o'zgarish tushuniladi. Lekin tuslovchi, ma'lum istisnolardan qat'i nazar, shaxs ma'nosi bilan birga son ma'nosini ham ifodalashga xizmat qiladi; tuslovchi bilan uchinchi ma'no — modal ma'no ham ifodalanadi. Bir morfema bilan bir necha boshqa-boshqa grammatik ma'noning birgalikda ifodalanishi hodisasi *sinkretizm* deyiladi.

Agglutinativ grammatik qurilishli til sifatida o'zbek tilida har bir grammatik ma'nio odatda alohida-alohida morfema bilan ifodalanadi (lot. *agglutinare* – 'yelimlash'). Tuslovchi morfemaning (nisbatlovchi morfemada ham xuddi shunday) grammatik ma'noni sinkretik ifodalashi azaliy emas, keyinchalik voqe bo'lgani tuslovchi morfemalar tarkibini tahlil qilishda ochiq ko'rindi.

Tuslovchi morfemalar paradigma o'zbek tilida murakkab bo'lib, bir necha subparadigmadan tashkil topadi. Adabiyotlarda tuslovchilarning subparadigmalar turlicha nomlab, har xil tartibda joylab tasvirlanadi. Tuslovchilar subparadigmalar avvalo faqat fe'l leksemashakl tarkibida ishlatiladigan subparadigmalar deb va fe'l leksemashakl tarkibida ham, boshqa turkum leksemashakllari tarkibida ham ishlatiladigan subparadigma deb ikkiga ajratiladi. Birinchi guruhga *-y* morfemasi bilan boshlanadigan tuslovchilar subparadigma va *-m* morfemasi bilan boshlanadigan tuslovchilar subparadigma birlashadi; *-man* morfemasi bilan boshlanadigan subparadigma ikkinchi guruh sifatida ajralib turadi.

2- §. *-y* morfemasi bilan boshlanadigan subparadigma fe'lning buyruq mayliga xoslangan. Bunday tuslovchi fe'l leksemaga nisbat va bo'lishli-bo'lishsizlik ko'rsatkichlaridan keyin qo'shiladi, ayni vaqtida mayl, shaxs, son, modal ma'nolarni sinkretik ravishda ifodalaydi. Ushbu tuslovchilar subparadigmasini chizma bilan quyidagicha ko'rsatish mumkin:

Shaxslar	S o n l a r	
	B i r l i k	K o' p l i k
I	<i>o'qi + Ø I + Ø II + y[in]</i> <i>kel + Ø II + ay[in]</i>	<i>o'qi + Ø I + Ø II + ylik</i> <i>kel + Ø II + aylit</i>
II	<i>o'qi + Ø I + Ø II + Ø III</i>  -gin  -ng	<i>o'qi + Ø I + Ø II + ngiz</i>  -nglar  -ngizlar  -laring
III	<i>o'qi + Ø I + Ø II + sin</i>  -sin + lar  + Ø I + sh 2 + Ø II + sin	<i>o'qi + Ø I + sh 1 + Ø II + sin</i>

*O'qiy, kelay* misollarini qiyoslash bu morfemaning ifoda jihatni *y* fonemasiga teng ekanini, *a* tovushi asos oxiri bilan morfemani qovushtiruvchi (ortirma) tovush ekanini ko'rsatadi. Qovushtiruvchi tovush vazifasida odatda *i* tovushi keladi, bu yerda *a* tovushi deb belgilangan; so'zlashuv tilida *i* tovushi talaffuz qilinadi: *aytiy, keliy* kabi.

-y morfemasini -*ylik* affiksi bilan qiyoslasak, -y morfemasi shaxs ma'nosi nol ko'rsatkichli morfema bilan, ko'plik esa -*lik* affiksi bilan ifodalananayotir. Asli -*lik* affiksi I shaxs ko'pligini ifodalovchi -k affiksi bilan bog'lansa kerak: *bor-dik* kabi. So'zlashuv tilida va ba'zi turkiy tillarda *keliyik* kabi talaffuz ham mavjud.

-*yin* affiksini -*ylik* affiksi bilan qiyoslasak, -*yin* affiksi ikki qismga ajralishini ko'ramiz: -y qismi I shaxs ma'nosini, -n qismi birlik ma'nosini ifodelaydi (Tarixan *men*, *sen* kishilik olmoshlari tarkibida ham birlik ma'nosi -n qismi bilan ifodalangan).

Ushbu subparadigmadagi I shaxs-son tuslovchilari buyruq ma'nosini emas (So'zlovchi o'ziga buyurmeydi), balki istak ma'nosini ifodelaydi; shunga ko'ra bu tuslovchilar istak mayliga xos deyiladi.

Bu subparadigmaning II shaxs birlik ko'rsatkichlari o'zaro quyidagicha ichki zidlanish hosil etadi:

*o'qi + Ø I + Ø II + Ø III* – 'qat'iy', 'senlash'  
*-gin* – 'da'vat', 'senlash'  
*-ng* – 'sizlash'

Bu shaxsning ko'plik affikslari birlikning -*ng* affiksi asosida shakllangan:

*o'qi + Ø I + Ø II + ng + [Ø]* – -*ng* + *iz*  
*-ng + lar*  
*-lar + ing*

Ko'rindiki, -*ng* affiksi II shaxs ma'nosini ifodelaydi, birlik ma'nosi esa nol ko'rsatkichli morfema bilan ifodalanadi, buni ko'plik ma'nosi maxsus ko'rsatkich bilan ifodalanishi asosida belgilaymiz.

II shaxs ko'rsatkichlari tarkibida ko'plik ma'nosi -z qismi bilan yoki -*lar* affiksi bilan ifodalanadi. Bu yerdagi -z qismi – ko'plik kishilik olmoshlari (*biz*-, *siz*), ko'plik nisbatlovchilari (-*miz*-, -*ngiz*), ko'plik tuslovchilari (-*miz*, -*siz*) tarkibidagi ko'plik ko'rsatkichining o'zi; bularning barchasi – bir manbaning hosilalari. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, II shaxs tuslovchisi tarkibidagi -*lar* affiksi boshqa bir hodisaga – ot leksemalardagi son paradigmasinga mansub bo'lib, tuslovchilar tuzumiga ma'lum maqsad bilan kiritilgan.

II shaxs ko'pligining ko'rsatkichlari o'zaro quyidagicha zidlanadi:

*o'qi + Ø I + Ø II + ng + iz1* – 'ko'plik', betaraf  
*-ng + iz2* – 'birlik', 'sizlash'  
*-ng + lar* – 'ko'plik', 'sizlash'  
*-lar + ing* – 'ko'plik', 'senlash'

Yuqoridagi tasvirda *-ngiz* affiksiga xos ko'pma'nolilik — birlik va ko'plik ma'nosini ifodalashi va shunga bog'liq holda ifodalanadigan modal ma'nio ham ta'kidlandi. Bu tasvirda shuningdek *-lar* affiksi yordamida, ko'plik ma'nosidan tashqari, 'sizlash' va 'senlash' modal ma'nolari ham ifodalanishi ta'kidlandi. Ushbu modal ma'nolarni ifodalashga *-lar* affiksini shaxs ko'rsatkichidan keyin va oldin ishlatish bilan erishilgan.

II shaxs ko'rsatkichlarida buyruq ma'nosi nol ko'rsatkichli shakl bilan ifodalanadi; *-gin* affiksi bilan esa harakatni bajarishga da'vat qilish ma'nosi bildiriladi (Bu affiks tarixan *-gil* tarzida talaffuz qilingan bo'lib, uning tarkibidagi *-gi* qismi asli 'istak' ma'nosini, *-l* qismi esa 'o'zlik' ma'nosini ifodalagan).

III shaxs tuslovchisi *-sin* affiksi I shaxs birligining *-yin* affiksiga o'xshaydi. Agar bu affiksni ma'noli qismlarga ajratish mumkin desak, unda *-s* qismi III shaxs ma'nosini, *-n* qismi birlik ma'nosini ifodalovchi bo'lib chiqadi. Lekin hozirgi o'zbek tilida *-sin* affiksi ma'noli qismlarga ajratilmaydi. Son ma'nosining III shaxsda ifodalanishi I, II shaxslarda ifodalanishidan keskin farq qiladi: III shaxsda son jihatdan muqim zidlanish yo'q, shu sababli *-sin* affiksi son ma'nosini ifodalashi jihatidan betaraf.

III shaxs ko'rsatkichi *-sinlar* shaklida ham ishlatiladi, lekin bu ko'rsatkichni ko'plik ma'nosini ifodalash uchun (*O'qituvchilar kelsinlar* kabi) ishlatish sun'iylikka olib keladi (Bunday sun'iylik rus tilidan tarjimalarda, matbuotda uchrashi ko'p marta ta'kidlangan; *-sinlar* ko'rsatkichini bunday sun'iy ishlatishdan tiyilish zarur). Yuqoridagicha sun'iy ishlatishdan qat'i nazar, *-sinlar* ko'rsatkichining o'z tabiiy ishlatilish o'rni bor: *Onam kelsinlar* kabi. Bunday ishlatishda *-sinlar* affiksi tarkibidagi *-lar* qismi ko'plik ma'nosini emas, balki modal ma'noni ('sizlash'ni) ifodalaydi; shunga ko'ra *-sinlar* ko'rsatkichi III shaxs birligining 'sizlash' shakli deyiladi.

III shaxsda ko'plik ma'nosini *-sh* affiksi bilan ifodalash ham mavjud: *bor + ish + sin* kabi. Bu yerdagi *-sh* affiksi asli birgalik affiksidan o'sib chiqqan bo'lib, *-shsin* ko'rsatkichi tarkibida birgalik ma'nosini emas, ko'plik ma'nosini ifodalaydi, shunga ko'ra ko'plik ko'rsatkichi deyiladi. Bu ikki *-sh* affikslari o'zaro quyidagicha farq qiladi: 1) Har xil ma'no ifodalaydi ('birgalik' — 'ko'plik'), 2) Birgalik shakli yasovchi affiks har uch shaxs tuslovchisidan oldin kelaveradi, ko'plik affiksi esa faqat III shaxs tuslovchisi bilan birgalikda keladi, 3) Ko'plik affiksi *-lar* affiksi bilan sinonimiya hosil qiladi, 4) Ko'plik affiksi ifodalay olmaydigan yana bir ma'noni — modal ma'noni ('sizlash'ni) ifodalashga xizmat qiladi (Asli shu 'sizlash' ma'nosini ifodalashi — bu affiksning shaxs ko'rsatkichlari tarkibidagi asosiy vazifasi).

III shaxsda 'buyurish', 'da'vat qilish' bevosita emas, balki ikkinchi shaxs orqali bildiriladi.

III shaxs tuslovchilarining ichki zidlanishini quyidagicha ko'rsatish mumkin:

$o'qi + \emptyset I + \emptyset II + sin$	— betaraf,	betaraf
$-sin + lar1$	— 'ko'plik',	betaraf; sun'iy
$-sin + lar2$	— 'birlik',	'sizlash'
$+ \emptyset I + -sh1 + \emptyset II + sin$	— 'ko'plik',	betaraf; tabiiy
$+ \emptyset I + -sh2 + \emptyset II + sin$	— 'birlik',	'sizlash'

3- §. Tuslovchilarning *-m* morfemasi bilan boshlanadigan subparadigmasi *-di* zamон yasovchisidan, *-sa* mayl yasovchidan keyin qo'shiladi. Bu subparadigmani chizmada quyidagicha ko'rsatish mumkin:

Shaxslar	S o n l a r	
	B i r l i k	K o ' p l i k
I	$o'qi + \emptyset I + \emptyset II + di + m [+ \emptyset]$	$o'qi + \emptyset I + \emptyset II + di + k (   -miz)$
II	$-ng [+ \emptyset]$	$-ng + iz$ $-ng + lar1$ $-lar1 + ing$ $-lar1 + ing + iz$
III	$-\emptyset$ $-\emptyset + lar2$	—

Bu subparadigmada I shaxsning birlik va ko'plik ko'rsatkichlari ayni vaqtida shaxs va son ma'nosini ifodalaydi: *-m* ↔ *-k*. Agar *-m* affiksini *-miz* affiksiga qiyoslasak, *-m* asli shaxs ma'nosini ifodalashi ochiq ko'rindi, unda birlik ma'nosini nol ko'rsatkich bilan ifodalangan bo'ladi. Lekin *-m* ↔ *-k* zidlanishiga bunday yondashish imkoniyati yo'q.

II shaxsning *-ng* ko'rsatkichi shaxs ma'nosini ifodalaydi, son ma'nosi esa — nol ko'rsatkichli; buni shu shaxsning ko'plik ko'rsatkichiga qiyosan belgilaymiz.

II shaxsning ko'pligi to'rt ko'rsatkich bilan ifodalanib, ular o'zaro quyidagicha munosabat hosil qiladi:

$o'qi + \emptyset I + \emptyset II + ng + iz1$	— 'ko'plik',	betaraf
$-ng + iz2$	— 'birlik',	'sizlash'
$-ng + lar1$	— 'ko'plik',	'sizlash'
$-lar1 + ing$	— 'ko'plik',	'senlash'
$-lar1 + ing + iz$	— 'ko'plik',	'sizlash'

Ko'rinadiki, -ngiz ko'rsatkichi ikki ma'noli. 1) 'ko'plik' ifodalanadi, bunda modal ma'no betaraf bo'ladi, 2) 'birlik' ma'nosini modal ma'no ('sizlash') bilan birgalikda ifodalanadi. Qolgan uch ko'rsatkich ko'plik ma'nosini ifodalaydi, o'zaro farq modal ma'no ifodalanishida namoyon bo'ladi.

Tuslovchilarning bu subparadigmasida III shaxs nol ko'rsatkichli morfema bilan ifodalanadi, son ma'nosining ifodalanishi jihatidan betaraf bo'ladi; bu shaxsda ishlataladigan -lar affiksi modal ma'noni ('sizlash'ni) ifodalashga xizmat qiladi.

Yuqorida -sinlar ko'rsatkichiga qarata aytilgan fikrni bu yerda ham ta'kidlash kerak: III shaxsda -lar affiksini ko'plik ma'nosini ifodalash maqsadida ishlatalish sun'iy bo'lib, -lar affiksini bunday ishlatalishdan tiyilish zarur.

Yuqorida tasvirlangan subparadigmaning o'ziga xos xususiyati deb II, III shaxs tuslovchilarining edi affiksoidi bilan ishlatilib, o'tgan zamon ma'nosini ifodalashini ta'kidlash kerak: *gapir + Ø I + Ø II + gin + edi*, *gapir + Ø I + Ø II + sin + edi* kabi.

4- §. Tuslovchilarning fe'l leksemashakl hamda boshqa turkum leksemashakllari uchun umumiyl bo'lgan subparadigmasi o'zaro juz'iy farq qiladigan uch ko'rinishda namoyon bo'ladi:

1) <i>o'qi + Ø I + Ø II + b + man</i>	- -miz1
	- -miz2
-san	- -siz1
	- -siz2
-di	- -sh 1 + ib + di
-di + lar2	- -sh 2 + ib + di
2) <i>o'qi + Ø I + Ø II + gan + man</i>	- -miz1
	- -miz2
-san	- -siz1
	- -siz2
-Ø	- -sh 1 + gan + Ø
-Ø + lar2	- -sh 2 + gan + Ø
3) <i>o'qituvchi + man</i>	- -miz1
	- -miz2
-san	- -siz1
	- -siz2
-Ø	- -
-Ø + lar2	- -

Bu subparadigmaning uch ko'rinishida I, II shaxs birlik va ko'plik affifikslari tabiatan bir xil: bular asli I, II shaxs kishilik olmoshlaridan o'sib chiqqan, shunga ko'ra ushbu olmoshlarning xususiyatlarini aynan aks ettiradi: -*miz*, -*siz* morfemalari ikki ma'noni – ko'plik ma'nosini va birlikni 'sizlash' ma'nosini ifodalaydi.

III shaxs ko'rsatkichlari bu uch ko'rinishda o'zaro farqli: birinchi ko'rinishda III shaxsnинг birligi -*di* affiksi bilan, qolgan ikki ko'rinishda nol ko'rsatkichli morfema bilan ifodalanadi. III shaxsnинг -*di* affiksi asli son jihatidan betaraf: birlidagi ega bilan ham, ko'plikdagi ega bilan ham ishlatalaveradi. Xuddi shunday xususiyat III shaxsnинг nol ko'rsatkichli shakliga ham xos.

Bu ko'rsatkichlar -*lar* olib ishlataladi, lekin bunda -*lar* affiksi ko'plik ma'nosini emas, birlikni 'sizlash' ma'nosini ifodalashga xizmat qiladi.

III shaxsnинг ko'pligi uchinchi ko'rinishda umuman ifodalanmaydi; birinchi, ikkinchi ko'rinishda -*sh* affiksi bilan ifodalanadi. -*sh* affiksi asli birqalik yasovchisidan o'sib chiqqani sababli leksemashakl tarkibida -*b*, -*gan* kabi zamon yasovchilaridan oldin o'rinni oladi, shaxs ko'rsatkichi zamon ko'rsatkichidan keyin qo'shiladi.

III shaxsnинг -*sh* + .. + *di*, -*sh* + .. + Ø shakllari ikki ma'noli: 1) ko'plik, modal ma'nosini betaraf, 2) birlik, 'sizlash'.

**5- §. Bajaruvchining shaxs-soni ayrim sintaktik qurilmalarda tuslovchi bilan emas, nisbatlovchi bilan ifodalanadi:** *gapir* + Ø I + *gi* + *m* + *keldi*, *gapir* + Ø I + *gi* + *m* + *keladi*, *gapir* + Ø I + *gi* + *m* + *yo'q* kabi. Asli predikativ bog'lanmaga teng bunday qurilmaning kesim qismi III shaxs shakkida bo'ladi-yu, lekin shaxs ma'nosini ifodalamaydi; chunki shaxs-son (o'rni bilan modal ma'no) bunday sintaktik qurilmaning birinchi qismiga qo'shiladigan nisbatlovchi bilan ifodalanadi. Bunday qurilmada shaxs-son ma'nosini ifodalashiga ko'ra nisbatlovchi tuslovchiga tenglashtiriladi, shu asosda tuslovchilarning alohida subparadigmasi deb baholanadi. Bunday sintaktik qurilmalar bir necha ko'rinishga ega:

- |   |                               |
|---|-------------------------------|
| 1) <i>o'qi</i> + Ø I + <i>gan</i> + <i>im</i> | - - <i>imiz1</i> <i>yo'q</i>  |
|   | - - <i>imiz2</i>              |
|   | - - <i>ingiz1</i>             |
|   | - - <i>ingiz2</i>             |
| - <i>i</i>                                    | - - <i>lari1</i>              |
|   | - - <i>lari2</i>              |
| 2) <i>o'qi</i> + Ø I + <i>sh</i> + <i>im</i>  | - - <i>imiz1</i> <i>kerak</i> |
|   | - - <i>imiz2</i>              |

-ing	- -ingiz1
	- -ingiz2
-i	- -lari1
	- -lari2
3) o'qi + Ø I + gi + m	- -miz1 keldi
	- -miz2
-ng	- -ngiz1
	- -ngiz2
-si	- -lari 1
	- -lari 2

Tasvirdan ko'rindiki, ko'plik nisbatlovchilari ikki ma'noli: 1) ko'plik ifodalanadi, modal ma'no jihatidan betaraf bo'ladi, 2) birlik modal ma'no ('sizslash') bilan birligida ifodalanadi.

Nisbatlovchi morfemalar paradigmasi ot leksemalar bayonida tasvirlandi.

## FE'L LEKSEMAGA QO'SHILADIGAN NOPARADIGMATIK MORFEMALAR

### **Harakatning takrorlanib, kuchli-kuchsiz darajada voqe bo'lishini ifodalovchi affikslar**

**1- §.** Fe'l leksemaga birinchi navbatda harakatning takrorlanib, kuchli-kuchsiz darajada voqe bo'lishini ifodalaydigan affiksler qo'shiladi. Bu affiksler fe'l leksemaning leksik ma'nosiga ma'lum bir grammatik ma'no qo'shadi, shunga ko'ra shakl yasovchi morfema deyiladi. Bunday morfemalar dastlab ikkiga ajraladi: 1) harakatning takrorlanib voqe bo'lishini ifodalaydigan affiksler, 2) harakatning kuchli-kuchsiz darajada voqe bo'lishini ifodalaydigan affiksler.

**2- §.** Harakatning takrorlanib voqe bo'lishi quyidagi affiksler bilan ifodalanadi:

1) -a affiksi bilan. Hozirgi o'zbek tilida bu affiks *bura-* (*bur* + *a*-) leksemasi tarkibida ajratiladi. Asli *so'ra-* leksemasi ham tarixan *so'r-* leksemasi va -a affiksidan tarkib topgan;

2) -la affiksi bilan: *quv* + *la-*, *buk* + *la-*, *sava* + *la-*, *ishqa* + *la-*, *cho'qi* + *la-*, *chimchi* + *la-* kabi. *Qashla-* fe'l ham asli *qashi-* leksemasiga -la affiksin qo'shib hosil qilingan, keyinchalik ikkinchi bo'g'indagi i tovushi talaffuz qilinmay qo'ygan: *qashi* + *la-* > *qashla-*. *Qayt-* leksemasiga bu affiks oldidan a tovushi orttirib qo'shilgan (Bunga *qayt-* fe'lining oxiri ikki konsonant bilan tugagani sabab bo'lgandir): *qayt* + *la-* > *qaytala-*;

3) *-ka / -qa / -ga / -g'a* morfemasi bilan: *sur + ka-*, *chay + qa-*, *sur + ga-*, *qo'z + g'a-* kabi. *Ishqa-* fe'li ham asli 'surt-' ma'nosini anglatgan *ish-*fe'liga *-qa* affiksini qo'shib hosil qilingan;

4) *-kila / -qila / -g'ila / -gila* morfemasi bilan: *turt + kila-*, *yul + qila-*; *ez + g'ila-*, *cho'z + g'ila-* kabi. *Chopqilla-* misolida *l* tovushini qatlash bilan ma'no kuchaytirilgan. Asli bu morfema tarkibidagi *-ki* (*-qi*, *-g'i*) qismi 'kuchaytirish' ma'nosini, *-la* qismi 'takror' ma'nosini ifodalaydi. (*Miji + g'i*) + *la-* > *mijg'ila-* misolida ikkinchi bo'g'indagi *i* tovushi talaffuz qilinmay qo'ygan. Ayrim fe'llarda ushbu morfemaning birinchi qismi bilan ifodalanadi-gan 'kuchaytirish' ma'nosi ustun bo'ladi: *yugur + gila-* kabi.

3- §. Harakatning kuchli darajada voqe bo'lishi quyidagi morfemalar bilan ifodalanadi:

1) *-i* affiksi bilan: *to'z + i-*, *sing + i-*, *shim + i-*, *so'l + i-* kabi. Asli *qo'zi-* fe'li ham *qo'z-* leksemasiga *-i* affiksini qo'shib hosil qilingan;

2) *-qi / -g'i* morfemasi bilan: *yul + qi-*, *to'z + g'i-* kabi;

3) *-n / -l* morfemasi bilan: *to'y + in-*, *kuy + in-*, *shosh + il-* kabi.

4- §. Harakatning kuchsiz darajada voqe bo'lishi quyidagi morfemalar bilan ifodalanadi:

1) *-ra* morfemasi bilan: *alji + ra-*, *gangi + ra-* kabi. Asli *chiyra-* fe'li ham 'aralashir-' ma'nosini anglatgan *chiy-* leksemasiga 'biroz' ma'nosini ifodalovchi *-ra* affiksini qo'shib hosil qilingan;

2) *-msira* affiksi bilan: *kul + imsira-*, *yig'la + msira-* kabi. Bu morfema asli uch affiksdan — holat oti yasovchi *-m*, 'moyillik' ma'nosini ifodalovchi *-si*, 'biroz' ma'nosini ifodalovchi *-ra* affikslaridan tarkib topgan;

3) *-nqira* affiksi bilan: *yoq + inqira-*, *uyal + inqira-*, *qizar + inqira-*, *bo'sha + nqira* kabi. Bu morfema tarkibidagi *-n* qismi asli 'yaqin', 'o'xshash' kabi ma'noni, *-qi* qismi va *-ra* qismi 'biroz' ma'nosini ifodalaydi;

4) *-chi* affiksi bilan: *ko'p + chi-*, *qir + chi-* kabi. Asli *archi-* fe'li tarkibida ham shu affiks qatnashadi: *ari-* ('tozala-') + *chi* > *archi-* (ikkinchi bo'g'indagi *i* tovushi talaffuz qilinmay qo'ygan);

5) *-k / -q* morfemasi bilan: *ko'n + ik-*, *tol + iq-*, *qon + iq-* kabi;

6) *-n* affiksi bilan: *og'ri + n-*, *kez + in-* kabi;

7) *-sh* affiksi bilan:

a) 'biroz' ma'nosi ifodalanadi: *achi + sh-*, *yori + sh-*, *qichi + sh-*, *zichla + sh-*, *qizar + ish-*, *oqar + ish-*, *tort+ish-* kabi. Asli *engash-* fe'li ham 'egil-' ma'nosini anglatgan *eng-* fe'liga 'biroz' ma'nosini ifodalovchi *-sh* affiksini qo'shib hosil qilingan. Ushbu affiks *-lash* leksema yasovchisi tarkibida ham 'biroz' ma'nosi bilan qatnashadi: *oson + lash-*, *kambag'al + lash-* kabi;

b) 'ko'maklashish' ma'nosi ifodalananadi: *to'g'ra + sh-, tanla+ sh-, kovla + sh-* - kabi. Asli bu yerda ham harakatni bajarishda biroz qatnashish ma'nosi ifodalananadi.

5- §. Yuqorida tasvirlangan morfemalar sanoqli fe'l leksemalarga qo'shib shakl yasaydi. Ifodalaydigan ma'nolariga ko'ra bu morfemalar bir paradigmaga birlashmaydi; birini ikkinchisiga almashtirib bo'lmaydi. Ushbu morfemalarning har uch ma'no turida ichki yaqinlik mavjud, lekin ularni sinnonim deb bo'lmaydi, chunki ayni bir fe'l leksemaga biri o'rnila ikkinchisini qo'shib bo'lmaydi.

Harakatning takrorlanib voqe bo'lishi ma'nosi kuchli darajada voqe bo'lishi ma'nosiga yaqin; ba'zan bu ma'nolarni aniq ajratish ham qiyin.

### **Harakatning qay yo'sinda amalga oshishini ifodalaydigan ko'makchi fe'l morfemalar**

1- §. O'zbek tilida yigirmadan ortiq ko'makchi fe'l mavjud bo'lib, fe'l leksemaning leksik ma'nosiga ma'lum bir grammatik ma'no qo'shish uchun ishlataladi; shunga ko'ra bu ko'makchi fe'llar shakl yasovchi morfemalarga tenglashtiriladi. Bunday ko'makchi fe'l bilan analitik grammatik shakl yasaladi.

Ko'makchi fe'l mustaqil fe'ldan ma'no taraqqiyoti yo'li bilan o'sib chiqqan. Hozirgi o'zbek tilida ayni bir fonemalar tizimiga ega mustaqil fe'l ham, ko'makchi fe'l ham yonma-yon mavjud; birinchisi leksik ma'no anglatadi, ikkinchisi grammatik ma'no ifodalaydi, fe'l leksemaning ma'lum grammatik shaklini yasaydi; grammatik shakl yasovchi morfemalar qatorida, masalan, nisbat ko'rsatkichidan keyin, lekin mayl, zamon, tuslash ko'rsatkichlaridan oldin joy oladi, demak, fe'l leksemashaklning tarkibiga kiradi.

Yuqoridagi izohlardan ayon bo'ladiki, o'zbek tilida ifoda jihatni ayni bir fonema tizimidan iborat ikki lisoniy birlik — leksema va morfema mavjud; bularni ayni bir leksik birlikning ikki ma'noda, ikki vazifada kelishi deb bholash mumkin emas.

Garchand ko'makchi fe'l alohida birlik — grammatik birlik sifatida ajralib chiqqan bo'lsa ham, o'zidan oldingi asosga xuddi mustaqil fe'l kabi ravishdosh yasovchisi orqali qo'shiladi; ana shu nuqtada uning leksik tabiatini saqlanadi, shu xususiyatiga ko'ra leksik tabiatli morfema deyiladi.

2- §. Bu yerda analitik grammatik shakl yasovchilik vazifasini asli ko'makchi fe'l bajaradi, analitikklik (ayrimlikni saqlash) shu ko'makchi fe'lga xos. Lekin analitik grammatik shaklning ifoda materiali deb faqat ko'makchi fe'lning o'zini ko'rsatish yetarli emas, balki undan oldingi qismiga shu

ko'makchi fe'l tufayli qo'shiladigan ravishdosh shaklini ham bиргаликда ko'rsatish lozim. Masalan, *o'qi-* leksemasiga *-a/-y* ravishdosh shakli *-boshla-* ko'makchi fe'lini ishlatish tufayli qo'shiladi: *o'qi+y+boshla-* kabi; agar *-qo'y-* ko'makchi fe'li ishlatilsa, undan oldin *-b* ravishdosh shakli qo'shiladi: *o'qi + b + qo'y-* kabi. Demak, analitik grammatik shakl bu yerda "ravishdosh yasovchisi + ko'makchi fe'l" tarkibidan iborat.

Ayrim ko'makchi fe'llar ravishdosh shaklidagi fe'l leksemaga emas, balki tuslangan fe'l leksemashaklga qo'shiladi, bunda ko'makchi fe'l ham fe'l leksemashaklga monand grammatik shaklda bo'ladi: *gapirdi-qo'ydi* kabi. Bunday ishlatish "(fe'l leksema .. + zamon ko'rsatkichi + tuslovchi)-(ko'makchi fe'l + o'sha zamon ko'rsatkichi + o'sha tuslovchi)" qolipida tuziladi.

**3- §.** Ko'makchi fe'llarning ko'p qismi ravishdoshning bir shakli (*-a* shakli yoki *-b* shakli) bilan, oz qismi-gina ravishdoshning har ikki shakli bilan ishlatiladi. Shulardan ba'zilarasi tuslangan fe'l leksemashaklga qo'shiladi.

Ravishdoshning bir shakli bilan ishlatiladigan ko'makchi fe'lda grammatik ma'no shu ko'makchi fe'lning o'zi bilan ifodalangandek ko'rinati: *gapir + a + boshla-, o'qi + b + qo'y-* kabi. Aslida esa ravishdosh shakli ko'makchi ifodalaydigan grammatik ma'noga mos holda tanlanadi. Masalan, *-boshla-* ko'makchi fe'li harakatning boshlanishi ma'nosini ifodalaydi, shunga ko'ra kelasi zamon ma'nosini ifodalaydigan *-a* ravishdoshi shakli bilan ishlatiladi; *-qo'y-* ko'makchi fe'li bilan harakatning tugallangani ma'nosi ifodalanadi, shunga ko'ra *-b* ravishdosh shakli ishlatiladi. Ko'rinati, ko'makchi fe'l ifodalaydigan grammatik ma'no bilan ravishdosh shakli ifodalaydigan ma'no orasida odatda mutanosiblik bo'ladi.

Ko'makchi fe'llarning ma'lum bir qismida-gina ular ifodalaydigan ma'noni aniq ta'riflash mumkin. Ko'pchilik izohlashlarda, ayniqsa ko'makchi fe'ldan turli xil ma'no qidirishda lisoniy birlik sifatidagi ma'nosini unga matn tufayli qo'shiladigan ma'nodan ajratmaslik hollari uchraydi. Ko'makchi fe'l-larga quyida berilayotgan izohlarini ham yetarli darajada aniq deb bo'lmaydi.

**4- §.** Ravishdoshning *-a* shakli bilan ham, *-b* shakli bilan ham *-ol-*, *-ber-*, *-qol-* ko'makchi fe'llari ishlatiladi:

1) *-ol-* ko'makchi fe'li:

a) *-a* ravishdoshi bilan ishlatilganida harakatni amalga oshirishga qodirlik ma'nosini ifodalaydi: *gapir + a + ol-*, *o'qi + y + ol-* kabi. Yonma-yon kelgan *ao* tovushlari talaffuzda bir *o* tovushiga singishadi: *gapir + a + ol- > gapi-rol-*;

b) *-b* ravishdoshi bilan ishlatilganida harakat bajaruvchining manfaatini ko'zlab amalga oshirilishi ma'nosini ifodalaydi: *gapir + ib + ol-*, *o'qi + b + ol-* kabi. Ayrim hollarda turli qo'shimcha ma'nolar ham ifodalanishi mumkin.

Bunday analitik qurilma talaffuzda *gapirivol-*, *o'qivol-* shakliga ega bo'ladi: ikki ovoz tovush oralig'ida *b* portlovchi tovushi *v* sirg'aluvchi tovushiga almashadi;

d) *gapir + di-ol + di, o'qi + di-ko'y + di* kabi qurilmalar asosan *-b* ravishdoshi bilan ishlatiladigan ko'rinishdagi kabi ma'noni ifodalaydi, shu ma'noga 'zudlik bilan' ma'no qirrasi qo'shiladi.

2) *-ber-* ko'makchi fe'li:

a) *-a* ravishdoshi bilan ishlatilganida harakatning moneliksiz to'xtovsiz davom etishi ma'nosini ifodalaydi: *gapir + a + ber-, o'qi + y + ber-* kabi. Talaffuzda *b* portlovchi tovushi *v* sirg'aluvchi tovushiga almashadi: *gapira-ver-, o'qiyver-*;

b) *-b* ravishdoshi bilan ishlatilganida harakat boshqa bir kishining manfaatini ko'zlab amalga oshirilishi ma'nosini ifodalanadi: *gapir + ib + ber-, o'qi + b + ber-* kabi. *-ber-* ko'makchi fe'li shu ma'nosini bilan *-ol-* ko'makchi fe'lining ikkinchi ma'nosiga antonim bo'ladi: *gapirib ol- ↔ gapirib ber-* kabi.

3) *-qol-* ko'makchi fe'li:

a) *-a* ravishdoshi bilan ishlatilganida harakat bajaruvchi xohlagan tarzda zudlik bilan amalga oshishi ma'nosini ifodalaydi: *gapir + a + qol-, o'qi + y + qol-* kabi.

b) *-b* ravishdoshi bilan ishlatilganida harakatning kutilmagan tarzda amalga oshishi ma'nosini ifodalaydi: *gapir + ib + qol-, o'qi + b + qol-* kabi;

d) Bu ko'makchi fe'l ayrim fe'l leksemalar bilan *tindi-qoldi* tarzida ham ishlatiladi va harakatning to'satdan amalga oshishi ma'nosini ifodalaydi.

5- §. Ravishdoshning *-a* shakli bilan *-boshla-, -bil-, -yoz-* ko'makchi fe'llari ishlatiladi:

1) *-boshla-* ko'makchi fe'li harakat amalga osha boshlagani ma'nosini ifodalaydi: *gapir + a + boshla-, o'qi + y + boshla-* kabi;

2) *-bil-* ko'makchi fe'li harakatni amalga oshirishga qodirlik ma'nosini ifodalaydi: *gapir + a + bil-* kabi. Hozirgi adabiy o'zbek tilida deyarli ishlatilmaydigan bu ko'makchi fe'l *-ol-* ko'makchi fe'lining shunday ma'nosini bilan sinonim;

3) *-yoz-* ko'makchi fe'li harakatning amalga oshib ketishiga oz qolgani ma'nosini ifodalaydi: *gapir + a + yoz-, o'qi + y + yoz-* kabi; *o'qi + y + yoz-* qurilishi tarkibidagi yonma-yon *yy* tovushlari o'zaro singishadi: *o'qiyoz-* kabi.

6- §. Ko'makchi fe'llarning ko'p qismi ravishdoshning *-b* shakli bilan ishlatiladi:

1) -yot-, -tur-, -yur-, -bor-, -kel- ko'makchi fe'llari harakatning ma'lum muddatdan beri davomli amalga oshishi ma'nosini ifodalaydi: *gapir + ib + tur-, o'qi + b + yur-, o'qi + b + yot-, o'qi + b + bor-*, *gapir+ib+kel-* kabi;

2) -bo'l-, -bitir-, -chiq- ko'makchi fe'llari harakatning tugallanganligi ma'nosini ifodalaydi: *gapir + ib + bo'l-, o'qi + b + bitir-, o'qi+b+chiq-* kabi;

3) -qo'y-, -yubor- ko'makchi fe'llari harakatning to'satdan amalga oshishi ma'nosini ifodalaydi: *gapir + ib + qo'y-, gapir + ib + yubor-* kabi;

4) -ko'r-, -boq-, -qara- ko'makchi fe'llari harakatning sinash maqsadida amalga oshirilishi ma'nosini ifodalaydi: *gapir + ib + boq-, o'qi + b + ko'r-, surishtir + ib + qara-* kabi;

5) -tashla- ko'makchi fe'l harakatning shartta amalga oshishi ma'nosini ifodalaydi: *gapir + ib + tashla-, o'qi + b + tashla-* kabi va b.

Yuqoridagi tasvirlardan ayonki, bu guruh ko'makchi fe'llar orasida sinonimik munosabat kuchli.

7- §. Fe'l leksema asosan bir ko'makchi fe'l bilan ishlataladi (yuqoridagi misollar). Ikkii ko'makchi fe'l bilan ishlatalish hollari ham anchagina: *gapir + ib + qo'y + a + qol-, o'qi + b + ol + a + ber-*, *gapir + ib + ber + ib + qo'y-, o'qi + b + tur + a + tur-* kabi. Ba'zan uch ko'makchi bilan ishlatalish ham uchraydi: *gapir + ib + ber + ib + qo'y + a + qol-* kabi.

Fe'l leksema bilan bittadan ortiq ko'makchi fe'l ishlataliganida ularning biri ikkinchisini inkor etmaydi, har biri fe'l leksemaga o'ziga xos grammatik ma'noni qo'shadi.

Umuman, ko'makchi fe'llar rang-barang grammatik ma'noni ifodalaydi; ayrimlari orasida sinonimik munosabat mavjud. Lekin ko'makchi fe'llar bir butun holda yaxlit paradigmaga hosil etmaydi.

## RAVISH LEKSEMALAR TURKUMIDA SHAKL YASALISHI VA LEKSEMASHAKLNING RAVISHGA AYLANISHI

1- §. Harakatning belgisini anglatadigan leksemalarga ravish leksemalar turkumi deyiladi. Ravish leksemaga shakl o'zgarishi xos emas, shunga ko'ra fe'l leksemaga (o'rni bilan ot leksemaga) to'g'ridan to'g'ri bog'lanadi: *tez yur-, sekin gapir-, astoydil ranji-, ko'p so'z-* kabi.

Adabiyotlarda ravish yasovchi affiks yo'qligi ta'kidlanadi. Haqiqatda, faqat *butunlay(in)*, *tiriklay(in)* ravish leksemalari tarkibidagi *-lay(in)* affiksini sifat leksemadan ravish leksema yasovchi affiks deyish mumkin.

O'zbek tiliga tojik tilidan o'zlashgan *birodarona*, *do'stona*, *kamtarona* kabi leksemalar, *ojizona*, *oqilona*, *xolisona* kabi arabcha leksemalardan yasalishlar tarkibidagi *-ona* qismi asli leksema yasovchi bo'lib, faqat o'zlashgan

leksemalar tarkibida qatnashadi, shunga ko'ra bunday qismni o'zbek tili nuqtayi nazaridan leksema yasovchi affiks deb ajratish to'g'ri bo'lmaydi.

### Ravishlarda shakl yasalishi

2- §. Ravish leksemalarning o'ziga-gina xos shakl yasovchi affiks yo'q. Quyida tasvirlangan affikslar boshqa turkum leksemalari qatori ravish lekse-maga ham qo'shiladi:

1. Ayrim ravish leksemalarga xuddi sifat leksemalarda bo'lganidek -roq shakl yasovchisi qo'shiladi: *tezroq gapir-*, *sekinroq yur-*, *kechroq kel-* kabi. Bu yerda ham -roq affiksi 'me'yordan oz' ma'nosini emas, balki 'biroz', 'nis-batan' ma'nosini ifodalaydi. Masalan, *tezroq yur-* birikmasida *tezroq* ravishi 'biroz tez' ma'nosini anglatadi; -roq affiksi harakat o'zi sust bo'lsa, biroz tezlatishni, harakat o'zi jadal bo'lsa, yana ham tezlatishni bildiradi. Demak, o'lichov — harakatning tez yoki sekin kechimi.

2. Ayrim ravish leksemalarga, ot va sifat leksemalarda bo'lganidek, 'iliq munosabat' ifodalovchi -gina affiksi qo'shiladi: *tezgina kel-*, *sekingina shivirla-*, *kechagina ket-* kabi.

3. Ayrim ravish leksemalar oldidan, xuddi sifat leksemalarda bo'lganidek, *juda*, *g'oyat*, *eng* kuchaytiruv morfema-affiksoidini keltirish bilan ravish leksema anglatadigan belgi kuchli darajada ifodalanadi: *juda tez gapir-*, *eng sekin yur-* kabi.

### Leksemashakllarning, birkmashakllarning ravishga aylanishi

3-§. Turli turkum leksemalari har xil shakl hosil qiluvchi affikslarni ol-gan holda ravishga aylanadi:

1. *Oldin*, *keyin* (*ketin*), *kechin*, *ertan*, *kechqurun*, *ostin-ustun* kabi lekse-malar oxiridagi -n (-in, -un) qismi asli qadimgi turkiy tilda mavjud bo'lgan instrumental kelishigining qo'shimchasi bo'lib, hozirgi o'zbek tiliga yuqoridiagi bir necha ravish leksema tarkibida yetib kelgan. Bu affiks hozirgi o'zbek tilida kelishik qo'shimchasi deb qaralmaydi, shunga ko'ra *oldin* kabi lekse-malar tarkibidagi bu qism affiks sifatida ajratilmaydi, bunday birliklar bir butun holda ravish leksemaga teng deb qaraladi.

2. Hozirgi o'zbek tiliga o'zlashgan *majburan*, *taxminan*, *qisman*, *tasodifan*, *vijdonan*, *ruhan*, *haqiqatan*, *qat'yan* kabi arabcha leksemashakllar oxiri-dagi -an qismi asli tushum kelishigi qo'shimchasi bo'lib, o'zbek tilida bunday qism affiks sifatida ajratilmaydi, bunday birlik bir butun holda ravish deb qaraladi (Arab tilida turlanish sifat leksemaga ham xos, *qat'yan* misolida shu holat aks etgan).

**4- §.** Ot turkumi bayonida shakl yasovchi deb talqin qilingan *-day* (*-dekk*) affiksoidi adabiyotlarda ravish yasovchisi deb ham keltiriladi. Bu yerda ham *-day* asli shakl yasovchi vazifasini bajaradi, o'xshatish ma'nosini ifodalaydi: a) ot leksemaga qo'shilib keladi: *chamanday, yashinday, qushday, toshday, o'qdek* kabi; b) sifat ieksemaga qo'shilib keladi: *boyagiiday, avvalgiday, bekorchiday, fargsizdek* kabi; d) *yo'q* leksemasiga qo'shilib keladi: *yo'qday*; e) olmoshga qo'shilib keladi: *sidday, bunday* kabi (Olmoshga *bundaqa, shunaqa* shaklida ham qo'shiladi); f) hatto *-gan* sifatdosh shakliga ham qo'shiadi: *achingandek, cho'chigandek* kabi.

Bu affiksoidning *bayramdagidek* kabi *-dagi* shakl yasovchisidan keyin qo'shilishi uning ravish leksema yasovchisi emasligini qat'iy tasdiqlaydi.

Demak, *-day* affiksoidi turli turkum leksemalariga qo'shilib, o'xshatish ma'nosini ifodalashga xizmat qiladi; bu affiksoid bilan leksema yasalmaydi.

**5- §.** Serunum ravish yasovchi deb *-lab* affiksi ko'rsatiladi. Bu affiks og'irlilik o'lchovi otlariga (*yuz tonnalab, botmonlab* kabi), vaqt o'lchovi otlariga (*haftalab, oylab, yillab* kabi), payt otlariga (*kechalab, saharlab, azonlab* kabi), *harf-, bo'g'in-* kabi otlarga (*harflab, bo'g'inlab*) seriya sifatida qo'shiladi, demak, bu affiks — tom ma'noda leksema yasovchi emas, balki shakl yasovchi. Faqat *ataylab, dastlab* kabi ayrim ravish leksemalarda-gina bu affiks o'zi qo'shilgan asosdan ajratilmaydigan holga kelgan. Xuddi shunday holat ma'no taraqqiyoti yo'li bilan *ertalab-* leksemasida ham voqe bo'lgan: Bu leksema payt otiga aylangan, shunga ko'ra *ertalabdan* kabi kelishik qo'shimchasini olib ham ishlataladi.

Bu yerda tasvirlangan *-lab* affiksi bilan *-lab* chama son yasovchisi orasida o'xshashlik kuchli: *o'nlab* = bir necha o'n, *haftalab* = bir necha hafta. Lekin *donalab, harflab, bo'g'inlab* kabi leksemalarda asos anglatadigan leksik ma'noga bog'liq holda bu affiks bilan boshqacha — 'har birini alohida' kabi ma'no ifodalanadi. *Dastlab* ravishi hozirgi o'zbek tilida ma'noli qismlarga ajralmaydi.

**6- §.** Adabiyotlarda *-cha* affiksi ham ravish yasovchi deyiladi. Avvalo bu affiksning millat, xalq nomiga qo'shib ishlatalishini ajratib baholash kerak: *o'zhekcha, inglizcha* kabi. Istagan millat, xalq nomiga qo'shib ishlatalaveradigan bu affiks 'shu millatga, xalqqa mansub' ma'nosini ifodalaydigan shakl yasovchi deb baholanishi lozim.

*-cha* affiksi *ko'pincha, o'g'rinchcha* kabi leksemalarning doimiy tarkibiy qismiga aylangan: Hozirgi o'zbek tilida *ko'pin, o'g'rin* mustaqil ishlatalmaydi.

Boshqa birliklarda *-cha* affiksi ajratiladi va o'zi qo'shilgan leksemaning ma'nosiga bog'liq holda bir necha ma'noni ifodalashga xizmat qiladi: a) 'holat' ma'nosini ifodalanadi; bunda *-cha* affiksi sifat leksemaga, fe'l leksema-

nîng -gan sifatdosh shakliga qo'shiladi: *yashirincha*, *yangicha*, *atroficha*, *av-valgicha*; *shoshilgancha*, *istagancha*, *yugurgancha* kabi; b) 'biroz' ma'nosi ifodalanadi; bunda -cha affiksi ravish leksemaga qo'shiladi: *keyincha*, *hozircha* kabi; d) 'bilan' ma'nosi ifodalanadi: *yaxshilikcha* kabi; e) 'qadar' ma'nosi ifodalanadi; bunda -cha affiksi olmoshga qo'shiladi: *sizcha*, *shuncha* kabi.

Yuqorida tasvirlangan holatlarning deyarli barchasida -cha affiksi asli leksema yasovchi deb emas, balki shakl yasovchi deb baholanishi to'g'ri. Bu fikrni *bizningcha*, *o'zicha* kabi misollar qat'iy tasdiqlaydi: Leksema yasovchi turlovchidan, nisbatlovchidan keyin qo'shilmaydi.

7- §. 1. Ravish yasovchi deb -*larcha* ko'rsatkichi ham keltiriladi: *qahramonlarcha*, *aybdorlarcha*, *vaxshiylarcha*, *mardlarcha* kabi. Bu yerda 'o'xhash' ma'nosini ifodalaydigan -cha affiksi -*lar* ko'plik shakli yasovchisidan keyin qo'shiladi; -*dek* shakl yasovchisiga sinonim bu affiks (*qahramonlarcha* = *qahramonlardek* kabi) shakl yasovchiga teng.

2. *Ochiqchasiga*, *o'jarchasiga*, *harbiychasiga* kabi misollarda ravish yasovchi deb -*chasiga* ko'rsatkichi ajratiladi; aslida esa bu ko'rsatkich tarkibidagi -cha qismi — shakl yasovchi, -*si*, -*ga* qismlari esa — shakl o'zgartiruvchi affikslar. Demak, bu ko'rsatkichni ham leksema yasovchi deb bo'lmaydi.

3. *Ilgarilari*, *avvallari*, *kechqurunlari* kabi misollar tarkibidagi -*lari* ko'rsatkichi -*lar* ko'plik affiksi va -*i* nisbatlovchisidan iborat; demak, bu yerda ham leksema yasovchi haqida gapirib bo'lmaydi.

8- §. Alovida guruhni makon kelishigi affiksi bilan shakllangan ravishlar tashkil qiladi:

1) Jo'nalish kelishigi affiksi: a) payt ravishi leksemaga qo'shiladi: *ertaga*, *indinga* kabi; b) sifat leksemaga qo'shiladi: *to'g'riga*, *bekorga* kabi. Yuqoridagi misollarda kelishik affiksi aniq ajraladi, lekin *olg'a*, *zo'rg'a*, *jo'rttaga* misollarida kelishik affiksi hozirgi o'zbek tilida ajralmaydi.

2) Chiqish kelishigi affiksi: a) ravish leksemaga qo'shiladi: *hozirdan*, *tezdan* kabi; b) sifat leksemaga qo'shiladi: *yangidan*, *chindan*, *yolg'ondan* kabi; d) ot leksemaga qo'shiladi: *tubdan*, *yoddan* kabi; e) *bir* soniga qo'shiladi: *birdan*. Yuqoridagi misollarda kelishik affiksi aniq ajraladi, lekin *to'satdan*, *qo'qisdan* misollarida kelishik affiksi hozirgi o'zbek tilida ajralmaydi.

3) O'rın kelishigi affiksi *tezda* misolida ravish leksemaga, *kunda* misolida ot leksemaga, *boshda* misolida belgi ma'nosi bilan ishlataligan ot leksemaga qo'shilgan. Yuqoridagi misollardan *uzoqda*, *orgada* kabilarni farqlash kerak: Bu yerda asli *uzoq* yerda kabi birikmashaklning ikkinchi a'zosi bo'lib

keladigan yer(*joy*) ot leksemasi ellipslanadi, natijada kelishik affksi birinchi a'zo vazifasida kelgan sifat leksemaga qo'shiladi.

4) Ayrim hollarda ikki ravish leksema ayni bir asosga boshqa-boshqa kelishik ko'rsatkichini qo'shish bilan shakllanadi: *birga*, *birdan*; *tezda*, *tezdan* kabi. Bunday hodisani ayni bir asosning uch makon kelishigida turlanishi hodisasidan ajratish kerak: *o'ngga*, *o'ngdan*, *o'ngda* kabilar uch ravish leksema emas, balki o'rın otining uch kelishik shaklida ishlatalishiga teng; bunday o'rın oti, masalan, *o'ngni* kabi boshqa kelishik shaklida ham ishlatalaveradi.

**9- §.** Ravish leksema yasovchisi sifatida -(*s*)*iga* ko'rsatkichi ham keltiriladi. III shaxs nisbatlovchisi va jo'nalish kelishigi affiksidan iborat bu ko'rsatkich: a) ravish leksemaga qo'shiladi: *birakayiga*, *birdaniga* kabi; b) sifat leksemaga qo'shiladi: *yalpisiga*, *tikkasiga*, *sidirg'asiga*, *baravariga*, *ko'ndalangiga*, *rostakamiga*, *yolg'ondakamiga* kabi. *Qanaqasiga*, *shunaqasiga* misollarida sifat olmoshga qo'shilgan. *Uzunasiga*, *qatorasiga* misollarida bu ko'rsatkich -*asiga* shaklida qo'shilgan. Bir misolda tojikcha *pirovard* fe'l shakliga -*ida* ko'rsatkichi qo'shilgan: *pirovardida*.

**10- §.** Yuqoridagi tasvirlardan ayon bo'ladiki, -*lay(in)* ko'rsatkichidan boshqa maxsus ravish yasovchi affiks hozirgi o'zbek tilida yo'q. Ravish leksemalar tarkibida qatnashadigan ko'rsatkichlar asli shakl yasovchi, shakl o'zgartiruvchi affikslarga teng. Bunday affikslarni leksema yasovchi deb bo'lmaydi. Bu yerda ravish leksema yasalishi haqida emas, balki biror turkum leksemasining ma'lum bir shakl hosil qiluvchini olgan holda ravish leksemaga aylanishi haqida gapirish to'g'ri. Ravishga aylanish yangi leksik ma'noning vujudga kelishi bilan voqe bo'ladi. Quyidagi tasvirlar ham ravishga aylanish hodisasini aks ettiradi.

**11- §.** Ravishlarda ikki leksemaning juft holda ishlatalishi anchagina uchraydi; bunda asosan 'umumlashadirish' ma'nosi ifodalanadi:

1) Holat ravishlari juft holda ishlatalidi: *ochin-to'qin*, *ochiq-oydin*, *to'la-to'kis*, *eson-omon* || *omon-eson*, *uzil-kesil*, *apil-tapil* kabi;

2) Payt ravishlari juft holda ishlatalidi: *yozin-qishin*, *erta-kech*, *tun-kun*, *avval-oxir* kabi. Ayrim juft leksemalardan 'chama', 'taxmin' ma'nosi ifodalanadi: *erta-indin*, *bugun-erta* kabi;

3) O'rın ravishlari juft holda ishlatalidi: *ostin-ustun*, *oldin-keyin* (*oldin-ketin*); *nari-beri* kabi;

4) Fe'l leksemalar juft holda ishlatalidi: *ag'dar-to'ntar* kabi;

5) Fe'l leksemalar -*b* ravishdoshi shaklida juft holda ishlatalidi: *ozib-yozib* kabi;

6) *Naridan-beri, uzundan-uzoq* kabi birinchi qismiga chiqish kelishigi affiksini qo'shib juft ravish hosil qilish ham mavjud.

12- §. Ravishlarda ayni bir leksemani takrorlab ishlatish hodisasi taraqqiy etgan bo'lib, quyidagicha ko'rinishlarga ega:

1. Aynan takrorlanadi: 1) Ravish takrorlanadi: *oz-oz, ko'p-ko'p, asta-asta, sekin-sekin, zo'rg'a-zo'rg'a, tez-tez* kabi. 2) Ravishdosh shakli takrorlanadi: a) -a ravishdoshi shaklida: *qayta-qayta, bora-bora* kabi; b) -b ravishdoshi shaklida: *borib-borib, turib-turib* kabi.

2. Oraga -ma/ba- qo'shib takrorlanadi: *yakkama-yakka, yo'lma-yo'l, ketma-ket, uchma-uch, navbatma-navbat, orqama-orqa, yuzma-yuz, damma-dam* (*dam-badam* shaklida ham ishlatiladi), *nomma-nom* (*nom-banom* shaklida ham ishlatiladi), *qadamma-qadam* (*qadam-baqadam* shaklida ham ishlatiladi), *zinhor-bazinhor* kabi. *Zo'rma-zo'raki* misolida takror oxiriga -aki ko'rsatkichi qo'shilgan. -ma qo'shib ishlatish juft ravishlarda ham uchraydi: *oldinma-keyin* kabi.

3. Sifatdosh bo'lishli, bo'lishsiz shaklda takrorlanadi: *ko'rар-ко'rmas, bilinar-bilinmas* kabi. Bunday takror *qо'yarda-qо'ymay* tarzida ham tuzilgan.

4. Birinchi qismiga chiqish kelishigi affiksi qo'shilib, o'ziga xos sintaktik qurilma hosil bo'ladi: *kamdan kam, to'g'ridan to'g'ri, ochiqdan ochiq, yildan yil, kundan kun* kabi. *Hech narsadan hech narsasiz* misolida qurilma oxiriga -siz affiksi qo'shilgan.

5. Birinchi qismiga chiqish kelishigi affiksi, ikkinchi qismiga jo'nalish kelishigi affiksi qo'shiladi, natijada o'ziga xos sintaktik qurilma hosil bo'ladi: *yildan yilga, kundan kunga, bekordan bekorga, uyoqdan buyoqqa* kabi.

6. *O'z-o'zidan, o'z-o'zicha, bitta-bittalab, yo'l-yo'lakay, bora-borguncha, unda-bunda, uncha-muncha* kabi takror shakllari ham uchraydi.

7. *Oz-moz, onda-sonda* kabi ikkinchi qism oldiga tovush orttirib takrорlash ham mavjud.

8. *Bab-baravar* misolida to'liqsiz takror aks etgan.

13- §. Bir qancha ravishlar asli birikmashakldan o'sib chiqqan:

1) *bir talay* kabilarda birikma shu shaklida ravishga aylangan;

2) *bir boshdan, bir zumda, bir onda, bir pasda, bir pasga, har holda* kabilarda birikma makon kelishigi shaklida ravishga aylangan;

3) *bir yo'la, bir yo'lsi, har yoqlama* kabilarda birikma -a, -asi, -lama affiksi qo'shilgan holda ravishga aylangan;

4) *bugun, biroz, birmuncha* kabilarda *bu kun, bir oz, bir muncha* birikmasi yaxlitlanib ravishga aylangan.

Xullas, ravish leksema asosan biror turkum leksemashaklining, shuning-dek biror birikmashaklning ma'no taraqqiyoti yo'li bilan ravishga aylanishi natijasida hosil bo'ladi.

### KESIMLIK LEKSEMALARI TURKUMI HAQIDA

Kesim vazifasida ishlatalishga xoslangan leksemalarga kesimlik leksemalari turkumi deyiladi. Bunday leksemalar o'zbek tilshunosligida deyarli o'r ganilmagan. Shunga ko'ra ayrim dastlabgi mulohazalarni aytish mumkin.

1. *Bor-, yo'q-* leksemalari mustaqil holda 'mavjud' yoki 'mavjud emas' ma'nosini anglatib kesim vazifasida keladi: *Kitob bor. Kitob yo'q.* kabi. *Menda kitob bor. Mening kitobim bor.* tuzilishli jumlalarda ham *bor-, yo'q-* leksemalari kesim vazifasida keladi.

2. *Kerak-, lozim-, zarur-* leksemalari 'lozim'lik ma'nosini anglatib, mustaqil holda bosh kelishikdagi leksemashaklga bog'lanib kesim vazifasida keladi: *Menga shu kitob kerak || zarur kabi* (*Zarur-* leksemasi sifatlovchi vazifasida ham ishlataladi: *zarur ish-* kabi).

*Men borishim kerak* kabi qurimalarda ham kesim asli *kerak-* leksemasi bilan ifodalangan. *Mening borishim kerak* qurilmasida sintaktik qayta bo'linish voqe bo'lgani tufayli qaratuvchi (*mening*) bosh kelishik shakliga (*men*) o'tib, *borishim* leksemashakli kesim tarkibiga qo'shilgan: *Men | borishim kerak.* Keyinchalik ana shu qurilma tarkibidagi egani (*men*) va nisbatlovchini ishlatmaslik natijasida shaxssizlik ma'nosi ifodalanadigan *borish kerak* qurilmasi yuzaga kelgan. Ko'rinadiki, kesimlik leksemasi keyingi tur qurimalarda mustaqil holda emas, balki otdosh shaklidagi fe'l leksema bilan birgalikda kesim vazifasini bajarishga o'tgan.

3. Ko'pchilik kesimlik leksemalari bosh kelishikdagi leksemashakl bilan bog'lanib turli ma'nolarni anglatadi: *kifoya-, joiz-* ('o'rinli'), *but-* ('bekam-u ko'st mavjud'), *chog-* ('xursand holatda'), *tayin-* va b.: *Bu gaplar hozir joiz emas. Qayerda ishлаshing tayinmi?* kabi.

4. Ayrim kesimlik leksemalari kishini anglatadigan ot leksemashakl bilan, kishilik olmoshi bilan bog'lanadi: *haq-* ('huquqli'), *amin-* ('ishonchi komil'), *jamuljam-* ('to'plangan holatda') va b.: *Sen haqsan kabi. Jamuljam-* leksemasi o'z leksik ma'nosiga muvofiq ko'plik kishilik olmoshiga, *hamma* kabi 'jam' ma'nosini anglatadigan leksemashaklga bog'lanadi: *Qarindoshlar jamuljam kabi. G'animat-, majbur-, kerak-* kabi kesimlik leksemalari narsani anglatadigan leksemashakllar bilan ham bog'lanadi: *Vaqt g'animat kabi* va b.

## OLMOSH LEKSEMALAR TURKUMI

1- §. Boshqa turkum leksemalariga beriladigan so'roqni bildiruvchi va shunday leksemalar o'tnida ishlataluvchi birliklarga olmosh leksemalar turkumi deyiladi. Olmoshdan leksik ma'no emas, balki mavhum grammatik ma'no anglashiladi.

Har bir lug'aviy leksemalar turkumining o'z so'roq olmoshlari bo'ladi:

- 1) ot so'roq olmoshlari: *kim-*, *nima-*;
- 2) sifat so'roq olmoshlari: *qanday*, *qanaqa*, *qaysi*;
- 3) son so'roq olmoshlari: *necha*, *qancha*, *nechtadan*, *nechanchi*;
- 4) ravish so'roq olmoshlari: *qachon*, *nega*, *nimaga*, *nechuk*, *qanday qilib, qay tarzda*;
- 5) fe'l so'roq olmoshlari: *nima qildi*, *nima qiladi*, *nima qilayotir*.

2- §. Olmoshlarning quyidagi ma'no turlari so'roq olmoshlari asosida hosil qilingan:

1. Guman olmoshlari:

- 1) so'roq olmoshi oldiga *alla-* affiksoidini qo'shib: a) ot so'roq olmoshiga: *allakim-*, *allanima-*, b) sifat so'roq olmoshiga: *allaqanday*, *allaqaysi*, d) son so'roq olmoshiga: *allaqancha*, *allanechanchi*, e) ravish so'roq olmoshiga: *allaqachon* kabi;
- 2) so'roq olmoshi oxiriga *-dir* guman yuklama-affiksini qo'shib: a) ot so'roq olmoshiga: *kimdir*, *nimadir*, b) sifat so'roq olmoshiga: *qandaydir*, *qaysidir*, d) son so'roq olmoshiga: *qanchadir*, *nechanchidir*; e) ravish so'roq olmoshiga: *qachondir*, *negadir*, *nimagadir* kabi.

*-dir* asli guman yuklamasi bo'lgani sababli ot so'roq olmoshiga sonlovchi va turlovchi affiksdan keyin qo'shiladi: *kimlargadir* kabi.


2. Belgilash olmoshlari so'roq olmoshlaridan oldin *har* ta'kidlov affiksoidini keltirib hosil qilinadi: a) ot so'roq olmoshi oldidan: *har kim-*, *har nima-*, b) sifat so'roq olmoshi oldidan: *har qanday*, *har qaysi*, d) son so'roq olmoshi oldidan: *har qancha*, e) ravish so'roq olmoshi oldidan: *har qachon* kabi.

I z o h. *Hamma*, *barcha*, *bari* kabi leksemalarni olmoshlar qatoridan chiqarib, *ko'p*, *bir* *talay* kabi miqdor ravishlari qatoriga qo'shish to'g'ri, chunki bular 'mavjud miqdordagi' kabi leksik ma'noni anglatadi.

3. Bo'lishsizlik olmoshlari so'roq olmoshlari oldidan *hech* inkor affiksoidini keltirib hosil qilinadi: a) ot so'roq olmoshi oldidan: *hech kim-*, *hech nima-*, b) sifat so'roq olmoshi oldidan: *hech qanday*, *hech qaysi*, d) son so'roq olmoshi oldidan: *hech qancha*, e) ravish so'roq olmoshi oldidan: *hech qachon* kabi.

Yuqoridagi tasvirdan anglashiladiki, gumon olmoshlari, belgilash olmoshlari, bo'lishsizlik olmoshlari o'z ichida ot olmosh, sifat olmosh, son olmosh, ravish olmosh turlariga ajratiladi. Olmoshlarning grammatik tabiatini qaysi turkum olmoshi ekaniga bog'liq.

3- §. Kishilik olmoshlari ot olmoshlarning maxsus turi bo'lib, shaxs, son, o'rni bilan modal ma'nolarni ifodalaydigan quyidagicha paradigmmani hosil qiladi:



Kishilik olmoshlarning bu paradigmada shaxs, son, o'rni bilan modal ma'nolarning ifodalaniishi quyidagicha:

1) *men-, sen-* olmoshlarida shaxs va son ma'nosini olmosh asosining o'zi ifodalaydi. Tarixan shaxs ma'nosini bu olmoshlarning *m-, s-* qismi, son ma'nosini *-n* qismi bildirgan bo'lsa ham, hozirgi o'zbek tilida bu olmoshlar tarkibi ma'noli qismlarga ajratilmaydi.

2) *biz-, siz-* olmoshlari ham xuddi shunday baholanadi: Tarixan shaxs ma'nosini *b-, s-* qismi, son ma'nosini *-z* qismi bildirgan bo'lsa ham, hozirgi o'zbek tilida bu olmoshlar ma'noli qismlarga ajratilmaydi.

3) *biz-, siz-* olmoshlari birlikni ifodalash uchun ham ishlatila boshlagani sababli, ko'plikni ochiq ifodalash maqsadi bilan bo'lsa kerak, bu olmoshlarga *-lar* ko'plik affiksini qo'shib ishlatish yuzaga kelgan. Bunday ishlatishda (*bizlar-, sizlar-*) *biz-, siz-* asoslari shaxs ma'nosini, *-lar* affiksi esa son ma'nosini ifodalaydi, demak, bu ma'nolarni olmosh tarkibidagi boshqa-boshqa qismlar bildiradi.

4) I, II shaxs olmoshlardan farqli holda III shaxs olmoshi *u-* kishilik-narsa olmoshi deyiladi. Bu olmosh asli ko'rsatish olmoshidan o'sib chiqqanini hisobga olib, uni kishilik-ko'rsatish olmoshi deb baholash ham mavjud. Hozirgi o'zbek tilida *u-* II kishilik-narsa olmoshi bilan *u-* I ko'rsatish olmoshini omoifodalar deb qarash to'g'ri.

*u-* kishilik-narsa olmoshining asosi I, II shaxs birlik kishilik olmoshlardan farqli holda faqat shaxs ma'nosini bildiradi, son ma'nosini unga qo'shiladigan nol ko'rsatkichli morfema ifodalaydi; bu yerda nol ko'rsatkichli morfema shu olmosh asosiga ko'plik ma'nosini ifodalash uchun qo'shiladigan *-lar* affiksi bilan zidlashda belgilanadi: *u + Ø ↔ u + lar-*. Demak, III shaxs

kishilik-narsa olmoshida shaxs ma'nosini asos, son ma'nosini esa grammatik ko'rsatkich ifodalaydi.

5) *biz-* 2 – *bizlar-*, *siz-* 2 – *sizlar-* munosabatida ham yuqoridagi kabi hodisani ko'ramiz: *biz* 2 + Ø ↔ *biz* + *lar-*, *siz* 2 + Ø ↔ *siz* + *lar-*.


Xullas: a) *men-* olmoshi-gina *-lar* affiksini olmaydi, demak, son shakllarida zidlanish yo'q, shunga ko'ra shaxs va son ma'nosini bu olmoshning asosi bildiradi; b) *sen-* – *senlar-*, *u-* – *ular-* 1, *biz* 2 + Ø – *bizlar-*, *siz* 2 + Ø – *sizlar-* zidlanishida shaxs ma'nosini olmoshning asosi, son ma'nosini morfema ifodalaydi; d) *senlar* – *sizlar* zidlanishida son (ko'plik) ma'nosni affiks yordamida ifodalanadi, modal ma'nodagi zidlanish ('senlash' – 'sizlash') olmosh asosidan anglashiladi; e) *biz-* 1 – *biz-* 2, *siz-* 1 – *siz-* 2, *ular-* 1 – *ular-* 2 zidlanishida 'ko'plik' ma'nosni bilan ishlatalish birlamchi bo'lib, 'ko'plik' yakka shaxsga ko'chirib ishlatalishi natijasida 'birlik' ma'nosni yuzaga kelgan, bu 'birlik' ma'nosni modal ma'no bilan birlamchida ifodalanigan: *biz-* 1 ('ko'plik') – *biz-* 2 ('birlik + kamtarlik'), *siz-* 1 ('ko'plik') – *siz-* 2 ('birlik + sizlash'), *ular-* 1 ('ko'plik') – *ular-* 2 ('birlik + sizlash'); d) *biz-* 1 – *bizlar-*, *siz-* 1 – *sizlar-* – *senlar-* qatori sinonimiyaga – ko'plikning har xil ifodasiga teng.


Kishilik olmoshi ot olmosh sifatida turlanadi. Bunda *men*, *sen* olmoshlariga qaratqich kelishigi affiksi *-ing* shaklida, tushum kelishigi affiksi *-i* shaklida qo'shiladi. Makon kelishiklari affiksi *u-* olmoshining *un-* (<*ul-*) shakliga qo'shiladi.

Hozirgi o'zbek tilida kishilik olmoshlariga nisbatlovchi qo'shilmaydi. Kishilik olmoshlarining so'zlashuv tilida saqlanib kelayotgan *manim*, *saning*, *uni* (shuningdek *bizim*, *sizing*) shakllari oxiridagi qo'shinchalarni nisbatlovchilar deb talqin qilish ham mumkin. Unda *menim* *kitobim* kabi birikmaning har ikki a'zosiga aslida ayni bir nisbatlovchi qo'shilgan bo'lib chiqadi.

4- §. Adabiyotlarda ko'rsatish olmoshlari nomi bilan *bu*, *shu*, *u*, *o'sha*, *mana*, *ana* birliklari keltiriladi. Bular haqiqatda ko'rsatish ma'nosini ifodalaydi, lekin biror leksemaga olmosh bo'lib kelmaydi. Shunga ko'ra bularni olmosh deyish to'g'ri bo'lmaydi, shartli ravishda ko'rsatish birliklari deb nomlash mumkin.

Ko'rsatish birliklari o'zaro quyidagicha oppozitiv munosabat hosil qiladi:





Ko'rsatish birliklari tizimining asosini *bu*, *shu*, *u*, *o'sha* tashkil qiladi; *bu*, *shu* oldidan *mana* birligini, *u*, *o'sha* oldidan *ana* birligini keltirish bilan ko'rsatish ma'nosi ta'kidlanadi.

*Mana*, *bu*, *shu* qatori odatda yaqin masofadagi predmetni, *ana*, *u*, *o'sha* qatori uzoqroq masofadagi predmetni ko'rsatish uchun ishlataladi; *ana*, *ana u* oldidan *hov*, *huv* birliklarini keltirish bilan masofaning yana-da uzoqroq ekanligi ifodalanadi.

*Bu*, *shu* qatorida *bu* odatda birlamchi ko'rsatishda, *shu* esa ikkilamchi ko'rsatishda, shuningdek *u* birlamchi ko'rsatishda, *o'sha* ikkilamchi (oldin ham ta'kidlangan) ko'rsatishda ishlataladi.

Ko'rsatish birliklari sifat tabiatli bo'lgani uchun ularda shakl hosil qilish yo'q.

5- §. O'zlik olmoshi deb ataladigan *o'z-* birligi biror leksemaga olmosh bo'lib kelmaydi, balki odatda ma'lum bir leksemaga bog'lanib, ta'kid ma'nosini ifodalaydi: *men o'zim-* (< *mening o'zim-*), *o'zim-*; *akam o'zi-* (< *akamning o'zi-*); *o'z so'zida* (< *o'zining so'zida*) kabi. Shunga ko'ra bu birlikni ta'kid birligi deb atash ma'qul.

*O'z-* birligi aslida ot leksema bo'lgan, shunga ko'ra nisbatlovchi va turlovchi affikslarni oladi, lekin grammatik son paradigmasining faqat birlik shaklida ishlataladi.

### TASVIR BIRLIKLARI TURKUMI

1- §. Voqelikdagi turli tovushlarning, harakat-holat ko'rinishlarining til tovushlari vositasidagi ramziy ifodasiga tasvir birliklari turkumi deyiladi.

Tavsir birliklari tovush tasviri birliklariga va harakat-holat ko'rinishi tasviri birliklariga ajratiladi: *o'xo'-o'xo'*, *qu-qu*, *qitir-qitir*; *alang-jalang*, *hil-hil*, *milt-milt* kabi.

Adabiyotlarda bunday birliklar ko'pincha *taqlid(iy)* *so'zlar* deb nomlanadi. Aslida *taqlid* — boshqa, tasvir — boshqa hodisa. Kishi biror hayvonning, masalan, mushukning tovushini *taqlid* qilib qaytarishi mumkin, lekin mushuk chiqaradigan tovushning *o'zida taqlid* qilish yo'q; kishi *o'z* tilidagi tovushlar vositasida mushuk chiqaradigan tovushning ramziy ifodasini hosil qiladi. Harakat-holat ko'rinishining ramziy tovush ifodasiga nisbatan esa

taqlid izohi umuman to'g'ri kelmaydi. Demak, bunday birliklarni bir butun holda tasvir birliklari deb nomlash to'g'riroq.

Voqelikdagi turli tovushlar deganda til tovushlaridan boshqa tovushlar tushuniladi. Kishi bu tovushlarni eshitib, o'z tilidagi tovushlar vositasida tasviriy ifodasini hosil qiladi. Bunday tasviriy ifoda voqelikdagi tovushning aynan o'zi bo'lmaydi. Masalan, *miyov* tasvir birligi mushukning miyovlashiga aynan teng emas, albatta; shunga ko'ra ramziy ifoda deyiladi.

Kishi voqelikdagi harakat-holatning turli ko'rinishini ko'rib, til tovushlari bilan ularning ramziy tasvirini hosil qiladi. Bu yerdagi tovush ramzi o'ta shartli bo'ladi.

Tasvir birliklarining ifoda jihatni bo'lib til tovushlari xizmat qiladi; mazmun jihatni — ular bog'lanadigan voqelikning nomi ekanligi. Masalan, *miyov* tasvir birligi mushuk chiqaradigan tovushning, *yalt-yult* tasvir birligi nurning turlicha tovlanishining nomi bo'lib xizmat qiladi. Lekin tasvir birligi leksik ma'no anglatmaydi, faqat voqelikning nomi bo'lish vazifasini bajaradi. Shu jihatni bilan leksemalardan farqlanadi.

2- §. Tasvir birliklarining ko'p qismini tovush tasviri birliklari tashkil qiladi va quyidagi ma'no turlariga ajratiladi:

1) kishi yo'talganda, kulganda, hayajonlanganda va boshqa holatlarda chiqaradigan tovushning ramziy ifodalari: *o'xo'-o'xo*, *xa-xa-xa*, *hiring-hiring* kabi;

2) hayvon, parranda, hasharot chiqaradigan tovushning ramziy ifodalari: *mooo* (qoramolning ma'rashi), *baaa* (qo'yning balashi), *vov-vov* (itning vovullashi), *qag'-qag'* (qarg'aning qag'illashi) kabi;

3) jonsiz narsalarning urilishi, sinishi kabilar tufayli hosil bo'ladigan tovushlarning ramziy ifodalari: *gup-gup*, *taraq-turuq*, *biqir-biqir*, *guldur-guldur*, *g'iyq, pirr* kabi.

Turli harakat-holatda voqe bo'ladigan ko'rinishlarni ifodalaydigan tasvir birliklari anchagini bo'lib, bular ham yuqoridagicha ma'no turlariga ajratiladi:

1) kishi harakat-holatining ramziy ifodalari: *hang-mang*, *alang-jalang*, *lapang-lapang* kabi;

2) hayvon, parranda, hasharot harakat-holatining ramziy ifodalari: *di-kang-dikang*, *lip-lip*, *g'imir-g'imir* kabi;

3) jonsiz narsalar holatining ramziy ifodalari: *yalt*, *yilt-yilt*, *lov* kabi.

3- §. Tasvir birliklari tovush tuzilishi jihatidan asli bir bo'g'inli bo'lib, asosan CVC tovush tizimiga ega: *vij*, *gum*, *dik*, *do'q*, *jiz*, *paq*, *pop*, *shaq* kabi. Oxiri ikki konsonant bilan tugaydigan bir bo'g'inli tasvir birliklari ham anchagini: *gurs*, *shilt*, *yalt*, *yarg*, *qars*, *qirs* kabi.

Tovush tasviri birliklarida tovushning cho'ziqligi asosan oxirgi tovushni cho'zib aytish bilan (yozuvda shu harfini takror yozish bilan) ifodalanadi: *gurr, pirr, sharr, maaa* kabi.

Tasvir birligi ifodalaydigan tovush yoki holatning takrorlanishi shu tovush ramzini takror ishlatish bilan bildiriladi: *ak-ak, big'-big', dag'-dag', dir-dir, lip-lip, milt-milt* kabi. Ba'zan uch takror ham uchraydi: *xa-xa-xa, qu-qu-qu, g'it-g'it-g'it* kabi.

Takrorlanadigan tovush yoki holat har xil ekanini ifodalash uchun oldinги qism tarkibidagi *a* tovushi ikkinchi qismda *u* tovushiga almashtiriladi: *bag'-bug', qars-qurs, paq-puq, shalp-shulp, yalt-yult, g'arch-g'urch* kabi.

Ikki bo'g'inli tasvir birliklari ham anchagina bo'lib, bular odatda takrorlanib ishlatiladi: *bidir-bidir, jivir-jivir, dikang-dikang, diring-diring, hiring-hiring* kabi. Bunday tasvir birliklari oxiridagi *-ir, -ing* qismi kengaytiruvchi element deyiladi; quyidagi tasvir birliklarida bunday qism aniq ajralib turadi: *biqir-biqir, dukur-dukur, do'qir-do'qir, ho'ngir-ho'ngir* kabi.

Ikki bo'g'inlarda takrorlanadigan tovush har xil ekani bu yerda ham ovoz tovushni almashtirish bilan ifodalanadi: *tapir-tupur, tasir-tusur, shatir-shutur, g'ajir-g'ujur* kabi.

Bir tur tovushdan ikkinchi tur tovushga tezda o'tilishi takrorlanadigan qismlarning birinchisi oxiriga *a* tovushini qo'shib ifodalanadi: *dukura-dukur, tasira-tusur, shaqira-shuqir* kabi.

Xullas, tasvir birliklari — o'ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turadigan alohida turkum. Tasvir birligi oxiriga *-ir, -ing* qismini qo'shish bilan, takrorlanadigan qismlarda ovoz tovushni almashtirish bilan, takrorlanadigan qismlar orasida *a* tovushini ottirish bilan ma'lum bir grammatick ma'nolar ifodalanadi; shunga ko'ra bu hodisalarни shakl yasalishi deb baholash mumkin.

**1- §.** Leksemashakl lisoniy birlik sifatida leksema va morfema bilan to'ldiriladigan qolipdan iborat. Ana shunday qolipning leksema va morfema bilan to'ldirilgan holati nutqiy birlikka teng bo'ladi. Demak, leksemashakl lisoniy birlik sifatida mavhum birlik, supersegment birlik, nutqiy birlik sifatida esa aniq birlik, segment birlik deyiladi.


Leksemashakl dastlabgi tuzma lisoniy birlik bo'lib, ma'lum bir turkum leksemasining sintaktik vazifa bajara olish darajasida grammatik shakllangan holatiga teng; shunga ko'ra leksemashakl birlamchi sintaktik birlik deyiladi.

Leksemashakllar tuzish qoidalari turkumlar bo'yicha turli ko'rinishlarda namoyon bo'ladi. Rang-barang leksemashakllar tuzish qoliplari birinchi navbatda morfem paradigmalarini mavjud ot leksemalar turkumiga, fe'l leksemalar turkumiga xos. Leksemashakl tarkibida nopaladigmatik shakl hosil qiladigan morfemalar ham qatnashadi. Morfemalarning leksemaga ma'lum qoida asosida birin-ketin qo'shilishi morfemalarning aranjirovkasi deyiladi (<fr. arranger — 'qayta tartiblash'). Leksemashakl tuzish qoliplari va ularga xos ayrim belgi-xususiyatlar quyida turkumlar bo'yicha bayon qilinadi.

#### **Ot leksemashakllar tizimi**

**2- §.** Ot leksemalar turkumi bayonida bunday leksemalarga sonlash, nisbatlash, turlash paradigmalarining morfemalari, shuningdek bir necha nopaladigmatik morfemalar qo'shilishi ta'kidlandi. Ot leksemashakllar ana shu morfemalarning ot leksemaga ma'lum qoida asosida birin-ketin qo'shilishi bilan hosil qilinadi.

Ot leksemashakllarning (OL) eng sodda tarkibi "leksema + sonlovchi + turlovchi" ko'rinishiga ega; bu qolipni OL + S + Tr shartli qisqartmasi bilan yozish mumkin. Ot leksemashaklning ana shu qolipda tuzilgan ko'rinishi nutqda eng ko'p ishlataladi. Ushbu qolipda qatnashadigan morfemalar paradigmاسини chizmada quyidagicha ko'rsatish mumkin:



Ko'rinaridiki, bu qolip asosida ot leksemashaklning leksema va morfemalar bilan to'ldirilgan 12 ko'rinishi yuzaga keladi: birlik + 6 kelishik va ko'plik + 6 kelishik: *kitob* + Ø I + Ø II, *kitob* + Ø I + *ning*, *kitob* + Ø I + *ni*, *kitob* + Ø I + *dan*, *kitob* + Ø I + *ga*, *kitob* + Ø I + *da*; *kitob* + *lar* + Ø II, *kitob* + *lar* + *ning* va b.

Ot leksema predmet ma'nosini anglati turib yuqoridagi sonlash va turlash paradigmalarining ko'rsatkichlarini olgan holda leksemashaklga aylanadi. Ot leksema sonlovchi qo'shilishi uchun asos — sonlash asosi bo'ladi, sonlovchi qo'shilgan leksema esa turlovchi qo'shilishi uchun asos — turlash asosi bo'ladi:

k i t o b	l a r	n i
ot leksema	morfema, sonlovchi,	morfema, turlovchi, tushum
asos, sonlash asosi	ko'plik shakli	kelishigi shakli
t u r l a s h   a s o s i		
o t   l e k s e m a   s h a k l		

Bu qolipa qaysi turlovchining qatnashuvini boshqa bir leksema bilan sintaktik bog'lanish belgilaydi (Bu haqda o'z o'mida gapiriladi). Sonlovchi odatda obyektiv vogelikka ko'ra tanlab qo'shiladi. Shu bilan birga qaysi sonlovchining qo'shilishi ot leksemaga, uning ma'no turiga bog'liq. Bu yerda leksema bilan unga qo'shiladigan sonlovchi morfema orasidagi zinch sintagmatik munosabat mavjud bo'lib, leksemaning unga qaysi sonlovchi qo'shilishini va bunda qanday ma'no ifodalanishini belgilashi ochiq ko'rinaridi. Shuni hisobga olib avval ot leksemalarning ma'no turlari bilan tanishish lozim.

3- §. Ot leksemalar ma'no turlariga bir necha nuqtayi nazardan tasnif qilinadi. Ot leksemalarni eng yirik tasniflash *kim*, *nima* so'roqlari asosida amalga oshiriladi: *kim* so'rog'iga javob bo'ladigan ot leksemalar kishi otlari deyiladi: *o'qituvchi-*, *talaba-*, *makler-* kabi; ot leksemalarning qolgan qismi *nima* so'rog'iga javob bo'lib, narsa otlari deyiladi: *imtihon-*, *iqtisod-*; *qush-*, *qo'zi-* kabi.

Sharq olamida, shu jumladan o'zbeklarda borliq kishi va nokishi deb ikkiga ajratiladi; shunga ko'ra nokishi tushunchasi ostiga jonsiz predmetlar bilan birga jonli predmetlar ham mansub deb tushuniladi. Ko'rinaridiki, o'zbek tilida ot leksemalarning kishini va nokishini anglatishiga ko'ra tasniflanishi rus tilidagi jonli va jonsiz deb tasniflashdan farq qiladi.

4- §. Bir turdag'i predmetlarning barchasini nomlashi yoki bittasini atashi, ajratib ko'rsatishiga ko'ra ot leksemalar turdosh ot va atoqli ot deb tasnif qilinadi. Bunday tasnif yuqoridagi tasnifga parallel holda amalga oshiriladi.

1. Turdosh ot turni turdan ajratadi: *qalam-*, *bino-* kabi.

2. Atoqli ot aniq bir kishi yoki predmetning atamasi bo'lib, bir turdag'i predmetlardan birini boshqalaridan farqlashga xizmat qiladi. Atoqli otlar o'z navbatida bir necha ma'nio turiga ajratiladi:

1) leksik ma'nio anglatmaydigan, shartli tamg'a sifatida ishlataladigan atoqli otlar:

a) kishi ismi, ota ismi, familiyasi, taxallusi: *Abror Hidoyatov-*, *Komil Yashin-*, *Aleksandr Sergeyevich Pushkin-* kabi. Bunday atamalar asli leksik ma'nio anglatgan, atoqli otga aylanganidan keyin esa leksik ma'nio anglatishi so'ngan; shunga ko'ra bunday atoqli otlar leksemalar qatoriga shartli ravishda kiritiladi;

b) uy hayvonlariga qo'yildigan ismlar: *Olapar-*, *Mosh-* kabi;

d) hozir ma'nosini izohlab bo'lmaydigan geografik nomlar: *Hadra-*, *Quva-* kabi. *Mirzacho'l-*, *Yangiyer-* kabi joy nomlari tarkibidagi qismlar o'z leksik ma'nosini yo'qotmagan, shu tufayli bunday geografik nomdan leksik ma'nio anglashiladi;

e) tashkilot, muassasaga shartli birkitilgan kishi yoki narsa nomlari: *Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zMU-*, "G'uncha" nomli kinoteatr- kabi.

Bu yerda *nomidagi* leksemashaklini kishi atoqli otidan keyin, *nomli* leksemashaklini esa boshqa hollarda ishlatalish lozimligini unutmaslik kerak; kishi atoqli otidan keyin *nomli* leksemashaklini *Navoiy nomli ko'cha* tarzida ishlatalish — xato, *Navoiy nomidagi ko'cha-* yoki *Navoiy ko'chasi-* deb ishlatalish to'g'ri.

2) Atoqli otlarning quyidagi turlarida leksik ma'nio o'z kuchini saqlaydi:

a) davlat tashkilotlari, idora va muassasalarning nomlarida; bular odatda turg'un birikmaga teng bo'ladi: *O'zbekiston Respublikasi-*, *O'zbekiston Milliy universiteti-* kabi;

b) gazeta, jurnal, kitob nomlari: "*Ma'rifat*", "*Jahon adabiyoti*", "*Ikki eshik orasi*" kabi va b.

Atoqli ot turdosh ot yoki boshqa turkum leksemasi (leksemashakli) asosida yuzaga keladi, lekin atoqli otlarning ko'pida ularning asl ma'nosini tiklash, izohlash imkoniyati yo'qolgan bo'ladi, tarixiy-etimologik izlanishlar bilan-gina ularning asl ma'nosini izohlanadi. Masalan, *Chorsu-* atoqli otining qanday ma'noli qismlardan tuzilganini, shunga ko'ra asli qanday ma'nio anglatganini hozirgi o'zbek tili asosida izohlab bo'lmaydi. Bu leksema asli tojikeha *chahor-* ('to'rt') sanoq soni va *so'-* ('yo'nalish') turdosh ot leksemasidan

tarkib topgar bo'lib, asli 'to'rt yo'nalish' ma'nosini anglatgan; keyinchalik ana shunday to'rt yo'l (ko'cha) bosqidanadigan joyning atoqli otiga aylangan. Bu leksema hozirgi tojik tilida turdosh et sifatida mavjud; o'zbek tiliga o'tovushini u tovushiga almashtirib qabul qilingan (chunki o'tovushi o'zbek tilida ikkinchi va undan keyingi bo'g'inda kelmaydi): *chorso* - > *chorsu-* (*chahor-* leksemasi *chor-* shakliga tojik tilining o'zida o'tgan).

Atoqli otlarning bir qismida ular asosida yotgan leksik ma'noni bimalol izohlash mumkin. Masalan, *Oltmos-* atoqli oti 'shaffof, yaltiroq qimmatbaho tabiiy tosh' ma'nosini anglatuvchi *olmos-* turdosh otining, *O'tkir-* atoqli oti 'yaxshi kesadigan' ma'nosini anglatuvchi sifatning, *Tursin-* atoqli oti *turfe'lining 'yasha'* ma'nosi bilan hosil qilingan buyruq mayli III shaxs shaklining kishiga nom sifatida qo'yilishidan iborat.

5- §. Turdosh otlar o'z navbatida ma'no turlariga quyidagicha ajratiladi:

1. Dona otlari va jam otlari: *yigit*, *qiz*; *yigit-qiz*- kabi.

Predmetlarni jamlab anglatish juft leksemalarga xos xususiyat bo'lib, shu jihatni bilan nojuft otlarga zid qo'yiladi.

2. Jismiy (konkret) va fikriy (abstrakt) otlar: *daraxt*-, *mikrofon*-, *jahl*-, *ozodlik*- kabi. Jismiy otlar anglatadigan predmetni odatda ko'z bilan ko'rib, qo'l bilan ushlab bo'ladi; fikriy otlar anglatadigan predmet tasavvur qilinadi.

3. Yakka otlar va noyakka otlar: *qaldirk'och*-, *xizmatchi*-, *ko'z*-, *etik*- kabi.

Noyakka otlar o'z navbatida quyidagi ma'no turlariga ajratiladi:

1) yakka-qo'sh predmetni anglatadigan otlar: *qulog*-, *qo'l*- kabi. Bunday ot yakka predmetni ham, qo'sh predmetni ham anglatish uchun ishlataladi; muhim belgisi — qo'sh predmetni anglatishi;

2) yakka-ko'p predmetni anglatadigan otlar: *soch*-, *kiprik*- kabi. Bunday otlar yakka predmetni ham, ko'p predmetni ham anglatadi; muhim belgisi — ko'p predmetni anglatishi;

3) predmetni to'da sifatida anglatadigan otlar: *o'rmon*-, *olomon*- kabi. Bunday ot doim bir qancha predmetni yaxlit to'da sifatida anglatadi.

4. Sanaladigan predmetlarning oti va sanalmaydigan predmetlarning oti deb ajratiladi. Turdosh otlarning asosiy qismini sanaladigan predmet otlari tashkil qiladi; sanalmaydigan predmetni anglatadigan otlar oz bo'lib, asosan modda nomlariga to'g'ri keladi; *qum*-, *muz*-, *tutun*- kabi.

6- §. Ot leksemalarning yuqorida tasvirlangan turlari ma'lum darajada ularning grammatik tabiatiga ta'sir ko'rsatadi. Masalan, tuslanish kishi otlariga mansub bo'lib, narsa otlari o'z mohiyatini saqlab turib tuslanmaydi, faqat III shaxsda ishlataladi: *talabaman*, *talabasan*, *talaba*; lekin *imtihon*- faqat III

shaxs shaklida ishlataladi. Leksema bilan morfemaning o'zaro ta'siri quyida sonlash morfemalari misolida tasvirlanadi.

7- §. 1. Kishi atoqli otlar bir kishining ismi sifatida sonlash paradigmasing asosan birlik shaklida ishlataladi. Bunday atoqli otga *-lar* affiksi qo'shilganida sof ko'plik ('bir necha') ma'nosi emas, balki 'ma'lum bir kishi va uning qurshovidagi boshqa kishilar' ma'nosi ifodalanadi: *Komilalar-, Katayevlar-* kabi.

Kishi turdosh otlarining asosiy qismini dona otları tashkil qiladi, bunday otlar sonlash paradigmasing har ikki shaklida ishlatalaveradi. Ayrim kishi turdosh otları sonlash paradigmasing faqat birlik shaklida ishlataladi:

- a) mavhum noyakka otlar: *xaloyiq-, odamzod-, cho'ponlik-* kabi;
- b) faqat yakka shaxsga nisbat beriladigan otlar: *dada-, ota-, ona-* (o'z ma'nosida) kabi.

*Oollo-* leksemasi ham birlik shaklida ishlataladi.

2. Kishi turdosh otlarining jam (juft) turi o'z ma'nosiga ko'ra sonlash paradigmasing ko'plik shaklida ishlataladi: *yigit-qizlar-, qiz-juvonlar-, opasingillar-, oshna-og'aynilar-* kabi.

8- §. 1. Narsa atoqli otları sonlash paradigmasing faqat birlik shaklida ishlataladi:

- a) planeta nomlari: *Yupiter-, Mars-, Quyosh-, Yer-, Oy-* kabi;
- b) joy nomlari: *Toshkent-, Zangota-, Hadra-* kabi. Bunday atoqli otlar *-lar* affiksi bilan ishlatilsa, 'shunday ataladigan joy va uning atrofi' ma'nosi ifodalanadi;

v) tashkilot, idora, gazeta, jurnal nomlari: *O'zbekiston Milliy universiteti-, "Ma'rifat" gazetasi-, "G'uncha" kinoteatri-* kabi.

2. Narsa turdosh otları asosan sonlash paradigmasing har ikki shaklida ishlataladi. Bunday otlarning quyidagi ma'no turlari odatda faqat birlik shaklida ishlataladi:

- a) *un-, guruch-, yog-* kabi oziq-ovqat mahsulotlarining nomlari;
- b) *oltin-, kumush-, mis-* kabi ma'dan nomlari;
- d) *qum-, muz-* kabi sanalmaydigan jism nomlari. Bu uch tur narsa otları *-lar* affiksi bilan ishlatilsa, 'turli xil', 'mo'l' ma'no qirrasi ifodalanadi;
- e) *yurak-, bosh-* kabi har kishida bitta bo'ladigan a'zoning nomlari; bunday otga *-lar* affiksi qo'shilsa, 'kuchaytirish' ma'nosi ifodalanadi;
- f) mavhum otlar: *aql-, dil-, iloj-, ishonch-, kayfiyat-, oriyat-, sukunat-, qiyomat-, g'azab-, halovat-* kabi;
- g) *haq[i]da, to'g'ri[si]da, ust(i)da, old(i)da* kabi ko'makchi otlar;
- h) jam (juft) mavhum otları: *kuch-qudrat-, sihat-salomatlilik-* kabi va b.

**9- §.** Yuqoridagi tasvirdan ayon bo'ladiki, leksemaning ma'no jihatiga bilan sonlash paradigmasi orasida zinch sintagmatik munosabat mavjud: sonlash paradigmasing shakllari ot leksemaning ma'no jihatiga monand holda qo'shiladi va shu asosda turli ma'no qirralari ifodalananadi.

Ushbu ot leksemashaki qolipida leksemaning oxirgi tovushi bilan morfemaning bosh tovushi orasida ham zinch sintagmatik munosabat voqe bo'ladi: leksema oxiridagi *g*, *g'* tovushi bilan morfema boshidagi *g* tovushi o'zaro ta'sir qilib, *kk*, *qq* tovushlariga aylanadi, natijada *g* fonemasining *k* allofonemasi, *g'* fonemasining *q* allofonemasi voqe bo'ladi: *barg+ga* > *barkka* (*barg+ga* yoziladi), *pedagog+ga* > *pedagokka* (*pedagogga* yoziladi), *bog'+ga* > *boqqa* (*bog'ga* yoziladi), *cho'g'+ga* > *cho'qqa* (*cho'g'ga* yoziladi) kabi.

O'zaro ta'sir leksema oxiridagi *d* tovushi bilan morfema boshidagi *d*, *g* tovushi orasida ham yuz beradi, natijada *d* fonemasining *t* allofonemasi, *g* fonemasining *k* allofonemasi voqe bo'ladi: *daromad + dan* > *daromattan* (*daromaddan* yoziladi), *daromadga* > *daromatka* (*daromadga* yoziladi) kabi.

**10- §.** Ot leksemashaklning ikkinchi qolipi uch morfem paradigmaga ko'rsatkichlari bilan tuziladi; birinchi qolidan farqli holda bu qolipda sonlovchi bilan turlovchi oralig'ida nisbatlovchi (Nch) qatnashadi: OL + S + Nch + Tr. Bu qolipda qatnashadigan morfem paradigmalarni chizmada quyidagicha ko'rsatish mumkin:

		-m-	
		-miz- 1	
	-Ø- I	-miz- 2	-Ø II
		-ng-	-ning
		-ngiz- 1	-ni
Leksema		-ngiz- 2	-dan
		-nglar-	-ga
	-lar-	-laring-	-da
		-i-	
		-lari-	

Masalan, sonlash paradigmasing ko'plik shakli va I shaxs birlik nisbatlovchisi qo'shilgan ot leksemaga olti kelishik shaklini qo'shib quyidagi leksemashakller tuziladi: *kitob + lar + im + Ø I*, *kitoblarimning*, *kitoblarimni*, *kitoblarimdan*, *kitoblarimga*, *kitoblarimda*.

Misollarni kuzatish ko'rsatadiki, ot leksema nutqda ko'pincha sonlash paradigmasing birlik shakli, nisbatlash paradigmasing III shaxs shakli,

turlash paradigmasining bosh kelishik shakli qo'shilgan ko'rinishida ishlataladi.

Birinchi qolipda bo'lganidek, bu yerda ham ot leksemaning ma'no jihatiga bog'liq holda, sonlash paradigmasining har ikki shaklida ishlataladigan leksemalardan tashqari, faqat birlik yoki ko'plik shaklida ishlataladigan leksemalar ham mavjud.

Faqat birlik shaklida ishlataladigan ot leksemalarda nazariy jihatdan 10 nisbatlovchining har biridan keyin 6 kelishik shakli qo'shiladi:  $10 \times 6 = 60$  leksemashakl tuziladi.

Ko'plik shaklidagi ot leksemaga nisbatlovchilarning *-laring-*, *-lari-* shakllari qo'shilmaydi; nisbatlovchilarning qolgan sakkiz shaklidan keyin olti kelishik shakli qo'shiladi:  $8 \times 6 = 48$  leksemashakl tuziladi.

Ko'plik shaklida-gina ishlataladigan ayrim ot leksemalarni nazardan soqit qilsak, ushbu qolip asosida 100dan ortiq leksemashakl tuziladi.

Bu qolipda uch asos — sonlash asosi, nisbatlash asosi, turlash asosi mavjud:

<i>k i t o b</i>	<i>l a r</i>	<i>i m</i>	<i>n i</i>
ot leksema	morfema,	morfema, nisbat-	morfema, tur-
asos, sonlash	sonlovchi,	lovchi, I shaxs	lovchi, tushum
asosi	ko'plik shakli	ko'rsatkichi	kelishigi shakli
asos, nisbatlash asosi			
a s o s ,   t u r l a s h   a s o s i			
o t   l e k s e m a s h a k l			

**11- §.** Birinchi qolipda bo'lganidek, bu yerda ham zich sintagmatik munosabat leksema bilan sonlovchi morfema orasida voqe bo'ladi (Qaytariq bo'lmasligi uchun bunday ta'sir o'tkazadigan ot leksemalar bu yerda tasvirlanmadid).

Ushbu ot leksemashakl qolipida nisbatlovchi qatnashuvi munosabati bilan yana bir tur sintagmatik munosabat voqe bo'ladi: leksema tarkibida quyidagi tovush o'zgarishlari yuz beradi:

1) *k* , *q* tovushi bilan tugaydigan ot leksemaga nisbatlovchi qo'shilganida:

a) *k* tovushi *g* tovushiga almashadi: *eshik + i + dan* > *eshigidan, yurak + i + ga* > *yuragiga, burchak + i + da* > *burchagida, kapalak + im + Ø II* > *kapalagim + Ø II* kabi;

b) *q* tovushi *g'* tovushiga almashadi: *barmoq + i + Ø II* > *barmog'i + Ø II, qulog + i + ni* > *qulog'ini, qishloq + ing + ga* > *qishlog'ingga* kabi.

Bu yerda ikki ovoz tovush oralig'idagi (intervokal holatdagi) shovqin tovush ovozli tovushga almashadi, ovozlanish (jarangilanish) voqe bo'ladi. Bunday tovush almashinuvi *k – g* munosabatida portlovchi shovqin tovush bilan uning ovozli eshi orasida yuz beradi; *q – g'* munosabatidagi tovush o'zgarishi esa portlovchi tovush bilan sirg'aluvchi tovush orasida yuz beradi, demak, bu yerda, ovozlanishdan tashqari, ikkinchi tur almashuv: portlovchi tovushning sirg'aluvchi tovushga almashuvi ham voqe bo'ladi.

Yuqoridagi tovush o'zgarishlari leksemaga morfema qo'shilishi natijasida yuz beradi, shunga ko'ra leksema bilan morfema orasidagi sintagmatik munosabat deb baholanadi. Bunday munosabat natijasida *k* fonemasining *g* allofonemasi, *q* fonemasining *g'* allofonemasi yuzaga keladi, demak, fonemaning allofonemasi bu yerda bir til birligining (lisoniy birlikning) ikkinchisiga tovush jihatdan ta'siri tufayli yuzaga keladi, fonema allofonemalar zanjiri sifatida namoyon bo'ladi.

2) Ikkinchchi bo'g'inida tor ovoz tovush qatnashadigan ikki bo'g'inli o'zbekcha tub leksemalarga nisbatlovchi qo'shilganida bu ovoz tovush talaffuz qilinmaydi:

a) *i* tovushi: *o'g'il + im + Ø II* > *o'g'lim + Ø II, o'rin + i + dan* > *o'rnidan, ko'ngil + i + ga* > *ko'ngliga, bag'ir + ing + ga* > *bag'ringga, singil + im + ni* > *singlimni* kabi;

b) *u* tovushi: *burun + ing + ga* > *burningga* kabi.

Bunday tovush hodisisi ikki bo'g'inli o'zbekcha tub ot leksemalarning ayrimlarida-gina voqe bo'ladi. Bu yerda tovush talaffuz qilinmaydi-yu, lekin fonema yo'qolmaydi, balki segment holatdan supersegment holatga o'tadi, fonemaning nol ko'rsatkichli allofonemasi yuzaga keladi, fonema *i – Ø, u – Ø* allofonemalari zanjiri sifatida namoyon bo'ladi: *o'rin + i + dan* > *o'r [Ø] nidan* kabi. Ko'rindiki, bu yerda ham allofonema til birliklarining – leksema bilan morfemaning tovush jihatidan o'zaro ta'siri natijasida yuzaga keladi.

**12- §.** Ot leksemashakl kesim vazifasida kelsa, bunday leksemashaklning uchinchi qolipi voqe bo'ladi. Bu yerda turlovchi morfemadan keyin tuslovchi morfema (Ts) qo'shiladi. Uchinchi qolip:

1) birinchi qolip asosida tuziladi: OL + S + Tr + Ts. Bunday ot leksemashakl tarkibida odatda birlik son shakli, bosh kelishik shakli va III shaxs tuslovchisi qatnashadi: (*Atrofi* –) *gulzor* + Ø I + Ø II + Ø III;

2) ikkinchi qolip asosida tuziladi: OL + S + Nch + Tr + Ts. Bunday ot leksemashakl ham asosan bosh kelishik shaklida bo‘ladi: (*Bular* –) *qarindosh* + *lar* + *im* + Ø II + Ø III. Ko‘rinadiki, yuqoridaq ikki tur ot leksemashakl tarkibida tuslovchi qo‘shiladigan asos ham mavjud.

**13- §.** Ot leksemashakllarning noperadigmatik morfemalar qatnashadigan qoliplari ham mavjud:

1. Tarkibida *-lar* hurmat shakli yasovchisi qatnashadigan ot leksemashakl quyidagicha tuziladi: OL + S + Nch + *lar* + Tr. Bunday ot leksemashakl sonlash paradigmasining birlik shaklida ishlataladi, chunki *-lar* hurmat shakli yasovchisining qatnashuvi shuni talab qiladi; demak, bu yerda sonlash paradigmasi bilan hurmat shakli yasovchisi orasida zinch sintagmatik munosabat mavjud: OL + Ø I + Nch + *lar* + Tr. Masalan, *opa* + Ø I + *m* + *lar* + *ni* kabi.

Ko‘rinadiki, ushbu to‘rtinchi qolip ikkinchi qolip asosida, o‘sha qolipning *-lar* ko‘plik shaklini, *-lar* ko‘rsatkichi qatnashadigan nisbatlovchilarini istisno qilgan holda tuziladi. Bu qolipda hurmat shakli yasash asosi mavjud.

2. Tarkibida *-niki* xoslik shakli yasovchisi qatnashadigan ot leksemashakl:

1) birinchi qolip asosida tuziladi: OL + S + *niki*.. Ushbu qolipda *-niki* morfemasidan keyin:

a) turlovchi qo‘shiladi: OL + S + *niki* + Tr: *Bahodir* + Ø I + *niki* + ga kabi;

b) tuslovchi qo‘shiladi: OL + S + *niki* + Ts: *Bahodir* + Ø I + *niki* + Ø III kabi;

2) ikkinchi qolip asosida tuziladi: OL + S + Nch + *niki*.. Bu yerda:

a) turlovchi qo‘shiladi: OL + S + Nch + *niki* + Tr: *aka* Ø I + *m* + *niki* + ga kabi;

b) tuslovchi qo‘shiladi: OL + S + Nch + *niki* + Ts: *aka* + Ø I + *m* + *niki* + Ø III kabi.

Ko‘rinadiki, *-niki* morfemasi qatnashadigan ot leksemashaklning o‘zi doirasida to‘rt qolip mavjud. Bu qoliplarda xoslik shakli yasash asosi ajratiladi.

3. Tarkibida *-dagi* o‘ringa nisbat berish morfemasi qatnashadigan ot leksemashakl yuqorida tasvirlangan barcha qoliplardan keskin farq qiladi: a) *-dagi* morfemasi tarkibidagi *-da* turlovchisi ot leksemashakl tarkibida o‘zidan oldin turlovchi morfema qo‘shilishini rad etadi; b) *-dagi* morfemasi tarkibi-

dagi -gi nisbiy sifat yasovchisi tufayli -dagi morfemasi atributiv (belgi) shakl yasovchisi mavqeiga ega bo'ladi, o'zidan keyin turlovchi morfema qo'shilishi rad etadi, -dagi morfemasi ot leksemashakl tarkibida tugallovchi morfema sifatida qatnashadi.

Tarkibida -dagi morfemasi qatnashadigan ot leksemashakl:

1) birinchi qolip asosida tuziladi: OL + S + *dagi*: *shahar* + Ø I + -*dagi* (*ko'chalar*) kabi;

2) ikkinchi qolip asosida tuziladi: OL + S + Nch + *dagi*: *qo'l* + Ø I + i + *dagi* (*kitob*) kabi;

3) -niki morfemasi qatnashadigan ikkinchi qolip asosida tuziladi: OL + S + Nch + *niki* + *dagi*: *qo'shni* + *lar* + *imiz* + *niki* + *dagi* kabi.

Ko'rinadiki, bu yerda o'ziga xos uch qolip mavjud bo'lib, ular tarkibida o'ringa nisbat berish asosi ajratiladi.

4. Tarkibida -cha ko'makchi-affiksi qatnashadigan ot leksemashakl qolipi bu morfemani:

1) birinchi qolip oxiriga qo'shib tuziladi: OL + S + Tr + *cha*: *qurt-qumursqa* + *lar* + *ga* + *cha* (= *qurt-qumursqalarga qadar*) kabi;

2) ikkinchi qolip oxiriga qo'shib tuziladi: OL + S + Nch + Tr + *cha*: *kitob* + *lar* + *imiz* + *ga* + *cha* (= *kitoblarimizga qadar*) kabi.

Adabiyotlarda -gacha yaxlit holda qo'shma affiks deb ham talqin qilinadi. Shu fikrga qo'shilsak, bu affiks qatnashadigan ot leksemashakl quyida gicha tuziladi deyish lozim bo'ladi: a) OL + S + *gacha*: *qurt-qumursqa* + *lar* + *gacha*; b) OL + S + Nch + *gacha*: *kitob* + *lar* + *imiz* + *gacha* kabi. Birinchi nuqtayi nazarga ko'ra yangi qolip birinchi, ikkinchi qolip oxiriga -cha ko'makchi-affiksini qo'shib tuziladi, ikkinchi nuqtayi nazarga ko'ra -dagi morfemasi qatnashadigan holatga o'xshash qoliqlar hosil qilinadi.

5. O'xshatish ma'nosini ifodalaydigan -day affiks-ko'makchisi yuqorida tasvirlangan ot leksemashakllarning (-gacha morfemasi qatnashadigan ko'rinishlaridan tashqari) deyarli barchasi oxiriga, faqat tuslovchidan oldin qo'shiladi:

- 1) *daryo* + Ø I + Ø II + *day* (*toshib*),
- 2) (*xo'rozning*) *toji* + Ø I + *si* + Ø II + *day*,
- 3) (*odamning*) *bel* + Ø I + i + *day* + Ø III,
- 4) *ona* + Ø I + m + *lar* + Ø II + *dek*,
- 5) *aka* + *lar* + i + *niki* + *dek*,
- 6) *shahar* + Ø I + *dagi* + *dek*,
- 7) *aka* + Ø I + *si* + *niki* + *dagi* + *dek* kabi.

Ko'rinaridiki, bu qolipda o'xshatish shakli yasash asosi mavjud.

6. Ko'makchi qatnashadigan ot leksemashakl alohida qolip sifatida ajratilishi lozim, chunki ko'makchi ot leksemashaklning tarkibiy qismi bo'ladi. Ma'lumki, ko'makchi analitik grammatik shakl hosil qilib, o'zidan oldingi asosga kelishik morfemasi bilan birgalikda qo'shiladi:

1) *bilan, uchun, kabi, singari, sayin* kabi ko'makchilar bosh kelishik shakli bilan birgalikda qo'shiladi: OL + S + [Nch] + Ø II + ko'makchi: *ketmon + Ø I + Ø II + bilan, boy tog'a + Ø I + m + Ø II + uchun, minut + Ø I + Ø II + sayin, odam + Ø I + Ø II + kabi;*

2) *ilgari, burun, so'ng, keyin, beri, buyon* kabi ko'makchilar chiqish kelishigi shakli bilan birgalikda qo'shiladi: OL + S + [Nch] + dan + ko'makchi: *mashg'ulot + Ø I + dan oldin || ilgari, tushlik + Ø I + dan keyin || so'ng; uka + Ø I + m + dan oldin yoki keyin, bir oy + Ø I + dan + beri || buyon;*

3) *qadar* ko'makchisi jo'nalish kelishigi shakli bilan birgalikda qo'shiladi: OL + S + ga qadar: *shu payt Ø I + ga qadar* kabi.

7. Ot leksemashakl tarkibida dastlab juz'iy hodisa sifatida -cha, -choq kichraytirish affikslari, iliq munosabat ma'nosini ifodalaydigan -gina affiksi, -jon, -boy, -xon, -oy affiksoidlari qatnashuvni mumkin. Bu morfemalardan har biri qatnashsa, yuqorida tasvirlangan qoliplarning ko'rinishlari yana ham ko'payadi.

14- §. O'zbek tilida ayni bir leksemaning predmet ma'nosini ham, belgi ma'nosini ham anglatish hodisasi mavjud. Asli predmet ma'nosini anglatadigan ot leksema ma'no taraqqiyoti natijasida belgi ma'nosini ham anglatada boshlagan: *bosh-* — 'gavdaning bo'yindan yuqori qismi' (predmet ma'nosи), *bosh* — 'birinchи', 'asosiy', 'muhim' (belgi ma'nolari) kabi. Ot leksemada bunday belgi ma'nosini asosan o'xshatish yo'li bilan yuzaga kelgan: *tosh-* — 'qattiq tog' jism' — *toshdek qattiq* → *tosh nok-, tosh qurut-, tosh oyna-* kabi. *Mosh rang-, oltin kuz-* kabi birikmalarda ham ot leksema belgi ma'nosini bilan qatnashadi. Umuman, bir leksema bilan predmet va belgi ma'nosining ifodalanishi hodisasi maxsus o'rganilishi lozim.

Ot leksema belgi ma'nosini bilan ishlataliganida go'yo sifat leksemaga tenglashadi: *qattiq nok-* birikmasida bo'lgani kabi *tosh nok* birikmasida ham *tosh* leksemashakli sonlash va turlash paradigmalari ko'rsatkichlarini olmagan holda shakllanadi.

### Sifat leksemashakllar tizimi

1- §. Sifat leksemaga shakl o'zgarishi xos emas; lekin sifat leksema ot leksemaga to'g'ridan to'g'ri bog'lanmaydi. Sifat leksema bilan (SL) sifat lek-

semashakl (SLsh) o'zaro qism bilan butun munosabatini aks ettiradi: Sifat leksemashakl yuzaga kelishi uchun sifat leksema ma'lum bir sintaktik vazifa bajara oladigan shaklga kirishi lozim. Sifat leksema bajaradigan birlamchi sintaktik vazifa – sifatlovchi bo'lish. Demak, sifat leksemashakl yuzaga kelishi uchun sifat leksemaga 'sifatlovchi' sintaktik semasi qo'shiladi, shunga ko'ra "sifat leksema + 'sifatlovchi' sintaktik semasi = sifat leksemashakl" qolipi haqida gapirish mumkin. Sifat leksemashakl nutqda asosan ana shu ko'rinishda namoyon bo'ladi: *jirkanch hasharot, otashin nutq, ozg'in barmoqlarini, sevimli ashulasini, quvnoq kulgi bilan, qalin sochlarni, qoloq xo'jaliklarni, katta qurilishlar, kechki shabada, kulrang osmon, shirin suhbat, qaynoq suv, loyqu daryo, yengil kuy, yovvoyi o'tlar va b.*

2- §. Sifat leksema fe'l leksemaga bog'lanib, hollovchi vazifasida kelganida sifat leksemaga 'hollovchi' sintaktik semasi qo'shiladi: "sifat leksema + 'hollovchi' sintaktik semasi = sifat leksemashakl". Demak, sintaktik vazifa bilan bog'liq holda sifat leksemashaklning ikkilamchi qolipi voqe bo'ladi. Bunday qolip asli ravish leksema uchun birlamchi qolip hisoblanadi: *yaxshi tozalanmagan, shavqatsiz qovjirata boshladi, qattiq dahshatga soldi, sirli ko'rindi kabi.*

3- §. Sifatlovchi vazifasida kelgan leksemashaklning ot sifatlanmishi tushirilgani (ellipslangani) natijasida sifatlanmishga qo'shiladigan morfema sifatlovchiga qo'shiladi, bunday holatda sifat leksemashakl ot leksemashakl qolipida namoyon bo'ladi, otlashish yuz beradi. Buning asosiy ko'rinishlari quyidagicha:

1. SL + S + Tr:

1) SL+Ø I+Tr: a) SL+Ø I+ning: *u n o k a s n i n g va'dasi*, b) SL + ØI + ni: *chalasavod bir n o d o n n i*, d) SL + Ø I + dan: *b a l a n d d a n tushib, m a y d a - ch u y d a d a n kabi*;

2) SL + lar + Tr: a) SL + lar + Ø II: *b e m o r l a r yo'q edi, keksalar bir chekkada, ba'zilar bosh egib, b o sh q a l a r ham kabi*; b) SL + lar + ni: *k e k s a l a r n i*, d) SL + lar + ga: *b o sh q a l a r g a*, g) SL + lar + dan: *b o sh q a l a r d a n kabi*;

3) SL + lar + dagi: *yaqin-yiroqlardagi*;

4) SL + lar + (Ø II + uchun): *boshqalar uchun*;

5) SL + lar + (Ø II + day): *eski qadrdonlarday*;

6) SL + lar + Nch + Tr: *qishloqning k a z o - k a z o l a r i; bularning h a m m a s i, bularning h a m m a s i d a n kabi*.

4- §. Sifat leksema kesim vazifasida kelganida sifat leksemashaklning birinchi qolipi asosida quyidagicha qoliqlar tuziladi:

1) Tuslovchi qo'shiladi: (SL + 'sifatlovchi' semasi) + Ts. Bu qolip nutqda asosan III shaxs tuslovchisi qatnashgan holda uchraydi, chunki ega bo'lak ko'pincha ot leksemashakl bilan ifodalanadi: *Masala ravshan; Ko'chalar jinjit, kimsasiz; Yo'llar o'ydim-chuqur, chang; Ust-boshi g'ijim, iflos* kabi. Quyidagi misolda ega bo'lak I shaxs kishilik olmoshi bilan ifoda-langani sababli kesimga ham I shaxs tuslovchisi qo'shilgan: *Men tirkman*.

Ba'zan kesim vazifasidagi leksemashaklga yuklama qo'shiladi, lekin bu yuklama leksemashakl tarkibiga, demak, lekmemashakl qolipi tarkibiga kirmaydi: *Yosh-da, baribir yosh* kabi.

2) Bog'lama vazifasida kelgan *bo'l-* ko'makchi fe'li qo'shib, turli shakllarda ishlatalidi: *ish qizg'in bo'lgani uchun, urushdan bir ko'zi ko'r bo'lib kelgan, Odamlar betoqat bo'la boshladi, undagi o'zgarishdan mamnun bo'lib* kabi. Bu yerda sifat leksemashaklning "(SL + 'sifatlovchi' sintaktik semasi) + *bo'l-* + shakl hosil qiluvchi" qolipi haqida gapirish mumkin.

3) *edi, ekan, emas* affiksoidlari va ularga odatda III shaxs tuslovchisi qo'shiladi: (SL + 'sifatlovchi' sintaktik semasi) + *edi* || *ekan* || *emas* *ekan*: *Toshxo'ja kamgap emas ekan* kabi.

5- §. Belgingin sifat leksema anglatadigan rangga moyilligini ifodalaydigan *-sh*, *-mtir* affikslari qo'shilgan sifat leksema "(sifat leksema + *sh* | *mtir*) + 'sifatlovchi' sintaktik semasi = leksemashakl" ko'rinishida namoyon bo'ladi; demak, bu yerda sifat leksemashaklning birinchi qolipi shakl yasovchi morfemali sifat leksema bilan tuziladi: *ko'kish kastum, sarg'ish pichanzor, ko'kimtir rangga kirgan, qoramfir tusga kirgan* kabi.

*Sariq-* leksemasiga *-sh* affiksi qo'shilganida: a) Oldin leksema oxiridagi *q* tovushi *g'* tovushiga almashadi, natijada *q* fonemasining *g'* allofonemasi yuzaga keladi: *sariq + ish > sarig'ish-*; b) Shundan keyin ikkinchi bo'g'indagi *i* tovushi talaffuz qilinmay qo'yadi, natijada *i* fonemasining nol ko'r-satkichli allofonemasi yuzaga keladi: *sarig'ish- > sar[i]g'ish- > sarg'ish-*. Bu yerdagi tovush o'zgarishlari leksema bilan morfema orasidagi zikh sintagmatik munosabat natijasida voqe bo'ladi.

Hozirgi o'zbek tilida *sarg'ish-* leksemasiga o'xshash bo'lib qolgan *qizg'ish-* leksemasining tarkibi asli boshqacha izohlanadi: tarixan 'qizil tusga kir-' ma'nosini anglatgan *qiz-* fe'l leksemasiga *-g'u* affiksini qo'shib *qizg'u*-sifat leksemasi yasalgan va unga 'biroz' ma'nosini ifodalaydigan *-sh* affiksi qo'shilgan: (*qiz + g'u = qizg'u-*) + *sh* = *qizg'ush-*; keyinchalik *i* va *u* tovushlari *i* tovushiga almashgan: *qizg'ush- > qizg'ish-*. Demak, *qizg'ish-* leksemasi hozirgi o'zbek tili nuqtayi nazaridan tub deb qaraladi: *qishg'ish barg-*; *qizg'ish tusli novdalar-* kabi.

**6- §.** 1. Sifat leksemaga 'biroz' ma'nosini ifodalaydigan *-roq* affiksini qo'shib tuzilgan leksemashakl har uch sintaktik vazifada keladi: 1) sifatlovchi vazifasida: *kattaroq baliqlarni, bu bo'shangroq yigit bilan kabi*; 2) hollovchi vazifasida: *yana-da yaqinroq sezə boshladi, mahkamroq ushlab olib, bezovtarroq gursillay boshlaganini kabi*; 3) kesim vazifasida: *hammasidan ortiqroq bo'ladi; salobatiroq, ulug'vorroq edi kabi*.

2. Sifat leksemaga 'iliq munosabat' ma'nosini ifodalaydigan *-gina* affiksini qo'shib tuzilgan leksemashakl sifatlovchi va hollovchi vazifalarida keladi: 1) sifatlovchi vazifasida: *kattagina tovuq katagi, kichkinagina o'choqboshi, chog'roqqina bir xona kabi*; 2) hollovchi vazifasida: *mujmalgina javob berdi, tuzukkina yog'a boshladi kabi*.

Leksemaga ushbu affiks qo'shilishida asos bilan affiks orasida tovush jihatidan zikh sintagmatik munosabat voqe bo'ladi: *k* fonemasi bilan tugaydigan leksemaga bu affiksning *-kina* allomorfemasi, *-q* fonemasi bilan tugaydigan leksemaga *-qina* allomorfemasi qo'shiladi; demak, bu yerda sintakmatik munosabat natijasida *g* fonemasining *k*, *q* allofonemalari yuzaga keladi, *g* fonemasi *g - k - q* zanjiri tarzida narnoyon bo'ladi.

**7- §.** Sifat leksemashakllar quyidagicha tuzilishlarga ham ega:

1. Sifat leksema oldidan 'kuchaytirish' ma'nosini ifodalaydigan *eng, juda, g'oyat* kabi affiksoidlardan birini keltirish bilan tuziladi:

1) sifatlovchi vazifasida keladi: *eng baxtiyor damlar, juda chiroyli xotin, g'oyat asabiy holatda kabi*;

2) hollovchi vazifasida keladi: *juda sovuq qarshi oldi*;

3) kesim vazifasida keladi: *o'zidan juda norozi edi kabi*.

2. Sifat leksema oldidan uning bosh qismini qo'shib tuziladi. Noto'liq takror deb yuritiladigan bu hodisaning ko'rinishlari sifat leksemalar bayonida tasvirlandi; bu yerda sintaktik vazifasini ayтиб misol keltirish kifoya: 1) asosan sifatlovchi vazifasida keladi: *sap-sariq qirlar, oppoq paxta gardi kabi*; 2) hollovchi vazifasida keladi: *oppoq yaraqlab turgan, tappa-tuzuk ishlagan kabi*.

3. Sifat leksemani takrorlab tuziladi: "leksema + ayni shu leksema". To'liq takror deb yuritiladigan bu fiodisa odatda 'shunday belgisi bor bir necha' ma'nosini ifodalashga xizmat qiladi: 1) sifatlovchi bo'lib keladi: *yirik-yirik tomchilar kabi*; 2) asosan hollovchi bo'lib keladi: *chuqur-chuqur nafas ola boshladi, qattiq-qattiq chiriglar edi kabi*.

### Ravish leksemashakllar tizimi

**1- §.** Ravish leksema asosan hollovchi vazifasida keladi; ravish leksemashakl ravish leksemaga 'hollovchi' sintaktik semasini qo'shib hosil qilinadi:

"ravish leksema + 'hollovchi' sintaktik semasi = ravish leksemashakl": *darrov javob bermadi, kamtarona bosh egib, asta sirpanib, sekin ingragani, bultur yozgan xatlarimni, kechqurun ekib bo'lishdi, oldin devorni teshib, erta turib, endi ko'rayotgandek, yana chaqirdi, ilgariroq boshlangan, juda sekin yuradi, tez-tez aylanadigan, erta-indin boshlanadi* kabi.

2- §. Ayrim ravish leksemalar ot leksemaga bog'lanib sifatlovchi vazifasida keladi, shunga ko'ra bunday ravish leksemaga 'sifatlovchi' sintaktik semasi qo'shiladi: "ravish leksema + 'sifatlovchi' sintaktik semasi = ravish leksemashakl". Bunday qolip asli — sifat leksema uchun birlamchi, ravish leksema uchun esa ikkilamchi: *ko'p yillardan beri, sal yiroqqa ko'chirilsa, yana ikki oydan so'ng, ko'pgina mikroblar, kengroq maydon, eng oz miqdor* kabi.

3- §. Ayrim ravish leksemalar kesim vazifasida ham ishlataladi, bunda ravish leksemashakl qolipi quyidagicha tuziladi: "ravish leksema + Ts": *Uning dushmanlari ko'p* kabi.

4- §. Sifatlovchi vazifasida kelgan ravish leksemashaklning ot sifatlanmishi tushirilishi oqibatida sifatlanmishga qo'shiladigan morfema sifatlovchi vazifasidagi ravish leksemashaklga qo'shiladi, shuning natijasida ravish leksemada otlashish yuz beradi. Demak, bunday holatda ravish leksemashakl "ravish leksema +S+Tr" qolipida namoyon bo'ladi. Buning asosiy ko'rinishlari quyidagicha:

1) "ravish leksema +ØI+Tr": a) Ø I+ dan: *boshliqni uzoqdan ko'rgan oshpaz, bugundan boshlayver, ertadan boshlab, ertalabdan oq* kabi; b) Ø I + ga: *kechga yaqin, Ishlari orqaga keta boshladi*; v) Ø I + da: *tongotarda kirib borsa, Namozgarda qorong'i tusha boshlagan* kabi.

2) "ravish leksema + lar + Tr": *ko'plar yopirilib kelardi* kabi;

3) "ravish leksema + Ø I + (Tr + ko'makchi)": a) Ø I + dan keyin: *tushdan keyin, birozdan keyin*; b) Ø I + dan buyon: *ko'pdan buyon* kabi; v) Ø I + ga qadar: *alla-pallaga qadar* kabi;

4) "ravish leksema + Ø I + ga + cha": *anchagacha, azongacha* kabi;

5) "ravish leksema + Ø I + dagi": *azondagi, orqaroqdagi* kabi.

5- §. Ravish leksemaga sonlovchi, nisbatlovchi va turlovchi qo'shilib, "ravish leksema + S + Nch + Tr" qolipi ham namoyon bo'ladi:

1) Ø I + si + ga: *ertasiga* kabi;

2) Ø I + si + dan: *ertasidan* kabi;

3) -lar + i + ga: *ko'plariga* kabi.

Yuqorida tasvirlangan hodisani *birdaniga, sidirg'asiga, baravariga, rostakamiga* kabi ravish leksemalardan farqlash lozim, chunki bunday ravish

leksemalarda sonlovchi, nisbatlovchi, turlovchi ravish leksemaning doimiy tarkibiy qismi hisoblanadi.

Sifat va ravish turkumlari leksemashakllari tasviridan ayon bo'ladiki, ravish leksemashakl qoliplari sifat leksemashakl qoliplari bilan deyarli bir xil; asosiy farq sifatlarda "leksema + 'sifatlovchi' sintaktik semasi" qolipi birlamchi bo'lsa, ravishlarda "leksema + 'hollovchi' sintaktik semasi" qolipi birlamchi.

### Son leksemashakllar tizimi

1- §. Son leksemalarga shakl o'zgarishi xos emas. Son leksema asosan sifatlovchi vazifasida keladi, shunga ko'ra unga 'sifatlovchi' sintaktik semasi qo'shiladi: "leksema + 'sifatlovchi' sintaktik semasi = leksemashakl" qolipi voqe bo'лади. Son leksemalarning jamlovchi son turidan tashqari barcha turlari odatda yuqoridagi qolip bo'yicha ishlataladi: a) sanoq son: *o'n kishi* kabi; b) dona son: *o'nta kitob* kabi; d) chama son: *uch-to'rt kun* kabi; e) taqsim son: *ikkitadan daftар berdi* kabi; f) kasrli son: *ikki yarim yil* kabi; g) tartib son: *to'rtinchи sinf* kabi.

2- §. Oz bo'lsa-da, son leksema hollovchi vazifasida ham keladi, bunda "leksema + 'hollovchi' sintaktik semasi = leksemashakl" qolipi namoyon bo'лади: *bir garab qo'ydi, ikki bukilib* kabi.

3- §. Dona son turi kesim vazifasida kelganida unga tuslovchi qo'shiladi, "son leksema + Ts" qolipi hosil bo'лади: *Ukam - ikkita, singlim - to'rtta* kabi.

4- §. Jamlovchi son o'z tabiatiga ko'ra ot tur son bo'gani uchun odatda nisbatlovchi va turlovchi qo'shilib ishlataladi, demak, ot leksemashakl qolipi namoyon bo'лади: *ikkalamizni, ikkovimizni* kabi. Ot leksemashakldan farqli holda jamlovchi son leksemashakli tarkibida nisbatlovchilarning faqat ko'plik shakli ishlataladi: bunday son leksema birdan ortiq miqdorni anglatgani sababli nisbatlovchining ko'plik shakli qo'shiladi. Demak, bu yerda leksema bilan morfema orasidagi ma'no jihatidan zinch sintagmatik munosabat namoyon bo'лади. Ushbu leksemashakl qolipini quyidagicha aniq yozib ko'rsatish mumkin: "jamlovchi son + ko'plik nisbatlovchisi + turlovchi". Nisbatlovchi sanoq songa ham qo'shib ishlataladi: *onam ikkimiz* kabi.

Jamlovchi sonning -ala affiksi bilan yasaladigan turi ba'zan sifatlovchi vazifasida keladi, bunda son leksemalarga xos asosiy qolip namoyon bo'лади: *ikkala do'st* kabi.

5- §. Sanoq sonlar matematikada miqdor nomi sifatida ishlataladi, shunga ko'ra ot leksemashakl qolipida namoyon bo'лади: *Beshdan ikkini olsak, uch qoladi. Besh ikkiga bo'tinmaydi* kabi.

*Yetti, yigirma, qirq* sanoq sonlari marosim nomlari sifatida ot leksemaga teng bo'ladi, "leksema + Nch + Tr" qolipida ishlataladi: *Onamizning yigirma-sini ertaga o'tkazamiz* kabi.

### Olmosh leksemashakllar tizimi

**1- §.** Olmoshlarda leksemashakl qoliplari ular qaysi turkum olmoshi ekaniga bog'liq holda voqe bo'ladi. Jumladan, kishilik olmoshlarida o'ziga xos leksemashakllar qolipi tizimi mavjud.

Ot olmosh bo'lgani uchun kishilik olmoshlari turlanadi. Son ma'nosi *men-*, *sen-*, *biz-* 1, *biz-* 2, *siz-* 1, *siz-* 2 olmoshlarida asosning o'zi bilan, *senlar-*, *bizlar-*, *sizlar-* olmoshlarida esa affiks bilan ifodalanadi, shunga ko'ra bu olmoshlarda leksemashakl qolipi ikki xil: a) "leksema + Tr": *Siz ketaver-ning* kabi; b) "leksema + lar + Tr": *sizlardan ayrilib* kabi.

Grammatik ma'no ko'makchi bilan ifodalansa, leksemashakl qolipi quydagicha tus oladi: "leksema + (Tr + ko'makchi)": *Men bilan gaplashasiz* kabi.

Bu olmoshlar kesim vazifasida kelsa, "leksema + Tr + Ts" qolipi voqe bo'ladi. Masalan, quyidagi misollarda *siz-* olmoshi *bo'l-* bog'lamasi qatnashgan holda kesim vazifasida kelgan: *Tashkilotning rahbari siz bo'lasizmi? Ixtiyor menda bo'lsa, ..* kabi.

Ushbu tur olmoshlarga *-niki* morfemasi qo'shilsa, "leksema + *niki* + Tr" va "leksema + *niki* + Ts" qoliplari namoyon bo'ladi: *biznikiga ketamiz; Bu kitoblar — meniki* kabi.

Bunday olmoshga *-dagi* morfemasi qo'shilsa, "leksema + *dagi*", "leksema + *niki + dagi*" qoliplari voqe bo'ladi: *mendagi, biznikidagi* kabi.

Kishilik olmoshiga ba'zan *-siz* inkor morfemasi ham qo'shiladi, bunda leksemashakl qolipi "leksema + S + siz" tarzida voqe bo'ladi: *Sensiz || Sen-larsiz ne tashvishlar tushdi boshimga!* kabi.

III shaxs kishilik olmoshida son ma'nosi morfema bilan ifodalanadi, shunga ko'ra "leksema + S + Tr" qolipi namoyon bo'ladi: a) *U tavakkal qilib, uning oilasi, uni yotoqqa boshladi* kabi; b) *ular ko'pchilik emas edi, ularning dilida, ulardan sado chiqmadi* kabi.

III shaxs birlik kishilik olmoshiga makon kelishigi affiksi qo'shilganida bu olmosh *un-* shaklida qatnashadi; demak, bu yerda leksema asosi bilan affiks orasida zikh sintagmatik munosabat namoyon bo'ladi: makon kelishigi affiksi bu olmoshning azaliy shaklida kelishini talab qiladi, lekin *ul-* emas, *un-* shaklida ishlataladi: *undan ancha keyin, unga qiyo boqib* kabi.

Ko'makchi qatnashsa, leksemashakl qolipi quyidagicha tus oladi: "leksema + S + (Tr + ko'makchi)": *u bilan kengashib, ular uchun yangilik emas* kabi.

2- §. Predmetning belgisini ifodalaydigan olmoshlar odatda sifatlovchi bo'lib keladi, shunga ko'ra sifat leksemalarga xos "leksema + 'sifatlovchi'" sintaktik semasi = leksemashakl" qolipi namoyon bo'ladi:

1) so'roq olmoshlarida: a) *qanday zo'ravonlik*, b) *qancha foyda*;

2) guman olmoshlarida: a) *qandaydir shovqin*; b) *allaqanday shubhalar, allanechuk xotirjamlik*;

3) belgilash olmoshlarida: *har qanday yo'l bilan, har qanaga kitobdan* kabi.

Harakatning belgisini ifodalaydigan olmoshlar odatda hollovchi bo'lib keladi, shunga ko'ra "leksema + 'hollovchi'" sintaktik semasi = leksemashakl" qolipi namoyon bo'ladi:

1) so'roq olmoshlarida: *Nega boshgalarga mumkin-u,..; Jang qachon boshlandi?*;

2) guman olmoshlarida: *negadir jilmaydi, qandaydir qimtinib*;

3) belgilash olmoshlarida: *har qancha kuysak*;

4) bo'lishsizlik olmoshlarida: *hech qachon boshyalang ko'rmagan* kabi.

Predmetning belgisini ifodalaydigan olmosh ham ba'zan fe'l leksemaga bog'lanib, "leksema + 'hollovchi'" sintaktik semasi = leksemashakl" qolipida namoyon bo'ladi:

1) sifat olmosh: *qanday o'tirgan bo'lsa*;

2) son olmosh: *qancha urinmasin* kabi.

3- §. 1. Ot guman olmoshining *kimdir, nimadir* turi "leksema + Tr + dir" qolipi ega: -dir asli guman yuksamasi bo'Igani sababli leksemashaklga turlovchidan keyin qo'shiladi: *kimningdir tashvishidan, nimalarnidir yozar edi* kabi.

2. Ot so'roq olmoshlariga ba'zan nisbatlovchi qo'shiladi, natijada "leksema + Nch + Tr" qolipi haqida gapirish lozim bo'ladi: *Axir senlardan boshqa kimim ham bor?!, Yegani nimang bor?!* kabi.

Bunday tuzilishli leksemashakl kesim vazifasida kelsa, "leksema + Nch + Tr + Ts" qolipi namoyon bo'ladi: *Siz kim bo'lasiz?* kabi.

4- §. Ko'rsatish birliklari sifat tabiatli bo'lib, odatda sifatlovchi vazifasida keladi, shunga ko'ra "leksema + 'sifatlovchi'" sintaktik semasi = leksemashakl" qolipida ishlatiladi: *bu yerda, shu boshqarmaning, u kishiga, o'sha kuniyoq* kabi.

Bu tur birliklar kesim vazifasida kelsa, "leksema + Ts" qolipiga tushadi: *It kuni boshiga tushgani — shu!* kabi.

Ko'rsatish birliklari otlashsa, "leksema + S + Tr", "leksema + S + (Tr + ko'makchi) qolipiga tushadi: *shuni aytmogchi edim, uyining to'rini shularga bo'shatib beradi, bularni ko'chaning boshida qarshi oldi. Mana bu — boshqa gap!, shuning uchun, shundan keyin-gina* kabi.

#### 5- §. O'z- ta'kid birligi ikki shaklda ishlatalidi:

1. Sonlovchi, nisbatlovchi va turlovchi qo'shiladi, shunga ko'ra "leksema + S + Nch + Tr" qolipida ishlatalidi; asli sonlovchining faqat birlik shakli qo'shiladi, shunga ko'ra qolipni "leksema + Sb + Nch + Tr" tarzida yozib ko'rsatish to'g'ri: *o'zi boshlab kiradi, o'zining o'rniga, o'zini tutolmay, o'ziga qaramasa ham, o'zimga o'xshagan yetimlar, o'zingni ko'rsat, o'zingiz bilasiz* kabi.

*Jo'raboshi o'zları bo'ladilar* kabi ishlatishdagi *-lari* — III shaxs birlik nisbatlovchisining sizlash shakli.

2. Grammatik ko'rsatkich qo'shilmaydi, bunda go'yo sifat leksemashakl qolipi namoyon bo'ladi: "leksema + 'sifatlovchi' sintaktik semasi = leksemashakl": *o'z hukmini, o'z taxminlarini, o'z gapidan* kabi.

### Fe'l leksemashakllar tizimi

1- §. Fe'l leksemashakllar murakkab tarkibli bo'lib, quyida ikki qismga ajratib tasvirlanadi: 1) fe'lning boshqa turkumlarga monand (ottosh, sifatdosh, ravishdosh) leksemashakllari, 2) fe'lning tuslanishli leksemashakllari.

Fe'lning ottosh, sifatdosh, ravishdosh shakllarini yasovchi morfemalar qo'shilgungacha fe'l leksema bir necha grammatik hodisa bo'yicha tavsif olgan bo'ladi.

Avvalo fe'l leksemalar o'timsiz (FLsiz) va o'timli (FLli) deb ajratiladi. O'timsiz fe'l leksemaga ko'pincha bevosita bo'lishli-bo'lishsizlik (B) paradigmasing ko'rsatkichi qo'shiladi, natijada fe'l leksemashaklning sifatdosh, ravishdosh yasovchisi qo'shiladigan oldingi qismi "FLsiz + B|" tarkibiga ega bo'ladi. Bo'lishli (BLi) va bo'lishsiz (BSiz) shakl ko'rsatkichlarini hisobga ol-sak, bu tarkibning ikki ko'rinishi namoyon bo'ladi: "FLsiz + BLi |" va "FLsiz + BSiz |".

Ayrim o'timsiz leksemalarga *-msira, -qira, -uu* noperadigmatik morfemalari qo'shiladi, natijada yuqoridagi tarkib "FLsiz + msira || nqira || sh + Bli |" va "FLsiz + msira || nqira || sh + Bsiz |" shaklini oladi. Bu tarkibda qat-nashadigan *-sh* asli omoaffiks bo'lib, 'biroz' ma'nosini (*oqarishib* misolidagi kabi) va 'ko'plik' ma'nosini (*kulishib* misolidagi kabi) ifodalaydi. Omoaffiks-

larni ham farqlab ko'rsatsak, yuqoridagi ikki tarkibning yana ikki ko'rinishi namoyon bo'ladi.

O'timsiz FLga orttirma affiksi (Ort) qo'shilsa, o'timlilashgan FL yuzaga keladi va nisbat ma'nosini ifodalashga molik bo'ladi, natijada "FLsiz + Ort + N + B |" tarkibi namoyon bo'ladi. Bunday qurilma asosan aniq nisbatda (Na), ba'zangina majhul nisbatda (Nm) ishlataladi, natijada ushbu tarkibning "FLsiz + Ort + Na + Bli |", "FLsiz + Ort + Nm + Bli |", "FLsiz+Ort+Na+Bsiz |", "FLsiz + Ort + Nm + Bsiz |" ko'rinishlari namoyon bo'ladi.

Fe'l leksemashakl qolipining otdosh, sifatdosh, ravishdosh yasalishiga asos bo'ladigan bunday qismi o'timli fe'l leksemalarda o'timsiz fe'l leksemalardagidan ko'ra murakkabroq. Eng sodda tarkib "FLli + N + B |" shakliga ega; aniq va majhul nisbatlarni, bo'lishli va bo'lishsiz shakllarni hisobga ol-sak, bu tarkib "FLli + Na + Bli |", "FLli + Nm + Bli |", "FLli + Na + Bsiz |", "FLli + Nm + Bsiz |" ko'rinishlarida namoyon bo'ladi.

Yuqoridagi tarkibda nisbat ko'rsatkichidan keyin ba'zan -sh 2 ('ko'plik'), -sh 3 ('sizlash') affiksi qatnashadi, natijada "FLli + Na + sh 2 || -sh 3 + Bli |" tarkibi namoyon bo'ladi.

O'timli fe'lga o'zlik, birqalik shakli yasovchisi qo'shilsa, o'timsizlashadi, natijada "FLli + O'zl + B |", "FLli + Brq + B |" tarkiblari namoyon bo'ladi.

Ba'zan FLga o'zlik yasovchisidan keyin orttirma yasovchisi qo'shiladi, natijada o'timsizlashgan fe'l o'timlilashadi, aniq nisbat shakliga molik bo'ladi: "FLli + O'zl + Ort + Na + B |".

O'timli FLga orttirma yasovchisi qo'shilib, qayta o'timlilashadi, natijada "FLli + Ort + N + B |" tarkibi namoyon bo'ladi. Ushbu tarkibda orttirma yasovchisidan oldin -sh 1 ('biroz') noparadigmatik morfemasi qo'shilsa, "FLli + -sh 1 ('biroz') + Ort + Na + B |" tarkibi namoyon bo'ladi.

Ba'zan nisbat shaklidan keyin -sh 3 ('ko'plik') affiksi qatnashib, "FLli + Ort + Na + sh 3 ('ko'plik') + B |" ko'rinishi namoyon bo'ladi va b.

Yuqoridagi barcha tarkiblarda ko'makchi fe'l ham qatnashuvi mumkin, natijada tasvirlangan tarkiblarning ko'rinishlari yana ko'payadi.

Fe'l leksemashaklning oldingi qismi tarkibida o'zaro zich sintagmatik munosabat orttirma, o'zlik shakli, birqalik shakli, majhul nisbat shakli yasovchisi bilan bunday morfema qo'shiladigan asos orasida voqe bo'ladi: o'timsiz FL o'timlilashadi, o'timli FL o'timsizlashadi yoki qayta o'timlilashadi.

Fe'l leksemashaklning oldingi qismi tarkibidagi bo'lishli-bo'lishsizlik shakli bilan, qisman nisbat shakli bilan undan keyin qo'shiladigan otdosh, si-

fatdosh, ravishdosh shakli yasovchilari orasida ham o'zaro zich sintagmatik munosabat mavjud.

Asli fe'l leksemashaklning oldingi qismiga mansub hodisalar fe'llikka xos umumiy grammatik hodisalar bo'lib, keyingi shakl yasalishlariga nisbatan asosan betaraf vaziyatda bo'ladi.

Quyida fe'l leksemashakl qoliplarining yuqorida tasvirlangan oldingi qismi tarkiblarini keltirmay, otdash, sifatdosh, ravishdosh shakl yasovchilarining va shundan keyin qo'shiladigan morfemalarining o'zini tasvirlaymiz.

## **Fe'lning boshqa turkumlarga monand shakllarida leksemashakllar**

### **Ravishdosh shakllarida leksemashakllar**

2- §. Hozirgi o'zbek tilida ravishdosh shakli asosan *-b* morfemasi bilan, qisman *-al-y* morfemasi bilan yasaladi: *-gani*, *-gach*, *-guncha* morfemalari bilan yasalish oz uchraydi.

Keyingi uch morfema boshlanishidagi tovush bilan ular qo'shiladigan asos oxiridagi tovush orasida zich sintagmatik munosabat voqe bo'ladi: asos *k*, *g* tovushiga tugasa, bu affikslarning *-kani*, *-kach*, *-kuncha* allomorfemalari, *q*, *g'* tovushiga tugasa, *-gani*, *-qach*, *-quncha* allomorfemalari, boshqa tovushlarga tugasa, *-gani*, *-gach*, *-guncha* allomorfemalari qo'shiladi va b.

Ravishdosh yasovchisidan keyin boshqa morfema qo'shilmaydi, shu shaklning o'zi leksemashaklga teng bo'ladi: "... | + ravishdosh yasovchisi = leksemashakl".

3- §. *-b* affaksi bilan yasaladigan ravishdosh leksemashakli bo'lishli shakldagi asosdan yasaladi va quyidagicha vazifalarda keladi:

1) Hollovchi bo'lib keladi: *shoshib boshini ushladi*, *kulimsirab bosh chayqadi*, *oqarinqirab ko'rindi*, *qichqirib o'tirishardi*, *qadam tovushini eshitib boshini ko'tardi*, etigi bilan *narvonni do'qillatib saroyga tushib ketdi*, *boshi-gacha burkanib uxladi*, *oyoqlarini yig'ishtirib yonboshladi* kabi.

Hollovchi vazifasida kelgan *-b* ravishdosh leksemashakli takrorlab ham ishlataladi: *qotib-qotib kula boshladi*, *uzumning og'ir boshlarini ushlab-ushlab ko'rди* kabi.

Bunday hollovchi juft leksemashakl bilan ham ifodalanadi: *titrab-qaqshab olislarga chekina boshladi* kabi.

2) Uyushiq kesimning oldingi, shaxs ko'rsatmaydigan a'zosi bo'lib keladi: *idoraga borib*, *hisobchidan ish o'rgana boshladi*; *kattaroq baliglarni ajratib*, *qopga o'rab qo'ydi*; *qadahlar to'latilib*, *endi so'z boshlagan edi*; *qo'shni xonaga joyon o'rnatishib*, *uni moylashga kirishishdi* kabi.

3) Ergash gapning kesimi bo'lib keladi: *Qornimiz nonga to'yib, xonardonimizga nur kira boshladi; Kon ochilib, katta binolar tusha boshladi* kabi.

4- §. -*a/-y* ravishdosh yasovchisining -*a* allomorfemasi nutqda juda oz ishlatalidi: *Kela ishga tushib ketdi* kabi.

-*y* allomorfemasi nutqda ko'p ishlatalib, odatda bo'lishsiz shakldagi asosga qo'shiladi va hollovchi vazifasida keladi: *piyolaga quyishga ham sabri chidamay shishaning og'zidan icha boshladi; ust-boshini yechmay karavotda chalqoncha yotibdi; idoraga chaqirtirmay o'sha yerning o'zida ishni bir yoqlik qila boshlaganini ko'rganda esa* kabi. Bunday hollovchi juft leksemashakl bilan ham ifodalanadi: *uning so'zlarini oqizmay-tomizmay yozib ola boshladi* kabi.

Takror tarzida ishlataligan hollovchingin birinchi qismi bo'lishli shakldan yasalgan -*b* ravishdoshi bilan ifodalanishi uchraydi: *quloqlariga ishonib-ishonmay chiqib ketdi* kabi.

5- §. -*sdan* morfemasi asli -*s* sifatdosh yasovchisi va chiqish kelishigi afiksidan tarkib topgan qo'shma affiks bo'lib, -*y* allomorfemasiga sinonim: *ikki chaqirimcha yurmasdanoq .. lolalar ko'rina boshladi; nimadan gap boshlashini bilmasdan darrov maqtana boshladi; otasi ish boshlamasdan sinib, yer bilan yakson bo'ldi* kabi.

6- §. -*gani* ravishdoshi (Ba'zan -*gali* tarixiy shaklida ham uchraydi) bo'lishli shakldagi asosdan yasaladi, hollovchi bo'lib keladi: *Ovgatlangani endi o'tirgan edik; Uzr so'ragani boshqa payt kelaman; Sizni ichkariga taklif qilgali chiqdim* kabi.

7- §. -*gach* ravishdoshi bo'lishli shakldagi asosdan ham, bo'lishsiz shakldagi asosdan ham yasalaveradi, hollovchi bo'lib keladi: *Ota namozni o'qib bo'lgach .. devzira guruchning kurmagini tera boshladi; Chaqirgan kishisi kelavermagach ko'chaga chiqib kuta boshladi* kabi.

8- §. -*guncha* ravishdoshi ham bo'lishli va bo'lishsiz shakldagi asosdan yasalaveradi, hollovchi bo'lib keladi: *Maktabga yetguncha gaplashib ketdik; O'qishni tamomlamaguncha uylanmasligini aytdi* kabi.

Bu ravishdosh shakli juft fe'l leksemadan ham yasaladi: *Yuvinib-kiyinishguncha yo'lakda qadam tovushi ham eshitila boshladi* kabi.

Ba'zan -*guncha* morfemasi qismlari orasida nisbatlovchi ishlatalidi: *Kelgunimcha tarqalmay turinglar; O'z ko'zing bilan ko'rmaguningcha ishonma* kabi. Natijada -*guncha* ikki mustaqil affiksga ajralishi, bir morfemaga yaxlitlanib yetmaganligi ochiq ko'rindi.

### *Sifatdosh shakllarida leksemashakllar*

9- §. Hozirgi o'zbek tilida fe'ning sifatdosh shakli asosan -gan, -yotgan, -digan morfemalari bilan yasaladi; -ri-s morfemasi bilan yasalish juda oz uchraydi; -ajak, -mish, -g'usi, -asi affikslari bilan esa hozirgi o'zbek tilida sifatdosh deyarli yasalmaydi.

g tovushi bilan boshlanadigan sifatdosh yasovchisi bilan bunday morfema qo'shiladigan asos oxiridagi tovush orasida zich sintagmatik munosabat voqe bo'ladi. Bunday o'zaro ta'sir natijasida ushbu morfemalarning allomorfemalari va shularga bog'liq holda g fonemasining k, q allofonemalari yuzaga kelishi yuqorida bir necha marta ta'kidlandi.

10- §. Sifatdosh yasovchi -gan affiksi bo'lishli va bo'lishsiz shakldagi asosga qo'shilaveradi. Nutqda eng ko'p uchraydigan bu sifatdosh quyidagi shakl va vazifalarda ishlatalidi:

1. Sifatlovchi bo'lib keladi; bunda -gan affiksining o'zi leksemashakl hosil qiladi. Undan keyin boshqa affiks odatda qo'shilmaydi: "... |+gan": *bekatda turgan odamlarni, arzimagan narsadan, qalpog'ini boshiga bostirib olgan soldat, ko'k xalat kiygan xizmatchilar, oxori to'kilmagan doka ro'mol, gazniqob kiyib olishgan mexanizatorlar* kabi.

2. Ba'zan -gan affiksidan keyin sonlovchi va turlovchi qo'shiladi, natijada "... |+gan + S + Tr" tarkibi namoyon bo'ladi. Qaysi turlovchi bilan ishlatalishiga qarab sintaktik vazifada keladi: *O'tirganlar turib, yonboshlaganlar o'tirib; qabuliga kelganlardan uzr so'rab* kabi. Bu tur misollarda asli sifatdosh sifatlovchi bo'lib kelgan, lekin sifatlanmish tushirilgani sababli uning tarkibidagi sonlovchi va turlovchi sifatdoshga qo'shilgan: *o'tirgan kishilar > o'tirganlar* kabi. Ana shunday holatga nisbatan sifatdoshning otlashuvi haqida gapiriladi.

3. Sonlovchi bilan turlovchi oralig'ida nisbatlovchi ham qatnashsa, "... |+gan + S + Nch + Tr" tarkibi namoyon bo'ladi: *Kislovodskka borganimda, qishloqqa kelganida, talabchan nazar bilan tikilganida* kabi. Bu tur misollarda ham asli sifatdosh sifatlovchi bo'lib kelgan, lekin sifatlanmish tushirilgani sababli unga qo'shilgan sonlovchi, nisbatlovchi, turlovchi sifatdoshga qo'shib, otlashuv voqe bo'lgan: *bu odamni ko'rigan paytimda > ko'ranimda* kabi.

4. Sifatdoshga sonlovchi, nisbatlovchi, turlovchi qo'shib keladigan barcha hollarga nisbatan sifatlanmishning tushirilgani haqida gapirib bo'lavermaydi. Masalan, *boshqacha qilib aytganda, yelkasidan bosib o'tqazib qo'ymaganda, sho'rvaga zahar solganlarini ko'rib, qovun polizida ko'kchalarining tars-tars yorilganini eshitasiz* kabi qurilmalarda tushirilgan sifatlanmish haqida gapirish o'rinni emas. Ot leksemaga xos morfemalarning

sifatdoshga qo'shilib kelishi bu yerda sintaktik transformatsiya bilan bog'liq holda voqe bo'ladi (Bu hodisa haqida o'z o'mnida gapiriladi).

5. -gan affiksidan keyin -lik substantiv shakl yasovchisi ham qo'shilib keladi, natijada "... |+ gan + lik + Sb + Nch + Tr" tarkibi namoyon bo'ladi: *boshidan ko'p savdolar o'tganligi ko'rini turardi* kabi. Bu tarkibda sintagmatik munosabat tufayli -lik affixsi oxiridagi *k* shovqin tovushi intervokal holatda *g* ovozli tovushiga almashadi, natijada *k* fonemasining *g* allofonemasi namoyon bo'ladi.

6. Ayrim tarkiblar ko'makchi qatnashuvi bilan tuziladi, ko'makchining turiga qarab sintaktik vazifa bajaradi, "... |+gan + S + Nch + (Tr + ko'makchi)" tarkibi namoyon bo'ladi: *referatini tarqatib bo'lganidan keyin, boshqarma hay'ati yangilanganidan keyin, yomg'irda yurgani uchun, nazarga tushib qolgani uchun* kabi.

7. Bir qancha qurilmalar tarkibida birlik va bosh kelishik morfemalaridan keyin -day/-dek affiks-ko'makchisi qatnashadi, natijada "... |+gan + Sb + (Trb + day)" tarkibi namoyon bo'ladi: *boshi aylanganday chayqalib, darmoni quriganday, tilladan jilo berganday, pashsha qo'riganday chap qo'lini siltadi* kabi. Bunday tuzilishli leksemashakl hollovchi vazifasida keladi.

8. Ayrim qurilmalarda birlik va bosh kelishik morfemalaridan keyin 'holat' ma'nosini ifodalaydigan -cha affiks-ko'makchisi qo'shiladi, natijada "... |+ gan + Sb + (Trb + cha)" tarkibi namoyon bo'ladi: *po'stakka yonboshlagancha mudrab ketdi, boshini quyi solgancha indamay o'tiraverdi* kabi. Bunday tuzilgan leksemashakl hollovchi vazifasida keladi.

9. Yuqoridagi qurılma tarkibida nisbatlovchi ham qatnashsa, "... |+gan + Sb + Nch + (Trb + cha)" tarkibi namoyon bo'ladi: *boshini quyi solganicha sekin-sekin yurib, tizzalarini quchoqlaganicha tonggacha o'tirdi* kabi va b.

**11- §. -yotgan, -digan affixsi bilan yasalgan sifatdosh quyidagicha shakl va vazifalarda ishlatalidi:**

1. Sifatlovchi bo'lib keladi, shunga ko'ra -yotgan, -digan morfemasidan keyin boshqa grammatik ko'rsatkich qo'shilmaydi, sifatdosh yasovchisining o'zi leksemashakl hosil qiladi: a) *qarsillab qulayotgan uy atrofida, mashhur donishmandning so'zini tinglayotgan yosh talabadek*; b) *onasi o'tiradigan joyga, yuzni yalaydigan yolqinli havo* kabi.

2. Sifatlanmish tushirilib, uning grammatik ko'rsatkichlari sifatdoshga qo'shiladi, otlashish yuz beradi, natijada "... |+yotgan || digan + S + Tr" tarkibi namoyon bo'ladi; odadta o'rin kelishigi shakli qo'shilib, payt hollovchisi vazifasida keladi: *boshiga egilayotganda (< egilayotgan paytda)* kabi.

3. Yuqoridagi tur qurilish tarkibida nisbatlovchi qatnashsa, "... | + *yotgan* + S + Nch + Tr" tarkibi namoyon bo'ladi: *gapning mazmuni qayyoqqa og'ayotganini bilolmay, yangi filmni suvratga olayotganini* kabi. Tushum kelishigi shakli qo'shilgan ushbu qurilmalar vositasiz to'ldiruvchi vazifasida kelgan.

4. Ba'zi qurilmalar tarkibida -day affiks-ko'makchisi qatnashadi, natijada "... | + *yotgan* || *digan* + Sb + (Tr + day) tarkibi namoyon bo'ladi: a) *keng hovli torlik qilayotganday tuyilib, xuddi bo'g'ilib ketayotganday, oynaga qarashga majbur bo'layotgandek* kabi. Bunday tuzilgan leksemashakl hollovchi vazifasida keladi.

**12- §. -r/-s morfemasi bilan sifatdosh yasalishi** juda oz voqe bo'ladi; odatda bo'lishsiz shakldan keyin qo'shiladi, shunga ko'ra -s allomorfemasi qatnashadi, ushbu allomorfemadan keyin boshqa grammatik ko'rsatkich qo'shilmaydi, sifatlovchi vazifasida keladi: *aql bovar qilmas bir bema'nilik bilan* kabi.

*O'tar-o'tmas* kabi takror leksemada birinchi a'zoga bu morfemaning -r allomorfemasi, ikkinchi a'zoga -s allomorfemasi qo'shiladi; bunday leksemashakl hollovchi vazifasida keladi: *oradan ikki soat o'tar-o'tmas yoqilib, bir soat o'tar-o'tmas alanga pasaydi* kabi.

### *Otdosh shakllarida leksemashakllar*

**13- §.** Fe'lning otdosh shakli hozirgi o'zbek tilida asosan -sh affixsi bilan, ba'zangina -v, -moq affikslari bilan yasaladi. Otdosh shakl bo'lgani uchun bunday yasovchidan keyin odatda birlik sonlovchisi, asosan birlik nisbatlovchisi, turlovchi va boshqa grammatik ko'rsatkichlar qo'shiladi; qaysi turlovchi qo'shilishiga qarab turli sintaktik vazifalarda keladi:

1. Bunday leksemashakl tarkibida birlik sonlovchisi va turlovchi qatnashib, "... | + sh + Sb + Tr" tarkibi namoyon bo'ladi: *xirurg bo'lib ishlash, yig'lashga tayyor edi, tajriba markaziga aylantirish niyatida, bolalarni qanday tinchitishni bilmay turgan* kabi.

2. Yuqoridagi tarkibda nisbatlovchi ham qatnashsa, "... | + sh + Sb + Nch + Tr" tarkibi namoyon bo'ladi: *yaproqlarning mayin shitirlashi eshitilganday bo'lib, mehmon qilishining sababi, cholning chiqib ketishini poyladi, savod chiqarishiga ko'maklashayotgan shu mehribon ayolning, majlis bunday ohangda boshlanishini kutmagan edi* kabi.

3. Otdosh leksemashakl tarkibida ko'makchi qatnashsa, "... | + sh + Sb + (Tr + ko'makchi)" yoki "... | + sh + Sb + Nch + (Tr + ko'makchi)" tarkibi namoyon bo'ladi: a) *yozuvchi bo'lish uchun, sukunatni buzish uchun; b) turmush qurishlari bilan, tovushni eshitishi bilan* kabi.

**14-** §. Ma'lumki, bo'lhisizlik shaklidan keyin *-sh* affiksi emas, *-slik* morfemasi qo'shiladi; bu yerda ham quyidagicha tarkiblar namoyon bo'ladi:

1) "... *ma| + slik + Sb + Tr*": *hech narsani o'ylamaslikka; aytishni ham, aytmaslikni ham bilmadi* kabi;

2) "... *ma| + slik + Sb + Nch + Tr*": *rejasi amalgga oshmasligiga, joniga ora kirmasligini* kabi (*k > g* tovush o'zgarishi yuqorida izohlandi);

3) "... *ma| + slik + Sb + (Tr + ko'makchi)*": *tasallilarini eshitmaslik uchun, xotiniga bildirmaslik uchun* kabi.

Ko'rinadiki, ushbu tur qoliplarda nisbatlovchining birlik shakli ishlataladi.

**15-** §. Otdosh shakl ba'zan *-v*, *-moq* affiksi bilan yasalib, yuqorida tas-virlangan tarkiblardan birida namoyon bo'ladi: *o'rinsiz magtovidan xijolat chekdim, bunday bo'luvi mumkin emas deganday, ko'sak qurti ko'payib ketganini tan olmog'i lozim edi* kabi.

Ko'rinadiki, otdosh shakl *-v*, *-moq* affiksi bilan yasalganida asos bilan affiks orasida tovush jihatidan zinch sintagmatik munosabat voqe bo'ladi: a) *-v* affiksining ta'sirida uning oldidagi *a* tovushi *o* tovushiga (*i* tovushi *u* tovushiga) almashadi, *a* fonemasining *o* allofonemasi (*i* fonemasining *u* allofonemasi) yuzaga keladi; b) *-moq* affiksidan keyin nisbatlovchi qo'shilganida *q* tovushi intervokal holatda *g'* tovushiga almashadi, *q* fonemasining *g'* allofonemasi yuzaga keladi.

**16-** §. Xullas, fe'lning boshqa turkumlarga monand shakllarida leksemashakllarning oldingi qismi va keyingi qismi turlicha qoliplarda, turli ko'rinishlarda namoyon bo'ladi. Masalan, ravishdosh leksemashakllarda ravishdosh yasovchisidan keyin boshqa grammatic ko'rsatkich qo'shilmaydi, shunga ko'ra har bir ravishdosh yasovchisi qatnashgan qolip bir ko'rinishda namoyon bo'ladi. Otdosh leksemashakllarda esa otdosh shakli yasovchisidan keyin sonlovchi, nisbatlovchi, turlovchi va boshqa grammatic ko'rsatkichlar qo'shilishi tufayli asosiy qolip bir qancha ko'rinishlarda namoyon bo'ladi. Sifatdosh leksemashakllarda esa ravishdosh leksemashakllardagi va otdosh leksemashakllardagi holatlar birgalikda mavjud, shunga ko'ra sifatdosh leksemashakllarning asosiy qoliplari yana-da ko'proq ko'rinishlarda namoyon bo'ladi. Ravishdosh, sifatdosh, otdosh leksemashakllar qolipi tarkibidagi oldingi, fe'lllikka xos umumiym grammatic hodisalar qatnashadigan qismini ham hisobga olib fikr yuritsak, leksemashakllarning o'nlab asosiy qoliplari va bu qoliplarning yuzlab ko'rinishlari mavjudligi ayon bo'ladi.

### Fe'lning tuslanishli leksemashakllari

**17-** §. Fe'lning tuslanishli leksemashakllarida eng sodda qolip fe'lllikning umumiym grammatic hodisalar o'z aksini topgan qismga tuslovchilarning buy-

ruq-istak mayliga xos subparadigmasi a'zosini qo'shish bilan yuzaga keladi; bu subparadigmaning birinchi a'zosi sifatida -y morfemasi ko'rsatiladi, shunga ko'ra bu qolipning keyingi qismi "... | + y" tarzida yoziladi: *Boshgasini aytmay qo'ya qolay, Otni olib ketmaylik, Boshqa qog'oz ol! Ehtiyot bo'ling, Farzand muborak bo'lsin!* kabi.

III shaxs birlik tuslovchisining sizlash shaklida bunday ma'no *-lar* affiksi bilan yoki *-sh* 3 affiksi bilan ifodalanishi mumkin; bunda *-sh* affiksi birlgilik shakli yasovchisidan o'sib chiqqani sababli bo'lishli-bo'lishsizlik ko'rsatkichidan oldin qo'shiladi, natijada III shaxs tuslovchisi qatnashadigan tarkib ikki ko'rinishda namoyon bo'ladi: a) "... | + Ø II + sin + lar: Marhamat, o'tirsinlar; b) "... | + sh + Ø II + sin": Keksalar .. janoza o'qiyverishsin kabi.

### *Mayl yasalishlarida leksemashakllar*

18- §. Fe'lning tuslanishli boshqa leksemashakllarida tuslovchidan oldin mayl yoki zamon yasovchisi qatnashadi, "... | + M / 3 + Ts" tarkibi yuzaga keladi. Istak-shart mayli va maqsad mayli yasalishlarida "... | + M + Ts" tarkibi "... | + sa + Ts" va "... | + moqchi + Ts" ko'rinishlarida namoyon bo'ladi.

1. Istak-shart mayli yasovchisidan keyin tuslovchilarning *-m* affiksi bilan boshlanadigan subparadigmasi morfemalari qo'shiladi: *Iste'dodli yoshlar uchrasa, ularning boshini silasam; Ishni shundan boshlamasak; Silab qo'ysang, boshim og'rimaydi; Boshqa joydan uy bersangiz; Bir og'iz so'z qaytarsa, uch kungacha boshi g'urbatdan chiqmasdi* kabi.

III shaxs tuslovchisida ko'plik ma'nosi (hurmat ma'nosi ham) *-lar* affiksi bilan yoki *-sh* affiksi bilan ifodalanadi; yuqorida ta'kidlanganidek, bu yerda ham *-sh* affiksi bo'lishli-bo'lishsizlik ko'rsatkichidan oldin qo'shiladi, natijada "... sh + Ø II | sa + Ø III" tarkibi namoyon bo'ladi: *Ishdan olishsa-yam, ... bosh egib bormayman (= olsalar ham); Chol-kampir qishloqqa borishsa, ... (= borsalar)* kabi.

*-sa* affiksining o'zini yuqoridagicha ishlatalish bilan kelasi zamon ma'nosi ifodalanadi; o'tgan zamon *-gan* sifatdosh yasovchisini, hozirgi zamon *-yotgan* sifatdosh yasovchisini, kelasi zamon esa *-digan*, *-r* sifatdosh yasovchilarini *bo'l-* ko'makchi fe'li bilan ishlatalib ifodalanadi, natijada "... | + gan || yotgan || digan || r + bo'l + sa + Ts" tarkibi namoyon bo'ladi; nutqda ko'pincha *-gan* *bo'l-* zamon shakli ishlatalidi: *Nahotki boshqa joy topolmagan bo'lsalar?!, Sal qorin sola boshlagan bo'lsa ham, Jon-jahdi bilan olg'a intilayotgan bo'lsa ham* kabi.

*-sa* affiksi qatnashuvi bilan "... | + sa + Ts + edi", "... | + gan + bo'l + sa + Ts + edi" tarkiblari ham tuziladi: *ishlasang edi, eshitgan bo'lsam edi* kabi.

Shu yerda *-sa* affiksi ishtiroki bilan tuziladigan boshqa ayrim qurilmalarni ham aytib o'tish mumkin. Shulardan biri – "... |+ sa + Ts + bo'ladi || bo'lmaydi" qurilmasi. Bu qurilmadan 'mumkin'lik (bo'lishsiz shaklida 'mumkin emas'lik) ma'nosi ifodalanadi: *qabul qilsa bo'ladi, boshlasak ham bo'ladi, aytib bermasak bo'lmaydi* kabi.

Boshqa bir qurılma kerak leksemasi ishtiroki bilan tuziladi: "... |+ sa + Ts + kerak": *shunday deb o'yłasa kerak, ko'nikib qolgan bo'lsa kerak, tasavvur qilib ko'rayotgan bo'lsa kerak* kabi. Bu qurılma bilan 'ehtimol' ma'nosi ifodalanadi va b.

2. *-moqchi* maqsad mayli yasovchisi ishtiroki bilan "... |+ moqchi + Ts", "... |+ moqchi + edi + Ts", "... |+ moqchi + bo'l + gan + edi + Ts" kabi tarkiblar tuziladi: *Shubha bildirmoqchimisiz, shuni aytmoqchi edim, ko'rmoqchi bo'lgan edi, tayinlashmoqchi emish, chalg'itmoqchi bo'ladi, ovutmoqchi bo'ldim* kabi.

3. *-gu / -gi* affiksi bilan "... |+ gi + Nch + kel + 3 + III shaxs tuslovchisi" tarkibi tuziladi: *o'ynagim keladi, kirgisi keldi, olging kelgan edi* kabi va b.

### Zamon yasalishlarida leksemashakllar

19- §. Zamon yasalishining sintetik shakllarida asosiy tarkib "... |+ 3 + Ts" bo'lib, kelasi, hozirgi, o'tgan zamon subparadigmalariga ko'ra "... |+ 3k + Ts", "... |+ 3h + Ts", "... |+ 3o + Ts" ko'rinishlarida va har biri o'z ichida zamon yasovchilari bo'yicha turli ko'rinishlarda namoyon bo'ladi.

Nutqda kelasi zamon subparadigmasing asosan *-a / -y* affiksi bilan yasalishi eng ko'p uchraydi, shunda ham eng ko'p III shaxs tuslovchisi bilan ishlataliladi: *sukut saqlashingizni so'rayman, men bilan gaplashasiz, dovul kunlari boshlanadi* kabi.

Hozirgi zamon subparadigmasi bo'yicha nutqda *-yotib* affiksi va undan o'sib chiqqan *-yap* affiksi bilan yasalishlar ko'p, boshqa affikslar bilan yasalishlar oz uchraydi: *qamish sivizg'asini chalayotibdi, endi boshlanayapdi, yolg'iz yuribman, mening baxtim sho'ysi .. so'niq borayotirmi?, eski adovat boshlandi deb o'ylarsan, uylarni tintuv qilmoqda* kabi.

O'tgan zamon subparadigmasi bo'yicha nutqda *-di* affiksi bilan yasalish juda ko'p, *-gan, -b* affikslari bilan yasalish nisbatan ozroq uchraydi; barchasida ko'pincha III shaxs tuslovchisi qatnashadi: *boshqa bir masalada keldim; tizzangizga oldingiz, erkaladingiz; gapni davom ettirdi; xalqni nodonlikka boshlagan; ajoyib kitoblar yig'ibsiz* kabi.

20- §. Zamon yasalishining analitik shakllari sintetik shakllari tarkibiga asosan *edi, qisman ekan, emish* affiksoidini kiritish bilan hosil qilinadi, zamon yasovchisi vazifasini sintetik zamon yasovchisi bilan affiksoid birgalikda ba-

jaradi, tuslovchi odatda affiksoidan keyin qo'shiladi; natijada "... |+ 3 + edi || ekan || emish + Ts" tarkibi yuzaga keladi. Zamon ko'rinishlari bo'yicha -r edi, -gan edi shakllari eng ko'p, -yotgan edi, -moqda edi shakllari nisbatan oz ishlatalidi: *gapini ma'qullar edi, pinhoniy xayollar og'ushidan chiqmas edi, yuz kishi to plangan edi, kimdir vahimada baqrayib qolgan edi, sovg'asiz kelishganiga o'kinishayotgan edi, soxta va nosamimiyo ko'rinishmoqda edi* kabi.

Nutqda *ekan* affiksoidi qatnashuvi bilan yasalish nisbatan ko'proq, *emish* affiksoidi qatnashuvi bilan yasalish esa juda oz uchraydi: *ko'k choy ichib o'tirgan ekan, bu haqda hech o'ylamagan ekan, qo'zg'alonnning boshliqlarini terib olarmish, archalarни shafqatsiz qiyratayotgan emish* kabi.

**21- §. Ayrim shakl hosil qilinishida umumiy qolipdan farqli holatlar yuz beradi:**

1) Ko'makchi fe'l qatnashganda bo'lishsizlik ko'rsatkichi odatda ko'makchi fe'lidan keyin joy oladi; bunda umumiy qolip saqlanadi: *boshlay olmadi, anglayolmadi* kabi. Ayrim ko'makchi fe'l qatnashgan qurilmalarda bo'lishsizlik ko'rsatkichi ko'makchi fe'lidan oldin joy oladi, natijada "... |+ ma + y + qol- ..." tarkibi namoyon bo'ladi: *nimadan boshlashni bilmay qoldi, boshqa yigit topilmay qoladimi unga?* kabi.

2) Aniq old o'tgan zamon yasalishida bo'lishsiz shakl asosan -ma affiksi bilan yasaladi: *kelmagan* kabi. Bo'lishsizlik ma'nosi bu zamon yasalishida:

a) *yo'q inkor* affiksoidi bilan ham ifodalanadi: *Ovozi .. eshitilgani yo'q, senga ozor beradiganni hali onasi tuqqani yo'q* kabi. Bu yerda "... |+ gan + Nch + yo'q" tarkibi voqe bo'ladi;

b) *ba'zan emas* inkor affiksoidi bilan ifodalanadi: *Boshi hech qachon bunday og'rigan emas* kabi. Bu yerda "... + gan + emas + Ts" tarkibi voqe bo'ladi.

3) Aniq yaqin o'tgan zamon yasalishida III shaxs tuslovchisi — nol ko'rsatkichli: *keldi* + Ø kabi. Ko'plikni ifodalash lozim bo'lsa, -lar affiksi qo'shiladi: *ularni qurshab oldilar, o'zaro suhbatlasha boshladilar* kabi. Asli bu yerda ko'plik ma'nosini -sh affiksi bilan ifodalash ma'qulroq: *jimgina o'tirishdi* kabi. Ko'plik ma'nosining bunday ifodalanishida umimiy qolipdan chetga chiqish voqe bo'ladi: ko'plik ma'nosini ifodalaydigan morfema leksemashaklning oxirida emas, leksemashakl qolipining oldingi (umumiy) qismida joylashadi: "... sh | + 3 + Ts" tarkibi namoyon bo'ladi.

Yuqoridagi kabi hodisa -lar, -sh affikslari ko'plik ma'nosini emas, sizlash ma'nosini ifodalab kelganida ham voqe bo'ladi: *Keldilar (= Kelishdi), opamlar kutubxona mudiri bo'lib ishlaydilar (= ishlashadi)* kabi.

4) "Mustaqil fe'l + ko'makchi fe'l" qurilmasida zamon yasovchisi va tuslovchi har ikki qismga qo'shilib, go'yo juft leksemashaklga teng holat

yuzaga keladi; natijada umumiy qolip "... | + di + Ts - di + Ts" ko'rinishida namoyon bo'ladi: *Jiganini bir kunda ko'chirdi-keldi; Ziyofat qilamiz-u, shu g'alvadan qutulamiz-qo'yamiz* kabi.

### **Fe'l leksemashakllar bilan tuziladigan ayrim murakkab qurilmalar**

22- §. Fe'l leksemashakllarning yuqorida tasvirlanganidan boshqa turli murakkab qurilmalari ham mavjud:

- 1) "... | + gan || yotgan + day + bo'l + 3 + Ts" kabi tuziladi: *vujudi yonib ketganday bo'ldi; ko'nglida nimadir aniqlanganday bo'ldi* kabi;
- 2) "... | + digan + bo'l + 3 + Ts" kabi tuziladi: *uydan kam chiqadigan bo'ldi; o'zi ham uni sizlaydigan bo'lgan* kabi;
- 3) "... | + digan || yotgan + ga + o'xsha + 3 + Ts" kabi tuziladi: *Bir baloni boshlaydiganga o'xshaydi; derazadan uchib kirayotganga o'xshardi* kabi;
- 4) "... | + ay + de + B + 3 + Ts" kabi tuziladi: *to'qasi uzilib ketay deb turibdi, ayrlig alami bosilay demas edi* kabi.

23- §. Yuqorida fe'l leksemashaklning oldingi, umumiy qismi va keyingi, xususiy qismi alohida-alohida tasvirlandi. Bu ikki qism tarkibi birlgilikda olinsa-gina fe'l leksemashaklning turli qoliplari va ularning juda ko'p ko'rinishlari namoyon bo'ladi. Bunday leksemashakl qoliplari va ularning ko'rinishlarini tuzish haqidagi axborat lisonda mavjud bo'lib, nutqda bu qoliplar leksema va morfema bilan to'ldiriladi, natijada leksemashakl qoliplari segment birlik holatiga o'tadi.

24- §. Ayrim turkum leksemasi ma'lum bir sintaktik vazifada kelganida unga sintaktik vazifa tufayli biror morfema qo'shilmaydi. Lekin leksema qismga, leksemashakl esa butunga teng ekanı tufayli bu yerda ham leksemaga nimadir qo'shilishi haqida gapirish zarur. Ana shunday qo'shiladigan qism deb sintaktik vazifa semasini ko'rsatish o'rinni. Masalan, sifat leksema sifatlovchi bo'lib kelishi uchun unga 'sifatlovchi' sintaktik semasi qo'shiladi, shu orqali sifat leksema leksemashaklga aylanadi. Yuqoridagicha hodisa son leksema, olmoshning sifat tabiatli ko'rinishlari, shuningdek ot leksema sifatlovchi bo'lib kelganida ham voqe bo'ladi.

Ravish leksema hollovchi bo'lib kelishi uchun unga odatda 'hollovchi' sintaktik semasi qo'shiladi, shu orqali ravish leksema leksemashaklga aylanadi.

Boshqa hollarda leksemani sintaktik vazifa bajaradigan shaklga kiritish uchun, demak, leksemashakl hosil qilish uchun sintaktik vazifani ta'minlovchi morfema qo'shiladi. Masalan, *-dagi* morfemasi ot leksemani, ot tur olmoshlarni sifatlovchi vazifasida keladigan leksemashaklga aylantiradi.

Shuningdek ravishdosh yasovchisi ham sintaktik tabiatli bo'lib, fe'lning ma'lum bir sintaktik vazifada kelishini ta'minlaydi. Sifatdosh yasovchisi ham asli fe'lning sifatlovchi vazifasida kelishini ta'minlaydi.

Ot leksemaning leksemashaklga aylanishi odatda turlovchi morfema yordamida voqe bo'ladi, chunki turlovchidan oидин qo'shiladigan sonlovchi, nisbatlovchi – sintaktik vazifaga nisbatan betara! Xuddi shunday hodisa olmoshning, son turkumining ot tur ko'rinishlarida, fe'lning otdosh shaklida, boshqa turkum leksemalari otlashganda ham voqe bo'ladi.

Fe'lning tuslanishli shaklida tuslovchi-gina sintaktik vazifa tufayli qo'shiladi, undan oldin qo'shiladigan morfemalar odatda morfologik tabiatga ega. Fe'l dan boshqa turkum leksemashakllarining kesim vazifasida kelishini ham tuslovchi ta'minlaydi.

### KESIMLIK LEKSEMASHAKLLARI TIZIMI

Kesimlik leksemasiga (KL) bo'lishli-bo'lishsizlik (B) zamon (Z), mayl (M), tuslash (Ts) paradigmalari ko'rsatkichlarining qo'shilishi bilan kesimlik leksemashakli yuzaga keladi.

I. KLLari bo'lishli-bo'lishsizlik paradigmasi shakllarida quyidagicha ishlatalidi:

1. Ko'pchilik KLLari har ikki shaklda ishlatalidi; bo'lishsizlik *emas* affiksoidi bilan ifodalanadi: **KL+B..** : *lozim* + Ø IV- – *lozim emas-*, *mansub* + Ø IV- – *mansub emas-* kabi.

2. Ayrim KLLari faqat bo'lishli shaklda ishlatalidi, bularga bo'lishli-bo'lishsizlik paradigmasi mansub emas: **KL+Bli** : *muborak* + Ø IV- , *tashakkur* + Ø IV- , *g'animat* + Ø IV- kabi. Ayni muddao- kesimlik birikmasi ham faqat bo'lishli shaklda ishlatalidi: *Ayni muddao* + Ø IV- .

3. *bo'l-* bog'lamasi bilan hosil qilinadigan analitik shaklda bo'lishsizlik *-ma* affiksi bilan ifodalanadi: **KL+ bo'l + Bsiz (-ma)**: *lozim bo'l-* + Ø IV- – *lozim bo'lma-* kabi.

II. Mayl ma'nosi ayrim KLLarida *bo'l-* bog'lamasi bilan hosil qilinadigan analitik shaklda quyidagicha ifodalanadi:

1) Buyruq-istik mayli tuslovchi bilan ifodalanadi: **KL + bo'l + B + Ts: iborat bo'lsin, majbur bo'lmay** kabi.

2) Shart-istik mayli *-sa* affiksi bilan ifodalanadi: **KL + bo'l + B + ca- : iborat bo'lsa- , majbur bo'lmasa-** kabi.

III. KLLarining zamon paradigmasi shakllarida ishlatalishi quyidagicha:

1. Hozirgi zamonning sintetik shakli nol ko'rsatkichli morfema bilan ifodalanadi:

**KL + B + 3h- : lozim + Ø IV- + Ø VIII- , mansub emas + Ø VIII- kabi.**

2. Zamonning analitik shakllari:

1) edi affiksoidi bilan hosil qilinadi: **KL + B + 3 (edi):** *lozim + Ø IV + edi-*, *lozim + emas + edi-* kabi;

2) Kesimlik leksemasi ism (keng ma'noda) bo'lgani sababli avval *bo'l-* yordamida fe'llanib, bo'lishli-bo'lishsizlik shakli va undan keyin zamon yasovchisi qo'shiladi: **KL + bo'l + B + 3- : lozim bo'l + ma + di-**, *lozim bo'l + ma + gan + edi-* kabi.

3) Shart-istak maylida o'tgan zamon -gan bo'l- analitik shakli bilan ifodalanadi: *lozim bo'l + gan bo'l + sa-* kabi.

4. Ayrim KLLariga zamon paradigmasi xos emas, faqat hozirgi zamon shaklida ishlatiladi: **KL + B + 3h- : tashakkur + Ø IV- + Ø VIII- kabi.**

IV. Tuslash paradigmasing shakli qo'shilishi bilan KLsi leksemashakliga aylanadi: **KL + B + 3 + Ts.** Tuslovchilarining ishlatilishi quyidagicha:

1. Hozirgi zamonning sintetik shaklidan keyin -man affiksi bilan boshlanadigan subparadigma ko'rsatkichlari qo'shiladi: *kerakman*, *kerak emassan* kabi.

2. Zamonning analitik shakllariga tuslovchilarining -m affiksi bilan boshlanadigan subparadigma ko'rsatkichlari qo'shiladi: *kerak emas edim*, *kerak bo'lib qolgan eding* kabi.

3. Tuslovchilarining qo'shilishi KLsining atalgaligi bilan bog'liq:

1) Atalgaligi umumiy, shuningdek kishiga atalgan bo'lsa, har uch shaxs-son tuslovchilari qo'shiladi: *kerak-*, *durust-*, *g'animat-* va b.: *kerakman*, *keraksan*, *kerak* kabi.

2) Narsaga atalgan bo'lsa, faqat III shaxs tuslovchisi qo'shiladi: *lozim-*, *darkor-*, *joiz-*, *iborat-* va b.: *Daftar kerak* kabi. Kishiga atalgan ayrim KLLari ham faqat III shaxsda ishlatiladi: *Kuyov muborak* kabi.

## BIRIKMALAR TIZIMI

1- §. Leksemashaklning odatda leksemaga tobelanishi bilan tuziladigan lisoniy birlikka b i r i k m a deyiladi: *azim tollar-* kabi. Birikma — ikki a'zoli sintaktik birlik. Asosan birinchi a'zo tobe, ikkinchi a'zo hokim holatda bo'ladi. Birinchi a'zo ikkinchi a'zoga semantik, grammatic, fonetik jihatdan tobelanadi: a) ikkinchi a'zoning belgisini bildiradi, b) tobe grammatic shaklda bo'ladi. d) urg'u jihatidan ham birlashadi. "Tobe a'zo X hokim a'zo" tuzilishli birikmaning birinchi a'zosi leksemashakl bilan (biror sintaktik vazifani bajara olish darajasida grammatic shakllangan leksema bilan) ifodalanadi, shunga ko'ra sintaktik bo'lak vazifasida keladi; birikma tarkibida hokim holat egal-laydigan a'zoga bog'lanishi sababli birikmaning bo'lagi deyiladi. Masalan, *azim tollar-* birikmasida birinchi a'zo sifat leksemashakl bilan ifodalangan, ikkinchi a'zoga sifatlovchi bo'lak holatida tobelangan.

Birikmaning ikkinchi a'zosi (ayrim holatdan tashqari) birikma doirasida leksemashakl darajasida shakllanmaydi; ayrim morfema qo'shilishidan qat'i nazar, leksemaga teng holatda bo'ladi. Ikkinchi a'zoning (birikmaning bir butun holda) tugal grammatic shakllanishi boshqa bir leksema bilan, birikma bilan sintaktik bog'lanish natijasida voqe bo'ladi. Aytiganlar asosida birikmaning umumiy qolipini "leksemashakl X leksema" deb ko'rsatish to'g'ri:

<i>a z i m</i>	X	<i>t o l l a r -</i>
leksemashakl		leksema
b i r i k m a		

Birikma lisoniy birlik sifatida asli qolipdan iborat, shunga ko'ra super-segment birlik deyiladi. Birikma qolipi aniq leksemashakl va leksema bilan to'ldirilganidan keyin segment birlikka aylanadi, bir butun holda grammatic shakllanib, nutqqa chiqadi, nominativ vazifa bajaradi.

Bir butun holda biror sintaktik vazifada kela olish darajasida grammatic shakllangan birikmaga *birikmashakl* deyiladi. Masalan, *azim tol-* birikmasi sonlovchi va turlovchi qo'shilganidan keyin *azim tollarni* kabi birikmashaklga aylanadi va vositasiz to'ldiruvchi vazifasida keladi, nominativ birlik sifatida tushuncha anglatishga xizmat qiladi.

Miyaning til xotirasi markazida leksemashakllarni tuzish haqida axborat bo'lganidek, birikma tuzish haqida ham axborat mavjud; ana shu axboratda birikmaning turli qoliplari va ularni lisoniy birliklar bilan to'ldirish qoidalari mujassamlashgan bo'ladi.

Leksemashaki holatida bo'lish birikmaning asosan tobe a'zosida voqe bo'ladi, shuni hisobga olib birikmalarining turlari shu tobe a'zosiga ko'ra nomlanadi: sifatlovchili birikma, qaratuvchili birikma, izohlovchili birikma, izofa birikmasi, ta'kidlovchili birikma, to'ldiruvchili birikma, hollovchili birikma. Yuqoridagi atamalarga monand ravishda ushbu birikmalarining hokim a'zosi sifatlanmish, qaralmish, izohlanmish, izofalanmish, ta'kidlanmish, to'ldirilmish, hollanmish deb yuritiladi.

### Sifatlovchili birikma

2- §. Bunday birikma "sifatlovchi X sifatlanmish" qolipida tuziladi, ikkinchi — hokim a'zo odatda ot leksema bilan ifodalanadi, birinchi — tobe a'zo ot leksemaning biror belgisini bildiradi; birikma esa bir butun holda ma'lum bir belgisi aniqlangan predmet tushunchasini anglatadi. Sifatlovchi bilan sifatlanmishning tobe sintaktik aloqasi ko'paytiruv alomatini (X) yozib ko'rsatiladi (Boshqa o'rnlarda ham tobe sintaktik aloqa shu alomat bilan ko'rsatiladi):

predmetning belgisi ma'nosini anglatadigan leksemashakl	X	predmet ma'nosini anglatadigan leksema
<b>sifatlovchi</b> s i f a t l o v c h i l i b i r i k m a ( a z i m t o l - ) -		<b>sifatlanmish</b>

3- §. Sifatlovchi vazifasida predmetning turli belgisini bildiradigan leksemashakl keladi:

- 1) sifat leksemashakl: *yangi ko'rpa-*, *govurma chuchvara-*, *mehribon ayol-*, *qoramtil suv-* kabi;
- 2) son leksemashakl: *uch hafta-*, *ikki yigit-*, *sakson yosh-*, *uch-to'rt kishi-*, *ikkinch qavat-* kabi;
- 3) olmoshlarning sifat tabiatli turlari: *shu kecha-*, *bir necha daqiga-* kabi;
- 4) ot leksemaga tobelanib kelgan ravish leksemashakl: *ancha vaqt-*, *juda ko'p odam-* kabi;
- 5) predmetning belgisini ifodalash uchun ishlataladigan ot leksema: *baxmal do'ppi-*, *sopol tovoq-*, *shoyi ko'ylik-*, *oltin yaproq-* kabi;
- 6) fe'lning sifatdosh leksemashakli: *o'tgan hafta-*, *bezatilgan patnis-*, *yozilayotgan hikoya-* kabi;

7) ot leksemaga *-day*, *-dagi* shakl yasovchisini qo'shib hosil qilingan leksemashakl: *oydek yuz-*, *cho'g'day ko'z-*, *ariqdagi suv-*, *tomorgadagi jo'xorizor-* kabi. (O'xshatish ma'nosini ifodalovchi *-day* morfemasi qo'shilgan ot leksemashakl sifat leksemaga ham sifatlovchi bo'lib keladi: *musichaday beazor-*, *to'sday tim qora-* kabi).

4- §. 1- — 5- bandlardagi leksemashakl tarkibida sintaktik aloqani ta'minlovchi morfema qatnashmaydi, leksemashakl 'sifatlovchi' sintaktik semasini qo'shish bilan yuzaga keladi.

6-, 7- bandlardagi leksemashakl tarkibida uning sifatlovchi vazifasida kelishini ta'minlovchi morfema qatnashadi, lekin shakl o'zgartiruvchi emas, balki shakl yasovchi qo'shiladi. Demak, shakl yasovchi morfemalarning ma'lum bir turlari sintaktik mohiyatga ega: sintaktik aloqani, sintaktik vazifani ta'minlashga xizmat qiladi.

Adabiyotlarda sifatlovchining sifatlanmishiga sintaktik tobelanishi bitishuv aloqasi deyiladi. Ayrim adabiyotlarda sifatlovchiga hech qanday morfema qo'shilmaydi degan fikr ham bildiriladi. Yuqoridagi tasvirdan ayon bo'ladiki, bunday fikr sifatlovchining ma'lum bir turlariga nisbatan-gina to'g'ri. Lekin shunday ifodalarda ham ayrim morfemalar qatnashadi. Masalan, sifatlovchi vazifasida kelgan sifat, ravish leksemashakl tarkibida *-roq* (*eskiroq palak-*, *olisroq manzil-* kabi), *-gina* (*yupqagina muz-*, *shinamgina gulzor-*, *anchagina yo'l-* kabi) qatnashadi. Bunday morfema sintaktik vazifaga nisbatan betaraf. Demak, 1- — 5- bandlarda tasvirlangan leksemashakllar tarkibida sintaktik vazifani ta'minlovchi morfema qatnashmaydi, lekin o'rni bilan boshqa tur morfema qo'shilishi mumkin.


1- — 5- bandlarda tasvirlangan sifatlovchi sifatlanmishi bilan bitishuv usulida tobelanadi deyish to'g'ri, chunki bu yerda sifatlovchi (birikmaning tobe a'zosi) sifatlanmishiga (birikmaning hokim a'zosiga) sintaktik vazifani ta'minlaydigan morfema qo'shilmagan holda, to'g'ridan to'g'ri sintaktik bog'lanadi.

6-, 7- bandlarda tasvirlangan leksemashakllar tarkibida sintaktik vazifani ta'minlovchi morfema qatnashadi, lekin shunga qaramay bu yerda ham sifatlovchi sifatlanmishiga bitishuv usulida tobelanadi deyiladi.

Ko'rinaridiki, sintaktik tobelanishning bitishuv aloqa turini boshqacha ta'riflash lozim: Birikmaning tobe a'zosi hokim a'zosiga sintaktik vazifani ta'minlaydigan shakl o'zgartiruvchi qo'shilmagan holda bog'lansa, bitishuv aloqasi deyiladi.

5- §. Sifatlovchi-sifatlanmish birikmasida sifatlovchining o'rni muqim: bevosita sifatlanmishning oldida joylashadi; bu tur birikma a'zolarida tartib erkinligi ham yo'q. Lekin sifatlovchi-sifatlanmish aloqasida tartib hal etuvchi

omil deyish asosli emas. Hal etuvchi deb semantik omilni ta'kidlash lozim: predmet tushunchasini anglatadigan birlik keyin, uning belgisini bildiradigan birlik oldin joylashadi. Ikkinci o'rinda grammatic omil turadi: oldin tobe grammatic shaklli a'zo joylashadi. Asli tartibni ana shu ikki omil belgilaydi. Fonetik omiini ham tartibdan muhim belgi deb ta'kidlash o'rinni: birikmaning a'zolari nutqda o'z urg'usidan tashqari yaxlitlovchi urg'u ostiga birlashadi, bunday urg'u birikmashakl hokim a'zosining urg'usi asosida yuzaga keladi:



### Qaratuvchili birikma

1- §. Bunday birikma "qaratuvchi X qaralmish" qolipda tuziladi; birinchi a'zo ot, ot tur yoki otlashib kelgan leksema bilan ifodaolanadi, qaratqich kelishigida bo'ladi. Shunday leksemashakl sintaktik jihatdan ikkinchi a'zoga bog'lanadi. Ikkinci a'zoga birinchi a'zo bilan sintaktik bog'lanish tufayli nisbatlovchi qo'shiladi; nisbatlovchidan oldin sonlovchi qatnashadi, birlik yoki ko'plik sonlovchisi obyektiv voqelikka ko'ra tanlab qo'shiladi; turlovchi esa birikmaning boshqa bir leksema yoki birikma bilan sintaktik bog'lanishi natijasida qo'shiladi, shunga ko'ra ikkinchi a'zo (birikma yaxlitligicha) asli leksema (birikma) holatida bo'ladi, leksemashaklga (birikmashaklga) keyingi sintaktik bog'lanish natijasida aylanadi: *hovlining o'rtasi-*, *cholning nabirasi-* kabi:

predmet ma'nosini anglatadigan leksema	son- lovchi	qarat- qich keli- shigi	X	predmet yoki belgi ma'nosini anglata- digan leksema	son- lov- chi	nis- bat- lov- chi
L e k s e m a s h a k l						
q a r a t u v c h i			L e k s e m a			
q a r a t u v c h i l i			q a r a l m i s h			
(ch o l n i n g)			b i r i k m a			
(n a b i r a s i -)						

Ma'no munosabati jihatidan qaralmishdan anglashiladigan predmet yoki belgi qaratuvchidan anglashiladigan predmetga (predmet tasavvuridagi belgiga) tegishli ekani (nisbat berilayotgani) ifodalanadi: o'rta hovliga, nabira cholga tegishli.

Qaratuvchili birikma ifodalaydigan ma'nolar deb xosiik, butunning bo'lagi, to'dadan ajratilgan qism, o'ringa, vaqtga munosabat ma'nolari ta'kidlanadi. Asli bu ma'nolar — birikmaning ma'nolari emas, balki qaratuvchi, qaralmish bo'lib keladigan leksemalardan anglashiladigan ma'nolar.

**2- §.** Qaratuvchili birikmada turlovchilar paradigmasing bir vakili — qaratqich kelishigi bilan nisbatlovchilar paradigmasi morfemalari orasidagi bog'liqlik namoyon bo'ladi. Bunda kelishik sintaktik aloqani ta'minlashda qatnashadi va sintaktik vazifa ko'rsatkichi bo'ladi; nisbatlovchi esa sintaktik aloqani ta'minlashda qatnashadi, lekin shakl o'zgartiruvchi ekanidan qat'i nazar, sintaktik vazifaga nisbatan betaraf bo'ladi.

**3- §.** Qaralmishga nisbatlovchi qaratuvchidan anglashiladigan shaxs, son, modal ma'nolarga muqobil holda tanlab qo'shiladi. Qaralmishga qaysi nisbatlovchi qo'shilishini qaratuvchining kelishik shakli emas, balki kelishik qo'shiladigan asos, shu asosdan anglashiladigan shaxs, son, modal ma'no belgilaydi: mutanosiblik asosdan anglashiladigan grammatik ma'nolar bilan morfema (nisbatlovchi) ifodalaydigan ma'nolar orasida voqe bo'ladi. Qaratuvchi tarkibidagi kelishik shakli va qaralmish tarkibidagi sonlovchi mutanosiblik aloqasida qatnashmaydi. Mutanosiblik qaratuvchi bilan qaralmishning grammatik shakllarida voqe bo'limganligi sababli bunday birikma a'zolari orasidagi sintaktik aloqa moslashuv emas, balki *muvofiglashuv* deyiladi (Rus tilshunosligida ega bilan kesim orasidagi bunday aloqa *koordinatsiya* deb nomlanadi: lot. *co(n)* — 'birgalikda', *ordinatio* — 'tartibli joylashuv'. Bunday sintaktik aloqaga *sootvetstviye* ham deyiladi).

**4- §.** Qaralmishga qaysi nisbatlovchining qo'shilishi qaratuvchining qanday turkum leksemasi bilan ifodalanishiga, qisman uning grammatik shakliga bog'liq:

1. Qaratuvchi kishilik olmoshi bilan ifodalanganida qaralmishga shu olmoshga mutanosib nisbatlovchi qo'shiladi: *mening uy + im-*, *mening uylar + im-*, *sening uy + ing-*, *sening uylar + ing-*, *uning uy + i-*, *uning uylar + i-*, *bizning uy + imiz-*, *bizning uylar + imiz-* kabi.

2. Qaratuvchi ot leksema bilan, boshqa turkum leksemalarining ot tabiatli turi, shuningdek otlashib kelgan holati bilan ifodalanganida qaralmishga III shaxs nisbatlovchisi qo'shiladi:

a) ot leksema bilan ifodalanishi: *uyning devor + i-*, *uylarning devor + i-*, *uyning devorlar + i -*, *uylarning devorlar + i-* kabi;

b) fe'lning otdosh shakli bilan ifodalanishi: *rozi qilishning yo'l + i-*, *rozi qilishning yo'llar + i-* kabi;

d) olmoshning ot turlari bilan ifodalanishi: *kimning kitob + i-*, *kimlar ning kitob + i-*, *kimning kitoblar + i-*, *kimlarning kitoblar + i-*, *allanarsa ning sharpa + si-*, *allanarsalarning sharpa + si-*, *allanarsansaning sharpalar + i-*, *allanarsalarning sharpalar + i-* kabi;

e) boshqa turkum leksemasining otlashib kelgan holati bilan ifodalanishi: *yaxshining fazilat + i-*, *yaxshilarning fazilat + i-*, *yaxshining fazilatlar + i-*, *yaxshilarning fazilatlar + i-*; *buning qilig' + i-*, *bularning qilig' + i-*, *buning qiliqlar + i-*, *bularning qiliqlar + i-* kabi;

f) ikki va undan yuqori miqdorni anglatadigan miqdor son, shuningdek *hamma-* kabi leksema bilan ifodalanishi: *o'nning yarm + i-*, *hammaning fikr + i-* kabi.

3. Qaratuvchi bo'lib ko'plik ma'nosi ifodalanadigan jamlovchi son, *hamma-* kabi leksema kelganida kelishikdan oldin odatda ko'plik nisbatlovchisi qo'shiladi: *ikkala + miz + ning istag + imiz-*, *ikkala + ngiz + ning istag + ingiz-*, *ikkala + si + ning istag + i-*; *hamma + miz + ning istag + imiz-* kabi.

Qaratuvchi tarkibidagi nisbatlovchidan ko'rinish turibdiki, bunday qurilma asli uch a'zoli: *bizning ikkalamizning istagimiz-* kabi. Bunday uch a'zoli qurilma alohida ta'kidlash zarur o'rinda-gina ishlatalidi; boshqa o'rinnlarda ikki a'zoli qurilma ishlatalidi, shu yo'l bilan uslubiy g'alizlik, ortiqchilik bartaraf qilinadi.

Bunday qaratuvchi bilan qaralmish tarkibiga nisbatlovchilarning ko'plik shakli o'zaro moslashib qo'shiladi. Bu yerdagi moslashuv muvofiqlashuv aloqasi tarkibida ichki hodisa sifatida voqe bo'ladi.

4. Yuqoridagi bandda tasvirlangani kabi hodisa qaratuvchi *o'z- ta'kid* birligi bilan ifodalanganida ham voqe bo'ladi; yuqoridagi ifodalanishdan asosiy farqi shuki, bu yerda nisbatlovchilarning birlik shakllari ham ishlatalidi: *o'z + im + ning uy + im-*, *o'z + imiz + ning uy + imiz-* kabi. Bunday qaratuvchi ta'kid ma'nosini ifodalashga-gina xizmat qiladi.

Ikkinchи farq shuki, bunday vazifada kelgan *o'z* leksemashakli grammatic ko'rsatkich, shu jumladan nisbatlovchi qo'shilmagan holda ham keladi: *o'z + im + ning uy + im - o'z uy + im-* kabi. Bunda *o'z* leksemashakli tashqi ko'rinishda sifatlovchini eslatadi.

*O'zimning uyim-* birikmasida oldingi a'zo tarkibidagi nisbatlovchi keyingi a'zo tarkibidagi nisbatlovchiga o'zaro moslashib qo'shiladi, natijada ortiqchilik voqe bo'ladi. Bunday ortiqchilik tilshunoslikda *pleonazm* deyiladi (< yunoncha *pleonasmus* – 'ortiqchilik'). Tilning tejamkorlik qoidasiga bi-

noan oldingi a'zo tarkibidagi nisbatlovchi tushiriladi, ayni vaqtda qaratqich kelishigi affiksi ham tushiriladi, chunki kelishik affiksi o'z- ta'kid birligiga bevosita qo'shilmaydi.

**5- §.** Qaratuvchi qaralmishsiz ishlatilmaydi, chunki qaratqich kelishigining o'zi doirasida tugallik bo'lmaydi, qaralmish tarkibidagi nisbatlovchi bilan birgalikda-gina grammatik shakl tugal tus oladi.

Qaralmish ham asosan qaratuvchi bilan birgalikda ishlatiladi. Faqat qaratuvchi kishilik olmoshi bilan ifodalanganida, qaratuvchi nutqning oldingi qismida aniq ifodasini topganida bunday qaratuvchini tushirish, keltirmaslik mumkin: *mening uyim-* birikmasining birinchi a'zosi tushirilib, *uyim-* tarzida ishlatilishi kabi.

Bunday tushirishga asos bor: kishilik olmoshi leksik ma'no anglatmaydi, faqat shaxs, son, o'rni bilan modal ma'noni — grammatik ma'nolarni ifodalashga xizmat qiladi. Xuddi shu grammatik ma'nolarni nisbatlovchi ham ifodalaydi. Natijada o'ziga xos pleonazm hosil bo'ladi. Bu yerdagi pleonazm qaratuvchi vazifasidagi leksemashaklni ishlatmaslik bilan bartaraf qilinadi, natijada birikmaga teng holat yo'qoladi. Ikkinchchi a'zoda qaralmishlik holati yo'qolmaydi: nisbatlovchi bunga yo'l qo'ymaydi.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, mantiq urg'usi tushganida, shuningdek boshqa ayrim talablarga ko'ra bunday ifodalananadigan qaratuvchi tushirilmaydi: *Mening singlim* — *a'lochi* kabi. Tushirilgan qaratuvchini zarur o'rinda bemalol tiklash mumkin: *Singlim* — *a'lochi* — *Mening singlim* — *a'lochi* kabi.

**6- §.** Qaratuvchi bilan qaralmishda shaxs, son, modal ma'nolarning ifodalaniши va o'zaro munosabati quyidagicha:

I. Shaxsda, sonda muvofiqlashuv yuzaga keladi, modallik ifodalamanmaydi. Bunda qaratuvchi: 1) I, II shaxs birlik kishilik olmoshi bilan ifodalanadi: *mening kitob + im-*, *sening kitob + ing-*; 2) I, II shaxs ko'plik kishilik olmoshi bilan ifodalanadi: *biz 1 + ning uy + imiz 1-*, *siz 1 + ning uy + ingiz 1-*.

II. Shaxsda, sonda va modallikda muvofiqlashuv yuzaga keladi. Bunda qaratuvchi I, II shaxsning *biz 2-, siz 2-* birlik olmoshi bilan ifodalanadi: 1) 'kamtarlik', 'g'ururlanish' ifodalanadi: *biz- 2 + ning uy + imiz 2-*; 2) 'sizlash' ifodalanadi: *siz 2 + ning uy + ingiz 2-*; 3) 'hurmat' ifodalanadi: *buvi + m + lar II + ning ro'mol + lari-*.

III. Shaxsda, sonda muvofiqlashuv yuzaga keladi, modallik birikmaning bir a'zosida ifodalanadi: 1) qaratuvchida ifodalanadi: *buvi + m + lar II + ning ro'mol + i-*; 2) qaralmishda ifodalanadi: *buvi + m + ning ro'mol + lari-*.

IV. Shaxsda, modallikda ('senlash'da) muvofiqlashuv yuzaga keladi, son jihatidan mutanosiblik bo'lmaydi: ko'plik faqat qaratuvchida ifodalanadi: *sen + lar + ning uy + ing-* .

V. Shaxsda muvofiqlashuv, sonda va modallikda moslashuv yuzaga keladi: 1) 'sizlash' ifodalanadi: *siz + lar + ning uy + ingiz 1-, ular 2 + ning uy + lari-* ; 2) 'senlash' ifodalanadi: *sen + lar + ning uy + lar + ing-* .

VI. Shaxsda muvofiqlashuv, sonda moslashuv yuzaga keladi, modallik ifodalanmaydi: *biz + lar + ning uy(lar) + imiz 1-, siz + lar + ning uy(lar) + ingiz 1-* .

VII. Shaxsda muvofiqlashuv voqe bo'ladi, qaralmish tarkibidagi nisbatlovchi son jihatidan betaraf bo'ladi, modallik ifodalanmaydi: *u + ning uy(lar) + i-, ular + ning uy(lar) + i-, buvi(lar) + im + ning ro'mol(lar) + i-* .

VIII. Shaxsda, sonda, modallikda (agar ifodalansa) moslashuv voqe bo'ladi: *o'z + im + ning uy(lar) + im-, o'z + ing + ning uy(lar) + ing-, o'z + i + ning uy(lar) + i-, o'z + imiz 1 + ning uy(lar) + imiz 1-, hamma || ikki + miz 1 + ning uy(lar) + imiz 1-, .. hamma || ikkov + lari 1 + ning uy(lar) + i-* .

Yuqoridagi tasvirga ko'ra:

1. Qaratuvchili birikmaning sakkizinch turida qaratuvchining ifoda materiali (*o'z-, hamma-, ikki-* kabi leksemalar) tufayli birinchi a'zo tarkibidagi nisbatlovchi bilan ikkinchi a'zo tarkibidagi nisbatlovchi o'zaro shaxsda, sonda, o'mi bilan modal ma'noda moslashadi.

2. Qolgan yetti tur birikmada qaralmish tarkibidagi nisbatlovchi ifodalaydigan shaxs ma'nosi qaratuvchi vazifasidagi leksemashaklning asosidan anglashiladigan shaxs ma'nosiga muvofiqlashadi.

3. Qaratuvchili birikmaning bu yetti turidan uchtasida (I, II, III) sonda muvofiqlashuv yuzaga keladi, ikki turida (V, VI) sonda moslashuv voqe bo'ladi, bir turida (IV) sonda moslashuv yo'qoladi, bir turida (VII) qaralmish son jihatidan betaraf bo'ladi.

4. Modallik bu yetti tur birikmaning uchtasida (I, VI, VII) ifodalanmaydi (betaraf bo'ladi), ikkitasida (II, IV) modallikda muvofiqlashuv, bittasida (V) moslashuv voqe bo'ladi, bir turida (III) modallik faqat bir a'zoda ifodalanadi.

5. Ayni vaqtida ham shaxsda, ham sonda muvofiqlashuv ikki tur (I, II) birikmada, ham shaxsda, ham modallikda muvofiqlashuv bir tur (IV) birikmada, uch jihatda (shaxsda, sonda, modallikda) muvofiqlashuv ham bir tur (II) birikmada voqe bo'ladi.

6. Demak, muvofiqlashuv yetti tur birikmaning barchasida shaxs ma'nosining ifodalanishida namoyon bo'ladi. Bunday birikmalarning ma'lum turlarida moslashuv ham ichki, juz'iy hodisa sifatida qatnashadi.

7. Qaratuvchining kelishik shakli, qaralmish tarkibidagi sonlovchi birikma a'zolari orasidagi mutanosiblikda qatnashmaydi.

Yuqoridagi belgi-xususiyatlar qaratuvchili birikma a'zolari orasidagi sintaktik aloqa moslashuv emas, balki muvofiqlashuv ekanini tasdiqlaydi. Ummumani, o'zbek tilida mustaqil sintaktik hodisa sifatida moslashuv aloqa turi mavjud emas.

7- §. O'zbek tilining turkiy til sifatida o'ziga xos xususiyatlaridan biri – kelishik affiksini "yashirish"ga, ishlatmaslikka yo'l qo'yilishi. Bunday hodisani bosh kelishikning nol ko'rsatkichli morfema bilan ifodalanishidan farqlash lozim: affiksning yo'qligi – boshqa-yu, affiksni "yashirish", ishlatmaslik – boshqa.

Qaratqich kelishigi ko'rsatkichining ikki xil ishlatilishi – saqlanishi (belgili bo'lishi) va tushirilishi (belgisiz bo'lishi) azaliy emas; belgisiz ishlatilish keyinchalik yuzaga kelgan. Har qanday qaratuvchili birikmada qaratqich kelishigini belgisiz ishlataverish mumkin emas: *tolning soyasi-* va *tol soyasi-* deyiladi, lekin *cholning nabirasi-* kabi birikmada qaratqich kelishigi faqat belgili ishlatiladi.

Umuman, qaratqich kelishigining belgisiz ishlatilishi birikma tarkibida voqe bo'ladi, ma'no nozikligini ifodalashdan tashqari, asosan uslubiy vosita sifatida xizmat qiladi. Shu bilan birga qaratqich kelishigining belgisiz ishlatilishini belgili ishlatilishiga aylantirish imkoniyati albatta bo'ladi. Agar shunday imkoniyat bo'lmasa-gina, qaratqich kelishigi haqida emas, bosh kelishik haqida gapirish lozim.

8- §. Qaratuvchi-qaralmish birikmasida qaratqich kelishigini belgili ishlatishning o'ziga xos shartlari mavjud:

1. Qaratuvchi ot turkumidan boshqa turkum leksemashakli bilan ifodalanana:

1) kishilik olmoshi bilan: *mening uyim-, sizning takliflaringiz-, ularning mahallasi-* kabi; 2) guman olmoshi bilan: *kimningdir tovushi-, birovlarning oyog'i-* kabi; 3) sifat tur olmosh bilan: a) ko'rsatish olmoshi bilan: *buning yoni-, shularning barchasi-* kabi; b) belgilash olmoshi bilan: *har kimning tashabbusi-, har narsaning mavridi-* kabi.

2. Qaratuvchi atoqli ot leksemashakli bilan ifodalanganida: *Abdukarimning opasi-, Qorasuvning bo'yi-* kabi. Ayrim birikmalarda qaratqich kelishigini belgili ham, belgisiz ham ishlatish mumkin: *Toshkent bozorlari-, Toshkentning bozorlari-* kabi.

3. Qaratuvchi turdosh ot leksemashakli bilan ifodalanganida qaratqich kelishigining belgili ishlatilishi ko'pincha qaralmish ot turkumidan boshqa

turkum leksemasi bilan ifodalanganida voqe bo‘ladi: 1) *bolalarning kattasi*, 2) *xonalarning uchtasi*, 3) *so‘roqlarning hammasi*- kabi.

4. Ketishikdan oldin nisbatlovchi qatnashganida: *ukangning qizi*, *shogirdimning ishi*- kabi.

5. Qaratqich kelishigining belgili, belgisiz ishlatalishi qaratuvchi bilan qaralmishning distant joylashuvi tufayli, uslub talabiga ko‘ra ham voqe bo‘ladi.

9- §. O‘zbek tilshunosligining dastlabgi taraqqiyot bosqichida qaratqich kelishigining belgili-belgisiz ishlatalishi tan olinib, chuqur tahlil qilingan. Keyinchalik qaratqich kelishigining belgisiz ishlatalishini bosh kelishik deb talqin etish yuzaga keldi. Bunday qarash kelishikni faqat bir jihat — ifoda jihatasi asosida belgilash natijasida paydo bo‘ldi; bunday qarashda morfema ikki jihatning — ifoda jihatasi va mazmun jihatining bir butunligiga teng ekani yetarli hisobga olinmadidi. Eng nomaqbul tomoni shuki, o‘zbek tili (turkiy til) hodisasi rus tili (hind-yevropa tillari) nuqtayi nazaridan yondashib baholandi. Haqiqatda, rus tilida o‘zbek tilidagi kabi kelishik ko‘rsatkichini yashirish (tushirish) hodisasi yo‘q.

*Kitobning muqovasi*- o‘rniga *kitob muqovasi*- tarzida ishlatalish oqibatida grammatik ma’noda ma'lum o‘zgarish yuz beradi (ta’kid yo‘qoladi, ‘xil’ ma’no qirrasi yuzaga keladi), lekin sintaktik aloqa o‘zgarmaydi, demak, sintaktik vazifa ham o‘zgarmaydi; bunday qurilmalarda asli kelishik almashmaydi, ayni shu kelishik bir shakldan (belgili shakldan) ikkinchi shaklga (belgisiz shaklga) o‘tadi. O‘zbek tilining bunday o‘ziga xos xususiyatini inkor etish-gina belgisiz qaratqich kelishigini bosh kelishik deb talqin qilishga olib keladi. Kelishikning belgili-belgisiz ishlatalishini o‘zbek tilining milliy xususiyati sifatida har tomonlama chuqur o‘rganish lozim.

### I z o f a b i r i k m a s i

10- §. Bunday birikma "izofalovchi X izofalanlmish" qolipida tuziladi. Birikmaning birinchi a’zosi bosh kelishikdagi ot leksemashakl bilan, ikkinchi a’zosi esa III shaxs nisbatlovchisi qo‘shilgan ot leksema bilan ifodalananadi, har ikki a’zo birlik son shaklida bo‘ladi: *Toshkent shahri*, *ko‘klam fasli*- kabi:

ot leksema	birlik son shakli	bosh kelishik	X	ot leksema	birlik son shakli	III shaxs nisbatlov- chisi	-
leksemashakl				leksema			
izofalovchi				izofalanlmish			
i z o f a				b i r i k m a s i			
(T o sh k e n t				sh a h r i -)			

Bu tur birikmani qaratuvchili birikmaning kelishigi belgisiz ishlatiladigan ko'rinishidan farqlash lozim. Masalan, *Toshkent ko'chalari* — qaratuvchili birikma, chunki uni *Toshkentning ko'chalari*- shaklida ham ishlatish mumkin; *Toshkent shahri* — izofa birikmasi, chunki uning birinchi a'zosi bosh kelishik shaklida bo'ladi. Izofa birikmasida ikkinchi a'zo faqat ot leksema bilan ifodalanadi, faqat III shaxs nisbatlovchisi qatnashadi, chunki birinchi a'zo ham faqat ot leksemashakl bilan ifodalanadi.

Izofa birikmasi a'zolari orasidagi sintaktik aloqa — muvofiqlashuv aloqasi: nisbatlovchi (morfema) birinchi a'zoning asosidan anglashiladigan shaxsson ma'nosiga mutanosib holda qo'shiladi (modal ma'no betaraf bo'ladi).

11- §. Izofa birikmasining ikkinchi a'zosi turdosh ot leksema bilan, birinchi a'zosi esa atoqli ot leksemashakl bilan ham, turdosh ot leksemashakl bilan ham ifodalanadi.

I. Birinchi a'zo atoqli ot leksemashakl bilan ifodalanadi va:

1) predmetning nomini bildiradi: a) joy nomi bo'ladi, bunda birikmaning ikkinchi a'zosi joy ma'nosini anglatadigan turdosh ot leksema bilan ifodalanadi: *Bekobod shahri*-, *Oloy tog'i*- kabi; b) oliv unvonni, mukofotni bildiradi: bunda birinchi a'zo atoqli otga tenglashtirilgan leksemashakl yoki birikmashakl bilan, ikkinchi a'zo esa *unvon*-, *orden*-, *nishon*- kabi leksema bilan ifodalanadi: "*O'zbekiston Qahramoni*" *unvoni*-, "*Sog'lom avlod uchun*" *ordeni*-, "*Xalq maorifi a'lochisi*" *nishoni*- kabi;

2) predmet nimaning nomi bilan atalganini bildiradi: a) joy nomi bo'ladi, bunda birikmaning ikkinchi a'zosi joy ma'nosini anglatadigan turdosh ot leksema bilan ifodalanadi: *Ifixor mahallasi*-, *Mardlik ko'chasi*- kabi; b) tashkilot, muassasa nomini bildiradi, bunda ikkinchi a'zo shunday ma'noni anglatadigan turdosh ot leksema bilan ifodalanadi: "*Paxtakor*" *stadioni*-, "*G'uncha*" *kinoteatri*-, "*Gulzor*" *kafesi*- kabi.

Yuqorida tasvirlangan qurilmalar *degan*-, *nomli*- leksemalar bilan tuziladigan qurilmalarga sinonim: "*G'uncha*" *kinoteatri* — "*G'uncha*" *nomli kinoteatr*- kabi;

3) predmet kimningdir nomi bilan atalganini bildiradi. Bunda birinchi a'zo kishi atoqli oti bo'ladi, ikkinchi a'zo esa: a) joy nomi bo'ladi: *Navoiy viloyati*-, *Sobir Rahimov tumani*-, *Amir Temur xiyoboni*- kabi; b) tashkilot, muassasa kabilarning nomi bo'ladi: *Furqat bog'i*-, *Muqimiy teatri*-, *Nobel mukofoti*- kabi.

Yuqorida tasvirlangan ikki qurılma *nomidagi*, *nomi bilan atalgan* leksemashakli, birikmashakli qatnashib tuziladigan qurilmaga sinonim: *Muqimiy teatri* — *Muqimiy nomidagi teatr*- kabi. Lekin keyingi tur qurılma izofa

birikmasi emas, qaratuvchili birikmaga teng: *Muqimiyning nomidagi teatr-*. Bunday qurilmalarda *nomli* leksemashaklini ishlatish — xato;

4) biror joyda mavjud tashkilot, muassasa kabilarni bildiradi; bunda birinchi a'zo geografik atoqli ot leksemashakl bilan, ikkinchi a'zo esa tashkilot, muassasani anglatadigan turdosh ot leksema bilan ifodalanadi: *Toshkent metropoliteni-, Samarqand universiteti-* kabi.

II. Har ikki a'zosi turdosh ot bilan ifodalanadi. Bunday birikmalar ko'p va rang-barang bo'lib, maxsus o'rganilishi kerak. Bu yerda ayrim ko'rinishlarini keltiramiz.

Bunday birikmalarda birinchi a'zo ikkinchi a'zo anglatadigan predmetning:

1) nomini bildiradi: *o'zbek millati-, misr paxtasi-, navro'z bayrami-, avgust oyi-, shanba kuni-* kabi;

2) turini bildiradi: *meva daraxti-, xo'jalik ishlari-, madaniyat bo'limi-, savol nazari-* kabi;

3) nimaga xoslanganligini bildiradi: *gazeta kioskasi-, bilet kassasi-* kabi;

4) nima bilan shug'ullanishini bildiradi: *tibbiyot instituti-, lug'at bo'limi-, bog'dorchilik shirkati-* kabi;

5) o'xshatishni bildiradi: *it azobi-, jon achchig'i-* kabi;

6) birinchi a'zo ko'chirma qismga teng bo'ladi; bu tur birikma asosan darsliklarda, ilmiy asarlarda ishlatiladi: "a" *burchagi-*, "ab" *chizig'i-*, "9" *raqami-*, "b" *harfi-*, "-di" *affiks-*, "*mehnat faoliyatini*" *birikmashakli-*, "*Otang bolasi bo'lma, odam bolasi bo'l!*" *magoli-* kabi va b.

Tasvirdan ko'rindaniki, izofa birikmasining a'zolari doim kontakt holatda bo'ladi; birinchi a'zo anglatadigan predmetlik ma'nosiga go'yo belgi semasi qo'shilib turadi. Bunday qurilmada bir predmet boshqa predmetga nisbat berilmaydi, balki birinchi predmet (keng ma'noda) ikkinchi predmetga belgi sifatida keltiriladi. Shu tufayli bunday qurilma qismlarida bir butunlikka sil-jish seziladi: *ko'z yoshi-, odam bolasi-, jahl oti-* kabi.

### Izohlovchili birikma

12- §. Bunday birikmaning har ikki a'zosi odatda predmet ma'nosini anglatadigan leksema(shakl) bilan, ba'zan-gina izohlovchi belgi ma'nosini anglatadigan leksema(shakl) bilan ifodalanadi; natijada predmet ma'lum bir tavsif olgan holda anglatiladi: *shoir Mirtemir-, Malik pakana-* kabi.

Bunday birikmaning birinchi a'zosi vazifasida birlik, bosh kelishikdag'i atoqli ot leksemashakl keladi, ikkinchi a'zosi leksemaga teng bo'ladi; kelishik morfemasi birikmaga keyingi sintaktik bog'lanish natijasida qo'shiladi.

Izohlovchi odatda izohlanmishidan keyin, ba'zi tur izohlovchi esa izohlanmishidan oldin joylashadi; shunga ko'ra bunday birikmaning qolipi ikki ko'rinishda namoyon bo'ladi:

1) atoqli ot leksema	birlik son shakli	bosh kelishik shakli	X	predmet, belgi ma'nosini anglata- digan leksema	birlik son shakli	-
-------------------------	----------------------	----------------------------	---	---	----------------------	---

lek s e m a sh a k l

i z o h l a n m i sh

i z o h l o v c h i l i

(M a l i k

lek s e m a

i z o h l o v c h i

b i r i k m a

p a k a n a -)

2) predmet, belgi ma'nosini anglata- digan leksema	birlik son shakli	bosh kelishik shakli	X	atoqli ot leksema	birlik son shakli	-
--	-------------------------	----------------------------	---	----------------------	----------------------	---

lek s e m a sh a k l

i z o h l o v c h i

i z o h l o v c h i l i

(sh o i r

lek s e m a

i z o h l a n m i sh

b i r i k m a

M i r t e m i r -)

Izohlovchili birikmaning birinchi a'zosi bosh kelishik shaklida bo'la turib tobe sintaktik aloqani ta'minlaydi; demak, bosh kelishik mutlaq hokimlik ko'rsatkichi deyish to'g'ri emas.

Izohlovchili birikma a'zolari orasidagi sintaktik aloqa bitishuv aloqasi deyiladi. Bunday birikmadagi sintaktik aloqa sifatlovchili birikmadagi bitishuv aloqasidan farq qiladi: izohlovchili birikmaning birinchi a'zosi bosh kelishikda bo'ladi (Kelishikdan oldin birlik son shakli qatnashadi). Bunday a'zo ot yoki ot hukmidagi leksema bilan ifodalangani sababli biror kelishik shaklida bo'ladi, ana shunday kelishik sifatida eng umumiy, eng keng qamrovli bosh kelishik keladi.

**13- §. 1.** Quyidagicha ifodalangan izohlovchi izohlanmishidan keyin joylashadi:

1) qarindoshlik ma'nosini anglatadigan leksema bilan: *Shuhrat aka-, Feruza opa-, Zamira xola-* kabi;

2) mashg'ulotni, kasbni anglatadigan leksema bilan: *Tolib qassob-, Ilhom choyxonachi-, Ravshan oshpaz-* kabi;

3) Ism, ota ism, familiyadan iborat qurilmalarda ham keyingi leksema(lar) izohlovchi hisoblanadi: *Hamid Olimjon-, Sa'di Hasanovich Sirojiddinov-* kabi;

4) taxallus, laqab sifatida ishlatiladigan leksema bilan: *Alisher Navoiy-, Olim janjal-* kabi.

2. Quyidagicha ifodalangan izohlovchi izohlanmishidan oldin joylashadi:

1) lavozim, unvon kabilarni anglatadigan leksema bilan: *akademik Doli-mov-, leytenant Rahimov-* kabi;

2) nisbatlovchi qo'shilgan qarindoshlik leksemasi bilan: *otasi Abduhamed-, opasi Salima-* kabi.

Yuqoridagi tasvirlardan ayon bo'ladiki, o'zbek tilida izohlovchili birikmaning qolipi asli "izohlanmish X izohlovchi" ko'rinishida bo'lган, hozir ham shu ko'rinishi yetakchi.

### Ta'kidlovchili birikma

**14- §.** Bunday birikma "ta'kidlanmish X ta'kidlovchi" qolipida tuzilib, quyidagi turlarga ajratiladi:

I. Birikmaning birinchi (hokim) a'zosi bosh kelishikdagi kishilik olmoshi bilan ifodalanadi, ikkinchi (tobe) a'zosi bosh kelishikdagi *o'z-* ta'kid birligi bilan, jamlovchi son, jamluk ma'nosini anglatadigan *hamma-* kabi leksema bilan ifodalanadi; ikkinchi a'zoga birinchi a'zosidan anglashiladigan shaxs-son ma'nosiga monand ravishda nisbatlovchi qo'shiladi, muvofiqlashuv aloqasi voqe bo'ladi; bu ikki leksemashakl bosh kelishikda moslashadi: *Mening o'zim javobgarman* kabi. Bunday ta'kidlovchili birikma bir sintaktik vazifaga xoslangan bo'ladi: ega vazifasida keladi.

1. Bunday birikmaning ikkinchi a'zosi *o'z-* ta'kid birligi bo'lганida birinchi a'zo birlik va ko'plik kishilik olmoshlari bilan ifodalanib, quyidagicha qolipda tuziladi:

Birlik yoki ko'plik kishilik olmoshi	bosh kelishik shakli	X	<i>o'z-</i> ta'kid birligi	kishilik olmo-shiga monand nisbatlovchi	bosh kelishik shakli
<b>le k s e m a s h a k l</b>			<b>le k s e m a s h a k l</b>		
<b>ta'k i d l a n m i s h</b>			<b>ta'k i d l o v c h i</b>		
<b>ta'k i d l o v c h i l i</b>			<b>bi r i k m a</b>		
<i>M e n</i>			<i>o'z i m</i>		
<i>S e n</i>			<i>o'z i n g</i>		
<i>B i z</i>			<i>o'z i m i z</i>		
<i>S i z</i>			<i>o'z i n g i z</i>		

2. Bunday birikmaning ikkinchi a'zosi bo'lib jamlovchi son, jamluk ma'nosini anglatadigan *hamma-* kabi leksema kelganida birinchi a'zo ko'plik

kishilik olmoshi bilan ifodalanadi, ikkinchi a'zoga ana shu kishilik olmoshiga monand ravishda ko'plik nisbatlovchisi qo'shiladi:

ko'plik kishilik olmoshi	bosh kelishik shakli	X	<i>ikkov-</i> , <i>hamma-</i> ka- bi leksema	kishilik olmoshiga monand nisbatlovchi	bosh kelishik shakli
leksema shakl				leksema shakl	
ta'kidlan mish				ta'kidlovch i	
			ta'kidlovchili		birikma
Biz				ikkovimiz, hammamiz	
Siz				ikkovingiz, hammangiz	

Bu tur birikmada shaxs-son ma'nosining ifodalanishida pleonazm mavjud bo'lgani sababli nutqda ta'kidlan mish ba'zan tushiriladi, natijada ta'kidlovchining o'zi ega vazifasida keladi: *Men o'zim keldim – O'zim keldim.*

I z o h. *Kampir uchovi-* kabi qurilmalar asli uyushiq bo'lak hodisasi bilan bog'liq.

II. Kecha-kunduzning ma'lum payti ta'kidlanadi: *kecha kechqurun; ertalab soat to'qqizda* kabi. Bunday birikmaning birinchi (ta'kidlanuvchi) a'zosi odatda payt ravishi, payt ma'nosini anglatadigan "(soat X sanoq son)da" tuzilishli qurılma bilan ifodalanadi. Bularni jadvalda quyidagicha tasvirlash mumkin:

payt ravishi	'hollovchi' semasi	X	payt ravishi	'hollovchi' semasi
leksema shakl			leksema shakl	
ta'kidlan mish			ta'kidlovch i	
ta'kidlovchili			birikma	
kech a			kechqurun	

payt ravishi	'hollovchi' semasi	X	(soat X sanoq son) + da
leksema shakl			qurilm a
ta'kidlan mish			ta'kidlovch i
ta'kidlovchili			birikma
ertalab			soat to'qqizda

15- §. Ta'kidlovchining alohida turi *Xovos tepasida, tog'da..; har qanday odamni, hatto Davlatbekovni..* kabi qurilmalar bilan ifodalanadi. Bunday qurilmada ta'kidlovchi bilan ta'kidlan mish asosan ayni bir grammatik shakldagi birlik bilan (leksemashakl bilan, birikmashakl bilan) ifodalanadi; o'zarlo

pauza bilan ajratiladi, shunga ko'ra adabiyotlarda ajratilgan bo'lak deb talqin qilinadi. Asli bunday qurilmani izoh qurilmasi deyish to'g'riroq.

ot lekesema yoki ot birikma	S	K	X	ot lekesema yoki ot birikma	S	ayni shu K
lek s e m a s h a k l				lek s e m a s h a k l		
yoki b i r i k m a s h a k l				yoki b i r i k m a s h a k l		
t a ' k i d l a n m i s h				t a ' k i d l o v c h i		
t a ' k i d l o v c h i l i				b i r i k m a		
X o v o s   t e p a s i d a,				t o g' d a		

### To'ldiruvchili birikma

16- §. Bunday birikma "to'ldiruvchi X to'ldirilmish" qolipida tuziladi; birikmaning birinchi (tobe) a'zosi ot, ot tur, otlashib kelgan leksemashakl bilan, ikkinchi (hokim) a'zosi asosan boshqaruv xususiyatiga ega fe'l leksema bilan, qisman fe'l bo'lмаган leksema bilan ifodalanadi; hokim a'zoning boshqaruv xususiyatiga binoan boshqariluvchi a'zoga tobeklik ko'rsatkichi sifatida tushum kelishigi, makon kelishigi morfemasi yoki ko'makchi qo'shiladi, shunga ko'ra birikma a'zolari orasidagi sintaktik aloqa boshqaruv aloqasi deyiladi:

ot, ot tur, otlashib kel- gan leksema	son- lovchi	tushum, makon kelishigi yoki ko'makchi	X	boshqaruv xususiyatiga ega fe'l yoki fe'l bo'lмаган leksema		-
lek s e m a s h a k l				lek s e m a		
t o ' l d i r u v c h i				t o ' l d i r i l m i s h		

17- §. Fe'l leksemaga xos boshqaruv xususiyati boshqa turkum leksemlariga xos boshqaruv xususiyatidan keskin farq qiladi. Masalan, sifat leksemaga xos boshqaruv xususiyati belgi qiyosiy ifodalanadigan qurilmada voqe bo'ladi, bunda sifat leksema kesim vazifasida keladi: *Gilos olchadan yirik, Paxtaning bu navi boshqa navlariga qaraganda serhosil* kabi.

Fe'l leksemaga xos boshqaruv xususiyati birikma doirasida voqe bo'ladi, shunga ko'ra fe'l leksema vazifasini bu yerda to'ldiruvchiga nisbatan kesim deb belgilash o'rinni emas. Masalan, *vazifani bajar-* birikmasida *vazifa-* leksemasining tushum kelishigida kelishini bevosita *bajar-* leksemasining o'zi belgilaydi: bu fe'l leksemadan biror predmetga bevosita o'tadigan harakat ma'nosi anglashiladi; shuning uchun ham bunday fe'l leksema o'timli deyiladi.

18- §. Hozirgi adabiy o'zbek tilidagi fe'l leksemalarning (tub yoki hosila ekanidan qat'i nazar) deyarli 45 % o'timsiz bo'lib, bularda to'ldiruvchini boshqarish xususiyati yo'q: *anqay-, bidirla-, jasurlan-* kabi. Lekin bunday fe'l

leksemaga orttirma yasovchisi qo'shilsa, boshqarish xususiyati paydo bo'ladi: *bidirlat-* (kimni), *kambag'allashtir-* (kimni) kabi.

Fe'l leksemalarning 55 %ga boshqaruv xususiyati xos; shulardan 35,3 % vositasiz to'ldiruvchini, 13 % vositali to'ldiruvchini, 6,7 % ham vositasiz, ham vositali to'ldiruvchini boshqara oladi.

Orttirma yasovchisi qo'shib, o'timsiz fe'llar ham o'timlilashuvini hisobga olsak, boshqaruv xususiyati o'zbek tilidagi deyarli barcha fe'llarga xos bo'lib chiqadi (Shaxssizlangan fe'l bundan mustasno).

**19- §.** To'ldiruvchilar ikki turli: 1) vositasiz to'ldiruvchi, 2) vositali to'ldiruvchi.

1) Tushum kelishigida shakllanib, *kimni*, *nimani* so'rog'iga javob bo'ladigan leksemashakl vositasiz to'ldiruvchi deyiladi: *dalani qo'msa-*, *yengni shimar-*, *tugunlarni titkila-*, *meni ko'r-* kabi. *Qayerni* so'rog'iga javob bo'ladigan leksemashakl ham vositasiz to'ldiruvchilar qatoriga kiritiladi. Massalan, *Har yerni qilma orzu*, *har yerda bor shu tosh-u tarozu* jumlasidagi *har yerni* — vositasiz to'ldiruvchi, *har yerda* — vositali to'ldiruvchi. Demak, tushum kelishigidagi leksemashakl vositasiz to'ldiruvchi deyiladi.

2) Makon kelishiklaridan birida yoki ko'makchi bilan shakllanib, *kim-*, *nima-* asosli so'roqqa javob bo'ladigan leksemashakl vositali to'ldiruvchi deyiladi: *cholga ma'qul tush-*, *ystiqqlarga yonboshla-*, *yelkamga qoq-*, *qo'limdan tut-* kabi.

### Vositasiz to'ldiruvchi

**20- §.** To'ldiruvchili birikmaning bu turi "vositasiz to'ldiruvchi X o'timli yoki o'timlilashgan fe'l leksema bilan ifodalangan to'ldirilmish" qolipida namoyon bo'ladi. Vositasiz to'ldiruvchi vazifasida tushum kelishigidagi leksemashakl keladi, kelishikdan oldin sonlovchi (o'mni bilan nisbatlovchi) qatnashadi:

ot, ot tur, ot- lashib kelgan leksema	son- lovchi	tushum kelishigi shakli	X	o'timli yoki o'timlilashgan fe'l lek- sema
leksemashakl				
vositasiz to'ldiruvchi				to'ldirilmish
vositasiz to'ldiruvchili				birikma
(ch i r o q + ØI + n i      o' ch i r - ) -				

Vositasiz to'ldiruvchidan harakat o'z ustida amalga oshadigan predmet ma'nosi anglashiladi: *chamadonni olib kir-*, *suvratlarni ko'r-*, *daftarlarni tek-shir-* kabi. Vositasiz to'ldiruvchi mavhum predmetni, to'ldirilmish mavhum harakatni bildirsa, harakatning predmetga o'tishi mavhum tasavvur qilinadi:

*jimlikni buz-, gapini angla-* kabi. Birikayotgan leksemalarning ma'no xususiyatiga bog'liq holda ba'zan hosila obyekt ma'no qirrasi ifodalanadi; bunda predmet harakat jarayonining hosilasi sifatida yuzaga keladi: *gapni gapir-, kuyni kuyla-* kabi.

Harakat predmetga to'liq emas, qisman o'tishini anglatish lozim bo'lsa, tushum kelishigi o'rniqa chiqish kelishigi ishlatalidi; *uzumni ye — uzumdan ye-* kabi. Shu yerda tushum kelishigi bilan chiqish kelishigi orasida bog'liqlik borligi namoyon bo'ladi.

21- §. Tushum kelishigining belgili yoki belgisiz ishlatalishi asli birikma tarkibida, shunda ham asosan vositasiz to'ldiruvchi ot leksemashakl bilan ifodalanida voqe bo'ladi:

1. Atoqli ot bilan ifodalansa, belgili ishlatalidi (semantik-grammatik omil): *Karimani chaqir-, Bahodirni kut-, O'zbekiston Milliy universitetini bitir-* kabi. Bu qoidadan chetga chiqish yo poetik nutqda yoki jonli so'zlashuvda voqe bo'ladi.

2. Turdosh ot bilan ifodalangan vositasiz to'ldiruvchining belgili yoki belgisiz tushum kelishigida ishlatalishi ham asli semantik omil asosida voqe bo'ladi. Bundan tashqari yana bir necha qo'shimcha omillar ham hisobga olinadi:

1) Kelishikdan oldin nisbatlovchi qatnashsa, belgili ishlatalidi (morphologik-sintagmatik omil): *opasini yaxshi ko'r-, qaddini g'oz tut-* kabi.

2) Vositasiz to'ldiruvchi vazifasida kelgan leksemashaklning sifatlovchisi bor-yo'qligiga e'tibor beriladi. Ma'lum bir tur sifatlovchi (masalan, olmosh bilan, -dagi affiksiga tugaydigan leksemashakl bilan ifodalangan sifatlovchi) qatnashsa, vositasiz to'ldiruvchi belgili tushum kelishigida ishlatalidi (sintaktik omil): *o'sha xotinni chaqir-, qo'lidagi cho'michni o'qtal-* kabi.

3) To'ldiruvchi bilan to'ldirilmish distant joylashsa (orada boshqa leksemashakl kelsa), vositasiz to'ldiruvchi belgili tushum kelishigida ishlatalidi (distantlik omili): *chorbog'ni tikka kes-, tugunlarni apil-tapil titkila-, xontaxtani turli ne'matlar bilan beza-* kabi.

4) Boshqaruvchi fe'l leksemaning semantik tabiatini ko'pincha unga bog'lanadigan vositasiz to'ldiruvchi belgili tushum kelishigida bo'lishini talab qiladi (leksik-semantik omil). Masalan, *hikoya qil-* fe'l leksemasi shunday xususiyatga ega: *voqeani hikoya qil-* kabi. *Ber-, ol-* kabi leksemalarga bog'lanadigan vositasiz to'ldiruvchi tushum kelishigining belgili va belgisiz shakllarida ishlatalaveradi: *kitobni || kitob ber-* kabi.

5) Tushum kelishigini belgili ham, belgisiz ham ishlatalish mumkin bo'ladigan qurilmalarda situativ omil asos bo'ladi: Vositasiz to'ldiruvchi anglatadigan predmetni ta'kidlash lozim bo'lsa, tushum kelishigi belgili shakl-

da, aks holda belgisiz shaklda ishlatiladi: *kitobni o'qi-* (ma'lum bir kitobni) – *kitob o'qi-* (umuman kitob mutolaa qilish) kabi.

6) Tushum kelishigining belgili yoki belgisiz shaklda bo'lishini uslub talabi hal etadi. Masalan, tushum kelishigidagi ikki leksemashakl qator kelib qolsa, uiardan birinchisi belgisiz, ikkinchisi belgili tushum kelishigida ishiatiladi: *kitob o'qishni sev-* kabi.

3. Quyidagi hollarda ot leksemashakl belgisiz tushum kelishigida qatnashadi:

1) *qil-* yordamchisi bilan tuzilgan fe'l leksemalarning birinchi qismi bo'lib kelganida: *g'alaba qil-, rahbarlik qil-, muomala qil-* kabi.

2) frazema, turg'un birikma tarkibida qatnashadigan vositasiz to'ldiruvchi ko'pincha belgisiz tushum kelishigida bo'ladi: *quloq sol-, farzand ko'r-, ma'no kasb et-* kabi.

22- §. Ot turkumidan boshqa turkum leksemashakllari vositasiz to'ldiruvchi bo'lib kelsa, tushum kelishigining belgili shaklida ishlatiladi:

1) olmosh leksemashakllar: a) ot olmoshlar: *meni chaqir-, nimanidir bahoma qil-, hech narsani tushunma-, har kimni maqta-* kabi;

2) fe'lning otdosh leksemashakli: *chiqib ketishini ham, chiqmasligini ham bilmay-, javob qaytarishni lozim top-* kabi;

3) fe'lning sifatdosh leksemashakli: *kelganini eshit-, ketayotganini ko'r-* kabi;

4) sifat leksemashakl: *eskini epla-, nordonni achchiqdan farqla-* kabi;

5) son leksemashakl: *o'nni ikkiga taqsimla-, beshni to'rtga qo'sh-* kabi.

23- §. Vositasiz to'ldiruvchi vazifasida keladigan leksemashakllar uchun asosiy holat – tushum kelishigining belgili shaklida ishlatilish. Tushum kelishigining belgisiz shaklida ishlatilish faqat vositasiz to'ldiruvchi ot leksemashakl bilan ifodalanganida voqe bo'ladi; belgisiz tushum kelishigida ishlatilish barcha leksemashakllarning taxminan beshdan bir qismiga to'g'ri keladi.

Demak, hozirgi o'zbek tilida tushum kelishigining belgili ishlatilishi yetakchi holat bo'lib, belgisiz ishlatilish ma'lum sabab va maqsadga ko'ra voqe bo'ladi. Lisoniy birlik sifatida vositasiz to'ldiruvchi qolipining bunday ikki ko'rinishda namoyon bo'lishi mazmun va uslub talablariga ko'ra voqe bo'ladi.

### Vositali to'ldiruvchi

24- §. To'ldiruvchili birikmaning bu turi vositali to'ldiruvchining grammatik shakliga va boshqaruvchi bo'lib qaysi turkum leksemasi kelishiga qarab quyidagicha qolipda namoyon bo'ladi:

ot, ot tur, otlashib kel- gan leksema	son- lovchi	makon kelishigi yoki ko'makchi	X	boshqaruv xususiyatiga ega fe'l yoki fe'l bo'lmagan leksema
		lek s e m a sh a k l		lek s e m a
v o s i t a l i t o ' l d i r u v c h i				t o ' l d i r i l m i s h
v o s i t a l i    t o ' l d i r u v c h i l i				b i r i k m a

Vositali to'ldiruvchi asosan makon kelishigi bilan shakllanadi, to'ldirilmish bo'lib asosan fe'l leksema keladi.

Makon kelishigidagi leksemashakl *kim-*, *nima-* asosli so'roqqa javob bo'lsa-gina vositali to'ldiruvchi vazifasida, *qayer-* asosli, *qachon* so'roqlariga javob bo'lsa, hollovchi vazifasida kelgan bo'ladi. Demak, makon kelishigidagi leksemashakldan predmet ma'nosining o'zi anglashilsa, vositali to'ldiruvchi, o'rinn, payt kabi ma'nolar ham anglashilsa, hollovchi bo'ladi.

25- §. Vositali to'ldiruvchi ko'pincha jo'nalish kelishigidagi leksemashakl bilan, to'ldirilmish esa fe'l leksema bilan ifodalananadi.

Boshqaruvchining fe'lidan boshqa turkum leksemasi bilan ifodalaniishi juda oz voqe bo'ladi: 1) ot leksema bilan ifodalananadi: *deputatlikka nomzod-*, *qariyalarga munosabat-* kabi; 2) sifat leksema bilan ifodalananadi: *maslahatga muhtoj-*, *ko'zi yoshga to'la-*, *Akam mendan uch yosh katta* kabi; 3) kesimlik leksemasi bilan ifodalananadi: *Bizdan sizga kim kerak?*, *Asar yigirma ikki bobdan iborat* kabi va b.

Fe'l leksema tomonidan boshqariladigan vositali to'ldiruvchi:

1) jo'nalish kelishigida shakllanadi: a) *kimga* so'rog'iga javob bo'ladi: *qizga razm sol-*, *xotiniga qara-*, *menga ayt-* kabi; b) *nimaga* so'rog'iga javob bo'ladi: *suvga qon-*, *yutuqqa erish-*, *azoblarga chida-* kabi;

2) chiqish kelishigida shakllanadi: a) *kimdan* so'rog'iga javob bo'ladi: *mehmondan uzr so'ra-*, *opasidan uyal-*, *akasidan hayiq-* kabi; b) *nimadan* so'rog'iga javob bo'ladi: *sharbatdan ho'pla-*, *va'dasidan ton-*, *kasaldan sog'ay-*, *qulupnaydan ikki dona ol-* kabi;

3) o'rinn kelishigida shakllanib, asosan *nimada* so'rog'iga javob bo'ladi (juda oz uchraydi); *musobaqada g'olib chiq-*, *tomirlarida muvozanat hosil qil-* kabi;

4) ko'makchi bilan shakllanadi: a) *bilan* ko'makchisi bilan: *dadasi bilan yot-*, *mehmonlar bilan so'rash-*, *ukasi bilan xayrlash-*; *ro'molcha bilan yelpi-* kabi; b) *haqida*, *to'g'risida* ko'makchisi bilan: *ishning yutuqlari haqida* || *to'g'risida gapir-* kabi.

### Hollovchili birikma

26- §. Bunday birikma "hollovchi X hollanmish" qolipida tuziladi; birikmaning birinchi (tobe) a'zosi turli turkum leksemasi bilan, ikkinchi (hokim) a'zosi asosan fe'l leksema bilan, ba'zan-gina boshqa turkum leksemasi bilan ifodalanadi. Masalan, hollanmish bo'lib: a) sifat leksema keladi: (*o'zidan*) *besh yosh katta-*, *bir yildan ortiq-* kabi; b) ravish leksema keladi: *Do'konlarda un ko'p*; d) *bor*, *yo'q* kesimlik leksemasi keladi: *Hovlimizda olma daraxti yo'q* kabi va b.

27- §. Hollovchining grammatik shakliga qarab bunday birikma a'zolari orasidagi sintaktik aloqa ikki turli bo'ladi: 1) bitishuv aloqasi, 2) boshqaruv aloqasi.

1. Bitishuv aloqasida hollovchi:

1) ravish, sifat, tasvir birligi bilan, olmoshning sifat va ravish turi bilan ifodalanadi:

ravish, sifat, tasvir birligi, olmoshning sifat, ravish turi	'hollovchi' semasi	X	fe'l leksema	-
l e k s e m a s h a k l	h o l l o v c h i		l e k s e m a	h o l l a n m i s h
bitishuv aloqasi bilan tuzilgan hollovchili birikma				

Bunday hollovchi quyidagicha ifodalanadi: a) ravish leksemashakl bilan: *darrov kiy-*, *endi ko'r-*, *baribir bor-* kabi; b) sifat leksemashakl bilan: *katta och-*, *qattigroq hansira-* kabi; d) tasvir birligi bilan: *dir-dir titra-*, *shatir-shutur yog-* kabi; e) olmosh leksemashakl bilan: *qachon kel-*, *shunday ko'rinh* kabi va b.;

2) fe'lning ravishdosh shakli bilan ifodalanadi:

fe'l leksema	ravishdosh shakli yasovchisi	X	fe'l leksema	-
l e k s e m a s h a k l	h o l l o v c h i		l e k s e m a	h o l l a n m i s h
bitishuv aloqasi bilan tuzilgan hollovchili birikma				

Bunday hollovchi: a) maqsad ravishdoshi shaklida bo'ladi: *ko'rgani kir-*, *to'yga aytgani kel-* kabi; b) payt ravishdoshi shaklida bo'ladi: *qaytgach gapirib ber-* kabi; d) ko'pincha -b ravishdoshi shaklida bo'ladi: *cho'kkalab o'tir-*, *maza qilib uxla-* kabi; e) ba'zan -a/-y ravishdoshi shaklida bo'ladi: *kela so'kina boshla-*, *o'ylamay gapir-* kabi va b.

2. Boshqaruv aloqasida hollovchili birikma "vositali to'ldiruvchi X to'ldirilmish" qolipida tuziladi; bunda hollovchi asosan ot leksema bilan ifodalanadi: a) Makon kelishiklaridan birida bo'ladi: *ko'chaga chiq-, eshikdan kir-, choyxonada ko'r-* kabi; b) Ko'makchi bilan shakllanadi: *g'ayrat bilan ishla-, kechikib kelgani uchun koyi-* kabi va b.

28- §. Hollovchi odatda fe'lga bog'lanib, harakat-holatning turli belgi-xususiyatlarini bildiradi. Qaysi turkumning qanday ma'noni anglatadigan leksemasi bilan ifodalishiga va qanday ma'noni anglatadigan fe'l leksemaga bog'lanishiga qarab turli ma'nolar bildiriladi; shunga ko'ra hollovchining bir qancha ma'no turlari ajratiladi:

- 1) tarz hollovchisi: *sein gapir-, sinchiklab qara-* kabi;
- 2) o'rin hollovchisi: *uyga qayt-, Toshkentdan kel-* kabi;
- 3) payt hollovchisi: *ertalab ket-, tunda yog'-* kabi;
- 4) miqdor hollovchisi: *Oz so'zla, ko'p tingla* kabi;
- 5) maqsad hollovchisi: *ataylab so'ra-, o'qishga || o'qish uchun kel-* kabi;
- 6) sabab hollovchisi: *joni achiganidan || joni achigani sababli urish-* kabi va b.

Misollardan ko'rindiki, hollovchining har bir ma'no turi turlicha shaklda ifodalanadi, shunga ko'ra ular har biriga xos so'roqlar asosida farqlanadi: qanday?, qanday qilib?, qay tarzda?; qancha?; qayerga?, qayerdan?, qayerda?, qachon?; nima maqsadda?, qanday maqsad bilan?; nima sababli, nima sabab bilan? kabi.

### **Yig'iq birikma va yoyiq birikma**

29- §. Birikma doim ikki a'zoli bo'ladi. Qaratuvchili birikmaning tobe a'zosi kishilik olmoshi bilan ifodalanganida bunday qaratuvchini ishlatmaslik mumkin; natijada birikmaga teng holat yo'qoladi, leksemaga teng holat voqe bo'ladi: *mening ukam- → ukam-* kabi. Kishilik olmoshi ifodalaydigan grammatik ma'nolarni qaralmish tarkibidagi nisbatlovchi ham ifodalagani tufayli pleonazm voqe bo'ladi, bu yerdagи ortiqchalik qaratuvchi vazifasida keladigan kishilik olmoshini ishlatmaslik bilan bartaraf qilinadi.

Shunga o'xshash hodisa *men o'zim* kabi birinchi a'zosi kishilik olmoshi bilan ifodaladanadigan ta'kidlovchili birikmada ham voqe bo'ladi: *sen o'zing → o'zing, biz hammamiz → hammamiz* kabi. Bu yerda ham birikmaga teng holat yo'qoladi.

Izohlovchili birikmada ham izohlovchini ishlatmaslik mumkin: *shoir Mirtemir- → Mirtemir-, Ravshan oshpaz- → Ravshan-* kabi.

Birikmalarning boshqa turlarida ikki a'zoli holat saqlanadi.

**30- §.** Birikmalar tarkibiga ko'ra yig'iq yoki yoyiq bo'ladi. Bir tobe va bir hokim a'zodan iborat bo'lsa, yig'iq birikma deyiladi: *kenja o'g'il-, choy-nakning qopqog'i-* kabi.

Amaliyotda birikmaning tobe a'zosi ko'pincha leksemashakl bilan emas, balki birikmashakl bilan ifodalanadi: *[(qarg'ashoyi X ko'ylak)li] X xotin-, [(anhор X bo'yi-)dagi] X shiypon-* kabi. Bunday birikmaning tobe a'zosi rang-barang va murakkab tarkiblarda tuziladi; ularning qismlari orasidagi sintaktik bog'lanishlarni ko'rsatish uchun qavs turlari yetishmaydi, qo'shimcha belgilardan foydalanish zarur bo'ladi; qavs va belgilar kichikdan kattaga tomon quyidagicha ishlatalidi: ( ), [ ], { }, < >, « », / /, \ \, || || .

Birikmaning hokim a'zosi ham birikma bilan ifodalanishi mumkin:

*[(uzun) X (g'ishtin yo'lka-)]-*,

*[(ulardagi) X (yangi X jihozlar-)]-*,

*[(uyning) X (singan derazasi-)]-* kabi.

Birikmaning tobe a'zosi birikmashakl bilan, hokim a'zosi birikma bilan ifodalanishi mumkin:

*[(to'sday X tim qora) X (qalin X soch-)]-*,

*[(chap X tomondagi) X (gator X uy-ayvonlar-)]-* kabi.

Mana bu misolda birikmashakl bilan birikma o'zaro bog'lanib, leksema bilan ifodalangan hokim a'zoga bir butun holda qaratuvchi sifatida tobelangan:

*{[(Qorasuv X sohili)dagi X (azim X tollar)] X [orqasi-]}-*

Quyidagi misollarda birikmashakl bilan ifodalangan a'zo leksemashakl bilan ifodalangan a'zoga tobelangan, shundan keyin bir butun holda sifatlovchi vazifasida kelgan:

*<{[(xontaxta X atrofi)ga X (to'shal)gan} X {ko'rpačalar-}]>-,*

*{[(Rahim X bobo) X (chor bog'i)ning] X [daragi-]}-,*

*{[(ko'chadan X o't)ayotgan X (yo'lovchi)]ning X [yurishi-]}-.*

Mana bu misolda qaratuvchi birikmashakl bilan ifodalangan; qaralmish tarkibi murakkab bo'lib, *bir tekis* sifatlovchili birikmasining *shivirlashi-* leksemasiga tabelanishi bilan tuzilgan; ana shunday murakkab tarkibli birikmaga qaratuvchi vazifasidagi birikma bog'langan:

*{[(jimjima) X (mayilar)]ning X [(bir X tekis) X shivirlashi-]}-.*

Birikma leksemaga yoki birikmaga tobelanib, biror sintaktik bo'lak vazifasida kelganida birikmaning hokim a'zosi bo'lib kelgan leksemaning turku-miga, tabiatiga bog'liq holda ma'lum bir grammatic shakl qo'shiladi. Bunday grammatic shakl birikmaning hokim a'zosiga qo'shib yozilsa ham, asli birikmaga bir butun holda taalluqli bo'ladi; shunga ko'ra bunday grammatic shakl ko'rsatkichi qavslardan chiqarib yoziladi:

*(qarg'ashoyi X ko'yak)li X xotin-*

Birikmaga bir butun holda qo'shiladigan bunday grammatic shaklga yaxlitlovchi grammatic shakl deyiladi. Yuqoridagi misolda bunday yaxlitlovchi grammatic shakl bo'lib -li atributiv (sifatlovchilik) shakl yasovchisi kelgan.

31-. §. Ikki va undan ortiq tobe a'zo birikmaning hokim a'zosiga to'g'ridan to'g'ri bog'lansa, yoyiq birikma deyiladi:

*[(quyuq) X (payvasta) X (qoshlar)-]-,*

*[(serdaraxt) X (keng) X (hovli-)]- kabi.*

Bunday birikma tarkibidagi tobe a'zolar hokim a'zoga to'g'ridan to'g'ri bog'languani sababli ularning o'mini almashtirish mumkin:

*[(payvasta) X (quyuq) X (qoshlar)-]- kabi.*

Mana bu misollarda birinchi tobe a'zo birikmashakl bilan, ikkinchi tobe a'zo leksemashakl bilan, uchinchi tobe a'zo leksema bilan ifodalangan; har uch tobe a'zo birgalikda yaxlitlovchi sifatdosh yasovchisi qo'shilgan holda hokim a'zoga tobelangan:

*<{[(uzun) X (tumshug'i)dan] X [(suv) X (soch)]ayotgan} X {g'oz-}>-,*

*/<{[(bostirma) X (soyasi)da] X [(jo'xori) X (ugalab o'tir)]}gan> X <dadasi->/- kabi.*

Keyingi misolda *bostirma soyasida* va *jo'xori* bo'laklari *ugalab o'tir*- qismiga to'g'ridan to'g'ri bog'langan, demak, yoyiq birikma deb shu qismlarning o'zini aytish lozim.

Mana bu misolda leksemashakl bilan ifodalangan *qoramag'iz*, *ko'rksam* sifatlovchilarining har biri *yuz-* sifatlanmishiga to'g'ridan to'g'ri tobelanib, yoyiq birikma hosil qilgan; birikmashakl bilan ifodalangan dastlabgi tobe a'zo ana shu murakkab birikmaga bog'langan:

*{[(issiq)dan X (burq)]gan X [(qoramag'iz) X (ko'rksam) X yuz-]}-.*

Yuqorida yig'iq va yoyiq birikmalar sifatlovchili birikmaning va qaratuvchili birikmaning ayrim ko'rinishlari asosida tasvirlandi.

Xullas, amaliyotda yig'iq birikmalar va yoyiq birikmalar turli-tuman tarkibda tuziladi. Birikma "leksemashakl yoki birikmashakl X leksema yoki birikma" tarkibi bilan tuzilsa, yig'iq birikma bo'ladi; "leksemashakl yoki birikmashakl X leksemashakl yoki birikmashakl .. X leksema yoki birikma" tarkibi bilan tuzilsa, yoyiq birikma bo'ladi. Bunda birikmashaklga, birikmaga teng a'zo o'z navbatida yig'iq yoki yoyiq bo'lishi mumkin.

### G A P S H A K L

1- §. G a p – eng muhim til birligi, chunki tilning asosiy vazifasiga – fikr bildirishga gap bilan erishiladi.

Gap ham boshqa sintaktik birliklar qatori supersegment lisoniy birlik: miyaning til xotirasi markazida gapning qoliplari mavjud. Gapning bosh qolipi ikki a'zodan, aniqrog'i – ikki sintaktik bo'lakdan iborat bo'ladi; bu sintaktik bo'laklar uchun qurilish ashyosi bo'lib birinchi navbatda leksemashakl xizmat qiladi. Demak, til qurilishi birliklari orasidagi ierarxiya bu yerda leksemashakl bilan gap orasida mavjud.

Ikki a'zoli gap leksemashakl bilan leksemashakl orasidagi sintaktik aloqaga asoslanadi; birikma esa bundan farqli holda leksemashakl bilan leksema orasidagi sintaktik aloqaga asoslanadi; gapning har ikki a'zosi tugal grammatic shakllangan bo'ladi; shunga ko'ra bunday birlikni g a p deb emas, g a p sh a k l deb nomlash aniqroq: *Havo isiy boshladi. Qozon qaynab turibdi.*

Gapning fikr predmetini anglatadigan bo'lagi ega, ana shu fikr predmetining ma'lum bir belgisini anglatadigan bo'lagi kesim deyiladi. Shunga ko'ra ega avvalo ot leksema bilan, boshqa turkum leksemalarining ot tur, otlashib kelgan ko'rinishi bilan ifodalanadi.

Ega bosh kelishikda bo'ladi; turlovchidan oldin o'rni bilan sonlovchi, nisbatlovchi ham qatnashadi; *Mehmonlar kelishdi. Ukam kelmadi. Men al-batta boraman.*

Kesim odatda tuslovchili leksemashakl bilan ifodalanadi; kesim egaga tuslovchi orqali bog'lanadi; qaysi shaxs (son, modal) ma'nosini ifodalaydigan tuslovchining tanlab qo'shilishini odatda ega vazifasidagi leksema, uning tarkibidagi ayrim grammatic ko'rsatkichlar belgilaydi.

Tuslovchi ega vazifasidagi leksemashakl talabiga ko'ra tanlab qo'shilishi sababli kesim egaga tobe deyiladi. Kesim tarkibidagi bo'lishli-bo'lishsizlik, mayl, zamon ko'rsatkichlarining egaga aloqasi yo'q: obyektiv vogelikka qarab tanlab qo'shiladi.

Gap bo'lish uchun zarur shaxs (son) ko'rsatkichi, shuningdek bo'lishli-bo'lishsizlik, mayl, zamon ko'rsatkichlari kesim tarkibida joy olgani tufayli bu bo'lak gapning grammatic markazi deyiladi.

Xullas, gapshaklning bosh qolipi "leksemashakl X leksemashakl" tarkibli bo'lib, har ikki leksemashakl gap bo'lagi mavqeiga ega; birinchi leksemashakl fikr predmetini bildiradi, hokim bo'lak hisoblanadi; ikkinchi leksemashakl esa fikr predmetining belgisini bildiradi, tobe bo'lak hisoblanadi; gapshaklning hokim bo'lagi ega, tobe bo'lagi kesim deyiladi; bularning muvofiqlashuv alo-

qasi bilan sintaktik bog'lanishi gapshaklni yuzaga keltiradi. Gapshakl lisoniy birlik sifatida asli qolipdan iborat, shunga ko'ra supersegment birlik deyiladi. Gapshakl qolipi aniq leksemashakl bilan to'ldirilganidan keyin segment birlikka aylanadi, ma'lum bir fikrni ifodalashga xizmat qiladi. Miyaning til xotirasi markazida gapshaklni tuzish qoliplari va ularni lisoniy birliklar bilan to'ldirish qoidalari mujassamlashgan. Ana shu qoliplarning lisoniy birliklar bilan to'ldirilgan holatiga nutq birligi (nutqiy birlik) deyiladi, j u m l a deb ataladi.

### E g a

2- §. Eganing hal etuvchi grammatic belgisi — bosh kelishik. Bu kelishikning affiksal ko'rsatkichi yo'q, shunga ko'ra nol ko'rsatkichli morfema deyiladi va  $\emptyset$  II tarzida yozib ko'rsatiladi.

Ega asosan ot leksema bilan ifodalanadi, shunga ko'ra bosh kelishikdan oldin predmetning miqdorini ifodalaydigan sonlovchi qo'shiladi (zarur o'rinda nisbatlovchi ham qo'shiladi): *Kun +  $\emptyset$  I +  $\emptyset$  II || Kun + lar +  $\emptyset$  II soviy boshladi. Taklif + lar + imiz +  $\emptyset$  II inobatga olindi* kabi.

Ega ot turkumidan boshqa turkum leksemalarining ot turi bilan, otlashib kelgan holati bilan ifodalanganida ham yuqoridagi grammatic ko'rsatikichlar qo'shiladi ("Leksemashakllar tizimi" bo'limiga qarang).

Eganing yuqoridagicha ifodalanishida shaxs ma'nosi odatda leksemadan anglashiladi, son ma'nosi esa morfema bilan ifodalanadi.

Ega *hamma-* kabi jamlik anglatadigan leksema, jamllovchi son, fe'lning ottosh Shakli bilan, *o'z-* ta'kid birligi bilan ifodalanganida grammatic son paradigmasining faqat birlik shaklida ishlataladi.

Ega *hamma-* kabi jamlik anglatadigan leksema bilan, sanoq son va jamllovchi son bilan ifodalanganida nisbatlovchilarining faqat ko'plik affiksulari qo'shiladi; *o'z-* ta'kid birligiga esa nisbatlovchilarining birlik va ko'plik affiksulari qo'shilaveradi.

Eganing kishilik olmoshi bilan ifodalanishi alohida ajralib turadi: uch shaxs-son ma'nosi kishilik olmoshi bilan ifodalanadi; demak, kesimning uch shaxsda tuslanishi asli ega kishilik olmoshi bilan ifodalanganida namoyon bo'ladi; boshqa hollarda kesimga faqat III shaxs tuslovchisi qo'shiladi (Kishilik olmoshlari bilan shaxs, son, modal ma'nolarining ifodalanishi "Leksemashakllar tizimi" bo'limida bayon qilindi).

### K e s i m

3- §. Kesim asosan fe'lning tuslovchili shakli bilan ifodalanadi (Tuslovchilar paradigma "Morfemalar tizimi" qismida tasvirlandi).

Kesimning *kelganman* kabi leksemashakl bilan ifodalanishi ayrim adabiyotlarda ot kesim deyiladi. Asli bunday leksemashakl tarkibida tuslovchidan oldin qatnashadigan -*gan* affiksi – sifatdosh yasovchisi emas, balki zamon yasovchisi; shunga ko'ra bunday ifodalanish fe'lning tuslovchili shakllari qatoriga kiradi.

Fe'l leksemashakl bilan ifodalangan kesim tuslovchi qatnashmagan holda ham shakllanadi. Bunday kesim odatda -*b* ravishdoshi shaklida bo'lib:

1) uyushiq qator tarkibidagi ayrim a'zoda voqe bo'ladi: *suv sepib, supurib qo'ydi* kabi;

2) qo'shma gapshakl tarkibidagi ergash gapshakl qismining kesimida voqe bo'ladi: *Kuz kelib, yaproqlar sarg'aya boshladi* kabi.

Fe'ldan boshqa turkum leksemasi odatda tuslovchi qo'shilib kesim vazifasida keladi: *Sog'lomman, O'qituvchi + ØI + ØII + siz* kabi. Bunday kesimda tuslovchi *edi* o'tgan zamon shaklini yasovchi affiksoidlardan keyin, *ekan, emish, emas* modal ma'no ifodalovchi affiksoidlardan keyin ham qo'shiladi: *Go'zal eding, Go'zal ekansan, Go'zal emishman, Go'zal emasman* kabi.

Boshqa hollarda mayl, zamon yasovchilar bevosita bu tur leksemashakllarga qo'shilmaydi, vositachi sifatida *bo'l-* yordamchisi ishlataladi; ana shunday vositachi *bo'lib* kelgan *bo'l-* yordamchisi bog'lama deyiladi: *O'qituvchi + ØI + ØII bo'l + sa + m, O'qituvchi + ØI + ØII bo'l + di + m, O'qituvchi + ØI + ØII bo'l + a + man* kabi.

### Kesimning ega bilan muvofiqlashuvi

4- §. Ega bilan kesimda shaxs, son, modal ma'nolarning ifodalanishi va o'zaro munosabati quyidagicha (Tasvirni yana-da murakkablashtirmaslik uchun kesim tarkibidagi bo'lishli-bo'lishsizlik ko'rsatkichi ta'kidlanmadi):

I. Shaxsda va sonda muvofiqlashuv yuzaga keladi, modallik ifodalanmaydi:

1. Men + ØII kel + ay(in), Biz 1 + ØII kel + aylik 1; Sen + ØII kel + ØV || kel + gin, Siz 1 + ØII kel + ingiz 1;

2a. Men + ØII keldi + m, Biz 1 + ØII keldi + k 1 || keldi + miz 1; Sen + ØII keldi + ng, Siz 1 + ØII keldi + ngiz 1;

2b. Men + ØII kelsa + m, Biz 1 + ØII kelsa + k 1; Sen + ØII kelsa + ng, Siz 1 + ØII kelsa + ingiz 1 [kerak], [bo'ladi];

3a. Men + ØII kela + man, Biz 1 + ØII kela + miz 1; Sen + ØII kela + san, Siz 1 + ØII kela + siz 1;

3b. Men + ØII kelgan + man, Biz 1 + ØII kelgan + miz 1; Sen + ØII kelgan + san, Siz 1 + ØII kelgan + siz 1;

3d. Men + ØII o'qituvchi + ØI + ØII + man, Biz 1 + ØII o'qituvchi + ØI + ØII + miz 1; Sen + ØII o'qituvchi + ØI + ØII + san, Siz 1 + ØII o'qituvchi + ØI + ØII + siz 1;

4a. Men + ØII kelgan + im yo'q, Biz 1 + ØII kelgan + imiz 1 yo'q; Sen + ØII kelgan + ing yo'q, Siz 1 + ØII kelgan + ingiz 1 yo'q;

4b. Men + ØII kelish + im kerak, mumkin; Biz 1 + ØII kelish + imiz 1 kerak, mumkin; Sen + ØII kelish + ing kerak, mumkin; Siz 1 + ØII kelish + ingiz 1 kerak, mumkin.

II. Shaxsda, sonda, modallikda muvofiqlashuv voqe bo'ladi:

1. 'Kamtarlik' yoki 'g'ururlanish' ifodalanadi:

1) Biz 2 + ØII kel + aylik 2;

2a) Biz 2 keldi + κ 2 || keldi + miz 2;

2b) Biz 2 + ØII kelsa + k 2;

3a) Biz 2 + ØII kela + miz 2;

3b) Biz 2 + ØII kelgan + miz 2;

3d) Biz 2 + ØII o'qituvchi + ØI + ØII + miz 2;

4a) Biz 2 + ØII kelgan + imiz 2 yo'q;

4b) Biz 2 + ØII kelish + imiz 2 kerak.

2. 'Sizlash' ifodalanadi:

1) Siz 2 + ØII + kel + ing || kel + ingiz 2;

2a) Siz 2 + ØII keldi + ngiz 2;

2b) Siz 2 + ØII kelsa + ngiz 2;

3a) Siz 2 + ØII kela + siz 2;

3b) Siz 2 + ØII kelgan + siz 2;

3d) Siz 2 + ØII o'qituvchi + ØI + ØII + siz 2;

4a) Siz 2 + ØII kelgan + ingiz 2 yo'q;

4b) Siz 2 + ØII kelish + ingiz 2 kerak.

III. Shaxsda, sonda muvofiqlashuv, modallikda moslashuv voqe bo'ladi. Bunda ega tarkibidagi *-lar II* hurmat shakli bilan moslashuv kesim tarkibi-dagi:

1. *-lar 2* affiksi yordamida amalga oshiriladi:

1) Opa + ØI + m + lar II + ØII kel + sin + lar 2;

2a) Opa + ØI + m + lar II + ØII keldi + ØVI + lar 2;

2b) Opa + ØI + m + lar II + ØII kelsa + ØVI + lar 2;

3a) Opa + ØI + m + lar II + ØII kela + di + lar 2;

- 3b) Opa + ØI + m + lar II + ØII kelgan + ØVI + lar 2;  
 3d) Opa + ØI + m + lar II + ØII o'qituvchi + ØI + ØII + ØVI + lar 2;  
 4a) Opa + ØI + m + lar II + ØII kelgan + lari yo'q 2;  
 4b) Opa + ØI + m + lar II + ØII kelish + lari kerak 2.

2. -sh 2 affixi yordamida amalga oshiriladi:

- 1) Opa + ØI + m + lar II + ØII kel + ish 2 + sin;
- 2a) Opa + ØI + m + lar II + ØII kel + ish 2 + di + ØVI;
- 2b) Opa + ØI + m + lar II + ØII kel + ish 2 + sa + ØVI;
- 3a) Opa + ØI + m + lar II + ØII kel + ish 2 + a + di;
- 3b) Opa + ØI + m + lar II + ØII kel + ish 2 + gan + ØVI;
- 4) Opa + ØI + m + lar II + ØII kel + ish 2 + gan + i yo'q.

IV. Shaxsda, sonda muvofiqlashuv voqe bo'ladi, modallik ('sizlash') faqat kesimda ifodalanadi:

1. -lar 2 affixi yordamida ifodalanadi:

- 1) Opa + ØI + m + ØII kel + sin + lar 2;
- 2a) Opa + ØI + m + ØII keldi + ØVI + lar 2;
- 2b) Opa + ØI + m + ØII kelsa + ØVI + lar 2;
- 3a) Opa + ØI + m + ØII kela + di + lar 2;
- 3b) Opa + ØI + m + ØII o'qituvchi + ØI + ØII + ØVI + lar 2;
- 4a) Opa + ØI + m + ØII kelgan + lar 2 + i yo'q;
- 4b) Opa + ØI + m + ØII kelish + lar 2 + i kerak;

2. -sh 2 affixi yordamida ifodalanadi:

- 1) Opa + ØI + m + ØII kel + ish 2 + sin;
- 2a) Opa + ØI + m + ØII kel + ish 2 + di + ØVI;
- 2b) Opa + ØI + m + ØII kel + ish 2 + sa + ØVI;
- 3a) Opa + ØI + m + ØII kel + ish 2 + a + di;
- 3b) Opa + ØI + m + ØII kel + ish 2 + gan + ØVII;
- 4) Opa + ØI + m + ØII kel + ish 2 + gan + i yo'q.

V. Shaxsda, modallikda ('senlash'da) muvofiqlashuv yuz beradi, sonda moslashuv yo'qoladi (ko'plik faqat egada ifodalanadi):

- 1) Sen + lar I + ØII kel + ØV || kel + gin;
- 2a) Sen + lar I + ØII keldi + ng;
- 2b) Sen + lar I + ØII kelsa + ng;
- 3a) Sen + lar I + ØII kela + san;
- 3b) Sen + lar I + ØII kelgan + san;

3d) Sen + lar I + ØII o'qituvchi + ØI + ØII + san;

4a) Sen + lar I + ØII kelgan + ing yo'q;

4b) Sen + lar I + ØII kelish + ing kerak.

VI. Shaxsda muvofiqlashuv, sonda va modallikda moslashuv voqe bo'ladi:

A. II shaxsning ko'pligida kesim tarkibidagi *-lar* 2 affaksi:

1. 'sizlash' ma'nosini ifodalashga xizmat qiladi:

1) Siz + lar I + ØII kel + ingiz 1 + lar 2;

2a) Siz + lar I + ØII keldi + ngiz 1 + lar 2;

2b) Siz + lar I + ØII kelsa + ngiz 1 + lar 2;

3a) Siz + lar I + ØII kela + siz 1 + lar 2;

3b) Siz + lar I + ØII kelgan + siz 1 + lar 2;

3d) Siz + lar I + ØII o'qituvchi + ØI + ØII + siz 1 + lar 2;

4a) Siz + lar I + ØII kelgan + lar 2 + ingiz 1 yo'q;

4b) Siz + lar I + ØII kelish + lar 2 + ingiz 1 kerak;

2. 'senlash' ma'nosini ifodalashga xizmat qiladi:

1) Sen + lar I + ØII kel + ing + lar 2 || kel + lar 2 + ing;

2a) Sen + lar I + ØII keldi + ng + lar 2 || keldi + lar 2 + ing;

2b) Sen + lar I + ØII kelsa + ng + lar 2 || kelsa + lar 2 + ing;

3a) Sen + lar I + ØII kela + san + lar 2;

3b) Sen + lar I + ØII kelgan + san + lar 2;

3d) Sen + lar I + ØII o'qituvchi + ØI + ØII + san + lar 2;

4a) Sen + lar I + ØII kelgan + lar 2 + ing yo'q;

4b) Sen + lar I + ØII kelish + lar 2 + ing kerak.

B. III shaxsning birligida 'sizlash' ma'nosini kesim tarkibida:

1. *-lar* 2 affaksi ifodalaydi:

1) Ular 2 + ØII kel + sin + lar 2;

2a) Ular 2 + ØII keldi + ØVI + lar 2;

2b) Ular 2 + ØII kelsa + ØVI + lar 2;

3a) Ular 2 + ØII kela + di + lar 2;

3b) Ular 2 + ØII kelgan + ØVII + lar 2;

4a) Ular 2 + ØII kelgan + lar 2 + i yo'q;

4b) Ular 2 + ØII kelish + lar 2 + i kerak;

2. *-sh* 2 affaksi ifodalaydi:

1) Ular 2 + ØII kel + ish 2 + sin;

- 2a) Ular 2 + ØII kel + ish 2 + di + ØVI;
- 2b) Ular 2 + ØII kel + ish 2 + sa + ØVI;
- 3a) Ular 2 + ØII kel + ish 2 + a + di;
- 3b) Ular 2 + ØII kel + ish 2 + gan + ØVII;
- 4) Ular 2 + ØII kel + ish 2 + gan + i yo'q.

VII. Shaxsda muvofiqlashuv, sonda moslashuv yuzaga keladi, modallik ifodalanmaydi:

- 1) Bizlar + ØII kel + aylik; Sizlar + ØII kel + ingiz 1;
- 2a) Bizlar + ØII keldi + k || keldi + miz 1; Sizlar + ØII keldi + ngiz 1;
- 2b) Bizlar + ØII kelsa + k || kelsa + miz 1; Sizlar + ØII kelsa + ngiz 1;
- 3a) Bizlar + ØII kela + miz 1; Sizlar + ØII kela + siz 1;
- 3b) Bizlar + ØII kelgan + miz 1; Sizlar + ØII kelgan + siz 1;
- 3d) Bizlar + ØII o'qituvchi + ØI + ØII + miz 1; Sizlar + ØII o'qituvchi + ØI + ØII + siz 1;
- 4a) Bizlar + ØII kelgan + imiz 1 yo'q; Sizlar + ØII kelgan + ingiz 1 yo'q;
- 4b) Bizlar + ØII kelish + imiz 1 kerak; Sizlar + ØII kelish + ingiz 1 kerak.

VIII. Shaxsda muvofiqlashuv yuz beradi, kesim son jihatdan betaraf bo'ladi, modallik ifodanmaydi:

- 1) U + ØI + ØII kel + sin; Ular 1 + ØII kel + sin; Hamma + ØI + ØII kel+sin;
- 2a) U + ØI + ØII keldi + ØVI; Ular 1 + ØII keldi + ØVI; Hamma + ØI + ØII keldi + ØVI;
- 2b) U + ØI + ØII kelsa + ØVI; Ular 1 + ØII kelsa + ØVI; Hamma + ØI + ØII kelsa + ØVI;
- 3a) U + ØI + ØII kela + di + ØVI; Ular 1 + ØII kela + di + ØVI; Hamma + ØI + ØII kela + di + ØVI;
- 3b) U + ØI + ØII kelgan + ØVII; Ular 1 + ØI + ØII kelgan + ØVII; Hamma + ØI + ØII kelgan + ØVII;
- 3d) U + ØI + ØII o'qituvchi + ØI + ØII + ØVII; Ular 1 + ØII o'qituv-chi + ØI + ØII + ØVII; Hamma + ØI + ØII o'qituvchi + ØI + ØII + ØVII;
- 4a) U + ØI + ØII kelgan + i yo'q; Ular 1 + ØII kelgan + i yo'q; Hamma + ØI + ØII kelgan + i yo'q;

4b)  $U + \emptyset I + \emptyset II$  kelish + i kerak; Ular  $1 + \emptyset II$  kelish + i kerak;  
Hamma +  $\emptyset I + \emptyset II$  kelish + i kerak.

IX. Shaxsda, sonda (agar ifodalansa, modallikda) moslashuv voqe bo'ladi. Bunday holat ega vazifasida nisbatlovchi olgan o'z- ta'kid birligi, *hamma-* kabi jamlik ma'nosini anglatadigan leksema, shuningdek sanoq son va jamlovchi son kelganida yuz beradi; shunda ega tarkibidagi nisbatlovchiga kesim tarkibidagi tuslovchi moslashadi. Ko'rindiki, mutanosiblik ega va kesim tarkibidagi grammatic ko'sratkichlar orasida yuz beradi, shunga ko'ra moslashuv voqe bo'ladi. Ega tarkibida nisbatlovchilar paradigmasing, kesim tarkibida tuslovchilar paradigmasing – boshqa-boshqa grammatic paradigmalarning vakili qatnashuvidan qat'i nazar, ular ayni bir grammatic ma'nolarni ifodalaydi.

1. Ega vazifasida *o'z- ta'kid* birligi kelgan gapshakllarga ayrim misollar:

- 1)  $O'z + \emptyset I + im + \emptyset II$  kel + ay(in);  $O'z + \emptyset I + imiz + \emptyset II$  kel + aylik;
- 2)  $O'z + \emptyset I + ing + \emptyset II$  keldi + ng;  $O'z + \emptyset I + ingiz + \emptyset II$  keldi + ngiz;
- 3)  $O'z + \emptyset I + im + \emptyset II$  kelgan + man;  $O'z + \emptyset I + imiz + \emptyset II$  kelgan + miz;
- 4)  $O'z + \emptyset I + ing + \emptyset II$  kelish + ing kerak;  $O'z + \emptyset I + ingiz + \emptyset II$  kelish + ingiz kerak kabi.

Yuqoridagi tur gapshakllarda III shaxs tuslovchisi son jihatdan betaraf ekanini nazardan soqit qilsak, boshqa grammatic shakllarda moslashuv amalga oshadi.

2. Ega *hamma-* kabi jamlik ma'nosini anglatadigan leksemalar bilan, shuningdek sanoq son va jamlovchi son bilan ifodalanganida bunday egaga ko'plik nisbatlovchilari qo'shiladi; shularga monand ravishda kesimga ko'plik tuslovchilari qo'shiladi: Hamma +  $\emptyset I + miz + \emptyset II$  kel + aylik; *Ikkala +  $\emptyset I + ngiz + \emptyset II$  keldi + ngiz*, *Uchov +  $\emptyset I + imiz + \emptyset II$  kechikdi + k* kabi.

Yuqorida tasvirlangan har ikki qurilmada asli ega *men o'zim* kabi ta'kidlovchili birikma bilan ifodalananadi. Nutqda ko'pincha kishilik olmoshi ishlatalmaydi, ta'kidlovchining o'zi ega vazifasida keladi: *Men o'zim keldim.* → *O'zim keldim* kabi.

X. Kesim egaga sonda moslashadi, shaxsda betaraf bo'ladi, modallik ifodalanmaydi:

$O'qituvchi + \emptyset I + \emptyset II$  men +  $\emptyset II + man$ ,

$O'qituvchi + lar + \emptyset II$  biz +  $\emptyset II + miz$ ;

$O'qituvchi + \emptyset I + \emptyset II$  sen +  $\emptyset II + san$ ,

O'qituvchi + lar + ØII siz + ØII + siz;

O'qituvchi + ØI + ØII u + ØI + ØII + ØVII,

O'qituvchi + lar + ØII ular + ØII + ØVII.

Bu tur gapshaklda kishilik olmoshi bilan ifodalanadigan kesimda shaxs ma'nosi ikki marta — asos va morfemadan anglashilishiga qaramay bu jihatdan ega bilan muvofiqlashmaydi.

Yuqoridagi tasvirga ko'ra:

1. To'qqizinchi tur gapshaklda eganing ifoda materiali sababli ega tarkibidagi nisbatlovchi bilan kesim tarkibidagi tuslovchi shaxsda, sonda, modal ma'noda moslashadi.

2. O'ninchи tur gapshaklda ega va kesimning ifoda materiali sababli kesim egaga sonda moslashadi, shaxsda betaraf bo'ladi, modallik ifodalanmaydi.

3. Qolgan sakkiz tur gapshaklda kesim tarkibidagi tuslovchi ifodalaydigan shaxs ma'nosi ega vazifasidagi leksemashaklning asosidan anglashiladigan shaxs ma'nosiga muvofiqlashadi.

4. Bu sakkiz tur gapshakldan to'rttasida (I, II, III, IV) sonda muvofiqlashuv yuzaga keladi, ikki turida (VI, VII) sonda moslashuv yuz beradi, bir turida (V) sonda moslashuv yo'qoladi, bir turida (VIII) kesim son jihatidan betaraf bo'ladi.

5. Modallik bu sakkiz tur gapshaklning uchtasida (I, VII, VIII) ifodalanmaydi; qolgan besh turning ikkitasida (II, V) modallikda muvofiqlashuv, ikkitasida (III, VI) moslashuv voqe bo'ladi, bittasida (IV) modallik faqat kesimda ifodalanadi.

6. Ayni vaqtida ham shaxsda, ham sonda muvofiqlashuv to'rt tur gapshaklda (I, II, III, IV) yuzaga keladi, bir tur gapshaklda (V) muvofiqlashuv shaxs va modallikda, yana bir tur gapshaklda (II) uch jihatdan — shaxs, son, modallikda ro'y beradi.

7. Xullas, shaxs, son, modal ma'nolarda muvofiqlashuv o'n tur gapshakldan sakkiz turida o'z aksini topadi. Ega bilan kesim orasidagi sintaktik aloqani moslashuv emas, muvofiqlashuv deb belgilashda avvalo ana shu sakkiz tur gapshakl nazarda tutiladi.

8. Muvoifiqlashuv, moslashuv qay darajada qatnashuvidan qat'i nazar, yuqorida tasvirlangan o'n tur gapshaklni birlashtirib turadigan hodisa — ega tarkibidagi bosh kelishik, kesim tarkibidagi zamon, mayl shakllari. Bosh kelishik gapshakl a'zolarini bog'lashda qatnashadi-yu, lekin ega bilan kesimning muvofiqlashuvida ishtirok etmaydi. Kesim tarkibidagi zamon, mayl paradigmalarining ko'rsatkichi ham ega bilan kesimning mutanosibligida qatnashmaydi. Ana shu keyingi holatlар ega bilan kesimning sintaktik bog'lanishi moslashuv emas, balki muvofiqlashuv ekanini qat'iy tasdiqlaydi.

## Gapshaklni yuzaga keltiradigan asosiy omillar

5- §. Kesimning, asli gapning grammatic shakllanishini ta'minlaydigan grammatic kategoriylar deb tasdiq-inkor (aniqrog'i — bo'lishli-bo'lishsizlik), mayl, zamon, shaxs-son (tuslash) kategoriylarining ko'rsatkichlari ta'kidlanadi (Bu grammatic kategoriyalarning har biri o'z o'mida bayon qilindi).

Yuqoridagi to'rt grammatic kategoriyanı kesimlik kategoriysi nomi bilan bir grammatic kategoriya birlashtirish, bu to'rt grammatic kategoriya kesimlik kategoriysi ichki tomonining yaxlitligidan iborat deyish o'zbek tili grammatic qurilishi tabiatiga zid.

Agglutinativ tur til ekaniga ko'ra o'zbek tilida yuqoridagi to'rt grammatic kategoriyaning har biri o'z paradigmaiga ega; leksemashakl tarkibida bu paradigmalar ko'rsatkichlarining o'ziga xos aranjirovkasi (joy olish tartibi va o'rni) bor; har bir grammatic kategoriya morfemasi o'z mohiyatini, mustaqilligini saqlab qo'shiladi, birining ma'nosini boshqasi ifodalamaydi.

Bu grammatic kategoriyalardan birortasining affiksal morfemasi qatnashmasa, uning ma'nosini boshqa morfema o'z ustiga oladi, natijada fuzion qo'shimcha voqe bo'ladi deyish ushbu to'rt grammatic kategoriya paradigmasiagi nol ko'rsatkichli morfema bilan hisoblashmaslik oqibatida kelib chiqqan. Masalan, *borsa* leksemashakli tarkibidagi -sa affiksi o'z ma'nosidan (mayl ma'nosidan) tashqari bo'lishlilik, hozirgi zamon, III shaxs birligi ma'nolarini ifodalashni ham o'z ustiga oladi, *borsang* leksemashakli tarkibida -ng tuslovchisi qatnashgani tufayli -sa affiksi shaxs-son ma'nosini ifodalamaydi deyish — o'ta yuzaki fikrlash mahsuli.

Ayni vaqtida ikki ma'noni — shaxs va son ma'nosini ifodalash (fuziya) tuslovchilarda mavjud; bu yerdagi fuziya azalii emas, balki shaxs ma'nosini ifodalovchi va son ma'nosini ifodalovchi morfemalarning bir grammatic kategoriya ko'rsatkichi sifatida birlashgani natijasida yuzaga kelgan.

Ko'rindiki, ba'zi adabiyotlarda ta'kidlanganidek bir grammatic kategoriya — kesimlik kategoriyasiga yaxlitlanadigan grammatic kategoriya yo'q; bu to'rt grammatic kategoriyaning har biri leksemashakl tarkibida ayrim ayrim o'rinn oladi. Bu grammatic kategoriyalarni alohida-alohida baholash lozim.

Avvalo, bo'lishli-bo'lishsizlik kategoriysi keng qamrovli bo'lib, fe'l leksemalarning tuslanishli shakliga ham, boshqa turkumlarga monand shakllariga ham mansub: *O'qigan o'zar, o'qimagan to'zar; ko'rib-ko'rmay; kirish-kirmasligini* kabi. Ko'rindiki, bo'lishli-bo'lishsizlikni kesimlik kategoriysi deyish — tor; boshqa holatlar qatori kesimning shakllanishida ham qatnashadigan grammatic kategoriya deyish to'g'riroq.

Xuddi shuningdek zamon kategoriyasini ham kesimlik bilan chegaralash mumkin emas; chunki zamon kategoriysi fe'lning sifatdosh, ravishdosh

shakllariga ham mansub: *o'qigan* — *o'qiydigan* — *o'qiyotgan*, *o'qigach*, *o'qiguncha* kabi. Demak, zamonni kesimlik kategoriyasi deyish — tor; boshqa holatlar qatori kesimning shakllanishida ham qtnashadigan kategoriya deyish to'g'riroq. Zamonni tuslanishli fe'l kesimlarning barchasiga xos deyish ham to'g'ri emas: buyruq maylidagi leksemashakl tarkibida zamon paradigmasining ko'rsatkichi qtnashmaydi, demak, grammatic zamon haqida gapirib bo'lmaydi.

Mayl kategoriyasi haqiqatda fe'lning tuslanishli leksemashakllariga xos, lekin barchasiga mansub emas: aniqlik mayli deb yuritiladigan fe'l leksemashakllarda mayl ma'nosi ifodalanmaydi. Demak, maylni kesimlik kategoriyasi deyish — keng; kesimning ayrim ifoda turlarida qtnashadigan grammatic kategoriya deyish to'g'riroq.

Ko'rindiki, yuqorida tilga olingan uch grammatic kategoriya gapshakl qolipida, kesim tarkibida turlicha qtnashadi, demak, universal (umumi) emas. Bu uch grammatic kategoriyaning ko'rsatkichi kesim tarkibiga obyektiv voqelikni aks ettirish talabi bilan qo'shiladi.

Bevosita gapshaklning o'zi tufayli qo'shiladigan ko'rsatkich — tuslovchi. Kesimlik kategoriyasi deb sanaladigan kategoriyalar orasida eng keng qamrovli — tuslash kategoriyasi. Haqiqatda, tuslovchi qo'shilgan leksemashakl gina mustaqil kesim vazifasida keladi, bunday leksemashakl yolg'iz o'zi gapshakl (jumla) bo'lib kela oladi. Gapshaklning "ega X kesim" qolipida ham, boshqa qoliplarida ham tuslovchi qtnashadi.

Odatda kesimlik kategoriyasi (kesimlik ko'rsatkichlari) deb sanaladigan to'rt grammatic kategoriyadan (grammatic paradigmidan) gapshakl a'zolaring o'zaro sintaktik bog'lanishi bilan belgilanadigan tuslash kategoriyasi (tuslash paradigmasi) kesim uchun universal grammatic kategoriya deb qaralishi mumkin. To'rt grammatic kategoriyaning o'zbek tilida alohida-alohida ko'rsatkich bilan ifodalanishi ulardan har birini ayrim-ayrim baholashga, ularni teng emas deb, har to'rt grammatic kategoriyaning har bir leksemashakl tarkibida qtnashuvini majburiy emas deb qarashga imkon beradi.

Tuslovchili leksemashaklning kesimga, gapshaklga aylanishida muhim omil — intonatsiya, aniqrog'i — gaplik ohangi. Misol tarzida keltirilgan *keldim*, *kelsam* kabilar — potensial kesim, potensial gapshakl xolos. Bunday leksemashakl gaplik ohangi bilan talaffuz qilinsa-gina gapshaklga aylanadi: *Keldim*. *Kelsam*. kabi.

Xullas, gapshakl (jumla) yuzaga kelishi uchun tuslovchili leksemashakl gaplik ohangi bilan talaffuz qilinishi lozim. Gapshakl yuzaga kelishida bu ikki universal hodisadan (tuslovchi va gaplik ohangidan) tashqari bo'lishli-bo'lishsizlik, zamon, mayl ko'rsatkichlari ham o'z o'mida qtnashadi.

Yuqorida aytilgan fikr-mulohazalardan kelib chiqib gapshaklning bosh qolipini quyidagicha tuzib ko'rsatish mumkin:

bosh kelishikdagি leksemashakл	X	tuslovchili leksemashakл
sintaktik bo'lak		sintaktik bo'lak
hokim bo'lak		tobe bo'lak
e g a		k e s i m
g a p l i k	o h a n g i	
g a p s h a k l		

Bo'lishli-bo'lishsizlik, mayl, zamon, tuslash paradigmalari ko'rsatkichlarining qatnashuvi asosida bu umumiy gapshakл qolipi bir necha ko'rnishda namoyon bo'ladi:

1) leksema + [S] + bosh K X leksema + B + M/Ts

s i z + ØII	kel + ma + ng
leksemashakл	leksemashakл
e g a	k e s i m
g a p l i k	o h a n g i
g a p s h a k l	
S i z	k e l m a n g .

2) leksema + [S] + bosh K X leksema + B + Z + Ts

s e n + ØII	kel + ma + di + ng
.....	.....

3a) leksema + [S] + bosh K X leksema + B + Z + M + Ts

s e n + ØII	kel + ma + ØVIII + sa + ng
leksemashakл	leksemashakл
e g a	k e s i m
g a p l i k	o h a n g i
g a p s h a k l	
S e n	k e l m a s a n g ..

3b) leksema + [S] + bosh K X leksema + B + Z + M + Ts

s e n + ØII	kel + ma + gan bo'l + sa + ng
.....	.....

## **GAPSHAKLNING KEYIN YUZAGA KELGAN QOLIPLARI**

**6-** §. Gapshaklning "ega X kesim" (E X K) qolipi asosida bir necha gapshakl qoliplari yuzaga kelgan; bular "E X K" qolipi tarkibidagi ega a'zoni gapshakl qolipi tarkibidan chiqarish orqali paydo bo'lган. Bunday qoliplar ega a'zo qatnashmasligi tufayli gapshaklning kesim a'zoli ("K") qolipi deyiladi.

Kesim a'zoli gapshakl qoliplari quyidagicha yuzaga kelgan:

1) "E X K" qolipidagi kishilik olmoshi bilan ifodalanadigan ega a'zoning gapshakl qolipidan chiqarilishi bilan;

2) "E X K" qolipidagi kesimni shaxssizlantirish orqali ega a'zoning gapshakl qolipidan chiqarilishi bilan.

Har ikki tur gapshakl qolipida ega a'zo qatnashmaydi, gapshakl qurili-shining asosi kesimga teng bo'ladi. Shunga ko'ra bunday qoliplarni qurilish asosi kesimga teng gapshakllar deyish mumkin.

### **Kishilik olmoshi bilan ifodalanadigan ega a'zoning gapshakl qolipidan chiqarilishi bilan yuzaga kelgan kesim a'zoga teng gapshakllar**

**7-** §. Qurilish asosi kesim a'zoga teng bunday gapshakllar ikki turli:

- 1) ega a'zosi ishlatilmagan gapshakl;
- 2) ega a'zosi ishlatilmaydigan gapshakl.

### **Ega a'zosi ishlatilmagan gapshakl**

**8-** §. Bunday gapshakl — "E X K" qolipi asosida "K" qolipining yuzaga kelishidagi boshlang'ich bosqich.

Kishilik olmoshi bilan ifodalanadigan qaratuvchida bo'lganidek, shunday olmosh bilan ifodalanadigan ega ham ishlatilmasligi mumkin; chunki bunday ega ifodalaydigan shaxs (son, modal) ma'nosini kesim tarkibidagi tuslovchi ham ifodalaydi, natijada pleonazm voqe bo'ladi. Bu yerdagi ortiqchalik ham, xuddi qaratuvchili birikmada bo'lGANI kabi, kishilik olmoshi bilan ifodalanadigan bo'lakni ishlatmaslik orqali bartaraf qilinadi. Har ikki holatda tilning iqtisod qonuniga bir xil amal qilinadi: *mening ukam* → *ukam*; *Men keldim*. → *Keldim*.

Ko'rinaridiki, gapshaklning bosh qolipi asli — ikki a'zoli; eganing ishlatilmastigi — ikkilamchi hodisa. Zarur o'rnlarda kishilik olmoshi bilan ifodalanadigan ega gapshakl qurilishida albatta qatnashadi.

Qaratuvchi ishlatilmasa, birikmaga teng holat yo'qoladi, faqat leksemaga teng birlik qoladi, chunki qaralmish tarkibidagi nisbatlovchi leksemashaklni

yuzaga keltirmaydi. Ega ishlatilmasa, gapshakiga teng holat saqlanadi, chunki kesim tarkibidagi tuslovchi leksemashaklni yuzaga keltiradi, sintaktik vazifani ta'minlaydi.

*Keldim* kabi misollarni ega a'zosi ishlatilmagan gapshakl deb baholash to'g'ri: *keldim* avvalo tuslovchili fe'l leksemashakl, gapshakl bo'lagi vazifa-sida kelib kesim mavqeini, ega bo'lagi ishlatilmasa, gapshakl mavqeini oladi.

Xullas, ega a'zosi ishlatilmagan gapshakl tarkibiga kishilik olmoshini ega mavqeida bemalol kiritib, "E X K" qolipini tiklash mumkin.

Bu tur gapshaklning o'ziga xos xususiyatlardan biri shuki, xuddi ikki a'zoli gapshaklda bo'lganidek, ma'lum cheklanishlardan qat'i nazar, kesim a'zo bo'lishli-bo'lishsizlik, mayl, zamon, tuslash paradigmalarining deyarli barcha shakllarida ishlatiladi. Bunday gapshakkarda tuslovchi ifodalaydigan shaxs ma'nosi aniq bo'ladi, shunga ko'ra bunday gapshakl shaxsi aniq gap deb ham ataladi. Ayrim misollar:

*Juda sog'inib ketdik* (Sobir Abdulla). — *Biz juda sog'inib ketdik. Yediraman, kiydiraman ..* (Saida Zunnunova). — *Men yediraman, kiydiraman. Kerakli hujjat va qurollar bilan ta'min qilinasiz* (Yashin). — *Siz kerakli hujjat va qurollar bilan ta'min qilinasiz. Nimaga xafa bo'lay?* (Oybek). — *Men nimaga xafa bo'lay? Guvoh bo'ling, shu mening bolam bo'lди!* (G'afur G'ulom). — *Sizlar guvoh bo'ling, shu mening bolam bo'lди! Sabr qilsang, havo rang deraza ham bo'ladi, ..* (Abdulla Qahhor) — *Sen sabr qilsang, havo rang deraza ham bo'ladi.. va b.*

Ega a'zosi ishlatilmagan gapshakl qolipini quyidagicha tuzib ko'rsatish mumkin (Ishlatilmagan ega o'rta qavslarga olib yozildi):

[leksema + S + bosh K]

X

leksema + B + M / Z + Ts

[leksemashakl]

l e k s e m a s h a k l

[ega]

k e s i m

/M e n/

g a p l i k o h a n g i

g a p s h a k l

*Juda sog'inib ketdim.*

### Ega a'zosi ishlatilmaydigan gapshakl qolipi

9- §. Bunday gapshakl qolipida kishilik olmoshi bilan ifodalanishi mumkin bo'lgan ega qatnashmaydi; kesimi tarkibidagi tuslovchi ifodalaydigan shaxs ma'nosi aniq holatdan mavhum holatga tomon taraqqiy etgan bo'ladi. Shaxs ma'nosining mavhum tasavvur qilinishi oqibatida kishilik olmoshi bilan ifodalanishi mumkin bo'lgan egani tiklash yo'li to'siladi, natijada ega a'zosi ishlatilmaydigan gapshakl yuzaga keladi.

Bunday gapshakkarning quyidagi ikki ma'no turi farqlanadi:

- 1) tuslovchisi ifodalarydigan shaxs ma'nosi noaniq gapshakl;  
 2) tuslovchisi ifodalarydigan shaxs ma'nosi umumlashgan gapshakl.

**10-** §. Tuslovchisi ifodalarydigan shaxs ma'nosi noaniq gapshakllarda kesim a'zo odatda III shaxsning ko'plik shaklida bo'ladi, lekin bajaruvchi aniq III shaxs bo'lmaydi, balki qaysi shaxs ekani noaniq tasavvur qilinadi. Ko'rindiki, bajaruvchi shaxsning noaniq tasavvur qilinishi bu tur gapshakllarda kishini ifodalash uchun ishlataladigan III shaxs tuslovchisining ko'plik shakli asosida voqe bo'lgan. Bunda ko'plik: a) -lar affiksi bilan ifodalanadi: *Qo'yni ham, echkini ham o'z oyog'idan osadilar.* kabi; b) -sh 2 affiksi bilan ifodalanadi: *Nima gap bo'ldi, akangni tanqid qilishdimi?* (Abdulla Qahhor) kabi.

Bu tur gapshakl qolipini quyidagicha tuzib ko'rsatish mumkin:

— leksema + B + M / Z + III shaxs ko'plik tus-

lovchisi (shaxs  
ma'nosi noaniq)

le k s e m a s h a k l

k e s i m

g a p l i k o h a n g i

g a p s h a k l

*Tanqid qilishdimi?*

**11-** §. Tuslovchisi ifodalarydigan shaxs ma'nosi umumlashgan gapshaklda kesim a'zo odatda II shaxs shaklida bo'ladi, lekin fikr barchaga qaratiladi. Bunday gapshakllar asosan maqol, hikmatli, o'g'itli iboralarga to'g'ri keladi.

Bunday gapshakllarning o'ziga xos xususiyatlaridan biri shuki, uning kesimi hozirgi zamon shakllarida ishlatalmaydi: *Tanimaganni siylamas.* *Do'sting uchun zahar yut.* *Ho'kizning shoxiga ursang, tuyog'i zirqiraydi* kabi.

Bu tur gapshakl qolipini quyidagicha tuzib ko'rsatish mumkin:

— leksema + B + M + Z (o'tgan yoki kelasi zamon) + Ts (II

shaxs — umum-  
lashgan)

le k s e m a s h a k l

k e s i m

g a p l i k o h a n g i

g a p s h a k l

[*Do'sting uchun zahar*] yut.

Shaxs ma'nosi noaniq va umumlashgan gapshakilar bir-biriga juda yaqin bo'lib, ayrim hollarda farqlash ham qiyin.

**"E X K" qolipidagi kesimni shaxssizlantirib,  
egani gapshakl qurilishidan chiqarish bilan  
yuzaga kelgan gapshakllar**

12- §. Qurilish asosi kesim a'zoga teng bunday gapshakllarda ega a'zo gapshakl tarkibidan grammatik omil asosida chiqariladi; bunda kesim a'zo tashqi ko'rinishda III shaxs tuslovchisini olgan bo'lsa ham, asli shaxs ma'nosi (bajaruvchi) ifodalanmaydi.

Shaxssizlik ma'nosining ifodalanishiga quyidagi ikki usul bilan erishiladi:

1. O'timsiz (yoki o'timsizlashtirilgan) fe'l kesim tarkibiga *-l / -n* affiksini kiritish bilan erishiladi. Bunday gapshaklning kesim a'zosi bo'lischli-bo'lishsizlikning, maylning, zamonning deyarli barcha shakllarida ishlataladi: *Qo'y larning qirilib ketishiga yo'l qo'yilmasin. Astoydil harakat qilinsa, maqsadga albatta erishiladi. Samarqandga ertaga ketiladi. Jismoniy mashg'ulotdan keyin dushda yuviniлади* kabi.

Bu gapshaklning qolipini quyidagicha tuzib ko'rsatish mumkin:

— o'timsiz (o'timsizlashtirilgan) fe'l leksema + *l / n* (shaxssizlik  
affaksi) + B + M + Z + III shaxs  
tuslovchisi

l e c k s e m a s h a k l

k e s i m

g a p l i k o h a n g i

g a p s h a k l

... bor + il + ØIV + a + di.

... yuvin + il + ØIV + a + di.

2. Shaxssizlik ma'nosini ifodalaydigan analitik grammatik shakl bilan erishiladi. Bunday analitik grammatik shakl bir necha turli:

1) Analitik grammatik shaklning keyingi qismi *bo'l-* yordamchisining *bo'ladi* yoki *bo'lmaydi* shaklida, ba'zan-gina *bo'lди* yoki *bo'lмади* shaklida ifodalanadi, mustaqil fe'lga qo'shiladigan oldingi qismi ikki xil shakllanadi:

a) *-b* ravishdosh shaklida *bo'ladi*: *Bu ko'lning suvini ichib bo'ladi || ichib bo'lmaydi* kabi;

b) *-sa* ko'rsatkichi shaklida *bo'ladi*: *Bu ko'lning suvini ichsa bo'ladi* kabi.

Bu gapshaklning qolipini quyidagicha tuzib ko'rsatish mumkin:

— fe'l leksema + b / sa + bo'l + B + M + Z + III shaxs

tuslovchisi

l e k s e m a s h a k l

k e s i m

g a p l i k o h a n g i

g a p s h a k l

... ichib bo'lmaydi.

... ichsa bo'ladi.

2) Analitik grammatik shaklning keyingi qismi *to'g'ri kel-* yordamchisi bilan, mustaqil fe'lga teng oldingi qismi fe'lning otdosh shakliga jo'nalish kelishigi affiksini qo'shish bilan ifodalanadi. Bunday analitik grammatik shakl turli mayl va zamon shakllarida ishlatalidi, lekin faqat III shaxs shaklida-gina bo'ladi: *Chaqirilgan joyga borishga to'g'ri keladi | to'g'ri kelsa | to'g'ri keldi* kabi.

Bu gapshaklning qolipini quyidagicha tuzib ko'rsatish mumkin:

— fe'l leksema + sh I + birlik S + ga *to'g'ri kel* + Bli + M / Z +

III shaxs tuslovchisi

l e k s e m a s h a k l

k e s i m

g a p l i k o h a n g i

g a p s h a k l

.. *borishga to'g'ri keladi | kelsa | keldi.*

3) Analitik grammatik shaklning keyingi qismi kesimlik leksemasi bilan ifodalanadi, mustaqil fe'l esa fe'lning otdosh shaklida bo'lib, birlik, bosh kelishikda shakllanadi, asosan -*sh* affaksi bilan yasaladi. Bunday gapshakl qolipida analitik grammatik shaklning keyingi qismi bo'lib:

a) *kerak, zarur, darkor, lozim* kabi kesimlik leksemasi keladi, 'zaruriylik' ma'nosi ifodalanadi: *Bu dorini ovqatlanishdan oldin ichish kerak | lozim* kabi;

b) *mumkin* kesimlik leksemasi keladi, 'mumkinlik' ma'nosi ifodalanadi: *Bu dorini ovqatlanishdan oldin ham, keyin ham ichish mumkin* kabi.

Bu gapshaklning qolipini quyidagicha tuzib ko'rsatish mumkin:

— fe'l leksema + sh I + birlik S + bosh K + *kerak+ | mumkin + B*

l e k s e m a s h a k l

k e s i m

g a p l i k o h a n g i

I z o h. Bunday qurilmaning otdosh shakliga nisbatlovchi qo'shilsa, ega bo'lagi ishlatilmagan gapshaklga teng bo'ladi: [Sen] borishing kerak kabi.

### Gapshakl deb taqdim qilinadigan ayrim hodisalar haqida

13- §. Asosi kesim a'zoga teng gapshakllar tasviridan ayonki, bo'lishli-bo'lishsizlik, mayl, zamon, tuslash kategoriyalaring ko'rsatkichlarini to'liq yoki qisman olgan leksemashaklni-gina gapshakl deyish mumkin. Adabiyotlarda kesimni shakllantiruvchi bunday grammatik kategoriyalarning ko'rsatkichlari qatnashmaydigan til hodisalarini ham gapshakl deb talqin etish mavjud. Bular asosan quyidagilar:

1. Birlik, bosh kelishikdag'i ot leksemashakl yoki fe'lning otdosh leksemashakli. Voqeа-hodisaning nomiga teng bunday birliklar atov gap, nominativ gap deyiladi. Asli bunday birlikning gap ekanligi mustaqil ravishda emas, balki undan keyin keladigan gapshaklga nisbat berib belgilanadi.

Bunday nominativ birlik voqelikni nomlaydi xolos; uning tarkibida kesimni (gapni) shakllantiradigan grammatik kategoriyalarning birortasi qatnashmaydi: *E r t a b a h o r. Dehqon yerini ekin ekishga tayyorlash bilan band.*

Tarkibida kesimni (gapni) shakllantiradigan grammatik kategoriylar qatnashmaydigan bunday nomlash birligi (nominativ birlik) leksemashakl holatida qoladi, gapshaklga aylanmaydi. Bunday nomlash birligini ketidagi gapshakldan ajratib turadigan pauza leksemashaklni gapshaklga aylantira olmaydi.

Keltirilgan misol tarkibidagi *erta bahor* qismi *Erta bahor edi*, *Erta bahor emas* shaklida ishlatsa (ya'ni uning tarkibiga bo'lishsizlik, zamon, tuslash ko'rsatkichlari qo'shilsa), asosi kesim a'zoga teng gapshakl yuzaga keladi.

Xullas, kesimni (gapni) shakllantiradigan grammatik kategoriylar qatnashmas ekan, demak, fikr anglatilmas ekan, bunday birlikni gapshakl deb aytilish mumkin emas.

2. Bo'laklarga ajralmaydigan gap, so'z-gap, semantik-funksional shakllangan gap deb nomlanayotgan til birliklari. Bir manbada bunday birliklar quyidagicha ma'no turlariga ajratib tasvirlanadi:

1) buyruq bildiradigan gap: *H o y! Orqada golmanglar!* Bunday gap buyruq-xitob undovlari bilan ifodalanishi aytildi: *Chuh! Dirr!* Boshqa bir manbada bunday gap "undov so'z gap" deb nomlanib, *Beh-beh* misoli keltirilgan;

2) emotsional baho bildiradigan gap: *H a y, h a y! Bu stulchang qanday chiroyli! V u y! Shunday baland joydan sakradi-ya!* Misollardan ko'rinadiki, bunday birlik his-hayajon undovi bilan ifodalanadi;

3) tasdiq va inkor bildiradigan gap: — *Bugun bormoqchimisan? — H a. — U ham boradimi? — Y o' q!* Boshqa bir manbada bunday birlik "tasdiq-inkor so'z gap" deb nomlanib, *ha, yo'q* birlklari keltirilgan;

4) muomala odatini bildiradigan gap: — *S a l o m, o'rtoq brigadir!*

Boshqa bir manbada yuqoridagilardan tashqari quyidagilar ham keltiriladi:

5) modal so'z gap: — *Kelasizmi? — Albatta;*

6) taklif-ishora so'z-gap: *Ma.*

Keyingi manbada "Bunday so'z-gaplarning barchasida kesimlik kategoriysi ma'nosi so'zning lug'aviy ma'nosida mujassamlashgan bo'ladi", — deyilgan.

Har qanday grammatik ko'rsatkich (morfema) ifoda jihatni bilan mazmun jihatining bir butunligidan iborat bo'lishi — aksioma. Ifoda jihatni yo'q ekan, mazmun jihatni (ma'no) haqida gapirish, sun'iy ravishda o'ylab topilgan bunday ma'noni "so'z-gap"ning lug'aviy ma'nosiga kiritish — mutlaqo noto'g'ri, uydurma fikr.

Yuqorida sanalgan olti hodisadan faqat *Ma* misolida tuslash kategoriysining ko'rsatkichi qatnashadi: *Ma + ØIV — Ma + ng*. Shu asosda bu birlikni gapshakl deyish va uning qolipini quyidagicha tuzib ko'rsatish mumkin:

*Ma + buyruq mayli II shaxs tuslovchisi*

*l e k s e m a s h a k l*

*g a p l i k o h a n g i*

*g a p s h a k l*

*Ma. Mang.*

Qolgan besh tur misollarga shakl yasash va shakl o'zgartirish mansub emas; demak, bularga kesimni (gapni) shakllantiradigan grammatik kategoriyalarning ko'rsatkichlari qo'shilmaydi, ularda bu grammatik kategoriyalarning ma'nolari ifodalanmaydi.

Bu besh tur misoldan o'zicha mustaqil ishlatiladigani, demak, gapshaklga eng yaqini — xitob undovlari bilan ifodalangan birliklar. Grammatik shakllarga kirmaydigan so'z-gap deb shu hodisani aytish mumkin: *Chuh! Beh-beh!* kabi.

Muomala odatini bildiradigan *Salom. Marhamat.* kabi leksemashakllar leksik mundarijaga ega bo'lib, o'zicha mustaqil ishlatalidi, demak, bularni ham so'z – gap deyish mumkin.

His-hayajonni, *hoy*, ey kabi xitobni ifodalaydigan undovlar leksik mundarijaga ega emas, shu sababli fikr anglatishga qodir emas; bularda mustaqillik yo'q. faqat gapshakl, leksemashakl bilan birlashtiriladi; o'zicha gapshakl hosil qilmaydi.

Tasdiqni yoki inkorni ifodalaydigan *ha*, *yo'q* asli yuklamaga teng, demak, bularni so'z – gap deb talqin qilish to'g'ri emas. *Bor* – *yo'q* zidlanishidagi *yo'q* esa mustaqil leksema – kesimlik leksemasi: *Kitobim bor.* – *Kitobim yo'q* kabi.

Modal birlik o'z tabiatiga binoan leksik ma'no anglatmaydi, gapshakl tarkibida modal ma'no ifodalab, kirish bo'lak vazifasida keladi. Dialogda yolg'iz o'zi ishlatalganida ham modal birlik kirish bo'laklik holatini saqlaydi, gapshaklga teng bo'lmaydi.

Xullas, fikr anglatish birligining – gapshaklning oldida yoki ketida ke-lib, to'liq pauza bilan ajratiladigan har qanday birlikni, agar uning tarkibida kesimlik kategoriyalarining ko'rsatkichlari qatnashmasa, gapshakl deb talqin qilish to'g'ri bo'lavermaydi.

## LISONIY BIRLIK SIFATIDA LEKSEMALARGA XOS BOG'LASHUV IMKONIYATI

1- §. Ikki leksemaning o'zaro sintaktik-semantik bog'lanishi bilan b o g'-I a n m a hosil bo'ladi: *qalin kitob-* kabi. Bunday sintaktik-semantik hosila **sintagma** deb ham ataladi. Bu termin tilshunoslikda ikki har xil hodisani – nutqning fonetik bo'linishiga xos hodisani ham, sintaktik birlikni ham anglatadi; shu sababli bu termin ishlatalmadi.

O'zbek tilshunoslida bog'lanmani *qo'shilma* termini bilan atash ham paydo bo'lidi. Bu termin mazmunan mos emas: bog'lanma tobeklik asosida tuziladi, qo'shilma termini esa tenglikka asoslanadigan hodisa uchun mos. Masalan, uyushiq qator qismlari tenglik asosida qo'shiladi, demak, asli shunday sintaktik hodisani qo'shilma deb nomlash o'rini.

Bog'lanma bog'lashuv asosida hosil bo'ladi; bunda bir leksema boshqa bir leksemani o'ziga tobeklaydi, bog'laydi, bog'lash voqe bo'ladi; ikkinchi leksema esa birinchi leksemaga tobelanadi, bog'lanadi, bog'lanish voqe bo'ladi. Demak, bog'lashuvda ikki tomonlama aloqa – bog'lanma tarkibidagi hokim a'zoning tobe a'zoni o'ziga bog'lashi ham, tobe a'zoning hokim a'zoga bog'lanishi ham ko'zda tutiladi. Yuqorida misolda *kitob-* leksemasi *qalin*

leksemashaklini o'ziga bog'laydi, *qalin* leksemashakii *kitob-* leksemasiga bog'lanadi, ana shunday bog'lashuv natijasida bog'lanma yuzaga keladi.

Leksemalarning bog'lashuv xususiyati turkumlar bo'yicha turlicha.

Ot leksema quyidagi larni o'ziga bog'laydi:

1. Predmetning belgisini anglatadigan leksemashaklini bog'laydi. Bunday leksemashakl:

1) sifatlovchi vazifasida keladi: a) sifat leksemashaklini bog'laydi: *baland imorat-* kabi; b) son leksemashaklini bog'laydi: *ikki imorat-* kabi; d) fe'l leksemashaklini bog'laydi: *qurilayotgan imorat-* kabi; e) belgi ifodalaydigan olmoshni bog'laydi: *shunday imorat-* kabi;

2) ega vazifasida kelib kesim vazifasidagi leksemashaklini bog'laydi: a) tuslovchili fe'l leksemashaklini bog'laydi: *Imorat guriladi* kabi; b) sifat leksemashaklini bog'laydi: *Imorat baland* kabi; d) ot leksemashaklini bog'laydi: *Bu imorat – maktab* kabi.

2. Qaralmish vaziyatida kelib qaratuvchi vazifasidagi ot leksemashaklini bog'laydi: *inoratning eni-* kabi.

Ot leksemashakl quyidagi vazifalarda bog'lanadi:

1) qaratuvchi vazifasida: *inoratning eni-* kabi;

2) to'ldiruvchi vazifasida: *inoratni qur-* kabi;

3) kelishik yoki ko'makchi bilan shakllangan hollovchi vazifasida: *ko'chada uchrash-*, *imorat uchun ol-* kabi;

4) kesim vazifasida: *Bu imorat – maktab* kabi.

Undalma vazifasida kelgan ot leksemashakl gap tarkibidagi leksemashakl bilan bog'lanmaydi va b.

Sifat leksemashakl predmetning belgisini anglatadi, shunga ko'ra sifatlovchi vazifasida ham, kesim vazifasida ham, shuningdek hollovchi vazifasida ham boshqa leksemaga bog'lanadi. Ravish leksemashakl ham shunday xususiyatga ega; farqi shuki, sifat uchun birlamchi vazifa — sifatlovchi bo'lib kelish, ravish uchun esa — hollovchi bo'lib kelish.

Sifat, ravish leksemashakl o'ziga vositali to'ldiruvchini bog'laydi: *Otdan baland, itdan past; Ukam mendan ko'p ishlaydi* kabi

Son leksemashaklning bog'lashuvi — sifat leksemashaklning bog'lashuviga o'xshash.

Olmosh turlarining bog'lashuvi ular qaysi turkum leksemalarini olmoshlab kelishiga bog'liq.

Kesimlik leksemasi ega vazifasidagi ot leksemashaklga bog'lanadi, o'ziga esa vositali to'ldiruvchini bog'lashi mumkin: *Kechirim so'rash sendan lozim* kabi.

2- §. Sintaktik bog'lashuv asosida semantik bog'lashuv yotadi; har bir bog'lashuvda ushbu ikki jihat qatnashadi.

Sifat leksemashakl ot leksemaga sifatlovchi bo'lib keladi deyish – o'ta umumiy fikr. Amalda esa sintaktik bog'lashuv imkoniyatini semantik omil cheklab qo'yadi.

Jumladan, ot leksemalar kishi otlari va narsa otlari deb guruhlanganidek, sifat leksemalarga ham shunga o'xshash guruhlanish xos. Sifat leksemalarning ma'lum bir qismi kishiga xos belgini, ma'lum bir qismi narsaga xos belgini, qolgan qismi esa ham kishiga, ham narsaga xos belgini anglatadi. Sifat leksema bilan ot leksemaning bog'lashuv imkoniyati ana shunday semantik omil ta'sirida umumiy yoki cheklangan bo'ladi. Bunday semantik omilni **atalganlik** hodisasi deb nomladik.

Masalan, *novcha yigit-*, *pakana yigit-* deyiladi-yu, lekin *novcha bino-*, *pakana bino-* deyilmaydi (*baland bino-*, *past bino-* deyiladi), chunki *novcha-*, *pakana-* leksemalari kishiga xos belgini anglatadi. *Yaxshi* leksemasining atalganligi umumiy, shunga ko'ra *yaxshi odam-*, *yaxshi imorat-* birikmalar tuzilaveradi. Umuman, atalganlik hodisasi o'zbek tilshunosligida maxsus o'rjanilmagan.

Atalganlik hodisasidan qat'i nazar, ikki leksema bog'lashuvi uchun ularga xos leksik ma'nolarning ideografik semalari tarkibida zid semalar bo'lmasligi, aksincha, umumiy, betaraf ideografik semalar bo'lishi lozim. Masalan, *nonni ye-*, *sutni ich-* kabi birikma tuziladi-yu, lekin *nonni ich-*, *sutni ye-* kabi birikma tuzilmaydi; chunki *non-* leksemasi leksik ma'nosining ideografik semalari tarkibidagi 'qattiq' semasi *ich-* leksemasi ma'nosining ideografik semalari tarkibidagi 'suyuq' semasiga zid, shu sababli *nonni ich-* bog'lashuviga yo'l qo'yilmaydi.

Bog'lashuv xususiyati ko'pma'noli leksemaning sememalarida ham o'zaro farq qilishi mumkin; ushbu hodisa ko'pma'noli *tuz- I* leksemasining sememalar bo'yicha "Leksik ma'noning lug'aviy konteksti" sarlavhasi ostida qisman namoyish qilindi.

Umuman, leksemalarning (sememalarning) sintaktik-semantik bog'lashuvi o'zbek tilshunosligida jiddiy o'rjanilmagan.

3- §. Fe'llarning bog'lashuv xususiyati murakkab bo'lib, maxsus tasvirlanishi kerak.

Fe'llning tuslovchili leksemashakli kesim vazifasida kelib, ega vazifasidagi leksemashaklga bog'lanadi: bunday bog'lanishning ko'rsatkichi sifatida kesim vazifasidagi leksemaga ega vazifasidagi leksemashakldan (yoki nazarda tutilgan bajaruvchidan) anglashiladigan shaxs-son ma'nosiga muvofiq ravishda tuslovchi qo'shiladi (Bo'lishli-bo'lishsizlik, mayl, zamon ko'rsatkichlari

obyektiv voqelikka ko'ra qo'shiladi). Ega ishlatilmaydigan gapshakllarda harakat-holatning bajaruvchisi mavhum tasavvur qilinadi, tuslovchi ham shaxs-sonni mavhum ifodalaydi.

Ayrim adabiyotlarda avval fe'l leksemashakl tarkibiga tuslovchi qo'shiladi, keyin ana shu tuslovchiga xos valentlikning voqelanishi sifatida ega (bajaruvchi) belgilanadi degan fikr aytildi. Valentlik leksemalarga-gina emas, morfemalarga ham xos xususiyat degan g'oya olg'a surilib, tuslovchilardan ham valentlik xususiyati qidirildi; ushbu g'oyani tasdiqlashga intilish yuqoridagi g'ayrimantiqiy fikrni aytishga majbur qildi.

Barcha tillar sintaksisida avval fikr predmeti – ega (bajaruvchi) aniqlanib, keyin-gina kesim vazifasida keladigan leksemaga tuslovchi shu fikr predmetidan anglashiladigan shaxs-son ma'nosiga mos holda tanlab qo'shiladi. Bu – aksioma. Tuslovchining fikr predmetidan, gapshaklning ega bo'lagidan anglashiladigan shaxs-son ma'nosi asosida tanlab qo'shilishini, masalan, quydagi hodisa so'zsiz tasdiqlaydi: Uyushiq qator bilan ifodalangan ega tarkibida I shaxs kishilik olmoshi qatnashsa, kesimga I shaxs ko'plik tuslovchisi, II shaxs kishilik olmoshi qatnashsa, II shaxs ko'plik tuslovchisi qo'shiladi: *Onam bilan men quchoqlashdik. Onam bilan sen quchoqlashdingiz* kabi. Bunday uyushiq qatorni tuslovchi asosida mutlaqo aniqlab bo'lmaydi. *Shoirmann* leksemashakliga -man tuslovchisi ega (bajaruvchi) I shaxs birlik olmoshi bo'lgani uchun qo'shiladi, aksincha emas.

Umuman, barcha morfemalarga valentlik xususiyati xos deyish – til hodisalariga yuzaki yondashib chiqarilgan to'qima fikr. Leksemaning valentlik xususiyatiga ta'sir ko'rsatadigan, demak, leksemaning bog'lashuvini o'zgartiradigan ayrim morfemalar mavjud; bular quyiroqda ta'kidlanadi.

Fe'lning sifatdosh shakli sifatlovchi vazifasiga xoslangan leksemashakl bo'lib, ot leksemaga bog'lanadi.

Fe'lning ravishdosh shakli asosan hollovchi vazifasiga xoslangan leksemashakl bo'lib, fe'l leksemaga bog'lanadi.

Fe'lning otdosh shakli ega vazifasida kelsa, kesimni o'ziga bog'laydi; boshqa vazifalarda kelsa, odatda bog'lanadi.

Yuqoridagi to'rt leksemashakldan tuslovchili leksemashakl ham xuddi si-fatdosh leksemashakl, ravishdosh leksemashakl singari tobelanadi; faqat otdosh leksemashakl qaysi kelishik yoki ko'makchi bilan shakillanishiga qarab o'ziga tobelaydi yoki tobelanadi.

**4- §. Fe'l leksemalarning deyarli barchasida hollovchini bog'lash xususiyati mavjud.** Har qanday harakat-holat ma'lum makonda va zamonda, ma'lum maqsad va sabab bilan, ma'lum tarzda va darajada voqe bo'ladi; shularga ko'ra fe'l leksemaga bir-birini istisno qilmaydigan bir necha hollovchi tobe-

lanib kelaveradi. Bunday bog'lashuvda fe'l leksemaning leksik ma'nosi hollovchilarning qaysi ma'no turi bilan saylab bog'lanishini oldindan belgilab turmasa, valentlik haqida gapirish noo'rin. Har qanday bog'lanishni valentlik deb tushuntirish valentlik hodisasini bog'lashuv hodisasiga tenglashtirib qo'yadi.

Hollovchini o'ziga tanlab tobelash xususiyati (valentlik) ayrim fe'llarga xos. Masalan, *ket-* leksemasiga *qayerdan* (bu yerdan) *qayerga* (boshqa yerga) so'roqlariga javob bo'ladigan o'ren hollovchilarini o'ziga bog'lash xususiyati lisoniy birlik sifatida xos; shunga ko'ra bu fe'l leksemaga hollovchi valentligi mansub deyish mumkin. Lekin ko'pchilik fe'l leksemalarda hollovchi bilan bog'lanish o'ta umumiy; demak, bularga nisbatan valentlik haqida gapirib bo'lmaydi.

Morfemaga valentlik xususiyati xos ekanini isbotlash uchun payt hollovchisi bilan kesim tarkibidagi zamon yasovchisi orasidagi bog'liqlik ko'rsatiladi. Ushbu fikr tarafdorining ta'kidlashicha bunday hollovchi zamon yasovchi morfemaning valentligi sifatida namoyon bo'ladi. O'ta juz'iy holat asosida umuman hollovchilarning barcha turi kesimning valentligi degan hukm chiqariladi.

Aslida hollovchi kesimga emas, kesim vazifasida keladigan leksemaga bog'lanadi; kesim bo'lish — leksemaning sintaktik vazifalaridan biri xolos. Masalan, *kel-* leksemasi qatnashadigan *kecha kel-* birikmasi *kecha keldim* shaklida kesim, *kecha kelgan kishi* shaklida sifatlovchi, *kecha kelishini* shaklida vositasiz to'ldiruvchi kabi vazifalarda kelaveradi; demak, hollovchini, shu jumladan payt hollovchisini kesimning, kesim tarkibidagi zamon yasovchisi ning valentligi deb bo'lmaydi.

To'g'ri, payt holi vazifasida keladigan ayrim leksemalar bilan zamon yasovchisi orasida mutanosiblik bo'lishi talab qilinadi: *kecha keldi*, *bugun keldi* deyiladi-yu, lekin *ertaga keldi* deyilmaydi (*ertaga keladi* deyiladi).

Avvalo, zamon ma'nosi bo'yicha mutanosiblik barcha payt hollovchilarida emas, balki yuqorida uch payt ravishida voqe bo'ladi. Hatto shu uch payt ravishidan *bugun-* leksemasi zamon yasovchisiga nisbatan betaraf: *bugun keldi*, *bugun kelayotir*, *bugun keladi* kabi har uch zamon yasovchilari bilan ishlatalaveradi.

*Kecha kelgan kishi*, *bugun kelayotgan kishi*, *ertaga keladigan kishi* birikmalaridan ko'rinish turibdiki, payt hollovchisi bilan mutanosiblik kesim tarkibidagi zamon yasovchisi orasida-gina emas, sifatdosh yasovchilari ifodalaydigan zamon ma'nosi orasida ham voqe bo'ladi; demak, hodisa keng.

Eng muhimi shuki, payt hollovchisi vazifasida kelgan leksemaning zamon ma'nosiga mutanosib ravishda zamon yasovchi morfema tanlanadi, ak-sincha emas.

Xullas, hollovchini kesimning valentligi deyish uchun yetarli asos yo'q. Hollovchi asli "hollovchi X hollanmish" birikmasining bo'lagi; bunday birikma gapshakl qurilishiga kiritilganidan keyin qanday o'zgarish bo'lishi – boshqa masala (Bu to'g'rida o'z o'mnida gapiriladi).

Asli fe'l leksemaning valentligi deb payt hollovchisidan ko'ra o'rin hollovchisini ta'kidlash to'g'ri: bunday hollovchini fe'l leksemaning ma'nio jihatni oldindan belgilaydi. Masalan, ikki jildli "O'zbek tilining izohli lug'ati"ga kiritilgan o'timsiz fe'l leksemalardan 36tasiga o'rin hollovchisini boshqarish valentligi xos bo'lib, quyidagi ko'rinishlarga ega:

1) kim qayerga (16ta): *kir-*, *engash-*, *yo'rg'ala-*, *yo'nal-*, *qo'n-*, *yaslan-* kabi;

2) kim qayerda (13ta): *yot-*, *yasha-*, *tuna-* I ('kechasi yotib qol-'), *kez-*, *ishla-* kabi;

3) kim qayerdan qayerga (7ta): *chiq-*, *o't-*, *tush-*, *ko'ch-*, *ket-*, *kel-* kabi.

O'rin hollovchisi valentligi ayrim o'timli fe'llarga ham xos (Bular quyi-roqdag'i tasvirda o'z aksini topadi).

5- §. Fe'l leksemaning o'ziga to'ldiruvchini bog'lashi boshqaruv hodisasi deyiladi. To'ldiruvchini boshqarish barcha fe'l leksemalarga xos emas; lekin kelishik yoki ko'makchi bilan shakllangan hollovchini boshqarish xususiyati deyarli barcha fe'l leksemalarda mavjud: *uydan ishxonaga kel-*, *uyda o'tir-*, *imtihon topshirish uchun kafedraga kir-* kabi. Demak, hollovchining bunday shakllanadigan turlari hisobga olinsa, boshqaruv hodisasi fe'l leksemalarning deyarli barchasiga mansub bo'lib chiqadi.

Fe'l leksemaning o'ziga to'ldiruvchini bog'lashi tom ma'noda valentlik bo'lib, barcha fe'l leksemalarga birdek xos emas.

O'timsiz fe'l leksemalarning bir qismida to'ldiruvchini boshqarish xususiyati yo'q, boshqa bir qismi esa vositali to'ldiruvchini boshqaradi: *baqir-* – kim kimga, *o'gray-* – kim kimga, *ko'n-* – kim nimaga, *qon-* – kim nimaga kabi.

Vositasiz to'ldiruvchini boshqarish o'timli fe'l leksemalarga xos: *imoratni qur-*, *qo'lini yuv-*, *gapni uq-*, *sholi[ni] ek-*, *suv[ni] sep-* kabi.

Orttirma shakli yasovchisi qo'shilgan o'timsiz fe'l leksemada vositasiz to'ldiruvchini boshqarish xususiyati paydo bo'ladi: *mashinani to'xtat-*, *suhbatdoshini zeriktir-* kabi. Orttirma shakli yasovchisi deyarli barcha o'timsiz fe'l leksemalarga qo'shiladi; shunday shakl yasalishi tufayli vositasiz

to'ldiruvchini boshqarish fe'llarga xos umumiy xususiyat darajasiga ko'tariladi.

Umuman, orttirma shakli yasalishi o'z o'mida yetarli bayon qilindi. Bu yerda orttirma yasovchisining fe'l leksema valentligiga ta'siri ta'kidlanadi.

O'timsiz fe'l leksemalarda orttirma shakli yasalishi tufayli to'g'ridan to'g'ri vositasiz to'ldiruvchi (obyekt) ortmaydi, balki bajartiruvchi ega ortadi va uning ta'siri bilan bajaruvchi ega vositasiz to'ldiruvchiga aylanadi:

*shosh-* — — —      kim  
    ↓  
*shoshir-* —      kim      kimni

Orttirma shakli o'timli fe'l leksemadan yasalganida esa bajartiruvchi ega ortadi va uning ta'siri bilan bajaruvchi ega odatda vositali to'ldiruvchiga aylanadi, vositasiz to'ldiruvchi esa o'zicha saqlanadi:

*kiy-* — — —      kim      nimani  
    ↓  
*kiydir-* —      kim      kimga      nimani

Xullas, orttirma shakli yasalishi bilan fe'l leksemada bajartiruvchi ega bilan bog'lashuv, mavjud bajaruvchi ega o'rniqa to'ldiruvchi bilan bog'lashuv paydo bo'ladi, demak, fe'l leksemaning bog'lashuv xususiyatida jiddiy o'zgarish yuz beradi.

O'zlik shakli yasalishi o'z o'rnida tasvirlandi; bu yerda shunday shakl yasalishi fe'l leksemaning bog'lashuv xususiyatiga qanday ta'sir qilishi ta'kidlanadi. O'zlik shakli yassalsa, vositasiz to'ldiruvchi bilan bog'lashuv yo'qoladi, bajaruvchi ega o'z mavqeida saqlanadi, unga go'yo vositasiz to'ldiruvchidan anglashiladigan obyekt ma'nosi yuklanadi; demak, bunday shakl yasalishi bilan leksemaning bog'lashuvi o'zgaradi:

*yuv-* —      kim      nimani  
*yuvin-* —      kim      —

Birgalik shakli yasalishi o'z o'mida tasvirlandi; bu yerda shunday shakl yasalishi fe'l leksemaning bog'lashuv xususiyatiga qanday ta'sir qilishi ta'kidlanadi. Birgalik shakli o'timli fe'l leksemadan yasalganida ikki turli o'zgarish voqe bo'ladi:

1) Vositasiz to'ldiruvchining kelishigi bosh kelishikka almashib, bajaruvchiga aylanadi, natijada bajaruvchi uyushiq holatda bo'ladi:

*Onam*              *meni*      *quchoqladi.*  
*Onam*      *bilan*      *men*      *quchoqlashdik.*

2) Vositasiz to'ldiruvchi *bilan* ko'makchisi shaklidagi vositali to'ldiruvchiga almashadi:

*Onam meni quchoqladi.*

*Onam men bilan quchoqlashdi.*

Birgalik shakli o'timsiz fe'l leksemanadan yasalganida jo'naliish kelishigida shakllangan vositali to'ldiruvchi *ilan* ko'makchisi yordamida shakllangan vositali to'ldiruvchiga almashadi:

*Ukam menga uchradi.*

*Ukam men bilan uchrashdi.*

Ko'rinadiki, birgalik shakli yasalishi fe'l leksemaning to'ldiruvchi bilan bog'lashuvini o'zgartiradi.

Majhul nisbat yasalishi o'z o'rnida tasvirlandi; bu yerda shunday shakl yasalishi leksemaning bog'lashuv xususiyatiga qanday ta'sir qilishi ta'kidlanadi. Majhul nisbat shakli yasalsa, bajaruvchi ega majhullashib, sintaktik qurilmadan chiqadi, vositasiz to'ldiruvchi esa ega vazifasiga o'tadi:

*Xatni ukam yozdi.*

*Xat — yozildi.*

Rasmiy nutqda yuzaga kelgan sun'iy sintaktik qurilmada bajaruvchi ega *tomonidan* yordamchisi bilan shakllanadigan vositali to'ldiruvchiga aylanadi:

*Xatni ukam yozdi.*

*Xat ukam tomonidan yozildi.*

Shaxssizlik shakli yasalsa, bajaruvchi ega sintaktik qurilmadan chiqadi:

*U ertaga lagerga ketadi.*

*— Ertaga lagerga ketiladi.*

Xullas, orttirma shakli, o'zlik shakli, birgalik shakli, majhul nisbat shakli, shaxssizlik shakli yasalishi bilan fe'l leksemaning bog'lashuv xususiyatida turlicha o'zgarish voqe bo'ladi.

**6- §.** Bog'lashuviga ta'sir ko'rsatadigan shakl yasovchilar qo'shilмаган fe'l leksemaning to'ldiruvchini boshqarish xususiyati turlicha bo'lib, atalganlik hodisasisiga bog'liq holda yana-da murakkablashadi. Fe'l leksemalarning to'ldiruvchini boshqarish xususiyati quyida mumkin qadar bir bo'g'ini tub leksemalar asosida tasvirlanadi.

1. Ikki jiddli "O'zbek tilining izohli lug'ati"ga kiritilgan 1895 fe'l leksemaning 848tasida to'ldiruvchini boshqarish xususiyati yo'q. Shulardan 301tasi kishilarga atalgan harakat-holatni anglatib, *kim* so'rog'iga javob bo'ladigan egaga, 466tasi narsaga atalgan harakat-holatni anglatib, *nima*

so‘rog‘iga javob bo‘ladigan egaga bog‘lanadi, 81 leksemaning atalganligi umumiy bo‘lib, har ikki so‘roqqa javob bo‘ladigan egaga bog‘lanaveradi:

- 1) kim: *chop-* I ('yugur-'), *shosh-* kabi;
- 2) nima: *yon-*, *yog-*, *oq-*, *siz-*, *tom-*, *tosh-*, *o‘ch-* kabi;
- 3) kim, nima: *yur-*, *o‘s-*, *qoch-* kabi.

2. Shu lug‘atga kiritilgan 250 o‘timsiz fe'l leksemada (ega bilan bog‘lashuvdan tashqari) vositali to‘ldiruvchini boshqarish xususiyati mayjud. Vositali to‘ldiruvchi ko‘pincha jo‘nalish kelishigidagi leksemashakl bilan, qisman chiqish kelishigidagi yoki *ilan*, *to‘g‘risida* ko‘makchilar bilan shakllangan leksemashakl bilan ifodalanadi. Quyida ixchamlikka intilib fe'l leksemalarning ega va vositali to‘ldiruvchi bilan bog‘lashuvi va bulardagi atalganlik *kim*, *nima* so‘roq olmoshlari yordamida soddadan murakkabga tomon birin-ketin ko‘rsatildi, o‘rnii bilan hollovchini boshqarish valentligi ham, faqat ko‘plik shaklida ishlatilishi ham ta‘kidlandi (Qavslar ichida leksema-larning miqdori ko‘rsatildi):

- 1) kim kimga (28): *opich-*, *termil-*, *iliq-* kabi;
- 2) kim nimaga (22): *to‘y-*, *ko‘n-*, *chida-* kabi;
- 3) kim nima qilishga (2): *ulgur-*, *unna-* kabi;
- 4) kim kimga, nimaga (9): *teg-*, *uchra-*, *qara-*, *ishon-* kabi;
- 5) kim kimga, nima nimaga, nima kimga (3): *o‘xsha-*, *ergash-* kabi;
- 6) kim kimga nima deb (2): *yolvor-*, *yalin-* ;
- 7) nima nimaga (3): *sig-*, *tarmash-* ;
- 8) nima kimga (1): *asqat-* ;
- 9) nima kimga, nimaga (2): *yuq-*, *yarash-* II ('munosib bo‘l-');
- 10) nima kimdan, nimadan (1): *hurk-* ;
- 11) kim, nima kimga (1): *bo‘ysun-* ;
- 12) kim, nima nimaga (3): *bot-*, *arzi-* kabi;
- 13) kim kimga, nima nimaga (2): *yopish-*, *ilash-* ;
- 14) kim, nima nimadan (2): *hatla-*, *osh-* ;
- 15) kim kimdan, nima nimadan (1): *o‘z-* ;
- 16) kim, nima nima bilan (1): *og‘ri-* ;
- 17) kim, nima qayerda (qayerga) (2): *qol-*, *yet-* ;
- 18) kim kim bilan, nima nima bilan (1): *muvofiqlash-* ;
- 19) kim kimdan (12): *kul-*, *hayiq-*, *gumonsira-* kabi;
- 20) kim nimadan (nima qilishdan) (62): *ton-*, *hori-*, *o‘xchi-*, *charcha-*, *quvon-*, *hayajonlan-* kabi;
- 21) kim nimadan, kimdan (10): *bez-*, *kech-*, *noli-*, *qo‘rq-*, *rangi-* kabi;

- 22) kim nimadan, qayerdan (2): *qayt-*, *uzoqlash-* ;  
 23) kim nimadan (nima sababli) (1): *qari-* ;  
 24) kim kimdan nima deb (1): *o'pkala-* ;  
 25) kim kim bilan (50): *o'chakish-*, *yarash-*, *kengash-*, *chaqchaqlash-*,  
*maslahatlash-* kabi;  
 26) kim nima bilan (10): *alaxsi-*, *yupan-*, *mag'rurlan-* kabi;  
 27) kim kim bilan, nima bilan (5): *kurash-*, *ovun-*, *shug'ullan-* kabi;  
 28) kim kim bilan, nima nima bilan (3): *birik-*, *uyg'unlash-* kabi;  
 29) kim kim bilan nima to'g'risida (5): *kelish-*, *ahdlash-*, *shartlash-*  
 kabi;  
 30) kim kim bilan qayerga (1): *bor-* ;  
 31) kim nima to'g'risida (2): *alji-*, *fikrla-* ;  
 32) kim nima deb (4): *dodla-*, *g'o'ldira-* kabi.
3. Shu lug'atga kiritilgan 677 o'timli fe'l leksemada vositasiz to'ldiruvchini boshqarish xususiyati mavjud. Bularning ega bilan bog'lashuvini va atalganlik hodisasini hisobga olgan holdagi ko'rinishlari quyidagicha:
- 1) kim nimani (500): *qor-*, *o'y-*, *yasa-*, *yut-*, *esh-*, *sez-*, *buk-* kabi;
  - 2) kim nimani (qayerni) (25): *o'ra-*, *tinti-*, *ganchla-*, *parmala-* kabi;
  - 3) kim nimalarni (3): *zichla-*, *qo'shoqla-*, *qo'shaloqla-* ;
  - 4) kim kimni (74): *quch-*, *o'p-*, *suy-*, *koyi-*, *jerk-*, *bo'g'-*, *yumdala-*,  
*chimchi-*, *sog'in-* kabi;
  - 5) kim kimni, nimani (75): *ur-*, *buz-*, *aya-*, *hayda-*, *qiyna-*, *chaqir-*,  
*tanla-* kabi;
  - 6) kim kimlarni, nimalarni (1): *to'pla-* ;
  - 7) kim, nima nimani (9): *och-*, *g'aji-*, *qiyrat-*, *chuqula-* kabi;
  - 8) kim, nima kimni, nimani (2): *chert-*, *tala-* ;
  - 9) kim kimni, nima nimani (2): *tug'-*, *em-* ;
  - 10) kim kimni, nimani; nima kimni, nimani (1): *tep-* ;
  - 11) kim kimni, nima nimani (2): *shim-*, *qis-* ;
  - 12) kim nimani, nima kimni (1): *ez-* ;
  - 13) kim nimani, nima kimni, kim kimni (1): *tishla-* ;
  - 14) kim, nima kimni (1): *allala-* ;
  - 15) kim nimani, nima nimaga (1) *tati- I*, *tati- II*;
  - 16) nima kimni (2): *chaq- I*, *qop-* .
4. Shu lug'atga kiritilgan 103 o'timli fe'l leksemada ham vositasiz to'ldiruvchini, ham vositali to'ldiruvchini boshqarish xususiyati mavjud. Buning ko'rinishlari quyidagicha:

- 1) kim kimni kimga (4) *birkit-*, *nikohla-* kabi;
- 2) kim kimni nimaga (nima qilishga) (3): *unda-*, *yolla-*, *gijgijla-*;
- 3) kim kimni nimadan (2): *shifola-* kabi;
- 4) kim kimni nima bilan (4): *qutla-*, *ta'minla-*, *tabrikla-*, *mukofotla-*;
- 5) kim kimni nima deb (1): *yan-*;
- 6) kim kimni qayer[i]ga (3): *yubor-*, *o'tkaz-*, *mushtla-*;
- 7) kim kimni kimdan, nimadan (1): *zararsizlantir-*;
- 8) kim kimni kimga, nimani nimaga (1): *tenglashtir-*;
- 9) kim nimani kimga (18): *yoz-*, *ber-*, *sot-*, *ayt-*, *ata-* kabi;
- 10) kim nimani kimlarga (1): *ulash-*;
- 11) kim nimani kimga, qayerga (1): *yo'lla-*;
- 12) kim nimani kimdan (8): *bil-*, *kut-*, *ol-*, *eshit-*, *so'ra-* kabi;
- 13) kim nimani kim bilan (4): *alish-*, *almashla-* kabi;
- 14) kim nimani nimaga (13): *qo'sh-*, *quy-*, *ishqa-*, *ula-*, *mosla-* kabi;
- 15) kim nimani nimaga, qayerga (10): *il-*, *suq-*, *qo'y-*, *taqa-*, *chapla-*, *surka-* kabi;
- 16) kim nimani nimadan (3): *qo'ri-*, *farqla-* kabi;
- 17) kim nimani nima bilan (8): *yop-*, *tik-*, *til-*, *o'lcha-*, *bo'l-* kabi;
- 18) kim nimani nimada (nima bilan) (1): *yanch-*;
- 19) kim nimani qayer[i]ga, qay tomonga (14): *taq-*, *bur-*, *sol-*, *sur-*, *tiq-*, *elt-*, *tira-*, *tashla-*, *tang'i-* kabi;
- 20) kim nimani qayerdan (1): *sug'ur-*;
- 21) kim nimani qayerdan qayerga (1): *tashi-*;
- 22) kim nimani kimga, nimaga (2): *qistir-*, *ber-*;
- 23) kim nimani kimga, nimani nimaga (1): *yukla-*;
- 24) kim nimani nima qilishni (nima qilish to'g'risida) (1): *o'yla-*;
- 25) kim nimani (nima to'g'risida) kimga (1): *so'zla-*;
- 26) kim nimani nima deb (1): *yo'y-*;
- 27) kim nima bilan qayerni (1): *to's-*;
- 28) kim nimani nimaga nima bilan (1): *bog'la-*;
- 29) kim kimni, nimani kimdan (1): *so'roqla-*;
- 30) kim kimni, nimani nimadan (1): *davola-*;
- 31) kim kimni, nimani kimga (1): *yomonla-*;
- 32) kim kimni, nimani kimdan (1): *qizg'an-*;
- 33) kim kimni yoki o'zini nimadan (1): *tiy-*;
- 34) kim nimani, kimni nima bilan (2): *chop-* II ('zarb bilan kes-'), *azob-la-*;

35) kim kimni kim bilan, nimani nima bilan (4): *chog'ishtir-*, *solishtir-*, *qiyosla-*, *taqqosla-*;

36) kim nimani, kimni kimga qarshi (1): *olkishla-* va boshqalar.

## LISONIY BIRLIK SIFATIDA LEKSEMALAR XOS BOG'LASHUV IMKONIYATINING NUTQIY VOQELANISHI

1- §. Leksemalarga xos bog'lashuv imkoniyati nutqda turlicha voqelanadi. Ushbu hodisani tasvirlashda xolis hukm chiqarishga intilib to'rt original proza asaridan 250tadan jami 1000 gapshakl sidirg'asiga ko'chirib olindi. Misollarning beshdan biri qo'shma gapshaklga to'g'ri keldi (Bular o'z o'mida tahsil qilinadi).

Misollarning beshdan to'rt qismida turli hodisalar aks etgan; shulardan 700dan ortig'i sodda gapshakl sifatida ajratildi. Bularning 500ga yaqinida ega qatnashgan, gapshaklning asosi "E X K" qolipi bilan tuzilgan; 200ga yaqinida ega qatnashmagan, gapshaklning asosi "K" qolipi bilan tuzilgan. Misollar juda cheklangan miqdorda bo'lishiga qaramay nutqda ega qatnashadigan gapshakllar ega qatnashmaydigan gapshakllarga qaraganda 2,5 barobar ko'p uchrashini ko'rsatadi. Bundan xulosa shuki, hozirgi adabiy o'zbek tilida gapshaklning birlamchi va asosiy qolipi — "E X K"; "K" qolipi esa ikkilamchi.

Sintaktik bo'laklarni ularning mohiyatidan chiqib kelib uchga guruhlash mumkin:

1) gapshaklning bo'laklari: ega, kesim;

2) birikmaning bo'lagi mavqeida ham, gapshaklning bo'lagi mavqeida ham ishlatiladigan sintaktik bo'laklar: to'ldiruvchi, hollovchi;

3) birikmaning bo'laklari: sifatlovchi, qaratuvchi, izohlovchi, izofa, ta'kidlovchi.

Sintaktik bo'laklarning nutqiy voqelanishi yuqoridagicha tartibda tasvirlanadi.

### Gapshakl bo'laklarining nutqiy voqelanishi

#### Eganing nutqiy voqelanishi

#### *Eganing leksemashakl bilan ifodalanishi*

2- §. Boshqa sintaktik bo'laklar qatori ega ham leksemashakl bilan, birikmashakl bilan va bularning birgalikda turlicha qatnashuvi bilan voqelanadi.

249 misolda ega leksemashakl bilan ifodalangan; shulardan 194 misolda ot leksemashakl, 48 misolda olmosh, 2 misolda sifat leksemashakl, 1 misolda jamlovchi son ega bo'lib kelgan.

Sifat leksemashaklning ega bo'lib kelishi: .. *ya x sh i s i* – qadrdon choyxonaga *yig'ilish*,.. (Hamid G'ulom). *E n g yo m o n i* – mana shu: *o'chib qolish!* (O'tkir Hoshimov).

Jamlovchi sonning ega bo'lib kelishi: *I k k a l a m i z ham charchagan edik* (O'tkir Hoshimov).

Ega olmoshning quyidagi turlari bilan ifodalangan (46):

1) kishilik olmoshi bilan (33):

a) *men* olmoshi bilan (7): *M e n bularni sevaman* (Hamid G'ulom) kabi;

b) *sen* olmoshi bilan (3) *S e n nimangga muncha kerilasan?* (Hamid G'ulom) kabi;

d) *siz* 2 (birlikni "sizlash") olmoshi bilan: (3) *S i z o'tirsangiz bo'ldida* (Pirimqul Qodirov) kabi;

e) *u* (kishi) olmoshi bilan (17): *U ayvonda, stol yonida yolg'iz o'tiribdi* (Hamid G'ulom) kabi;

f) *ular* (kishi) olmoshi bilan (2): *U l a r chimchilovchilarni qarg'aydilar* (Oybek) kabi;

g) *ular* (narsa) olmoshi bilan (1): *U l a r yerdan shipga yetarli qilib taxlangan* (Oybek);

2) so'roq olmoshi bilan (1): *K i m bu odamni bunchalik mehribon qilib qo'ysi ekan?* (Pirimqul Qodirov);

3) bo'lishsizlik olmoshi bilan (2): *Uyda h e ch k i m ko'rinxaydi?* (Hamid G'ulom). *H e ch n i m a qilmaydi!* (O'tkir Hoshimov);

4) guman olmoshi bilan (2): *K i m d i r uni ola chilvir bilan zirkka bog'lab qo'ygan edi* (Pirimqul Qodirov) kabi;

5) ko'rsatish birligi bilan (8):

a) *bu* birligi bilan (3): *B u qanday maynabozlik!* (Oybek) kabi;

b) *bular* (kishi) birligi bilan(1): *Bizning beshinchi bo'limning chiroqlari b u l a r* (Pirimqul Qodirov);

d) *bular* (narsa) birligi bilan (4): *B u l a r yil-o'n ikki oy ochiladilar* (Hamid G'ulom) kabi.

Ega *hamma-* jamlilik anglatuvchi leksemasi bilan (1), *o'z- ta'kid* birligi bilan (1) ham ifodalanadi: *H a m m a dalada* (Hamid G'ulom). *Yaxshi suv, opa. O'z i m a m ichdim* (O'tkir Hoshimov).

Nutqda ega bo'lak, tabiiy, eng ko'p ot leksemashakl bilan ifodalanadi (194). Shulardan 92 misolda atoqli ot bilan, 102 misolda turdosh ot bilan ifodalangan.

Atoqli ot leksemashakl asosan kishi ismiga to'g'ri keladi, faqat bir misolda ega bo'lak familiya bilan ifodalangan: .. *D a v l a t b e k o v o'zining eng yaqin shogirdlarini ko'rganday sevinib*, .. (Pirimqul Qodirov).

Bir misolda ega bo'lib joy atoqli oti kelgan: .. *qadimgi yo'l tepasida Tu pro q q o'r g'o n yuksalgan* (Hamid G'ulom).

Kuzatilgan matnda quyidagi kishi ismlari ega vazifasida kelgan (91): *Nuri* (8), *Lutfiniso* (3), *Yo'lchi* (3), *Yormat* (2), *Shoqosim* (1), *Aziz* (22), *Dildor* (8), *Nafisa* (1), *Turdi* (18), *Hulkar* (12), *Avaz* (6), *Xolbek* (4), *Olimjon* (13): *Y o'l ch i nafasini rostlash uchun eshikka chiqdi* (Oybek). *A z i z armiyadan kech kuzda qaytib keldi* (Hamid G'ulom). *H u l k a r serkaga qarab intildi* (Pirimqul Qodirov). *O l i m j o n boshimga egildi* (O'tkir Hoshimov) kabi.

Ega vazifasida kelgan turdosh ot leksemashakllaming (102) uchdan bir qismi kishi otlariga, qolgan qismi esa narsa otlariga to'g'ri keldi.

Kishi otlari (28) quyidagi shakkarda ega bo'lib kelgan: a) sonlash paradigmasingin birlik shaklida (8): *inson, kishi, xalq, ona, yigit, qiz, kuyov, choy, eshik, binafsha, suv, uy, tutun, zamon, ziyofat, qo'ng'iroq, serka, tuman* va b; b) sonlash paradigmasingin ko'plik shaklida (14): *odamlar, chollar, qariyalar, ogsoqollar, ayollar, xotinlar, yigitlar, bolalar, terimchilar, sovchilar, yalla-chilar, boylar;* d) sonlash paradigmasingin birlik shakliga nisbatlovchi qo'shilgan holda (6): *dadam, yordamchim, akang, otasi, qaynatasi.*

Narsa otlari (74) quyidagi shakkarda ega bo'lib kelgan: a) birlik shaklida (56): *yomg'ir, momaqaldiroq, chaqmoq, mo'miyo, shamol, tuproq, buloq, choy, eshik, binafsha, suv, uy, tutun, zamon, ziyofat, qo'ng'iroq, serka, tuman* va b; b) ko'plik shaklida (2): *chiroqlar, qamishlar;* d) birlik shakliga nisbatlovchi qo'shilgan holda (15): *biqinim, ko'nglim, ichim, yuzim, ko'zim, ovo-zing, do'pping, didingiz, javobingiz, suvi, maktabi, tayog'i;* e) ko'plik shakliga nisbatlovchi qo'shilgan holda (1): *chiroqlarimiz.*

Yuqoridagi tasvirdan xulosa shuki, badiiy nutqda ega asosan leksemashakl bilan, shunda ham ko'pincha turdosh ot, yana aniqrog'i — narsani anglatadigan turdosh ot bilan ifodalanadi; ot leksemashakl bilan ifodalanadigan ega gapshakl tarkibida albatta qatnashadi. Ega vazifasida kelgan ot leksemashakl III shaxs hukmida bo'lgani sababli kesimga III shaxs tuslovchisi qo'shiladi, bunda tuslovchi ega vazifasidagi ot leksemaga muvofiqlashib qo'shiladi; tuslovchi ega vazifasida qanday va qaysi ot leksema kelishini belgilashga mutlaq molik emas; shunga ko'ra egani kesimning kengaytiruvchisi, kesim tarkibidagi tuslovchiga xos valentlikning namoyon bo'lishi deyish — g'ayrimantiqiy, teskari fikr. Faqat I, II shaxs tuslovchisi bilan shakllangan kesimda-gina eganing I, II shaxs kishilik olmoshi bilan ifodalanishi aniq bo'ladi, lekin shunda ham ega tuslovchi asosida emas, balki tuslovchi ega (bajaruvchi) asosida tanlab qo'shiladi. Xullas, kesimni gapshaklning mutlaq hokim bo'lagi mavqeiga ko'tarish, o'zbek tilida gapshaklni W<sub>pm</sub> ramzi bilan yozib ko'rsatish asosli emas.

### *Eganing birikmashakl bilan ifodalanishi*

3- §. "Birikmalar tizimi" bo'limida hozirgi adabiy o'zbek tilida mavjud birikmalarning lisoniy qoliplari izohlandi. Bu yerda ana shu qoliplarning til birlklari bilan to'ldirilib, ma'lum grammatic shakl olib, sintaktik vazifada kelishi, ya'ni birikmashaklning sintaktik vazifasi bayon qilinadi.

Birikma qolipi til birlklari bilan to'ldirilganidan keyin lisoniy birlik holatidan nutqiy birlik holatiga o'tadi, leksema qatori nominativ birlik bo'ladi; birikma matnga (gapshakl tarkibiga) bir butun holda kiritilib, bir sintaktik vazifani bajaradi. Birikmaning tobe (birinchi) a'zosi odatda birikmaning bo'lagi, ichki bo'lak holatida qoladi.

### *Eganing sodda birikmashakl bilan ifodalanishi*

4- §. Ega ko'pincha sodda birikmashakl bilan ifodalanadi. Ushbu hodisa birikmalarning turlari bo'yicha tasvirlanadi.

I. Kuzatilgan badiiy proza matnida qaratuvchili birikmashakl 29 misolda ega vazifasida kelgan va quyidagicha ifodalangan:

1. Qaratuvchi asosan qaratzqich kelishigining belgili shaklida ishlatalgan (11):

1) Kishi ismi bilan ifodalangan (14): *X o l b e k n i n g k u l g i s i birdan uzildi* (Pirimqul Qodirov). *A z i z n i n g b r i g a d a s i institutning tajriba uchastkasiga aylandi* (Hamid G'ulom) kabi.

2) Kishi turdosh oti bilan ifodalangan (2): *Y a l l a c h i l a r n i n g k u y i .. k u y o v n i n g j o ' r a l a r i n i t o q a t s i z l a n t i r d i* (Oybek) kabi.

3) Kishilik olmoshi bilan ifodalangan (2): *Shu b i r p a r c h a y e r d a m e n i n g b i n a f s h a l a r i m b o r* (Hamid G'ulom). *Ana u n i n g u y i* (Hamid G'ulom).

4) III shaxs narsa olmoshi bilan ifodalangan: *U l a r n i n g h a r b i r i .. k a t t a g i n a o ' r a m* (Hamid G'ulom).

5) O'z- ta'kid birligi bilan ifodalangan: *O'z i m n i n g o j i z l i g i m o ' z i m g a a l a m q i l d i* (O'tkir Hoshimov).

2. Qaratzqich kelishigining belgisiz shaklida ishlatalgan (8):

1) Nisbatlovchi qatnashmagan (6): *E r t a b a h o r d a t u p r o q h i d i b o s h q a c h a b o ' l a d i* (O'tkir Hoshimov). *.. q i s h l o q x a l q i e r t a y o t i b, erta turadi* (Hamid G'ulom) kabi.

2) Nisbatlovchi qatnashgan (2): *O n a m o r z u s i - m e n i n g o r z u m* (Hamid G'ulom), *O y o g ' i n g i z t a g i - b i n a f s h a l a r* (Hamid G'ulom).

Misollardan ko'rinish turibdiki, gapshakl tarkibiga qaratuvchili birikma bir butun holda kiritiladi. Masalan, oxirgi jumlada gapshakl tarkibiga ega vazifa-

sida *tagi* leksemashakli kiritilib, keyin u *oyog'ingiz* leksemashakli bilan ke-  
ngaytirilgan deyish til hodisasini teskari izohlash bo'ladi; asli bu misolda  
(yuqoridagi barcha misollarda ham) jumla tarkibiga to'g'ridan to'g'ri nominati-  
tiv birlik sifatida qaratuvchili birikma kiritiladi.

II. Kuzatilgan badiiy proza matnida sifatlovchili birikmashaki 29 misolda  
ega vazifasida kelgan va sifatlovchi quyidagicha ifodalangan:

1) sifat bilan (10): ..*q a r i i m o m nikoh o'qidi* (Oybek). *Osmonda e r i n ch o q b u l u t l a r vazmin suzib boradi* (O'tkir Hoshimov). *Kuyov boshidan m o' l - k o' l s o c h i q l a r sochildi* (Oybek) kabi;

2) ot leksemaga *-dagi*, *-lik*, *-li* shakl yasovchisi qo'shilgan leksemashakl bilan (3): *Faqat g u z a r d a g i ch o y x o n a - g i n a charag'on, gavjum* (Hamid G'ulom). *T o sh k e n t l i k y i g i t .. Avaz bilan Hul-karga ustma-ust savol berar edi* (Pirimqul Qodirov). *S o q o l l i k a m p i r .. so'zlarni ohangdor cho'zib qichqirdi ..* (Oybek);

3) ot leksema bilan (4): *K u yo v t o m o n bir necha qadam sur-gandek bo'ldi* (Oybek). *T o 'r t k o'z i t suruvning chetini aylanib yurar edi* (Pirimqul Qodirov) kabi;

4) sanoq son bilan (2): *B e sh y i l ha-hu deguncha o'tib ketdi* (O'tkir Hoshimov). *Mana, oradan tag'in u ch y i l o'tdi* (Hamid G'ulom). Bu ikki misolda sifatlovchi asli *besh yil vaqt, uch yil vaqt* kabi birikma bilan ifodalangan bo'lib, bunday birikmalar tarkibidagi *vaqt-* leksemasi ellipslanib, oldingi qismning o'zi sifatlovchi vazifasida kelgan;

5) *boshqa-, hamma-* kabi belgi anglatadigan leksema bilan (2): *Sizning bog'ingizga binafshani b o sh q a g u l ch i ekadi* (Hamid G'ulom). .. *h a m m a t o m l a r .. xotin-qizlar bilan to'ldi* (Oybek);

6) ko'rsatish birligi, sifat tur olmosh bilan (5): *B u t a x m i n Avazga noxush tuyildi* (Pirimqul Qodirov). *Dildorxon, balki o' sh a g u l ch i o'zingiz bo'larsiz?* (Hamid G'ulom). *B u n a q a q i z l a r .. oilalarini yashnatadilar* (Hamid G'ulom) kabi;

7) fe'l leksemaning sifatdosh shakli bilan (3): *Ch a r ch a g a n a yo l-l a r uyni to'Idirib zich o'ltirishdi* (Oybek). *Q a m a l g a n t u t u n juda sekin tarqalmoqda edi* (Oybek). *Q i z d i r i l g a n ch i r m a n d a l a r havoni yangratadi* (Oybek).

III. Kuzatilgan badiiy proza matnida izohlovchili birikmashakl 10 mi-  
solda ega bo'lib kelgan va izohlovchi quyidagicha ifodalangan:

1) *opa* (6), *aka* (2) qarindoshlik otlari bilan: *M e h r i o p a ham das-turxon qilib chiqdi* (Hamid G'ulom). *R o b i ya o p a m ham sizga o'xshagan qahramonlar deyman* (O'tkir Hoshimov). *Xizmatkorxonada Y o' l-ch i b o y a k a bor ekan* (Oybek) kabi;

2) amal bildiruvchi *ferma* oti bilan (2): *Lekin A'z a m f e r m a ularga ham rad javobi berdi* (Hamid G'ulom) kabi.

IV. Bir misolda ega izofa birikmasi bilan ifodalangan: *F e r u z q i sh-l o g' i - ... qishloqlarning eng balandi* (Hamid G'ulom).

V. Ikki misolda ta'kidlovchili birikmashakl ega bo'lib kelgan: *M e n o'z i m quruq o'tin topib kelaman* (Oybek). *Bularni m e n o'z i m parvarish qilaman* (Hamid G'ulom).

Mana bu jumlalarda ham ega asli ta'kidlovchili birikmashakl bilan ifodalangan-u, lekin ta'kidlanmish ellipsanib, ta'kidlovchining o'zi ega vazifasini bajargan (2): *O'z i mash'alning yorug'ida yaxshiroq ko'rinishmoqchidir-da!* (Pirimqul Qodirov). ... *O'z l a r i y a m juda salmoqlanib so'zlar ekanlar* (Oybek).

VI. To'rt misolda tushum kelishigining belgisiz shaklidagi vositasiz to'ldiruvchili birikmashakl ega bo'lib kelgan va quyidagicha ifodalangan:

1) fe'lning otdosh shaklida, birlikda ishlatilgan (2): *S o a t o l i sh o'zining ham, onasining ham esiga aslo kelmagan edi* (Oybek). ... *b i n a f sh a e k i sh xayoliga ham kelmagan* (Hamid G'ulom).

2) fe'lning -vchi affaksi bilan yasalgan shaklida kelgan. Bu affiks asli sifatdosh yasovchisi deyiladi, bu yerda shunday leksemashakl otlashib, ko'plik affiksini olib kelgan (2): *Y o' l t o' s u v ch i l a r quvonib baqirishdi ..* (Oybek).

E s l a t m a. Kuzatilgan badiiy matnda eganing hollovchili birikmashakl bilan ifodalanishiga misol uchramadi.

### *Eganing murakkab birikmashakl bilan ifodalanishi*

5- §. Bunday birikmashakllar murakkab deb tarkibida ikkitadan ortiq leksema qatnashuviga ko'ra nomlandi. Asli bularning ko'p qismi ikki a'zoli bo'lib, bir a'zosi yoki har ikki a'zosi birikmashakl bilan ifodalanadi. Murakkab birikmashakl tarkibidagi a'zolarning o'zaro bog'lanish tartibi turli qavslar yordamida ko'rsatildi. Bularning ko'rinishlari quyidagicha:

I. Ega qaratuvchili birikmashakl bilan ifodalanadi:

1. Qaratuvchi leksemashakl bilan, qaralmish birikma bilan ifodalanadi:

1) Qaralmish sifatlovchili birikma bilan ifodalanadi:

a) [qaratuvchi] X [(sifatlovchi X sifatlanmish) = qaralmish]: *D i l d o r-n i n g q o' n g' i r o q d a y o v o z i uni xushyor torttirdi* (Hamid G'ulom). *Kunlardan bir kun Nafisanning to'y daragi yoyildi* (Hamid G'ulom). *Birgina Ahamadjonning 10-briga dasi*

*besh yuz tonna go'shimcha paxta berish majburiyatini olgan* (Hamid G'ulom).

b) <qaratuvchi> X <{[(sifatlovchi) X (sifatlovchi)] X [sifatlanmish]} = qaralmish>: *U n i n g s e r d a r a x t k e n g h o v l i s i n i m qorongi* (O'tkir Hoshimov).

d) «qaratuvchi» X «<{[(tarz hollovchisi) X (tarz hollovchisi)] X [hollanmish]} + gan = sifatlovchi> X <[(sifatlovchi X sifatlanmish) + i = qaralmish]>>: *D i l d o r n i n g sh a x t b i l a n c h e r t i b - c h e r t i b a y t g a n a n i q - r a v s h a n s o'z l a r i boshqa savolga o'r in qoldir-madi* (Hamid G'ulom).

2. Qaratuvchi birikmashakl bilan, qaralmish leksema bilan ifodalanadi:

1) Qaratuvchi sifatlovchili birikmashakl bilan ifodalanadi: [(sifatlovchi X sifatlanmish) = qaratuvchi] X [qaralmish]:

a) Sifatlovchi vazifasida sifat leksema, sifat tur olmosh keladi: *Men bu-rolmag'an tutqichni aylantirishga y o sh b o l a n i n g k u c h i yetarmidi!* (O'tkir Hoshimov). *H a r q a n d a y i s h n i n g h a m o x i r i qiyin bo'ladi* (O'tkir Hoshimov).

b) Sifatlovchi vazifasida ot leksema keladi: *Q o' q o n a r a v a n i n g d u k u r i qursin!* (Oybek). *K u y o v t o m o n a y o l l a r i esa uyning to'rida .. g'uj turishdi* (Oybek).

2) Qaratuvchi izohlovchili birikmashakl bilan ifodalanadi: [(izohlanmish X izohlovchi)=qaratuvchi] X [qaralmish]: *R a' n o k e l i n o y i m n i n g e sh i g i orgasidan tambalangan ekan* (O'tkir Hoshimov).

3. Quyidagi misolda qaratuvchi ham, qaralmish ham sifatlovchili birikma bilan ifodalangan; qaralmish bo'lib kelgan birikma o'z ichida sifatlovchili birikma bilan ifodalangan: { ( sifatlovchi X sifatlanmish) = qaratuvchi } X { [sifatlovchi] X [(sifatlovchi X sifatlanmish)] = qaralmish}: *B u m a h a l-l a n i n g sh u m t a k a e r k a k b o l a l a r i "kelin chimchilash" de-gan eski odatga juda rioya qilishar ekan* (Oybek).

II. Ega sifatlovchili birikmashakl bilan ifodalanadi:

1. Sifatlovchi sifatdoshdan boshqa leksemashakl bilan ifodalanadi:

1) Sifatlovchi leksemashakl bilan, sifatlanmish birikma bilan ifodalanadi: [sifatlovchi] X [(sifatlovchi X sifatlanmish) = sifatlanmish]: *Kuch sinovda h a r i k k i t o m o n a s t o y d i l k u r a s h d i* (Oybek). *Y a n a b i r y a q i n t o m o n i - q o ' s h n i* (Hamid G'ulom). *O'yindan keyin k e ch a g i s o-q o l l i k a m p i r k e l i n n i "salom"ga olib chiqdi* (Oybek). *Mening zim-mamga K o' t a r m a d a g i b r i g a d a t u s h g a n* (O'tkir Hoshimov). *B a 'z i s h i l q i m b o y v a c h c h a l a r q o'llaridagi shaldiroq qog'oz*

*aqchalarni havoda silkitadilar* (Oybek). .. *Bugabuloq atroflarida b u n a q a a n t i q a q i sh l o q l a r ko'p* (Hamid G'ulom). *Shu qiy-chuv ichida Mirzakarimboy bilan xotini o'rtasida b i r o z a ch ch i q - t i z i q g a p o'tdi* (Oybek).

Mana bu misolda sifatlanmish o'z navbatida sifatlovchi leksemashakl va sifatlanmish birikmadan tuzilgan: {sifatlovchi} X {[sifatlovchi] X [(sifatlovchi X sifatlanmish) = sifatlanmish]}: *B u T o sh k e n t l i k j u r n a l i s t y i g i t .. Avazlarning ishini Mansurovdan eshitib qiziqib qolgan edi* (Pirimqul Qodirov).

2) Sifatlovchi birikmashakl bilan, sifatlanmish leksema bilan ifodalanadi: [(sifatlovchi X sifatlanmish) = sifatlovchi] X [sifatlanmish]: .. *Nurini b i r t o' d a x o t i n l a r palak ostida kattagina xonaga kiritdilar* (Oybek). *Qiz tomonidan g u p ch a k d e k y u m - y u m a l o q xotin belini belbog' bilan mahkam bog'lab o'rta ga tushdi* (Oybek).

Mana bu misolda sifatlovchi kesimlik leksemasi boshqargan to'ldiruvchili birikma bilan ifodalangan: [vositali to'ldiruvchi X to'ldirilmish) = sifatlovchi] X [sifatlanmish]: *Yaxshi boqilgan suruvlarda o'z i g a x o s b i r i n t i - z o m bo'ladi* (Pirimqul Qodirov).

3) Mana bu misolda sifatlovchi to'ldiruvchili birikmashakl bilan, sifatlanmish sifatlovchili birikma bilan ifodalangan: [(vositali to'ldiruvchi X to'ldirilmish) = sifatlovchi] X [(sifatlovchi X sifatlanmish)=sifatlanmish]: *D o n g g a o'ch b o y v a c h c h a k u y o v l a r nikohga odatda qo'sh karnay, qo'sh surnay bilan kelishardi* (Oybek).

2. Sifatlovchi sifatdosh shaklidagi fe'l leksema bilan ifodalanadi:

1) Sifatlovchi leksemashakl bilan, sifatlanmish birikma bilan ifodalanadi: [fe'l leksema + gan = sifatlovchi] X [(sifatlovchi X sifatlanmish) = sifatlanmish]: *B o' l i b o' t g a n b i r v o q e a uni gangitib qo'ydi* (Hamid G'ulom).

2) Sifatlovchi birikmashakl bilan, sifatlanmish leksema bilan ifodalanadi:

a) <{[(qaratuvchi X qaralmish) + dan = natija hollovchisi] X [hollanmish]}+gan=sifatlovchi> X <sifatlanmish>: *U n i n g z a r b a l a r i d a n k a r a x t b o'lg a n T u r d i oxiri tik qoyadan pastga yumalab ketdi* (Pirimqul Qodirov).

b) <{[(qaratuvchi X qaralmish) = payt hollovchisi] X [(qaratuvchi X qaralmish)+da = o'trin hollovchisi] X [hollanmish]}+ gan = sifatlovchi> X <sifatlanmish>: *Q i sh b o' y i q o r o s t i d a u x l a b yo t g a n y e r ko'klamning iliq-issiq oftobi bilan uyg'anadi-yu, ..* (O'tkir Hoshimov).

d) <{[(qaratuvchi X qaralmish) = payt hollovchisi] X [tarz hollovchisi] X [hollanmish]} + gan = sifatlovchi> X <sifatlanmish>: *K u n b o' y i*

*erinch oq kezib yurgan bulutlar oftob botgandan keyin qahri tus oldi* (O'tkir Hoshimov).

e) <{{(sifatlovchi X sifatlanmish) + da = payt hollovchisi} X [hollanmish]} + gan= sifatlovchi> X <sifatlanmish>: *Yoki so'nggi kunnilar da qilganishlar zo'rishlari bo'lganmikan?* (Pirimqul Qodirov).

f) {{(vositasiz to'ldiruvchi) X (o'rinn hollovchisi) = to'ldirilmish / hollanmish}+gan= sifatlovchi} X {sifatlanmish}: *Qo'yilarini balan daga yoyib chiqqagan Xolbek serkasini ertalab Kiyiktoshda ko'rdi* (Pirimqul Qodirov).

g) <{{(vositasiz to'ldiruvchi X to'ldirilmish) + b = maqsad hollovchisi} X [tarz hollovchisi] X [hollanmish]} + yotgan = sifatlovchi> X <sifatlanmish>: *Ularni ajratmoqchi bolib shoshib kelayotgan Avaz Turdiga yaqinlashdi* (Pirimqul Qodirov).

h) {{(vositasiz to'ldiruvchi X to'ldirilmish) + bilan = payt hollovchisi} X [vositali to'ldiruvchi] X [hollanmish / to'ldirilmish]+gan= sifatlovchi} X {sifatlanmish}: *Azizni ko'rishib bilan Nafisada yuz berigan o'zgarish dafatan sezilib qoldi* (Hamid G'ulom).

i) «<{{(sifatlovchi X sifatlanmish) + ga = o'rinn hollovchisi} X [hollanmish] + sh + ga=vositali to'ldiruvchi} X {to'ldirilmish}> + gan= sifatlovchi» X «sifatlanmish»: *Sovuq joylariga qaytib ketishiga ulgurmaqagan qarg'alar traktor ustida g'uj'on o'ynab, ..* (O'tkir Hoshimov).

j) [(o'rinn hollovchisi X hollanmish) + gan= sifatlovchi] X {sifatlanmish}: *Kuyovnikiidan kelgan sarpolardan kecha xotinlar orasida ochilib, ..* (Oybek).

k) [(payt hollovchisi X hollanmish) + digan = sifatlovchi] X {sifatlanmish}: *Tushdan keyin yog'adigan odati bor* (Pirimqul Qodirov).

l) <{{(o'rinn hollovchisi) X (vositasiz to'ldiruvchi)} X [hollanmish / to'ldirilmish]} + gan= sifatlovchi> X <sifatlanmish>: *Yuqorida buni ko'rib turgan Hulkar Avazga qarab kuldi* (Pirimqul Qodirov).

m) «<{payt hollovchisi} X {[qaratuvchi] X [(sifatlovchi X sifatlanmish) + i + ni = qaralmish / to'ldirilmish} X {hollanmish / to'ldirilmish} + dan = vositali to'ldiruvchi> X <to'ldirilmish>+gan=sifatlovchi» X «(sifatlovchi X sifatlanmish) = sifatlanmish»: *Hatto erta-kech tanchaning bir tomonini bandetishdan o'zgariishi yaramaydiganzabunkamplar ham ..* (Oybek).

3) Sifatlovchi ham, sifatlanmish ham birikma bilan ifodalananadi:

a) <{(qaratuvchi X qaralmish)+dan = o'rin hollovchisi} X [hollanmish]} + gan=sifatlovchi> X <{sifatlovchi} X {{(sifatlovchi) X (sifatlanmish)} = sifatlanmish}>: *E sh i k t a g i d a n o q b o sh l a n g a n q i z g'i sh g'i sh t i n y o'l k a hovlini qoq ikkiga bo'lib ..* (Hamid G'ulom).

b) <{(sifatlovchi X sifatlanmish) + dan = o'rin hollovchisi} X [hollanmish]} + yotgan = sifatlovchi> X <(sifatlovchi X sifatlanmish) = sifatlanmish>: *Q a r sh i d a g i k a m d a n o sh i b k e l a y o t g a n i k k i k i sh i ko'rindi* (Pirimqul Qodirov).

III. Ega izohlovchili birikmashakl bilan ifodalanadi. Kuzatilgan matnda quyidagi uch misol uchradi:

1) {[izohlovchi] X [(izohlanmish X izohlovchi) = izohlanmish]}: *Avazning armiyadan qaytishiga o n a s i N i g o r o p a .. kelin tayyorlab qo'ygan* (Hamid G'ulom). *O n a s i N i g o r o p a .. boshqa turmush qilmadi* (Hamid G'ulom).

2) {[{(qaratuvchi X qaralmish) = izohlovchi] X [(izohlanmish X izohlovchi) = izohlanmish]}: *Ammo u n i n g e r i A'z a m f e r m a k o'rinnadi* (Hamid G'ulom).

IV. Ega to'ldiruvchili va hollovchili birikmashakl bilan ifodalanadi. Bunday birikma fe'lning otdosh shaklida bo'ladi. Kuzatilgan matnda quyidagi ikki misol uchradi:

1) {[vositasiz to'ldiruvchi] X (hollovchi) X (to'ldirilmish / hollanmish)} + sh: *M o t o r n i q a y t a d a n o't o l d i r i sh oson bo'lsa ekan* (O'tkir Hoshimov).

2) {[{(sifatlovchi X sifatlanmish) + ni = vositasiz to'ldiruvchi] X [o'rin hollovchisi] X [tarz hollovchisi] X [to'ldirilmish / hollanmish]}+sh: *B u n a-f i s l i k n i t o g' d a y o l g'i z t a sh l a b k e t i sh Avazga juda og'ir tuyildi* (Pirimqul Qodirov).

Xullas, ega nutqda leksemashakl bilan ham, sodda birikmashakl bilan ham, murakkab birikmashakl bilan ham ifodalanadi. Leksemashakl ham, birikmalar tarkibida qatnashadigan tobe a'zolar ham asosan doim birikmaning bo'lagi vazifasida keladigan qaratuvchi, sifatlovchi bilan, ba'zan izohlovchi, ta'kidlovchi, izofalovchi bilan ifodalanadi; bunday birikmashakllar tarkibida to'ldiruvchi, hollovchi oz uchraydi.

### Kesimning nutqiy voqelanishi

#### *Kesimning leksemashakl bilan ifodalanishi*

1- §. Boshqa sintaktik bo'laklar qatori kesim ham asosan leksemashakl bilan, qisman birikmashakl bilan, frazemashakl bilan ifodalanadi. Tahsiliga jalgan.

qilingan 502 misoldan 404 misolda kesim leksemashakl bilan, 60 misolda birikmashakl bilan, 35 misolda frazemashakl bilan ifodalangan.

Kesim vazifasida tuslovchili leksemashakl keladi; shaxs-son ma'nosining kesim tarkibida nisbatlovchi bilan ifodalanishi ayrim sintaktik qurilmalarda-gina voqe bo'ladi, bularda nisbatlovchi go'yo tuslovchi vazifasini bajaradi. Bunday holatga quyidagi ikki misol uchradi:

*Ertalab maktabga borishing kerak* (O'tkir Hoshimov). *Ishga tushguncha ancha narsa o'qib olishim kerak* (Hamid G'ulom). Bajaruvchining shaxs-soni nisbatlovchi bilan aniq ifodalanishi tufayli bunday gapshakl tarkibida ega bo'lak odatda qatnashmaydi; bajaruvchini ta'kidlash lozim bo'lsa, ega bo'lak albatta qatnashadi: *Bu javobdan keyin men ketishim kerak* (Hamid G'ulom) kabi.

Qolgan 402 misolda kesim tuslovchili leksemashakl bilan, shulardan 330 misolda tuslovchili fe'l leksemashakl bilan, 71 misolda tuslovchi qo'shilgan boshqa turkum leksemashakli bilan ifodalangan.

### *Kesimning tuslovchili fe'l leksemashakl bilan ifodalanishi*

2- §. Bunday leksemashakllarda tuslovchidan oldin bo'lishli-bo'lishsizlik, o'rni bilan mayl, zamon ko'rsatkichlari qatnashadi, lekin mustaqil kesimlikni bunday leksemashakl oxiridagi tugallovchi ko'rsatkich — tuslovchi ta'minlaydi.

Kesimlik ko'rsatkichlari (kesimlik kategoriyasi) qatoriga harakatning voqelanish tarzini ifodalaydigan ko'makchi fe'llarning kiritilishi noo'rin: bular kesimni shakllantiradigan vosita emas.

Analitik grammatik shakl hosil qiladigan *edi*, *ekan*, *emish* affiksoidlarini alohida ajratish uchun asos yo'q: grammatik ma'noning (bu yerda zamon ma'nosining) sintetik va analitik shakllar bilan ifodalanishi bir butun holda baholanishi to'g'ri.

Kesim vazifasidagi fe'l leksemashakl tarkibida bo'lishli-bo'lishsizlik paradigmasining (B) va tuslash paradigmasining (Ts) ko'rsatkichi albatta qatnashadi: FL + B + Ts. Demak, *boray* leksemashakli *bor* + Ø IV + *ay* qismlaridan, *bormay* leksemashakli *bor* + *ma* + *y* qismlaridan tarkib topgan. Tuslovchilarning bu subparadigma mayl ma'nosini ham ifodalashga xoslangan; shunga ko'ra bunday tuslovchini asli Ts/M tarzida yozib ko'rsatish to'g'riroq.

Ko'rinadiki, tuslovchilarning bu subparadigmasiga mansub ko'rsatkichlar shaxs-son ma'nosini mayl ma'nosini bilan birga ifodalaydi, shunga ko'ra sinkretiklik, fuziya haqida gapiriladi. Asli bu yerda sinkretiklik, fuziya shaxs-son

ma'nosi bilan mayl ma'nosining birga ifodalinishidan iborat; shaxs va son ma'nolari esa asli alohida-alohida ko'rsatkich bilan ifodalanadi; *boray* – *boraylik* kabi. Qiyoslash ko'rsatadiki, *-aylik* affaksi tarkibida *-ay* qismi shaxs ma'nosini, *-lik* qismi ko'plik (son) ma'nosini ifodalarydi; demak, *-lik* affiksiga zidlab birlikning nol ko'rsatkichli morfema bilan ifodalishi aniqlanadi. Lekin tuslovchi yaxlitligicha bir paradigmanning (bir grammatik kategoriyaning) ko'rsatkichi bo'lgani tufayli bu yerda birlik uchun Ø ko'rsatkichi odatda yozilmaydi.

Demak, bunday tuslovchilarda shaxs-son ma'nosining ifodalishida sinkretiklik, fuziya yo'q; sinkretiklik bu yerda shaxs-son ma'nosi bilan mayl ma'nosining birga ifodalishida mavjud deyish mumkin. Tuslovchi (-y) *boray* kabi leksemashakl tarkibida bo'lishlilik, kelasi zamon ma'nolarini ham ifodalarydi degan fikr grammatic paradigmalar tarkibidagi nol ko'rsatkichli morfemalarni to'g'ri hisobga olmaslik oqibatida yuzaga kelgan.

Tuslovchili fe'l leksemashakl tarkibida mayl va zamon ko'rsatkichlarining turlicha qatnashuvi "Gapshaklni yuzaga keltiradigan asosiy omillar" sarlavhasi ostida bayon qilindi.

3- §. Bo'lishli-bo'lishsizlik paradigmasi shakllarining nutqda voqelanishi keskin farq qiladi: 330 tuslovchili fe'l leksemashakldan faqat 21 misol bo'lishsiz shaklda, qolgan 309 misol bo'lishli shaklda ishlatilgan, nol ko'rsatkichli morfema bilan ifodalangan. Bir misolda qat'iy bo'lishlilik *-ma* affiksini leksemashakl tarkibida ikki marta ishlatish bilan ifodalangan: *bormasam bo'lmaydi* = 'albatta borishim kerak' kabi.

Mayl turlari ham nutqda juda oz voqelanadi. Kuzatilgan fe'l leksemashakllar orasida 26 misol buyruq-istik mayli shaklida (asosan II shaxs, qisman I shaxs, juda oz III shaxs shaklida), *-sa* istak mayli ikki misolda, *-moqchi* maqsad mayli ham ikki misolda ishlatilgan (*-sa* affiksining shart mayli yasovchisi bo'lib kelishi "Qo'shma gapshakl" bahsida tasvirlanadi).

Qolgan 300 misol zamon paradigmasing turli shakllarida voqelangan: 230dan ortiq misol o'tgan zamon shakllarida, 50dan ortiq misol *-a/-y* affksi bilan yasaladigan kelasi zamon shaklida, 5 misol *-yap* affksi bilan yasaladigan hozirgi zamon shaklida uchradi.

O'tgan zamon shakllari orasida eng ko'p – 195 misol *-di* affksi bilan yasalgan; o'tgan zamonning sintetik shakllari 7 misolda *-b* affksi bilan, 6 misolda *-gan* affksi bilan yasalgan; 10 misolda *-gan edi*, 10 misolda *-r edi*, 3 misolda *-r ekan*, 2 misolda *-moqda edi*, bir misolda *-gan ekan* analitik shakl yasalishi uchradi.

Lison nuqtayi nazaridan zamon paradigmasing barcha ko'rsatkichlari o'zaro teng deb qaraladi, lekin ularning nutqda namoyon bo'lishi keskin farq

qiladi: Tuslovchili fe'l kesim (demak, gapshakl) nutqda asosan *-di* affiksi bilan yasaladigan aniq yaqin o'tgan zamon shaklida va *-a/-y* affiksi bilan yasaladigan sof aniq kelasi zamon shaklida ishlatalidi.

### *Kesimning fe'lidan boshqa leksemashakllar bilan ifodalanishi*

4- §. Tahvilga jalg qilingan misollar orasida tuslovchili fe'l leksemashakllardan tashqari quyidagi turkum leksemashaklliham kesim vazifa-sida kelgan (63):

1. Misollarning 25tasida kesimlik leksemasi kesim bo'lib kelgan:

1) *bor-* leksemasi (12): *Shu bir parcha yerda mening binafshalarim bor* (Hamid G'ulom). *Tol tagida buloq bor* (O'tkir Hoshimov). *Tashqarida dadam bormi?* (Oybek). *Xizmatkorxonada Yo'lichiboy aka bor ekan* (Oybek) kabi;

2) *yo'q-* leksemasi (4): *Kutib o'tirishga vaqt yo'q* (O'tkir Hoshimov). *Mo'jaz oyoqlarida mahsi yo'q* (Oybek) kabi;

3) *kerak-* leksemasi (3): *Yana nima kerak, suyunchimi?* (Pirimqul Qodirov). *Kerakmas maktabi, opa!* (O'tkir Hoshimov) kabi;

4) *xursand-* leksemasi (2): *Olimjon xursand* (O'tkir Hoshimov). *Jonim, menga qarang. Xursandmisiz?* (Oybek);

5) *hayron-* leksemasi (1): *Avaz hayron: u Davlatbekovdan hech qachon bunday maqtov eshitmagan* (Pirimqul Qodirov);

6) *muborak-* leksemasi (1): *Ha, aytganday, kandidatlik muborak!* (Hamid G'ulom);

7) *tashakkur-* leksemasi (1): "Sizga bular, Aziz aka! Mening binafshalarim!..." — "Tashakkur" (Hamid G'ulom);

8) *ayni muddao-* kesimlik birikmasi (1): "Ayni muddao. — Dildor bu so'zlariga allaqanday urg'u berib gapirdi. — Ishga tushguncha ancha narsa o'qib olishim kerak" (Hamid G'ulom).

2. Misollarning 15tasida sifat leksema kesim bo'lib kelgan:

1) *yaxshi-* leksemasi (4): *Sizam yaxshisiz!* (O'tkir Hoshimov). *Akam yaxshilar-a?* (O'tkir Hoshimov);

2) *nozik-* leksemasi (2): *Yana zamon nozik* (Oybek). *Didingiz nozik ekan!* (Hamid G'ulom);

3) *toza-* leksemasi *top-toza* shaklida (1): *Qarang, top-toza!* (O'tkir Hoshimov);

4) *tushunarli-* leksemasi (1): *Javobingiz tushunarli* (Hamid G'ulom);

5) *qahramon-* leksemasi (1): *Robiya opam ham sizga o'xshagan qahramonlar* (O'tkir Hoshimov).

6) Bir necha misolda sifat leksema *bo'l-* yordamchisi qo'shilgan holda kesim *bo'lib* kelgan (3):

a) *ho'l-* leksemasi: *Daftaring ho'l bo'lib qoldi* (O'tkir Hoshimov);

b) *qiyin-* leksemasi: *Har qanday ishning oxiri qiyin bo'ladi* (O'tkir Hoshimov);

d) *oson-* leksemasi: *Motorni qaytadan o't oldirish oson bo'lsa ekan* (O'tkir Hoshimov);

7) *mehribon-* leksemasi *qil-* yordamchisi qo'shilgan holda kesim *bo'lib* kelgan: *Kim bu odamni bunchalik mehribon qilib qo'ydi ekan?* (Pirimqul Qodirov);

8) *kambag'al-* leksemasi *ekan+lik* shaklining *ekan* affiksoidi ellipslangan ko'rinishida kesim *bo'lib* kelgan: *Uning bitta qusuri — kambag'alligi* (Oybek).

3. Misollarning 7tasida ravish leksema kesim *bo'lib* kelgan:

1) *ko'p-* leksemasi (2): ..*Buqabuloq atroflarida bunaqa antiqa qishloqlar ko'p* (Hamid G'ulom). *Voy, biram ko'p!* *Avaz aka, belbog'ingizni bering, terib olaylik* (Pirimqul Qodirov);

2) *kam-* leksemasi (2): *Voy, Alixo'ja boylardan nimamiz kam?* (Oybek). *Bu yil suv kamroq* (Hamid G'ulom);

3) *boshqacha-* leksemasi (1): *Erta bahorda tuproq hidi boshqacha bo'ladi* (O'tkir Hoshimov);

4) *eskicha-* leksemasi (1): *Biroq bu gal ham javob eskicha bo'ldi* (Hamid G'ulom);

5) *asta-* leksemasi (1): *Astaroq... Oyog'ingiz tagi — binafshalar* (Hamid G'ulom).

4. Misollarning 7tasida ot leksema kesim *bo'lib* kelgan. Bunday ot leksema odatda bosh, o'rin kelishigi shaklida *bo'ladi*; kelishikning sintaktik vazifa ko'rsatishi betaraflashadi, chunki sintaktik vazifa ko'rsatkichi kelishikdan keyin qo'shiladi:

1) Bosh kelishik shaklida kelgan (5): *Yordamchim — Olimjon* (O'tkir Hoshimov). *Mana, so'zingiz men uchun qonun* (Pirimqul Qodirov). *Yana bir yaqin tomoni — qo'shni* (Hamid G'ulom). *Axir bu jasorat emasmi?* (Hamid G'ulom).

2) O'rin kelishigi shaklida kelgan (3): *Hamma dalada* (Hamid G'ulom). *Ixtiyor otamda!* (Hamid G'ulom). *Biroq Nigor opaning o'ylashicha gap mol-dunyoda emas* (Hamid G'ulom).

5. Misollarning 9tasida olmosh kesim bo‘lib kelgan:

1) kishilik olmoshi (4):

a) bosh kelishik shaklida (3): *Oching, kennoyi, menman!* (O‘tkir Hoshimov). *Birovlarning xotiniga tuzoq qo‘yadigan senmisan?!* (Pirimqul Qodirov). *Men sen bo‘lsam, o‘zimni zovdan tashlar edim!* (Pirimqul Qodirov);

b) jo‘nalish kelishigi shaklida (1): *Sizga bular, Aziz aka!* (Hamid G‘ulom);

2) so‘roq olmoshi (1): *Do ‘pping qani?* (O‘tkir Hoshimov);

3) sifat olmoshi (2):

a) *bunday-* olmoshi (1): *Voeqa bunday bo‘lgan* (Hamid G‘ulom);

b) *shunaqa-* olmoshi (1): *Bugun ham shunaqa bo‘ladi* (O‘tkir Hoshimov);

4) gumon olmoshi (1): *Nega bunday allanechuksan?* (Oybek).

6. 3 misolda ko‘rsatish birliklari kesim bo‘lib kelgan:

1) *shu ko‘rsatish birligi* (2): *Og‘zimga kelgan gap shu bo‘ldi* (O‘tkir Hoshimov). *To‘yning qizig‘i shunda-da* (Oybek);

2) *ana ko‘rsatish birligi* (10): *Ana uning uyi* (Hamid G‘ulom).

7. Bir misolda *o‘z-* ta‘kid birligi kesim bo‘lib kelgan: *Dildorxon, balki o‘sha gulchi o‘zingiz bo‘larsiz?* (Hamid G‘ulom).

### ***Kesimning tuslovchili birikmashakl bilan ifodalanishi***

5- §. Sintaktik bo‘lak, shu jumladan kesim ham qurilish ashyosi sifatida birikma bilan ham ifodalanadi. Tahvilga jalb qilingan misollarning 60tasida kesim birikmashakl bilan ifodalangan. Bular dastlab bosh a‘zosi asosida fe‘l birikmashakl (41) va ism (keng ma’noda) birikmashakl (19) deb ikkiga guruhlanadi.

### ***Kesimning fe‘l birikmashakl bilan ifodalanishi***

6- §. Kesim vazifasida kelgan fe‘l birikmashakl to‘ldiruvchili birikmashakl va hollovchili birikmashakl deb ikkiga ajratildi.

1. To‘ldiruvchili birikmashakl ikki turli: 1) vositasiz to‘ldiruvchili, 2) vositali to‘ldiruvchili.

1) Vositasiz to‘ldiruvchi (16):

a) tushum kelishigining belgili shaklida kelgan (7): *Amallab qaddimni rostladim* (O‘tkir Hoshimov). *Dadillanib yelkasini tutdi* (O‘tkir Hoshimov). *Qanday qilib u o‘zini saqlab qoldi?* (Oybek). *So‘ngra armiya xizmatini o‘tadi* (Hamid G‘ulom). Oxirgi misolda kesim (*armiya X xizmatini*) *X o‘ta-* tuzilishli

birikma bilan ifodalangan. Mana bu misolda vositasiz to'ldiruvchi yetti leksemashaklli birikma bilan ifodalangan: *Birgina Ahmadjonning 10- brigadasi | besh yuz tonna qo'shimcha paxta berish majburiyatini olgan* (Hamid G'ulom). Bu birikma tarkibidagi leksemashakllarning o'zaro sintaktik bog'lanishini qavslar yordamida quyidagicha ko'rsatish mumkin: {[**(besh X yuz) X (tonna)**] X [qo'shimcha] X [(paxta X berish) X majburiyati]}ni X {ol-};

b) tushum kelishigining belgisiz shaklida kelgan (9): ..*qari imom nikoh o'qidi* (Oybek). *Dildorning .. aniq-ravshan so'zлari boshqa savolga o'rinn goldirmadi* (Hamid G'ulom). ... *akang orden oladilar ..* (O'tkir Hoshimov). *Olimjon nima qilib berardi* (O'tkir Hoshimov) kabi.

2) Vositali to'ldiruvchi (8):

a) jo'nalish kelishigidagi leksemashakl bilan ifodalangan (7): *Oxirida u Hulkar bilan Avazni .. suvratga oldi* (Pirimql Qodirov). *Olimjonning yig'lamsiragan ovozi qulog'imga kirdi* (O'tkir Hoshimov). *Azizning brigadasi institutning tajriba uchastkasiga aylandi* (Hamid G'ulom) kabi. Oxirgi misolda vositali to'ldiruvchi uch leksemashaklli birikma bilan ifodalangan: {[institutning] X [(tajriba X uchastkasi)]} ga X {aylan-};

b) chiqish kelishigidagi leksemashakl bilan ifodalangan (1): *Eski tao-mildan qolma* (Oybek).

2. Hollovchili birikmashaklda (17):

1) tarz hollovchisi qatnashgan (10):

a) ravishdosh shaklidagi fe'l bilan ifodalangan (5): *Bosib-yanchib o'tavermaysanmi?!* (Oybek). *Meni deb yovvoyi odam bo'lib ketmang, soch-pochingizni ham oldirib keling* (Pirimql Qodirov). *O'rnimdan turayot-ganimda biginim yana lovullab yondi* (O'tkir Hoshimov). *Dildor shu yerga kelin bo'lib tushgan* (Hamid G'ulom);

b) sifat leksemashakl bilan ifodalangan (3): *Bu nafislikni tog'da yolg'iz tashlab ketish Avazga juda og'ir tuyildi* (Pirimql Qodirov). *Kun bo'yи erinchchoq kezib yurgan bulutlar oftob botganidan keyin qahrli tus oldi* (O'tkir Hoshimov) kabi. Oxirgi misolda hollanmish belgisiz tushum kelishigidagi vositasiz to'ldiruvchili birikmaga teng: (*qahrli*) X (*tus X ol-*);

v) sifat olmosh bilan ifodalangan (2): *Avaz tengi ko'pchilik yoshlarning tarjimayi holi yuzaki qaraganda shunday ko'rindi* (Hamid G'ulom). *Er deb shunaqa qilib yuribdi-ya* (Pirimql Qodirov);

2) o'rin hollovchisi qatnashgan (6):

a) jo'nalish kelishigidagi ot leksemashakl bilan ifodalangan (5): *Qiz tomonda gupchakday yum-yumaloq xotin belini belbog' bilan mahkam bog'lab*

*o'rtaga tushdi* (Oybek). *Avaz o'zining bu o'yidan xijolat bo'lib yerga qaradi* (Pirimqul Qodirov). *Keling, Aziz aka, to'rga chiqing!* (Hamid G'ulom) kabi;

b) chiqish kelishigidagi ot leksemashakl bilan ifodalangan (1): *U toyda sirg'anib o'rnidan turdi* (O'tkir Hoshimov);

3) payt hollovchisi qatnashgan (1): .. *uy-ayvonlarda chiroqlar o'chirilganiga ikki soatdan oshdi* (Hamid G'ulom).

### *Kesimning ism birikmashakl bilan ifodalanishi*

7- §. Tahlilga jalg qilingan misollarning 19tasida kesim ism birikmashakl bilan ifodalangan:

1. Kesim vazifasida sifatlovchili birikmashakl kelgan (10). Kesimlik ko'rsatkichi:

1) bosh kelishikdan keyin qo'shilgan (9):

a) Ikki a'zoli birikma bilan ifodalangan (5): *Bu — qanday maynabozlik!* (Oybek). *Aziz — yolg'iz o'g'il* (Hamid G'ulom). *Binafsha — eng nozik chechak* (Hamid G'ulom) kabi.

b) Uch a'zoli birikma bilan ifodalangan (1): *Ammo Dildor — tamoman boshqa olam* (Hamid G'ulom). Bu misolda leksemashakllarning o'zaro sintaktik bog'lanishi quyidagicha: *[tamoman] X [(boshqa X olam)]*.

d) Ko'p a'zoli birikma bilan ifodalangan (4): *Shu oddiy qizil askardan yana bir xotira — o'sha 1941- yilning kuzida kelgan "qora xat"* (Hamid G'ulom). *[Dildor] .. o'z erki, irodasi, maqsadi, intilishlari va jasorati bilan mustaqil inson!* (Hamid G'ulom). Bu misolda uyushiq qator bilan ifodalangan to'ldiruvchi sifatlovchili birikmaga bog'langan, yoyiq birikma bir butun holda kesim vazifasida kelgan.

2) Kesimlik ko'rsatkichi o'rin kelishigidan keyin qo'shilgan (1): *Dildorning uyi — shu yaqinda* (Hamid G'ulom). Asli bu birikma uch a'zoli bo'lib, joy- leksemasi ellipslangani tufayli o'rin kelishigi affiksi undan oldingi qismga qo'shilgan: *[(shu) X (yaqin joy)]da → (shu yaqin)da*.

2. Kesim vazifasida qaratuvchili birikmashakl kelgan (7); kesimlik ko'rsatkichi bosh kelishikdan keyin qo'shilgan:

1) Ikki a'zoli birikma bilan ifodalangan (4): *Onam orzusi — mening orzum!* (Hamid G'ulom). *Sizning ishingizmi bu?* (Pirimqul Qodirov). *Birovmas, o'zimmi yangam* (O'tkir Hoshimov). *Men — binafsha shaydosi ...* (Hamid G'ulom).

2) Ko'p a'zoli birikma bilan ifodalangan (3): *Feruz qishlog'i — yuksak tizma tog'ning Xovos tomondagi bag'rige joylashgan qishloqlarning eng balandi* (Hamid G'ulom) kabi. Ushbu misol tarkibidagi leksemashakllarning

o‘zaro sintaktik bog‘lanishi quyidagicha: «<{[(yuksak) X (tizma X tog‘)]ning X [(Xovos X tomon)]dagi X [bag‘ri]}ga X {joylashgan}> X <qishlog‘lar>ning» X «eng balandi».

3. Bir misolda kesim izohlovchili birikma bilan ifodalangan: *Bu — Yormatning qizi Gulnor edi* (Oybek). Leksemashakllarning o‘zaro sintaktik bog‘lanishi quyidagicha: [(Yormatning X qizi) X (Gulnor)] edi.

4. Bir misolda kesim *fe'l leksema + ma + sa go'rga edi* qurilmasi bilan ifodalangan: *Yomg‘ir yog‘masa go'rga edi!* (O‘tkir Hoshimov).

### **Birikmaning bo‘lagi mavqeida ham, gapshaklning bo‘lagi mavqeida ham ishlatalidigan sintaktik bo‘laklarning nutqiy voqelanishi**

#### **To‘ldiruvchining nutqiy voqelanishi**

1- §. Tahlilga jalb qilingan 165 jumlaning 51tasi tarkibida to‘ldiruvchi qatnashmagan; bulardan 20 misolda kesim *fe'l* bilan, 31 misolda ism bilan ifodalangan. 15 misolda kesim *chig-*, *to‘xta-*, *yon-*, *charcha-*, *terla-*, *kuchay-* kabi to‘ldiruvchini boshqarmaydigan o‘timsiz *fe'l* leksema bilan ifodalangan.

Ikki misolda vositali to‘ldiruvchini boshqara oladigan *fe'l* leksema qatnashgan, lekin boshqarish xususiyati voqelanmay qolgan: *Olimjon nima qilib berardi* (O‘tkir Hoshimov). *Hech nima qilmaydi* (O‘tkir Hoshimov): *kimga?*

Vositasziz to‘ldiruvchini boshqaradigan *fe'l* leksemada o‘zlik shakli yasalishi bilan bunday to‘ldiruvchini boshqarish xususiyati yo‘qolgan: *Tamba surildi* (O‘tkir Hoshimov). *Shoqsim bo‘g‘ildi* (Oybek).

Bir misolda (dialogik nutq parchasida) o‘timli *fe'l* leksemaning vositasziz to‘ldiruvchini boshqarish xususiyati voqelanmay qolgan: “*Hamma narsaga razm solib, kovlab yurasan-a, pismiq!*” – *j e r k i b t a s h l a d i Nuri* (Oybek).

#### **Vositasziz to‘ldiruvchining nutqiy voqelanishi**

2- §. To‘ldiruvchini boshqarish xususiyati avvalo *fe'l* leksemaning o‘timli (o‘timlilashgan) yoki o‘timsiz (o‘timsizlashgan) ekaniga bog‘liq.

I. O‘timli *fe'l* leksemaga vositasziz to‘ldiruvchini boshqarish xos (65); bunday valentlik nutqda deyarli to‘liq voqelanadi. O‘timlilashgan *fe'l* leksemada ham xuddi shunday (5): *Qizdirilgan chirmandalar h a v o n i yang-ratadi* (Oybek). *Shoshma, avval q o r n i n g n i to‘yg‘azib ol!* (O‘tkir Hoshimov). *Oftob muloyim jilmayib y e l k a n i qizdiradi* (O‘tkir Hoshimov) kabi.

Faqat vositasiz to'ldiruvchini boshqaradigan fe'l leksema qatnashgan 60 jumlaning 42tasida bunday to'ldiruvchi kesim vazifasida kelgan fe'l leksema, 18tasida kesimdan boshqa vazifada kelgan fe'l leksema bog'langan. Keyingi holatda vositasiz to'ldiruvchi birikmaning tobe bo'lagi, ichki bo'lak bo'lib keladi; jumlaga birikma tarkibida (to'ldiruvchi-to'ldirilmish birgalikda) kiritiladi. Bunda vositasiz to'ldiruvchi tushum kelishigining belgili shaklida ham, belgisiz shaklida ham ishlatiladi.

Quyidagi misollarda (16) vositasiz to'ldiruvchi to'ldirilmishi bilan birgalikda hollovchi vazifasida kelgan: *Aziz b o s h i n i e g i b m a m n u n j i l - m a y d i* (Hamid G'ulom). *Hulkar o' z i n i z o' r l a g a n d a y q i l i b k u l i m s i r a d i* (Pirimqul Qodirov) kabi. Ayrim jumlalarda esa ega vazifasida kelgan (2): .. — *q i c h q i r i s h d i y o' l t o' s u v c h i l a r* (Oybek) kabi.

Mana bu jumlada birinchi vositasiz to'ldiruvchi ichki (*nimanidir yo'got-*), ikkinchisi — tashqi (*nimanidir yo'gotganini sezdi*): *X o l b e k u n i n g n i - m a n i d i r y o' q o t g a n i n i s e z d i* (Pirimqul Qodirov).

II. Vositasiz to'ldiruvchi kesim vazifasidagi fe'l leksemaga bog'langan 42 misolning 32tasida tushum kelishigi belgili shaklda, 10tasida belgisiz shaklda ishlatilgan: *Nurining boshidan qaynanasi s o c h i q l a r sochdi* (Oybek). *M e n b i n a f s h a e k i b b o'lganman* (Hamid G'ulom). — *S e r k a k o r d i n g i z - m i ?* (Pirimqul Qodirov) kabi.

Tushum kelishigining belgili shaklida ishlatilgan vositasiz to'ldiruvchi:

1) turdosh ot leksema bilan ifodalangan (20): *Tutun j i g a r i m n i h a m t i t i b y u b o r d i* (Oybek). *K o' z i n g n i y u m !* (Pirimqul Qodirov). *O l i m - j o n i k k i q o'llab e s h i k n i m u s h t l a s h g a t u s h d i* (O'tkir Hoshimov) kabi;

2) kishilik olmoshi bilan ifodalangan (5): *Ha, m e n k e t a m a n . A m m o s i z n i y u r a g i m d a o l i b k e t a m a n* (Hamid G'ulom). *X o l b e k e n d i u n i a y a - m a y u r a r e d i* (Pirimqul Qodirov) kabi;

3) otlashgan ko'rsatish birligi bilan ifodalangan (4): *S e n b u n i t u s h u n a s a n m i , n o q u s u l a q ! !* (Oybek). *M e n b u l a r n i [b i n a f s h a l a r n i] s e v a m a n* (Hamid G'ulom) kabi;

4) o'z- ta'kid birligi bilan ifodalangan (1): *Q a n d a y q i l i b u o' z i n i s a q l a b q o l d i ?* (Oybek);

5) fe'lning otdosh shakli bilan ifodalangan (2): *K o'nglim b e h u z u r b o'lib b o r a r , h o z i r y i q i l i b t u s h i s h i m n i h i s q i l i b t u r a r d i m* (O'tkir Hoshimov). *S u r o n z o'r a y a d i . Y a n a t u r i b h a n s i r a b t o r t i s h u v n i d a v o m e t t i r a d i l a r* (Oybek);

6) fe'lning sifatdosh shakli bilan ifodalangan (1): *K e y i n n i m a b o' l g a n i n i b i l m a y m a n* (O'tkir Hoshimov).

III. Vositasiz to'ldiruvchi ko'pincha to'ldirilmish bilan kontakt holatda joylashgan; bir qancha jumlalarda esa kesim bilan unga bog'lanib kelgan vositasiz to'ldiruvchi orasida boshqa bo'lak joy olgan, natijada vositasiz to'ldiruvchining jumla tarkibidagi o'rni erkin ekanligi namoyon bo'lgan (10):

1) Orada ega kelgan (3): *... o l d i n g i s o y a b o n l i a r a v a n i Yo'lchi mindi* (Oybek). *B u l a r n i men o'zim parvarish qilaman* (Hamid G'ulom) kabi. Eganing bunday joylashuvi to'ldiruvchi gapshaklning (jumlaning) bo'lagi ekanini ko'rsatadi.

2) Orada hollovchi kelgan (7): *Yuring-chi, — deb Turdi u n i pastdag'i qalin chakalakzorga tomon boshlab ketdi* (Pirimqul Qodirov). *Shamol o v o-z i n i teskari yoqqa olib ketdi* (O'tkir Hoshimov) kabi.

IV. Vositasiz to'ldiruvchi ko'pincha leksemashakl bilan, qisman birikmashakl bilan ifodalangan. Tahlil qilingan misollar orasida quyidagi tur birikmashakllar bilan ifodalanish uchradi:

1) Sifatlovchili birikmashakl bilan ifodalangan (12): *T a sh q a r i h o v l i n i yig'ishtirdi* (Oybek). *Kim b u o d a m n i bunchalik mehribon qilib qo'ydi ekan?* (Pirimqul Qodirov). *B i t t a z o g ' o r a n i bo'lishib yedik* (O'tkir Hoshimov). *T r a k t o r t u m sh u g ' i d a o s i l i b y o t g a n k a t t a k o n t e m i r t u t q i c h n i buray boshladim* (O'tkir Hoshimov). *Men o'zim q u r u q o' t i n topib kelaman* (Oybek) kabi.

2) Qaratuvchili birikmashakl bilan ifodalangan (8): *To'rtko'z it s u r u v n i n g c h e t i n i aylanib yurar edi* (Pirimqul Qodirov). *Aziz e sh i k n i n g b i r t a b a q a s i n i asta ochib hovliga kirdi* (Hamid G'ulom). *... t u p r o q n i n g o j i z sh i v i r l a sh i n i a n i q eshitganday bo'ldim* (O'tkir Hoshimov) kabi.

Mana bu jumlada vositasiz to'ldiruvchi murakkab tuzilishli birikmashakl bilan ifodalangan: *Q i z i, k e l i n l a r i b i l a n L u t f i n i s o o'l-t i r g a n s o y a b o n l i a r a v a n i Yo'lchi mindi* (Oybek). Ushbu vositasiz to'ldiruvchi tarkibidagi leksemashakkallarning o'zaro sintaktik bog'lanishi qavslar yordamida quyidagicha ko'rsatish mumkin: <{(Qizi + kelinlari) bilan + Lutfiniso} X [o'tirgan]} X {[oldindagi] X [(soyabonli X arava)]}>ni>. Bu misol tarkibida murakkab sintaktik transformatsiyalash amalga oshirilgan gapshakl vositasiz to'ldiruvchi vazifasida ishlataligan (Sintaktik transformatsiya o'z o'rnda bayon qilinadi).

3) To'ldiruvchili birikmashakl bilan ifodalangan (2): *L u t f i n i s o q i z i b i l a n q o'sh k e l i n i n i i z v o sh d a y u b o r i sh n i so'radi* (Oybek). *S u r u v n i d o'ppi day q i l i b b o q a y o t g a n i n i qara* (Pirimqul Qodirov).

### *Vositali to'ldiruvchining nutqiy vogelanishi*

3- §. Vositali to'ldiruvchini asosan fe'l leksema, qisman ism leksema boshqargan.

I. Tahlilga jalb qilingan misollarning 49tasida vositali to'ldiruvchi fe'l leksemaga bog'langan:

1. 14 misolda kesim vazifasidagi fe'l leksemaga bog'lanib, tashqi bo'lak, gapshaklning bo'lagi mavqeida kelgan:

1) 27 misolda jo'naliш kелишигиде шаклланган:

a) Leksemashakl bilan ifodalangan (21):

— ot leksemashakl bilan (15): *O l i m j o n g a yalindim* (O'tkir Hoshimov). *Bu taxmin A v a z g a noxush tuyildi* (Pirimqul Qodirov). *Qishloq odati bo'yicha uy q u t l o v ch i l a r g a to'ldi* (Hamid G'ulom) kabi;

— olmosh bilan ifodalangan (5): *Jonim, m e n g a qarang* (Oybek).

*Sen n i m a n g g a muncha kerilasan?!* (Pirimqul Qodirov) kabi;

— o'z- ta'kid birligi bilan (1): *O'zimning ojizligim o'z i m g a alam qildi* (O'tkir Hoshimov).

b) Birikmashakl bilan ifodalangan (6):

— sifatlovchili birikma bilan (5): *U b r i g a d a d a g i i sh i g a sho'ng'ib ketdi* (Hamid G'ulom). *Yuzim n a m t u p r o q q a urildi* (O'tkir Hoshimov). *Biroq bu mahallaning shumtaka erkak bolalari "k e l i n ch i m ch i l a sh" d e g a n e s k i o d a t g a juda rioya qilishar ekan* (Oybek) kabi;

— qaratuvchili birikma bilan (1): *Azizning brigadasi i n s t i t u t n i n g t a j r i b a u ch a s t k a s i g a aylandi* (Hamid G'ulom).

2) 6 misolda vositali to'ldiruvchi chiqish keliшигиде шаклланаб, fe'l leksemaga kontakt holatda bog'langan, tashqi, gapshakl bo'lagi maqaida kelgan:

a) leksemashakl bilan ifodalangan (4): *Davlatbekov .. "Ha Tohir-u Zuhrolar, hormanglar endi!" — dedi va o t d a n tushdi* (Pirimqul Qodirov). *Qiziq, y o m g ' i r d a n kerosin hidi kelayapdi* (O'tkir Hoshimov) kabi;

b) sifatlovchili birikmashakl bilan ifodalangan (2): *E s k i t a o m i l - d a n qolma* (Oybek). *Hal i s e l g i b u l g u r m a g a n t u p r o q - d a n nam aralash quyosh hidi anqiydi* (O'tkir Hoshimov).

3) 3 misolda vositali to'ldiruvchi o'rин keliшигиде шаклланаб, fe'l leksema bilan distant holatda joylashgan:

a) leksemashakl bilan ifodalangan (1): *Dudburondan tutun aralash chiqqan cho'g' q o r o n g ' i d a aniq ko'rindi* (O'tkir Hoshimov);

b) birikmashakl bilan ifodalangan (2):

— qaratuvchili birikma bilan: *O'zi sh u m a sh ' a l n i n g y o r u-g ' i d a yaxshiroq ko'rinoqchidir-da!* (Pirimqul Qodirov);

— to'ldiruvchili birikma bilan (1) *K u c h s i n o v d a har ikki tomon astoydil kurashdi* (Oybek).

4) 5 misolda vositali to'ldiruvchi *bilan* ko'makchisi yordamida shakllangan:

a) leksemashakl bilan ifodalangan (1): *M e n b i l a n xilvatda uchrashmoqchi edingizmi?* (Pirimqul Qodirov);

b) sifatlovchili birikma bilan ifodalangan (4):

— kesim bilan kontakt joylashgan (2): *Chindan ham A'zam ferma Sh a h r i s t o n l i k o g ' a y n i s i b i l a n quda bo'libdi* (Hamid G'ulom) kabi;

— kesim bilan distant joylashgan (2): *S a l i s h o r a b i l a n cho'pon istagan tomonga buriladi* (Pirimqul Qodirov). *Y a l p i sh o v q i n b i l a n "tortishmachoq" boshlandi* (Oybek).

2. 10 misolda vositali to'ldiruvchi birikmaning bo'lagi, ichki bo'lak holatida kelgan:

1) Jo'nalish kelishigida shakllangan (15):

a) Sifatlovchili birikma tarkibida qatnashgan, birikma esa hollovchi vazifasida kelgan (3): *Shoda-shoda barglari shu t o l a l a r g a bittalab terib chiqilganga o'xshaydi* (Pirimqul Qodirov). *Dildor b u s o'z l a r g a al-laqanday urg'u berib gapirdi* (Hamid G'ulom).

Mana bu jumla tarkibida ichki vositali to'ldiruvchi ikkita: *Hulkar unga g'azablanishga ham arzimaydigan bir to'nkaga qaraganday qaradi-yu,* .. (Pirimqul Qodirov). Bu jumladagi birinchi ichki vositali to'ldiruvchi sifatlovchili birikma tarkibida qatnashgan: *g'azablanishga ham arzimaydigan;* ikkinchisi hollovchili birikma tarkibida qatnashgan: *g'azablanishga ham arzimaydigan bir to'nkaga qaraganday.*

b) Sifatlovchili birikma tarkibida qatnashgan, birikma esa kesim vazifasida kelgan (1): *Robiya opam ham s i z g a o'x sh a g an q a h r a-m o n l a r* (O'tkir Hoshimov).

d) Sifatlovchili birikma tarkibida qatnashib, qaratuvchili birikma bilan ifodalangan; sifatlovchili birikma o'z navbatida yaxlitligicha otlashib, ega vazifasida kelgan (1): *B i r o v l a r n i n g x o t i n i g a t u z o q q o'-y a d i g a n s e n m i s a n ? !* (Pirimqul Qodirov).

2) Chiqish kelishigida ifodalangan (3):

a) Sifatlovchili birikma tarkibida qatnashgan (1): *S e n d a q a u y a t-s i z x o t i n d a n u y a l a d i g a n a h m o q y o ' q* (Pirimqul Qodirov);

b) Hollovchili birikma tarkibida qatnashib, sifatlovchili birikma bilan ifodalangan (2): *Avaz o'z i n i n g b u o'y i d a n x i j o l a t b o'l i b yerga qaradi* (Pirimqul Qodirov).

Mana bu jumlada ketma-ket ikkita vositali to'ldiruvchi ishlatilgan: *Avaz bu vaqtgacha D a v l a t b e k o v t o'g'r i s i d a j u d a y o m o n f i k r d a y u r g a n i d a n i z z a b o'l d i* (Pirimqul Qodirov).

3) Hollovchili birikma tarkibida o'rin kelishigidagi leksemashakl bilan ifodalangan (1): *U l o y d a s i r g'anib o'rnidan turdi. Qo'lini cho'zdi* (O'tkir Hoshimov).

4) *bilan ko'makchisi* yordamida shakllangan uyushiq qator bilan ifodalangan (1): *Keyin kuyov tomon a j o y i b s o'z a n a l a r, q i y m a t - b a h o b u y u m l a r b i l a n bezatilgan xonalarga taklif etildi* (Oybek).

II. Tahlilga jalb qilingan misollarning 8tasida vositali to'ldiruvchini fe'ldan boshqa (ism) leksema boshqargan:

1. 4 misolda kesim vazifasida kelgan leksemaga bog'langan:

1) 3 misolda o'rin kelishidagi leksemashakl bilan ifodalangan:

a) Ikki misolda *bor* leksemashakliga bog'langan; vositali to'ldiruvchi:

— ot leksema bilan ifodalangan: *D a d a m l a r d a - ch i, o p a, mo'miyo bor* (O'tkir Hoshimov);

— kishilik olmoshi bilan ifodalangan: *Shoshmang, Hulkarjon, s i z d a i k k i o g 'iz gapim bor* (Pirimqul Qodirov). Bu jumlada vositali to'ldiruvchi bilan boshqaruvchi leksema orasida frazema bilan ifodalangan miqdor hollovchisi kelgan, vositali to'ldiruvchi distant joylashgan:

b) Bir misolda *yo'q* leksemashakliga bog'lanib, fe'lning otdosh shakli bilan ifodalangan: *K u t i b o' t i r i s h g a vaqt yo'q* (O'tkir Hoshimov). Bu jumlada *yo'q* leksemasining *kimda?* so'rog'iga javob bo'ladigan vositali to'ldiruvchini boshqarish xususiyati voqelanmagan.

2) Bir misolda chiqish kelishigidagi izohlovchili birikma bilan ifodalanib, kesim vazifasida *kam* miqdor ravishi kelgan, distant holatda joylashgan (Orada ega kelgan): *Voy, A l i x o'j a b o y l a r d a n nimamiz kam?!* (Oybek).

2. 4 misolda vositali to'ldiruvchi kesimdan boshqa vazifadagi ism leksemaga bog'langan, birikmaning bo'lagi, ichki bo'lak holatida kelgan:

1) Ikki misolda jo'naliш kelishigidagi leksemashakl bilan ifodalangan:

a) Bir misolda ot leksemashakl bilan ifodalanib, *o'ch-* sifat leksemasiga bog'langan va birikma bir butun holda sifatlovchi vazifasida kelgan: *D o n g g a o'ch boyvachcha kuyovlar nikohga ..* (Oybek).

b) Bir misolda o'z- ta'kid birligi bilan ifodalanib, kesimlik leksemasiga bog'langan va birikma bir butun holda sifatlovchi vazifasida kelgan: *Yaxshi boqilgan suruvlarda o'z i g a xos bir intizom bo'ladi* (Pirimqul Qodirov).

2) Ikki misolda birikmashakl bilan ifodalangan:

a) Quyidagi jumlada chiqish kelishigida shakllangan sifatlovchili birikma bilan ifodalanib, ega vazifasidagi ot birikmashakl tarkibida kelgan; orada miqdor hollovchisi kelib, distant holatda joylashgan: *Sh u o d d i y q i z i l a s k a r d a n yana bir xotira – .. "qora xat"* (Hamid G'ulom).

b) Quyidagi jumlada chiqish kelishida shakllangan sifatlovchili birikma bilan ifodalanib, kesimlik leksemasiga kontakt holatda bog'langan: *Ularning har biri – n e ch a y u z u y, b i r n e ch a m i n g d a r a x t d a n iborat kattagina o'ram* (Hamid G'ulom).

### *Vositasiz va vositali to'ldiruvchining birgalikda nutqiy voqelanishi*

4- §. Ham vositasiz, ham vositali to'ldiruvchini boshqarish o'timli, shuningdek o'timlilashgan fe'l leksemaga xos bo'lib, nutqda har ikki tur to'ldiruvchi asosan voqelangan. Tahvilga jalb qilingan misollardan ikkitasida (dialogik nutq parchasida) vositali to'ldiruvchi (*menga*) qatnashmagan: *Ayt sh a r t i n g n i !* (Pirimqul Qodirov). *Avaz aka, b e l b o g' i n g i z n i bering, terib olaylik* (Pirimqul Qodirov).

Ko'pchilik misollarda har ikki tur to'ldiruvchi birin-ketin kesim vazifasidagi fe'l leksemaga bog'lanib, gapshakl bo'lagi mavqeida qatnashgan. Quyidagi ikki jumlada vositasiz to'ldiruvchi ichki, birikmaning bo'lagi mavqeida kelgan, otdosh shaklidagi fe'l leksemaga bog'langan, ushbu birikma jo'nalish kelishigida shakllanib, vositali to'ldiruvchi sifatida kesim vazifasidagi fe'lga bog'langan, tashqi bo'lak, gapshakl bo'lagi mavqeida qatnashgan: .. *Hulkari s t e h z o s i n i birdirmaslikka tirishar edi* (Pirimqul Qodirov). *M e n b u r o l m a g a n t u t q i ch n i aylantirishga yosh bolaning kuchi yetarmidi!* (O'tkir Hoshimov).

Birinchi jumlada vositasiz to'ldiruvchi leksemashakl bilan (*istehzosini*), ikkichi jumlada birikmashakl bilan (*men burolmagan tutqichni*), vositali to'ldiruvchi har ikki jumlada birikmashakl bilan (*istehzosini bildirmaslikka; men burolmagan tutqichni aylantirishga*) ifodalangan. Birinchi jumlada bunday vositali to'ldiruvchi fe'l kesim bilan kontakt joylashgan, ikkinchi jumlada esa distant joylashgan: orada qaratuvchili birikmashakl bilan ifodalangan ega kelgan, natijada to'ldiruvchining gapshakl bo'lagi ekanligi ochiq ko'rningan (*men burolmagan tutqichni* birikmashakli tarkibidagi sifatlovchi transformatsiyalangan gapshakl bilan ifodalangan: *men burolmadim → men burolmagan*).

7 misolda har ikki tur to'ldiruvchi kesim vazifasidagi fe'l leksemaga bog'langan, demak, tashqi bo'lak, gapshakl bo'lagi mavqeida qatnashgan:

1. Kesimga yaqin vositasiz to'ldiruvchi kelib, vositali to'ldiruvchi undan oldin joylashgan:

1) Vositasiz to'ldiruvchi bilan kesim orasida boshqa bir bo'lak joylashgan:

a) Sifatlovchili birikma bilan ifodalangan ega joylashgan (1): *Sizning bog'ingizga b i n a f sh a n i boshqa gulchi ekadi* (Hamid G'ulom). Bu jumlada vositali to'ldiruvchi qaratuvchili birikma bilan ifodalangan.

b) O'rin kelishigidagi sifatlovchili birikma bilan ifodalangan vositali to'ldiruvchi joylashgan (1): [Alixo'ja boy] *Q i z i n i qo'sh arg'umoqli izvoshda yubordi* (Oybek).

2. Kesim bilan kontakt joylashgan vositasiz to'ldiruvchi:

a) 3 jumlada tushum kelishigining belgisiz shaklida ishlatilgan: *Traktorga s u v oboraymi?* (O'tkir Hoshimov). *To'y ustiga t o' y ko'ring, xola!* (Oybek). *Lekin A'zam ferma ularga r a d j a v o b i berdi* (Hamid G'ulom). Birinchi jumlada har ikki to'ldiruvchi leksemashakl bilan ifodalangan; ikkinchi jumlada vositali to'ldiruvchi jo'nalish kelishigidagi qaratuvchili birikma bilan (*to'y ustiga*), uchinchi jumlada vositasiz to'ldiruvchi izofa birikmasi bilan (*rad javobi*) ifodalangan.

b) 2 jumlada tushum kelishigining belgili shaklida ishlatilgan; vositali to'ldiruvchi bilan ko'makchisi yordamida shakllangan: *M e h m o n b i l a n u l a r n i tanishtirar ekan, ..* (Pirimqul Qodirov). *Kichkinagina, ammolag'al qo'li bilan y u z i m n i siladi* (O'tkir Hoshimov). Birinchi jumlada har ikki to'ldiruvchi leksemashakl bilan, ikkinchi jumlada esa vositali to'ldiruvchi uyushiq sifatlovchili birikmashakl bilan ifodalangan.

II. Quyidagi jumlada fe'l kesimga uch to'ldiruvchi bog'lanib kelgan; vositali to'ldiruvchilar jo'nalish kelishigida va bilan ko'makchisi yordamida shakllangan; bilan ko'makchisi yordamida shakllangan vositali to'ldiruvchi sifatlovchili birikma bilan ifodalangan: *Kimdir u n i o l a c h i l v i r b i l a n z i r k k a bog'lab qo'yan edi* (Pirimqul Qodirov).

Mana bu jumlada bilan ko'makchisi yordamida shakllangan to'ldiruvchi sifatlovchi vazifasidagi birikmaning ichki bo'lagi bo'lib kelgan; jo'nalish kelishigidagi vositali to'ldiruvchi va belgisiz tushum kelishigidagi vositasiz to'ldiruvchi kesimga bog'lanib, tashqi bo'lak, gapshakl bo'lagi mavqeida qatnashgan; har uch to'ldiruvchi sifatlovchili birikma bilan ifodalangan: *Yalang'och daraxtlar m a y d a y u l d u z ch a l a r b i l a n v o n g a n q o r g a a j i b c h i r o y l i k o'l k a l a r tashlaydi* (Oybek).

Quyidagi jumlada bir vositali to'ldiruvchi, ikki vositasiz to'ldiruvchi qatnashgan. Vositali to'ldiruvchi jo'nalish kelishigidagi leksemashakl bilan ifodalanib, kesimga bog'langan. Vositasiz to'ldiruvchilardan biri tushum kelishigining belgisiz shaklida ishlatalilib, to'ldiruvchili birikmaning ichki bo'lagi bo'lib kelgan. Ikkinchisi vositasiz to'ldiruvchi shu to'ldiruvchili birikma bilan ifodalanib, kesimga bog'langan, tashqi bo'lak, gapshakl bo'lagi mavqeida qatnashgan: *M e n g a t r a k t o r h a y d a s h n i o'rgatdilar* (O'tkir Hoshimov).

5- §. Yuqoridagi tasvirlardan ayon bo'ladiki, to'ldiruvchi predmet tushunchasini anglatib kelishda egadan keyin turadigan sintaktik bo'lak bo'lib, boshqaruv xususiyatiga molik birlik bilan ifodalangan kesimli gapshakllar (jumlalar) tarkibida deyarli to'liq namoyon bo'ladi.

Asli to'ldiruvchi — birikma turlaridan birining tobe bo'lagi, birikmaning ichki bo'lagi; bunda to'ldiruvchi jumla tarkibida kesimdan boshqa vazifada kelgan sintaktik birlikka (leksemashaklga, birikmashaklga) bog'langan holda qatnashadi.

To'ldiruvchi jumla tarkibida kesim vazifasida kelgan sintaktik birlikka (leksemashaklga, birikmashaklga) bog'lanib kelishi asosiy ho'lat bo'lib, bunda to'ldiruvchi birikmaning bo'lagi mavqeidan gapshaklning (jumlaning) bo'lagi mavqeiga ko'tariladi.

Gapshaklning (jumlaning) bo'laklari deb ega va kesimga aytildi. Bu ikki bo'lakdan iborat gapshakl (jumla) yig'iq gapshakl (jumla) deyiladi. Ega ifodalanmaydigan, ega qatnashmaydigan gapshakllar ham faqat kesimning o'zi bilan ifodalanganida yig'iq gapshakl deyiladi. Bunday gapshakllar nutqda juda oz uchraydi.

Gapshakl (jumla) tarkibida ega va kesimdan tashqari kesimga bog'lanib kelgan (demak, gapshakl bo'lagi maeida qatnashgan) to'ldiruvchi ham mavjud bo'lsa, bunday gapshakl (jumla) yoyiq gapshakl (jumla) deyiladi. Bunday to'ldiruvchi gapshakl (jumla) asosini yoyuvchi sintaktik bo'lak deb baholanadi.

To'ldiruvchini boshqara oladigan sintaktik birlik (leksemashakl, birikmashakl) bilan ifodalangan kesimli gapshakl (jumla) tarkibida to'ldiruvchi namoyon bo'lmay qolsa, uning yo'qligi aniq seziladi, anglatilayotgan fikrda noto'liqlik yuz beradi. Shunga ko'ra til birligining to'ldiruvchini boshqarish xususiyati deyarli barcha jumllalarda voqelanadi.

Gapshakl (jumla) qurilishida to'ldiruvchining muhim sintaktik bo'lak ekanligi aniq qurilma bilan majhul qurilma munosabatida ochiq ko'rinishi: aniq qurilma majhul qurilmaga vositasiz to'ldiruvchi asosida transformatsiya qilinadi va b.

Xullas, to'ldiruvchining ikki holatini: birikmaning bo'lagi holatini va kesimga bog'lanib kelgan holatini farqlash kerak. Kesimga bog'lanib kelgan to'ldiruvchi gapshakl (jumla) asosini yoyuvchi bo'lak deb baholanishi lozim. To'ldiruvchi leksemaga xos boshqaruv valentligini namoyon etadi degan fikrga suyanib gapshakl tarkibida kesimga bog'lanib qatnashadigan to'ldiruvchini gapshakl bo'lagi mavqeidan mahrum etish mumkin emas (Bu masalaga hollowchilar tasvirida yana aniqlik kiritiladi).

### **Hollowchining nutqiy vogelanishi**

**1- §.** Hollowchini ishlatishda biror chek-chevara yo'q: har qanday harakat-holat ma'lum makonda va zamonda, ma'lum tarzda, ma'lum sabab yoki maqsad bilan vogelanadi. Shu bilan birga jumla tarkibida hollowchini ishlatishga ko'pincha zaruriyat, majburiyat ham bo'lmaydi. Shunga qaramay hollowchi nutqda juda ko'p ishlataladi. Tahlilga jalb qilingan jumlalarda hollowchi 398 marta uchradi.

Hollowchi ko'pincha ravish leksemashakl bilan, shuningdek boshqa turkumlarning leksemashakllari bilan, birikmashakl bilan ifodalanadi. Ifoda materialidan anglashiladigan ma'nio asosida hollowchining tarz, o'rinn, payt kabi ma'nio turlari ajratiladi. Quyida hollowchilarning ayrim belgi-xususiyatlari shunday ma'nio turlari bo'yicha tasvirlandi.

### **Tarz hollowchisining nutqiy vogelanishi**

**2- §.** Tarz hollowchisi kuzatilgan misollarda eng ko'p ishlatalgan (136); fe'l leksema bilan ifodalangan hollanmishga asosan bitishuv usulida, qisman boshqaruv usulida bog'langan.

Tarz hollowchisi jumla tarkibida: a) birikma bo'lagi, ichki bo'lak holatida (27), b) kesim vazifasidagi leksemaga bog'lanib, tashqi bo'lak, gapshakl bo'lagi holatida (109) kelgan.

Birikmaning bo'lagi holatida kelgan tarz hollowchisi quyidagicha ifodalangan:

I. Leksemashakl bilan ifodalanib, hollanmishi bilan kontakt joylashgan (22):

1) Ravish leksema bilan ifodalangan (12): *Eshikni o h i s t a ochib..* (Oybek). *Aziz yo'lkadan t e z yurib..* (Hamid G'ulom) kabi;

2) Sifat leksema bilan ifodalangan (4): *Soqolli kampir .. so'zlarni o h a n g d o r cho'zib qichqirdi* (Oybek). *Halqani d u r u s t r o q taqilatishga madorim yetmadi* (O'tkir Hoshimov) kabi;

3) Fe'lning ravishdosh shakli bilan ifodalangan (4): .. *sh o sh i b ke-layotgan Avaz Turdiga yaqinlashdi* (Pirimqul Qodirov). "Bizanikiga bo-ramiz-a?" – *dedi meni s u y a b yurishga urinib* (O'tkir Hoshimov) kabi;

4) bilan ko'makchisi yordamida shakllangan ot leksema bilan ifodalangan (1): *Q i y - ch u v b i l a n o'tgan nahorlikdan so'ng..* (Oybek).

2. Birikmashakl bilan ifodalangan (14):

1) To'ldiruvchili birikma bilan ifodalangan (3); birikma -*b* ravishdosh yasovchisi bilan shakllangan; hollanmishi bilan:

a) kontakt joylashgan (2) ..*dedi m e n i s u y a b y u r i s h g a u r i n i b* (O'tkir Hoshimov) kabi;

b) distant joylashgan (1) .. *d a d i l r o q q a d a m b o s i sh g a u r i n i b yelkasidan ushladim* (O'tkir Hoshimov).

2) Hollovchili birikma bilan ifodalangan (2); hollanmishi bilan kontakt joylashgan: *t o ' x t o v s i z r a v i sh d a keltirilgan taomlar..* (Oybek) kabi.

3. Transformatsiyalangan gapshakl bilan ifodalangan(1): *I l o j i b o r i - ch a dadilroq qadam bosishga urinib..* (O'tkir Hoshimov).

3- §. Kesim vazifasidagi fe'l leksemaga bog'lanib, gapshakl bo'lagi mavqeida kelgan tarz hollovchisi (109) quyidagicha ifodalangan:

1. Leksemashakl bilan ifodalangan (64):

1) Ravish leksema bilan ifodalangan (18); kesim bilan:

a) kontakt joylashgan (12): *Qamalgan tutun j u d a s e k i n targal-mogda* (Oybek). *Endi ekamiz, a l b a t t a ekamiz!* (Hamid G'ulom). *Turdi ch a l q o n ch a s i g a yiqilib tushdi* (Pirimqul Qodirov). *Osmonda erin-choq bulutlar v a z m i n suzib boradi* (O'tkir Hoshimov) kabi;

b) distant joylashgan (6): "*Oxiri yog'ibdi-da*" degan *o'y g' i r a - sh i - r a miyamga urildi* (O'tkir Hoshimov). [binafshani] *B e i x t i y o r di-mog'iga tutdi* (Hamid G'ulom) kabi.

2) Sifat leksema bilan ifodalangan (4): .. *palakni ayollar boshlari uzra b a l a n d ko'tardilar* (Oybek). *Y o m o n og'riyapdimi?* (O'tkir Hoshimov) kabi.

3) Fe'lning ravishdosh shakli bilan ifodalangan (31); kesim bilan:

a) kontakt joylashgan (18): *Dildor t a a j j u b l a n i b so'radi* (Hamid G'ulom). *Uy eshigi g' i y q i l l a b ochildi* (O'tkir Hoshimov). *Kechalari u x l a y o l m a y chiqaman* (Pirimqul Qodirov). *B o s i b - y a n ch i b o'tavermayсанми!* (Oybek) kabi;

b) distant joylashgan (13): *Yana t u r i b h a n s i r a b tortishuvni davom ettiradilar* (Oybek). *A m a l l a b qaddimni rostladim* (O'tkir Hoshimov). *Xolbek i n d a m a y unga yaqinlashdi* (Pirimqul Qodirov) kabi.

4) Ot leksema bilan ifodalangan (10):

a) *bilan ko'makchisi yordamida shakllangan* (8); kesim bilan:

— kontakt joylashgan (6): *"To'yning qizig'i shunda-da!" — j a h l b i l a n qichqirdi Yo'lchi* (Oybek). [bulutlar] *Sh i d d a t b i l a n bostirib kela boshladi* (O'tkir Hoshimov) kabi;

— distant joylashgan (2): *U .. k u ch b i l a n menga urildi* (O'tkir Hoshimov) kabi;

b) chiqish kelishigidagi ot leksema bilan ifodalangan (1): *.. qishloq xo'jalik institutiga s i r t d a n o'qishga kirib oldi* (Hamid G'ulom);

d) *deb* yordamchisi bilan shakllangan (1): *K e l i n d e b boshqa ayol-larni chimchilaydilar* (Oybek).

5) O'rincelishigidagi olmosh bilan ifodalangan (2): *"B u n a q a d a to'yadimi kishi" — "Qanaqada to'yasiz bo'lmasa?"* (Pirimqul Qodirov).

2. Birikmashakl bilan ifodalangan (41):

1) *To'ldiruvchili birikma bilan ifodalangan* (26); kesim bilan:

a) kontakt joylashgan; -*b* (bo'lishsiz shaklda -*y*) ravishdosh yasovchisi bilan shakllangan: *Turdi uni y e n g i d a n u sh l a b to'xtatdi* (Pirimqul Qodirov). *"Yur!" — dedim y o' l b o sh l a b* (O'tkir Hoshimov). *Lekin u shunda ham u m i d i n i u z m a y:* *"Dildorxon, balki o'sha gulchi o'zingiz bo'larsiz?" — dedi* (Hamid G'ulom) kabi;

b) distant joylashgan (18): *Charchagan ayollar u y n i t o' l d i r i b zich o'ltirishdi* (Oybek). *Endi sh u t u m a n d a n f o y d a l a n i b suruvni o'sha yoqqa haydadi* (Pirimqul Qodirov). *Aziz k a t t a y o' l g a a ch i q i b o q .. avtobusga ilindi* (Hamid G'ulom). *J i l d i n i b o sh i u s-ti d a p i r p i r a k q i l i b aylantirib chopib keldi* (O'tkir Hoshimov) kabi.

2) *Sifatlovchili birikma bilan ifodalangan* (3); ot birikma *bilan ko'makchisi yordamida shakllangan*; kesim bilan:

a) kontakt joylashgan (1): *U Hulkarga j u d a m a y i n, h a t t o m e h r i b o n t o v u sh b i l a n gapirar edi* (Pirimqul Qodirov);

b) distant joylashgan (2): *Kimdir o g' i r, shax d a m q a d a m l a r b i l a n eshikka yaqinlashdi* (O'tkir Hoshimov) kabi.

3) *Hollovchili birikma bilan ifodalangan* (8); fe'l birikma:

a) -*b* ravishdosh yasovchisi bilan shakllangan (6); kesim bilan:

— kontakt joylashgan (3): *Serka t o sh m a - t o sh s a k r a b yuqoriga qochdi* (Pirimqul Qodirov) kabi;

— distant joylashgan (3): *U y e r g a q a r a b ildam yurdi* (Oybek) kabi;

b) -gan sifatdosh shakliga o'rin kelishigi affiksi qo'shilib shakllangan (1): *...ko'pchilik yoshlarning tarjimayi holi y u z a k i q a r a g a n d a shunday ko'rindi* (Hamid G'ulom).

Mana bu jumlada hollovchili sifat birikma qatnashgan (1): *Olimjon halqani ya n a d a q a t t i q r o q urdi* (O'tkir Hoshimov).

4) Qaratuvchili birikma bilan ifodalangan (2); kesim bilan distant joylashgan: *... m u t l a q s u k u n a t i ch i d a q a r i imom nikoh o'qidi* (Oybek). *Q i sh l o q o d a t i b o' y i ch a uy qutlovchilarga to'lди* (Hamid G'ulom).

5) Ta'kidlovchili birikma bilan ifodalangan (1); kesim bilan kontakt joylashgan: *Hulkar hali suruvni yo l g' i z o' z i boqib ko'rmagan edi* (Pirimqul Qodirov).

3. Transformatsiyalangan gapshakl bilan ifodalangan (4); kesim bilan:

a) kontakt joylashgan (2): *Eshikni k u ch i m b o r i ch a mushtladim* (O'tkir Hoshimov) kabi;

b) distant joylashgan (2): "Qarang, top-tozal!" — dedi o v o z i t i t - r a b (O'tkir Hoshimov) kabi.

### *O'rin hollovchisining nutqiy vogelanishi*

4- §. O'rin hollovchisi tahvilga jalb qidigan jumlalar tarkibida 126 marta uchradi; 120 misolda fe'l leksemaga, 6 misolda ism leksemaga bog'lanib kelgan. Keyingi tur misollarda hollovchi o'rin kelishida shakllanib, *bor, yo'q* kesimlik leksemalariga bog'langan (Kesimlik leksemasining bosh-qaruv xususiyati namoyon bo'lgan):

1) Leksemashakl bilan ifodalanib, kesim bilan distant joylashgan: hollovchi bilan kesim orasida ega joy olgan (3):

a) ot leksema bilan ifodalangan (2): *Q o' l i d a tayog'i bormi?* (Pirimqul Qodirov);

b) sifat leksema bilan ifodalangan (1): *T a sh q a r i d a dadam bormi?* (Oybek).

2) Birikmashakl bilan ifodalangan; kesim bilan distant joylashgan (3): orada ega kelgan; hollovchi:

a) sifatlovchili birikma bilan ifodalangan (2): *M o' 'j a z o yo q l a r i-d a mahsi ham yo'q* (Oybek). *Sh u b i r p a r c h a yerda mening binaf-shalarim bor* (Hamid G'ulom);

b) qaratuvchili birikma bilan ifodalangan (1): *T o l t a g i d a b u l o q bor* (O'tkir Hoshimov).

5- §. Fe'lga bog'lanib kelgan hollovchilar jumla tarkibida: a) birikmaning bo'lagi holatida (35), b) kesim vazifasidagi leksemaga bog'lanib gapshakl bo'lagi holatida (85) qatnashgan. Har ikki holatda fe'l leksemaning boshqarish xususiyati namoyon bo'lgan.

Birikmaning bo'lagi (ichki bo'lak) holatida kelgan o'rin hollovchisi quyidagicha shakllangan:

I. Jo'nalish kelishigida shakllangan (15):

1) Leksemashakl bilan ifodalangan (9); hollanmishi bilan:

a) kontakt joylashgan (6): *Qo'ylarini b a l a n d g a yoyib chiqgan Xolbek ..* (Pirimqul Qodirov). *Olimjon r o' p a r a m g a cho'kkalab ko'zimga tikildi* (O'tkir Hoshimov) kabi;

b) distant joylashgan (3): *hamma tomlar b o sh l a r i g a paranji yo choponni nari-beri yopgan xotinlar, qizlar bilan to'ldi* (Oybek). *Y u q o r i d a n buni ko'rib turgan Hulkar ..* (Pirimqul Qodirov) kabi.

2) Birikmashakl bilan ifodalangan (6); hollanmishi bilan kontakt joylashgan:

a) Sifatlovchili birikma bilan ifodalangan (2): *Aziz k a t t a y o' l g a chiqib, ..* (Hamid G'ulom). *T o sh k o' ch a g a chiqqanda ..* (Oybek);

b) Qaratuvchili birikma bilan ifodalangan (4): *"Suv opkelaymi?" — dedi jildini j i y d a sh o x i g a ilib* (O'tkir Hoshimov). *Bu vaqt s o y b o' y i d a g i azim sadaqayrag'och tagiga kelib to'xtashgan edi* (Hamid G'ulom) kabi.

2. Chiqish kelishigida shakllangan (10):

1) Leksemashakl bilan ifodalangan (8); hollanmishi bilan:

a) kontakt joylashgan (5): *Aziz gapni u z o q d a n aylantirib kelib..* (Hamid G'ulom). *Turdi uni y e n g i d a n ushlab to'xtatdi* (Pirimqul Qodirov) kabi;

b) distant joylashgan (3): *Aziz y o' l k a d a n tez yurib ko'chaga chiqib ketdi* (Hamid G'ulom). *Turdi t a g i d a n ilon chiqqanday sakrab turib ketdi* (Pirimqul Qodirov) kabi.

2) Sifatlovchili birikmashakl bilan ifodalanih, hollanmishisi bilan kontakt joylashgan (2): *Xolbek uni o' sh a o y o g' i d a n ushlab yuqoriga*

*ko'tarib yubordi* (Pirimqul Qodirov). *Q a r s h i d a g i k a m d a n oshib kelayotgan ikki kishi ko'rindi* (Pirimqul Qodirov).

3. O'rin kelishigida shakllangan (9):

1) Leksemashakl bilan ifodalangan (3); hollanmishisi bilan:

a) kontakt joylashgan (1): *Y o n i m d a o'tirgan Olimjon sakrab yerga tushdi* (O'tkir Hoshimov);

b) distant joylashgan (2): *Bu nafislikni t o g' d a yolg'iz tashlab ketish ..* (Pirimqul Qodirov) kabi.

2) Birikmashakl bilan ifodalangan (6):

a) Sifatlovchili birikma bilan ifodalangan; hollanmishi bilan distant joylashgan (1): *Bular [binafshalar] unga t o g' d a g i b u t a z o r l a r - d a tinimsiz uchib yuradigan kapalaklarni eslatdi* (Hamid G'ulom);

b) Qaratuvchili birikma bilan ifodalangan (4); hollanmishisi bilan:

— kontakt joylashgan (3): *A r i q b o ' y i d a g i m a y s a l a r o r a s i d a ochilgan jimitdek zangori gullar ustida ..* (O'tkir Hoshimov). *Olimjon b u r n i n i n g u ch i d a ilinib turgan suv tomchisini artib..* (O'tkir Hoshimov) kabi;

— distant joylashgan (1): *Jildini b o sh i u s t i d a . pirpirak qilib aylantirib chopib keldi* (O'tkir Hoshimov);

d) Izofa birikmasi bilan ifodalangan; hollanmishisi bilan kontakt joylashgan (1): .. *Q i b r a y b e k a t i d a yuray-yuray deb turgan avtobusga ilindi* (Hamid G'ulom).

4. -gacha shakl yasovchisi qo'shilgan leksema bilan ifodalangan; hollanmishisi bilan distant joylashgan (1): *Olimjon .. t i z z a s i g a ch a t u - r o q kechib ..* (O'tkir Hoshimov).

6- §. Kesim vazifasidagi fe'l leksemaga bog'lanib, gapshakl bo'lagi sifatida kelgan o'rin hollovchisi quyidagicha shakllangan:

I. Jo'nalish kelishigida shakllangan (36):

1. Leksemashakl bilan ifodalangan (17); kesim bilan:

1) kontakt joylashgan (13):

a) ot leksema bilan ifodalangan (8): *Q i b r a y g a ketishdi* (Hamid G'ulom). *Kimdir .. e sh i k k a yaqinlashdi* (O'tkir Hoshimov) kabi;

b) otlashgan sifat leksema bilan ifodalangan (2): *Serka.. y u q o r i g a gochdi* (Pirimqul Qodirov) kabi;

v) -niki affaksi qo'shilgan kishilik olmoshi bilan ifodalangan (3): *Yuring, .. b i z n i k i g a boramiz* (O'tkir Hoshimov) kabi;

2) distant joylashgan (4):

a) orada ega kelgan (2): *Y u z i m g a yana yomg'ir sachradi* (O'tkir Hoshimov) kabi.

b) orada to'ldiruvchi kelgan (2): *Bor, b o sh i n g g a ro'mol o'rakel!* (Pirimqul Qodirov) kabi.

## 2. Birikmashakl bilan ifodalangan (19):

### 1) Sifatlovchili birikma bilan ifodalangan (9): kesim bilan:

a) kontakt joylashgan (8): *Sal ishora bilan ch o' p o n i s t a g a n t o m o n g a buriladi* (Pirimqul Qodirov). *Shamol ovozimni t e s k a r i y o q q a olib ketdi* (O'tkir Hoshimov) kabi;

b) distant joylashgan: orada ega kelgan (1): *B u y e r g a asosan qari-yalar yig'ilishadi* (Pirimqul Qodirov).

### 2) Qaraturvchili birikma bilan ifodalangan (6); kesim bilan:

a) kontakt joylashgan (4): *Hulkar chopqillab z i r k l a r n i n g o r a-s i g a kirib ketdi* (Pirimqul Qodirov). *Hamma xonalar va ayvonlardan xotinlar h o v l i s a h n i g a to'kildi* (Oybek) kabi;

### b) distant joylashgan (2); orada:

– ega kelgan (1): *Hulkar A v a z n i n g o g'z i g a uch-to'rt dona qoraqand soldi* (Pirimqul Qodirov);

– tarz hollovchisi kelgan (1): *Turdi .. ch a k m o n i n i n g ch e t i-g a sabrsizlanib o'tirdi* (Pirimqul Qodirov);

### 3) Izofa birikmasi bilan ifodalangan (3); kesim bilan:

a) kontakt joylashgan (2): *Avtobus D a r x o n a r i q b e k a t i g a kelib to'xtadi* (Hamid G'ulom) kabi;

b) distant joylashgan (1): *O'sha yiliyoq q i sh l o q x o'j a l i k i n s-t i t u t i g a sirtdan o'qishga kirib oldi* (Hamid G'ulom).

## II. Chiqish kelishigida shakllangan (14):

### 1. Leksemashakl bilan ifodalangan (5); kesim bilan:

#### 1) kontakt joylashgan (4):

a) ot leksema bilan ifodalangan (3): *Ota-onasi i sh d a n qaytishgandir* (Hamid G'ulom) kabi;

b) otlashgan sifat leksema bilan ifodalangan (1): *Ra'no kelinoyimning eshigi o r q a s i d a n tambalangan ekan* (O'tkir Hoshimov);

2) distant joylashgan bo'lib, otlashgan sifat leksema bilan ifodalangan; orada miqdor hollovchisi kelgan (1): *U z o q d a n bir martami, ikki martami ko'rib qolganman* (Oybek).

### 2. Birikmashakl bilan ifodalangan (9):

#### 1) Sifatlovchili birikma bilan ifodalangan (4); kesim bilan:

a) kontakt joylashgan (1): *Serka b u y e r d a n ko'rinar edi* (Pirimqul Qodirov);

b) distant joylashgan (3): *U y t o m o n d a n q andaydir sharpa ko'ringandek bo'ldi* (O'tkir Hoshimov). ... *Turdi oxiri t i k y o n a d a n pastga yumalab ketdi* (Pirimqul Qodirov) kabi.

2) Qaratuvchili birikma bilan ifodalangan (5); kesim bilan:

a) kontakt joylashgan (2): *Eshmurod aka .. q o' y l a r i n i n g o r t i d a n ketdi* (Pirimqul Qodirov) kabi;

b) distant joylashgan (3): *K u yo v b o sh i d a n mo'l-ko'l sochiqlar sochildi* (Oybek). ... *A z i z n i n g u y i d a n Nafisaning uyiga sovchilar chiqdi* (Hamid G'ulom) kabi. Birinchi jumlada o'rin hollovchisi bilan kesim orasida ega, ikkinchi jumlada esa jo'nalish kelishigida shakllangan o'rin hollovchisi kelgan.

III. O'rin kelishigida shakllangan (31):

1. Leksemashakl bilan ifodalangan (12); kesim bilan:

1) kontakt joylashgan (6): *Y o' l d a uchratmadingizmi?* (Hamid G'ulom). *B e m a h a l d a pishirib qo'yibdimi birovnikida* (O'tkir Hoshimov) kabi;

2) distant joylashgan (6): *U y d a hech kim ko'rinnadi?* (Hamid G'ulom). *P a s t d a tuman tarqab ketgan edi* (Pirimqul Qodirov) kabi.

2. Birikmashakl bilan ifodalangan (19):

1) Sifatlovchili birikma bilan ifodalanib, distant joylashgan (5): *A r ch a-z o r s o' q m o q d a Turdining qorasi ko'rindi* (Pirimqul Qodirov). *B u y o q d a qorong'i tushib kelayapdi* (O'tkir Hoshimov) kabi;

2) Qaratuvchili birikma bilan ifodalangan (12); kesim bilan:

a) kontakt joylashgan (6): *Qiz tomon g u l x a n o l d i d a to'xtadi* (Oybek). *Ch e l a k i ch i d a qolib ketibdi* (O'tkir Hoshimov) kabi;

b) distant joylashgan (7): *K u y o v n i n g h o v l i s i o'rta s i d a katta gulxan yonardi* (Oybek). *X o n a i ch i d a shovqin pasaydi* (Oybek) kabi.

3. Izofa birikmasi bilan ifodalangan, kesim bilan kontakt joylashgan (1): *Aziz ana shu .. F e r u z q i sh l o g'i d a tug'ildi* (Hamid G'ulom).

IV. Bir necha misolda o'rin hollovchisi *uzra* ko'makchisi bilan, o'rin ma'nosini ifodalarydigan *qarab*, *tomon yordamchilari* bilan shakllangan (4):

1) Leksemashakl bilan ifodalangan (3); kesim bilan:

a) kontakt joylashgan (2): *Hulkar s e r k a g a q a r a b intildi* (Pirimqul Qodirov) kabi;

b) distant joylashgan (1): .. *palakni ayollar b o sh l a r i u z r a*  
*baland ko'tardilar* (Oybek);

2) Sifatlovchili birikma bilan ifodalangan (1); kesim bilan kontakt joylashgan: *Turdi uni p a s t d a g i q a l i n c h a k a l a k z o r g a t o-m o n boshlab ketdi* (Pirimqul Qodirov).

### *Payt hollovchisining nutqiy vogelanishi*

7- §. Payt hollovchisi nutqda ko'p ishlataladi (77); hollanmishiga ikki xil: a) bitishuv usulida, b) boshqaruv usulida bog'lanadi. Payt hollovchisi asosan fe'l leksemaga (72), juda oz miqdorda ism leksemaga (5) bog'langan.

Payt hollovchisining ism leksema bilan bog'lanishiga quyidagi misollar uchradi:

1) Ravish leksema bilan ifodalaniib, hollanmishiga bitishuv usulida bog'langan, kontakt joylashgan (1): *B u g u n h a m shunaqa bo'ldi* (O'tkir Hoshimov).

2) Ot leksema bilan ifodalaniib, sifat bilan ifodalangan hollanmishiga boshqaruv usulida bog'langan, kontakt joylashgan; ushbu sifat birikma otlashib (*Namozasrga yaqin paytda* → *Namozasrga yaqin*), payt hollovchisi vazifasida kelgan (2): *N a m o z a s r g a y a q i n katta olomon bilan keldi* (Oybek) kabi.

3) Sifatlovchili birikma bilan ifodalaniib, kesim vazifasida kelgan ravish leksemaga bog'langan, distant joylashgan (2): *B u y i l suv kamroq* (Hamid G'ulom). *E r t a b a h o r d a tuproq hidi boshqacha bo'ladi* (O'tkir Hoshimov). Birinchi jumlada hollovchi kesim vazifasidagi ravish leksemaga bitishuv usulida, ikkinchi jumlada esa boshqaruv usulida bog'langan.

8- §. Fe'l leksemaga bog'lanib kelgan payt hollovchisi jumla tarkibida: a) birikmaning bo'lagi holatida(10), b) kesim vazifasidagi leksemaga bog'lanib gapshakl bo'lagi holatida (62) qatnashgan.

Birikmaning bo'lagi holatida kelgan payt hollovchisi quyidagicha shakllangan:

1. Leksemashakl bilan ifodalaniib, hollanmishi bilan kontakt joylashgan (6):

a) ravish leksema bilan ifodalangan (5): *Xolbek h a l i h a m gochib yurgan serkasini ertalab Kiyiktoshda ko'rdi* (Pirimqul Qodirov). .. *h o z i r yiqilib tushishimni his qilib turardim* (O'tkir Hoshimov). *E r t a g a to'y bo'ladigan kun kechasi ..* (Hamid G'ulom) kabi;

b) keyin ko'makchisi bilan shakllangan ot leksema bilan ifodalangan (1): *T u sh d a n k e y i n yog'adigan odati bor* (Pirimqul Qodirov).

2. Birikmashakl bilan ifodalangan (4):

1) Sifatlovchili birikma bilan ifodalanib, hollanmishi bilan distant joylashgan (2): *Q i y - ch u v b i l a n o' t g a n n a h o r l i k d a n s o' n g h o v l i d a y a n a b a z m b o s h l a n d i* (Oybek). *A n a s h u v a q t g a c h a D a v l a t b e k o v t o' g ' r i s i d a j u d a y o m o n f i k r d a y u r g a n i d a n i z z a b o' l d i* (Pirimqul Qodirov). Birinchi jumlada payt hollovchisi *s o' n g k o' m a k c h i s i* bilan, ikkinchi jumlada esa *-gacha shakl* yasovchisi bilan shakllangan.

2) To'ldiruvchili birkmashakl bilan ifodalanib, *bilan k o' m a k c h i s i* yordamida shakllangan, hollanmishi bilan distant joylashgan (1): *A z i z n i k o' r i s h i b i l a n N a f i s a d a y u z b e r g a n o' z g a r i s h ..* (Hamid G'ulom).

3) Izofa birikmasi bilan ifodalanib, hollanmishi bilan distant joylashgan (1): *K u n b o' y i e r i n c h o q k e z i b y u r g a n b u l u t l a r ..* (O'tkir Hoshimov).

9-. §. Kesim vazifasidagi fe'l leksemaga bog'lanib, gapshakl bo'lagi mavqeida kelgan payt hollovchisi quyidagicha ifodalangan:

1. Leksemashakl bilan ifodalangan (33); kesim bilan:

1) kontakt joylashgan (9):

a) ravish leksema bilan ifodalangan (7): *I l g a r i k o' r g a n m i d i n g ?* (Oybek). *E r t a g a o l a m a n* (O'tkir Hoshimov). *Endi e k a m i z , a l b a t t a e k a m i z !* (Hamid G'ulom). *K e c h a l a r i u x l a y o l m a y c h i q a m a n* (Pirimqul Qodirov) kabi;

b) sifat leksema bilan ifodalangan (1): *Y a l l a c h i l a r .. u z o q o' y n a d i l a r* (Oybek);

d) o'rin kelishigida otlashgan sifat bilan ifodalangan (1): *B e m a h a l d a p i s h i r i b q o' y i b d i m i b i r o v n i k i d a !* (O'tkir Hoshimov);

2) distant joylashgan (24):

a) ravish leksema bilan ifodalangan (16): *E r t a l a b m a k t a b g a b o r i s h i n g k e r a k* (O'tkir Hoshimov). *S o' n g r a a r m i y a x i z m a t i n i o' t a d i* (Hamid G'ulom). .. *u D a l v a t b e k o v d a n h e c h q a c h o n b u n d a y m a q t o v e s h i t m a g a n* (Pirimqul Qodirov). *B i r p a s d a n i m q o r o n g ' i z u l m a t g a s i n g i b k e t d i* (O'tkir Hoshimov) kabi;

b) ot leksemashakl bilan ifodalangan (5):

— bosh kelishikdagi leksema (kun nomlari) bilan (1): *Sh a n b a , y a k s h a n b a b o b o m n i n g c h o r b o g ' i d a b o' l i s h m o q c h i* (Hamid G'ulom);

— o'rin kelishigidagi leksema bilan (2): *H u l k a r u m r i d a t o v u q h a m s o' y m a g a n e d i* (Pirimqul Qodirov) kabi;

— *keyin k o' m a k c h i s i q o' s h i l g a n* leksema bilan (1): *O' y i n d a n k e y i n k e c h a g i s o q o l l i k a m p i r ..* (Oybek);

— *bilan k o' m a k c h i s i q o' s h i l g a n* leksema bilan (1): .. *y o z i b i l a n t o g ' d a n t u s h m a y s i z m i e n d i ? !* (Pirimqul Qodirov);

d) otlashgan miqdor ravishi bilan (1): *Er-xotin kechasi a n ch a g a-ch a u xlamay gaplashib yotishdi* (Pirimqul Qodirov);

e) otlashgan sifat leksema bilan (1): *Ya q i n d a g i n a hammalari yo'lga chiqishdi ..* (Hamid G'ulom);

f) otlashgan ko'rsatish birligi bilan ifodalangan (1): *Sh u n d a Turdi Xolbekning qorniga tepmoqchi bo'lib ..* (Pirimqul Qodirov).

2. Birikmashakl bilan ifodalangan (25):

1) Sifatlovchili birikma bilan ifodalangan (11); kesim bilan:

a) kontakt joylashgan (4): .. *oradan tag'in u ch y i l o'tdi* (Hamid G'ulom). *B i r z u m d a terlab ketdim* (O'tkir Hoshimov). *Aziz armiyadan k e ch k u z d a qaytib keldi* (Hamid G'ulom) kabi;

b) distant joylashgan (7): *O' sh a z a h o t i yer-u ko'kni titratib mo-maqaldiroq gumburladi* (O'tkir Hoshimov). *B e sh y i l ha-hu deguncha o'tib ketdi* (Hamid G'ulom). *K e y i n g i v a q t l a r d a xokkey modaga kirdi* (Hamid G'ulom) kabi.

2) Qaratuvchili birikma bilan ifodalangan (2); kesim bilan distant joylashgan: *Sh u q i y - ch u v i ch i d a Mirzakarimboy bilan xotini o'rtasida biroz achchiq-tiziq gap o'tdi* (Oybek). *A z i z n i n g a r m i y a-d a n q a y t i sh i g a onasi Nigor opa kelin tayyorlab qo'ygan* (Hamid G'ulom).

3) To'ldiruvchili birikma bilan ifodalangan (2); kesim bilan distant joylashgan; fe'lning otdosh shakli *bilan ko'makchisi yordamida shakllangan*:

a) vositasiz to'ldiruvchili birikma bilan (1): *T r a k t o r n i t o'x t a-t i sh i m b i l a n motor o'chib qoldi* (O'tkir Hoshimov);

b) chiqish kelishigidagi vositali to'ldiruvchili birikma bilan (1): *X i z-ma t d a n q a y t i sh i b i l a n o q uni brigadirlilikka ko'tardilar* (Hamid G'ulom).

4) Hollovchili birikma bilan ifodalangan (6); kesim bilan:

a) kontakt joylashgan (1): *Turdi Hulkarga b o y a t d a n b e r i tikilmoqda edi* (Pirimqul Qodirov);

b) distant joylashgan (5):

— fe'lning ravishdosh shaklida shakllangan (1): *Z u m o' t m a y de-vorga minib oldi* (O'tkir Hoshimov);

— fe'lning sifatdosh shakli o'rin kelishigida shakllangan (3): *T o sh k o'ch a g a ch i q q a n d a ..* (Oybek). *O'rni m'da n t u r a y o-t-g a n i m d a yana biqinim lovullab yondi* (O'tkir Hoshimov) kabi;

— fe'lning otdosh shakli *bilan* ko'makchisi yordamida shakllangan(2):  
*Y e r g a t u s h i s h i m b i l a n etik qo'njidan loy aralash tuproq oyog'imga to kildi* (O'tkir Hoshimov) kabi.

5) Ta'kidlovchili birikma bilan ifodalangan (1); kesim bilan distant joylashgan; birikmaning har ikki a'zosi payt ravishi bilan ifodalangan: *E r t a s i g a e r t a l a b Aziz idoraga bordi* (Hamid G'ulom). *Kechqurun soat yettida* kabi qurilimlar ham ta'kidlovchili birikma qatoriga kiritilishi to'g'ri.

6) Izoh birikmasi bilan ifodalangan (1): *Bular y i l - o' n i k k i o y ochiladilar* (Hamid G'ulom).

7) *Kunlardan bir kun tasvir* birikmasi bilan ifodalangan (1): *K u n l a r - d a n b i r k u n Nafisaning to'y daragi yoyildi* (Hamid G'ulom).

3. Transformatsiyalangan gapshakl bilan ifodalangan (4); kesim bilan distant joylashgan:

a) -sdan ravishdosh morfemasi bilan shakllangan (1): *T u s h l i k b o' l - m a s i d a n jildini ko'tarib kelib qoladi* (O'tkir Hoshimov);

b) -gach ravishdosh affiksi bilan shakllangan (1): *O r a d a n i k k i k u n [vaqt] o' t g a ch Azizning uyidan .. sovchilar chiqdi* (Hamid G'ulom);

d) sifatdosh shakliga *keyin* ko'makchisi qo'shilib shakllangan (1): .. *bu-butlar o f t o b b o t i g a n d a n k e y i n qahrlis tus oldi* (O'tkir Hoshimov);

e) sifatdosh shakliga o'rin kelishigi affiksi qo'shilib shakllangan (1): *Tutqichni .. b u t u n g a v d a s i b i l a n b i r h o s g a n i d a motor ishlab ketgan* (O'tkir Hoshimov). Ushbu transformatsiyalangan jumia tarkibida ega qatnashmagan.

### *Miqdor hollovchisinining nutqiy voqelanishi*

**10- §.** Tahlilga jalb qilingan misoilardan 30 jumla tarkibida miqdor hollovchisi qatnashib, 24 holatda fe'l leksemaga, 6 holatda ism leksemaga bog'langan.

1. Fe'l leksemaga bog'langan miqdor hollovchisi gapshaklning bo'lagi holatida (21) va birikmaning bo'lagi holatida (3) qatnashgan:

1. Gapshakl bo'lagi holatida qatnashgan:

1) Leksemashakl bilan ifodalangan (16):

a) ravish leksema bilan ifodalangan (14):

— *yana* leksemasi bilan ifodalangan (6); fe'l leksema bilan kontakt joylashgan (1): *Shovqin-suron ya n a kuchaydi* (Oybek); distant joylashgan: *Yuzimga ya n a yomg'ir sachradi* (O'tkir Hoshimov) kabi;

— *tag'in* leksemasi bilan ifodalangan (6): kontakt joylashgan (1): .. *biqinim t a g' i n sanchib ketdi* (O'tkir Hoshimov); distant joylashgan (5): *T a g' i n chaqmoq charsilladi* (O'tkir Hoshimov) kabi;

— *ko'pincha* leksemasi bilan ifodalangan (1); kontakt joylashgan: *Uning baxtiga bolalar k o' p i n ch a yanglishadilar* (Oybek);

— *asosan* leksemasi bilan ifodalangan (1); distant joylashgan: *Bu yerda a s o s a n qariyalar yig'ilishadi* (Hamid G'ulom);

b) olmosh bilan ifodalanib, kontakt joylashgan (2): *Sen nimangga b u n-ch a l i k kerilasan?* (Pirimqul Qodirov) kabi;

2) Sifatlovchili birikma bilan ifodalangan (5):

a) kontakt joylashgan (4): *Uzoqdan b i r m a r t a m i , i k k i m a r - t a m i ko'rib qolgandim* (Oybek). *Boshimni ko'tarib u ch - t o' r t q u l - t u m ichdim* (O'tkir Hoshimov) kabi;

b) distant joylashgan (1): *Biroq b u g a l h a m javob eskicha bo'ldi* (Hamid G'ulom).

2. Birikmaning bo'lagi holatida qatnashgan (3); leksemashakl bilan ifodalanib, fe'l leksema bilan kontakt joylashgan: *Y a n a turib hansirab tortishuvni davom ettiradilar* (Oybek). *Jiqla ho'l o'tin y o l g' i z pirs-pirs qilib,* .. (Oybek) kabi.

II. Ism leksemaga bog'langan miqdor hollovchisi leksemashakl bilan ifodalanib (6):

1) kontakt joylashgan (4):

a) ot leksemaga bog'langan, birikma ega vazifasida kelgan (3): *Ya n a b i r yaqin tomoni — qo'shni* (Hamid G'ulom). *B i r - g i n a Ahmadjonning 10- brigadasi ..* (Hamid G'ulom) kabi;

b) sifat leksemaga bog'lanib, birikma hollovchi vazifasida kelgan (1): *Olimjon halqani y a n a y a m qattiqroq urdi* (O'tkir Hoshimov);

2) distant joylashgan (2); *yana ravish* leksemasi bilan ifodalanib:

a) *nozik* sifatiga bog'langan (1): *Y a n a zamon nozik* (Oybek);

b) *kerak* kesimlik leksemasiga bog'langan (1): *Ya n a nima kerak, su-yunchimi?* (Pirimqul Qodirov).

### *Sabab hollovchisining nutqiy voqelanishi*

11- §. Tahlilga jalb qilingan misollardan 16 jumla tarkibida sabab hollovchisi qatnashgan; 14 holatda fe'l leksemaga, 2 holatda ism leksemaga bog'langan.

I. Fe'l leksemaga bog'lanib kelgan sabab hollovchisi gapshakl bo'lagi holatida (11) va birikmaning bo'lagi holatida qatnashgan (3):

1. Gapshakl bo'lagi holatida kelib:

1) leksemashakl bilan ifodalangan (6):

a) *nega so'roq olmoshi* bilan ifodalangan (3); kesim bilan kontakt joylashgan: *N e g a kulasiz?* (Pirimqul Qodirov) kabi;

b) *deb yordamchisi* bilan shakllangan (2); kesim bilan kontakt joylashgan:

— ot leksema bilan ishlatilgan (1): *E r d e b shunaqa qilib yuribdi-ya!* (Pirimqul Qodirov);

— kishilik olmoshi bilan ishlatilgan (1): *M e n i d e b yovvoyi odam bo'lib ketmang* (Pirimqul Qodirov);

d) o'rın kelishigidagi ot leksema bilan ifodalangan (1), kesim bilan kontakt joylashgan: *Qattiqroq taqillat. Mo m a q a l d i r o q d a eshitmayap-dilar* (O'tkir Hoshimov).

2) Birikmashakl bilan ifodalangan (5):

a) Qaratuvchili birikma bilan ifodalangan (2); birikma:

— *-dan* affaksi bilan shakllangan (1), kesim bilan kontakt joylashgan: *Turdi u n i n g b o s i q g a p i r a y o t g a n i d a n dadillandi* (Pirimqul Qodirov);

— *uchun ko'makchisi* bilan shakllangan (1), kesim bilan distant joylashgan: *N i g o r o p a M e h r i o p a n i n g, A z i z N a f i s a n i n g k o' n g i l m a y l i n i b i l g a n l i k l a r i u ch u n .. sovchilarni tag'in kiritdilar* (Hamid G'ulom);

b) To'ldiruvchili birikma bilan ifodalangan (1); birikma *-dan* affaksi bilan shakllangan, kesim bilan kontakt joylashgan: *Aziz D a v l a t b e k o v t o' g'ris i d a j u d a y o m o n f i k r d a y u r g a n i d a n izza bo'ldi* (Pirimqul Qodirov);

d) Hollovchili birikma bilan ifodalangan (1); birikma *-ga* affaksi bilan shakllangan, kesim bilan kontakt joylashgan: *Olimjon o'rni m d a n t u r-g a n i m g a quvonib ketdi* (O'tkir Hoshimov);

e) Ko'chirma gapga *deb yordamchisi* qo'shilib shakllangan (1), kesim bilan kontakt joylashgan: *"I k k i t a o' q i d i k, u ch t a o' q i d i k" d e b bahona qiladi* (O'tkir Hoshimov).

2. Birikmaning bo'lagi holatida qatnashgan (3):

1) Leksemashakl bilan ifodalangan (2); chiqish kelishigidagi ot leksema bilan ifodalanib, fe'l leksema bilan:

a) kontakt joylashgan (1): *.. y o m g' i r d a n ho'l bo'lib ketgan yuzi-dan o'pdim* (O'tkir Hoshimov);

b) distant joylashgan (1): .. *dedi g' a z a b d a n ko'zlari yonib* (O'tkir Hoshimov);

2) Qaratuvchili birikmashakl bilan ifodalaniib, chiqish kelishigida shakllangan (1), fe'l leksema bilan kontakt joylashgan: *u n i n g z a r b a l a r i d a n karaxt bo'lgan Turdi .. pastga yumalab ketdi* (Pirimqul Qodirov).

II. Ism leksemaga bog'langan sabab hollovchisi (2) kesim vazifasidagi:

1) ot leksemaga bog'lanib, *uchun ko'makchisi qo'shilib shakllangan* kishilik olmoshi bilan ifodalangan (1), kesim bilan kontakt joylashgan: *Mana, so'zingiz — m e n u ch u n qonun* (Pirimqul Qodirov);

2) guman so'roq olmoshiga bog'lanib, *nega so'roq olmoshi* bilan ifodalangan (1), kesim bilan distant joylashgan: *N e g a bunday allanechuksan?* (Oybek).

### ***Maqsad hollovchisining nutqiy voqelanishi***

12- §. Maqsad hollovchisi nutqda oz ishlataladi: Tahsilga jalb qilingan misollardan faqat 7 jumla tarkibida uchradi. Bunday hollovchi quyidagicha voqelangan:

1. Leksemashakl bilan ifodalangan (1): gapshakl bo'lagi holatida kelib, kesim bilan kontakt joylashgan; *-moqchi bo'lib yordamida shakllangan: "Il-gari ko'rghanmiding?" — s i n a m o q ch i b o' l i b so'radi Nuri* (Oybek).

2. Birikmashakl bilan ifodalangan (6):

1) Gapshakl bo'lagi holatida kelib, kesim bilan distant joylashgan (5):

a) Fe'lning otdosh shakliga *uchun ko'makchisi qo'shilib shakllangan* (3):

— to'ldiruvchili birikma bilan ifodalangan (2): *Yo'lchi n a f a s i n i r o s t l a sh u ch u n eshikka chiqdi* (Oybek). *Turdi g a p n i ch o'z m a s l i k u ch u n chakmonining chetiga sabrsizlanib o'tirdi* (Pirimqul Qodirov);

— hollovchili birikma bilan ifodalangan (1): .. *t a n ch a g a s o l i sh u ch u n qo'lida bir xokandoz to'la laqqa cho'g' bilan yosh qiz kirdi* (Oybek);

b) *-moqchi bo'lib yordamida shakllangan* (2):

— to'ldiruvchili birikma bilan ifodalangan (1): *Turdi a l a m i n i u n d a n o l m o q ch i b o' l i b g'azab bilan davom etdi* (Pirimqul Qodirov);

— hollovchili birikma bilan ifodalangan (1): *Shunda Turdi X o l b e k - n i n g q o r n i g a t e p m o q ch i b o' l i b oyog'ini ko'tardi* (Pirimqul Qodirov).

2) Birikmaning bo‘lagi holatida qatnashgan (1), fe'l leksema bilan distant joylashgan; to‘ldiruvchili birikma bilan ifodalangan: *U l a r n i a j r a t m o q c h i b o ' l i b shoshib kelayotgan Avaz Turdiga yaqinlashdi* (Pirimqul Qodirov).

### ***O'xshatish hollovchisining nutqiy voqelanishi***

13- §. Bunday hollovchi tahlilga jalb qilingan misollardan 4 jumla tarkibida uchradi; to‘ldiruvchili birikma bilan ifodalangan:

1. Gapshakl bo‘lagi holatida qatnashgan (3); kesim bilan:

1) kontakt joylashgan (2):

a) -gudek morfemalari bilan shakllangan (1): *Traktor o l a m n i b u z-g u d e k tarilladi* (O‘tkir Hoshimov);

b) -ganday morfemalari bilan shakllangan (1): *Hulkar unga .. b i r t o ' n k a g a q a r a g a n d a y qaradi-yu, ..* (Pirimqul Qodirov);

2) distant joylashgan (1); -gandek morfemalari bilan shakllangan: *Nuri g o ' y o o ' z i g a o ' z i d e g a n d e k sekingina dedi..* (Oybek).

2. Birikmaning bo‘lagi holatida qatnashgan (1); fe'l leksema bilan kontakt joylashgan; -ganday morfemalari bilan shakllangan: *..Davlatbekov o'z i n i n g ya q i n sh o g i r d l a r i n i k o ' r g a n d a y sevinib .. dedi* (Pirimqul Qodirov).

### ***To‘sqsizlik hollovchisining nutqiy voqelanishi***

14- §. Bunday hollovchi tahlilga jalb qilingan misollardan faqat 2 jumla tarkibida uchradi; qaratuvchili birikmaga *qaramay* yordamchisi qo‘shilib shakllangan; gapshakl bo‘lagi holatida qatnashib, kesim bilan distant joylashgan: *Q i sh n i n g i z g ' i r i n l i k u n i g a q a r a m a y hamma tomlar .. xotinlar, qizlar bilan to‘ldi* (Oybek). *Qiziq, g u v u l l a b t u r g a n sh a m o l sh o v q i n i g a q a r a m a y tuproqning ojiz shivirlashini aniq eshitgandek bo‘ldim* (O‘tkir Hoshimov).

### ***Birikma bo‘laklarining nutqiy voqelanishi***

1- §. Oldingi sahifalarda ega bilan kesim gapshakl bo‘lagi sifatida, to‘ldiruvchi bilan hollovchi gapshaklning va birikmaning bo‘lagi sifatida tasvirlandi; ushbu sintaktik bo‘laklar nutqda asosan leksemashakl bilan, qisman birikmashakl bilan ifodalanishi keng namoyish qilindi. Bu sintaktik bo‘laklar birikma bilan ifodalanganida birikmaning tobe bo‘lagi bo‘lib sifatlovchi, qaratuvchi, izofa, izohlovchi, ta‘kidlovchi qatnashadi. Quyida ana shu bo‘laklarning (450) nutqiy voqelanishi bayon qilinadi.

## Sifatlovchining nutqiy voqelanishi

2- §. Tahlilga jalb qilingan jumlalarda sifatlovchi 286 marta uchradi; shulardan 229 misolda leksemashakl bilan, 57 misolda birikmashakl bilan ifodalangan.

I. Leksemashakl bilan ifodalangan sifatlovchi vazifasida quyidagi birliklar kelgan:

1. Sifat leksema kelgan (105). Bunday sifat leksemalarga sintaktik shakl yasovchi morfema qo'shilmagan, faqat 'sifatlovchi' sintaktik semasi qatnashgan:

1) Boshqa tur shakl yasovchi ham qo'shilmagan (89). Bunday misollarda sifat leksemalarning barcha ma'no turlari o'z aksini topgan. Sintaktik vazifa nuqtayi nazaridan bunday ma'no turlarini, shuningdek sifatlarning tuzilishiga ko'ra turlarini ta'kidlash ahamiyatsiz. Faqat nutqda nisbatan ko'p uchragan quyidagi ma'no turlariga bir necha misol keltiramiz:

a) rang-tus sifat leksemalari (8): *q i z i l tugmacha* (Pirimqul Qodirov), *z a n g o r i baxmaldan* (Hamid G'ulom) kabi;

b) hajm sifat leksemalari (1): *k a t t a xola* (O'tkir Hoshimov), *a z i m sadaqayrag'och* (Hamid G'ulom), *m o' j a z oyoqlarida* (Oybek), *u l k a n shaharning* (Pirimqul Qodirov) kabi.

2) Sintaktik bo'lmagan shakl yasovchi qo'shilgan (16):

a) belgi kuchaytirilgan (6):

— *eng, tim* affiksoidi bilan (4): *e n g y a q i n shogirdi* (Pirimqul Qodirov), *qishloqlarning eng b a l a n d i* (Hamid G'ulom), *t i m q o r a sochlari* (Hamid G'ulom) kabi;

— to'liqsiz takror usuli bilan (2): *o p p o q par yostiqlar* (Oybek) kabi;

b) *-sh, -mtir* affiksi bilan belgi ozaytirilgan (4): *k o' k i sh ko'zlari* (Hamid G'ulom), *s a r g' i sh qanoti* (O'tkir Hoshimov) kabi;

d) *-roq* affiksi bilan 'nisbatan biroz' ma'nosi ifodalangan (1): *b a l a n d r o q bir joyga* (Pirimqul Qodirov);

e) *-gina* affiksi bilan iliq munosabat ifodalangan (4): *k a l t a g i n a kamzul* (Pirimqul Qodirov), *k a t t a g i n a ayvon* (Hamid G'ulom) kabi.

Yuqorida ta'kidlangan shakl yasovchilarining sintaktik vazifaga aloqasi yo'q; bular sifat leksemaga ma'lum bir grammatic ma'no bag'ishlaydi xolos.

2. Sifatlovchi vazifasida son leksemalarning (21) quyidagi turlari kelgan:

1) sanoq son (17) *b i r xokandoz* (Oybek), *i k k i kishi* (Pirimqul Qodirov), *u ch yil* (Hamid G'ulom) kabi;

2) dona son (1): *b i t t a zog'orani* (O'tkir Hoshimov);

3) tartib son (3): *b e sh i n ch i bo'lim* (Pirimqul Qodirov) kabi.

Son leksemalarning yuqoridagi turlari nutqda oz-ko'p ishlatalishini namoyish qilish uchun ta'kidlandi; bularning sintaktik vazifaga ta'siri yo'q.

3. Sifatlovchi vazifasida ravish leksema kelgan (9). Bular ikki turli:

1) Ravish leksema shakl yasovchi qo'shilmagan holda ishlataligan (5):

a) payt ravishi (2): *e r t a bahorda* (O'tkir Hoshimov), *k e ch kuza* (Hamid G'ulom);

b) miqdor ravishi (3): *a n ch a narida* (Pirimqul Qodirov); *m o' l - k o' l sochiqlar* (Oybek) kabi;

2) Ravish leksemaga -gi affiksi qo'shilib, sifatlovchi vazifasida kelishi ta'minlangan, bu affiks sintaktik vazifa ko'rsatkichi bo'lib kelgan (4):

a) payt ravishiga qo'shilgan (3): *k e ch a g i kampir* (Oybek), *k e - y i n g i vagtlarda* (Hamid G'ulom), *s o' n g g i kunlarda* (Pirimqul Qodirov);

b) o'rin ravishiga qo'shilgan (1): *paykalning n a r i g i boshiga* (O'tkir Hoshimov).

Demak, ravish leksemaning sifatlovchi vazifasida kelishi ikki xil ta'minlanadi: 1) 'sifatlovchi' sintaktik semasi yordamida, 2) shakl yasovchi -gi affiksi bilan. Ko'rindaniki, bu affiksni leksema yasovchi deb emas. balki sintaktik mohiyatlari shakl yasovchi deb baholash to'g'riroq.

4. Sifatlovchi vazifasida ko'rsatish birligi, olmoshlarning sifat turlari kelgan (43):

1) *bu* birligi (15): *b u yil* (Hamid G'ulom), *b u taxmin* (Pirimqul Qodirov), *b u mahallaning* (Oybek) kabi;

2) *shu* birligi (11); sifatlanmishi:

a) leksema bilan ifodalangan (7): *sh u tomonda* (Pirimqul Qodirov), *sh u kunlarda* (Hamid G'ulom);

b) birikma bilan ifodalangan (4): *sh u bir parcha yerda* (Hamid G'ulom), *sh u qiy-chuv ichida* (Oybek); *sh u oddiy qizil askardan* (Hamid G'ulom);

3) *u* ko'rsatish birligi kelgan (1): *u yog 'ini* (Pirimqul Qodirov);

4) *o'sha* birligi kelgan (7); sifatlanmishi bilan:

a) kontakt joylashgan (6): *o' sh a voqeа* (Hamid G'ulom), *o' sh a yoq qa* (Pirimqul Qodirov), *o' sh a zahoti* (O'tkir Hoshimov) kabi;

b) distant joylashgan: *o' sh a 1941- yilning* (Hamid G'ulom);

5) *ana shu* birligi kelgan (1): *a n a sh u Feruz qishlog 'ida* (Hamid G'ulom);

6) *bunday, bunaqa* olmoshi kelgan (3); sifatlanmishi bilan:

a) kontakt joylashgan (1): *b u n d a y maqtov* (Pirimqul Qodirov);

b) distant joylashgan (2): *b u n a q a antiqa qishloqlar* (Hamid G'ulom) kabi;

7) *shunday, shunaqa olmoshi kelgan* (2): *Sh u n d a y gaplarni* (Oybek), *sh u n a q a narsalar* (Hamid G'ulom);

8) *qandaydir olmoshi kelgan* (1): *q a n d a y d i r sharpa* (O'tkir Hoshimov);

9) *har qanday olmoshi kelgan* (2): *h a r q a n d a y odamni* (Pirimqul Qodirov) kabi.

5. Sifatlovchi vazifasida sifatdosh shaklidagi fe'l leksema kelgan (12); sifatdosh shakli:

1) -gan affiksi bilan yasalgan (10): *ch a r ch a g a n ayollar* (Oybek), *q i l g a n ishlari* (Pirimqul Qodirov), *Olimjonning y i g' l a m s i r a g a n ovozi* (O'tkir Hoshimov) kabi;

2) -digan affiksi bilan yasalgan (2): *u ya l a d i g a n ahmoq* (Pirimqul Qodirov).

6. Sifatlovchi vazifasida ot leksema kelib (39), ikki xil shakllangan:

1) 'predmet' semasi 'belgi' semasiga almashtirilib, 'sifatlovchi' sintaktik semasi qo'shilib shakllangan (21):

a) modda nomi bilan ifodalangan (4): *t e m i r tutqich* (O'tkir Hoshimov), *m i s choynak* ((Pirimqul Qodirov), *x a r s a n g tosh* (Hamid G'ulom) kabi;

b) mato nomi bilan ifodalangan (9): *ch i t ko'ylyak* (Oybek), *b r e z e n t yomg'irpo'sh* (Pirimqul Qodirov) kabi;

d) kishi nomi bilan ifodalangan (6): *k u y o v tomon* (Oybek), *q i z tomon* (Oybek), *b o y v a ch ch a kuyovlar* (Oybek) kabi;

e) joy, o'rin nomi bilan ifodalangan (2): *q o' q o n arava* (Obek), *u y tomongan* (O'tkir Hoshimov);

2) Sintaktik shakl yasovchi qo'shilib shakllangan (18):

a) -dagi morfemasi qo'shilgan (9):

— ot leksemaga qo'shilgan (6); sifatlanmihisi bilan kontakt joylashgan (4): *q i sh l o q d a g i tengdoshlari* (Hamid G'ulom), *b e l i d a g i pi-chog'ini* (Pirimqul Qodirov) kabi; distant joylashgan (2): *q o' l l a r i d a g i shaldiroq qog'oz aqchalarni* (Oybek) kabi;

— sifat leksemaga qo'shilib, otlashish yuz bergen (3); sifatlanmishi bilan: kontakt joylashgan (2) *t a sh q a r i d a g i erkaklar* (Oybek) kabi; distant joylashgan (1): *p a s t d a g i qalin chakalakzorga* (Pirimqul Qodirov);

b) *-li* affiksi qo'shilgan (7): *s o q o l l i kampir* (Oybek), *i z g' i r i n l i kun* (Oybek). Mana bu misollar ma'no taraqqiyoti natijasida ushbu affiks bilan birga sifatga aylangan: *g' a y r a t l i yigit* (Pirimqul Qodirov), *o b -r o' l i oilalar* (Oybek), *ch i r o y l i ko'zlarini* (Hamid G'ulom). Mana bu misollarni ham *-li* affiksi qo'shib ishlatish tabiiy; bular asli sifatlovchi birikma bo'lib, ma'no taraqqiyoti natijasida qo'shma sifatga aylangan: *q o' sh q a n o t eshik* (Hamid G'ulom), *t o' r t k o' z it* (Pirimqul Qodirov);

v) joy nomiga *-lik* affiksi qo'shilgan (1): *sh a h r i s t o n l i k og'aynisi* (Hamid G'ulom).

3) Bir misolda sifatlovchi ot leksemaning takrori bilan ifodalangan: *sh o -d a - sh o d a barglar* (Oybek).

II. Sifatlovchining birikmashakl bilan ifodalanishi ham nutqda anchagina uchradi (57). Buning ko'rinishlari quyidagicha:

1. Sifatlovchili birikma bilan ifodalangan (8):

1) Bunday birikma 'sifatlovchi' sintaktik semasi qo'shib sifatlovchi vazifasida kelgan; birikma tarkibidagi sifatlovchi son leksema bilan ifodalangan (6): *o' n y i l l i k m a k t a b* (Hamid G'ulom), *b i r d u n y o i s h* (Hamid G'ulom), *u ch - t o' r t q o r a g a n d* (Pirimqul Qodirov), *b e sh y u z t o n n a p a x t a* (Hamid G'ulom) kabi. Keyingi misollar tarkibidagi *dona, tonna* kabi lekscmalar numerativ (sanoq birligi) deyiladi.

2) Bunday birikma *-dagi, -li* sintaktik shakl yasovchisi qo'shib sifatlovchi vazifasida kelgan (2): *X o v o s t o m o n d a g i bag'r i g a* (Hamid G'ulom), *q o' sh a r g ' u m o q l i izvoshda* (Oybek).

2. Qaratuvchili birikma bilan ifodalangan; birikmaga *-dagi* sintaktik shakl yasovchisi qo'shib sifatlovchi vazifasida kelgan (6): qaratuvchi:

1) belgisiz qaratqich kelishigida ishlatilgan (5): *a r i q b o' y i d a g i maysalar* (O'tkir Hoshimov), *i k k i u y o' r t a s i d a g i ayvonga* (Hamid G'ulom) kabi;

2) belgili qaratqich kelishigida ishlatilgan (1): *k o l x o z n i n g t o g' b a g' r i d a g i yerlarida* (Hamid G'ulom).

3. To'ldiruvchili birikma bilan ifodalangan (16). Sifatlovchi vazifasida kelgan bunday birikma:

1) *-gan* sifatdosh yasovchisi bilan shakllangan (12):

a) *-gan* affiksidan keyin boshqa morfema qo'shilmagan (11): *m a y d a y u l d u z ch a l a r b i l a n yo n g a n g o r g a* (Oybek), *z a n g o r i b a x m a l d a n t i k i l g a n tumorchasi* (Hamid G'ulom) kabi;

b) *-gan* affiksidan keyin *-day* affiksoidi qo'shilgan (1): *n u r g a ch o -m i l g a n d a y t i n i q o q y u z i* (Hamid G'ulom);

2) -digan sifatdosh yasovchisi bilan shakllangan (2): *g' a z a b l a-n i sh g a h a m a r z i m a y d i g a n b i r t o 'n k a g a ..* (Pirimqul Qodirov) kabi;

3) -yotgan sifatdosh yasovchisi bilan shakllangan (1): *ularni a j r a t-m o q c h i b o 'l i b s h o s h i b k e l a y o t g a n A v a z* (Pirimqul Qodirov);

4) -vchi sifatdosh yasovchisi bilan shakllangan (1): *q a r i y b b u t u n x o n a n i q o p l o v c h i p a l a k n i* (Oybek).

4. Hollovchili birikma bilan ifodalangan (28). Sifatlovchi vazifasida kelgan bunday birikma sifatdosh yasovchisi bilan shakllangan:

1) -gan morfemasi bilan (24): *y o n i m d a o 't i r g a n O l i m j o n* (O'tkir Hoshimov), *h a l i h a m q o c h i b y u r g a n s e r k a s i n i* (Pirimqul Qodirov), *h a r v a q t d a g i d a n k o 'r k a m r o q, t i n i q-r o q k o 'r i n g a n t o 'l i n o y* (Oybek), *sh u y o z d a q u r i l g a n i k k i u y* (Hamid G'ulom) kabi;

2) -digan morfemasi bilan (3): *v a s h i l l a b o t i l i b c h i q a d i-g a n B u q a b u l o q* (Hamid G'ulom), *t u s h d a n k e y i n y o g ' a d i g a n o d a t i* (Pirimqul Qodirov) kabi;

3) -yotgan morfemasi bilan: *q a r s h i d a g i k a m d a n o s h i b k e-l a y o t g a n i k k i k i s h i* (Pirimqul Qodirov).

### Qaratuvchining nutqiy voqelanishi

3- §. Tahvilga jalb qilingan jum'lalarda qaratuvchi 117 marta uchradi; shulardan 91 misolda leksemashakl bilan, 26 misolda birkmashakl bilan ifodalangan.

1. Leksemashakl bilan ifodalangan qaratuvchi vazifasida quyidagi birliklar kelgan:

1) ot leksemashakl kelgan (71):

a) qaratqich kelishigining belgili shaklida ishlatalgan (39); qaralmishi bilan:

— kontakt joylashgan (29): *k u y o v n i n g h o v l i s i* (Oybek), *q o 'y-l a r i n i n g o r t i d a n* (Pirimqul Qodirov), *D i l d o r n i n g k o 'z l a r i* (Hamid G'ulom), *O l i m j o n n i n g b o s h i n i* (O'tkir Hoshimov) kabi;

— distant joylashgan (10): *b o y n i n g k a t t a h o v l i s i d a* (Oybek), *e s h i k n i n g b i r t a b a q a s i* (Hamid G'ulom), *p a y k a l n i n g n a r i g i b o s h i g a* (O'tkir Hoshimov) kabi;

b) qaratqich kelishigining belgisiz shaklida ishlatalgan; qaralmishi bilan kontakt joylashgan (32): *h o v l i s a h n i g a* (Oybek), *g a p o r a s i d a* (Pirim-

qul Qodirov), *b i n a f sh a shaydosi* (Hamid G'ulom), *B o' r i j a r etagida* (O'tkir Hoshimov) kabi;

2) olmosh, ko'rsatish birligi, ta'kid birligi bilan ifodalangan, qaratqich kelishigining belgili shaklida ishlatilgan (16):

a) kishilik olmoshi kelgan (15); qaralmishi bilan:

— kontakt joylashgan (15): *m e n i n g binafshalarim* (Hamid G'ulom), *s i z n i n g ishingiz* (Pirimqul Qodirov), *u n i n g baxtiga* (Oybek), *b i z n i n g cho'lga* (Hamid G'ulom) kabi;

— distant joylashgan (4): *u n i n g bitta qusuri* (Oybek), *u n i n g Feruzni tashlab ketishiga* (Hamid G'ulom) kabi;

b) otlashgan ko'rsatish birligi bilan ifodalangan, qaratqich kelishigining belgili shaklida ishlatilgan, qaralmishi bilan kontakt joylashgan (1): *b u n i n g sunbul ekanini* (Pirimqul Qodirov);

3) o'-z- ta'kid birligi bilan ifodalangan (4);

a) qaratqich kelishigining belgili shaklida ishlatilgan (3): qaralmishi bilan:

— kontakt joylashgan (1): *o'z i m n i n g ojizligim* (O'tkir Hoshimov);

— distant joylashgan (2): *o'z i n i n g bu o'yidan* (Pirimqul Qodirov);

b) qaratqich kelishigining belgisiz shaklida ishlatilgan; qaralmishi bilan kontakt joylashgan (1): *o'z o'rtoqlari .. bilan* (Oybek).

2. Birikmashakl bilan ifodalangan (26). Bunday vazifada:

1) sifatlovchili birikma kelgan (22):

a) qaratqich kelishigining belgili shaklida ishlatilgan (11); qaralmishi bilan:

— kontakt joylashgan(7): *o b r o'li o i l a l a r n i n g qizlari bilan* (Oybek), *s o c h i n g i z g a t a q i l g a n g i y o h n i n g nomini* (Pirimqul Qodirov), *1941-yilning kuzagida* (Hamid G'ulom) kabi;

— distant joylashgan (4): *b u m a h a l l a n i n g shumtaka erkak bolalari* (Oybek), *y u k s a k t i z m a t o g' n i n g Xovos tomondag'i bag'rida* (Hamid G'ulom) kabi;

b) qaratqich kelishigining belgisiz shaklida ishlatilgan; qaralmishi bilan kontakt joylashgan (11): *s o y b o' y i d a g i a z i m s a d a q a y r a g' o ch tagiga* (Hamid G'ulom), *g u v u l l a b t u r g a n sh a m o l shovqini* (O'tkir Hoshimov), *o p p o q ch i m i l d i q ichidan* (Oybek) kabi;

2) qaratuvchili birikma kelgan (1); qaratqich kelishigining belgisiz shaklida ishlatilib, qaralmishi bilan kontakt joylashgan: *k u yo v n i n g h o v - l i s i o'rtasida* (Oybek);

3) izofa birikmasi kelgan (3); qaratqich kelishigining belgili shaklida ishlataligan, qaralmishi bilan kontakt joylashgan: *N i g o r o p a n i n g o'ylashicha* (Hamid G'ulom), *R a 'n o k e l i n o y i m n i n g eshigi* (Hamid G'ulom) kabi.

### Izofaning nutqiy voqelanishi

4- §. Izofa tahlilga jalb qilingan jumlalardan 19 marta uchrab, quyidagi gicha ifodalangan:

1) atoqli ot bilan (7):

a) joy nomi bilan (4): *F e r u z qishlog'ida* (Hamid G'ulom), *D a r x o n a r i q bekatiga* (Hamid G'ulom) kabi;

b) ko'cha, tashkilot nomi bilan (3): *O b s e r v a t o r i y a ko'chasi* (Hamid G'ulom), *I r r i g a t s i y a instituti* (Hamid G'ulom) kabi;

2) turdosh ot bilan (11):

a) o'simlik, hayvon nomi bilan (2): *a r g' u v o n daraxti* (Hamid G'ulom), *k i y i k o'ti* (Hamid G'ulom);

b) turli ma'noni anglatadigan turdosh otlar bilan (9): *k u n bo'y i* (O'tkir Hoshimov), *e l q a t o r i* (Oybek), *s e l k u n i* (Pirimqul Qodirov), *a r m i y a xizmati* (Hamid G'ulom), *t a j r i b a uchastkasi* (Hamid G'ulom) kabi.

3) Bir misolda izofa fe'lning otdosh shaklidagi birikma bilan ifodalangan: *q o 'sh i m ch a p a x t a b e r i sh majburiyati* (Hamid G'ulom).

### Izohlovchining nutqiy voqelanishi

5- §. Tahlilga jalb qilingan jumlalardan izohlovchi 13 marta uchrab, quyidagi gicha ifodalangan:

1) qarindoshlik nomlari bilan (8):

a) *aka-* leksemasi bilan (3): *Yo'lchiboy a k a* (Oybek), *Eshmurod a k a* (Pirimqul Qodirov) kabi;

b) *opa-* leksemasi bilan (3): *Mehri o p a* (Hamid G'ulom), *Bashor o p a* (Hamid G'ulom) kabi;

v) *kelinoyi-* leksemasi bilan (1): *Ra'no k e l i n o y i* (O'tkir Hoshimov);

g) *kelin-* leksemasi bilan (1): *yoniga Zuhra k e l i n n i o l i b* (Hamid G'ulom);

2) kasb, amal nomi bilan (2): *A'zam f e r m a* (Hamid G'ulom) kabi;

3) Qarindoshlik ma'nosini anglatadigan birikma bilan ifodalananib, izohlovchisidan oldin joylashgan (1): *Y o r m a t n i n g q i z i Gulnor* (Oybek);

4) Izohlovchi kishi atoqli otidan oldin ham, keyin ham ishlatilgan (2):  
*o n a si Nigor o p a* (Hamid G'ulom), *u n i n g e r i A'zam f e r m a* (Hamid G'ulom).

### **Ta'kidlovchining nutqiy voqelanishi**

**6- §.** Ta'kidlovchi tahlilga jalb qilingan jumlalarda 15 marta uchrab, quyidagicha ifodalangan:

1. Ta'kidlanmish bosh kelishikdagi kishilik olmoshi bilan, ta'kidlovchi shu kelishikdagi *o'z-* ta'kid birligi bilan ifodalangan (4): *men o'zim* (Oybek, Hamid G'ulom), *siz o'zingiz* (Hamid G'ulom) kabi.

2. Ta'kidlanmish va ta'kidlovchi ayni bir kelishikdagi ot leksema bilan ifodalangan (10):

1) tushum kelishigida shakllangan (2): *erkaklarni, kuyovning o'rtoqlarini* (Oybek), *har qanday odamni, hatto Davlatbekovni ham* (Pirimqul Qodirov);

2) o'rin kelishigida shakllangan (4): *uyning to'rida, chimildiq-chodir yonida* (Oybek), *ayvonda, stol yonida* (Hamid G'ulom) kabi;

3) jo'naliш kelishigida shakllangan (3): *pastiga, qazilgan yerga* (O'tkir Hoshimov), *yugoriga, .. baland ayvonga* (Hamid G'ulom) kabi.

3. Ta'kidlanmish payt ravishi bilan, ta'kidlovchi payt ma'nosini anglatadigan ot birikmashakl bilan ifodalangan (1): *bugun, shu ogshom* (Hamid G'ulom).

4. Ta'kidlanmish ham, ta'kidlovchi ham ravish leksemashakl bilan ifodalangan (1): *ertasiga ertalab* (Hamid G'ulom).

### **SINTAKTIK BO'LAKNING TRANSFORMATSIYALANGAN GAPSHAKL BILAN IFODALANISHI**

**1- §.** Oldingi sahifalarda asosan sintaktik bo'lakning leksemashakl bilan, birikma bilan ifodalaniши кeng tasvirlandi. Sintaktik bo'lak vazifasida bular dan tashqari transformatsiyalangan gapshakl ham keladi. Buning uchun gapshakl tarkibida ma'lum grammatik o'zgarish amalga oshiriladi. Gapshakl tarkibida amalga oshiriladigan bunday o'zgartirishlarga transformatsiya deyiladi (lot. *transformatio* – 'aylanish', 'boshqa shaklga o'tkazish').

Sintaktik transformatsiya keng qamrovli hodisa bo'lib, bu yerda faqat ayrim ko'rinishlari tasvirlandi.

**2- §.** Gapshakl tugal grammatik shakllangan bo'ladi, nutqda fikr anglatish birligi – jumla vazifasida keladi; shakli tugallik kesim vazifasida keladigan birlikka (boshqa grammatik ko'rsatkichlar qatori) tuslovchi qo'shish bilan ta'minlanadi: *Men universitetda o'qiyman* kabi.

Jumla tarkibida ega bo'lak bo'lib uch shaxs-son ma'nosidan biri ifodalanadigan sintaktik birlik keladi va unga muvofiq ravishda kesim tarkibida ham uch shaxs-son tuslovchilaridan biri qatnashadi. Tuslanishda, shuningdek kesim tarkibidagi bo'lishli-bo'lishsizlik, zamon, mayl shakllarida va boshqa shakllarda voqe bo'ladigan o'zgarishlar gapshakl paradigmmasini hosil qiladi (<yunoncha *paradeigma* — 'namuna'):

<i>Men</i>			<i>man</i>
<i>Sen</i>	<i>universitetda o'qi</i>	$\frac{y}{yan}$	<i>+ san</i>
<i>U</i>			<i>di</i>
			<i>m</i>
		$\frac{gu}{sa}$	<i>+ ng</i>
			<i>ØVI</i>

Gapshaklning bunday grammatik kategoriylar shakllari bo'yicha o'zgarishi ayrim adabiyotlarda transformatsiya deb talqin qilinadi. Asli bunday o'zgarishlarni paradigmatic o'zgarishlar deb talqin qilish to'g'riroq.

3- §. Gapshakl biror sintaktik bo'lak vazifasida kelishga ma'lum bir grammatik o'zgartirish bilan hozirlanadi. Shu bilan birga gapshaklni uning tarkibida biror o'zgartirishni amalga oshirmay, ma'lum bir yordamchi vositasida biror sintaktik bo'lak vazifasida ishlatalish ham mayjud. Nutqda juda oz voqe bo'ladigan bunday hodisaga tahlilga jalb qilingan jumlalar orasida quyidagi to'rt misol uchradi:

1. Gapshakl *deb* yordamchisi bilan ishlataligan (3); kesim:

I) hozirgi-kelasi zamon shaklida kelgan (2), I, III shaxs birlik tuslovchisi qatnashgan: *U D a v l a t b e k o v d a n h e ch q a ch o n b u n d a y m a q t o v e shitmagan, e sh i t a m a n d e b o'ylamagan edi* (Pirimqul Qodirov). *M e n i q o' r q a d i d e b o'ylaysanmi?!* (Pirimqul Qodirov). Bu jumlalarda gapshakl mazmunan vositasiz to'ldiruvchi vazifasida kelgan;

2) buyruq-istik maylining I shaxs birlik tuslovchisi qatnashgan (1): *B u y o q q a t a sh i b o v o r a b o' l m a y i n d e b idish-tovoqlarni tashqari hovlida yuvdim, artdim* (Oybek). Bu jumlada gapshakl maqsad hollovchisi vazifasida kelgan.

2. Gapshakl *uchun* ko'makchisi bilan ishlataligan (1): *Lutfiniso dam o'tmasdan kelib, y o m o n k o' z d a n a s r a s i n u ch u n isiriq tuttirar.. edi* (Oybek). Bu jumlada gapshakl maqsad hollovchisi vazifasida kelgan.

Demak, bunday ishlatishlarda gapshakl transformatsiyalanmaydi, aynan saqlanadi; gapshaklning biror sintaktik bo'lak vazifasida kelishiga yordamchi vositasida erishiladi.

### **Gapshaklning tashqi transformatsiyalanishi**

**4- §.** Gapshaklni transformatsiyalashning bir necha usullari mayjud. Nutqda eng ko'p uchraydigan usul — tashqi transformatsiyalash usuli. Bir necha ko'rinishlarda namoyon bo'ladigan bu usul uchun umumiyl belgi — gapshakl ega bo'lagining o'z o'rnida shakliy o'zgarishsiz saqlanishi. O'zgarish gapshaklning kesim bo'lagida bir necha ko'rinishda voqe bo'ladi. Qanday o'zgarish voqe bo'lishi kesimning qaysi turkum leksemasi bilan qanday shaklda ifodalanishiga bog'liq.

### **Kesimi ism leksema bilan ifodalangan gapshakllarning transformatsiyalanishi**

**5- §.** Bunday gapshakllarning transformatsiyalanihi nutqda ko'p uchramaydi (15), kesimi sifat leksema bilan, kesimlik leksemasi bilan, ot leksema bilan ifodalanib, turlicha transformatsiya qilinadi:

1. Gapshaklning ega bo'lagi odatda ot leksemashakl bilan ifodalanadi, shunga ko'ra kesimiga III shaxs tuslovchisi qo'shiladi. Transformatsiyalashda kesim tarkibidagi tuslovchi va undan oldin keladigan zamon ko'rsatkichi tashlanadi; zamon yasovchisi va tuslovchi bu yerda nol ko'rsatkichli morfema bilan ifodalanayotgani sababli tashlanayotgan qism ko'rinnmaydi:

ot leksema + S + Ns — Kb X sifat leksema + Zh + Ts III

S o ch + lar + i + ØII o' s i q + ØVIII + ØVII.

[(s o ch + lar + i + ØII o' s i q + - + -)] X [yigit]

Bunday transformatsiyalash natijasida gapshakl predikativ shakldan atributiv shaklga o'tadi.

Transformatsiyalashda tashlanadigan qism transformant deyiladi. Yuqorida tur transformatsiyalashda zamon yasovchisi va tuslovchi transformantga teng.

Ushbu transformantlar tashlanganidan keyin gapshakl grammatick tugalangan shakl holatini yo'qotadi, go'yo asosga teng bo'ladi. Ana shunday asosni sifatlovchi vazifasida keltirish uchun unga sintaktik vazifa ko'rsatkichi qo'shilishi lozim. Ushbu transformatsiyalashda sintaktik vazifa ko'rsatkichi bo'lib 'sifatlovchi' sintaktik semasi qatnashadi. Transformatsiyalash jarayonida qo'shiladigan bunday ko'rsatkich transformator deyiladi (lot. *Transformare* — 'bir holatdan boshqa holatga o'tkazish'). Grammatick ko'rsatkichlarni yuqoridagicha tashlash, qo'shish, almashtirish kabi jarayon natijasida yuzaga kelgan qurilmaga transforma deyiladi.

Transformatorni ham aks ettirsak, yuqoridagi chizma quyidagicha tus oladi.

*S o c h + lar + i + ØII o' s i q + ØVIII + ØVII.*

*[(s o c h + lar + i + ØII o' s i q + - + -)] + 'sifatlovchi'  
sintaktik semasi] X [yigit].*

Bunday tur transforma quyidagi jumlalar tarkibida ishlataligan: .. *s o c h l a r i o' s i q, boshyalang yigit yelkasiga fotoapparat osgan* (Pirimqul Qodirov). *Uning u ch i n g i ch k a yaltiroq qora tuflisi bor edi* (Pirimqul Qodirov). *Aziz .. o s m o n i m u s a f f o, h a v o s i m u a t t a r Feruz qishlog'ida tug'ildi* (Hamid G'ulom).

2. Kesimi sifat leksema bilan ifodalangan gapshaklni sifatlovchi vazifasida ishlatalish uchun bunday gapshakl *bo'l-* yordamchisini qo'shib fe'llashtirilgan, so'ngra *-gan* sifatdosh yasovchisi qo'shilgan: *Ch i l v i r s e r k a n i b o'g'i b t a r a n g b o' l i b t u r g a n joyiga..* (Pirimqul Qodirov). *U s t - b o sh i j i q q a h o' l b o' l i b k e t g a n Olimjon ..* (O'tkir Hoshimov).

3. Kesimi sifat leksema bilan ifodalangan gapshakl sabab hollovchisi vazifasida ishlatalish uchun quyidagicha transformatsiya qilingan:

1) *bo'l-* yordamchisini qo'shib fe'llashtirilgan, zamon yasovchisi *-gan* sifatdosh yasovchisiga, tuslovchi nishbatlovchiga almashtirilgan, so'ngra:

a) bosh kelishik shakli bilan birga *uchun ko'makchisi* qo'shilgan: *S o' q m o q t o r b o' l g a n i u ch u n Hulkar undan ortda borar edi* (Pirimqul Qodirov);

b) chiqish kelishigi affksi qo'shilgan: *Ch o l q a y n a t a x a s t a b o' l g a n i d a n kuyovning akasi tashqaridan kirdi* (Oybek).

4. Yuqoridagi birinchi bandda tasvirlangan o'zgarishlar kesimi kesimlik leksemasi bilan ifodalangan gapshaklni transformatsiyalashda ham voqe bo'ladi: *U l a r n i n g h a r b i r i - n e c h a y u z u y, b i r n e c h a m i n g d a r a x t d a n i b o r a t k a t t a g i n a o ' r a m* (Hamid G'ulom). Bu misolda:

gapshakl: *Ularning .. - .. iborat + ØVIII + ØVII.*

transforma: *[(ularning.. - .. iborat - ØVIII - ØVII) + 'sifatlovchi'  
sintaktik semasi] X [.. o'ram].*

Mana bu jumlada qatnashgan birinchi transformaning kesimi kesimlik leksemasi bilan (*ishtoniy o'q-*), ikkinchi transformaning kesimi sifat leksema bilan (*tizzasi yirtiq-*) ifodalangan; bu transformalar asli sifatlovchi vazifasida kelgan, lekin sifatlanmishi (*kishi-*) tushirilgani tufayli otlashib, birinchi transforma ega vazifasida, ikkinchi transforma vositali to'ldiruvchi vazifasida kelgan: *I sh t o n i y o' q t i z z a s i y i r t i q q a k u l m a s a e k a n - d a!* (Pirimqul Qodirov).

5. Kesimi kesimlik leksemasi bilan ifodalangan quyidagi gapshakllar boshqacha transformatsiya qilingan: *Eshikni k u ch i m b o r i ch a*

*mushtladim* (O'tkir Hoshimov). *Il o j i b o r i ch a daditroq qadam bo-sishga urinib ..* (O'tkir Hoshimov). Bunday transformatsiyalashda zamon yasovchisi tashlangan, tuslovchi nisbatlovchiga almashtirilgan; ana shunday transformaga hollovchi vazifasida kelishi uchun -cha affaksi qo'shilgan:

*K u ch + ØI + im + ØII bor + ØVIII + ØVII.*

[*(k u ch + ØI + im + ØII bor + - + i) + cha*] X [*mushtladim*].

6. Kesimi ot leksema bilan ifodalangan gapshaklning transformatsiyalani-shi murakkabroq voqe bo'ladi. Bunday ifodalangan kesimda son va kelishik ko'rsatkichlaridan keyin tuslovchi qo'shiladi. Biror sintaktik bo'lak vazifasida ishlatalish uchun bunday gapshakl kesimi tarkibidagi son va kelishik (substantiv shakl hosil qiluvchilar) va tuslovchi (predikativ shakl hosil qiluvchi) tashlanadi, natijada gapshakl grammatik shakllanmagan holatga o'tadi. Ana shunday asosga sintaktik vazifada kelishi uchun ma'lum bir shakl ko'rsatkichi qo'shiladi:

1) Sifatlovchi vazifasida kelishi 'sifatlovchi' sintaktik semasini qo'shish bilan ta'minlanadi:

*Devor + ØI + i + ØII oppoq ganch + ØI + ØII + ØVIII.*

[*(Devor + ØI + i + ØII oppoq ganch - ØI - ØII - ØVIII) + 'sifatlovchi'* sintaktik semasi] X [*imorat*] ..

[*Yo'lchi*] .. *d e v o r i o p p o q g a n c h .. i m o r a t r o'parasida to'xtab qoldi* (Oybek).

Bunday transformatsiyalangan gapshakl sifatlovchi vazifasida kelganida -li shakl yasovchisini qo'shib ham ishlataladi: .. *devori oppoq ganchli imorat kabi va b.*

2) Bunday transforma *bo'l-* yordamchisi qo'shib fe'llashtirilgan, -gan si-fatdosh yasovchisi va nisbatlovchi, so'ngra bosh kelishik shakli bilan birga *uchun* ko'makchisi qo'shilib sabab hollovchisi vazifasida ishlataligan (1): .. *t a g l i g i c h a r m b o'l g a n i u c h u n goh toshda, goh mayin tog' o'tida toyib ketar edi* (Pirimqul Qodirov).

### **Kesimi fe'l leksema bilan ifodalangan gapshakllarning transformatsiyalani-shi**

6- §. Bunday transformatsiya nutqda ko'p uchraydi (59). Gapshaklni biror sintaktik bo'lak vazifasida ishlatalish uchun kesim tarkibidagi tuslovchi tashlanadi yoki shu shaxs-son nisbatlovchisiga almashtiriladi, zamon yasovchisi unga ma'no jihatidan muqobil sifatdosh, ravishdosh, otdosh yasovchisiga almashtiriladi.

I. Zamon yasovchisi sifatdosh yasovchisiga quyidagicha almashtiriladi (59):

1. Nutqda gapshaklning kesimi eng ko‘p o‘tgan zamon shaklida kelgani sababli transformatsiyaishda ham -gan sifatdosh yasovchisiga almashtirish ko‘p uchraydi (45).

1) Tuslovchini tashlash va o‘tgan zamon yasovchisini -gan sifatdosh yasovchisiga almashtirish bilan hosil qilingan transforma predikativ shakldan atributiv shaklga o‘tib, to‘g‘ridan to‘g‘ri sifatlovchi vazifasida ishlatilgan, chunki sifatdosh shakli — fe'lning sifatlovchi vazifasiga xoslangan shakli (25): *Q o p - q o r a i s b o s g a n s h i p i d a n* (Oybek). *E g n i d a p a x - t a s i y u p q a s o l i n g a n .. l i p i s k a m z u l* (Oybek). *S i z y e g a n h a m s o y a l i k n o n i* (Pirimqul Qodirov). .. *A v a z b e r i b k e t g a n p i - c h o q n i o l d i* (Pirimqul Qodirov). .. *q a l i n o ‘ t b o s g a n s o ‘ q m o q d a n q i s h l o q q a b i r g a q a y t d i l a r* (Hamid G‘ulom). .. *q i p - q i z i l m e v a l a r i p i s h i b y o t g a n o l m a s h o x i g a ..* (Hamid G‘ulom). *H a l i i k k i m i z z o g ‘ o r a y e b t u s h l i k q i l g a n j i y d a t a g i g a o ‘ t i r i b q o l d i m* (O‘tkir Hoshimov). *M e n b u r o l m a g a n t u t q i c h n i a y l a n t i r i s h g a ..* (O‘tkir Hoshimov) kabi;

2) -gan sifatdosh shakliga transformatsiya qilingan gapshakl hollovchi vazifasida kelishi uchun quyidagi shakl hosil qiluvchilar qo‘shilgan (8):

a) o‘rin kelishigi shakli (5): .. *t i k j o y k e l g a n d a y a n a p i y o d a b o ‘ l i b o l d i* (Pirimqul Qodirov). *N o g a h o n q o ‘ l l a r u z i l g a n d a o r q a g a t a s h l a n i b ..* (Oybek) kabi;

b) *sari* (I), *sayin* (I), *keyin* (I) ko‘makchisi (Bu ko‘makchilar kelishik shakli bilan birga qo‘shiladi): .. *k u n o ‘ t g a n s a r i y o v v o y i l a s h i b k e t a y o t g a n q o r a s e r k a ..* (Pirimqul Qodirov). *U o y o g ‘ i m t a g i d a o ‘ r a l a s h g a n s a y i n y u r i s h g a q i y n a l a r d i m* (O‘tkir Hoshimov). *D i - r e k t o r b i r g a k e l i s h g a v a q t t o p o l m a g a n d a n k e - y i n D a v l a t b e k o v o r a g a t u s h d i* (Pirimqul Qodirov);

d) sabab hollovchisi vazifasida kelishi uchun gapshakl tarkibidagi tuslovchi nisbatlovchiga almashtirilgan, keyin bosh kelishik shakli bilan birga uchun ko‘makchisi qo‘shilgan: *U m o l l a r n i n g h a m m a s i s a n - d i q l a r g a j o y l a n g a n i u c h u n .. q a y t a k o ‘ r i s h n i i s t a m a d i* (Oybek). Quyidagi misolda nisbatlovchidan oldin -lik substantiv shakl yasovchisi qo‘shilgan: *N i g o r o p a M e h r i o p a n i n g, A z i z N a f i s a - n i n g k o ‘ n g i l m a y l i n i b i l g a n l i k l a r i u c h u n .. s o v c h i l a r n i t a g ‘ i n k i r i t d i l a r* (Hamid G‘ulom);

e) -gan shaklidagi transforma -cha shakl yasovchisini qo‘shib tarz hollovchisi vazifasida ishlatilgan: *B o s h i m g u v u l l a g a n c h a .. t e m i r h a l q a n i q o q d i m* (O‘tkir Hoshimov);

f) -day affiksoidimi qo'shib o'xshatish hollovchisi vazifasida ishlatilgan: *Turdi t a g i d a n i l o n c h i q q a n d a y s a k r a b t u r i b k e t d i* (Pirimqul Qodirov);

g) to'siqsizlik hollovchisi vazifasida kelishi uchun gapshakl tarkibidagi tuslovchi nisbatlovchiga almashtirilib, so'ngra bosh kelishik shakli bilan birga bilan ko'makchisi qo'shilgan: *U l a r u y l a r i g a b o r g a n i b i l a n h a d e g a n d a u y q u k e l a v e r m a y d i* (Hamid G'ulom).

3) -gan sifatdoshi shaklidagi transforma to'ldiruvchi, ega, kesim vazifasida ham ishlatilgan:

a) Quyidagi misolda vositasiz to'ldiruvchi vazifasida kelishi uchun tuslovchi nisbatlovchiga almashtirilgan va tushum kelishigi affksi qo'shilgan: *Davlatbekov .. O r t i q b i l a n A v a z h a m u n i n g t a r b i y a s i n i o l i b o 's g a n i n i y o 'l b o 'y i m e h m o n n i n g q u l o g ' i g a q u y i b k e l d i* (Pirimqul Qodirov).

b) -gan sifatdoshi shaklidagi transforma ega vazifasida kelishi uchun bosh kelishik shaklida ishlatilgan (2): *Y o h u t o g ' d a g i s e r k a h a m s e n d a n k u l i b y u r g a n i e s i n g g a t u s h d i m i ?* (Pirimqul Qodirov). *U m a r z a k o n c h i o 'z q o 'l i b i l a n r u c h k a s o v g ' a q i l g a n i b o l a n i j u d a y a m s e v i n t i r i b y u b o r d i* (O'tkir Hoshimov).

d) Quyidagi misolda -gan sifatdosh shaklidagi transformaga -lik substantiv shakl yasovchisi qo'shilib, bosh kelishik shaklida kesim vazifasida ishlatilgan: *M a n m a n l i k - x u d o u r g a n l i k* (Oybek).

2. Kesimi hozirgi zamon shaklida ishlatilgan gapshakl transformatsiya qilinganda -yotgan sifatdosh yasovchisiga almashtirilgan (7):

1) Bunday transforma biror shakl yasovchisi qo'shilmagan holda sifatlovchi vazifasida ishlatilgan (2): *.. e r t a g a A n d i j o n d a n d a d a s i b i l a n t o g ' a s i s o v c h i b o ' l i b k e l a y o t g a n y i g i t n i .. o ' y l a r e d i* (Hamid G'ulom). *.. j i y a k l a r i d a n c h a k i l l a b s u v t o m a - y o t g a n d o ' p p i n i q o ' s h q o ' l l a b t u t i b ..* (O'tkir Hoshimov).

2) Bunday transforma hollovchi vazifasida ham ishlatilgan (3):

a) Payt hollovchisi vazifasida kelishi uchun o'ren kelishigi shakli qo'shilgan; tuslovchi esa yo tashlangan, yoki nisbatlovchiga almashtirilgan (2): *H u l k a r .. o l a c h i l v i r n i n g t u g u n i n i y e c h a y o t g a n d a T u r d i h a m y e t i b k e l d i* (Pirimqul Qodirov). *L e k i n A z i z t o ' r g a o ' t a - y o t g a n i d a D i l d o r o g o h l a n t i r d i* (Hamid G'ulom).

b) Sabab hollovchisi vazifasida kelishi uchun tuslovchi nisbatlovchiga almashtirilib, so'ngra chiqish kelishigi affksi qo'shilgan (1): *T o s h k e n t l i k y i g i t .. a s t o y d i l i s h q i l a y o t g a n i d a n j u d a m a m n u n k o ' r i n a r e d i* (Pirimqul Qodirov).

3) Bunday transformani vositasiz to'ldiruvchi vazifasida ishlatish uchun tuslovchi nisbatlovchiga almashtirilgan, so'ngra tushum kelishigi affiksi qo'shilgan (2): *Turdi uni jo'rttaga bo shqa to monga bo shlab ketayotganini Hulkar endi sezdi* (Pirimqul Qodirov). *Chap qo'lim ham sirqillab og'riyotganini endi bildim* (O'tkir Hoshimov).

3. Kesimi kelasi zamon shaklida ishlatilgan gapshakl transformatsiya qilinganda -*digan* sifatdosh yasovchisiga almashtirilib to'g'ridan to'g'ri sifatlovchi vazifasida ishlatilgan (1): *Uning ustidan A v a z n i n g e n i u ch enlik kela digan kamarini bog'lab olgan* (Pirimqul Qodirov).

4. Quyidagi ikki misolda gapshakl tarkibidagi -*di* zamon yasovchisi -*r* sifatdosh yasovchisi bilan transformatsiya qilingan:

1) bo'lishli-bo'lishsiz shakl takrori bilan ifodalanib tarz hollovchisi vazifasida kelgan: *Yer selgir-selgimastraktorni dalaga soldik* (O'tkir Hoshimov);

2) tuslovchi nisbatlovchiga almashtirilib, so'ngra chiqish kelishigi affiksi qo'shib payt hollovchisi vazifasida ishlatilgan: *Tushlik bo'lmasid a n jildini ko'tarib kelib qoladi* (O'tkir Hoshimov).

II. Zamon yasovchisi ravishdosh yasovchisiga almashtirilgan, tuslovchi tashlangan (5):

1) Hozirgi-kelasi zamon yasovchisi -*guncha* ravishdosh yasovchisiga almashtirilib, bunday transforma payt hollovchisi vazifasida ishlatilgan (2): *Men kelguncha shu yerda yot!* (Pirimqul Qodirov). *To paxta ochi l guncha g'o'zaga ishlojni davom ettiramiz* (Hamid G'ulom).

2) O'tgan zamon yasovchisi -*gach* ravishdosh yasovchisiga almashtirilib, bunday transforma payt hollovchisi vazifasida ishlatilgan (2): *Ho vli da ha n g o m a t u g a g a ch .. Nurini .. kattagina xonaga kiritdilar* (Oybek). *Oradan ikki k u n o' t g a ch .. sovchilar chiqdi* (Hamid G'ulom).

3) O'tgan zamon yasovchisi -*b* ravishdosh yasovchisiga almashtirilib, bunday transforma tarz hollovchisi vazifasida ishlatilgan (1): "*Qara n g t o p - t o z a!*" – dedi ovozi titrab (O'tkir Hoshimov).

III. Gapshakl tarkibidagi zamon yasovchisini fe'lning -*sh* otdosh shakliga almashtirib hosil qilingan transformaga bir misol uchradi. Quyidagi jumlada tuslovchi nisbatlovchiga almashtirilib, bosh kelishik shakli va bilan ko'makchisi qo'shib payt hollovchisi vazifasida ishlatilgan: *H o' l, mu z d a y q o'li yuzimga tegishi bilan tag'in lampamoy hidi keldi* (O'tkir Hoshimov).

### **Gapshaklning tashqi-ichki transformatsiyalanishi**

7- §. Bunday transformatsiyalanishda ham gapshaklning kesimida tashqi transformatsiyalanishdagi kabi o'zgartirishlar voqe bo'ladi. Tashqi transformatsiyalanishdan farqli holda ega bo'lakning grammatic shakli ham o'zgartiriladi. Tashqi-ichki transformatsiyalashda gapshakl: a) qaratuvchili birikmaga, b) sifatlovchili birikmaga transformatsiya qilinadi.

### **Gapshaklning qaratuvchili birikmaga transformatsiyalanishi**

8- §. Bunday transformatsiyalashda gapshakl ega bo'lagining bosh kelishik shakli qaratqich kelishigi shakliga, shunga monand ravishda kesim tarkibidagi tuslovchi unga ma'no jihatidan muqobil nisbatlovchiga almashtiriladi; natijada gapshakl qaratuvchili birikmaga aylanadi. Tashqi transformatsiyalashdan farqli holda tashqi-ichki transformatsiyalashda nisbatlovchi transformaning doimiy tarkibiy qismi sifatida qatnashadi. Bunday transformatsiyalangan gapshakl nutqda ma'lum bir grammatic ko'rsatkich qo'shilib turli sintaktik bo'lak vazifasida ishlatiladi.

### **Kesimi ism leksema bilan ifodalangan gapshaklning transformatsiyalanishi**

9- §. Tahsilga jalb qilingan misollar orasida bunday transformatsiyalashga 9ta misol uchradi; bu misollardan 6tasida kesim sifat leksema bilan, 2tasida ot leksema bilan, bittasida olmoshlovchi leksema bilan ifodalangan. Bunday transformalarda qaratuvchi qaratqich kelishigining belgili shaklida ishlatilgan.

1. Gapshaklning sifat leksema bilan ifodalangan kesimiga nisbatlovchidan oldin ko'pincha *-lik* substantiv shakl yasovchisi, *ba'zan ekan* affiksoidi, *bo'l-* yordamchisi qo'shiladi. Ana shunday transforma:

1) bosh kelishik shaklida ega vazifasida ishlatilgan (2): *S e p n i n g b o y l i g i, turi, r a n g - b a r a n g l i g i h a m m a n i h a n g - m a n g etdi* (Oybek). *K i y i m l a r i n i n g d a g ' a l l i g i H u l k a r n i n g y u z i d a g i n a f i s l i k n i y a n a - d a b o ' r t t i r i b k o ' r s a t a r e d i* (Pirimqul Qodirov);

2) tushum kelishigi shaklida vositasiz to'ldiruvchi vazifasida ishlatilgan (2):

a) *ekan* affiksoidi qatnashgan (1): *E r i n i n g k o ' n g l i n o t i n c h e k a n l i g i n i s e z i b ..* (Pirimqul Qodirov);

b) *bo'l-* yordamchisi va *-sh* otdosh shakli qo'shilgan (1): *D a v l a t b e k o v .. o ' z b o ' l i m i n i n g m a s h h u r b o ' l i s h i n i i s t a b ..* (Pirimqul Qodirov);

3) jo'nalish kelishigi shaklida vositali to'ldiruvchi vazifasida ishlatilgan (1): *N a f i s a h u s n - u j a m o l i n i g t e n g s i z l i g i g a s h a k k e l t i r i s h q i y i n* (Hamid G'ulom);

4) chiqish kelishigi shaklida sabab hollovchisi vazifasida ishlatilgan (1): *H u l k a r u n i n g n o r d o n l i g i d a n k o ' z l a r i n i q i s i b , y u z i n i b u r i s h t i r i b k u l a r d i* (Pirimqul Qodirov).

2. Gapshaklning ot leksema bilan ifodalangan kesimida ham yuqoridagi kabi o'zgarishlar voqe bo'ladi. Mana bu ikki transforma tushum kelishigi shaklida vositasiz to'ldiruvchi vazifasida ishlatilgan: *L e k i n u b u n i n g n e c h a n c h i a v t o b u s l i g i n i .. s u r i s h t i r m a d i* (Hamid G'ulom). *H u l k a r u y a l i n q i r a b b u n i n g s u n b u l e k a n i n i a y t d i* (Pirimqul Qodirov).

3. Kesimi olmoshlovchi leksema bilan ifodalangan gapshakl ham yuqoridagicha transformatsiyalanib vositasiz to'ldiruvchi vazifasida ishlatilgan (1); Farqi shuki, fe'lning otdosh shakli bilan ifodalangan qaratuvchi qaratqich kelishigining belgisiz shaklida ishlatilgan: .. *c h a r c h a s h n i m a l i g i n i b i l m a y r o s a y u r d i* (Pirimqul Qodirov).

#### *Kesimi fe'l leksema bilan ifodalangan gapshakllarning transformatsiyalanishi*

**10-** §. Tahlilga jalb qilingan misollar orasida bunday transformatsiyalashga 10ta misol uchradi; bu misollarning 7tasida fe'l kesimning zamon yasovchisi sifatdosh yasovchisiga, 3 misolda esa otdosh shakliga, barchasida tuslovchi nisbatlovchiga almashtirilgan.

1. Gapshakl kesimi tarkibidagi zamon yasovchisi sifatdosh yasovchisiga almashtirilgan:

1) O'tgan zamon yasovchisi -gan sifatdosh yasovchisiga almashtirilgan (6):

a) bosh kelishik shaklida ega vazifasida kelgan (4); qaratuvchi qaratqich kelishigining:

— belgili shaklida qatnashgan (3): *O t t a q a s i n i n g t o s h g a t e g i b q a r s i l l a s h i e s h i t i l d i* (Pirimqul Qodirov). *Shu payt a l l a q a n d a y e r k a k k i s h i n i n g s o'k i n g a n i e s h i t i l d i* (O'tkir Hoshimov) kabi;

— belgisiz shaklida qatnashgan (1): .. *z i r k l a r o r t i d a e c h k i m a' r a g a n i e s h i t i l d i* (Pirimqul Qodirov);

b) tushum kelishigi shaklida vositasiz to'ldiruvchi vazifasida kelgan (3); qaratqich kelishigi:

— belgili shaklida qatnashgan (1): *Xolbek u n i n g n i m a n i d i r y o'q o t g a n i n i sezdi* (Pirimqul Qodirov);

— belgisiz shaklida qatnashgan (2): *A v a z o t l a n i b t u s h i b k e t g a n i n i hammasi ko'rishgandi* (Pirimqul Qodirov). *T r a k t o r d a l a d a q o l g a n i n i aytmasam bo'lmaydi* (O'tkir Hoshimov).

2) Hozirgi zamon yasovchisi -yotgan sifatdosh yasovchisiga almashtirilgan (1); bunday transformaga chiqish kelishigi shaklini qo'shib sabab hollovchisi vazifasida ishlatilgan: *Turdi u n i n g b o s i q g a p i r a y o t g a n i d a n dadillandi* (Pirimqul Qodirov).

2. Gapshakl kesimi tarkibidagi hozirgi-kelasi zamon yasovchisi -sh ot-dosh shakliga almashtirilgan (3); qaratuvchi qaratqich kelishigining belgili shaklida qatnashgan:

I) bosh kelishik shaklida ega vazifasida kelgan (1): *Ammo q a r g' a l a r n i n g c h a g' - ch u g' q i l i s h i endi g'ashga tegmaydi* (O'tkir Hoshimov);

2) tushum kelishigi shaklida vositasiz to'ldiruvchi vazifasida kelgan (2): *H u l k a r n i n g q o' y b o q i s h i n i qiziqib kuzatardi* (Pirimqul Qodirov). *Lekin u b u n i n g n e c h a n c h i a v t o b u s l i g i n i , q a y e r g a o l i b b o r i s h i n i surishtirmadi* (Hamid G'ulom).

### **Gapshaklning sifatlovchili birikmaga transformatsiyalanishi**

**11- §.** Bunday transformatsiyalashda gapshaklning ega bo'lagi orqa o'ringa, sifatlanmish vaziyatiga, kesim bo'lagi esa unga taalluqli bo'laklar bilan birgalikda oldingi o'ringa, sifatlovchi vazifasiga o'tkaziladi. Gapshaklning ega bo'lagi sifatlanmish vaziyatiga o'tkazilishi munosabati bilan kelishik ko'rsatkichi tashlanadi, tugal grammatic shakllanish yo'qoladi. Gapshaklning kesim bo'lagi tarkibidagi tuslovchi tashlanadi, zamon yasovchisi odatda ma'no jihatidan unga muqobil sifatdosh yasovchisiga almashtiriladi va shunday shaklda sifatlovchi bo'lib keladi: *Xolbek boyadan beri o'zini kulgidan zo'rg'a tutib turar edi.* → .. *boyadan beri o'zini kulgidan zo'rg'a tutib turgan Xolbek .. kabi.*

Bunday transformatsiyalangan gapshakl tahlilga jalb qilingan jumlalar orasida 40ta uchradi. Bulardan 39 misolda kesim fe'l leksema bilan, bir misolda sifat leksema bilan ifodalangan.

I. Quyidagi jumlada gapshaklning *dum-dumaloq-* sifat leksemasi bilan ifodalangan kesimi *bo'l-* yordamchisini qo'shib fe'llashtirilgan, o'tgan zamon yasovchisi -gan sifatdosh yasovchisiga almashtirilib, tuslovchi tashlanib sifat-

lovchi vazifasida, transforma esa tushum kelishigi affiksi qo'shilib vositasiz to'ldiruvchi vazifasida ishlatilgan: *O l i m j o n n i n g q o' r q u v d a n d u m - d u m a l o q b o' l i b k e t g a n k o' z l a r i n i .. k o'r d i m* (O'tkir Hoshimov).

II. Kesimi fe'l leksema bilan ifodalangan gapshaklda tuslovchi tashlanib, zamon yasovchisi sifatdosh yasovchisiga almashtirilgan (39);

1. O'tgan zamon yasovchisi -gan sifatdosh yasovchisiga almashtirilgan (26); transformaga:

1) bosh kelishik shakli qo'shilib ega vazifasida ishlatilgan (16):

*K u y o v n i k i d a n k e l g a n s a r p o l a r k e c h a x o t i n l a r o r a s i d a o c h i l i b, ..* (Oybek). *D a l a d a n t o l i b k e l g a n c h o l - k a m p i r, b o l a l a r o r o m u y q u d a* (Hamid G'ulom). *S e r k a v a u n g a e r g a s h g a n s o v l i q l a r d a r r o v o r q a g a q a y t i s h d i* (Pirimqul Qodirov). *D u d b u r o n d a n t u t u n a r a l a s h c h i q q a n c h o' g' q o r o n g ' i d a a n i q k o'r i n d i* (O'tkir Hoshimov) kabi;

2) tushum kelishigi shakli qo'shilib vositasiz to'ldiruvchi vazifasida ishlatilgan (6): *Y o'l c h i .. a c h i s h g a n k o' z l a r i n i i s h q a l a b t u r t i n a t u r t i n a e s h i k n i t o p i b o c h d i* (Oybek). *A v a z p a s t d a y o y i l i b y u r g a n q o' y l a r i n i o'tloq y o n i g a t o'g'r i l a d i - d a, ..* (Pirimqul Qodirov) kabi;

3) chiqish kelishigi affiksi qo'shilib vositali to'ldiruvchi vazifasida ishlatilgan (1); *H a l i s e l g i b u l g u r m a g a n t u p r o q d a n n a m a r a l a s h q u y o s h h i d i a n q i y d i* (O'tkir Hoshimov);

4) jo'nalish kelishigi affiksi qo'shilib o'rin hollovchisi vazifasida ishlatilgan (1): .. *y o' l y o q a l a r i g a q o' y i l g a n m a x s u s q u t i l a r g a s o l a d i l a r* (Hamid G'ulom);

5) qaratqich kelishigi shakli qo'shilib qaratuvchi vazifasida ishlatilgan (2); qaratqich kelishigi:

a) belgili shaklda qatnashgan (1); *T a s h q a r i d a q i s h n i, q o r n i s o g'i n g a n q a r g'a l a r n i n g q a g' i l l a s h l a r i ..* (Oybek);

b) belgisiz shaklda qatnashgan (1): *F o n t a n y a q i n i g a q o'-y i l g a n s t o l y o n i d a g i ..* (Hamid G'ulom);

6) singari ko'makchisini bosh kelishik shakli bilan birga qo'shib o'xshatish hollovchisi vazifasida ishlatilgan (1): .. *i l i q j o y n i q i d i r g a n s h o' r l i k l a r s i n g a r i b i r b u r c h a k k a t i q i l d i* (Oybek).

2. Hozirgi zamon yasovchisi -yotgan sifatdosh yasovchisiga almashtirilgan (7); transformaga:

1) bosh kelishik shakli qo'shilib ega vazifasida ishlatilgan (3): *O t m i n i b q i s h l o q d a n q a y t a y o t g a n A v a z .. jilovni tortdi* (Pirimqul Qodirov) kabi;

2) tushum kelishigi affiksi qo'shilib vositasiz to'ldiruvchi vazifasida ishlatilgan (1): *Ortiq ularga o sh l a n a y o t g a n a y i q t e r i s i n i ko'rsatdi* (Pirimqul Qodirov);

3) jo'nalish kelishigi affiksi qo'shilib vositali to'ldiruvchi vazifasida ishlatilgan (1): *.. u z u n t u m sh u g' i d a n s u v s o ch a y o t g a n g' o z g a .. bir necha daqqa qarab turdi-da, ..* (Hamid G'ulom);

4) qaratqich kelishigi shakli qo'shilib qaratuvchi vazifasida ishlatilgan (2); qaratqich kelishigi:

a) belgili shaklida qatnashgan (1): *Traktor u s t i d a b e z o v t a c h a r x u r a y o t g a n q a r g' a l a r n i n g chag'-chug'i kuchaydi* (O'tkir Hoshimov);

b) belgisiz shaklida ishlatilgan: *I m i l l a b b o r a y o t g a n t r a k-t o r b i q i n i d a g i paqirni oldi-da, ..* (O'tkir Hoshimov).

3. Kelasi zamon yasovchisi -*digan* sifatdosh yasovchisiga almashtirilgan (5); transformaga bosh kelishik shakli qo'shilib ega vazifasida ishlatilgan: *.. t o' y d a, a z a d a s e m i r a d i g a n y u r i m s a k a y o l l a r .. p i y o d a j o 'nashdi* (Oybek). *Q o 'r g ' o n n i n g t i k q a r a l s a d o 'p-p i u c h a d i g a n b a h a y b a t d e v o r l a r i hamon saqlanib qol-gan* (Hamid G'ulom) kabi. Bir misolda sifatlanmish (*odam*) ellipslanib, bosh kelishik shakli transformaning sifatlovchi qismiga qo'shilgan va u ega vazifasida kelgan: *B i r o v l a r n i n g x o t i n i g a t u z o q q o 'y a d i g a n s e n m i s a n ?!* (Pirimqul Qodirov).

4. Bir misolda hozirgi-kelasi zamon yasovchisi -*vchi* sifatdosh yasovchisiga almashtirilgan, transformaga tushum kelishigi affiksi qo'shilib vositasiz to'ldiruvchi vazifasida ishlatilgan: *Keyin q a r i y b b u t u n x o n a n i q o p l o v c h i p a l a k n i ayollar boshlari uzra baland ko'tardilar* (Oybek).

5. Ikki misolda *osilgan* leksemashakli o'rninga *osiqlik* leksemashakli, *atalgan* leksemashakli o'rninga *atoqliq* leksemashakli ishlatilgan (Ikkinchisi noo'rin); transforma:

1) tushum kelishigida shakllanib vositasiz to'ldiruvchi vazifasida kelgan: *Nur i g a a t o q l i q m o l l a r v a h a r n a v j i h o z l a r n i t a s h i s h g a j o 'n a d i l a r* (Oybek);

2) belgisiz qaratqich kelishigi shaklida qaratuvchi vazifasida kelgan: *A y-v o n s h i f t i g a o s i q l i q q a n d i l c h i r o q l a r i shu'lasi d a ..* (Hamid G'ulom).

## SINTAKTİK BO'LAKNING UYUSHIQ QATOR BILAN IFODALANISHI

1- §. Sintaktik bo'lak yakka leksemashakl bilan, yakka birikmashakl bilan ifodalanishdan tashqari o'zaro teng aloqadagi ikki va undan ortiq leksemashakl bilan, birikmashakl bilan ham ifodalanadi. O'zaro teng aloqadagi bunday sintaktik birliklarga uyushiq qator deyiladi. Uyushiq qator hosil etuvchi ikki va undan ortiq a'zo (leksemashakl, birikmashakl) bir butun holda bitta sintaktik bo'lak vazifasida keladi, shunga ko'ra uyushiq qator bilan ifodalangan ega, sifatlovchi va h. haqida gapirish to'g'ri, "uyushiq bo'laklar" terminini ishlatish noo'rin, chunki -lar affixsi "bir necha bo'lak" tushunchasini beradi, vaholanki sintaktik bo'lak bitta, faqat u uyushiq qator bilan ifodalangan.

Uyushiq qator a'zolari talaffuzda sanash ohangi bilan aytilib, o'zaro qisqa pauza (to'xtam) bilan, yozuvda esa tirnoqcha bilan ajratiladi; uyushiq qator a'zolari orasida bog'lovchi qatnashishi mumkin, bunda tirnoqchani yozish-yozmaslik bog'lovchining turiga bog'liq.

Tahlilga jallb qilingan jumlalar tarkibida sintaktik bo'lakning uyushiq qator bilan ifodalanishiga 155 misol uchradi. Uyushiq qator bilan ifodalanish deyarli barcha sintaktik bo'laklarga xos.

### Eganing uyushiq qator bilan ifodalanishi

2- §. Tahlilga jallb qilingan jumlalarda eganing uyushiq qator bilan ifodalanishiga 23 misol uchradi. Bunday uyushiq qator a'zolari bosh kelishik shaklidagi sintaktik birliklarning o'zaro teng qo'shilishi bilan tuziladi. Buning asosiy ko'rinishlari quyidagicha:

1. Uyushiq qator ot leksemashakl bilan ifodalangan (19):

1. Uyushiq qator a'zolari oralig'ida bog'lovchi qatnashmagan (19):

1) Bir xil grammatick shakllangan leksemashakl va birikmashakl bilan ifodalangan (3): *Se p n i n g b o y l i g i, t u r i, r a n g - b a r a n g l i g i h a m m a n i h a n g - m a n g* etdi (Oybek). *D o ' p p i y e l i m i, k e r o s i n h i d i a n g i b t u r g a n s u v m u z d a k k i n a* edi (O'tkir Hoshimov) kabi. Ikkinchisini misoldagi ega — gapshakl transformasi tarkibidagi (ichki) ega.

2) Uyushiq qator a'zolari grammatick son paradigmaсиниң har xil shaklidagi leksemashakl va birikmashakl bilan ifodalangan (3): *K a m b a g ' a l u r u g ' - a y m o q, q o ' n i - q o ' s h n i l a r, t o ' y d a, a z a d a s e m i r a d i g a n y u r i m s a k a y o l l a r .. piyoda jo'nashdi* (Oybek). *Azizning ko'z o'ngida brigada shiyponi, lotok-ariq, yangi bog', qiyg'os ochilib yotgan atirgullar, rayhonlar, to'p-to'p jambillar jonlandi* (Hamid G'ulom) kabi. Bu jumlalarda

uyushiq qatorning ayrim a'zolari birlik shaklida, ayrim a'zolari ko'plik shaklida ishlataligan.

3) Uyushiq qator a'zolarining grammatik shakli umumlashtirilgan (1): *Axir b i-n a f sh a, ch u ch m o m a, l o l a l a r .. ochilib, yashnab yotadi* (Hamid G'ulom). Bu misolda -lar ko'plik affiksi, demak, undan keyin keladigan bosh kelishik shakli ham umumlashtirilib, go'yo qavslardan tashqariga chiqarilgan, uyushiq qatorga yaxlitligicha qo'shilgan, uyushiq qator a'zolari esa go'yo leksemaga teng asos holatiga o'tgan. Buni qavslar yordamida quyidagicha ko'rsatish mumkin: [(*binafsha-*), (*chuchmoma-*), (*lola-*)] + *lar* + ØII.

2. Uyushiq qator a'zolari oralig'ida bog'lovchi qatnashgan (10):

1) va bog'lovchisi qatnashgan (b):

a) ikki a'zoli qatorda ishlatilgan (4):

– leksemashakllar uyushgan (3): *Q o r v a s h a m o l kuchaya bordi* (Oybek).

*Oqshom esa o n a v a o'g' i l Nafisa haqida uzoq suhbatlashdilar* (Hamid G'ulom) kabi;

– juft leksemashakl va birikmashakl uyushgan (I): *Boshqa uylarda q a r i n-d o sh - u r u g' l a r v a .. t u r l i x o t i n l a r b o r e d i* (Oybek).

b) Ko'p a'zoli qatorda oxirgi a'zo oldida ishlatilib, sanashning tugashini ifodalashga ham xizmat qilgan; a'zolar leksemashakl hamda birikmashakl bilan ifodalangan va ular bir xil grammatik shakllangan (2): *Uyning devorlaridan n a m, m o g' o r h i d i v a s o v u q esadi* (Oybek). *Bu ko'zlarda t u y g' u n l i k, o l i j a n o b-l i k, ko'n g i l n i n g b a h o r i y t o z a l i g i, i l i q l i g i v a q a n d a y-d i r p a r i s h o n x a y o l c h a n l i k j i l v a l a n a r e d i* (Oybek).

2) bilan ko'makchisi bog'lovchi vazifasida ikki a'zoli qatorda ishlatilgan (4):

a) Leksemashakllar uyushgan (3): *A z i z b i l a n N a f i s a m a-k tabda birga o'qishgan* (Hamid G'ulom). *Q i z i, k e l i n l a r i b i l a n L u t f i n i s o o'tirgan oldingi soyabonli aravani ..* (Oybek) kabi. Ikkinchini jumladagi ega – gapshakl transformasi tarkibidagi (ichki) ega.

b) Leksemashakl bilan birikmashakl uyushgan (1): *T o sh k e n t l i k y i g i t b i l a n D a v l a t b e k o v .. qaytib ketishdi* (Pirimqul Qodirov).

3. Uyushiq qator a'zolari *ham ta'kid* yuklamasi bilan ishlatilgan (1). Quyidagi jumlada uyushiq qatorning birinchi a'zosi grammatik son paradigma-sining birlik shaklida, ikkinchi a'zosi esa ko'plik shaklida qatnashgan: *S e-r-k a h a m, q o' y l a r h a m cho'ponning izmiga tez bo'ysunadi* (Pirimqul Qodirov).

4. Bir misolda uyushiq qator oxirida umumlashtiruvchi leksemashakl ishlatilgan; uyushiq qator a'zolari grammatik son paradigma-sining birlik va ko'p-

lik shakllarida qatnashgan: *Q o r o n g' i d a - s o' p p a y i b t u r g a n t r a k t o r, m u t t a s i l c h a g' - c h u g' q i l a y o t g a n q a r g' a l a r, o s m o n d a z a n g o r i q i l i c h d e k y a l t - y u l t q i l i b o' c h a y o t g a n c h a q m o q - h a m m a s i g' o y i b b o' l d i* (O'tkir Hoshimov).

II. Bir misolda tasvir birliklari uyushib kelgan: *Q i y - c h u v, c h a g' i r - c h u g' u r q u l o q n i k a r q i l a d i* (Oybek).

III. Uyushiq qator otlashgan birikmashakl bilan ifodalangan (3):

1. Rasm-rusum nomlari otlashib uyushiq qator hosil qilgan (1): "S o c h s i l a s h", "O y n a g a q a r a s h", "T u g' d i - t u g' d i" v a h o k a z o q a r i y b t o n g g a q a d a r e r m a k b o' l d i (Oybek).

2. Qaratuvchili birikmaga transformatsiya qilingan gapshakl -gan sisat-doshi shaklida otlashib. uyushiq qator hosil qilgan (2): *Sh u p a y t a l l a q a n d a y e r k a k k i s h i n i n g .. s o' k i n g a n i, O l i m j o n n i n g "Q o' y v o r i n g" d e b y a l i n g a n i e s h i t i l d i* (O'tkir Hoshimov). .. *u n i n g h o v l i t o m o n g a g u p e t i b t u s h g a n i, .. u y t o m o n g a b o r g a n i, "K e n n o y i l!" d e b c h a q i r g a n i e s h i t i l d i* (O'tkir Hoshimov).

### Sifatlovchining uyushiq qator bilan ifodalananishi

3- §. Tahliliga jalb qilingan jumlalarda sifatlovchining uyushiq qator bilan ifodalanishiga 16 misol uchradi:

I. Uyushiq qator sifat leksemashakllar bilan ifodalangan (8):

1. Ikki a'zoli bo'lib (6):

1) bog'lovchi vosita qatnashmagan (3): .. *y a p - y a n g i, u z u n q o g ' o z a q c h a s i n i ..* (Oybek). .. *o g' i r, sh a h d a m q a d a m l a r b i l a n ..* (O'tkir Hoshimov) kabi. Ketma-ket joylashgan ikki sifat leksemashakl doim uyushiq qator hosil qilavermaydi. Buni aniqlashda quyidagi amaliy usuldan foydalanish mumkin: uyushiq qator bo'lsa, bunday sifatlovchilarni o'zar o'rin almashtirish imkoniyati bo'ladi: *yap-yangi, uzun aqchani → uzun, yap-yangi aqchani* kabi (ayni predmetning teng deb qaralgan ikki belgisi). *Og'ir, shahdam qadamlar bilan* misolida ikki belgi orasidagi teng aloqa zidlash bilan (*og'ir, lekin shahdam* kabi) ifodalangan.

Yozuvda ba'zan uyushiq bo'Imagan sifatlovchilar oralig'iga tirmoqcha qo'yilib, ular uyushiq qatorga tenglashtirib qo'yiladi. Masalan, *Mirzakarimboy h a y a j o n l i, t i t r o q t o v u s h b i l a n q i z i g a f o t i h a b e r i b, ..* (Oybek) jumlasida ketma-ket kelgan sifat leksemashakllar asli uyushiq qator hosil qilmaydi, ularning *tovush bilan* leksemashakliga bog'lanishi tamoman bosh-qacha: [(*hayajonli*) X (*titroq tovush-*)] + ØI + ØII + *bilan*. Demak, *hayajonli*

leksemashakli *titroq tovush-* birikmasiga sifatlovchi bo'lib kelgan, tirnoqcha noo'rin (ortiqcha) qo'yilgan. *Yuzimga i l i q, y i r i k t o m ch i tushdi* (O'tkir Hoshimov) jumlasida ham asli sintaktik aloqa quyidagicha (*iliq*) X (*yirik tomchi-*):

2) bog'lovchi vosita qatnashgan (3):

a) va bog'lovchisi (2): *Kuyov u z u n v a k e n g z a r b o b t o ' n k i y i b .. (Oybek). .. s o c h d a y q o p - q o r a v a m a y i n .. t o l a l a r .. (Pirimqul Qodirov)*. Ikkinchisida misolda asli gapshakl (*Tolalar sochday qop-qora va mayin*) sifatlovchili birikmaga transformatsiya qilingan:

b) *hatto ta'kid yuklamasi qatnashgan* (I): *U Hulkarga j u d a m a y i n, h a t t o m e h r i b o n tovush bilan gapirar edi* (Pirimqul Qodirov).

2. Uyushiq qator uch a'zoli bo'lib, ular oralig'ida bog'lovchi vosita qatnashmagan (2): *Kuyov tomonda o r i q, d a r o z, c h a y i r b i r x o t i n b e l b o g ' l a d i* (Oybek). Mana bu misolda ikkinchi timoqcha ortiqcha qo'yilib, ikki a'zoli uyushiq qator uch a'zoli uyushiq qatorga o'xshab qolgan: *Boshqa uylarda t o ' y p a r a s t, d a y d i, t u r l i x o t i n l a r b o r e d i* (Oybek). Asli bu yerdagi sintaktik bog'lanish quyidagicha: (*to'yparast, daydi*) X (*turli xotinlar*).

II. Uyushiq qator mato turi ma'nosini anglatadigan ot leksemalar bilan ifodalangan (1). Quyidagi jumlada bunday ma'noli ot leksema sifatlovchi olib, *ko'rpani* leksemashakliga uyushiq birikmashakllar sifatida tobelangan; bu uyushiq birikmashakllar oralig'ida va bog'lovchisi qatnashgan: .. *t o ' q q i z d u x o b a v a t o ' q q i z h a r n a v sh o h i k o ' r p a n i t o m o s h a q i l d i* (Oybek).

III. Uyushiq qator sifatdosh shaklidagi fe'l birikmashakllar, transformatsiyalangan gapshakllar bilan ifodalangan (5):

I. Ikki a'zoli bo'lib (4):

1) bog'lovchi vosita qatnashmagan (2):

a) yoyiq birikmashakllar bilan ifodalangan (1): *Q i s h i n - y o z i n b a h o r d a g i d a y y a s h n a b t u r a d i g a n, h a m i s h a c h a s h m a n i n g sh o ' x t o m c h i l a r i b i l a n o ' y n a s h i b o ' s a d i g a n b u c h i r o y l i g i - y o h - sunbul* (Pirimqul Qodirov);

b) tashqi transformatsiyalangan gapshakllar bilan ifodalangan (1): *e t a k l a r i g ' i j i m l a n g a n, r a n g i a y n i g u n c h i t k o ' y l a k ..* (Oybek);

2) va bog'lovchisi qatnashgan (2): *O' r t a m a k t a b n i a ' l o b a h o l a r b i l a n t a m o m l a g a n v a s h u m a k t a b d a m u a l l i m l i k k a q o l d i r i l g a n Nafisa ..* (Hamid G'ulom). .. *k o ' p d a n b e r i x a y o l i n i b a n d q i l i b k e l g a n v a n i h o y a t b u g u n, sh u o q s h o m h a q i - q a t g a a y l a n i s h i e h t i m o l b o ' l g a n o r z u s i h a q i d a ..* (Hamid G'ulom).

2. Mana bu jumladagi uyushiq qator uch a'zoli bo'lib, leksemashakl bilan ifodalangan, bog'lovchi vosita qatnashmagan (1): *Dildor u avval ko'rigan, tanigan, bilgan Dildor emas* (Hamid G'ulom).

IV. Uyushiq qator sifat leksemashakl, sifat birikmashakl bilan hamda sifatdosh shaklidagi leksemashakl, birikmashakl bilan — aralash holda ifodalangan (2): *Chuvak yuzli, siyrak sarg'i sh mo'ylovi, irjagan quvgina yigitga bir oz tikidi-da,..* (Oybek). *Bobosiga mehribon, ota-onasining hurmatini joyiga qo'yadi gan, ukalarining tarbiyasiga bo'sh-qo'sh, o'tamehribon, erta-yukech tinib-tinchimaydi-gan qiz* (Hamid G'ulom).

### **Qaratuvchining uyushiq qator bilan ifodalanishi**

4- §. Qaratuvchining uyushiq qator bilan ifodalanishiga tahlilga jalb qilingan jumlalar orasida faqat 3 misol uchradi. Bu uch misolda qaratuvchining uyushiq qator bilan ifodalanishiga xos quyidagi xususiyatlar o'z ak-sini topgan:

1) *To'rt karnay, olti surnayning shovqini ko'kni tutdi* (Oybek). Bu jumlada uyushiq qator sifatlovchili birikmashakllar bilan ifodalangan; qaratqich kelishigi affksi uyushiq qatorga yaxlitligicha qo'shilgan; bu affiks umumlashtiruvchi shakl yasovchi holatida qatnashgan, go'yo qavslardan tashqariga chiqarilgan, birlik son ko'rsatkichi esa har bir uyushuvchining o'zida saqlangan: [(*to'rt karnay* + ØI -), (*olti surnay* + ØI-)] + *ning*. Kelishik affiksining bunday umumlashtirilishi bilan uyushiq qator a'zolari asli kelishikdan xoli, tugallanmagan grammatik shaklda bo'ladi, lekin tashqi ko'rinishda bosh kelishik shaklida turgandek ko'rinishda.

2) *Kuyov ... havoni titratgan karnaylar, surnaylar sadosi bilan o'zinikiga ketdi* (Oybek). Bu jumlada uyushiq qator sifatlovchili birikmashakllar bilan ifodalangan; qaratqich kelishigi belgisiz shaklda ishlatilgan va uyushiq qatorga yaxlitligicha qo'shilgan: {(*(havoni titratgan*) X (*karnaylar-*, *surnaylar-*)} + {*ning*} X *sadosi bilan*. Demak, bu misolda ham uyushiq qator a'zolari to'liq grammatik shakllanmagan, go'yo asosga teng holatda qatnashgan.

3) .. *Hulkar bilan Avazni qo'yilar va tog' manzaralari orasida .. suvratga oldi* (Pirimqul Qodirov). Bu jumlada uyushiq qatorning birinchi a'zosi leksema bilan, ikkinchi a'zosi qaratuvchili birikma bilan ifodalangan, ular oralig'ida *va* bog'lovchisi qatnashgan; har ikki a'zo ko'plik shaklida ishlatilgan; ikkinchi a'zoning qaralmishiga III shaxs nisbatlovchisi qo'shilgan; uyushiq qator yaxlitligicha qaratqich kelishigining belgisiz shak-

lida *orasida* leksemashakliga bog'langan: {{(*go'ylar-*) va (*tog' manzaralari-*)} + | *ning*} X {*orasida*}.

### To'ldiruvchining uyushiq qator bilan ifodalanishi

5- §. Tahlilga jalg qilingan jumlalarda to'ldiruvchining uyushiq qator bilan ifodalanishiga 10 misol uchradi; 4 misolda vositasiz to'ldiruvchi, 6 misolda vositali to'ldiruvchi uyushiq qator bilan ifodalangan.

1. Uyushiq qator bilan ifodalangan vositasiz to'ldiruvchi tushum kelishigining:

I) belgili shaklida ishlatilgan (4); kelishik affksi uyushiq qator a'zolariga:

a) alohida-alohida qo'shilgan (3): uyushiq qator:

— leksemashakllar bilan ifodalangan (1): .. *t r a k t o r n i, k o m b a y n n i puxta o'rganib oldi* (Hamid G'ulom);

— sifatlovchili birikmashakllar bilan, gapshaklning tashqi transformasi bilan ifodalangan; uyushiq qator a'zolari oralig'ida va bog'lovchisi qatnashgan (1): *Keyin a y i q o t i l g a n u n g u r n i v a s e l k e l g a n d a r a n i b o r i b k o'r d i* (Pirimqul Qodirov);

— uyushiq qator ikkitadan ortiq a'zoli bo'lib, uyushiq to'ldiruvchilar tar-kibidagi sifatlovchilar gapshakl transformasi bilan, yig'iq va yoyiq birikma-shakllar bilan ifodalangan (1): *Qiz d o m l a n i n g "o't k i r n a f a s i" t e k k a n b i r s i q i m c h o y n i, r o'm o l c h a g a t u g i l g a n q a n d n i, g o' sh a n g a d a k i y i l a d i g a n y u p q a o q k o'y l a k n i .. v a b i r p a r c h a q o g'o z n i n g y u z i g a .. y o z i l g a n .. "e z i b i c h k i" n i b i r g a q o'sh i b, ..* (Oybek);

b) umumlashtiruvchi affiks sifatida yaxlitligicha qo'shilgan (1): *Oxirida u Hul kar b i l a n A v a z n i .. i k k i q a y t a s u v r a t g a o l d i* (Pirimqul Qodirov). Bu jumlada uyushiq qator a'zolari oralig'ida bilan ko'makchisi bog'lovchi vazifasida qatnashgan: [(*Hul kar* + ØI-) bilan (*Avaz* + ØI-)] + ni.

2) Uyushiq qator belgisiz tushum kelishigida ishlatilgan (1): .. *so'qmoqda s i m o b i c h a k m o n v a q o'zi t e l p a k k i y g a n T u r d i k o'r d i n i* (Pirimqul Qodirov). Bu jumlada uyushiq qator a'zolari sifatlovchili birikma bilan ifodalaniib, ular oralig'ida va bog'lovchisi qatnashgan; tushum kelishigi shakli uyushiq qatorga bir butun holda yaxlitlovchi shakl sifatida qo'shilgan; {{(*simobi chakmon* + ØI-) va (*go'zi telpak* + ØI-)} + |ni|} X {*kiy-gan*}.

Yuqoridagi tahlildan ayon bo'ladiki, uyushiq qator bilan ifodalangan vositasiz to'ldiruvchi asosan tushum kelishigining belgili shaklida ishlatiladi.

2. Uyushiq qator bilan ifodalangan vositali to'ldiruvchi (6):

1) makon kelishigida shakllangan (2):

a) chiqish kelishigida shakllanib, leksema bilan ifodalangan; kelishik shakli uch a'zoning har biriga qo'shilgan (1): *Inson baxtini m e h n a t i-d a n, i l m i d a n, h a r a k a t i d a n topadi* (Hamid G'ulom);

b) jo'nalish kelishigida shakllanib, birikma bilan ifodalangan; kelishik shakli uch a'zoning har biriga qo'shilgan; oxirgi a'zodan oldin va bog'lovchisi qatnashgan (1): .. u n i n g s e r j a n t l i k b e l g i l a r i g a, k o' k-r a g i d a g i g v a r d i y a n i s h o n i g a v a q a t o r z n a c h o k-l a r i g a havas bilan tikilardi (Hamid G'ulom). Bu jumladagi uyushiq qatorning birinchi va uchinchi a'zosi ko'plik shaklida, ikkinchi a'zosi birlik shaklida ishlatilgan;

2) yaxlitlovchi shakl sifatida qo'shilgan ko'makchi bilan shakllangan (4):

a) bilan ko'makchisi qatnashgan (3): uyushiq qator a'zolari ko'plik shaklida, nisbatlovchi qo'shilgan holda kelgan, oralig'ida bog'lovchi qatnashman: .. x o t i n l a r .. r o' m o l l a r i, q o'l l a r i b i l a n y u z l a r i n i y a s h-i r a r d i l a r (Oybek);

b) uyushiq qatorning birinchi a'zosi birlik shaklida, ikkinchi a'zosi ko'plik shaklida ishlatilgan, oralig'ida va bog'lovchisi qatnashgan (1): *Aziz o n a s i v a d o' s t l a r i b i l a n .. k o'c h i b k e t g a n e d i* (Hamid G'ulom);

d) uyushiq qator ko'p a'zoli bo'lib, birlik shaklida, faqat bir a'zo ko'plik shaklida ishlatilgan, oxirgi a'zo oldida va bog'lovchisi hamda *hatto ta'kid yuklamasi* qatnashgan (1): *Dildor .. — o'z e r k i, i r o d a s i, m a q s a-d i, h a t t o j a s o r a t i b i l a n m u s t a q i l i n s o n!* (Hamid G'ulom);

e) *haqida* ko'makchisi qatnashgan (1): uyushiq qatorning birinchi a'zosi leksema bilan, ikkinchi a'zosi o'z ichida uyushiq qatorli birikma bilan ifodalangan va bu qismda *haqida* ko'makchisi yaxlitlovchi shakl sifatida ishlatilgan: *U o'g'li haqida, u n i u y l a n t i r i s h o r z u s i v a k e l i n-l i k k a N a f i s a n i t a n l a g a n i h a q i d a o g'iz ochganida ..* (Hamid G'ulom).

Uyushiq qator bilan ifodalangan to'ldiruvchining shakllanishi bu yerda tasvirlanganidan ko'ra boy va rang-barang; tahlil qilingan jumlalarda bir qismi-gina namoyon bo'lgan.

### Hollovchining uyushiq qator bilan ifodalaniishi

6- §. Tahvilga jalb qilingan jumlalarda hollovchining uyushiq qator bilan ifodalaniishiga 9 misol uchradi:

1. Asosan tarz hollovchisi uyushiq qator bilan ifodalangan (8):

1) -b ravishdoshi shaklida uyushib kelgan (6):

a) leksema bilan ifodalangan (1): *Lutfiniso i n q i l l a b, h a r s i l-l a b q i z i n i o l i b j o'nashga kirishdi* (Oybek);

b) birkmashakl bilan ifodalangan (5): *Uning nurlarida qishni niga po yonsiz oqko'rpasi mayda oltin uchqunlatib, hamma yoqni jumjilik bilan o'rabi yotardi* (Oybek). *Nuri pochapostin kiyib, vazmin zarbob paranjini yopinib* (Oybek) kabi. Keyingi misolda hollovchi uyushib kelayotganini qavslar yordamida quyidagicha ko'rsatish mumkin: [(*pochapo'stin kiyib*), (*vazmin zarbob paranjini yopinib*)] X [*hovliga chiqqanda*]; bu uyushiq qatorni quyidagicha transformatsiya qilib ham tekshirish mumkin: *pochapo'stin kiygan, .. paranj yopingan holda;*

2) Uyushiq qator aralash: birinchi a'zosi -ma bo'lishsizlik shaklidan keyin qo'shiladigan -y ravishdoshi shaklida, ikkinchi a'zosi esa bilan ko'makchisi qo'shilgan ot leksema shaklida qatnashgan, zidlab izohlash ma'nosini ifodalash uchun *lekin bog'lovchisi ishlatalgan* (1): *Qo'r qmaya, lekin ito at bilan gapirdi Gulnor* (Oybek).

3) Uyushiq qator ravish va sifat leksemashakl bilan ifodalangan, orada va bog'lovchisi qatnashgan (I): .. o'zini judda bexavotir va osuda sezayotgan *Hulkar*.. (Pirimqul Qodirov).

2. O'rIN hollovchisining uyushiq qator bilan ifodalanishiga bir misol uchradi. Quyidagi jumlada qaratuvchili birikma va ot leksema jo'nalish kelishigi shaklida uyushiq qator hosil qilib, o'rIN hollovchisi vazifasida kelgan; uyushiq qatorniig birinchi a'zosi birlik shaklida nisbatlovchi bilan, ikkinchi a'zosi esa ko'plik shaklida ishlatalgan: *Hovli sahniga, ayvonlariga sep yoyildi* (Oybek).

Uyushiq qator bilan ifodalanadigan hollovchilarning shakllanishi boy va rang-barang bo'lib, tahlilga jalb qilingan jumlalarda bir qismi-gina namoyon bo'lган.

### Kesimning uyushiq qator bilan ifodalanishi

7- §. Kesimning uyushiq qator bilan ifodalanishi nutqda juda ko'p voqe bo'ladi: tahlilga jalb qilingan jumlalar orasida 94 misol uchradi. Shulardan 87 misol fe'l kesimga, 4 misol sifat, ravish kesimga, 2 misol ot kesimga to'g'ri keldi; bir misolda sifat bilan fe'l uyushiq qator hosil qilgan.

I. Sifat bilan ifodalangan uyushiq qatorga (4) yaxlitligicha:

1) hozirgi zamon ko'rsatkichi va III shaxs tuslovchisi qo'shilgan; sifat leksemashakllar oraliq'ida bog'lovchi vosita qatnashmagan (2): *Suvi toza, muzday* (O'tkir Hoshimov). *Faqat guzardagi choyxona-gina charog'on, gavjuym* (Hamid G'ulom). Bunday shakllanishni qavslar yordamida quyidagicha ko'rsatish mumkin: [*Suvi*] X [(*toza, muzday*) + ØVIII + ØVI].

2) *bo'l-* yordamchisi, *-di* o'tgan zamon yasovchisi, III shaxs tuslovchisi qo'shilgan; sifat leksemashakllar oralig'ida *va bog'lovchisi* qatnashgan (1): *Nikoh to'yi favqulodda suronli va tantanali bo'ldi* (Oybek). Bunday shakllanishni qavslar yordamida quyidagicha ko'rsatish mumkin: {*Nikoh to'yi*} X {*favqulodda* X [(*suronli* va *tantanali*) + *bo'l* + *di* + ØVI]}.

3) *ekan* affiksoidi qo'shilgan, uyushiq qator a'zolari gapga teng qurilishli frazemalar bilan ifodalangan, oralig'ida *bog'lovchi* vosita qatnashmagan (1): *Demak, qalbi sayoz, tabiatyengil*.. (Hamid G'ulom). Bunday ifodalanishni qavslar yordamida quyidagicha ko'rsatish mumkin: [(*qalbi sayoz*), (*tabiatyengil*)] + *ekan* + Ø VI.

2. Ot bilan ifodalangan kesim quyidagicha uyushiq qator hosil qilgan (2):

I) birlik, bosh kelishik shaklidagi sifatlovchili birikmashakl bilan ifodalangan birinchi a'zoga *emas* inkor affiksoidi qo'shilgan; yoyiq birikmashakl bilan ifodalangan ikkinchi a'zo *balki* yuklamasi bilan boshlanib, qat'iy tasdiq ma'nosini ifodalash uchun yozuvda oxiriga undov alomati qo'yilgan (1): [*Dildor jonsarak qiz emas, balki mustaqilinson!*] (Hamid G'ulom). Uyushiq qatorga bir butun holda hozirgi zamon shakli ko'rsatkichi va III shaxs tuslovchisi qo'shilgan: {[*(jonsarak qiz)* + *emas*], [*balki* .. *mustaqilinson*]}) + Ø VIII + Ø VI.

2) Quyidagi jumlada uyushiq qatorning birinchi a'zosi birlik, bosh kelishik shaklidagi ot leksemashakl bilan ifodalanib, *faqat*, *-gina* yuklamalari va *emas* affiksoidi bilan shakllangan; ta'kidni kuchaytirish uchun ega bo'lak (*binafsha*) ikkinchi a'zo oldida takroran ishlatalgan, uyushiq qatorning bu a'zosi tarkibida qaratuvchili birikmashakllar birlik, bosh kelishik shaklida uyushib kelgan; uyushiq qatorga bir butun holda hozirgi zamon ko'rsatkichi va III shaxs tuslovchisi qo'shilgan: ..*Binafsha faqat gul-gina emas, binafsha - nazokat, nafosatramzi, insondilining muattataratri, Azizaka!* (Hamid G'ulom).

3. Bir jumlada sifat birikma bilan fe'l birikma uyushiq qator hosil qilgan; birinchi a'zo *bo'l-* yordamchisi bilan fe'llashtirilgan, har ikki a'zoga hozirgi-kelasi zamon (umumzamon) va III shaxc ko'pligi affikslari qo'shilgan: *Bunaqa qizlar erlariga mehribon boladilar, o'ilalarini yashnatadilar* (Hamid G'ulom).

8- §. Fe'l kesimning uyushiq qator bilan ifodalanishi nutqda eng ko'p uchraydi (87):

I. Uyushiq qator *-di* aniq yaqin o'tgan zamon shaklida ishlatalgan (58):

1. Uyushiq qatorning barcha a'zolariga shu zamon yasovchisi qo'shilgan (26):

1) Uyushiq qator ikki a'zodan iborat (21):

a) Ular oralig'ida bog'lovchi vosita qatnashmagan (3): *Tashgari hovlida hamma uylarni y i g' i sh t i r d i m, ko'rpachalarni hovliga olib chiqib q o q d i m* (Oybek). *Aziz ertasi kun mактабга b o r d i, Nafisan i k o' r d i* (Hamid G'ulom) kabi;

b) Ular oralig'ida bog'lovchi vosiga qatnashgan (18):

— va bog'lovchisi (5): *Gulnor tanchaga suyanib ch o' q q a y d i va so'zini d a v o m e t t i r d i* (Oybek). *U .. binafshalardan besh-oltitasini saralab u z d i va dastalab Azizga u z a t d i* (Hamid G'ulom) kabi;

— -da yuklamasi qatnashgan (7): *Soqolli kampir pulni hayajon bilan kissasiga u r d i - d a, Nurining yuzini o ch d i* (Oybak). *Aziz eshik oldida bir nafas i k k i l a n i b t u r d i - d a, qizil tugmani b o s d i* (Hamid G'ulom) kabi;

— -yu yuklamasi qatnashgan (4): *Turdi undan tezroq chopib katta archan i a y l a n i b o' t d i - y u, Hulkarning qarshisidan ch i q d i* (Pirimqul Qodirov). *.. quyosh qontalash nur sachratib bir zum o s i l i b t u r d i - y u, usq ortiga d u m a l a b k e t d i* (O'tkir Hoshimov) kabi;

— ham ta'kid yuklamasi uyushiq qatorning ikkinchi a'zosidan keyin qatnashgan (1): *Dildor uning ketidan ch i q m a d i, eshikni y o p m a d i ham* (Hamid G'ulom);

— lekin bog'lovchisi uyushiq qatorning ikkinchi a'zosi oldida qatnashgan (1): *..bolalar ikki yerda yo'l tutishga t i r i sh d i l a r, lekin e p l a y o l m a d i l a r* (Oybek).

2) Uyushiq qator uch a'zodan iborat (5):

a) Ular oralig'ida bog'lovchi vosita qatnashmagan (1): *Ana shunda Aziz .. Nafisaning yo'lini p o y l a d i, u ch r a sh d i, s o'z l a sh d i* (Hamid G'ulom);

b) Ular oralig'ida bog'lovchi vosita qatnashgan (4): birinchi a'zodan keyin -da yuklamasi, ikkinchi va uchinchi a'zolar oralig'ida va bog'lovchisi ishlataligan: *.. quvgina yigitga biroz t i k i l d i - d a, boshini asta q u y i s o l d i va ichida x o' r s i n d i* (Oybek). *Aziz binafshani to'yib h i d l a d i - y u, avaylab cho'ntagiga s o l d i va avtobusga chiqdi* (Hamid G'ulom) kabi.

2. Uyushiq qator a'zolaridan biri -b ravishdoshi shaklida, boshqalari -di aniq yaqin o'tgan zamon shaklida ishlataligan (32):

1) Uyushiq qator ikki a'zodan iborat bo'lib (27), ikkinchi (oxirgi) a'zo -di zamon yasovchisiga tuslovchi qo'shilgan holda shakllangan; birinchi a'zo esa -b ravishdosh yasovchisi shaklida ishlataligan; bu ravishdosh yasovchisi bilan ikkinchi a'zoda ifodalangan zamon, shaxs-son kabi ma'nolar "yashirilgan", natijada birinchi a'zoda ikkinchi a'zoga bog'liqlik yuzaga kelgan: birin-

chi a'zoning zamon va shaxs-son kabi ma'nosi ikkinchi a'zo asosida belgila-nadigan bo'lgan: .. *qishloq xalqi e r t a yo t i b, e r t a t u r a d i* (Hamid G'ulom). *Hulkar qo'ylarni t o' p q i l i b, yana bir q a r a b ch i q d i* (Pirimqul Qodirov). *Allaqayoqqa b o r i b, hozir k e l d i n g i z - k u* (Oybek). *Darvozaning tirqishidan yana m o' r a l a b, qorong'ida hech narsani k o' r o l m a d i m* (O'tkir Hoshimov) kabi.

## 2) Uyushiq qator uch a'zodan iborat bo'lib (5):

a) har uch a'zoga -di zamon yasovchisi qo'shilgan (1); ikkinchi a'zo oxirida -yu yuklamasi qatnashgan: *Hulkar avval bir ch o' ch i d i, keyin Xolbekni ko'rib j i l m a y i b q o' y d i - y u, serkasining ketidan ch o-p i b k e t d i* (Pirimqul Qodirov);

b) birinchi a'zoga -b ravishdosh yasovchisi, ikkinchi, uchinchi a'zoga -di zamon yasovchisi qo'shilgan (2); ikkinchi a'zo oxirida:

— -da yuklamasi qatnashgan (1); *Kuyov bir qo'li bilan uning belidan q u ch i b, ikkinchi qo'li bilan ro'molini k o' t a r d i - d a, sh i v i r l a-d i ..* (Oybek);

— -yu yuklamasi qatnashgan (1): *Avaz otni yetaklab kelib, xurjunni egarga t a sh l a d i - y u, Hulkarga boshdan oyoq bir q a r a b o l d i* (Pirimqul Qodirov);

d) ikkinchi a'zoga -b ravishdosh yasovchisi, birinchi, uchinchi a'zoga -di zamon yasovchisi qo'shilgan (2):

— birinchi, ikkinchi a'zo oralig'ida va bog'lovchisi qatnashgan (1): "Pi-choq bizda ham bor!" — d e d i va kesik chilvirni o t i b t a sh l a b, belini p a y p a s l a d i (Pirimqul Qodirov);

— ikkinchi a'zo boshlanishida lekin bog'lovchisi qatnashgan (I): *Turdi g a n d i r a k l a b k e t d i, lekin darrov o'z i n i o' n g l a b, Xolbekning yuziga qulochkashlab bir m u sh t u r d i* (Pirimqul Qodirov).

## II. Uyushiq qator quyidagi zamon shakllarida ham ishlatilgan (29):

### 1. O'tgan zamon shakllarida (15):

#### 1) -gan aniq old o'tgan zamon shaklida (2):

a) Uyushiq qatorning har uch a'zosi -gan zamon yasovchisi shaklida III shaxs tuslovchisi bilan ishlatilgan (7): *Aziz bilan Nafisa maktabda birda o' q i sh g a n, birga d a r s t a y yo r l a sh g a n, imtihonlarni ham birga t o p sh i r i sh g a n* (Hamid G'ulom);

b) Uyushiq qatorning birinchi a'zosi zamon ma'nosini (shuningdek shaxs-son ma'nosini ham) ifodalama maydigan -b ravishdoshi shaklida, ikkinchi a'zosi -gan zamon yasovchisi va III shaxs tuslovchisi bilan ishlatilgan (1): *Sochini gulsiz qora durra tagiga y i g' i b, durrani ham yigitlarning belbog'idek tang'ib b o g' l a g a n* (Pirimqul Qodirov).

2) -gan edi aniq uzoqroq o'tgan zamon shaklida ishlatalilgan (3):

a) Uyushiq qator ikki a'zoli bo'lib, ular oralig'ida va bog'lovchisi qatnashgan, zamon yasovchisining edi qismi umumlashtirilib, uyushiq qatorga yaxlitligicha qo'shilgan (2): *Qoraqand suvi Hulkarning lablarini quyuq qizil rangga b o' ya g a n va iyagining chuqurchasi ustiga chiroyli bir xol q o' y g a n e d i* (Pirimqul Qodirov);

b) Uyushiq qator besh a'zoli bo'lib, ikkinchi, uchinchi a'zolar, shuningdek to'rtinchi, beshinchi a'zolar oralig'ida va bog'lovchisi qatnashgan; uchinchi a'zo -b ravishdoshi shaklida ishlatalilgan, zamon yasovchisining edi qismi umumlashtirilib, uyushiq qatorga yaxlitligicha qo'shilgan (1): *Bu vaqt Aziz onasi va do'stlari bilan Mirzacho 'ldagi "Samarcand" sovxoziqa k o' ch i b k e t g a n, paxtachilikda ekishdan terishgacha hamma ishni mukammal m a sh i n a l a sh t i r g a n va diplom ishida brigada tajribasini yo z i b, institut olimlarining tahsiniga s a z o v o r b o' l g a n v a sirtqi aspiranturaga q o l d i r i l g a n e d i* (Hamid G'ulom).

3) -digan bo'ldi zamon shaklida ishlatalilgan (1); zamon yasovchisining bo'l(ib qol)di qismi umumlashtirilgan, uyushiq qatorga yaxlitligicha qo'shilgan: *Uyga kam k e l a d i g a n, ko'pincha brigada shiyponida yo t i b q o l a d i g a n b o' l i b q o l d i* (Hamid G'ulom).

4) -r edi davomli o'tgan zamon shaklida ishlatalilgan (6); uyushiq qatorning:

a) barcha a'zolari -r edi shaklida ifodalanib, edi qismi umumlashtirilgan (3): *Serka qo'ng'irog'ini asabiy j i r i n g l a t a r, chilviridan bo'shamoqchi bo'lib b o' g' i l a r e d i* (Pirimqul Qodirov) kabi;

b) birinchi a'zosi -mas bo'lisisizlik shaklida, ikkinchi a'zosi -r shaklida ifodalanib, edi qismi umumlashtirilgan; uyushiq qator a'zolari oralig'ida va bog'lovchisi qatnashgan (1): *U ayollarni y a x sh i b i l m a s v a Hulkar to'g'risidagi eng behayo gaplarga ham i sh o n a r e d i* (Pirimqul Qodirov);

d) birinchi a'zosi -b ravishdoshi shaklida (zamon va shaxs-son ma'nosini ifodalamaydigan betaraf shaklida), ikkinchi a'zosi -r edi shaklida ishlatalilgan (1): *Ammo Turdining ko'zлari t i n i b, Hulkarni boshqacha k o' r s a t a r e d i* (Pirimqul Qodirov);

e) uch a'zoli uyushiq qatorning ikkinchi a'zosi -b ravishdoshi shaklida ishlatalilgan, birinchi, ikkinchi a'zolar yo bog'lovchisi bilan boshlangan (I): *U yo o'z-o'zini o' l d i r a r d i, yo xizmatkor yigit bilan bir yurtga q o-ch i b, kambag'allikda non gadosi bo'lib y a sh a r d i* (Oybek).

5) -moqda edi davomli o'tgan zamon shaklida ishlatalilgan (2); uyushiq qatorning birinchi a'zosi -b ravishdoshi shaklida ifodalangan: *Qo'ylar endi qo'tondan ch i q i b, chodir atrofida yonadan o' r l a b k e t i sh-*

*m o q d a e d i* (Pirimqul Qodirov). *Tog' cho qqilarida ogish bulutlar k o'-p a y i b, pastga o q i b t u sh m o q d a e d i* (Pirimqul Qodirov).

6) Uyushiq qatorning ikki a'zosi -b affiksi bilan yasalgan darak old o'tgan zamon shaklida ishlatilgan; birinchi a'zo oxirida -da yuklamasi qatnashgan (1): *Siz unga [nonga] mening to'g'rimdag'i harom gaplarni qo'shib y e b s i z - d a, b o'k i b q o l i b s i z* (Pirimqul Qodirov).

2. Uyushiq qator a'zolari -a/-y hozirgi-kelasi zamon shaklida ishlatilgan (9):

1) Har ikki a'zo -a/-y affiksi bilan shakllangan (b); uyushiq qator a'zolari oralig'ida:

a) bog'lovchi vosita qatnashmagan (3): *Kampirlar yaqin borib q a r-g' a sh a d i, q u v l a sh a d i* (Oybek). *Mana endi yana sovxoza, brigadamga b o r a m a n, hosil uchun k u r a sh a m a n* (Hamid G'ulom) kabi;

b) bog'lovchi vosita qatnashgan (3):

— va bog'lovchisi (1): *Feruzdan keyin .. d o v o n o sh i l a d i v a .. O'rategan Shahristoniga t u sh i l a d i* (Hamid G'ulom);

— -da yuklamasi (2): *Kechasi traktorni beshinchি brigadaga o l i b o' t a m i z - d a, ertalabdan yangi joyda i sh b o sh l a y m i z* (O'tkir Hoshimov) kabi.

2) Uyushiq qatorning birinchi a'zosi -b ravishdoshi shaklida, ikkinchi a'zosi -a/-y zamon yasovchisi shaklida ishlatilgan (3): *Mirzakarimboy haya-jonli titroq tovush bilan qiziga f o t i h a b e r i b, sogolini s i l a d i* (Oybek). *Axir binafsha .. Feruz atroflarida, dalalar, o'ngirlarda gilam-gilam o ch i l i b, y a sh n a b y o t a d i* (Hamid G'ulom) kabi. Oxirgi misolda ko'makchi fe'l ham umumlashtirilgan.

3) Uch a'zoli uyushiq qatorning ikkinchi a'zosi -b ravishdoshi shaklida ishlatilgan, birinchi a'zodan keyin va bog'lovchisi qatnashgan (1): *Ular eshik tirqishlaridan m o' r a l a y d i l a r v a q i ya o ch i b, boshlarini s u-q a d i l a r* (Oybek).

3. Uyushiq qator a'zolari har xil zamon shaklida ishlatilgan (4):

1) birinchi a'zo -r edi o'tgan zamon shaklida, ikkinchi a'zo esa -gan edi o'tgan zamon shaklida ishlatilgan, zamon yasovchilarining edi qismi umumlashtirilgan (1): *Hansirab n a f a s o l a r, t e r l a b k e t g a n e d i* (O'tkir Hoshimov);

2) birinchi a'zo -r ekan o'tgan zamon shaklida, ikkinchi a'zo -di o'tgan zamon shaklida ishlatilgan (1): *Belbog'ini y e ch a r e k a n, Hulkarga jilmayib q a r a b q o'y d i* (Pirimqul Qodirov);

3) birinchi a'zo -di o'tgan zamon shaklida, ikkinchi a'zo -moqchi bo'ldi zamon shaklida ishlatalgan; birinchi a'zodan keyin -yu yuklamasi qatnashgan (1): *Uning moylanganday yiltillayotgan ko'zlarini Hulkar endi k o'r d i - yu, tez yurib undan o't i b k e t m o q ch i bo'ldi* (Pirimqul Qodirov).

4. Bir misolda uyushiq qatorning birinchi a'zosi -gan bo'lsa o'tgan zamon shart mayli shakliga ham yuklamasini qo'shib ishlatalgan, ikkinchi a'zo esa -gan edi o'tgan zamon shaklida kelgan: *Qoraqand hali q o r a y i b p i sh g a n b o' l m a s a h a m, q i z a r i b q o l g a n e d i* (Pirimqul Qodirov).

#### 9- §. Yakunlovchi mulohazalar:

1. "Uyushiq bo'laklar" deyish asosli emas, chunki sintaktik bo'lak bitta bo'ladi, faqat u uyushiq qator bilan ifodalananadi.

2. Uyushiq qator a'zolari asosan ikkita, ba'zan uchta va undan ortiq bo'ladi; uyushuvchi qismlar o'zaro teng holatda qo'shiladi, birgalikda boshqa bir sintaktik bo'lak bilan bog'lanadi.

3. Uyushiq qator a'zolari odatda sintaktik vazifani ta'minlovchi ayni bir grammatic shaklda bo'ladi. Bunday grammatic shakl vazifasini ega, qaratuvchi, to'ldiruvchi, qisman hollovchi uyushiq qator bilan ifodalanganida kelishik shakli, kesim uyushiq qator bilan ifodalanganida tuslovchi, sifatlovchi sifat bilan ifodalanganida "sifatlovchi" sintaktik semasi bajaradi.

4. Sintaktik vazifa ko'rsatkichi ba'zan uyushiq qatorning har bir a'zosiga qo'shiladi, ko'pincha esa umumlashtiruvchi shakl sifatida yaxlitligicha uyushiq qatorga qo'shiladi. Bunday yaxlitligicha qo'shilish faqat sintaktik vazifa ko'rsatkichida emas, balki undan oldin qo'shiladigan grammatic ko'rsatkichda ham voqe bo'lishi mumkin. Uyushiq qator a'zolarining grammatic shaklida voqe bo'ladigan bunday umumlashtirish o'zbek tilining o'ziga xos milliy xususiyati sifatida alohida ta'kidlashga loyiq.

5. Uyushiq qator bilan ifodalangan egada, qaratuvchida, to'ldiruvchida kelishikdan tashqari grammatic son paradigmasing ko'rsatkichi (qatnashsa, nisbatlovchi) ham umumlashtirilib, yaxlitlovchi grammatic shakl sifatida uyushiq qatorga bir butun holda qo'shilishi mumkin.

6. Kesimda uyushiq qator a'zolarining grammatic shakli o'ziga xos usulda: -b ravishdoshi yasovchisidan foydalaniib umumlashtiriladi. Bu ravishdosh shakli bilan uyushiq qator a'zosi asosan zamon va shaxs-son ma'nolarini ifodalashdan chetlashtiriladi, bu ma'nolar uyushiq qator oxiriga qo'shilgan grammatic shakl asosida belgilanadi. Uyushiq qator bilan ifodalangan kesimda amalga oshiriladigan bunday shakl umumlashtirilishi o'zbek tilining o'ziga xos milliy xususiyati deb alohida ta'kidlashga loyiq. Grammatic shaklning umumlashtirilishi — uyushiq qator bir butun holda bir sintaktik bo'lak vazifasida kelishini ko'rsatadigan eng ishonchli omil.

7. Uyushiq qator a'zolari bir xil grammatic shaklda bo'ladi deyish bunday qator a'zolari alohida-alohida shakllanadigan holatga nisbatan ham to'g'ri bo'lavermaydi. Masalan, kelishikdan oldin qatnashadigan grammatic son ko'rsatkichi, tuslovchidan oldin qatnashadigan zamon ko'rsatkichi uyushiq qator a'zolariga farqli qo'shilishi mumkin. Bir xil grammatic shaklda bo'lish sintaktik vazifa ko'rsatkichiga nisbatan o'rini, lekin uyushiq qator bilan ifodalangan kesimning ayrim a'zosi -*b* ravishdoshi shaklida ishlatilishiga nisbatan bu talab o'z kuchini yo'qotadi.

8. Uyushiq qator a'zolari leksemashakl bilan ham, birikmashakl bilan ham, hatto gapshakl transformasi bilan ham, shuningdek aralash holda ham ifodalanishi mumkin. Nutqda uyushiq qatorning birikmashakl bilan, ayniqsa yoyiq birikmashakl bilan ifodalanishi ko'p uchraydi.

9. Uyushiq qator a'zolari odatda ayni bir turkum leksemalari, birikmalari bilan ifodalanadi. Uyushiq qator a'zolari har xil turkum leksemasi bilan ifodalanishi ham mumkin. Masalan, uyushiq qator bilan ifodalangan sifat-lovchingin a'zolari sifat, ot va fe'lning sifatdosh shakli bilan, kesim esa sifat birikmashakl va fe'l birikmashakl bilan ifodalanishi mumkin.

### **Gapshaklga qo'shiladigan sintaktik bo'laklar**

1- §. Gapshakl qurilishining asosini tashkil etadigan ega va kesimdan, shuningdek gapshakl asosini yoyadigan to'ldiruvchi va hollovchidan tashqari gapshaklga qo'shiladigan, lekin gapshakl bilan sintaktik aloqaga kirishmaydigan, faqat mazmunan bog'lanadigan sintaktik bo'laklar ham mavjud bo'lib, bular *undalma* va *kirish* deb yuritiladi.

Undalma ham, kirish ham sintaktik birlik: leksemashakl bilan, birikmashakl bilan (hatto gapshakl bilan ham) ifodalanadi, ma'lum sintaktik vazifani bajaradi; shunga ko'ra bularni sintaktik bo'lak deb nomlash kerak, lekin gapshakl bo'lagi deb emas, gapshaklga qo'shiladigan bo'lak deb boshlash to'g'ri.

Undalma bo'lak va kirish bo'lak o'zi qo'shiladigan gapshakldan talafuzda pauza (to'xtam) bilan, yozuvda esa odatda vergul (tirnoqcha) bilan ajratiladi.

Undalma bo'lak bilan kirish bo'lakning yuqorida ta'kidlangan umumiy tomonlaridan tashqari o'ziga xos belgi-xususiyatlari mavjud.

### **Undalma bo'lak**

2- §. Undalma bo'lak tinglovchingin diqqatini gapshakl bilan anglatilayotgan fikrga jalg qilish uchun xizmat qiladi, bosh kelishikdagি sintaktik birlik bilan ifodalanadi, undash ohangi bilan aytildi: *K e n n o y i, kuyib ketayotibsiz-a* (Hamid G'ulom) kabi.

Kuchli his-hayajon bilan aytilgan undalma bo'lakdan keyin undov belgisi qo'yiladi; shundan keyingi gapshakl yozuvda bosh harf bilan boshlanadi. "Ke n n o y i! — dedi baqirib. — Oching!" (O'tkir Hoshimov).

Undashni kuchaytirish uchun undalma bo'lakdan oldin *hoy, ey, ho* kabi ta'kid undovi ishlatalidi: *E d o m l a j o n!* *Egilgan boshni qilich kesmas deb bosh egib kelayapsiz!* (Odil Yoqubov). *Sotiboldi derazaga engashibroq qichqirdi:* "*O n a s i, h o o n a s i!*" (Hamid G'ulom) kabi. Bunday undalma bo'lak oxiriga ba'zan yuklama qo'shiladi va chiziqcha bilan yoziladi: "*Meni boshingga urasanmi, b o l a m - a y*", — dedi *Umarqul kulib* (Hamid G'ulom) kabi.

Uzoqroq yerdagi shaxsga qaratilgan undalma bo'lak tarkibidagi oxirgi ovoz tovush cho'ziq talaffuz qilinadi, yozuvda ikki, uch harf yozib ko'rsatiladi: *Olimjon ketgan tomonga qarab qo'limni karnay qilgancha chaqirdim: "Olimjo-o-n!"* (O'tkir Hoshimov) kabi.

Undalma bo'lak fikr qaratilgan shaxsni bildirganida u bilan birga keladigan gapshakl tarkibida ega bo'lak odatda ishlatilmaydi, chunki bunday qurilmada ega bo'lakning ishlatalishi o'ziga xos pleonazmni (ortiqchalikni) yuzaga keltiradi: *Dada, boshimni og'ritmang* (Hamid G'ulom) kabi. Undalma bo'lak va u birga ishlataligan gapshakl boshqa-boshqa shaxsni bildirsa, bunday gapshakl tarkibida ega bo'lakning ishlatalishi tabiiy: *Men bir narsaga hayronman, a k a* (Asqad Muxtor) kabi.

Ta'kidlash lozim topilsa, undalma bo'lak va u birga ishlataladigan gapshakl ayni bir shaxsni bildirganida ham ega bo'lak qatnashadi: *Sen o'zingni baxtli dedingmi? Opa, sen ham odam edingmi?* (Hamid Olimjon) kabi.

Jumla tuzuvchining xohish-maqsadiga qarab undalma bo'lak gapshaklning boshlanishida, oxirida, hatto ichida joylashtirilishi mumkin (Misol-larni kuzating).

**3- §.** Undalma bo'lak kishiga qaratiladi, shunga ko'ra asosan kishini anglatadigan leksemashakl bilan ifodalanadi. Badiiy tasvirda undalma bo'lak jonli, jonsiz tabiatga qarata ham ishlatalidi: *Ochil, ochil, q a m i sh l a r - o, men opanni ko'rayin-o ..* (Ertakdan) kabi.

1. Undalma bo'lak vazifasida otlarning quyidagi ma'no turlari ishlataladi:

1) kishi atoqli otlari: *Qamchivoy, To'lqinboy, Qumriniso* kabi: *Uning qizil olma degani boshi qorong'i bo'lgani-da, Q a m ch i v o y!* (Hamid G'ulom) kabi;

2) qarindoshlik turdosh otlari: *dada, tog'a (tog'ajon), aka, uka, kelinoyi* va b.: *Tan olaman, a k a, parvosizlik qildim* (Hamid G'ulom) kabi;

3) Ayrim qarindoshlik turdosh otlari yolg'iz o'zi doim nisbatlovchi olgan holda undalma bo'lak bo'lib keladi: *bolam (bolaginam), o'g'lim, qizim* kabi; *Qayerda bo'lsang ham, omon bo'l, bolaginam* (Hamid G'ulom) kabi;

4) Xotinning eriga, arning xotiniga nisbatan ishlataladigan *dadasi, onasi* leksemashakllari bilan ifodalanadi; bunday leksemashakl tarkibidagi III shaxs nisbatlovchisidan ko'rinish turibdiki, bular asli *bolamning otasi, bolamning onasi* birikmashakllari tarkibidagi qaratuvchining tushirilishi (ellipslanishi) natijasida yuzaga kelgan.

5) Kishini anglatadigan boshqa tur leksemashakl bilan ifodalanadi: *domla, boyvachcha, rais, do'stlar (do'starim)* kabi: *Tag'in nima qilib qo'ydingiz, domla ja on?* (Odil Yoqubov) kabi;

6) *Qo'zichog'im, toychog'im* kabi erkash ma'nosini bildiradigan turdosh ot leksemashakl bilan ifodalanadi: "*Silab qo'y, qo'zichog'im, - Ezozxon o'g'lini bag'riga bosdi, - silab qo'ysang, boshim og'rimaydi*" (Hamid G'ulom) kabi;

7) Ulug'lash ma'nosida ishlataladigan *begim, shunqorim* kabi leksemashakllar bilan ifodalanadi: *Menga rahmingiz kelmasa, bolangizga rahmingiz kelsin, begim ...* (Hamid G'ulom) kabi.

2. Undalma bo'lak vazifasida sifat leksemashakl ham keladi; bunda u otlashadi: *O'tirmaysanmi uyingda, qo'qib osh!* (Odil Yoqubov). *Xato, hammasini, xato boshladim, ga lava rsi!* (O'tkir Hoshimov) kabi.

#### 4- §. Undalma bo'lak birikmashakl bilan ham ifodalanadi:

##### 1) Izohlovchili birikmashakl bilan ifodalanadi:

a) "kishi atoqli oti X qarindoshlik turdosh oti" tuzilishli birikmashakl bilan: *Jo'raboy ota, Bektemir aka, Tozagul opa, Sharofat xola, Ra'no kennoyi* kabi: "*Men gadoy emasman, Umar qul oga*", — dedi *O'tap* (Hamid G'ulom) kabi;

b) "qarindoshlik turdosh oti X kishi atoqli oti" tuzilishli birikmashakl bilan: *qizim Nodira, bolam Sergey* kabi: *Xafa bo'lma, qizim Nodira!* (Hamid G'ulom) kabi.

d) "kishi turdosh oti X qarindoshlik turdosh oti" tuzilishli birikmashakl bilan: *rais aka, doktor opa* kabi: *Bo'ron boshlanayapdi, rasisaka!* (Odil Yoqubov) kabi;

e) rasmiy muomalada *o'rtoq Farmonov, Normurod Shomurodovich* kabi tuzilishli birikmashakl bilan ifodalanish ham uchraydi: *Endi, o'rtoq Farmonov, ishni shundan boshlamasak* (Asqad Muxtor) kabi.

2) Sifatlovchili birikmashakl bilan ifodalanadi: *jon singlim, qarchig'ay changallim, qoqbosh chol* kabi: *Baxli bo'l, jogn singlim* (O'tkir Hoshimov), "*Hurmatli redayaksiy!*" — deb boshlanardi maktub (O'tkir Hoshimov) kabi va b.

## Kirish bo'lak

5- §. Kirish bo'lak o'zi qo'shiluvchi gapshakl anglatayotgan fikrga so'zlovchining turli aqliy va hissiy munosabatini bildiradi; o'zi qo'shilayotgan gapshaklga bir butun holda taalluqli bo'ladi, odatda gapshakldan oldin joylashadi, shunga ko'ra asli kirish deb emas, kirishish deb nomlanishi to'g'riroq.

Kirish bo'lak vazifasida kelgan birlikning gapshaklning qayerida o'rinalashishi asosan erkin: ichida ham, oxirida ham kelaveradi. Ayrim birliklarda esa bog'liqlik mavjud: faqat gapshaklning oldida yoki oxirida keladi, masalan, *shekilli* modali gapshaklning oxirida keladi (Quyidagi misollarni kuzating).

Kirish bo'lak laksemashakl bilan ham, birikmashakl bilan ham (hatto gapshakl bilan ham) ifodalanadi. Modal birliklar kirish bo'lak vazifasiga xoslangan. Boshqa turkum leksemashakllarining kirish bo'lak bo'lib kelishi – ikkilamchi vazifa. Kirish bo'lak vazifasida turlicha shakllangan birikmashakllar, hatto gapshakllar ham ishlataladi (Quyidagi misollarni kuzating).

Kirish bo'lak bilan quyidagi ma'nolar bildiriladi:

I. So'zlovchining anglatilayotgan fikrga ishonch darajasini ifodalaydi. Bu vazifada asosan modal birliklar ("Modallar turkumi" bahsiga qarang), qisman boshqa turkumlarning birliklari, jumladan, sifat keladi: *R o s t, narigi xo'jaliklar undan ancha keyin, asosan shu yil bahorda ish boshlashgan* (Odil Yoqubov). ... *nizo ham o'shandan boshlandi, t o' g' r i r o g' i, ilgariroq boshlangan olovga o'sha kuni lampamoy sepildi* (Odil Yoqubov) kabi.

2. So'zlozhining anglatilayotgan fikrga his-tuyg'u jihatidan munosabati ni ifodalaydi: *attang, ajabo, xayriyat, obbo, ofarin* kabi: *X a y r i y a t, atrofda deyarli hech kim yo'q ekan* (Asqad Muxtor). *V o y o' l m a s a m, qizim, ko'taring boshingizni, nima bo'ldi?* (Asqad Muxtor). *S e k i n r o q a y t a s i z m i, uka?!* (O'tkir Hoshimov) kabi.

3. Anglatilayotgan fikrning kimga qarashli ekanini bildiradi: *nazarida, menimcha, aytishlaricha, eshitishimcha, eshitishimga qaraganda* kabi. ... *n-a-z a r i d a, himoya degan narsa bunaqa oppa-oson bo'lmasligi kerak* (Odil Yoqubov). *E sh i t i sh i m g a q a r a g a n d a, qishloq biylari .. Qudratxo'jani yuzboshi qilib tayinlashmoqchi emish* (Odil Yoqubov) kabi.

4. Eslatishni, etibor jalb qilishni bildiradi: *zotan, qarabsizki* kabi: *Ha, a y t m o q ch i, Vohidxo'janing o'g'li Qudratxo'ja ham tirik* (Odil Yoqubov). *Z o t a n, qarigan chog'ingda uning ishiga bosh suqib nima qilasan* (Odil Yoqubov). *Q a r a b s i z k i, biri – kombinat direktori, biri – bosh injener* (Odil Yoqubov) kabi.

5. Fikrlarning o'zaro munosabatini ko'rsatadi:

1) Izohlovchi fikrga o'tishni bildiradi: *masalan, jumladan, chunonchi, ya'ni, boshqacha qilib aytganda kabi. B o sh q a ch a q i l i b a y t g a n d a, masala nihoyatda murakkablashib ketdi* (Odil Yoqubov).

2) Zid fikrga o'tishni bildiradi: *aksincha kabi: .. hech kim undan nolimas, a k s i n c h a, hamma uni .. yaxshi ko'rardii* (Odil Yoqubov) kabi;

3) Umumlashtiruvchi fikrga o'tishni bildiradi: *qisqasi, umuman, bino-barin, demak, xullas (xullasi kalom), shunday qilib kabi: .. shu yosh olim o'tkazgan tajribalarga, u m u m a n, uning ilmiy ishiga shubha bildirmoq-chisiz* (Odil Yoqubov). *Sh u n d a y q i l i b, O'tap bu cho'lgashta oilani Qumqishloqqa boshlab ketdi* (Hamid G'ulom) kabi;

4) Fikrlarning oldin-ketinligini bildiradi: *avvalo, avvalambor, nihoyat kabi: A v v a l a m b o r, bu ko'rikka .. salkam ikki yuz kishi to'plandi* (Odil Yoqubov). *N i h o y a t, u o'zini bosib olib, bosh vrachdan g'amgin ohangda so'radi* (Hamid G'ulom) kabi. Bunday vazifada chiqish kelishigidagi *birinchidan, ikkinchidan* kabi tartib son ham ishlatalidi.

6. Kishilar orasidagi muomala-munosabatni anglatadigan *assalomu alaykum — vaalaykum assalom; xayr; marhamat, rahmat; hormang — salomat bo'ling (bor bo'ling)* kabi leksemashakllar ayrim manbalarda kirish bo'lak deyiladi; asli bular gap deb baholanishi to'g'riroq. *Ibodulla o'zini boshdan oyoq ko'zdan kechirayotgan yigitga qo'l uzatdi: "A s s a l o m u a l a y k u m .."* (Hamid G'ulom). *Mavlon aka qo'shdan boshini ko'tarib Qamchiga javob qildi: "B o r b o' i, Qamchivoy"* (Hamid G'ulom) kabi va b.

### **Yoyiq jumlada sintaktik bo'laklarning o'rni va tartibi**

Birikmalar tasviri bo'limida birikma a'zolarining o'rni quyidagicha bo'lishi yetarli tasvirlandi: sifatlovchi X sifatlanmish, qaratuvchi X qaralmish, izofa X izofalanmish, izohlovchi X izohlanmish yoki izohlanmish X izohlovchi, ta'kidlanmish X ta'kidlovchi, to'ldiruvchi X to'ldirilmish, hollovchi X hollanmish.

Yuqorida sanalgan birikma turlarining tobe a'zosi, hokim a'zosi yoki har ikki a'zosi leksema bilan yoki birikma bilan, hatto transformatsiyalangan gapshakl bilan ifodalanishi mumkin. Ikki a'zoli yig'iq birikmaga teng bunday birikmalarda a'zolarning o'rni muqim; tartib erkinligi yo'q.

To'ldiruvchi, hollovchi kesim vazifasidagi leksemashaklga bog'lanib gapshaklini yoyuvchi bo'lak mavqeiga molik bo'lganida ham to'ldirilmishdan, hollanmishdan oldin joy oladi. Shu bilan birga bunday to'ldiruvchida, hollovchingning ayrim turlarida o'ziga xos xususiyat ham bor.

To'ldiruvchi bilan to'ldirilmish orasida hollovchi, ega yoki har ikki bo'lak joy olib, to'ldiruvchi bilan to'ldirilmish distant joylashuvi, to'ldiruvchi

jumlaning boshlanish qismiga tomon siljishi mumkin. Bunday siljitish im-koniyatni to'ldiruvchining har ikki turida mavjud, lekin vositali to'ldiruvchida kuchliroq.

Jumla tarkibidagi har ikki tur to'ldiruvchi qatnashuvi lozim bo'lsa, vositasiz to'ldiruvchi odatda to'ldirilmishga yaqin joylashadi: *Sen menga d a f t a r b e r m a d i n g* kabi. Ta'kidlash lozim bo'lsa, to'ldiruvchilar aksincha ham joylashadi: *Sen daftarni m e n g a b e r m a d i n g* kabi. Demak, to'ldiruvchining har ikki turida tartib erkinligi mavjud; har ikki xil joylashuv me'yoriy hisoblanadi, teskari tartib (inversiya) voqe bo'lmaydi.

Gapshaklni yoyuvchi bo'lak sifatida qatnashadigan hollovchi odatda hol-namishi oldida joy oladi, faqat payt, o'rinn hollovchilarida tartib erkinligi mavjud: jumlaning boshlanishida joylashuvi mumkin: *U n i v e r s i t e t d a k e ch a ilmiy kengash bo'ldi* kabi. Lekin ta'kidlash lozim bo'lsa, bunday hollovchi kesim oldida joylashadi: *Ilmiy kengash yig'ilishi k e ch a bo'ldi* kabi.

Kesim odatda jumlaning oxirida joylashadi (Shu xususiyatini hisobga olib *k e s i m* — 'jumlani kesuvchi' deb atalgan). Ega kesimdan oldin, odatda jumlaning boshlanishida joylashadi. Jumla tarkibida egadan oldin hollovchining, to'ldiruvchining joylashuvi ham me'yoriy bo'lib, odatdagি tartib deyliladi. Ba'zan egani kesimdan keyin joylashtirish ham uchraydi. So'zlashuv nutqiga, yozuvchining uslubiga xos bu hodisani odatdagи tartibdan chetga chiqish deb, inversiya deb baholash kerak.

Ko'chirma jumladan keyin keladigan muallif jumlasida sintaktik bo'laklarning o'ziga xos joylashish tartibi mavjud: oldin kesim, undan keyin boshqa bo'laklar — ega, to'ldiruvchi, hollovchi joylashadi; oxirgi sanalgan sintaktik bo'laklarning joylashuvida tartib erkinligi mavjud: "El qatori aravada ketavursin!" — *d e d i u z i l - k e s i l b o y* (Oybek). "Suv keltiraymi?" — *d e d i j i l d i n i j i y d a sh o x i g a i l i b* (O'tkir Hoshimov) kabi.

She'r misralarida ham ko'pincha sintaktik bo'lakning me'yoriy tartibiga riyoq qilinadi; shuning bilan birga she'r mezonlari talabiga binoan me'yoriy tartibdan chetga chiqish ham voqe bo'ladi: *Bo'lmasin mahrum oshiq yorning diydoridin* (Nodira) kabi. Bu jumla tarkibidagi bo'laklarning me'yoriy tartibi quyidagicha: *Oshiq yorning diydoridan mahrum bo'lmasin*. She'r misralarida me'yoriy tartibdan chetga chiqish, qanday sabab va maqsad bilan voqe bo'lishidan qat'i nazar, inversiya deb baholanishi lozim.

### **Jumlaning noto'liqligi**

1- §. Ushbu sintaktik hodisani *to'liqsiz gap* deb nomlash o'rinni bo'limgan: 1) Avvalo *to'liqsiz* tarzida sifatdan sifat hosil qilish — g'aliz:

*ma'lumsiz* emas, *noma'lum*, *aniqsiz* emas, *noaniq* kabi to'liqsiz emas, *noto'liq* tarzida hosil etish to'g'ri; 2) Gapshakl noto liq bo'lmaydi, balki gapshakl qolipi asosida tuziladigan nutqiy birlik — jumla tarkibida zarur sintaktik bo'lak nutq shart-sharoitiga bog'liq holda ifodalananmaydi, natijada jumla noto'liq bo'ladi; demak, noto'liqlik nutqiy hodisa bo'lib, gapshakl qolipiga emas, jumlaga xos.

Jumlaning noto'liqligini belgilashda ko'pincha aniq me'yor aytilmaydi, "biror zarur bo'lakning yo'qligi seziladi" deb ta'kidlanadi. Asli sezgi bu yerda ishonchli mezon (o'lchov) bo'la olmaydi.

Adabiyotlarda "Gapning to'liqsizligi odatdag'i qolipga — to'liq gapning strukturasiga qarab belgilanadi" deyiladi va noto'liqlik asosan so'roq-javob tur dialogik nutq asosida izohlanadi.

Rus tili akademgrammatikasidan andoza olib to'liqsiz gapning (noto'liq jumlaning) quyidagi to'rt turi ajratiladi: 1) dialogik nutq tarkibidagi to'liqsiz gaplar, 2) mustaqil qo'llanuvchi to'liqsiz gaplar, 3) frazeologik birikma tarkibidagi to'liqsiz gaplar, 4) qo'shma gap tarkibidagi to'liqsiz gaplar.

Frazeologik birikma tarkibidagi to'liqsiz gaplar deb keltirilgan misollar ning frazeologik birliklarga (frazemalarga) hech qanday aloqasi yo'q. Uman, frazemaning — segment til birligining tarkibiga nisbatan to'liqsizlik haqida gaphirish noo'rin.

Qo'shma gap (qo'shma jumla) tarkibidagi gapshaklga teng qismlarda voqe bo'ladijan noto'liqlik yonma-yon ishlataladigan jumlalar orasida voqe bo'ladijan noto'liqlikdan mohiyati jihatidan farq qilmaydi.

Demak, jumlaning noto'liqligi asosida bir hodisa — yonma-yon ishlataladigan jumlalar orasidagi munosabat yotadi. Bunda noto'liqlikning ikki holatda: 1) dialogik nutqda, 2) boshqa tur nutqda namoyon bo'lishi farqlanadi.

2- §. Jumlaning noto'liq bo'lishi asosan so'roq-javob tarzidagi dialogik nutqda yuz beradi, chunki bunday nutqda ixchamlikka intilish kuchli bo'ladi.

So'roq-javob tarzidagi jumlalarda odatda so'roq jumla to'liq, javob jumla noto'liq bo'ladi: "*Qishki ta'til qachon boshlanadi?*" — "*Ertaga*" kabi.

Lekin shunday jumlalar borki, so'roq jumlani ham, javob jumlani ham to'liq deb baholash lozim: "*Assalomu alaykum*". — "*Vaalaykum assalom*". "*Sog'-salomatmisiz?*" — "*Inshoollo*" kabi. Muomala birligi bilan ifodalangan bunday jumlalar tarkibiga biror sintaktik bo'lakni kiritib bo'lmaydi, shu ko'rinishda to'liq jumlagi teng bo'ladi. Qizig'i shuki, bunday muomala birliklarida javob qismi sifatida "ega X kesim" qolipidagi jumla ham qatnashuvi mumkin: "*Rahmat. O' z i n g i z s s o g' - s a l o m a t m i s i z ?*" kabi.

So'roq jumla doim to'liq, javob jumla esa noto'liq bo'ladi deyish ham o'rinali emas, chunki nutqda aksi ham voqe bo'ladi. Quyidagi jumlalarni qi yoslang:

- *Ilgari ko 'rganmiding?*
- *Uzoqdan bir martami, ikki martami ko 'rib qolgandim.*
- *Senga yoqadimi?*
- *Qo 'ying shunaqa gaplarni!* (Oybek).

Har ikki so'roq jumla noto'liq: birinchi so'roq jumlada vositasiz to'ldiruvchi (*Yo 'lchini*), ikkinchi so'roq jumlada ega (*Yo 'lchi*) qatnashmagan. Birinchi javob jumla ham noto'liq: vositasiz to'ldiruvchi qatnashmagan. Ikkinchi javob jumla tarkibida ega qatnashmagan, lekin bunday gapshakl qolipida eganing qatnashmasligi — me'yoriy holat, shunga ko'ra bu jumlani to'liq deyish lozim.

So'roq jumla tarkibidagi biror sintaktik bo'lak anglatayotgan voqelikni aniqlashtirish talab qilinsa, javob jumlada odatda shunday bo'lakning o'zi qatnashadi: "*Do'pping qani?*" — "... *Chelak ichida qolib ketibdi*". "Serka ko'r-dingizmi?" — "*Boya shu tomonda qo'ng'iroq jiringlaganday bo'luvdi*". — "*Qayoga?*" (Pirimqul Qodirov) kabi.

Birinchi misolda so'roq kesimga doir bo'lgani uchun kesim va unga zich bog'langan o'rin hollovchisi bilan javob berilgan: o'rin hollovchisi aniqlashti-rilayotgani uchun javob jumla o'rin hollovchisi bilan tuzilgan.

Yana bir misol:

- *Tepdimi?..*
- Traktor tutqichi tepochanini endi esladim.*
- *Hech nima qilmaydi!* (O'tkir Hoshimov).

Bu misolda so'roq jumla noto'liq ekani ochiq ko'rinish turibdi: Bunday tuzilishli jumlada ega bo'lak qatnashmasa, fikr predmeti noaniq bo'ladi; demak, noto'liq deb baholanishi lozim. Keyingi jumla tarkibida ega bo'lib kelgan *traktor tutqichi* birikmashakli oldingi noto'liq so'roq jumla mazmuniga aniqlik kiritadi.

Xullas, dialogik nutq turli ko'rinishlarda namoyon bo'lib, jumlalarning noto'liqligi ham turlichcha bo'ladi.

3- §. Jumlaning noto'liqligini asli gapshakl qolipi asosida, kesim vazifa-sida kelgan leksemaning boshqaruv xususiyati asosida belgilash kerak.

Jumlani noto'liq deb belgilashda ega va kesim bo'laklarning mavqeい keskin farq qiladi:

1. Gapshaklning bosh qolipi va keyin yuzaga kelgan qoliplari bo'yicha tuzilgan jumlalarning barchasi tarkibida kesim zaruriy bo'lak sifatida qatnashadi; kesim qatnashmagan jumla noto'liq bo'ladi: *Ketamiz. Lekin sizlar-nikigamas* (O'tkir Hoshimov). Bu misoldagi ikkinchi qism noto'liq: a) Kesim yo'q, b) Inkor shaklidagi o'rin hollovchisining o'zidan iborat.

2. Gapshaklning bosh qolipi (E X K) bo'yicha tuziladigan jumlalarda eganing mavqeい ikki xil:

1) Bajaruvchi so'zlovchi (I shaxs) yoki tinglovchi (II shaxs) bo'lganida bunday jumla tarkibida ega a'zo ko'pincha qatnashmaydi, chunki ega vazifasida keladigan kishilik olmoshi faqat shaxs-son ma'nosini — grammatic ma'noni ifodalaydi; bunday ma'no kesim tarkibidagi tuslovchi bilan ifodalanaadi, natijada kishilik olmoshi bilan ifodalanadigan egaga ehtiyoj bo'lmaydi; bunday egaga mantiq urg'usi tushsa-gina, kishilik olmoshi ishlataladi: *Keldim. Sen emas, men keldim kabi.*

Gapshakl bosh qolipini bajaruvchi I, II shaxs kishilik olmoshi bilan ifodalanadigan jumlalar asosida emas, balki III shaxs — kishini yoki narsani anglatadigan ot leksemalar (boshqa tur leksemalar) asosida baholash lozim; chunki bunday jumlalarda eganing qatnashuvi zarur bo'ladi; aks holda bajaruvchi kim yoki nima ekanligi noaniq bo'ladi. Masalan, *Keldim* deyilsa, bajaruvchi aniq bo'ladi; *Keldi* deyilsa, bajaruvchi kim yoki nimaligi, kimning kim ekani, nimaning nima ekani noaniq bo'ladi; shunga ko'ra jumlani *O'qituvchi keldi. Avtobus keldi* tarzida tuzish zarur bo'ladi.

Demak, I, II shaxs kishilik olmoshi bilan ifodalanishi lozim bo'lgan ega qatnashmasa, bunday jumlani ega bo'lak nuqtayi nazaridan to'liq deyish kerak; III shaxsda kishi yoki narsani anglatadigan leksemashakl qatnashmasa, bunday jumlani noto'liq deb baholash kerak. Har qanday qoidadan o'ziga xos chekinish bo'lganidek *bu* yerda ham, masalan, quyidagicha chekinish mavjud: Faqat kishiga atalgan harakat-holatni anglatadigan leksema yoki birikma kesim vazifasida kelsa, bunday jumlada eganing qatnashuviga zaruriyat bo'lmaydi, demak, noto'liqlik yuzaga kelmaydi: *Logayd bosh silkib qo'ydi kabi.*

3. Gapshaklning keyin yuzaga kelgan boshqa qoliplarida ega o'z-o'zidan qatnashmaydi va bunday jumlalar ega a'zo nuqtai nazaridan noto'liq deyilmaydi ("Gapshaklning keyin yuzaga kelgan qoliplari" bahsiga qarang).

II. Jumlani noto'liq deb belgilashda gapshakl asosini (aniqrog'i — kesimni) yoyuvchi bo'lak bo'lib kelgan to'ldiruvchining va hollovchining mavqeい har xil.

To'ldiruvchi va hollovchi asli leksemani yoyuvchi bo'laklar bo'lib, bular bog'lanib kelgan leksema kesim vazifasida kelganida-gina gapshaklni yoyuvchi bo'lak mavqeini qozonadi.

Jumlaning to'liq-noto'liqligi kesim vazifasidagi leksemaga xos boshqaruv xususiyatining jumla tarkibida namoyon bo'lish-bo'lmasligiga ko'ra belgilanaadi. Leksemalarning boshqaruv xususiyati esa asosan to'ldiruvchida, qisman hollovchilarning kelishik yoki ko'makchi bilan shakllanadigan turlarida namoyon bo'ladi.

Kesim boshqaruv xususiyatiga molik leksema bilan ifodalansa, bunday jumla tarkibida to'ldiruvchining, boshqaruvga asoslanadigan hollovchining

qatnashuvi zarur bo'ladi; aks holda noto'liqlik yuz beradi. Masalan, *Jonim, menga qarang. Xursandmisiz?* (Oybek) misolida *Menga qarang* jumlesi — to'liq, chunki kesim vazifasida kelgan *qara-* leksemasining vositali to'ldiruvchini boshqarish xususiyati jumla tarkibida namoyon bo'lgan; *Xursandmisiz?* jumlesi — noto'liq, chunki kesim vazifasida kelgan *xursand-* leksemasining vositali to'ldiruvchini (*to'ydan*) boshqarish xususiyati namoyon bo'limgan.

Yana bir misol: *"Bormikan? Nima qilayotgan ekan? Ota-onasi ham ish-dan qaytishgandir? Ukalari-chi?* (Hamid G'ulom). Ushbu matndagi birinchi jumlanı noto'liq deyish kerak: *bor-* kesimlik leksemasi kim yoki nima, kimning yoki nimaning nimasi, kim yoki nima qayerda kabi so'roqlarga javob bo'ladijan leksemalarni o'ziga bog'laydi; *Bormikan?* jumlasidan bu so'roqlarga javob chiqmaydi; demak, noto'liqlik mavjud. Undan keyingi ikki jumladan oldingi jumlada kishi va uning uydaligi ko'zda utilayotgani anglashiladi. Ikkinchı, uchinchi jumlalar to'liq tuzilgan bo'lib, to'rtinchi jumla noto'liq tuzilgan; bunga uchinchi jumla sharoit hozirlagan va b.

Noto'liqlik asosan kesimga bog'lanib keladigan bo'lakning ifodalanmasligi oqibatida voqe bo'ladi (Yuqoridagi misollarni kuzating). Noto'liqlik ma'lum darajada yoyuvchi bo'lakning o'zi doirasida ham yuz beradi. Masalan, *Kutib o'tirishga vaqt yo'q* (O'tkir Hoshimov) jumlesi ega, kesim, vositali to'ldiruvchidan iborat tuzilgan, demak, to'liq; lekin vositali to'ldiruvchi vazifasida kelgan *kut-* leksemasining vositasiz to'ldiruvchini boshqarish xususiyati namoyon bo'lmay qolgan; shu nuqtayi nazardan ushbu bo'lakning o'z ichida noto'liqlik voqe bo'lgan. Demak, jumlaning bevosita noto'liq bo'lish hodisidan ichki noto'liqliknı — biror sintaktik bo'lakning o'zi doirasida voqe bo'ladijan noto'liqliknı farqlash lozim.

Xullas, nutq turlaridan qat'i nazar, jumlaning to'liq yoki noto'liqligi, avvalo, gapshakl qoliplari asosida, ikkinchidan, kesim vazifasida kelgan lekse-maga xos boshqaruvin xususiyatining namoyon bo'lgan-bo'limganligi asosida va qisman boshqa hodisalar asosida belgilanadi.

## JUMLALARING IFODA MAQSADIGA KO'RA MA'NO TURLARI

1- §. Jumlarining ifoda maqsadiga ko'ra ma'no turlari ifodalanayotgan axborat, so'roq, buyruq kabi umumiyl grammatik ma'nolar asosida ajratiladi. Jumlarining bunday ma'no turlarini xitob bilan talaffuz qilish yordamida yana bir ma'no turi — xitob jumla yuzaga keladi.

2- §. Kishi yoki narsa, ularning turli belgi-xususiyatlari haqida ma'lumot (axborat) beriladigan jumлага *bayon jumla* deyiladi. Jumlaning bunday ma'no turi *darak gap* deb noo'rın atab yuborilgan: *darak-* leksemasi 'noaniq,

noto'sliq, uzuq-yuluq xabar' ma'nosini anglatadi. Bu tur jumlada asli nimadir bayon qilinadi; shunga ko'ra *bayon jumla* deb atashni ma'qul topdik.

Nutq (matn) asosan bayon jumlalardan iborat bo'ladi: *Qorong'i tushib, odam odamni ajratolmaydigan bo'lib qolguncha piyoz tozalab, qanor qoplarga joyladik. Chamamida, hammamizning kayfimiz chog' edi* (O'tkir Hoshimov) kabi.

3- §. Kishi yoki narsa, ularning turli belgi-xususiyatlari haqida ma'lumot (axborat) olish maqsad qilib qo'yiladigan jumлага *so'roq jumla* deyiladi.

So'roq jumla odatda tinglovchiga qaratilgan bo'ladi: "Yaxshi ko'rasiz-a? *Judayam-a?*" — "So'rab nima qilasan, Munavvar!" (O'tkir Hoshimov) kabi. Ba'zan so'roqni so'zlovchi o'ziga berishi ham uchraydi: *Kim bu kishini bunalchalik mehribon qilib qo'ydi ekan?* (Hamid G'ulom) kabi.

So'roq jumla bayon jumladan farqli holda boshlanishidan oxiriga tomon biroz ko'tariladigan ohang bilan — so'roq ohangi bilan talaffuz qilinadi.

I. So'roq jumlaning kesimi ham asosan xuddi bayon jumladagi kabi bo'lishli yoki bo'lishsiz shakldagi, turli zamon shakllaridagi leksema bilan ifodalanadi; bayon jumladan farqli holda so'roq jumla tarkibida so'roq olmoshi qatnashadi, so'roq yuklamasi qo'shiladi. Demak, shu vositalar jumlaning so'roq ohangi bilan talaffuz qilinishini belgilaydi, bayon jumlani so'roq jumлага aylantiradi; bayon jumla so'roq jumla uchun asos vazifasini o'taydi.

1. Tarkibida so'roq olmoshi qatnashadigan jumlalarda odatda ana shu olmoshga mutanosib holda axborat bilan javob beriladi:

1) *kim* olmoshi qatnashadi: "*K i m guman qiladi?*" — "*Olimjon ellik-boshi?*" (Oybek) kabi;

2) *nima* olmoshi qatnashadi: "*Ha singlim, chinorning shoxida n i m a bor ekan?*" — "*Hech narsa?*" (Pirimqul Qodirov) kabi;

3) *nega* olmoshi qatnashadi: "*N e g a bunday allanechuksan?*" — "*Oyijon, hech tashvish tortmang, charchadim xolos?*" (Oybek) kabi;

4) *qanday, qanaqa* olmoshi qatnashadi: "*Ahvoli q a n a q a?!*" — *so'radi Orif aka ..* (Asqad Muxtor) kabi;

5) *qachon* olmoshi qatnashadi: *Jang q a ch o n boshlandi?* (Hamid G'ulom) kabi;

6) *qayerga (qayerdan, qayerda)* olmoshi qatnashadi: "*Xo'p, ularni q a y e r d a n topamiz?*" — "*Shu topda qo'shlarida bo'lsa kerak?*" (Pirimqul Qodirov) kabi;

7) *qani* olmoshi qatnashadi: *Ust-boshi q a n i ?* (Asqad Muxtor) kabi va b.

2. So'roq yuklamasi qo'shilishi bilan tuziladigan jumlalarda odatda yangi axborat berish talab qilinmaydi, jumla tarkibidagi so'roq bo'lakning o'zi bilan bo'lishli yoki bo'lishsiz shaklda javob beriladi:

1) -mi yuklamasi qo'shilgan jumlaning kesimi:

a) fe'l leksemashakl bilan ifodalanadi: *So'rog'ingizni b o sh l a y s i z - m i?* (O'tkir Hoshimov). *Boshliqlaring bilan ch i q i sh o l m a d i n g m i?* (Asqad Muxtor) kabi;

b) fe'l leksemashakl bilan va kesimlik leksemashakli bilan ifodalanadi: *To'yni b o sh l a y v e r a m i z m i, y o ' q m i?* (Odil Yoqubov) kabi;

d) ot leksemashakl, ot birikmashakl bilan ifodalanadi: *Sizning qarindosh-urug'laringiz o d a m - u, boshqalar o d a m e m a s m i?* (Odil Yoqubov) kabi;

e) ot leksemashakl bilan va kesimlik leksemashakli bilan ifodalanadi: *Men bu yerda b o sh l i q m a n m i, y o ' q m i?* (Asqad Muxtor) kabi;

f) sifat leksemashakl bilan ifodalanadi: *K a s a l m i?* (Asqad Muxtor). *Joni s o g' m i? Bolasi o m o n m i?* (Hamid G'ulom) kabi;

g) kishilik olmoshi bilan ifodalanadi: *"O'rtoq Kenja s i z b o ' l a s i z - m i?" — deb so'radi* (Abdulla Qahhor) kabi va b.

2) -chi yuklamasi qo'shilgan jumlaning kesimi odatda fe'ldan boshqa turkum leksemashakli bilan ifodalanadi: "Shu ashula sizga yoqadimi?" — "Ha. S i z g a - ch i?" (Oybek). *B o sh q a l a r - ch i?* (Odil Yoqubov). "... bultur qirq yettidan berdim". — "*B u y i l - ch i?*" (Hamid G'ulom) kabi;

3) -a yuklamasi qo'shiladi: *Akam yaxshilar-a?* (O'tkir Hoshimov) kabi;

4) -da yuklamasi qo'shiladi: *Xullas, xayrlashgani kelibsiz-da?* (Pirimqul Qodirov) kabi va b.

3. Bunday jumla ba'zan ham so'roq olmoshi, ham so'roq yuklamasi qatnashgan holda tuziladi: .. *qalin qoshli, za'faron yuzli bu yigit kim bo'ldi ekan-a?* (Hamid G'ulom). *Yana nima kerak, suyunchi-mi?* (Pirimqul Qodirov) kabi.

II. So'roq jumla ba'zan kesimi buyruq-istak maylidagi jumлага so'roq yuklamasini qo'shib ham tuziladi: *Yo bosh og'rig'ini doru bilan b o s a y - l i k m i?* (Oybek) kabi.

4- §. Tinglovchini biror harakat-holatda bo'lishga da'vat qiladigan jumлага *buyruq jumla* deyiladi.

Buyruq jumlaning kesimi odatda buyruq-istak mayli paradigma shaklida bo'ladi, oddiy da'vatdan to qat'iy buyruqqacha darajalanib boradigan ma'no ifodalanadi. Oddiy da'vat ifodalansa, undov belgisi qo'yilmaydi; qat'iy talab ifodalansa, undov belgisi qo'yiladi. Buyruq jumla ko'tariluvchi ohang — buyruq ohangi bilan talaffuz qilinadi, qanday ma'no ifodalanishiga bog'liq buyruq ohangi kuchayib boradi.

1. Buyruq jumlaning kesimi asosan II shaxs shaklida bo'ladi:

1) 'senlash' shaklida bo'ladi: *Q i m i r l a m a y t u r ... Ko'zingni y u m!* (Pirimqul Qodirov). "*Y u r!*" — *dedim yo'l boshlab* (O'tkir Hoshimov) kabi;

2) 'sizlash' shaklida bo'ladi: "*Binafsha e k i n g!*" – *Dildorning ko'zlarini yonib g'iltiladi* (Hamid G'ulom). ... *bu razolatni menga nisbatan qilibsiz, boshqa yigitlarga q i l a k o'r m a n g* (Odil Yoqubov) kabi.

Ta'kid ma'nosini ifodalash uchun ba'zan *qani* undovi, -da ta'kid yuklasmasi ham qatnashadi: *Q a n i, hikoyani boshlang!* (Hamid G'ulom). *Siz .. bu ishga bosh bo'ling- d a !* (Odil Yoqubov) kabi.

2. Buyruq jumlaning kesimi ba'zan III shaxs shaklida bo'ladi. Quyidagi misolda -sinlar affiksi bilan III shaxsni sizlash ma'nosi ifodalanagan: "*Marhamat, o' t i r s i n l a r ... O'tiring*", – dedi Shukurov qizga qarab (Odil Yoqubov) kabi.

3. Buyruq jumlaning kesimi ba'zan aniq yaqin o'tgan zamon shakliga I shaxs ko'plik tuslovchisi qo'shilgan fe'l leksemashakl bilan ifodalanadi: *Majlisni b o sh l a d i k !* kabi va b.

5- §. Kuchli ohang bilan talaffuz qilinadigan jumlaga *xitob jumla* deyiladi.

Jumlalarning bu ma'no turini *undov gap* deb atash o'rinni bo'lmagan: 1) *undov-* leksemasi — grammatik turkumlardan birining nomi; bu leksema bilan jumlaning ma'no turini ham atash noo'rin; 2) jumlaning bu ma'no turida 'undash' emas, balki 'qat'iy murojaat' ma'nosi ifodalanadi. Aytilgan mulohazalar asosida jumlaning bu ma'no turini *xitob jumla* deb atashni lozim topdik.

Xitob jumla, adabiyotlarda ta'kidlanishicha, jumlalarning boshqa ma'no turlari asosida yuzaga keladi. Asli xitob jumлага aylanishi jihatidan buyruq jumla bayon jumladan va so'roq jumladan farqlanib turadi. Buyruq jumlanı kuchli ohang bilan talaffuz qilish odatda buyruqni kuchaytiradi, bunda buyruq jumla o'z mohiyatini saqlaydi, xitob jumlagaga aylanmaydi: *Ko'zingni yum.* → *Ko'zingni yum!* → *Ko'zingni yum!!* kabi.

Buyruq jumla ko'chirma jumla tarzida qaytarilib, kuchli ohang bilan talaffuz qilinsa, shunda xitob jumla yuzaga keladi: "*K o' z i n g n i y u m !*"? *Nega ko'zimni yumishim kerak?!* "*To'xtal!*"? *Kim huquq berdi meni to'xtatishga?!* kabi.

6- §. Tom ma'nodagi xitob jumla bayon jumlanı oxiriga tomon kuchayib boruvchi ohang bilan talaffuz qilish natijasida yuzaga keladi, bunda hukm qat'iy tarzda bildiriladi, shunga ko'ra jumla oxiriga undov belgisi qo'yiladi.

I. Bunday jumla tarkibida so'roq olmoshi qatnashmaydi, so'roq yuklasmasi qo'shilmaydi; kesimi quyidagicha ifodalanadi:

1. Tuslangan fe'l leksema bilan ifodalanadi:

1) Bo'lishli shaklida bo'ladi:

a) Kesim odatdagagi o'rnida — jumlaning oxirida joylashadi: *Tutun jigarimni ham t i t i b yu b o r d i !* (Oybek). *Sizning bog'ingizga binafshani*

*boshqa gulchi e k a d i !* (Hamid G'ulom). *Boshqalar bilan bo'lmasa-yam, men bilan gaplashasiz!* (Odil Yoqubov) kabi;

b) To'ldiruvchi, hollovchi kesimdan keyin joylashadi, inversiya voqe bo'ladi: *Son ming odam bosh egib turibdi b u y e r d a l !* (Asqad Muxtor). *Yana bir dastak topildi b u i k k i q o q b o sh g a !* (Odil Yoqubov). *Ko'ramiz u ketib, boshqasi kelganda o l a m g u l i s t o n b o'lg a n i-n i !* (Odil Yoqubov) kabi;

2) Bo'lishsiz shaklda bo'ladi:

a) Kesim odatdagи o'mida — jumlaning oxirida joylashadi: *Hech narsa q i l m a y d i !* (O'tkir Hoshimov). *Chunki men bu yerda turganimda siz bosh vrach b o' l o l m a y s i z !* (Odil Yoqubov) kabi;

b) To'diruvchi, hollovchi kesimdan keyin joylashadi, inversiya voqe bo'ladi: *Osilmagan bir odam qolmadи u n g a: bir yoqda tog'asi, bir yoqda .. ana u lattachaynar Naimjonning shallaqi xotini!* (Odil Yoqubov) kabi.

2. Fe'lning otdosh shakli bilan ifodalanadi: *Traktor to'xtashi bilan motor o'chib qoldi. O'la! Eng yomoni mana shu — o' ch i b q o l i sh i !* (O'tkir Hoshimov). *Bosh vrach bo'laman deb.. m e n i n g o l d i m g a k e l i sh !* (Odil Yoqubov) kabi.

3. Ot leksemashakl bilan ifodalanadi: *Butun boshli g o r t o r g n i n g m u d i r i !* (O'tkir Hoshimov). *Bilaman! Siz o'z boshingizni asrash p a y i-d a s i z !* (Odil Yoqubov) kabi.

4. Sifat leksemashakl bilan ifodalanadi: *Mana bu — mardona gap! O'zingizdan boshlasangiz — yana y a x sh i !* (O'tkir Hoshimov). *Masxara qiladigan odaming b o sh q a !* (Pirimqul Qodirov) kabi.

5. Kesimlik leksemashakli bilan ifodalanadi: "Ix, tikan b o r e k a n ! " — dedi g'ijinib (O'tkir Hoshimov). *Sizga aytadigan boshqa so'zim y o' q !* (Odil Yoqubov) kabi.

6. *Nima qilasiz!, deng!* leksemashaklli qatnashuvi bilan ifodalanadi: *Bunaqa ekan, n i m a q i l a r d i n g i z boshda ziyofatni bo'yningizga olib!* (Odil Yoqubov). *Mening xatlarimni .. yo'q qilgan boshqalar d e n g !* (Odil Yoqubov) kabi b.

II. Bunday jumлага yuklama qo'shilgan bo'ladi:

1. Ko'pincha -mi yuklamasi qo'shilgan bo'ladi, jumla oxirida so'roq va undov belgisi birgalikda qo'yiladi, xitob ma'nosi murakkab tarzda ifodalanadi. Bunday jumlaning kesimi:

1) ko'pincha bo'lishli shaklda bo'ladi, xitob ma'nosi 'norozilik', 'kinoya' kabi ma'no bilan birgalikda ifodalanadi: *Sen buni t u sh u n a s a n m i, no-qisulaql?!* (Oybek). *Traktorni katta xolanganligiga t a sh l a b k e l d i n g-m i ? !* (O'tkir Hoshimov). *Shu padarla'nat mullajiring bilan mashinadan*

*boshqa gap q u r i b q o l d i m i l!* (Odil Yoqubov). *Birovlarning xotiniga tuzoq qo'yadigan s e n m i s a n ? !* (Pirimqul Qodirov) kabi;

2) ba'zan bo'lishsiz shaklda bo'lib, aksincha ma'no — bo'lishli ma'no 'qat'iy ta'kid' ma'nosi bilan birga ifodalanadi: *Keyin .. bel bog'lab, tik turib x i z m a t q i l m a d i m i ? !* (Odil Yoqubov) kabi.

2. -ku yuklamasi qo'shiladi, xitob ma'nosi 'kuchli ta'kid' bilan ifodalanadi. Bunda jumla oxiriga undov belgisi qo'yiladi; jumla bo'laklarida inversiya voqe bo'ladi: *A y t a y a p m a n - k u boshqa joy to'g'ri kelmaydi deb!* (Odil Yoqubov). *Ch o y s o v i b q o l d i - k u u yoqda!* (Odil Yoqubov) kabi.

3. -da yuklamasi qo'shilgan bo'ladi: *O'zi shu mash'al yorug'ida yaxshiroq k o 'r i n m o q ch i d i r - d a!* (Pirimqul Qodirov). *J u d a q i y - n a b y u b o r d i - d a o d a m n i !* (Odil Yoqubov) kabi va b.

## Q O' SH M A G A P S H A K L L A R

1- §. Tilning birlamchi fikr anglatish birligi — sodda gapshakl; qo'shma gapshakl esa sodda gapshaklga nisbatan ikkilamchi, tuzma sintaktik birlik.

Mazmunan o'zaro zinch bog'liq ikki (va undan ortiq) sodda gapshakllarning gaplik ohangi bilan yaxlitlanishi natijasida tuziladigan sintaktik birlikka *qo'shma gapshakl* deyiladi.

Bu ta'rifda *qo'shma gapshakllarning barcha turlari uchun umumiyl bo'lgan to'rt belgi hisobga olindi:* I) sodda gapshakllarning mavjud bo'lishi, 2) kamida ikkita sodda gapshaklning mavjud bo'lishi, 3) bunday gapshakllarning mazmunan o'zaro zinch bog'liq bo'lishi, 4) birgalikda gaplik ohangi bilan yaxlitlanishi.

1. Birinchi belgiga ko'ra yaxlitlanuvchi qismlar gapshaklga teng bo'lishi lozim. Gapshaklga teng bo'lish uchun avvalo tuslangan leksemashakl (birikmashakl) bilan ifodalangan kesim bo'lishi kerak; ega gapshakl qoliqlariga binoan ifodalanishi ham, ifodalamanasligi ham mumkin. Qismlarning gapshaklga tengligini belgilashda eng ishonchli o'lchov — bunday qismlarda harakat-holat bajaruvchisining boshqa-boshqa bo'lishi: *Bahor keldi va tabiat jonlandi* kabi. Ayni vaqtida kesimlarning grammatik (morphem) shakllanishiga ham alohida e'tibor beriladi. Qismlarning gapshaklga teng ekanini belgilashda kesimga bog'lanib keladigan to'ldiruvchi, hollovchi bo'lakning mavjud yoki mavjud emasligi ahamiyatsiz.

O'zbek tilining o'ziga xos xususiyatlaridan biri shuki, *qo'shma gapshaklga yaxlitlanuvchi gapshakllardan birinchisining kesimi -b ravishdoshi shaklida ishlatilishi* mumkin: *Bahor kelib, tabiat jonlandi* kabi (Xuddi shunday holat uyushiq qator bilan ifodalanadigan kesimda ham mavjudligi o'z o'rniда ta'kidlandi). Bunday ishlatishda birinchi qism kesimi shaxs-son, zamon ma'nosini ifodalaish jihatidan betaraf bo'ladi, uning bunday ma'nolari ikkinchi qism kesimi — tuslangan leksemashakl asosida belgilanadi.

Shaxs-son, zamon ma'nolarining betarafashuviga qaramay -b ravishdoshi shakli-dagi bunday leksemashakl kesimlik xususiyatini, demak, bunday kesim qatnashadigan birinchi qism gapshaklga tenglik xususiyatini yo'qtmaydi; faqat grammatik ma'nolarning ifodalanishida o'ziga xos umumlashish voqe bo'ladi.

Asli -b ravishdoshi shaklidagi leksemashakl ham boshqa ravishdosh yasovchilar shaklidagi leksemashakllar qatori hollovchi vazifasida ishlataladi (Hollovchi tasvirlangan bahsga qarang). Boshqa ravishdosh yasovchilaridan farqli holda -b ravishdosh yasovchisida tobe holatdagi kesimni shakkantirish vazifasi ham mavjud. Bunday shakllangan kesim ikkinchi gapshakldan oldin joylashadi (Yuqoridagi misol). Agar kesimi -b ravishdoshi shaklidagi qurilma ikkinchi qism tarkibiga kiritilsa, hollovchi vazifasida ishlatalig'an bo'ladi: *Tabiat bahor kelib jonlandi* kabi.

Aytib o'tilgan fikrlar asosida qo'shma gapshakllarning bosh qolipini quyidagicha tuzib ko'rsatish mumkin:

bosh kelishikdag'i leksemashakl ega [ega] b a j a r u v c h i g a p s h a k l	tuslovchili leksemashakl kesim x	bosh kelishikdag'i leksemashakl ega [ega] b a j a r u v c h i g a p s h a k l	tuslovchili leksemashakl kesim x
q o' sh m a	g a p s h a k l	q o' sh m a	g a p s h a k l

I z o h. Parallel ( || ) belgisi teng va noteng aloqani ko'rsatuvchi shakl sifatida ishlatildi.

2. Ta'rifdagi ikkinchi belgiga ko'ra qo'shma gapshaklga yaxlitlanadigan sodda gapshakilar kamida ikkita bo'lishi lozim. Nutqda ko'pincha qo'shma gapshakllar ikkitadan ortiq gapshakllarning yaxlitlanishi bilan tuziladi.

3. Ta'rifdagi uchinchi belgiga ko'ra qo'shma gapshaklga yaxlitlanadigan gapshakilar mazmunan o'zaro zich bog'liq bo'lishi lozim. Haqiqatda, ketma-ket o'rinn olgan har qanday ikki gapshakl qo'shma gapshakl deyilmaydi. Masalan, quyidagi matnni kuzataylik:

*U binafshalardan beozorgina bo'y oldi: dimog'iga, diligiga, vujudiga u shu vaqt-gacha tuymagan orom, tubsiz nash'a, zavq-safo yugurdi; bu his, bu ta'sir odamzodni dunyo g'am-anduhlaridan butkul forig' etadigan darajada kuchli edi!* (Hamid G'ulom).

Bu matnnning yugurdi lekesemashakli bilan tugagan oldingi qismi mazmunan o'zaro zich bog'liq ikki gapshakldan tuzilgan qo'shma gapshaklga teng; *bu his* birik-mashakli bilan boshlanadigan keyingi qismda esa boshqa mustaqil fikr anglatiladi: shu yerdan yangi gapshakl boshlanadi; bu qism oldingi qo'shma gapshakl tarkibiga kirmaydi; asli bu qism oldiga nuqta qo'yib, uni alohida gapshakl sifatida bosh harf bilan boshlab yozish to'g'ri.

4. Ta'rifdagi to'rtinchchi belgiga ko'ra qo'shma gapshaklga yaxlitlanadigan gap-

shakllar gaplik ohangi jihatidan bir butunlik tashkil etadi: ayni vaqtida gapshaklga teng qismlar oralig'ida turlicha to'xtam (pauza) ham bo'ladi; bu to'xtam qo'shma gapshakl qismlaridan anglashiladigan ma'no munosabatlariga qarab turlicha bo'ladi.

5. Qo'shma gapshaklga mansub boshqa belgi-xususiyatlar umumiy bo'lmay, qo'shma gapshakllarning turlari doirasi bilan cheklanadi.

2- §. Qo'shma gapshakllar turli belgilar asosida turlicha tasnif qilinadi. Qo'shma gapshakllar dastlab gapshaklga teng qismlarida bog'lovchi vositalar qatnashuviga qatnashmasligiga ko'ra ikkiga ajratiladi:

I. Bog'lovchi vositalar bilan tuzilgan qo'shma gapshakllar.

II. Bog'lovchi vositalarsiz tuzilgan qo'shma gapshakllar.

Ikkinci bosqich tasniflashda I tur qo'shma gapshakllar qismlari orasidagi teng-noteng aloqa asosida yana ikkiga ajratiladi:

1. Teng qisqli qo'shma gapshakllar.

2. Noteng qisqli qo'shma gapshakllar.

Bundan keyingi tasniflar har bir turning o'zi doirasida davom ettiriladi.

### BOG'LOVCHI VOSITALAR BILAN TUZILGAN QO'SHMA GAPSHAKLLAR

1- §. Bog'lovchi vositalar deb 1) bog'lovchilarga, 2) bog'lovchi vosita bo'lib kelgan olmoshlarga, 3) kesimning grammatik shakli tarkibiga mansub ayrim ko'rsatkichlarga aytildi.

1. Ma'lumki, bog'lovchitar teng bog'lovchilar va ergashtiruvchi bog'lovchilar deb ikkiga guruhlanadi. Teng bog'lovchilar o'zaro teng leksemashakllarni, gapshakllarni bog'laydi. Bunday bog'langan leksemashakllar uyushiq qatorni tashkil etadi ("Sintaktik bo'laklarning uyushiq qator bilan ifodalanishi" bahsiga qarang). Teng bog'lovchilar bilan gapshakllar bog'lansa, odatda teng qisqli qo'shma gapshakl hosil bo'ladi (Bular quyiroqda tasvirlanadi). Gapshakllar ergashtiruvchi bog'lovchi vositalar bilan bog'lansa, noteng qisqli qo'shma gapshakl hosil bo'ladi (Bular o'z o'mida tasvirlanadi).

2. Olmoshlar bosh gapshakl va ergash gapshakl tarkibida o'zaro bog'liq holda qatnashib, bunday qismlarni bog'lash vositasi vazifasini bajaradi; shunday olmoshlar asosida ergash gapshakllarning ayrim turlari belgilanadi. Qo'shma gapshakl tarkibida bir-biriga nisbat berib ishlataladigan bunday olmoshlarga nisbiy olmoshlar deyiladi: *Odamzod o limdan q a n a q a qo'rqa, ayol kishi yolg'iz qolishdan sh u n a q a qo'rqa* (O'tkir Hoshimov) kabi. Olmosh bosh gapshakl tarkibida yakka holda ham qatnashib, ergash gapshakl shu olmoshni izohlashi mumkin: *Shuni unutmaginki, bu kishi hechqachon senga do'st bo'lmaydi* kabi.

3. Qo'shma gapshakl qismlari tarkibidagi kesimlarning grammatik shakllari ham bog'lovchi vosita deb ta'kidlanadi. Asli grammatik shakl yasovchilar orasida -sa 2 shart mayli yasovchisi-gina shunday vazifaga xoslangan.

'Shart' ma'nosini ifodalaydigan -sa 2 affiksini 'istak' ma'nosini ifodalaydigan -sa 1 affiksidan ajratish kerak; bu affikslar hozirgi o'zbek tilida boshqa-boshqa mayl shaklini yasaydi, demak, omoaffikslar deb baholanishi lozim. 'Istak' ma'nosini ifodalaydigan -sa 1 affksi qatnashadigan leksemashakl qo'shma gapshakl tarkibidagi tobe qismning kesimi bo'lib kelmaydi.

Masalan, *Nima bo'lganda-yam hadik azobidan qutulsam, bir cho'qib atrosga ming alanglagan qarg'adek ayanchli ahvoldan xalos bo'lsam deyman* (O'tkir Hoshimov) jumlesi tarkibidagi kesimlar -sa 1 affksi bilan yasalgan istak maylida bo'lib, ayni bir bajaruvchiga bog'lanadi, demak, uyushiq qator tashkil etadi, shunga ko'ra bu jumla uyushiq qator bilan ifodalangan kesimli sodda gapga teng.

'Shart' ma'nosini ifodalaydigan -sa 2 affksi qo'shma gapshakl tarkibida qatnashadigan tobe qismning kesimini shakkantiradi: *Serka suruvga ilashsa, uni ushslash oson bo'lar edi* (Pirimqul Qodirov). Asli shart ma'nosini ifodalaydigan bu affiks keinchalik boshqa qo'shimcha ma'nolarni ifodalash uchun ham ishlatalgan.

4. Yuklama asli gapshakllarni bog'lash uchun emas, balki gapshaklga ma'lum bir grammatic ma'noni qo'shish uchun xizmat qiladi. Faqat ayrim yuklamalar qo'shma gapshakl tarkibidagi kesimning doimiy tarkibiy qismiga aylangan. Masalan, *ham* yuklamasi to'siqsiz ergash gapshakl kesimining grammatic shaklida doimiy tarkibiy qism sifatida qatnashadi: *Hulkar uni o'shanda bir amallab bosgan bo'lsa ham, Turdining shunchalikka borgani uning yuragiga bir dog' bo'lib tekan edi* (Pirimqul Qodirov) kabi.

#### TENG QISMLI QO'SHMA GAPSHAKLLAR

2- §. Bunday qo'shma gapshakllarning sodda gapshaklga teng qismlari grammatic shakli jihatidan biri ikkinchisiga tobe bo'lmaydi; sodda gapshaklga teng qismlar o'zaro teng bog'lovchi bilan bog'lanadi; bog'lovchilarning ma'no turlariga qarab qo'shma gapshakl qismlari orasidagi ma'no munosabati belgilanadi.

Biriktiruv bog'lovchisi va qo'shma gapshakl qismlari oralig'ida joylashib, bu qismlarga bir xil munosabatga bo'ladi: ularni mustaqil gapshakllar sifatida teng bog'laydi. Bunday qo'shma gapshakl qismlarida bajaruvchi (qatnashsa, ega) boshqa-boshqa bo'lishi lozim: *Ana shunda-gina suv o'tga kor qila boshladи va oradan biror scat o'tar-o'tmas alanga pasaydi* (Hamid G'ulom). *Hovlida bedana sayraganday bo'ldi va Dildorning qo'ng'iroqday ovozi jarangladi* (Hamid G'ulom) kabi.

Bunday qo'shma gapshakllar qolipini quydagicha yozib ko'rsatish mumkin:

[ega] X kesim gapshakl	va	[ega] X kesim gapshakl
teng qisqli qo'shma gapshakl		

Ayrim jumlalarda har ikki qismning bajaruvchisi aynan bo'ladi-yu, lekin har bir

qismda ega ifodalanadi. Bunday qurilmalarni qo'shma gap shakl deb emas, balki kesimi uyushiq qator bilan ifodalangan sodda gapshakl deb baholash to'g'ri: *Shu vaqt tom yog'ochlari qarsillab ketdi va ular uy ichiga, devor taglariga birin-ketin tap-tap qulab tusha boshlad* (Hamid G'ulom). *Qosim aka .. bemorning ahvolini Dildordan so'radi va o'zi ham uning tomirini ushlab, .. diagnozni tasdiqladi-da,..* (Hamid G'ulom) kabi. Ikkinci qismdag'i ega birinchi misolda ular olmoshi bilan, ikkinchi misolda o'z- ta'kid birligi bilan ifodalangan.

Nutqda bir bajaruvchiga (egaga) bog'langan ikki (va undan ortiq) kesimli gapshakllar ko'p ishlataladi. Bunday sintaktik qurilishlar uyushiq kesimli sodda gapshakl deb baholanadi, chunki ayni bir bajaruvchiga (egaga) taalluqli turli harakat-holat anglatiladi: *O'roz isib ketganday o'rалган choponini yelkadan tushirdi va miltiragan "jinchiroq"qa tikilib jim bo'lди* (Oybek). *Buni Eshmurod aka ham tushunar va janjaldan uzoqroq yurgisi kelar edi* (Pirimqul Qodirov) kabi.

Har ikki jumlada ayni bir egaga (*O'roz, Eshmurod aka*) shu eganing ikki harakat-holatini anglatayotgan kesimlar bog'langan. Birinchi jumlada kesimlardan har biri mustaqil grammatic shakllangan, ikkinchi jumlada analitik grammatic shakl tarkibidagi *edi* affiksoidi umumlashtirilgan.

Mana bu jumlalar tarkibida ega qatnashmagan; kesimlar ayni bir bajaruvchining harakat-holatini anglatadi, shunga ko'ra uyushiq qatorga teng: *Bir to'nkaga belidan ilinib to'xtadi va boshini ko'tardi* (Pirimqul Qodirov). *Keyin divanga, uning yoniga o'tirdi va sovgotgan ingichka barmoglari bilan uning qalrin sochini, keng peshanasini, quyuq qoshi va kipriklarini beozorgina siladi* (Hamid G'ulom).

Biriktiruv bog'lovchisi *va* bilan tuzilgan qo'shma gapshakllarning kesimlari bo'lishli yoki bo'lishsiz shaklda, odatda ayni bir zamon shaklda bo'ladi, bir paytda yoki birin-ketin voqe bo'ladi yoki voqe bo'lmaydigan harakat-holatni anglatadi.

3- §. Zidlov bog'lovchisi *lekin, ammo, biroq* odatda qo'shma gapshakl keyingi qismining boshlanishida joylashib, bu qism anglatayotgan voqelik mazmunan oldingi qismga zid qo'yilayotganini ifodalaydi; shunga ko'ra ko'pincha keyingi qism kesimi, ba'zan oldingi qism kesimi bo'lishsiz shaklda ishlataladi. Bunday qo'shma gapshakl qismlarida bajaruvchi (ega) boshqa-boshqa bo'lishi lozim. Qo'shma gapshaklning bu turi qolipini quyidagicha yozib ko'rsatish mumkin:

<u>[ega] X kesim</u>	<u>, lekin</u>	<u>[ega] X kesim</u>
gapshakl		gapshakl

teng qismli qo'shma gapshakl

1. Zidlov bog'lovchilar o'zaro sinonim bo'lib, nutqda eng ko'p *lekin* bog'lovchisi ishlataladi: *Aslida hech kim boshliqning obro'sini tushirishga urinayotgani yo'qdir, lekin Farmonovga ularning har bir qilig'i shunga qaratilgandek tuyilar edi* (Asqad Muxtor). *Paxta zarur, juda zarur, lekin inson salomatligi undan ham zarur*

(Hamid G'ulom) kabi.

Ba'zan bunday tuzilishli qo'shma gapshaklning birinchi qismi tugal to'xtam bilan aytilib, yozuvda nuqta qo'yiladi va keyingi qism boshlanishida kelgan *lekin* bog'lovchisi bosh harf bilan boshlab yoziladi; shunga qaramay bunday qismlar bir-galikda qo'shma gapshaklga teng deyiladi: ... u "begona qiz"ni endi tanidi. Lekin hali u go'zal ham yaqin, ham uzoq! ... (Oybek).

Biriktiruv bog'lovchisi qatnashadigan qurilmalarda bo'lganidek zidlov bog'lovchisi qatnashadigan qurilmalarda ham ikki (va undan ortiq) kesim ayni bir bajaruvchiga (egaga) bog'lansa, ayni bir bajaruvchiga (egaga) taalluqli turli harakat-holatni anglatса, bunday kesimlar uyushiq qator hosil etadi: *Bo'yi yoshiga qara-ganda balandroq, lekin butun gavdasiga mutanosib* (Oybek). U o'qtin-o'qtin bo'ynini silar, lekin endi *hiqillamasdi* (O'tkir Hoshimov) kabi. Ikkinci jumlada kesimlarning analitik zamон shakli tarkibidagi *edi* affiksoidi umumlashtirilgan.

Ba'zan har ikki qismning bajaruvchisi aynan bo'ladi-yu, lekin har bir qismda ega ifodalanadi. Bunday holatni sodda gapshakl deb baholash to'g'ri: *Ahmadjon ham uni e'zozlaydi. Lekin u doim birga bo'la olmaydi, shundan qiyinalishi sezilib turadi* (Hamid G'ulom) kabi. Bu jumlada ikkinchi qismdagi ega u kishilik olmoshi bilan ifodalangan.

Mana bu jumlalar tarkibida ega qatnashmagan; kesimlar ayni bir bajaruvchining harakat-holatini anglatadi; shunga ko'ra bu jumlalar kesimi uyushiq qator bilan ifodalangan sodda gapshaklga teng: *Ahli rastaga va yosh boyvachchalarga yarasha durustgina kiyinadi, lekin o'ziga ortiqcha zeb bermaydi* (Oybek). Endi kundoshi bilan uch-to'rt kun apoq-chapoq bo'lib, og'iz-burun o'pishganday bo'lar, lekin yana uch-to'rt kun sababli-sababsiz sira gaplashmay teskari burilar edi (Oybek) kabi. Ikkinci jumlada kesimlarning analitik grammatic shakli tarkibidagi *edi* affiksoidi umumlashtirilgan.

2. Nutqda *ammo* bog'lovchisi ham ko'p ishlataladi; bu yerda ham *lekin* bog'lovchisi qatnashuvi bilan tuziladigan jumlalardagi kabi holatlar ro'y beradi:

I) Qo'shma gapshaklning har bir qismida ega ifodalangan bo'ladi: *Endi u yig'lamas, ammo ovozida vahima bor edi* (O'tkir Hoshimov). *Kim nima desa-desin, ammo hali-yam Shomurod akam xayolimdan ketmaydi* (O'tkir Hoshimov) kabi.

2) Qo'shma gapshaklning birinchi qismida ega ifodalangan, ikkinchi qismida ega qatnashmagan bo'ladi, lekin bu qismlardagi harakat-holatning bajaruvchisi boshqa-boshqa bo'ladi: *Uning borishi Mirzo Muhiddinning kayfi chog' vaqtiga to'g'ri keldi, ammo hanuz boshining orqasi og'riyotganidan shikoyat qilar edi* (Abdulla Qahhor). ... *ak. og'iga urilayotgan nafis atir isi boshini aylantirib qo'ygandek bo'lar, ammo uning yuziga qarashga jur'at etolmas edi* (O'tkir Hoshimov) kabi.

3) Ega qo'shma gapshaklning ikkinchi qismida ifodalangan bo'ladi: *Jim qolishdi. Ammo bu jimlik noqlay tuyilmas edi* (Pirimqul Qodirov) kabi.

4) Ayni bir bajaruvchiga (egaga) bog'langan kesimli gapshakllar bu yerda ham kesimi uyushiq qator bilan ifodalangan sodda gapshaklga teng bo'ladi: *Ora-chora*

*chaqmoq chaqar, ammo qalin daraxtlar orasini avvalgidek yoritolmas .. edi* (O'tkir Hoshimov). *Avaz aytgan ishni ko'z oldiga keltirib bir seskandi, ammo buni bildirmaslikka tirishib miyig'ida kului* (Pirimqul Qodirov) kabi.

3. Nutqda *biroq bog'lovchisi*, afsuski, juda oz ishlatiladi. Mana bu qo'shma gapshaklning har ikki qismida ega ifodalangan: *Aziz shunday o'ylar edi-yu, biroq o'z vijdoniga qarshi borayotganidan joni qiyinalar edi* (Hamid G'ulom).

4- §. Ayiruv bog'lovchilar yo, yoki qo'shma gapshaklning ikkinchi qismi boshlanishida yakka holda yoki har ikki qismi boshlanishida takrorlanib ishlatiladi, qo'shma gapshakl qismlari anglatayotgan harakat-holatlardan biri ro'yobga chiqishi mumkinligini ifodalaydi. Bunday qo'shma gapshaklning qismlari odatda ayni bir zamon shaklida ishlatiladi.

Ayiruv bog'lovchisi bilan tuziladigan qo'shma gapshakl qolipini quyidagicha yozib ko'rsatish mumkin:

[ega] X kesim	[.] ↔ yo	[ega] X kesim
gapshakl		gapshakl
teng qismli qo'shma gapshakl		

Ayiruv bog'lovchisi bilan tuzilgan qo'shma gapshakllar nutqda oz ishlatiladi: *Bu topshiriqni y o men bajaray, y o k i siz bajaring* kabi.

#### 5- §. Ba'zi xulosalar:

1. Teng bog'lovchilar ikki vazifani bajaradi: uyushiq qator qismlarini yoki qo'shma gapshakl qismlarini bog'laydi. Gapshaklga teng qismlarda ega ifodalangan-ifodalanganmaganidan qat'i nazar, kesimlar ayni bir bajaruvchining harakat-holatini anglatса, bunday kesimlar uyushiq qator hosil etadi, bunday gapshakl sodda gapshaklga teng bo'ladi; agar kesimlar boshqa-boshqa bajaruvchining harakat-holatini anglatса, bunday kesimlar qo'shma gapshakl tarkibidagi sodda gapshakllarga mansub bo'ladi, shunga ko'ra bunday sintaktik qurilma qo'shma gapshaklga teng bo'ladi.

2. Zidlov bog'lovchisi qatnashgan gapshakilar tarkibidagi kesimlardan biri bo'lishsiz shaklda ishlatiladi. Boshqa-boshqa bajaruvchilarining o'zaro zid qo'yiladigan harakat-holatini anglatishi sababli bunday qo'shma gapshakl tarkibidagi kesimlarga boshqa-boshqa tuslovchi qo'shiladi. Bunday qo'shma gapshaklning har ikki qismidagi kesimga III shaxs tuslovchisi qo'shilganida ham bu tuslovchilar boshqa-boshqa bajaruvchini ifodalaydi. Ko'rinish turibdiki, bajaruvchini, egani tuslovchi belgilamaydi, balki tuslovchi kesimga bajaruvchidan, egadan anglashiladigan shaxs ma'nosiga muvofiq holda tanlab qo'shiladi. Demak, ega kesimga tobe, kesim tarkibidagi tuslovchiga xos valentiikning voqelanishimi aks ettiradi, shunga ko'ra egani kesimning kengaytiruvchisi deyish haqiqatga zid. Hech qachon oldin tuslovchi qo'shilib, keyin unga mos bajaruvchi, ega qidirilmaydi; har qanday gapda avval fikr predmeti

a) Ega har ikki qismda ifodalanadi: *Agar Sergey Qobilni yelkasidan bosib o'tqazib qo'ymaganda, bechora xotinning boshi yorilardi* (Hamid G'ulom) kabi. Ushbu jumlada kesimlar tarkibidagi *edi* affiksoidi umumlashtirilgan.

b) Ega faqat ikkinchi qismda ifodalanadi: .. *suruvlarni barvaqtroq ajratib, o'sha zahoti sanab ko'rishganda, balki topish osonroq bo'lar edi* (Pirimqul Qodirov) kabi. Bu jumlada ham kesimlar tarkibiga mansub *edi* affiksoidi umumlashtirilgan.

2) Harakat-holatning bajaruvchisi aynan bo'ladi. Mana bu jumlada ega qo'shma gapshaklning birinchi qismida ifodalangan: *Agar Turdi Hulkarga o'pkasini bosibroq qaraganda, uning yuzidagi kinoyani sezar edi* (Pirimqul Qodirov). Bu jumlada ham kesimlar tarkibiga mansub *edi* affiksoidi umumlashtirilgan va b.

Xullas, shart ergash qismli qo'shma gapshakllar tarkibidagi kesimlar turlicha grammatick shakllanadi; shunga ko'ra bajaruvchi, ega aynan bo'lgan qurilmalarda ham uyushiq qator bilan ifodalangan kesim haqida emas, balki qo'shma gapshakl qismlariga mansub kesimlar haqida gapiriladi. Bu fikr noteng qismli qo'shma gapshakllarning quyida tasvirlangan barcha turlari uchun umumiy.

### To'siqsiz ergash qismli qo'shma gapshakl

3- §. To'siqsiz ergash qismli sintaktik qurilmalarda ergash qismdan anglashiladigan zid voqelikka qaramay bosh gapshakldan anglashiladigan voqelikning amalga oshishi ifodalanadi.

To'siqsiz ergash gapshaklning kesimi quyidagicha shakllanadi:

1. Bunday ergash gapshaklning kesimi asosan *-sa + tuslovchi + ham* tizmasi bilan shakllanadi. Bu yerda *ham* ta'kid yuklamasi shart ergash gapshakl kesimini go'stiqsidan ergash gapshakl kesimiga aylantriradi. Ushbu yuqlama so'zlashuv nutqida tovush jihatidan o'zgarib, -*yam* tarzida ham talaffuz qilinadi va o'zidan oldingi qismga chiziqcha orqali yarim qo'shib yoziladi (Quyidagi misollarni kuzating).

Bunday ergash qismli qurilmalarda bajaruvchining holati, eganing ifodalanishi quyidagicha:

I) Harakat-holatning bajaruvchisi boshqa-boshqa bo'ladi:

a) Ega har ikki qismda ifodalanadi: *Lekin kelin oyilari bu holning hiyla va shaytonlik ekanini yaxshi anglasalar ham, hovliqma, laqma-yengil Lutfiniso bunga chindan ishonar .. edi* (Oybek) kabi.

b) Ega faqat birinchi qismda ifodalanadi: *Biror qo'shni yoki narigi mahalladagi biror kishining bolasi sal shamollasa ham, "do'xtir opa"ni olib ketishga mashinadami, yayovmi kelishaverardi* (Hamid G'ulom) kabi.

d) Ega faqat ikkinchi qismda ifodalanadi: *Bolani qo'rqitmaslik uchun dadilroq gapirishga shuncha urinsam ham, ovozim ingrab chiqdi* (O'tkir Hoshimov) kabi.

e) Ega har ikki qismda ifodalanmaydi: *Bormayman! Ishdan olishsa-yam, shu bugun ishdan haydashsa-yam, bosh egib bormayman!* (Odil Yoqubov) kabi.

2) Harakat-holatning bajaruvchisi aynan bo'ladi:

a) Ega har ikki qismda ifodalanadi; bunday holat quyidagi misolda *aql(i)* yetadi frazemasining takroran ishlatalishi bilan voqe bo'lgan: *Boshqa narsaga aqlim yetmasa ham, bu dunyoda hech kim ustun bo'lmasligiga aqlim yetadi* (Odil Yoqubov) kabi.

b) Ega faqat birinchi qismda ifodalanadi: *Nihoyat, qiz tomon bo'sh kelmasa ham, umuman erkak kishining hurmati va uning ayoldan ustunligini tasdiqlash uchun picha yon berdi* (Oybek). *Azizning ko'rishishdan ko'zlagan maqsadini Dildor ilgariroq tus-mollab bilgan bo'lsa ham, endi uning bu gaplaridan keyin aniq anglatdi* (Hamid G'ulom). *U garchi Abror Shukurovich bilan bir necha marta telefonda gaplashgan bo'lsa ham, o'sha kungi ko'ngilsiz voqealardan keyin hali ko'rishmagan edi* (Odil Yoqubov) kabi. Oxirgi misolda garchi yordamchisi qatnashgan; lekin bu yordamchi agar yordamchisida bo'lgani kabi ergash gapshakni yolg'iz o'zi shakllantira olmaydi, faqat to'siqsizlik ma'nosini ta'kidlashga xizmat qildi.

d) Ega har ikki qismda ifodalanmaydi: *Jo'rttaga ko'ringansan, yosh bo'lsang ham, balosan* (Oybek). *Kecha birovdan o'rganib olishga qasd qilgan bo'lsa ham, keyin bu fikridan kechgan edi* (Oybek) kabi.

2. To'siqsiz ergash gapshakl kesimi tarkibida *ham* yuklamasi emas, -da yuklamasi ishlataladi; demak, shu o'rinda bu yuklamalar sinonim bo'ladi. Bajaruvchining holati, eganing ifodalanishi quyidagicha:

I) Harakat-holatning bajaruvchisi boshqa-boshqa bo'ladi:

a) Ega har ikki qismda ifodalanadi: *Qudalari ko'rsatgan e'zoz va e'tibordan mammun bo'lsa-da, uning xotiri parishon, ko'ngli notinch edi* (Oybek). *Uyda tutun yo'qolgan bo'lsa-da, aychiq hid darrov uning burniga urildi* (Oybek) kabi.

b) Ega faqat birinchi qismda ifodalanadi: .. *quvonchi ko'ksiga sig'masa-da, nazokat, odob yuzasidan o'zini xomush tutishga tirishar edi* (Oybek) kabi.

2) Harakat-holatning bajaruvchisi aynan bo'ladi:

a) Ega faqat birinchi qismda ifodalanadi: *Xayollarga, umidlarga ko'kragi to'lgan Nuri oshiqqani, intilgani baxt bilan o'zi orasini ayirgan bir kunni qanday kechirishni bilmasa-da, .. yuziga qayg'ulanish, o'ksinish hislarini beradi* (Oybek) kabi.

b) Ega har ikki qismda ifodalanmaydi: .. *ular bilan o'z tilida ikki og'iz so'zlashuvni orzu qilsa-da, atrofdagi musulmonlardan qo'rqqanidan jur'at qila olmas edi* (Oybek) kabi.

Tuqoridagi misollardan ayon bo'ladiki, to'siqsiz ergash gapshakl kesimi tarkibida -da yuklamasini ishlatalish — Oybek uslubiga xos xususiyat.

3. To'siqsiz ergash gapshaklning kesimi -gan + da + ham tarzida ifodalanadi. Bunday ifodalanish — to'siqsiz ergash gapshakl kesimining -sa ham tizmasi bilan ifodalanishiga sinonim. Bunda bajaruvchining holati, eganing ifodalanishi quyidagicha:

I) Harakat-holatning bajaruvchisi boshqa-boshqa bo'ladi:

a) Ega har ikki qismda ifodalanadi: .. *go'sht bilan pomidorning qaynab bug'lanishidan qozon yorilganda ham, xamir yorilmasligi kerak edi* (Pirimqul Qodirov). *Serka bunday demaganda ham, Xolbekning ko'nglini shunga yaqin bir o'y ezib*

*o'tmoqda edi* (Pirimqul Qodirov) kabi.

b) Ega har ikki qismda ifodalanmaydi: *Osmon bo'lganiningda ham, meni yerga urib ketolmaysan!* (Pirimqul Qodirov) kabi. Bu misolning oldingi band misollaridan yana bir farqi shuki, *-gan* va *-da* affikslari oralig'ida *-(i)ng* nisbatlovchisi ishlataligan; bu nisbatlovchi bajaruvchining shaxs-soniga monand holda tanlab qo'shilgan.

2) Harakat-holatning bajaruvchisi aynan bo'ladi. Mana bu jumlada ega bosh gapshaklga teng qismda ifodalangan: *Topilmaganda ham, bitta qo'y odamning joni emas-ku* (Pirimqul Qodirov) va b.

4. To'siqsiz ergash gapshaklning kesimi [har] *qancha X fe'l leksama + ma + sin* tarzida tuziladi; bunday kesim odatda *urin-*, *harakat qil-*, *so'zla-*, *gapir-*, *tushuntir-* kabi leksemalar bilan ifodalanadi; bosh gapshaklga teng qismning kesimi esa odatda *-di* aniq yaqin o'tgan zamon shaklida bo'ladi.

Mana bu qo'shma gapshaklning qismlarida bajaruvchi boshqa-boshqa bo'lib, har ikki qismda ega ifodalangan: *Nuri yurak sirini yashirishga qancha urinmasin, ona ni-manidir payqab tinchsizlandi* (Oybek).

Quyidagi qo'shma gapshakllarning har ikki qismida bajaruvchi aynan bo'lib, ega faqat birinchi qismida ifodalangan: *U Dildorni o'z tashvishlaridan uzogroq tutishga, uni ehtiyyot qilishga har qancha urinmasin, bunga muvaffaq bo'la olmadi* (Hamid G'ulom). Lekin u *qancha so'zlamasin*, bu kitobning dinka ziyonsiz ekanini o'jarusmusulmonga tushuntira olmadi (Oybek) va b.

### **Payt ergash qismli qo'shma gapshakl**

4- §. Bunday sintaktik qurilmalarda ergash qism bosh qismdan anglashiladigan harakat-holatning voqe bo'lish paytini aniqlashtiradi.

Payt ergash qism kesimi odatda *-sa* 2 affaksi bilan shakllanadi; bunday ergash qism tarkibida payt ma'nosini anglatadigan leksik birlik ham qatnashadi. Shunga ko'ra payt ergash qismning ifodalishini "[payt ma'nosini anglatadigan leksik birlik] X fe'l leksema + sa + tuslovchi" tarzida yozib ko'rsatish mumkin. Bunday ifodalangan qurilmalarda *-sa* 2 affiksining 'shart' ma'nosi zaiflashadi, 'payt' ma'nosini ifodalashga xizmat qiladi.

Payt ergash qismli qurilmalarda bajaruvchining holati, eganining ifodalaniishi quyidagicha:

I) Harakat-holatning bajaruvchisi boshqa-boshqa bo'ladi:

a) Ega har ikki qismda ifodalanadi: *Baribir erta-indin behi gullasa – tamom: quzg'unlar uchib ketadi* (O'tkir Hoshimov). Avaz borib qarasa, qorning chetida katta etik izi bor (Pirimqul Qodirov) kabi.

b) Ega birinchi qismda ifodalanadi: *Akam kelsalar, siz bilan traktor haydaganimni aytaman* (O'tkir Hoshimov). Yangi yil kechasidan buyon yarim oy o'tgan bo'lsa, shu kunlar ichida ich-etimni yeb o'zimni abgor qildim-ku! (O'tkir Hoshimov) kabi.

d) Ega ikkinchi qismda ifodalanadi: *Bir mahal ko'zimni ochsam, ichkarida chiroq yo'q* (O'tkir Hoshimov). *Umuman, keyingi paytlarda egachimni, Robiyani, Duma pochchamni ko'rsam, tizzam qaltiraydigan bo'lib qolgan* (O'tkir Hoshimov) kabi.

e) Ega har ikki qismda ifodalanmaydi: *Bir vaqt munday qarasam, xizmatkorxonada derazasidan Yo'lchi akaga ko'zim tushdi* (Oybek). *Yugurib chiqsam, egarda jilmayib o'tiribdi* (O'tkir Hoshimov) kabi.

2) Harakat-holatning bajaruvchisi ba'zan aynan bo'ladi. Mana bu jumlada ega qo'shma gapshaklning ikkinchi qismida ifodalangan: *Katta bo'lsam, menam urushga boraman-a?* (O'tkir Hoshimov) kabi va b.

### O'rın ergash qismlı qo'shma gapshakl

5- §. O'rın ergash qismlı qo'shma gapshakllarda ergash qism bosh gapshakldan anglashiladigan harakat-holatning voqe bo'lish o'rnnini aniqlashtiradi; ergash qism kesimi -sa affiksi bilan shakllanadi, bosh gapshakl tarkibida o'rın, jo'nalish kelishigidagi *shu yer-, o'sha yer-* birikmasi, ergash qismda esa shu birikmaga muqobil holatda o'rın, chiqish, jo'nalish kelishigidagi *qayer-, qayoq-* olmoshi, ba'zan *qay tomon-* birikmasi qatnashadi: *Ko'z qayerda bo'lsa, mehr ham o'sha yerdə* (Maqol). *Katta kema qayoqqa yursa, kichik kema ham shu yoqqa yuradi* (Maqol). *Shamol qaysi tomoniga essa, maysalar ham o'sha tomoniga egiladi* kabi.

Ergash qism kesimi sifat, kesimlik leksemasi bilan ifodalansa, *bo'l-* yordamchisi, ba'zan *ekan* affiksoidi qatnashib shakllanadi: *Qayerda adolat ustun bo'lsa, shu yerdə hayot farovon bo'ladi. — Qayerda adolat ustun ekan, shu yerdə hayot farovon bo'ladi* kabi va b.

### Maqsad ergash qismlı qo'shma gapshakl

6- §. Bunday sintaktik qurilmalarda ergash qism bosh gapshakldan anglashiladigan harakat-holatning qanday maqsad bilan ro'y berishini bildiradi.

Maqsad ergash qismlı qo'shma gapshakllar nutqda juda oz ishlatalib, ergash qism kesimi "fe'l leksema + bo'lishli/bo'lishsiz shakl yasovchisi + a/ü + man + de + sa + tuslovchi" tarzida shakllanadi: *[imoratni qulashdan] To'sib qolaman desang, bosib tushib, o'zingni ham parcha-parcha qilib tashlashidan qo'rqar ekansan* (O'tkir Hoshimov) kabi.

Bunday qo'shma gapshakl tarkibidagi ergash qism kesimi "fe'l leksema + bo'lishli shakl + moqchi bo'l + sa + tuslovchi" tarzida ham shakllanadi: *Imoratni qu-lashdan saqlamoqchi bo'lsang, bosib tushib, o'zingni ham parcha-parcha qilib tashlashidan qo'rqar ekansan* kabi va b.

### Ega ergash qismlı qo'shma gapshakl

7- §. Ega ergash qismlı qo'shma gapshakllarda ergash qism bosh gapshakl tarkibidagi egani aniqlashtiradi; ergash qism kesimi -sa 2 affiksi bilan shakllanadi, bu

qism tarkibida bosh kelishikdagi *u*, *o'sha* kabi olmosh bosh gapshakl tarkibidagi *kim*, *nima* kabi olmoshga mutanosib holatda ishiatiladi, bunday olmoshga *ba'zan -ki* ta'kid yuklamasi qo'shilib keladi: *Kim-ki halol mehnat qilsa, u albatta obro' topadi* (Maqol). *Qozonga nima tushsa, cho'michga o'sha chigadi* (Maqol) kabi va b.

### **Qaratuvchi ergash qismli qo'shma gapshakl**

**8- §.** Qaratuvchi ergash qismli qo'shma gapshakllarda ergash qism bosh gapshakl tarkibidagi qaratuvchini aniqlashtiradi: ergash qism kesimi -*sa* 2 affiks bilan shaklla-nadi, bu qism tarkibida qaratqich kelishigidagi *kim-* olmoshi, bosh gapshakl tarkibida esa unga muqobil ravishda *u-* kishilik olmoshi, *o'sha-* ko'rsatish birligi qatnashadi: *Kimning lafzi halol bo'lsa, uning yuzi doim yorug' bo'ladi* (Maqol). *Kimning aravasiga tushsang, o'shaning qo'shig'ini aytasan* (Maqol) kabi va b.

### **Qiyos va o'xhatish ergash qismli qo'shma gapshakl**

**9- §.** Qiyos va o'xhatish ergash qismli qo'shma gapshakllarda ergash qism bosh gapshakldan anglashiladigan harakat-holatga xos belgini qiyoslash, o'xhatish yo'li bilan aniqlashtiradi.

1. Qiyos ergash qismli qo'shma gapshakllar quyidagicha tuziladi:

1. Qo'shma gapshakl qismlari -*ki* bog'lovchisi bilan bog'lanadi, bu bog'lovchi bosh gapshaklga qo'shiladi; bosh gapshakl tarkibida *shunday, shunaqangi, shunchalik, shu qadar* kabi olmosh qatnashadi, ergash qism ana shu olmoshga nisbat berilayotgan belgining qandayligini qiyoslab anglatadi. Bunday bosh gapshakl tarkibini quyidagicha yozib ko'rsatish mumkin: "*shunday X kesim leksemashakl + ki, ..*"

Bu tur sintaktik qurilmalarda bajaruvchining holati, eganing ifodalanishi quyida-gicha:

1) Bajaruvchi boshqa-boshqa bo'ladi:

a) Ega har ikki qismda ifodalanadi: *Bu mish-mishiar shunday xunuk, shunday mudhish ediki, Latofat qishloqdan bosh olib chiqib ketmoqchi bo'lgan vaqtлari ham bo'ldi* (Odil Yoqubov). *Bu safar tutqich shunaqangi kuchli zarb bilan biqinimga urildiki, ko'zimdan olov chiqib ketdi* (O'tkir Hoshimov). *Umar zakunchi ko'zimga shunchalik dag'dag'a bilan chaqchaydiki, tilim aylanmay qoldi* (O'tkir Hoshimov) kabi.

b) Ega birinchi qismda ifodalanadi: *Shu payt ikkovi ham shunday chiroyli, shunday haxtiyor ko'rindiki, hayron bo'lib yoqamni ushladim* (Pirimqul Qodirov) kabi.

d) Ega ikkinchi qismda ifodalanadi: *Bora-bora shunaqangi joningdan to'yib keta-sanki, qilich taningni boshingdan tezroq judo qilishiga orzumand bo'lib qolasan* (O'tkir Hoshimov) kabi va b.

2) Bajaruvchi aynan bo'ladi:

a) Ega birinchi qismda ifodalanadi: *Zangori osmon ham shunday tiniq, shunday beg'uborki, ko'zni oladi* (Oybek) kabi.

b) Ega har ikki qismda ifodalanmaydi: *Bu safar shu qadar shiddatli yaltiradiki, osmonni ikki bo'lakka tilimlab tashlagandek bo'ldi* (O'tkir Hoshimov) kabi va b.

2. Qo'shma gapshakl tarkibidagi ergash qismning kesimi -sa 2 affiksi bilan shakllanadi, bu qism tarkibida *qancha, qanchalik, qanday olmoshi, bosh gapshakl qismida esa shunga mutanosib holda shuncha, shunchalik, o'shanday kabi olmosh, ba'zan ko'p ravishi qatnashadi: Nigor opa orzulari puchga chiqqaniga qancha kuysa, o'g'li ning ahvolini ko'rib undan ham ko'proq o'rtanar edi* (Hamid G'ulom). *Paxtaga qanchalik ko'p ishlov berilsa, shunchalik ko'p hosil olinadi. Ilgari qanday berilib ishlagan bo'lsak, hozir ham shunday ishlayapmiz* kabi.

Bunday qo'shma gapshakl ba'zan nisbiy olmoshlar qatnashmagan holda, belgi ma'nosini anglatadigan leksemaning o'zini qiyoslab ishlatish bilan tuziladi: *Paxta ishi og'ir desam, ilm mehnati undan ham og'irroq ekan* (Hamid G'ulom) kabi va b.

II. O'xshatish ergash qismli qo'shma gapshakllarning qismlari -ki bog'lovchisi bilan bog'lanadi; ergash qism kesimi tarkibida -day o'xshatish affiksoidi, bu qism boshlanishida esa ko'pincha *go'yo, xuddi yordamchilari* qatnashadi: *Shamol shu qadar kuchli esdiki, go'yo daryo suvi teskari oqayotgandek bo'ldi* kabi va b.

### To'ldiruvchi ergash qismli qo'shma gapshakl

10- §. Bunday sintaktik qurilmada ergash qism bosh gapshakl tarkibida olmosh bilan ifodalangan to'ldiruvchini aniqlashtiradi. Ba'zan bosh gapshakl tarkibida bunday to'ldiruvchi ifodalanmaydi.

To'ldiruvchi ergash qismli qo'shma gapshakllar quyidagicha tuziladi:

1. Qo'shma gapshakl qismlari -ki bog'lovchisi bilan bog'lanadi, bog'lovchi bosh gapshaklga qo'shiladi; ergash qism bosh gapshakl tarkibida to'ldiruvchi bo'lib kelgan olmoshni aniqlashtiradi.

Bunday qurilmalarda bajaruvchi asosan boshqa-boshqa bo'ladi:

a) Ega ikkinchi qismda ifodalanadi: *Shuni unutmangki, halol mehnat bilan topilgan nonning ta'mi o'zgacha bo'ladi* kabi.

b) Ega har ikki qismda ifodalanmaydi: *Ko'rib turibsizki, Umidaning qissasini ham boshdan ayтиb bermasam bo'lmaydi* kabi.

2. Ergash qismning kesimi -sa 2 affiksi qatnashgan holda shakllanadi; bunday ergash qism bosh gapshakl tarkibida to'ldiruvchi bo'lib kelgan olmoshni aniqlashtiradi.

Bunday qurilmalarda bajaruvchi asosan aynan bo'ladi, ega ko'pincha ifodalanmaydi: *Nimani eksang, shuni o'rasan* (Maqol). *Kimda gumoning bo'lsa, uni ko'zdan gochirma* (Oybek). *Kim-ki bo'lsa dilozor, undan el-u yurt bezor* (Maqol). Ikki misol tarkibida vositasiz to'ldiruvchi, uchinchi misol tarkibida vositali to'ldiruvchi qatnashgan va b.

— qismlarida bajaruvchilarning boshqa-boshqa bo'lishi. Agar kesim vazifasida kelgan birliklar ayni bir bajaruvchiga nisbat berilsa, bunday birliklar uyushiq qator bilan ifodalangan kesimga teng bo'ladi (Misollari quyiroqda).

Bog'lovchi vositasiz tuziladigan qo'shma gapshakllar ikkiga guruhlanadi: teng sanaladigan qismli qo'shma gapshakllar va aniqlashtiruvchi qismli qo'shma gapshakllar.

### Teng sanaladigan qismli qo'shma gapshakl

2-. §. Bunday qo'shma gapshakllarning sodda gapshaklga teng qismlari o'zaro biri ikkinchisining mazmunini aniqlashtirmaydi, bir-biriga tobelanmaydi, teng sanash ohangi bilan talaffuz qilinadi: .. *avtobus keng charog'on ko'chadan yelib borar, odam to'la yo'lkalar, xiyobonlar, magazinlarning yorqin oynalari lip-lip o'tar edi* (Hamid G'ulom) kabi.

Bu tur qo'shma gapshaklliarni uyushiq qator bilan ifodalangan kesimli sodda gapshakllardan farqlash lozim. Uyushiq qator bilan ifodalangan kesimda bajaruvchi aynan bo'ladi, uyushiq qatorni hosil etuvchilar ayni bir bajaruvchining turli harakat-holatini anglatishga xizmat qiladi. Kesimning uyushiq qator bilan ifodalanishi "Sintaktik bo'lakning uyushiq qator bilan ifodalanishi» sarlavhasi ostida tasvirlandi; bu yerda shu hodisaga eganing ifodalanishi nuqtai nazaridan aniqlik kiritiladi.

I. Ega birinchi qismda ifodalanib, har ikki qism uchun umumiyl bo'ladi: *Hali sovuqdan qisilib bujmaygan gavdalar endi o'zini qo'ydi, yayradi* (Oybek). *Turdi qo'yni so'yib, go'shtini terisiga o'rab shu yerga yashirib qo'ygan, boyta kelib go'shtini otlib ketgan edi* (Pirimqul Qodirov) kabi.

2. Ega har ikki qismda ifodalanmaydi: *Yolg'iz o'zini hech yerga yubormaydilar, hatto yo'lakka, ko'cha eshikka ham chiqarmaydilar* (Oybek). *Kecha meditsina instituti xiyobonida Dildorning yo'lini poyladi, uchratdi* (Hamid G'ulom). *Kallangga siqqancha o'yla, keyin maslahat ber* (Oybek) kabi.

3. Ayrim jumlalarning har ikki qismida ega ifodalanadi, lekin bajaruvchi aynan bo'lgani uchun bunday jumtlalarni ham kesimi uyushiq qator bilan ifodalangan sodda gapshakl deb baholash to'g'ri: *Feruzning to'nchasini, do'ppisini olib kiygizdi, o'zi ham guldor duxoba nimchasini kiyib oldi* (Hamid G'ulom) kabi. Ikkinci qismdagi ega o'z-ta'kid birligi bilan ifodalangan.

3-. §. Bog'lovchi vositalarsiz tuzilib, teng sanaladigan qismli qo'shma gapshakllarning qismlarida bajaruvchi boshqa-boshqa bo'ladi; bunday qo'shma gapshakllardan 'biriktiruv' mazmuni ifodalanadi; shunga ko'ra bu tur qo'shma gapshakl qolipini quyidagicha yozib ko'rsatish mumkin:

sodda gapshakl	teng sanash ohangi	sodda gapshakl
g a p l i k	( )	o h a n g i
'b i r i k t i r u v'	m a z m u n i	
q o' sh m a	g a p s h a k l	

Teng sanaladigan qismli qo'shma gapshakllarda eganing ifodalanishi quyidagicha:

I. Ega har bir qismda ifodalanadi:

I) Kesimlar asosan tuslovchili leksemashakl bilan ifodalanadi:

a) asosan fe'l leksemashakl bilan ifodalanadi: *Bu yerda archa o'smaydi, suvlar oqmaydi* (Pirimqul Qodirov). *Yallachilar chirmandalarini urdilar, yuzlarcha xotin-larning "yor-yor" qo'shig'i yangradi* (Oybek). *Undan bir yona narida Turdi bilan Eshmurod aka qo'y boqishar, teparoqda Suyunboy akalarning suruvi yoyilib yurar edi* (Pirimqul Qodirov) kabi;

b) ba'zan fe'ldan boshqa turkum leksemasi bilan ifodalanadi. Quyidagi jumlalarda kesimlar yo'q- kesimlik leksemasi bilan ifodalangan: *Bu rastada ming xil kiyimli olo-mon yo'q, shoshilinch yo'q, qo'lni siqib "Bor, baraka top"lar ham yo'q* (Oybek). *Bu uy ilgari bedaxona bo'lganidan darchasi ham yo'q, tokchasi ham yo'q, toqisi ham yo'q edi* (Oybek). Ikkinci misolda edi affiksoidi umumlashtirilgan.

2) Birinchi qism kesimi ba'zan -b ravishdoshi shaklida ishlatalidi: *Azizning vujudi zirillab, yuragi orqasiga tortib ketdi* (Hamid G'ulom) kabi.

2. Ega faqat birinchi qismda ifodalanadi:

I) Kesimlar asosan tuslovchili leksemashakl bilan ifodalanadi:

a) fe'l leksemashakl bilan ifodalanadi: *Hozir buying keladi, uyg'a boramiz, maza qilib uxlaysan* (Hamid G'ulom) kabi;

b) fe'ldan boshqa turkum leksemashakli bilan ifodalanadi. Quyidagi jumlada kesimlar o'rinn kelishigidagi ot leksema bilan ifodalangan: *Kechiring, Aziz aka, mening ko'nglim boshqa bog'da, xayolim boshqa gulzorda!* (Hamid G'ulom).

2) Birinchi qism kesimi ba'zan -b ravishdoshi shaklida ishlatalidi: *Buning kundoshi Mariya ismli rus xotin bo'lib, unga Maryamxon ism qo'yishgan* (Oybek) kabi.

3. Ega faqat ikkinchi qismda ifodalanadi; kesimlar odatda fe'l leksemashakl bilan ifodalanadi: *Ko'klamda, ayniqsa Navro'z bayramida u yerlarga sayrga chiqiladi, qozon osib, oq sho'rva qaynatiladi, mesh-mesh qimiz ichiladi* (Hamid G'ulom). *Endi bir burda zog'ora yegan edim, dala boshida Olimjon ko'rindi* (O'tkir Hoshimov) kabi.

4. Ega har ikki qismda ifodalanmaydi: har ikki kesim yoki biri odatda buyruq maylidagi fe'l leksemashakl bilan ifodalanadi: *Kel, erkatoj, seni yuvintirib qo'yay!* (Hamid G'ulom). *Qani, avval otdan tushing, nimalar olib keldingiz, ko'rsating ..* (Pirimqul Qodirov) kabi.

4- §. 'Biriktruv' mazmuni ifodalanadigan qo'shma gapshakllarning sodda gapshaklga teng qismlaridan ikki va undan ortiq vogelikning teng holatda yuz berishi anglashiladi. Bunday qo'shma gapshakl biriktruvchi bog'lovchi bilan tuziladigan qo'shma gapshaklga o'xshaydi, shunga ko'ra sodda gapshaklga teng qismlar oralig'iga ba'zan va bog'lovchisini kiritish imkoniyati bo'ladi: *Yo'l azobidan uning butun a'zoyi badani zirqirab og'rir, toligganlikdan, ochlikdan boshi aylanar, ko'ngli ozar edi* (Hamid G'ulom) – boshi aylanar va ko'ngli ozar edi kabi.

Bu tur qo'shma gapshakllarning qismlaridan:

G'ulom). *Bushor opaga ayting: traktor dalada qoldi* (O'tkir Hoshimov). *Ishonaman, to 'g'ri so 'z yigitsiz kabi;*

2) ba'zan bajaruvchi aynan bo'ladi: *Ochiqroq gapiring, nima demoqchisiz?* (O'tkir Hoshimov) kabi.

II. Aniqlashtiruvchi qismli qo'shma gapshakllarning quyidagicha mazmun anglashiladigan turlari nutqda oz ishlataladi:

I) 'ega' mazmuni: *U ishq o'yiniga butunlay berilmogchi ekan, otashin orzularning sehri bilan ko'r ekan, kimning nomusi, kimning aqli, kimning sabri, og'irligi uni sharmandalikdan qutqarib qoldi?* (Oybek) kabi;

2) 'to'siqsizlik' mazmuni: *It oyga qarab huraveradi, oy ko'kda suzaveradi* (Maqol) kabi;

3) 'sifatlash' mazmuni: *Tabiiy, hammadan Nurining uyi hashamatli: qiymatli jihozlar bilan magazinday yasatilgan, ko'rgan odamning ko'zi qamashadi* (Oybek). *Qo'y larga bir qarang, mehmon: bo'rdoqiga semirtirishgan!* (Pirimqul Qodirov) kabi;

4) 'o'xshatish' mazmuni: *Oshning ta'mi tuz bilan, odamning ta'mi so'z bilan* (Maqol). *Yurgan – daryo, o'tirgan – bo'yra* (Maqol) kabi;

5) 'ta'kid' mazmuni: *Choy ichmadim, ichimga tuz ham kirmadi* (Oybek) kabi va b.

7- §. Bog'lovchi vositalarsiz tuziladigan qo'shma gapshakllarning sodda gapshaklga teng birinchi qismiga yuklama qo'shilishi mumkin. Bunday yuklama sodda gapshaklga teng qismlarni o'zaro bog'lamaydi, balki sodda gapshaklga teng birinchi qismga yuklama ifodalaydigan ma'noni qo'shadi. Bunday ishlataligan yuklama tashlansa, bog'lovchi vositasiz tuzilgan qo'shma gapshakl yo'qolmaydi, faqat yuklama tufayli qo'shilayotgan ma'no yo'qoladi.

Bog'lovchi vositasiz tuziladigan qo'shma gapshakllarning sodda gapshaklga teng birinchi qismiga asosan quyidagi yuklamalar qo'shilib keladi:

1) -u (-yu) yuklamasi: *Chilvir bir zarb bilan kesildi-yu, undan bo'shagan serka qo'ng'iroq 'ini quvnoq jiringlatib yuqoriga chopib ketdi* (Pirimqul Qodirov). *Bundan chiqdi, tutqich tepganida biqinim uralash qo'limga ham urilgan-u, qiziq ustida sezmanman* (O'tkir Hoshimov) kabi;

2) -da yuklamasi: *Kechki payt Suyunboy aka ham keldi-da, uchovlari keng bir yalanglikda suruvlarni ajrata boshlashdi* (Pirimqul Qodirov). *Eshikning bir tabaqasi ochildi-da, kimdir Olimjonni yoqasidan mushuk bolasidek changallab uloqtirib yubordi* (O'tkir Hoshimov) kabi;

3) -ku yuklamasi: .. *moli shirin-ku , o'zi harommi?!* (Oybek). *Bu zamonning odamlarini bilasiz-ku, og'zi bilan yuradi* (O'tkir Hoshimov) kabi;

4) -chi yuklamasi: *Bundog' yorilsangiz-chi, punktda nima janjal?* (Hamid G'ulom) kabi;

5) -mi yuklamasi:

a) Bu yuklama odatda so'roq gapshaklini yuzaga keltiradi: *Ko'rdingmi, poyezd*

*akangga zambarak olib ketdi* (O'tkir Hoshimov) kabi:

b) Har ikki sodda gapshakl oxirida ishlataliganida 'taxmin' ma'nosini ifodalaydi:  
*Uni qattiq mehnat ezib tashladimi, ishi yaxshi yurishmay qoldimi, har qalay, keyingi kunlarda asabi buzildi* (Hamid G'ulom) kabi.


### Ba'zi boshqa hodisalar

1. Teng sanaiadigan qismli qo'shma gapshakllar ochiq sintaktik qurilma bo'lgani uchun ikkitadan ortiq qismdan iborat bo'la oladi: *Uning quloqlari shang'illar, ko'ksini hislar to'lqinlatar, yuragi qattiq urardi* (Oybek) kabi. Bu jumlada kesimlarning analitik grammatik shakliga mansub *edi* affiksoidi umumlashtirilgan.

2. Noteng qismli qo'shma gapshakllarda ergash qism uyushiq qator hosil qilgan holatda ishlatalishi mumkin. Masalan, quyidagi qo'shma gapshakl tarkibida shart ergash qism uyushiq qator hosil etib qatnashgan: *Agar men sizni .. qo'l-oyog'ingizni bog'lab, majbur qilib olayotgan bo'lsam, agar sizning ko'nglingiz boshgada bo'lsa...* (Odil Yoqubov). Mana bu qo'shma gapshakl tarkibida to'siqsiz ergash qism uyushiq qator hosil etib qatnashgan: *Adolat har qancha mehribonlik ko'rsatsa ham, Tozagul uning boshida har qancha parvona bo'lsa ham, ayriliq alami bosilay demas edi* (Hamid G'ulom) va b.


3. Qo'shma gapshakl ikkitadan ortiq qismdan iborat murakkab tuzilishli bo'lishi mumkin. Bir necha misol:

1) *Aziz Uritskiy ko'chaga burilib og eman daraxtlari quyuq soya tashlagan keng yo'lkadan Observatoriya ko'chasiga tomon borar ekan, qishloqdan ketishga majbur qilgan voqeа ko'z oldidan nari ketmas, o'sha voqeа munosabati bilan tortgan azoblarini eslagan sari ko'nglidagi jarohat yangilanar edi* (Hamid G'ulom). Bu jumla dastlab ikki qismga ajraladi: birinchi qism *borar ekan* kesimi bilan tugaydi. Ikkinci qism o'z ichida *ketmas* va *yangilanar edi* kesimlari bilan tugaydigan ikki qismdan iborat bo'lib, bu kesimlarning analitik grammatik shakliga mansub *edi* affiksoidi umumlashtirilgan. Ikkinci qism tarkibidagi sodda gapshaklga teng qismlar ham, birinchi qism bilan ikkinchi qism ham sanash ohangi bilan birlashadi, 'biriktiruv' mazmuni anglashiladi. Bunday sintaktik qurilmaning tizmasi quyidagicha:




2) *Kechalardan birida Fazliddin boshini quyi solib mudrab jim o'tirar ekan, Nuri chiday olmadi: birinchi marta achchiqlanib gapirdi* (Oybek). Bu jumlaning birinchi qismi *chiday olmadi* kesimi bilan tugaydi; qo'shma gapshaklga teng bu qismda bir paytda yuz beradigan zid vogeliklar tasvirlangan: 'zidlash' mazmuni ifodalangan. Jumlaning qismlaridan esa 'sabab-natija' mazmuni ifodaلانadi. Bunday sintaktik qurilma-

ning tizmasi quyidagicha:



3) *Otaning amaliga suyana ko'rma: otang toysa, sen yigilasan* (Maqlol). Bu jumlaning birinchi qismi sodda gapshaklga, ikkiichi qismi esa qo'shma gapshaklga teng. Ikkinci qism – shart ergash qismli qo'shma gapshakl. Jumlaning qismlaridan 'izohlash' mazmuni ifodalanadi. Bunday sintaktik qurilmanning tizmasi quyidagicha:



4. Ko'chirma qism va so'zlovchi gapshaklidan tarkib topadigan sintaktik qurilmalar yozma adabiy nutqda ko'p uchraydi. Bunday sintaktik qurilmalarda ko'chirma qism sodda yoki qo'shma gapshaklga, to'liqsiz gapshaklga, hatto undalmaga teng bo'lishi mumkin. So'zlovchi gapshaklining kesimi tovush fe'llari, fikrlash fe'llari bilan ifodalanadi. Bir necha misol:

— *Nega bunday allanechuksan? — shivirlab so'radi u.*

— *Oyijon, hech tashvish tortmang; charchadim xolos, — javob berdi Nuri kulumqqa tirishib* (Oybek).

*Yo'lchi o'zi uchun ovunchoq xayollarga berilib .. tanho yurarkan, Shogosim chiqdi; ko'kka boqib bo'g'iq tovush bilan "Yoxu!" deb qichqirdi-da, o'tin keltirish uchun qayoqqadir g'oyib bo'ldi* (Oybek) kabi va b.

## FRAZEMALAR TIZIMI

1- §. Frazema til qurilishining lug'at bosqichiga mansub ikkinchi lisoniy birlik bo'lib, bittadan ortiq leksemaning o'zaro semantik-sintaktik birlashuvi bilan tarkib topgan bo'ladi, shunga ko'ra tuzma segment birlik deyiladi; sintaktik tuzilishi jihatidan birikmaga, gapshaklga teng bo'lib, odatda nominativ va signifikativ vazifa bajaradi, lekin leksemadan ifoda jihatni bilan-gina emas, mazmun jihatni bilan ham farq qiladi.

Adabiyotlarda ushbu til birligi *frazeologizm*, *frazeologik birlik* kabi terminlar bilan ataladi; *leksema*, *morfema* terminlariga monand ravishda *frazema* deb atalishi ma'qul. Frazemalar o'rganiladigan sohani esa *frazemika* deb nomladik (Adabiyotlarda *frazeologiya* termini ishlataladi).

Frazema lisoniy birlik sifatida miyaning til xotirasi qismida mavjud ramzga teng; frazemadan foydalanishda ana shu ramzdan nusxa olinadi. Frazema lisoniy birlik sifatida qismga teng bo'ladi; ma'lum grammatik belgi-xususiyatlar qo'shilgandan keyingina butunga aylanadi va nutqda ishlataladi; keyingi holatida fazema nutqiy birlikka teng bo'ladi, fazemashakl deyiladi.

Lisoniy birlik sifatida fazema ikki jihatning – ifoda jihatining va mazmun jihatining bir butunligidan iborat.

### FRAZEMALARNING IFODA JIHATI

2- §. Fazemalarning ifoda jihatni deb ularning asli qanday lisoniy birliklardan tarkib topgani tushuniladi. Fazema ikki va undan ortiq leksemaning o'zaro semantik-sintaktik bog'lanib, umumlashma ko'chma ma'nio kashf etishi bilan yuzaga keladi. Fazemada birikmaning, gapshaklining ma'lum bir qolipi doimiy tarkibiy qism sifatida leksemalar va morfemalar bilan to'ldirilgan bo'ladi. Masalan, *ko'z(i)ni och-* fazemasi asli *ko'z(i)ni* leksemashaklining *och-* leksemasiga tobelanishi bilan tuzilgan to'ldiruvchili birikmaga teng; bu fazemaning ifoda jihatiga *ko'z(i)ni* leksemashakli tarkibida qatnashadigan *ko'z-* leksemasi, tushum kelishigi ko'rsatkichi mansub; sonlovchi, nisbatlovchi ham zaruriy qism sifatida qatnashadi, lekin qaysi sonlovchi, nisbatlovchining ishlatalishi nutq bosqichida aniqlashadi. Shuni hisobga olib bu leksemashakl tarkibini *ko'z + (S) + (N) + ni* tarzida yozib ko'rsatish mumkin. Tuzilishi jihatidan birikmaga teng ushbu fazemaning ikkinchi a'zosi *och-* leksemasi bilan ifodalangan. Bu fazemaga bir butun holda bo'lishli-bo'lishsizlik, mayl, zamon, shaxs-son ko'rsatkichi nutqda qo'shiladi.

Fazemadan tashqari nutqda xuddi shunday birikma ham tuzib ishlataladi. Nutqning o'zida tuziladigan bunday birikma erkin birikma deyiladi va bunday birikmaga zid holda fazema turg'un birikma (*turg'un bog'lanma*) deyiladi.

Turg'un bog'lanma keng tushuncha bo'lib, to'g'ri ma'noli va ko'chma ma'noli turg'un bog'lanmalarga ajratiladi; ko'chma ma'noli turg'un bog'lanmalar fazema deyiladi.

To'g'ri ma'noli turg'un bog'lanma deb tarkibli terminlarga (*olmoshlab ekish kabi*), takror qolipi asosida tuziladigan birliklarga (*kuchiga kuch qo'shiladi, husniga husn qo'shib turibdi, kundan kunga kabi*) aytildi.

### Frazemalarning grammatik qurilishi

3- §. Frazemalarda hozirgi o'zbek tilidagi sintaktik bog'lanishlarning deyarli barcha turlari o'z aksini topgan.

I. Frazemalarning ko'p qismi birikmaga teng qurilishli. Erkin birikmalarda bo'lganidek sintaktik qurilishi birikmaga teng frazemalarda ham tobe a'zo leksemashakl bilan, hokim a'zo esa leksema bilan ifodalanadi, frazema bir butun holda turg'un birikmaga teng bo'ladi. Masalan, *ko'z(i)ni och-* frazemasining leksik-grammatik tarkibi va sintaktik qurilishini quyidagicha yozib ko'rsatish mumkin:

$$\{[ko'z + (S) + (N) + Kt] X [och-]\}.$$

Bu frazemanini, masalan, payt hollovchisi vazifasida ishlatish uchun unga bo'lishli shakl yasovchisi, -gan sifatdosh shakli yasovchisi, -lari nishbatlovchisi, (-dan) keyin ko'makchisi qo'shiladi: *Bo'taboy aka k o'z i m n i o ch g a n l a r i d a n keyin .. astoydil o'qidim* (Abdulla Qahhor).

Demak, birikmaga teng qurilishli ayrim frazemalar lisoniy birlik sifatida qismga teng bo'lib, biror sintaktik bo'lak vazifasida kela oladigan darajada grammatik shakllanganidan keyin butunga, birikmashaklga aylanadi.

2. Birikmaga teng qurilishli ayrim frazemalar lisoniy birlik sifatidayoq birikmashaklga teng bo'ladi. Masalan, *katta ko'cha* frazemasi asli "sifatlovchi X sifatlanshish" qolipida tuzilgan birikmaga teng, lekin bu frazema faqat birlik, bosh kelishik shaklida-gina ishlatiladi, bunday grammatik tabiat ushbu frazemaga lisoniy birlik sifatida mansub: *Chidasang – shu, chidamasang – katta ko'cha!* (Oybek) kabi. Xuddi shunday tuzilishli erkin birikma esa *katta ko'chani, katta ko'chalarga* kabi ot birikmaga xos turli grammatik shakllarda ishlatilaveradi. *Ana-mana deguncha, kampir shaftoli yeguncha* frazemasi ham shu shaklida-gina ishlatiladi.

Demak, birikmaga teng qurilishli ayrim frazemalarga bir butun holda tashqi grammatik shakllanish lisoniy birlik sifatida xos bo'lib, shu jihatni bilan bunday frazema erkin birikmadan farqlanadi.

4. Frazemalarning bir qismi sintaktik qurilishi jihatidan gapshaklga teng bo'lib, tarkibida ega bo'lak mavjud bo'ladi: *bosh(i) shishdi* kabi (Bunday frazemalarning bosh shaklini yozib ko'rsatishda -di zamon yasovchisini, III shaxs nisbatlovchisini tanladik). Bu frazemaning tarkibini va sintaktik bog'lanishini quyidagicha yozib ko'rsatish mumkin:

$$\{bosh + Sb + (N) + Kb] X [shish + (B) + (M/3) + Ts III].$$

Bunday frazemaning gapshaklga teng ekanligi tarkibida ega vazifasidagi leksemashakl qatnashayotganligi va shu leksemashakldan anglashiladigan bajaruvchining shaxs-soniga monand ravishda frazemaning oxirgi a'zosiga tuslovchi qo'shilayotganligi

bilan belgilanadi. Tuslovchidan oидин bunday tuzilishli frazemaga bo'lishli-bo'lishsizlik, mayl, zamon shakli yasovchisi qo'shiladi va bu grammatik ko'rsatkichlar frazemaga obyektiv vogelikka ko'ra nutqning o'zida tanlab qo'shiladi.

Ko'rindiki, gapshaklga teng frazemada tuslovchining mavqeい bo'lishli-bo'lishsizlik, mayl, zamon shakli yasovchilarining mavqeидан keskin farq qiladi (Asli gapshaklga teng qurilishli erkin bog'lammalarda ham shunday); frazemanı tuslovchining o'zi asosida gapshaklga teng deyish to'g'ri bo'lmaydi; bo'lishli-bo'lishsizlik, mayl, zamon shakli yasovchilar qo'shilganidan keyin-gina gapshakl yuzaga keladi. Demak, sintaktik qurilishi gapshaklga teng frazema ham asli qism holatida bo'ladi, to'liq grammatik shakllanganidan keyin-gina butunga teng bo'ladi.

4. Tarkibida ega bo'lagi bor ayrim frazemalar lisoniy birlik sifatida to'liq grammatik shakllangan birikmaga teng bo'ladi. Masalan, *tomdan tarasha tushganday* frazemasi asli "o'rin hollovchisi X ega X kesim" qolipida tuzilgan gapshaklga teng, lekin bu frazema faqat bir shaklda — -gan + day shakl yasovchilar qo'shilgan holda ishlataladi. Ushbu frazema asli gapshaklga teng tuzilishli frazemaning transformasiga teng (Sintaktik transformatsiya hodisasi bayon qilingan qismga qarang).

5. Tarkibida tobe qism bo'lib ergash gapshakl qatnashadigan quyidagi tur frazemalar ham birikmaga teng deb qaraladi, chunki bunday frazemaning hokim qismi leksemaga teng bo'ladi, bunday frazema sintaktik vazifada kelish uchun grammatik ko'rsatkichlarni nutq bosqichida oladi. Masalan, yer *tagida ilon qimirlasa, bil-* frazemasiga lisoniy birlik sifatida bo'lishli-bo'lishsizlik, mayl, zamon, shaxs-son ko'rsatkichlari mansub eras, bu grammatik ko'rsatkichlar unga nutq bosqichida qo'shiladi: *Nusrat uni: "Ye r t a g i d a i l o n q i m i r l a s a, b i l a d i", — der, undan o'tdan qo'rqqanday qo'rqardi* (Said Nazar) kabi.

Bunday hodisa ko'chirma qismli frazemalarda ham mavjud. Masalan, "*Og'zing qani?*" — desa, *qulog'ini ko'rsat-* frazemasi tarkibida gapshaklga teng ko'chirma qatnashadi, lekin frazema bir butun holda birikmaga teng bo'lib, unga bo'lishli-bo'lishsizlik, mayl, zamon, shaxs-son ko'rsatkichlari nutq bosqichida qo'shiladi: *Uning o'zi hech baloda yo'q, "Og'zing qani?"* — desa, *qulog'ini ko'rsatadigan ushoqqina bir yigit edi* (Sami Abduqahhor). Bu frazemanı sifatlovchi vazifasida keltirish uchun unga -digan sifatdosh yasovchisi qo'shilgan; bu sifatdosh yasovchisidan oldin o'zbek tiliga xos grammatik qonuniyatga binoan bo'lishli shakl yasovchisi, keyin -a ravishdosh yasovchisi qo'shilgan.

6. Ayrim frazemalar tarkibidagi birinchi qism birikmashaklga, ikkinchi qism gapshaklga teng bo'ladi. Masalan, *qushbegi bilan shovla yemay(di), tirnog'(i) kuyadi* frazemasining birinchi qismi birikmaga teng qurilishli, lekin frazema tarkibida faqat bo'lishsiz shaklda, -a/-y zamon yasovchisi bilan ishlataladi, tuslovchi-gina bajaruvchining shaxs-soniga qarab tanlab qo'shiladi, odatda III shaxs tuslovchisi ishlataladi. Bu frazemaning ikkinchi qismi gapshaklga teng qurilishli, shunga ko'ra -di III shaxs tuslovchisi bilan ishlataladi, undan oldin bo'lishli shakl, -a/-y zamon shakli yasovchisi

qatnashadi; bu qismdag'i ega bo'lak birlik va bosh kelishik shaklida keladi, faqat nisbatlovchi tanlab qo'shiladi, odatda III shaxs nisbatlovchisi bilan ishlatalidi va b.

Yuqoridagi tasvirlardan ayonki, frazemaning ifoda jihatiga uning tarkibidagi leksemalar-gina emas, balki frazemaning doimiy tarkibiy qismi sifatida qatnashadigan morfemalar ham mansub bo'ladi, chunki bunday morfemalar, o'rni bilan tuslovchi ham frazemaning ichki grammatik qurilishiga mansub bo'ladi. Frazemani nutqda ishlatish munosabati bilan qo'shiladigan morfemalar-gina uning ifoda jihatiga mansub bo'lmaydi.

### Allofrazemalar

**4- §.** Turli ko'rinishlarda namoyon bo'lish fonemaga (allofonemalar), leksemaga (alloseksemalar), morfemaga (allomorfemalar) xos ekanligi qo'llanmaning oldingi bo'limlarida tasvirlandi. Turli ko'rinishlarda namoyon bo'lish frazemalarda boshqa lisoniy birliklardagidan ko'ra ko'p (frazemalarning deyarli yarmiga xos); chunki frazema murakkab qurilishli bo'lib, turli-tuman o'zgarishlar uning tarkibidagi leksemalarda ham, morfemalarda ham yuz beradi.

Miyaning til xotirasi qismidagi ramzda frazema qanday allofrazemalarga ega ekanligi haqida axborat bo'ladi, allofrazemalar ana shu axborat asosida tuzilib, nutqqa ma'lum bir grammatik shakllangan holda kiritiladi.

Allofrazema deb qaraluvchi birliklar asosida ayni bir obraz yotadi, allofrazemalardan ayni bir lug'aviy ma'no anglashiladi; allofrazemalar tufayli frazemaga xos yaxlitlik yo'qolmaydi, balki shu yaxlitlik saqlangan holatda voqe bo'ladi.

Allofrazemalarning ikki turi ajratiladi: leksik allofrazemalar, grammatik allofrazemalar. Uchinchi tur — leksik allofrazema bilan grammatik allofrazemaning bir galikda namoyon bo'lishiga teng bo'lib, leksik-grammatik allofrazema deb yuritiladi.

**5- §.** Leksik allofrazemalar frazema tarkibidagi leksik birlikni o'zgartirish natijasida yuzaga keladi; bunda leksik birlik almashtiriladi, qo'shiladi, tashlanadi.

1. Allofrazemalar leksik birlikni almashtirish bilan yuzaga keladi:

1) asosan leksemalar, odatda bir turkum leksemalari almashtiriladi:

a) ko'pincha ot leksemalar almashadi:

*ko'ngil* — *yurak*: *ko'ngl(i)* // *yurag(i)* g'ash tortdi;

*zarar* — *ziyon*: *zarar* // *ziyon yetkaz-*,

*bet* — *yuz*: *bet(i)* // *yuz(i)* chidamadi,

*chehra* — *yuz*: *ochiq chehra* || *yuz bilan* kabi;

b) sifat leksemalar almashadi:

*chog'* — *xush*: *kayff(i)* *chog'* || *xush* kabi;

d) fe'l leksemalar almashadi:

*suq-* — *tiq-*: *ikki oyog'(i)ni* bir etikka *suq-* // *tiq-* kabi;

e) ravish leksemalar almashadi:

*avval* — *oldin*: *podadan oldin* // *avval chang chiqar-* kabi va b.

Almashinuvchi leksemalar o'zaro sinonim yoki yaqin ma'noli bo'ladi, shunga ko'ra allofrazemalar o'zaro ma'nio semasida, baho semasida farq qiladi.

2) Ba'zan aloleksemalar almashadi:

*vahima* – *vahm* : *vahima* // *vahm bosdi*,

*ziyoda* – *ziyod* : *huddan ziyoda* // *ziyod kabi*.

2. Allofrazemalar ba'zan leksik birlikni qo'shish yoki tashlash bilan yuzaga keladi. Biri ikkinchisining aksi bo'lgan bunday jarayon juda oz voqe bo'ladi. Masalan, *bir shingil* – *bir-ikki shingil*, *es(i)ni tani-* – *es-hush(i)ni tani-* kabi allofrazemalarda leksik birlik qo'shiladi (Sodda leksema bilan ifodalangan a'zo juft leksemaga aylan tiladi), *daryordan bir tomchi* – *daryordan tomchi, kalava(si)ning uchini yo'qot-* – *kalava(si)ni yo'qot-* kabilarda leksik birlik tashlanadi.

6- §. Grammatik allofrazemalar odatda frazemaning ichki grammatik qurilishida voqe bo'ladigan o'zgartishlar bilan yuzaga keladi. Frazemani nutqqa kiritish bilan voqe bo'ladigan grammatik o'zgarishlar, masalan fe'l frazemaning maylda, zamonda o'zgarishini aks ettiradigan o'zgarishlar allofrazemalar deyilmaydi.

Grammatik allofrazemalarda frazemaning tarkibiga mansub grammatik birliklar almashitiriladi, qo'shiladi, tashlanadi:

1. Grammatik birlikni almashitish bilan yuzaga keladigan allofrazemalarda:

I) sinonimik almashuv voqe bo'ladi:

a) -*y* – -*dan* : *sanamay* // *sanamasdan sakkiz de-*,

b) -*s* – -*ydigan*: *ko'z ilg'amas* // *ilg'amaydigan*,

d) -*gani* – -*shga*: *o'tqazgani* // *o'tqazishga joy topolmay-*,

e) -*sa (ham)* – -*gan + da (ham)* : *bosh(i)ga qilich kelsa ham* // *kelganda ham*,

f) -*qa* – *bilan* : *qo'y(n)i ni puch yong'oqqa* // *yong'oq bilan to'ldir-* kabi.

2) allomorfemalar almashadi: -*day* – -*dek* : *xamirdan qil sug'urganday* // *sug'urgandek* kabi ;

3) morfemaning belgili-belgisiz ishlatalishi almashadi: *xamirning uchidan patir* – *xamir uchidan patir* kabi ;

4) bir kelishik boshqa kelishikka almashadi: *o'z yog'(i)ga o'z(i) qovuril-* – *o'z yog'(i)da o'z(i) qovuril-* kabi ;

5) *bo'l-* yordamchisi *qil-* yordamchisiga frazemaning sintaktik qurilishi o'zgarmagan holda almashitiriladi: *jon(i)dan bezor bo'l-* – *jonidan bezor qil-*, yer bilan *yakson bo'l-* – *yer bilan yakson qil-* kabi. Bunday almashitish natijasida o'timsiz frazema o'timli frazemaga aylanadi.

2. Allofrazemalarning grammatik qo'shish yoki tashlash bilan voqe bo'lishi ko'p emas:

I) Grammatik qo'shishda :

a) 'biroz' ma'nosini ifodalaydigan -*sh* affiksi qo'shiladi: *ko'ngl(i) bo'shadi* – *ko'ngl(i) bo'shashdi* kabi ;

- b) nisbatlovchi qo'shiladi: *boshdan oyoq – boshidan oyoq* kabi;
- d) frazemaning birikmaga teng qurilishini o'zgartirmagan holda orttirma yasovchisi qo'shiladi: *vujudga kel- – vujudga keltir-, yer tishla- – yer tishlat-* kabi;
- e) sintaktik qurilishini o'zgartirmagan holda sifatlovchili birikmaga teng frazemaga *ekan* affiksoidini, *-lik* substantiv shakl yasovchisini va nisbatlovchini qo'shib (tashqi transformatsiya) atributiv frazemaning substantiv allofrazemasi hosil qilinadi (*ekan* affiksoidi ko'pincha ishlatalmaydi): *qattiq qo'l- – qattiq qo'lligi, sodda dil- – sodda dil[ekan]lig(i)* kabi. Allofrazema tarkibidagi nisbatlovchi ushbu allofrazema bog'lanib keladigan qaratuvchi bo'lakdan (bajaruvchidan) anglashiladigan shaxs-son ma'nosiga monand holda tanlab qo'shiladi: *sodda dilligim, sodda dillingig* kabi.

2) Grammatik tashlashda:

- a) nisbatlovchi tashlanadi: *yurag(i) betlamadi – yurak betlamadi* kabi;
- bj) ortirma yasovchisi tashlanadi: *parvoy(i)ga keltirma- – parvoy(i)ga kelma-* kabi.

3) Ba'zan allofrazema ayni vaqtida grammatick tashlash va almashtirish natijasida yuzaga keladi. Masalan, *ko'ngl(i)ni ovla-* frazemasi tarkibidagi nisbatlovchi tashlanishi bilan tushum kelishigi belgili holatdan belgisiz holatga almashadi: *ko'ngil ovla-* kabi va b.

7- §. Allofrazemalarning o'zbek tilida keng tarqalgan alohida turi sintaktik qurilishini transformatsiyalash natijasida yuzaga keladi. Bunday transformatsiya fe'l frazemalarda ham, boshqa turkum frazemalarida ham voqe bo'ladi (Frazeologik birliliklarning turkumlanishi o'z o'rniда bayon qilinadi).

I. Frazemaning sintaktik qurilishida sodir bo'ladi transformatsiya natijasida birikmaga teng qurilish gapshaklga teng qurilishga aylanadi. Bunday transformatsiya fe'l frazemalarda yuz beradi: frazemaning o'timli fe'l leksema bilan, demak, bosh nisbatdagi fe'l leksema bilan ifodalangan a'zosiga majhul nisbat yasovchisi qo'shiladi, natijada bu a'zo tushum kelishigini boshqarish xususiyatini yo'qotadi, shuning oqibatida frazemaning ot leksemashakl bilan ifodalangan a'zosining tushum kelishigi bosh kelishikkha almashadi, natijada frazema birikmaga teng holatdan gapshaklga teng holatga o'tadi; uch shaxs-sonda tuslanish yo'qolib, faqat III shaxsda ishlatalidigan bo'ladi; frazemaning bo'lishli-bo'lishsizlik, mayl, zamon shakllarida ishlatalish imkoniyati o'zicha saqlanadi: *burn(i)ni ko'tar- – burn(i) ko'tarildi, o'taka(si)ni yor- – o'taka(si) yorildi, yetti nomus(i)ni yerga buk- – yetti nomus(i) yerga bukildi* kabi. Bunday allofrazemalarning tarkibini va sintaktik qurilishini quyidagicha yozib ko'rsatish mumkin:

$\{(\text{ot lek.} + \text{Sb} + (\text{Ns}) + \text{Kt}) \times (\text{o't-li f.l.} + \text{Na -})\}$  -

$(\text{ot lek.} + \text{Sb} + (\text{Ns}) + \text{Kb}) \times (\text{o't-li f.l.} + \text{Nm} + \text{B} + \text{M/3} + \text{Ts III})$ .

II. Gapshaklga teng qurilishning birikmaga teng qurilishga transformatsiyalanihi

bir necha ko'rinishda amalga oshiriladi va turli natijalarga olib keladi:

1. Fe'l frazemaning o'timsiz fe'l leksema bilan ifodalangan kesimiga orttirma yasovchisi qo'shiladi, natijada bu fe'l leksema o'timlilashadi, vositasiz to'ldiruvchini boshqarish xususiyati yuzaga keladi, shunga ko'ra frazemaning bosh kelishikdagi ot leksema bilan ifodalangan a'zosi tushum kelishigidagi leksemashaklga almashadi, frazemaning birkmaga teng allofrazemasi hosil bo'ladi: *miya(si) achidi* – *miya(si)ni achit-*, *baho(si) oshib ketdi* – *baho(si)ni oshirib yubor-*, *bosh(lari) bir joyga qovushdi* – *bosh(lari)ni bir joyga qovushir-* kabi. Bunday allofrazemalarning tarkibini va sintaktik qurilishini quyidagicha yozib ko'rsatish mumkin:

(ot lek. + Sb + (Ns) + Kb) X {o'-siz f.l. + B + M/3 + Ts III}

[{ot lek. + Sb + (Ns) + Kt} X {o'-siz f.l. + Ort}-]-.

Shunday transformatsiyalash bo'lishsiz shaklda-gina ishlataladigan frazemalarda ham voqe bo'ladi: *dam(i) chiqmadi* – *dam(i)ni chiqarma-*, *yegan-ichgan(i) ich(i)ga tushmadi* – *yegan-ichgan(i)ni ich(i)ga tushirma-* kabi.

Quyidagi frazemada majhul nisbat yasovchisi qo'shilib o'timsizlashgan fe'l a'zoga orttirma yasovchisi qo'shilib o'timlilashgan va yuqoridagicha transformatsiya amalga oshirilgan: *lab-lunj(i) osildi* – *lab-lunj(i)ni osiltir-*.

Mana bu frazemalarda fe'l a'zo tarkibidagi 'biroz' ma'nosini ifodalaydigan -sh affiksni tashlangan, shundan keyin orttirma yasovchisi qo'shilgan: *chehra(si) yorishdi* – *chehra(si)ni yorit-*, *ko'ngl(i) yorishdi* – *ko'ngl(i)ni yorit-* kabi.

2. Fe'l frazema tarkibidagi *bo'*- yordamchisi *qil-* yordamchisiga almashtiriladi, o'timsiz fe'l yordamchi o'timli fe'l yordamchiga almashtirilishi bilan gapshaklga teng qurilish birkmaga teng qurilishga aylanadi; frazemaning bosh kelishikdagi ega a'zosi tushum kelishigidagi vositasiz to'ldiruvchiga aylanadi; *bo'lishli-bo'lishsizlik*, mayl, zamon, shaxs-son ko'rsatkichlari fe'l a'zo tarkibidan (umuman, frazema tarkibidan) chiqariladi:

*yurag(i) qon bo'ldi* – *yuragini qon qil-*, *baxt(i) qora bo'ldi* – *baxt(i)ni qora qil-*, *og'ir(i) yengil bo'ldi* – *og'irini yengil qil-* kabi.

Oxirgi allofrazemalarning tarkibini va sintaktik qurilishini quyidagicha yozib ko'rsatish mumkin:

(ot l. + Sb + (Ns) + Kb) X {sif.l. + bo'i + B + M/3 + Ts III}

[{ot l. + Sb + (Ns) + Kt} X {sif.l. + qil-}]-.

3. Sintaktik qurilishi birkmaga teng fe'l frazemaning fe'l leksema bilan ifodalangan a'zosi va tushum kelishigidagi ot leksemashakl bilan ifodalangan a'zosi o'rin almashtiriladi; bunda kesim a'zo tarkibidagi mayl, zamon, shaxs-son ko'rsatkichlari, ega a'zo tarkibidagi kelishik ko'rsatkichi tashlanadi; ayni vaqtida fe'l a'zoga -gan sifatdosh yasovchisi, ot a'zoga nisbatlovchi qo'shiladi, vositasiz to'ldiruvchili birikma sifatlovchili birkmaga aylanadi; hosil bo'lgan allofrazema ot birkmaga teng bo'lib, kelishik ko'rsatkichi nutqda sintaktik vazifaga binoan tanlab qo'shiladi: *javob ber-* – *bergan javob(i)-*, *va'da ber-* – *bergan va'da(si)-* kabi. Bunday allofrazemalarning

tarkibini va sintaktik qurilishini quyidagicha yozib ko'rsatish mumkin:

[(ot l. + S + [Kt]) X (o'tim. f.l.-) -

[(o't-li f.l. + Bli + gan) X (ot l. + S + (Ns))-] -.

Mana bu misolda vositasiz to'ldiruvchili birikmaga teng qurilish avval gapshaklga teng qurilishga, keyin bu qurilish sifatlovchili birikmaga teng qurilishga aylantirilgan: *ko'z(i)ni och- – ko'z(i) ochildi – [ochilgan ko'z(i)]-*.

4. Sintaktik qurilishi gapshaklga teng ism frazemaning sifat leksemashakl bilan ifodalangan kesim a'zosi va bosh kelishikdagi ot leksemashakl bilan ifodalangan ega a'zosi o'rin almashtiriladi; kesim a'zo sifatlovchiga, ega a'zo sifatlanmishga aylanadi; bunda kesim a'zo tarkibidagi bo'lishli-bo'lishsizlik, zamon, shaxs-son ko'rsatkichlari, ega a'zo tarkibidagi nisbatlovchi va kelishik ko'rsatkichi tashlanadi: *qo'l(i) ochiq – ochiq qo'l-, peshana(si) sho'r – sho'r peshana-, bag'ri tosh – tosh bag'ir-* kabi. Bunday allofrazemalarning tarkibini va sintaktik qurilishini quyidagicha yozib ko'rsatish mumkin:

(ot l. + Sb + (Ns) + Kb) X (sifat l. + Bli + 3 + Ts III) –

[(sif. l. + 'sifatlovchi' semasi) X (ot l.-)] -

Bunday usul bilan hosil qilingan allofrazema *-li* affksi yoki *ilan* ko'makchisi qo'shilgan holda ishlatalidi: *chehrasi ochiq – ochiq chehra ilan* kabi.

5. Sintaktik qurilishi gapshaklga teng bo'lib, kesimi sifat, ravish, kesimlik leksemashakli bilan ifodalangan frazema oxiridagi bo'lishli-bo'lishsizlik, zamon, shaxs-son ko'rsatkichlari tashlanadi va shunday asosga *-lik* substantiv shakl yasovchisi, III shaxs nisbatlovchisi qo'shiladi; kelishik shakli qanday sintaktik bo'lak vazifasida kelishiga qarab nutq bosqichida qo'shiladi: *qo'l(i) kalta || qisqa – qo'l(i) kaltaligi- || qisqaligi-, jahl(i) tez – jahl(i) tezligi-, qo'l(i) bor – qo'l(i) borligi-* kabi. Bunday transformatsiyalash natijasida asli ega bo'lakning bosh kelishik shakli belgisiz qaratqich kelishigi shakliga almashadi, gapshaklga teng qurilish qaratuvchili birikmaga aylanadi;

(ot l. + Sb + (Ns) + Kb) X (sifat l. + B + 3 + Ts III) –

[(ot l. + Sb + (Ns) + Kq:b-siz) X (sifat l. + lik + Ns III)] -

6. Fe'l frazemalarda to'ldiruvchili birikmaga teng qurilishni avval gapshaklga teng qurilishga, keyin bu qurilishni qaratuvchili birikmaga teng qurilishga aylantirish ham mavjud: *uy(i)ni buz- – uy(i) buzildi – uy(i)ning buzilgani-* kabi. Gapshaklga teng qurilishni qaratuvchili birikmaga transformatsiya qilishda ega bo'lakning bosh kelishik shakli qaratqich kelishigiga, kesim bo'lak tarkibidagi zamon yasovchisi fe'lning sifatdosh yoki otdosh shakliga, tuslovchi nisbatlovchiga almashtiriladi. Bunday allofrazemalarning tarkibini va sintaktik qurilishini quyidagicha yozib ko'rsatish mumkin:

[(ot l. + Sb + (Ns) + Kt) X (o't-li f.l.-) - –

(ot l. + Sb + (Ns) + Kb) X (o't-li f.l. + Nm + B + M/Z + Ts III) –

[(ot l. + Sb + (Ns) + Kq) X (o't-li f.l. + Nm + B + gan/sh + Ns III)] -.

## Frazemalarda ifoda jihatiga ko'ra voqe bo'ladigan munosabatlar

1- §. Frazemalarda ifoda jihatiga ko'ra voqe bo'ladigan munosabatlar deb omonimiklik, omonimiya, paronimiya hodisalari ko'rsatiladi.

**Frazeologik omonimiklik.** Frazemaning erkin bog'lanma bilan ifoda jihatiga ko'ra o'zaro teng kelishiga omonimiklik deyiladi. Bunday hodisa ko'pchilik frazema-larga xos. Masalan, nutqda *kuni o'tdi* erkin bog'lanmasi tuzib ishlataladi, bunda *kun-*, *o't-* leksemalari o'z ma'no mustaqilligini saqlab bog'lanadi. Shu bilan birga *kun(i)* *o'tdi* frazemasi ham mavjud bo'lib, uning tarkibida qatnashadigan *kun-*, *o't-* leksemalari o'z ma'no mustaqilligini saqlamaydi, frazemadan yaxlitligicha umumlashma ko'chma ma'no anglashiladi ('tirikchilik qil-').

Quyidagi misollarni qiyoslang: 1) *Turg'un ota uzoq bosh qashir, keyin birdan y e n g i n sh i m a r i r* (Oybek). 2) *Shunday qilib, Tojiboyning raislik davri tamom bo'ldi. Oyimxon pechatni undan olib, ko'krak cho'ntagiga solib qo'ydi. Oyimxon y e n g sh i m a r i b ish boshladi* (Parda Tursun).

Birinchi misoldagi *yeng shimar-* — erkin bog'lanma: uni tashkil etuvchi *yeng-* va *shimar-* leksemalari o'z leksik ma'no mustaqilligini saqlagan holda bog'lanib kelgan. Ikkinci misoldagi *yeng shimar-* — frazema, chunki bu bog'lanmada *yeng-* va *shimar-* leksemalari o'z leksik ma'no mustaqilligini saqlamaydi, bog'lanmadan yaxlitligicha 'astoydil' ma'nosi anglashiladi.

Ayni bir leksemalardan tuzilgan bog'lanmalarning to'g'ri va ko'chma ma'noda ishlatalishidagi farq quyidagi matnda ochiq ko'rindi:

— Afandi? Sira o g' z i n g i z n i o ch m a d i n g i z - a ?

— O g' i z o ch i sh bundan kam bo'ladimi? — dedi afandi. — Esnayverib og'zimning yirtilishiغا sal goldi-ku! (Afandi latifalaridan).

Bu parchada to'g'ri ma'noli bog'lanma bilan frazema asosida "so'z o'yini" ishlatilgan.

Omonimiklik asosan quyidagi holatlarda voqe bo'lmaydi:

1) Frazema tarkibida ko'chma ma'noda qatnashgan leksema bo'lganida: *ko'ngl(i) oq* — *oq ko'ngil*, *ko'z(i)ning paxtasi chiqdi* — *ko'z(i)ning paxtasini chiqarkabi*.

2) Frazema asosida real voqelik yotmaydi, shu sababli xuddi shunday erkin bog'lanma tuzilmaydi: *bir yoqadan bosh chiqar-*, *ko'ngl(i)ga qo'l sol-*, *bosh(i) ko'kka yetdi kabi va b.*

Frazema — lisoniy birlik, erkin bog'lanma — nutqiy birlik; bular til qurilishining boshqa-boshqa holatiga mansub; shu sababli bu yerda omonimiya voqe bo'lmaydi, omonimiklik haqida gapirladi.

2- §. **Omofrazemalar.** Ifoda jihatni teng frazemalar omofrazemalar deyiladi: *boshi(i)ga ko'tar- I* ('kuchli shovqin-suron qil-') — *boshi(i)ga ko'tar- II* ('yuksak darajada izzat-hurmat qil-') kabi.

Omofrazemalar quyidagicha yuzaga keladi:

1. Frazemalar ifoda jihatida tasodifan teng kelib qoladi. Bunda har bir frazema asosida boshqa-boshqa obraz yotadi. Masalan, *misi chiqdi I* frazemasi miskarlik bilan bog'lanisa (Idish-oyoq ilgari asosan misdan yasalar va usti sirlanar edi; siri ketsa, misi chiqib, yaroqsiz holga kelar edi); *misi chiqdi II* frazemasi esa misning rangiga bog'lanadi (Pechka qattiq yoqilsa, qizib mis rangiga kiradi).

2. Bir frazemadan ikkinchi frazema o'sib chiqib voqe bo'ladi. Omofrazemalarning bunday yo'l bilan paydo bo'lishi uch xil:

1) Mayjud frazemaning ma'no taraqqiyoti natijasida yangi frazema paydo bo'ladi. Bu hodisa frazeologik polisememiyaga o'xshaydi. Farq shundaki, hozirgi holatida bu ikki omofrazema anglatgan ma'nolarni bir frazemaning ma'nolari sifatida talqin qilib bo'lmaydi, bu lug'aviy ma'nolar bir ma'no zanjiriga birlashmaydi. Masalan, *jon(i) bor I* frazemasi jonlilarga nisbatan, birinchi navbatda odamga nisbatan ishlatalidi ('hali tirik' ma'nosini anglatadi). Bu frazemani jonlilardan *gap*, so'z kabi mavhum tushuncha nomlariga ko'chirish bilan tamoman yangicha ma'no ('asosga ega', 'zamirida haqiqat bor', 'bejiz emas') vujudga kelgan. Bu ikki frazeologik ma'noni bir frazemaning ikki ma'nosi deb bo'lmaydi, chunki bu lug'aviy ma'nolar orasida bog'lanish yo'q. Shu sababli keyingi ma'noni alohida frazema (*jon i bor II*) deb qarash lozim (Keyingi frazema ko'pincha *jon bor* shaklida ishlatalidi).

2) Mayjud frazemaning biror grammatik shakli asosida paydo bo'ladi. Bunda frazemaning grammatic shakllaridan biri ma'noda ayrimlik qozonadi, shu asosda mustaqil frazema darajasiga o'sib boradi. Xuddi shunday shaklda ishlatalish avvalgi frazemada ham saqlangani sababli omonimiya paydo bo'ladi.

Leksemalarning ayrim grammatic shaklida qotib ravishlashuvi faol jarayon bo'lib, hozirgi o'zbek tilida ham ravish turkumining boyish manbalaridan biri. Bunday usul bilan ravishlashuv frazemalarda ham anchagina uchraydi. Masalan, *bosh(i)ni yeb I* shakli *bosh(i)ni ye-* frazemasining juda ko'p grammatic shakllaridan biri bo'lib, bu shaklida ham boshqa shakllaridagi kabi lug'aviy ma'noni aynan anglatadi ('yo'q qilib', 'halok qilib'). Shu frazemadan o'sib chiqqan *boshini yeb II* frazemasi esa xuddi shu shaklda paydo bo'lgan. Avvalgi lug'aviy ma'no bilan bog'lanmaydigan yangi lug'aviy ma'noning {'judi ko'p hosil qilib'} yuzaga kelishi yangi frazemaning vujudga kelishiga, bu esa o'z navbatida omonimiyaning paydo bo'lishiga olib kelgan.

3) Mayjud frazemada yangicha sintaktik vazifaga xoslanish, shu tufayli yangi ma'no anglatish voqe bo'ladi, natijada boshqa-boshqa turkumga mansub ikki frazema haqida gapirish lozim bo'ladi. Masalan, *turgan gap I* va *turgan gap II* frazemalaridan birinchisi kesim vazifasiga xoslangan bo'lib, 'aniq', 'shak-shubhasiz' kabi ma'noni anglatadi. Shu frazema keyinchalik kirish bo'lak vazifasida ham ishlatalib, alohida bir lug'aviy ma'no ('albatta', 'shubhasiz' kabi modal ma'no) kashf etgan, modal frazema paydo bo'lgan. Bu tur omofrazemalar juda oz.

3- §. Omofrazemalarga nisbatan ham **omonimlar** va **omoformalar** haqida gapi-

riladi. Omonim omofrazemalar barcha muqobil shakllarida o'zaro teng keladi. Masalan, *qo'l ko'tar-* I ('urmoqchi bo'l-) va *qo'l ko'tar-* II ('tarafdar ekanini, roziligini bildir-') barcha muqobil shakllarida teng keladi, shunga ko'ra omonim omofrazemalar deyiladi.

Omofrazemalar ko'pincha biror tomoni bilan farqlanib turadi, shunga ko'ra omonim omofrazemalar juda oz. Omoforma omofrazemalar asosan quyidagi sabablarga ko'ra voqe bo'ladi:

1. Frazemalardan biri bo'lishli-bo'lishsizlikning faqat bir shaklida ishlataladi, shu jihatni bilan har ikki shaklda ishlataladigan frazemadan farqlanib qoladi. Masalan, *so'z ber-* I ('muzokara qilishga rasmiy ruxsat ber-') frazemasi bo'lishli va bo'lishsiz shakllarda ishlataladi, *so'z berma-* II ('bosqalarga imkon bermay nuqul o'zi gapir-') frazemasi faqat bo'lishsiz shaklda ishlataladi, omonimiya *so'z berma-* I va *so'z berma-* II shakllarida voqe bo'ladi.

2. Frazemalardan biri nisbatlovchi bilan ishlatilmaydi. Masalan, *ko'z yum-* I ('ko'ra-bila turib e'tiborsiz qoldir-') frazemasi nisbatlovchisiz ishlataladi, *ko'z(i)ni yum-* ('qazo qil-') frazemasi esa nisbatlovchili ham, nisbatlovchisiz ham ishlataladi, keyingi shaklda ishlataliganida tushum kelishigi ham belgisiz shaklga o'tadi va omonimiya voqe bo'ladi.

3. Frazemalardan biri ikki nisbat shaklida, ikkinchisi esa faqat bir nisbat shaklida ishlataladi. Masalan, *chehra(sij)ni och-* I ('xafaligi tarqaganini ko'rsat-') frazemasi har ikki nisbat shaklida ishlataladi: *chehra(sij) ochildi*; *chehra(sij)ni och-* II ('go'zallashtir-') frazemasi esa faqat aniq nisbat shaklida ishlataladi va b.

**4- §. Parafrazemalar.** Ba'zi frazemalar o'zaro tarkibidagi bir leksik a'zosi bilan gina farq qiladi, lekin bu a'zolar ifoda jihatiga, ba'zan mazmun jihatiga ko'ra ham o'xshash bo'ladi. Bunday frazemalarni parafrazemalar deb nomlash mumkin. Parafrzemalarning asosiy ko'rinishlari quyidagicha:

1. Ikki frazema tarkibidagi hollovchi boshqa-boshqa, lekin o'xshash leksik birlik bilan ifodalangan bo'ladi: *yurag(i) t a r s yorilib keta yozdi* ('sabr-chidami tugab xunob bo'lib ket-') – *yurag(i) q o q yorilayozdi* ('sevinib kuchli hayajonlan-') kabi.

2. Ikki frazema tarkibidagi to'ldiruvchi bo'lak boshqa-boshqa, lekin o'xshash leksik birlik bilan ifodalangan bo'ladi: *o'z(i)ni q a y e r g a q o' y i sh (i) n i b i l - m a - 2* ('bekorchilikdan zerikib toqatsizlan-') – *o'z i n i q a y o q q a u r i sh (i) n i b i l m a -* ('kuchli hayajonlangan holda toqatsizlan-') kabi.

3. Ikki frazema tarkibidagi fe'l a'zo boshqa-boshqa, lekin o'xshash leksema bilan ifodalangan bo'ladi: *yetti uxlab, tush(i)ga ham k i r m a -* ('mutlaqo o'ylama-, kutma-') – *yetti uxlab, tush(i)da ham k o' r m a -* ('hech qachon ko'rma-') kabi va b.

## FRAZEMALARING MAZMUN JIHATI

**1- §.** Lisoniy birlik sifatida frazemalarga ham xuddi leksemalarda bo'lganidek nomlash vazifasi va ma'lum bir ma'noni bildirish vazifasi xos. Faqat frazeologik bir-

liklarning ayrim turlarida nomlash vazifasi yo'q (Bular "Frazemalarning turkumlanishi" bahsida tasvirlanadi).

Frazemada ikki va undan ortin leksema o'z leksik ma'nno mustaqilligini yo'qotgan holda bir umumiyl markaziga bo'ysunadi, frazemadan yaxlitligicha anglashiladigan ma'noni gavdalantirish uchun xizmat qiladi. Frazemadan anglashiladigan ma'no uning tarkibidagi leksemalardan anglashiladigan ma'nolarning oddiy (arifmetik) yig'indisi bo'lmay, umumlashma, ustama ma'no, ayni vaqtida ko'chma ma'no sifatida gavdalaniadi. Masalan, *jon(i)ni jabborga ber-* frazemasi 'bor kuchini safarbar qilgani holda faoliyat ko'rsat-' ma'nosini anglatadi; bu ma'no – *jon-, jabbor-, ber-* leksemalari anglatadigan ma'nolarning oddiy yig'indisi emas, balki ma'lum obrazga asoslanadi- gan umumlashma ko'chma ma'no.

Leksemada bo'lganidek, frazemaning mazmun jihatida ham ikki hodisa ajratiladi: I) lug'aviy ma'no, aniqrog'i – frazeologik ma'no, 2) baho semasi.

**2- §. Frazeologik ma'no.** Frazemaning voqelikka nisbat beriladigan lug'aviy mazmuni (nimanidir anglatishi, ifodalashi) frazeologik ma'no deyiladi. Masalan, *tuyaning kallasiday* frazemasi 'hajmi odatdagidan ancha katta, yirik' ma'nosini, *yurak-bag'r(i) qon bo'lib ketdi* frazemasi 'dittang bo'l-, ziq bo'l-' ma'nosini anglatadi: *Qovunga qarang. Har biri t u ya n i n g k a l l a s i d a y. Juda saralangan* (Oybek). *Y u r a k - b a g ' r - i m q o n b o ' l : b k e t d i,.. ertadan beri yolg'iz o'tiribman* (Oybek).

Frazeologik ma'no tarkibini semik tahlil qilish bilan ham ideografik semalar ajratiladi. Masalan, *ta'b(i) xira* frazemasi sifatlarning ruhiy holat bildiruvchi leksik-semantic guruhiya mansub. Bu guruh sifatlarning lug'aviy ma'nosini tarkibida 'kayfiyat', 'his-hayajonning ijobjiy-salbiyligi', 'his-hayajonning kuchli-kuchsizligi' kabi ideografik semalar ajratiladi. Ana shu semalar asosida yuqoridagi frazemaning ma'nosini 'kayfiyati biroz yomon holatda' deb ta'riflash mumkin.

**3- §. Frazeologik butunlik va frazeologik chatishma.** Frazemadan yaxlitligicha anglashiladigan lug'aviy ma'no bilan uning tarkibidagi leksemalar anglatadigan lug'aviy ma'nolar orasidagi munosabat asosida frazemalarning ikki ma'no turi farq qilinadi: 1) frazeologik butunlik, 2) frazeologik chatishma.

Ma'nosini tarkibidagi leksemalarga xos ma'nolar asosida izohlanadigan, shu leksik ma'nolarning umumiyl maxraji sifatida gavdalananadigan frazema frazeologik butunlik deyiladi: *to'ydan ilgari nog'ora chal-, yog' tushsa – yalagu(n)dek, katta og'iz* kabi. Misol: *Mehmonning qizarganini payqagan keksa boy o'z xotinining k a t t a o g' i z va betamizligidan achchiglanib yuzini teskari burdi* (Oybek).

Ma'nosini tarkibidagi leksemalarga xos ma'nolar asosida izohlanmaydigan, bu leksemalarga xos leksik ma'nolarni hisobga olmaydigan frazemaga frazeologik chatishma deyiladi: *bosh(i)ni olib (chiqib ket-), o'pka(s)i)ni qo'ltiqla-* kabi. Misol: *Bordiyu Siz ham tisarilsangiz, Sizdan ham qo'limni yuvib, qo'ltig'imga uraman-u, b o sh i m n i o l i b hayyo-hayt deb chiqaman-ketaman* (Hamza). *Ovchi uzoqdan o'pka s i n i*

*q o' l t i q l a b chopib keldi* (Ertakdan).

Frazeologik chatishmaga xos ma'no tarkibidagi leksemalarning ma'nosiga hatto zid bo'ladi. Masalan, *oyog'(i)ni qo'l(i)ga ol-* frazemasidan anglashiladigan ma'no ('masofani o'ta tez sur'at bilan bos-') tarkibidagi leksemalardan bevosita anglashiladigan ma'nolarga zid: *oyoqni qo'lga* olgandan keyin, jadallik u yoqda tursin, umuman hech qanday harakat bo'lishi mumkin emas.

Frazeologik butunlik bilan frazeologik chatishma uchun umumiy belgi – ularda semantik va grammatik sintezga intilishning mavjudligi. Bunda quyidagilar nazarda tutiladi: 1) Tarkibida ikki va undan ortiq leksema qatnashadi, 2) Yaxlit bir ma'no gavdalananadi, 3) Tarkibidagi leksemalar o'z leksik ma'no mustaqilligini yo'qotadi, 4) Erkin bog'lanma bilan omonimiklik holatida bo'ladi, 5) Frazemani faqat yaxlitligicha almashtirish mumkin, 6) Nutqda yaxlitligicha bir sintaktik vazifada keladi, 7) Boshqa tilga yaxlitligicha tarjima qilinadi.

Frazeologik butunlik bilan frazeologik chatishma orasidagi farq – ulardagi umumiy belgining (semantik-grammatik sintezga intilishning) me'yorida:

1a. Frazemaning ma'nosini tarkibidagi leksemalarning ma'nosiga bog'liq, shu leksik ma'nolarning o'ziga xos sintezidan iborat bo'ladi.

1b. Frazemaning ma'nosini tarkibidagi leksemalarning ma'nosiga bog'liq emas, bulardan kelib chiqmaydi.

2a. Frazemaning ma'nosini uning tarkibidagi leksemalarga xos ma'nolar asosida izohlash mumkin.

2b. Frazemaning ma'nosini tarkibidagi leksemalarga xos ma'nolar asosida izohlanmaydi, frazemadan anglashiladigan ma'noni tushunishda qandaydir shartlilik mavjud bo'ladi.

3a. Tarkibidagi leksemalarga xos ma'nolar ma'lum darajada hisobga olinadi.

3b. Tarkibidagi leksemalarga xos ma'nolar hisobga olinmaydi.

4a. Frazemaning yaxlit ma'nosini fonida tarkibidagi leksemalarga xos ma'nolar ham sezilib turgani sababli bunday frazemaning ma'nosini ko'p qirrali, boy bo'ladi, murakkab holatda gavdalananadi; ichki obraz hayot bo'ladi.

4b. Faqat frazemaning yaxlit ma'nosini-gina mavjud bo'ladi, bu ma'noning gavdalishida tarkibidagi leksemalarning ma'nosini qatnashmaydi; ichki obraz so'ngan bo'ladi. Shunga ko'ra frazemaning ma'nosini ancha sodda holatda gavdalananadi.

5a. Ma'nosini tarkibidagi qismlar asosida izohlash imkoniyatining borligi bilan bunday frazema yasama leksemalarga o'xshaydi.

5b. Ma'nosini tarkibidagi qismlar asosida izohlash imkoniyatining yo'qligi bilan bunday frazema tub leksemaning bosh leksik ma'nosiga o'xshaydi.

**4- §. Baho semasi.** Frazema mazmun jihatining voqelikka munosabat bildirish belgisiga baho semasi deyiladi. Baho semasining leksemalardagi va frazemalardagi mavqeい farqli.

Baho semasi leksemalarning ko'pida betaraf bo'ladi, yaqqol ifodalanib turmaydi;

ba'zan esa baho semasi leksemani turlicha ma'no munosabatiga kiritish, turlicha qo'llash bilan hosil qilinadi. Frazemalarning ko'vida esa baho semasi uning mazmun jihatida doimiy tarkibiy qism bo'lib qatnashadi, ba'zan frazemaning lug'aviy ma'nosini butunlay qamrab oladi.

Frazemalar odatda voqelikni nomlab-gina qolmay, uni baholaydi ham. Frazemalarning tilda yashashini oqlab turadigan asosiy sabablardan biri — shu. Masalan, quyidagi matnlarda ishlatilgan frazemalar ma'lum voqelikni nomlaydi (*yer-u ko'kka ishonma-* — 'o'ta darajada ardoqla-'; *bosh(i)ga ko'tar-II* — 'yuksak darajada izzat-hurmat qil-'; *mukkafsi)dan ket-* — 'o'zini tiya olmaslik darajasida berilib ket-'); shu bilan bir vaqtida bu voqelikka munosabatni ham ifodalaydi (Avvalgi ikki frazemada ijobiy munosabat, keyingi frazemada esa salbiy munosabat ifodalananadi): *I b r o h i m. Xursandmisan, xafa qilayotgani yo'qmi? G u l s a r a. Yo'q! Yer-u ko'kka ishonmaydi, boshiga ko'taradi* (Yashin). *Otang — xurofatga mukkasidan ketgan odam* (Yashin).

**5- §. Frazemalarda lisoniy ma'no va nutqiy ma'no.** Frazemalar nutqda asosan lisoniy ma'nosi bilan ishlatiladi. Shuning bilan birga frazemani yangicha lug'aviy mazmun bilan ishlatish ham uchraydi. Masalan, *chakag(i) ochildi* frazemasi odatda 'ko'p ma'ra-' (hayvonga nisbatan), 'uzluksiz joyra-' (kishiga nisbatan) ma'nolarini anglatadi. Oybek bu frazemani juda ustalik bilan yangi bir hodisa — pulemyotning o'q uzishiga ko'chirgan. Bunday yangicha qo'llash muvaffaqiyatli chiqqan, yozuvchi 'uzluksiz o'q uz-' kabi yangicha ma'noni ifodalashga erishgan: *Pulemyotning chakagi ochilib ketdi.*

Frazemani yangicha nutqiy qo'llash hamma vaqt ijobiy chiqavermaydi. Masalan, quyidagi nutqiy qo'llash durust chiqqan, lekin kichik bir nuqson ham bor: *Sevgining naqadar pok, naqadar mugaddasligini y e t t i u x l a b, t u sh i d a k o ' r m a g a n va uni muruvvatsiz qo'lda so'lgan chechak kabi xoksor qilgan ishq jalloblarining noziga quloq solgan xudo to'tiqushning bolalaridek bir-biriga zor, intizor bo'lib, bir-biriga yetisholmay xor-zor bo'lib yurgan miskinlar ohiga nechuk quloq solmas ekan?* (Mirzakalon Ismoiliy).

Bu matnda ishlatilgan *yetti uxbab, tush(i)da ko'rma-* frazemasi 'hech qachon ko'rma-' ma'nosini anglatadi va ko'rish mumkin bo'lgan narsalarga nisbatan ishlatiladi. Yozuvchi bu frazemani yangicha matnda, yangicha qurshovda (*sevgining pokligi, muqaddasligi* birikmashakliga bog'lab) ishlatgan. Natijada bu frazema tamoman yangi ma'noni — 'bilma-' ma'nosini anglatish uchun xizmat qildirilgan. Bu bilan frazemaning lug'aviy ma'nosi to'g'ri taraqqiy ettirilgan. Lekin bu frazema mavhum belgi otlarini bevosita boshqarib kelishi o'rni chiqmagan. Agar bu frazema to'g'ridan to'g'ri sevgini leksemashaklini quyidagicha boshqarib kelsa edi, muallif bu nuqsondan qutular edi: *Pok, muqaddas sevgini yetti uxbab, tushida ko'rmagan.*

Badiiy nutqda frazemani noo'rin, noto'g'ri ishlatish hollari ham uchraydi. Bunday hol tilni bilmaslik, til qonuniyatlar bilan hisoblashmaslik oqibatida yuz beradi. Masalan, quyidagi matnda frazema noo'rin ishlatilgan: *K o ' r i n m a y d i k o ' z i m-*

*g a Tor qafasda turganim. Esga tushar bog'chada erkin sayrab yurganim* (Adham Rahmat). Bu matnda ishlatilgan *ko'z(i)ga ko'rınma-* II frazemasi 'tatima-' ma'nosini anglatib, qadrli, yoqimli kishi yoki narsaga qarata aytildi; she'rdagi "tor qafas"ni bunday narsa deb bo'lmaydi.

### Frazemalarda ko'pma'nolilik

1- §. Lug'aviy ma'noning taraqqiy etishi frazemalarga ham xos bo'lib, asosan metafora yo'li bilan ko'chirish natijasida voqe bo'lgan. Masalan, *ko'ngl(i)ga teg*-frazemasi asli biror ovqat tez-tez iste'mol qilinishi tufayli yoqmay qolishini anglatadi. Bu frazema keyinchalik ovqatdan boshqa narsalarga, shuningdek kishilarga qarata ham ishlatilgan; bunday ko'chirish natijasida bu frazemada 'tabiatiga to'g'ri kelmay qolib yoqtirmaslik hissi uyg'andi' ma'nosi yuzaga kelgan: 1) *Mastava k o' n g i l l a r i n g i z g a t e g i b y u r g a n d i r* (Hakim Nazir). 2) *Ammo har kuni bir xil narsani takrorlayverish uning k o' n g l i g a t e g d i* (Ibrohim Rahim).

Frazemaga xos ma'noning taraqqiyoti natijasida frazeologik ma'noning miqdori o'zgaradi. Bir frazeologik ma'no asosida ikkinchi frazeologik ma'noning yuzaga kelishi ikki xil hodisaga — ko'pma'nolilikka yoki omonimiyaga olib keladi; bulardan birinchisi ko'p (Frazeologik omonimiya oldingi sahifalarda tasvirlandi).

Bir frazema ba'zan zid inazmunli lug'aviy ma'nolarni anglatadi. Masalan, *yurag(i) qinidan chiqlayozdzi* frazemasi qattiq hayajonlanishni anglatadi, lekin bunday holat tashvishga ham, sevinchga ham bog'lanadi: 1) *Qo'rqmayman deb bo'lmaydi, o'g'lim. Shunaqa vaqtida odamning y u r a g i q i n i d a n c h i q i b k e t a d i* (Abdulla Qahhor). 2) *Qizning paranjisini ko'rishi bilanoq yigitning y u r a g i q i n i d a n c h i q a yo z d i* (Oybek). Buni enantiosemiya hodisasiga o'xshatish mumkin.

2- §. Frazemalarning ko'pi bir ma'noli (monosemem). Masalan, *bahr(i)dan o't*-frazemasi 'foydal deb bilgan narsasidan voz kech-' ma'nosini, "berdi"sini aytguncha *urib o'ldir-* frazemasi 'gapirib bo'lguncha kutmay (chidamay) biror narsa de-' ma'nosini, 'daryodan bir tomchi' frazemasi 'qolgan qismiga nisbatan juda oz' ma'nosini anglatadi.

Ko'p ma'noli (polisemem) frazemalar ham anchagina bo'lib, bularning ko'pi — ikki va uch ma'noli. Masalan, *bosh(i) aylandi* frazemasi ikki ma'noni anglatadi: 1) 'behud bo'l-', 2) 'esankira-'; *bosh suq-* frazemasi uch ma'noni anglatadi: 1) 'gavdasi tash-qarida qolib, boshini tiqqan holda qara-' 2) 'kir-', 3) 'aralash-'. *Bosh ko'tar-* I frazemasi esa quyidagi to'rt ma'noni anglatadi: 1) 'qara-', 2) 'qilib turgan ishini to'xtat-', 3) 'qo'zg'al-', 'harakatga kel-', 4) 'kurashga chog'lan-' ("O'zbek tilining frazeologik lug'ati" ga qarang).

Frazeologik polisememiya deganda frazemaning o'zi ikki va undan ortiq lug'aviy ma'no anglatishi tushuniladi. O'zaro shaklan o'xshash erkin bog'lanmadan va frazemadan anglashiladigan ma'nolar bir nuqtaga birlashtirilib, polisememiya deb qaralmaydi, chunki bular har xil hodisalar: erkin bog'lanma — nutqiy birlik, frazema


— lisoniy birlik. Erkin bog'lanma bilan frazemaning shaklan teng kelish hodisasi omonimiklik deyiladi ("Frazeologik omonimiya" bahsiga qarang).

3- §. Frazemaning lug'aviy ma'nosi birdan ortiq bo'lsa, xuddi leksemalarda qilin-ganidek bosh ma'no va hosila ma'no belgilanadi. Masalan, *jar sol-* frazemasi 'jarchi vositasida eshittir-' (Bu ma'no eski ma'noga aylangan), 'keragidan ortiq darajada bo'rttirib xabar tarqat-' ma'nolarini anglatadi. Birinchisi — bosh ma'no, ikkinchisi — shundan o'sib chiqqan hosila ma'no.

*Bino qo'y-* frazemasi uch ma'noli: 1) 'ortiqcha baho ber-', 2) 'qiyofasiga alohida e'tibor ber-', 3) 'e'tiqod bilan qara'. Bu frazemaning ikkinchi, uchinchi ma'nolari birinchisi ma'nodan o'sib chiqqan:



*Til(i) chiqdi* frazemasida lug'aviy ma'nolarning bog'lanishi o'zgacha: 1) 'nutqqa ega bo'l-', 2) 'indamay yurgan kishi gapiradigan bo'lib qol-' 3) 'aytishadigan bo'l-. Bu ma'nolarning bog'lanishi quyidagicha:



Bu ma'nolarning birinchisi — bosh ma'no, uchinchisi — hosila ma'no, ikkinchisi esa avvalgi ma'noga nisbatan hosila ma'no, keyingi ma'noga nisbatan bosh ma'no (nisbiy bosh ma'no).

Leksemada bosh leksik ma'no odatda to'g'ri ma'no bo'ladi. Frazemada esa bosh lug'aviy ma'no ko'chma ma'no bo'ladi, chunki frazemaning bosh lug'aviy ma'nosi ham hosila ma'nosi kabi ustama ko'chma ma'no tarzida gavdalaniadi, ma'lum obrazga asoslanadi. Demak, frazemaning tabiatи to'g'ri ma'noni istisno qilib qo'yadi.

4- §. Frazemalarda ham lug'aviy ma'noni va uning taraqqiyotini semik tahlil usuli bilan o'rghanish bu hodisalarni ravshanroq tasavvur qilishga imkon yaratadi. Masalan, *ko'ngl(i) aynidi* — ikki ma'noli frazema. Bu frazemaning birinchи ma'nosi uchun semalarni quyidagicha belgilash mumkin: fe'l frazema bo'lgani sababli avvalo 'ta'sir ko'rsat-' semasi belgilanadi. Ta'sir ko'rsatish 'ijobiy yoki salbiy' bo'ladi, ta'sir etuvchi — 'jism', aniqrog'i — 'ovqat', ta'sir 'kishи organizmida', aniqrog'i — 'ovqatlanish a'zolari'da namoyon bo'ladi. Ovqatlanish a'zolariga ovqatning ta'siri 'jismoniy' bo'ladi. Yuqorida ajratilgan semalar yig'imi shunday tartiblanadi: 'ovqatlanish a'zolari' + 'jismoniy' + 'salbiy' + 'ta'sir ko'rsat-'. Ana shu semalar asosida bu frazemaning bosh ma'nosi 'ovqatlanish a'zolari qabul qilmagani tufayli behuzur bo'l-deb ta'riflanadi.

*Ko'ngl(i) aynidi* frazemasining ikkinchi lug'aviy ma'nosi birinchisidan o'sib

chiqqan. Yangi ma'no bu frazemani ovqatdan boshqa narsaga ko'chirib ishlatalish natijasida yuzaga kelgan. Bunday ko'chirishda birinchi ma'no tarkibidagi 'salbiy', 'ta'sir ko'rsat-' semalari saqlanadi, 'ovqatlanish a'zolari' ('organizm') semasi 'hissiyot' semasiga, shu bilan birga 'jismoniy' semasi ham 'ruhiy' semasiga almashadi. Natijada quyidagi semalar yig'imi voqe bo'ladi: 'hissiyot' + 'ruhiy' + 'salbiy' + 'ta'sir ko'rsat-'. Ana shu semalar yig'imi asosida bu lug'aviy ma'no 'tabiatiga yoqmagan tufayli ijirg'an-' deb ta'riflanadi.

Ko'rindik, bu frazemada lug'aviy ma'no taraqqiyoti aniqdan mavhumga tomon yo'nalishda voqe bo'lgan, ma'no taraqqiyoti yo'llaridan metonimiyaga to'g'ri keladi.

5- §. Frazeologik ma'no ham xuddi leksik ma'noda bo'lganidek o'ziga xos kontekstda (qurshovda) namoyon bo'ladi. Polisemem frazemaning ma'nolari o'zaro lug'aviy ma'nosidan tashqari leksik qurshovida, grammatic tabiatida farqlanib turishi mumkin. Masalan, *boy ber-* frazemasi uch lug'aviy ma'noni anglatadi: 1) 'yutqiz-', 2) 'yo'qot-', 'behuda, befoyda o'tkaz-', 3) 'oshkor qil-'. Bu ma'nolar turli leksik qurshovda namoyon bo'ladi: birinchisida qimorni, garovni anglatadigan leksema bilan, ikkinchisida vaqtini anglatadigan leksema bilan, uchinchisida esa surni anglatadigan leksema bilan ishlataladi: 1) *Ukaning hech haqi yo'q, hovlidan bo'ladigan tegishini ham sotib, qimorga b o y b e r g a n!* (Sobir Abdulla). 2) *Shunday qilib, bahorda b o y b e r g a n o'n besh kunni ham qaytarib oldik* (Ibrohim Rahim). 3) *Kulgiga to'lib turganlar endi sir b o y b e r i b q o' y g a n yiguchaning ustidan xaxolashdi* (Pirimqul Qodirov) Ko'rindik, bu frazemaning lug'aviy ma'nolarida leksik qurshov farqli, lekin grammatic tabiat bir xil.

Mana bu frazemaning lug'aviy ma'nolarida leksik qurshov ham, grammatic tabiat ham farqli:

*ket (u) ga tush-.*

Bu frazema 'zimdan yurib butun xatti-harakatini ta'qib qil-' va 'manfaatdor bo'lgani holda berilib harakat qil-' ma'nolarini anglatadi. Har ikki ma'nosida harakatni kishi bajaradi, lekin harakat qaratilgan predmet boshqa-boshqa bo'ladi: birinchisida kishiغا (*kimning*), ikkinchisida esa narsaga (*nimaning*) qaratiladi. Shu sababli bu ma'nolarning leksik qurshovi ham, grammatic tabiatini ham farq qiladi. Qaratqich kelishigida kishini bildiradigan leksemaning kelishi birinchi ma'noda har uch shaxs-son nisbatlovchisini ishlatalishga yo'l ochadi; qaratqich kelishigida narsani anglatadigan leksemaning kelishi esa faqat III shaxs nisbatlovchisining qatnashuvini belgilab qo'yadi; natijada bu ikki frazeologik ma'noning grammatic tabiatini farqlanib qolgan. Birinchi ma'nosida *ketidan tushdim*, *ketidan tushding*, *ketidan tushdi*, *ketingdan tushdim*, *ketingdan tushdi*, *ketimdan tushding*, *ketimdan tushdi* kabi shakllarda ishlatsa, ikkinchi ma'nosida shu shakllarning uchtasida-gina keladi: *ketidan tushdim*, *ketidan tushding*, *ketidan tushdi*.

Mana bu frazemaning lug'aviy ma'nolarida grammatic tabiat boshqacharoq:

$$hadd \frac{(u)}{u} \text{ dan } osh \frac{3 + Ts}{3 + Ts III}.$$

Bu frazema [*kim (o'zining)*] 'o'ziga ortiqcha erk berib yubor-', [*nima (o'zining)*] 'ortiq darajada kuchayib, zo'rayib ket' ma'nolarini anglatadi. Birinchi ma'noda kishiga xos harakat, ikkinchi ma'noda esa narsaga xos harakat bildiriladi. Shunga ko'ra bu ma'nolar har xil leksik qurshovda oydinlashadi, ayni vaqtida grammatik shakllarda ishlatalishi ham farq qiladi. Birinchi ma'nosida bu frazema har uch shaxs-sonda tuslanadi ham, nisbatlanadi ham. Ikkinci ma'nosida faqat III shaxc tuslovchisi va nisbatlovchisi bilan ishlataladi (har ikki ma'nosida tuslovchi bilan nisbatlovchi moslashib yuradi: *hadding-dan oshding, haddidan oshdi* kabi).

**5- §. Leksemalarning semantik bog'lanishida ta'kidlangan shart-sharoitlar frazemalarning semantik bog'lanishida ham amal qiladi. Masalan, *ko'ngl(i) bor* frazemasi ijobjiy yoki betaraf ish yoki narsani anglatadigan leksemalar bilan ishlataladi: *Universitetda o'qishga k o' n g l i b o r* kabi. Lekin *Janjalga ko'ngli bor* kabi bog'lab ishlatalmaydi: *janjal* leksemasi anglatadigan vogelik salbiy hodisa deb baholanadi va b.**

**6- §. Frazosemema.** Semema termini bilan faqat leksemaning mazmun jihatni nomlanmay, frazemaning (shuningdek morfemaning) ham mazmun jihatni nomlanadi. Bu uch til birligiga xos sememalarni leksosemema, fazosemema, morfosemema deb farqlab nomlash mumkin.

Xuddi leksemalarda bo'lgani kabi frazema bir lug'aviy ma'noli bo'lsa bir til birligiga (bir frazeologik birlikka) teng bo'ladi. Agar frazema polisemem bo'lsa, uning har bir fazosememasi o'zicha alohida til birligiga (alohida frazeologik birlikka) teng bo'ladi. Chunki xuddi leksemalarda bo'lgani kabi har bir fazosemema o'ziga xos lug'aviy mundarijaga (ideografik scmalar yig'imiga), o'ziga xos baho semasiga ega. Bulardan tashqari har bir fazosemema o'ziga xos leksik qurshovga ega bo'ladi, grammatik tabiatida ham ko'pincha farqlanib turadi. Nihoyat, har bir fazosemema mustaqil ravishda boshqa lug'aviy birlik bilan (frazeologik birlik, leksik birlik bilan) sinonimik, antonimik munosabat hosil etishi mumkin.

### Frazemalar orasidagi semantik munosabatlar

#### Frazemalarda sinonimik munosabat

**1- §. Ideografik semalari teng, bir yoki bir necha jihatni o'zaro farqli fazemalar (fazosememalar) frazeologik sinonimlar (frazosinonimlar) deyiladi. Masalan, *og'z(i)ga tolqon sol-, mum tishla-* fazemalari ayni bir lug'aviy ma'noni – 'mutlaq gapirma-' 'suhbatda mutlaqo qatnashma-' ma'nosini anglatadi: *Majlis boshlanguncha biroz kulishib o'tiraylik. O g'izlar ingga tolqon solib oldinglar* (Parda Tursun). *Bir gapirib, o'n kulardi, hammani og'ziga qaratardi...* Bugun mu'm tishlab qoldi** (Oydin).

Frazeologik sinonimlar ham uch jihatdan baholanadi: a) lug'aviy ma'nosi jihatni

dan, b) baho semasi jihatidan, v) nutqiy xoslanishi jihatidan.

Frazosinonimlar ko'pincha ma'no sinonimlari (ideografik sinonimlar) bo'ladi (Ma'nosi teng keladigan frazosinonimlar juda oz). Masalan, *burn(i)ni ko'tar-* — *burn(i) ko'tarildi* va *dimog'(i) shishdi* frazemalari uchun umumiy mundarija 'kibrilan-', 'gerday-' bo'lsa-da, bu umumiylar ma'noning gavdalaniishi turliha. Bundan qat'i nazar, *burn(i)ni ko'tar-* — *burn(i) ko'tarildi* frazemasiga nisbatan *dimog'(i) shishdi* frazemasida ma'no kuchliroq. Frazosinonimlarda baho semasi odatda bo'rtib turadi. Asli frazemalar xuddi shu maqsad bilan -- vogelikni nomlashda uni o'tkir baholab berish uchun, ijobjiy yoki salbiy munosabati yaqqol ifodalash uchun — yaratiladi. Masalan, *ikki oyog'(i)ni bir etikka tik-*, *oyog'(i)ni tirab ol-* sinonimlarining har ikkisida baho semasi juda kuchli; *bosh(i) shishdi*, *miya(si) g'ovlab ketdi* sinonimlarda esa baho semasi ikkinchisida kuchliroq: *Otam uylantiraman deb i k k i o y o g' i n i b i r e t i k k a s u q i b o l g a n . H o l - j o n i m g a q o ' y m a y d i* (Sayidahmad). *Savdogarning o'jarchasiga o y o q t i r a b t u r i s h i yigitning g'uzabini oshira boshladi* (Ozbek). *Shu kunda hammaning b o sh i sh i sh g a n* (Ozbek). *Ming xil xayol bilan m i y a m g' o v l a b k e t d i* (Oydin).

Frazosinonimlar nutqiy xoslanish jihatidan rang-barang emas, asosan so'zlashuv nutqiga, qisman boshqa nutq ko'rinishlariga xoslangan. Masalan, *ko'z(i)ni yum-*, *dun'yodan o't-* frazemalari adabiy nutqqa (ko'tarinki nutqqa), shularning sinonimi *jon ber-* frazemasi esa so'zlashuv nutqiga xoslangan.

Sinonim frazemalarni bir 'frazemaning variantlaridan (allofrazemalardan) farqlash kerak. Masalan, 'yangi, qo'l tegmagan' ma'nosini anglatuvchi *oxori to'kilmagan, qirovi to'kilmagan* frazemalari o'zaro sinonim, chunki bulardan har biri asosida boshqa-boshqa obraz yotadi (birinchisi to'quvchilikdan, ikkinchisi esa pichoqchilikdan olingan), boshqa-boshqa leksemalardan tarkib topgan.

Ammo *bosh(i)da yong'oq chaq-*, *bosh(i)da danak chaq-*, *bosh(i)da tosh chaq-* bir frazemaning ko'rinishlari (allofrazemalari) bo'lib, bir leksik a'zoning almashuvi bilan yuzaga kelgan, bunday almashtirish bilan frazemaning ma'nosi kuchaya boradi (*yong'oq* — *danak* — *tosh* ).

Sinonimiya frazema (frazosemema) bilan leksema (leksosemema) orasida ham voqe bo'ladi. Bunday hodisaga frazeologik-leksik sinonimiya deyiladi. Masalan, *yulduzni benarvon uradi* frazemasi *abjir* leksemasi bilan, *dunyoni suv bossa, to'pig'(i)ga chiqmaydi* frazemasi *beg'am* leksemasi bilan sinonim. Sinonimik munosabatdagi frazema o'z ma'no qirrasiga, baho semasiga ko'ra o'z leksik sinonimidan keskin farqlanib turadi. Biror vogelikni frazema bilan anglatish leksema bilan anglatishga qara-ganda ta'sirchan bo'ladi.

Frazosinonimlar odatda shu tilning o'ziniki bo'ladi: *bir yostiqqa bosh qo'y-*, *tur mush qur-*; *bir og'iz*, *bir shingil* kabi. Bir tildan boshqa tilga frazema o'zlashtirish juda oz voqe bo'ladi, shu sababli boshqa tildan frazema o'zlashtirish bilan yuzaga kelgan sinonimiya ham deyarli uchramaydi.

shakllanishi ikkilamchi belgilar sifatida hisobga olinadi.

Masalan, ot turkumiga mansub frazemadan 'predmet' turkumlik semasi anglashiladi, bunday frazema odatda birikmaga teng qurilishli bo'lib, tayanch a'zosi ot leksema bilan ifodalangan bo'ladi, demak, bunday frazemalarda ifoda jihatil bilan turkumlik jihatil mutanosib bo'ladi; bunday frazema asosga teng bo'lib, nutqda son va kelishik ko'rsatkichlarini olib frazemashakl holatiga o'tadi. *Supra qoqdi, patir ushatti* kabi gapshaklga teng qurilishli, lekin ot turkumiga mansub frazemalar ham bundan mustasno emas: *patir ushatti + Ø + ga chaqir* kabi.

Tayanch a'zosi ot leksema bilan ifodalangan, sintaktik qurilishi birikmaga teng frazemalarning bir qismi sifat turkumiga mansub (*og'ir oyoq* kabi). Bunday frazemalar mazmunan ('predmetning sifatiy belgisi' semasi bilan) va grammatic shakli bilan ot frazemalardan farq qiladi. Sifat frazema tarkibida sonlovchi va turlovchi qatnashmaydi, nutqda sifatlovchi vazifasida keladi (*shunga ko'ra 'sifatlovchi'* sintaktik semasi qo'shiladi).

Demak, sifat frazemalarga grammatic shakllarda ishlatalish xos emas. Bunday xususiyat tayanch a'zosi sifat leksema bilan ifodalanib, sintaktik qurilishi gapshaklga teng frazemalarga ham xos [*zuvalasi pishiq, qo'l(i) egri* kabi].

Sifat frazemalarning ayrimlari ot birikmaga *-day*, *-dagi* kabi sintaktik mohiyatlari grammatic ko'rsatkich qo'shilib shakllangan; frazemaning sifat turkumiga mansubligini belgilashda ana shunday grammatic ko'rsatkich hisobga olinadi (*o'rtta qo'lday, yo'q verdagi* kabi).

Frazemaning tayanch (oxirgi) a'zosi sifat leksema bilan ifodalaniishi bu frazemaning sifat turkumiga mansub ekanidan dalolat beradi (*tagi past* kabi). Xuddi shu fikrni tayanch a'zosiga (*aniqrog'i* — frazemaga yaxlitligicha) sifatdosh shakli yasovchisi qo'shilgan frazemalarga qarata ham aytish mumkin (*tesha tegmagan* kabi).

Sifat frazemalarning ayrimlari — kesimi tuslovchili gapshaklga teng (*qulinq o'rgilsin* kabi). Bunday frazemalarning sifat turkumiga mansubligini belgilashda grammatic shakliga tayanib bo'lmaydi, turkumlik semasi va sintaktik vazifasi asosga olinadi.

Yuqoridagi kabi tahlilni boshqa turkum frazeologik birliklari bo'yicha ham davom ettirish mumkin. Barcha hollarda frazemaning mazmun jihatil bilan ifoda jihatil orasidagi mutanosiblikka yoki nomutanosiblikka duch kelinadi. Nomutanosiblik mavjud o'rnlarda turkumlik semasi asosiy o'lchov bo'ladi va b.

### Frazemalarda bog'lashuv

1- §. Frazemalarning bog'lashuv imkoniyati asosan ularning qaysi turkumga mansubligi bilan belgilanadi.

I. Ot frazemalar:

1) ega vazifasida kelib, kesimni o'ziga bog'laydi: *Umriyo'ldoshim — o'ta mehnatkash* kabi;

2) to'ldiruvchi vazifasida kelib, fe'l leksemaga bog'lanadi: *U m r y o' l d o sh i m n i cheksiz hurmat qilaman. U m r y o' l d o sh i m d a n jonimni ham ayamayman* kabi;

3) qaratuvchi vazifasida kelib, qaralmish bo'lib kelgan leksemaga bog'lanadi: *U m r y o' l d o sh i m n i n g sog'lig'i juda yaxshi* kabi;

4) egaga bog'lanib (ega qatnashmagan, ega qatnashmaydigan gapshakllarda o'zicha) kesim vazifasida keladi: *Bu kishi – u m r y o' l d o sh i m* kabi.

II. Sifat frazemalarning bog'lashuvi sintaktik qurilishiga va vazifasiga bog'liq:

1. Birikmaga teng qurilishli frazemalar:

1) ot leksemaga bog'lanib sifatlovchi vazifasida keladi: *sh i r i n s o' z yigit, y o' q y e r d a g i gaplar, o s m o n b i l a n o' p i sh g a n binolar* kabi;

2) egaga bog'lanib (ega qatnashmagan, ega qatnashmaydigan gapshakllarda o'zicha) kesim vazifasida keladi: *Umr yo'ldoshim shu kunlarda o g' i r o y o q* kabi.

2. Gapshaklga teng qurilishli frazemalar:

1) ot leksemaga bog'lanib sifatlovchi vazifasida keladi; bunda tuslovchi tashlanib, 'sifatlovchi' sintaktik semasi qo'shiladi; ega bo'lak tarkibida ko'pincha nisbatlovchi qatnashadi; odatda III shaxs nisbatlovchisi, ba'zan-gina boshqa shaxs-son nisbatlovchisi qatnashadi: *chakagi ochiq bolakay, dumi xurjunda ish, qulog'i og'ir qariya, qulinq o'rgilsin xiyobon* kabi;

2) Gap vazifasida keladi; frazemaning ega a'zosi tarkibida nisbatlovchi qatnashadi va uch shaxs-son nisbatlovchilaridan biri tanlab qo'shiladi; demak, bunday frazemalarda qaratuvchi bo'lak bilan bog'lanish imkoniyati mavjud; tayanch a'zo:

a) hozirgi-kelasi zamon shaklidagi fe'l leksema bilan ifodalanadi: *chumchuq "pir" etsa, yurag(i) "shir" etadi* (kimning), *ora(lari)dan qil o'tmaydi* (kimlarning) kabi;

b) sifat leksema bilan ifodalanadi: *bosh(i) kal bo'lsa ham, ko'ngl(i) nozik* (kimning) kabi.

Demak, gapshaklga teng qurilishli frazema (umuman har qanday sintaktik birlik) nutqda o'z sintaktik qurilishiga mos holda gap (jumla) vazifasida ham, shuningdek o'rni bilan birikmaning bo'lagi (masalan, sifatlovchi) vazifasida ham ishlatiladi.

III. Ravish frazemalar sintaktik qurilishi va grammatik shaklidan qat'i nazar fe'l leksemaga, kesimlik leksemasiga bog'lanib hollovchi vazifasida keladi: *o ch i q ch e h r a b i l a n kutib ol-, y e t t i q o v u n p i sh i g' i bor, i k k i d u n-y o d a h a m rozi bo'ima-, e sh i k d a n k e l m a y t e sh i k d a n ket-* kabi.

Bir qancha ravish frazemalar tarkibida tashqi bog'lashuvga mansub nisbatlovchi qatnashadi:

1) Faqat III shaxs nisbatlovchisi qatnashadi: *ipidan ignasigacha; o'zini aka, ech-kisini taka deb* kabi;

2) Uch shaxs-son nisbatlovchilaridan biri tanlab qo'shiladi. Ana shunday ravish frazemalarda qaratuvchi bilan bog'lashuv imkoniyati mavjud, lekin bu imkon-

yat nutqda ko'pincha namoyon bo'lmaydi: *o'lgan(i)ning kunidan, umr(i) bino bo'lib, bosh(i)ga qilich kelsa ham kabi.*

IV. Kesimlik frazemalari o'z nomiga monand holda egaga bog'lanib (ega qatnashmagan, ega qatnashmaydigan gapshakkarda o'zicha) kesim vazifasida keladi: *Bu kasb egalarining barchasi – b i r go'r. Hol-ahvol so'rashish u yoqda t u r s i n, salomimga alik ham olmadi kabi.*

Gapshaklga teng qurilishli kesimlik frazemalari gap(jumla) vazifasida keladi. Bunday frazema tarkibida nisbatlovchi qatnashib, uch shaxs-son nisbatlovchisidan biri tanlab qo'shiladi. Ana shunday kesimlik frazemasida qaratuvchi bilan bog'lashuv imkoniyati mavjud, lekin bu imkoniyat nutqda deyarli namoyon bo'lmaydi: *Menga ko'rsatilgan iltifotdan boshim osmonda. Ketsang – ketaver, to'rt taraf i n g – q i b l a kabi.*

2- §. Fe'l frazemalarga xos bog'lashuv o'ta murakkab bo'lib, bu yerda eng muhim jihatlari ta'kidlanadi. (To'liqroq ma'lumot olish uchun qarang: Rahmatullaev Sh. O'zbek tilida fe'l frazemalarning bog'lashuvi. "Universitet", T.: 1992).

Fe'l frazemalarning bog'lashuv xususiyati, birinchidan, frazemaning birikmaga yoki gapshaklga teng qurilishli ekani bilan, ikkinchidan, fe'l a'zoning bog'lashuv imkoniyati va bu imkoniyatning frazema tarkibida namoyon bo'lgan-bo'lmaganligi bilan, uchinchidan, frazemaning ot a'zosi tarkibida tashqi bog'lashuvga mansub nisbatlovchining bor-yo'qligi bilan belgilanadi.

I. Birikmaga teng qurilishli fe'l frazemalarda bog'lashuv imkoniyati quyidagicha:

1. Ega bilan bog'lashuv deyarli barcha fe'l leksemalarga xos, bunday bog'lashuv faqat shaxssizlangan fe'l leksemada yo'qoladi; shaxssizlangan fe'l leksema esa frazema tarkibida deyarli qatnashmaydi.

Fe'l frazema faqat ega bilan bog'lashuvli bo'lishi uchun kesim a'zo to'ldiruvchini boshqara olmasligi yoki boshqaruv xususiyati frazemaning tarkibida namoyon bo'lgan bo'lishi, frazemaning ot leksemashakl bilan ifodalangan a'zosi tarkibida tashqi (qurshovga mansub) nisbatlovchi qatnashmasligi lozim: *katta ket-* (kim), *sarosimaga tush-* (kim), *qora terga bot-* (kim), *aqldan oz-* (kim) kabi.

2. Yuqorida tur frazema (egadan tashqari) qaratuvchi bilan bog'lashuvli bo'lishi uchun ot leksemashakl bilan ifodalangan a'zo tarkibida tashqi (qurshovga mansub) nisbatlovchi qatnashgan bo'lishi lozim: *bosh(i)ga chiqib ol-* (kim kimning), *jilov(i)dan tortib qo'y-* (kim kimning), *til(i)dan tushma-* (kim kimning), *dum(i)ni tug-* (kim kimning), *bosh(i)ga suv quy-* (kim kimning); *tagiga yet-* (kim nimaning), *mag'zini chaq-* (kim nimaning) kabi. Ko'rindaniki, birikmaga teng qurilishli bunday frazemalar – ikki bog'lashuvli: ega va qaratuvchi bilan bog'lanadi.

Frazemaning qurshovidagi qaratuvchi o'z- ta'kid birligi bilan ifodalaniishi lozim bo'lsa, bunday qaratuvchi odatda namoyon bo'lmaydi: *teri(si)ga sig'may ket-* (kim [o'zining]), *og'z(i) bilan yur-* (kim [o'zining]) kabi.

3. Birikmaga teng qurilishli frazema to'ldiruvchi bilan bog'lashuvli bo'lishi

uchun frazemaning tayanch a'zosiga to'ldiruvchini boshqarish mansub bo'lishi va bu xususiyat frazemaning tarkibida namoyon bo'lмаган bo'lishi lozim. Bunday frazemaning fe'l a'zosi:

1) vositasiz to'ldiruvchini boshqaradi: *suv qilib ich-* (kim nimani), *ep bilma-* (kim nima qilishni), *bir yoqqa yig'ishtirib qo'y-* (kim nimani); *sarovimaga sol-* (nima kimni), *yer-ko 'kka ishonma-* (kim kimni yoki nimani) kabi;

2) vositali to'ldiruvchini boshqaradi: *qo'sha qari-* (kim kim bilan), *teng kel-* (kim kimga) kabi;

3) ham vositasiz, ham vositali to'ldiruvchini boshqaradi: *teng ko'r-* (kim kimni kimga), *bir qatorga qo'y-* (kim kimni kim bilan) kabi;

4) har ikki tur to'ldiruvchini boshqara oladigan fe'l a'zoning bir to'ldiruvchini boshqaruvi frazema tarkibida namoyon bo'lib, qurshovida ikkinchi to'ldiruvchini boshqaradi: *kun berma-* (kim kimga), *pand ye-* (kim kimdan) kabi.

II. Sintaktik qurilishi gapshaklga teng fe'l frazemalarda bog'lashuv imkoniyati quyidagicha:

1. Bunday frazema tarkibida ega qatnashadi, shunga ko'ra bunday bo'lak bilan bog'lashuv bo'lmaydi.

2. To'ldiruvchi bilan, qaratuvchi bilan bog'lashuv imkoniyati birikmaga teng qurilishli frazemalardan farq qilmaydi: *tuyaning ustida it qopadi* (kimni), *son tegdi* (kimga), *silla(si) quridi* (kimning), *ko'z(i) yetdi* (kimning nimaga), *nafsi og'ridi* (kimning nimadan), *es(i) og'ib ketdi* (kimning kimga yoki nimaga) kabi va b.

### A l i f b o

1- §. Nutq deganda odatda tovush nutqi tushuniladi. Tabiiy nutq — tovush nutqi. Yozuv — shu nutqni ma'lum shakllar bilan aks ettirish vositasi. Yozuv tovush nutqidan ancha keyin, kishilik jamiyatni madaniy taraqqiyotining muayyan bosqichida yuzaga kelgan. Demak, tovush nutqi — birlamchi, u o'z qonuniyatlari asosida tabiiy yo'sinda o'zgarib, rivojlanib boradi; yozuv esa tovush nutqiga nisbatan ikkilamchi, ongli ravishda o'ylab topilgan sun'iy vosita. Tovush nutqini uzoq masofaga, kelgusi avlodga uzatib bo'lmaydi. Ana shu ikki ehtiyojni qondirish talabi yozuvni yuzaga keltirdi. Yozuv yuzaga kelganidan keyin adabiy tilning ikki holati — og'zaki adabiy til va yozma adabiy til farqlana boshlagan. Yozuv — yozma adabiy tilga xizmat qiladigan bebafo vosita.

Ma'lumki, yozuvning piktografiya (lot. *pictus* — 'bo'yoq bilan ifodalangan', yu-noncha *grapho* — 'yozaman'), ideografiya (yunoncha *idea* — 'tushuncha') kabi turlari bor. Bulardan birinchisi kishilar hamda narsalarning rasmini chizish va ularni turli usullarda joylashtirish, bog'lash bilan fikr anglatilgan. Keyinchalik bu rasmlar mavhumlashib, shartli shakl darajasiga yetgan, har bir shakl bir leksemaga teng kelib, ma'lum bir tushunchani anglatishga xizmat qilgan. Yozuv taraqqiyotining keyingi bosqichida bir shakl bir tovushning ko'rsatkichiga aylangan. Bunda ideografik shakl o'zi ifodalayotgan leksemaning boshlanishidagi tovushni ko'rsatishga o'tgan. Bu yo'l bilan tovushga asoslangan yozuv — fonografik yozuv kelib chiqqan. Hozirgi tillar yozuvida fonografik yozuv asosiy o'rinni egallaydi.

Fonografik yozuvda har bir shaklga ma'lum bir tovushni ko'rsatish vazifasi birkiladi. Tovush ko'rsatish uchun xizmat qiladigan bunday shaklga h a r f deyiladi. Yozuvda o'zicha tovush ko'rsatmaydigan, harf bilan birga kelib, o'sha harf qanday tovushni ko'rsatishini, qanday o'qilishini ta'kidlaydigan shakl ham uchraydi. Yozuvda ishlatalidigan bunday shaklga b e l g i deyiladi. Masalan, *ba'zi* leksemasi besh shakl vositasida yoziladi, *to'rttasi* — harf, *bittasi* belgi. Demak, bu leksema tarkibida *to'rt* tovush bor, belgi esa ikkinchi tovushning *cho'ziq* ekanini yozuvda ko'rsatish uchun yoziladi. Bu yerda tovushni *a* harfi, shu tovushning *cho'ziq* aytishini belgi ko'rsatadi, har ikkisi birgalikda *cho'ziq a:* tovushini bildiradi.

Fonografik yozuvga xos harf va belgiga fonogramma deyiladi. Fonogrammani boshqa tur belgilardan farqlash kerak. Masalan, arifmetik amallarni ko'rsatuvchi qo'shuv (+), oluv (-), ko'paytiruv (x), bo'luv (:), alomatlari ham belgi. Bular o'z tabiatiga ko'ra ideografik yozuvni eslatadi: ularni hamma bir xil tushunadi, lekin har bir til vakili ularni o'z leksemasi bilan (o'z tovushlari bilan) o'qiydi. Demak, bu tur belgilari tovushga birkitilgan bo'lmaydi, shu sababli milliy emas, balki umumbashariy.

Til tovushlarini ko'rsatishga xizmat qiladigan shakllar-gina fonografik yozuvga mansub deb qaraladi.

2- §. Qadimgi yozuvlarni hisobga olmasak, o'zbeklarning arab alifbosi asosida tuzilgan fors alifbosidan, qisqa muddat lotin alifbosi asosida tuzilgan o'zbek alifbosidan, keyinchalik rus alifbosi asosida tuzilgan o'zbek alifbosidan foydalangani ma'lum. Hozir lotin alifbosi asosida tuzilgan yangi o'zbek alifbosi joriy qilindi.

Ayni bir tilga bir necha alifboni xizmat qildirish yozuvning til bilan bog'lanishi shartli ekanini ochiq tasdiqlaydi. Alifboning almashtirilishi tilning jiddiy o'zgarishi oqibatida emas, balki boshqacha talab va zaruriyat tufayli voqe bo'ladi. Masalan, arab alifbosiga asoslangan fors alifbosi bir necha marta isloh qilinishiga qaramay o'zbek tili tovushlarini to'liq ko'rsata olmagani, ayni vaqtida harfylar ortiqchaliklar mavjudligi sababli lotin alifbosiga asoslangan o'zbek alifbosiga almashtirilgan. 20- yillarning oxirida ko'pgina tillarning yozuvi lotin alifbosiga o'tdi. Masalan, o'zbeklar bilan bir qatorda tojiklar ham VIII asrdan buyon foydalanib kelayotgan forsiy alifboni lotin alifbosi asosida tuzilgan alifboga almashtirdi. 30- yillarning oxiriga kelib rus alifbosi asosidagi alifbolarga o'tish boshlandi. Hozirgi vaqtida bir qancha tillarning yozuvi rus alifbosidan lotin alifbosi asosida tuzilgan alifbolarga almashtirildi.

Yangi o'zbek lotin alifbosini tuzishda klassik lotin alifbosi aynan olingani yo'q: 1) lotin alifbosidagi 26 harfdan w, c harflari o'zbek lotin alifbosiga olinmadi, 2) lotin alifbosida ks tovushlari tizmasini ifodalaydigan x harfiga o'zbek lotin alifbosida chuqur til orqa 'x' tovushini ifodalash vazifasi birkitildi, 3) y harfiga til o'rta ovozidor tovushni ifodalash vazifasi birkitildi, 4) j harfiga sirg'aluvchi 'z' tovushini ifodalashdan tashqari portlovchi 'ç' tovushini ham ifodalash vazifasi yuklandi, 5) o harfiga o'rtadan tor 'o' tovushini ifodalashdan tashqari o'zbekcha kengdan torroq 'ä' tovushini ifodalash vazifasi yuklandi (Bir harf bilan ikki boshqa-boshqa tovushni ifodalashdek salbiy hodisa hozirgi alifboga rus alifbosi asosidagi o'zbek alifbosidan ko'chib o'tdi), 6) Yangi o'zbek lotin alifbosiga arabcha leksemalarda ishlatalish uchun tutuq belgisi (') kiritildi, 7) Alifboning oxiridan bir tovushni harfga belgi qo'shib, ikki harfni qo'shib ifodalash usuliga asoslangan harflar o'rinni oldi. Natijada yangi o'zbek lotin alifbosi 29 harf va bir belgidan iborat bo'lib, 31 tovushni ko'rsatishga xizmat qildirildi.

3- §. Harflarning muayyan tartibda joylashtirilgan holatiga alfavit (alifbo) deyiladi. Har bir alifboda shu til yozuvida ishlataladigan harflarning qat'iy o'rni bo'ladi. Masalan, joriy o'zbek alifbosida a harfidan keyin b harfi, z harfidan keyin o' harfi turadi. Joriy o'zbek alifbosida avval lotin alifbosidan olingan harflar o'z tartibi bilan joylashib, yangi kiritilgan harflar lotin alifbosidan olingan harflardan keyin o'rinni oldi.

Alifboda bosh harflar va kichik harflarning, shuningdek bosma va yozma harflarning shakllari ko'rsatiladi. Joriy o'zbek lotin alifbosidagi harflarning bosh va kichik, bosma va yozma shakllari quyidagicha:

fologik me'yorga amal qilinadi (36- paragrafning 1- bandi);

7) Oxiri *k*, *q* tovushidan boshqa tovush bilan tugaydigan leksemalarga *g* tovushi bilan boshlanadigan qo'shimchalar *g* bilan boshlab yoziladi: *bargga*, *bug'ga*, *pedagogga* kabi (37- paragrafdagi 3- bandning "d" qismi) va b.

Yuqorida adabiy talaffuz bilan adabiy yozish orasidagi orfogrammalar keltirildi. Quyidagi qoidalar so'zlashuv nutqiga xos talaffuz bilan adabiy yozish orasidagi munosabatni aks ettiradi:

1) *bahor-*, *vaqt-* kabi leksemalarda *a* o'rnida *o* aytilda xam, asliga ko'ra *a* yoziladi (1- paragrafning 2- bandi);

2.) *qibla-*, *tobla-* kabi leksemalarda *b* o'rniga *v* aytilda ham, asliga ko'ra *b* yoziladi (8- paragrafning 3- bandi);

3) *avtobus-*, *avtomat-* kabi olinma leksemalarda *v* o'rniga *f* aytilda ham, asliga ko'ra *v* yoziladi (10- paragrafning 2- bandi);

4) *shanba-*, *yonbosh-* kabi leksemalarda *n* o'rniga *m* aytilda ham, asliga ko'ra *n* yoziladi (22- paragrafning 2- bandi);

5) *do'st-*, *xursand-* kabi leksemalar oxiridagi bir tovush aytilmasa ham, asliga ko'ra saqlab yoziladi (34- paragrafning 1- bandi);

6) *d* tovushi bilan boshlanadigan qo'shimchalarda *ba'zan t* tovushi aytilda ham, asliga ko'ra *d* yoziladi: *ishda*, *ketdi*, *kelmabdi* kabi (36- paragrafning 2- bandi) va b.

Morfologik me'yor asosida yozishlarning ba'zilarida istisnolar ham bor:

a) *bitta* shaklida yozish asli morfologik me'yordan fonetik me'yorga chiqarilgan istisno.

b) *Xolavuchcha-* kabi leksemalar tarkibidagi *-vacheha* qismi asli tojik tilida *bachcha* yozilishiha qaramay o'zbek tilida *v* bilan boshlab yozish qoidalashtirilgan.

d) *metall-*, *kilogrann-* kabi leksemalarga xuddi shunday harf (tovush) bilan boshlanadigan qism qo'shilganida leksema oxiridagi bir xil harflardan keyingisi yozilmaydi: *metall + lar = metallar* kabi.

6- §. Imlo qoidalarida fonetik me'yor bo'yicha yozishlar ham anchagina. Bunday yozishlar asosida o'zbek tili uchun umumiyligi bo'lgan fonetik qonuniyatlar yotadi, odatda bunday tovush o'zgarishlari talaffuzda ham, yozishda ham o'z ifodasini topadi. "O'zbek tilining asosiy imlo qoidalari"da quyidagilar fonetik me'yor asosida yozishni aks ettiradi:

1) *a* tovushiga tugagan fe'lga *-v*, *-q*, *-qi* qo'shimchasi qo'shilganida *a* tovushi o tovushiga o'tadi, bunday tovush o'zgarishi yozuvda ham o'z aksini topadi: *chanqov*, *chanqoq*, *sayroqi* kabi (33- paragrafning 1- bandi);

2) *i* tovushiga tugagan fe'lga *-v*, *-q* qo'shimchasi qo'shilganida *i* tovushi *u* tovushiga o'tadi, bunday tovush o'zgarishi yozuvda ham o'z aksini topadi: *o'quv*, *sovug* kabi (33- paragrafning 2- bandi);

3) *i* tovushiga tugagan *ikki-*, *olti-*, *yetti-* sonlariga *-ov* qo'shimchasi qo'shilganida son oxiridagi *i* tovushi talaffuz qilinmaydi va yozilmaydi: *ikkov* kabi (35- paragrafning

1- bandi);

4) *o'rin-*, *o'g'il-* kabi leksemalarga nisbatlovchi qo'shilganida ikkinchi bo'g'indagi tor ovoz tovush aytilmaydi va yozilmaydi (35- paragrafning 1- bandi);

5) *q, k* tovushi bilan tugagan *qishloq-, istak-* kabi leksemalarga nisbatlovchi qo'shilganida ko'pincha *k* tovushi *g* tovushiga, *q* tovushi *g'* tovushiga o'tadi va shunday yoziladi (34- paragraf);

6) *q, k* tovushiga tugagan leksemaga *g* tovushi bilan boshlanadigan qo'shimcha qo'shilganida *q + g = qq, k + g = kk* tovush o'zgarishi voqe bo'ladi va shunday yoziladi: *yotoqqa, etakka* kabi;

7) *-dir, -tir* orttirma yasovchisi bir bo'g'inli leksemalarga ovozli, ovozdan tovushdan keyin *-dir* shaklida, shovqin tovushdan keyin *-tir* shaklida qo'shiladi: *yozdir-, toptir-* kabi (37- paragrafning 2- bandi) va b.

Fonetik me'yor asosida yozishlarning ba'zilarida istisnolar ham bor:

a) *k, q* tovushiga tugaydigan bir bo'g'inli leksemalarga, arab tilidan o'zlashgan ko'p bo'g'inli leksemalarga nisbatlovchi qo'shilganida *k, q* tovushlari o'zgarmaydi, o'zicha aytildi va yoziladi: *noki, farqi, ishtiroki, ittifofi* kabi (34- paragraf);

b) Ko'p bo'g'inli leksemaga qanday tovush bilan tugashidan qat'i nazar doim *-tir* qo'shiladi: *ko'kartir-, eshittir-* kabi (37- paragrafning 2- bandi) va b.

### Adabiy talaffuz

7- §. Adabiy talaffuz qoidalari to'plamiga orfoepiya deyiladi (yunoncha *epos* – 'nutq'). Tilshunoslikning adabiy talaffuz me'yorlarini belgilaydigan bo'limi ham orfoepiya deb yuritiladi.

Adabiy nutqning mavqeい mustahkamlanib, ish doirasi kengayib bormoqda. Bu jarayon adabiy nutqning yozma va og'zaki ko'rinishlarida turlicha sodir bo'ladi. Adabiy nutqning yozma ko'rinishida yozish me'yorlari mumkin qadar aniq qoidalashtirildi, rasmiy qaror bilan joriy etildi; bu qoidalarga qat'iy amal qilish lozim.

Adabiy nutqning og'zaki ko'rinishida ahvol boshqacha: og'zaki nutqni yozma nutq darajasida tejab-tergab bo'lmaydi. Buning ustiga adabiy talaffuz qoidalaring o'zi ham aniq belgilab chiqilmagan. Og'zaki nutqqa xos hodisalarini adabiy yoki no-adabiy deb baholashda shaxsiy yondashish ham kuchli. O'zbek tilining ko'p dialektli (shevali) ekani yana qo'shimcha qiyinchiliklar keltirib chiqaradi.

O'zbek tili dialektlari (shevalari) o'z tovushlar tizimi bilan, ayniqsa ovoz tovushlar tizimi bilan o'zaro sezilarli farq qiladi, shu sababli ayni bir leksemaning talaffuzida turlilik voqe bo'ladi. Masalan, ko'pgina bir bo'g'inli leksemalar tarkibidagi ovoz tovush olti ovoz tovushli shevada boshqacha, to'qqiz ovoz tovushli shevada boshqacha talaffuz qilinadi. Birinchi tur shevada *to'r-* ('poygakning teskarisi bo'lgan o'rinn') leksemasi bilan *to'r-* ('baliq, qush ovlashda ishlataladigan to'qima asbob') leksemasi bir xil talaffuz qilinsa, ikkinchi tur shevada bu leksemalar *tör-* va *tor-* shaklida farqli aytildi. Adabiy talaffuzda shu shevalardan biridagi holat asosga olinadi. Hozirgi adabiy

o'zbek tilida *o* va *o* tovushlari o'mniga yagona *o* (*o'*) tovushi aytildi, demak, to'qqiz ovoz tovushli shevaga emas, olti ovoz tovushli shevalarga asoslaniladi.

O'zbek tili shevalari orasidagi fonetik farqlar juda rang-barang bo'lib, bularning barchasini sanash va adabiy talaffuz nuqtayi nazaridan baholab chiqish qiyin. Bu yerda bir necha farqni keltirish bilan kifoyaianish mumkin: ba'zi shevaiarda leksema boshlanishida *y* tovushi aytilsa, ba'zi shevalarda *j* aytildi: *yur* – *jur* kabi; leksemalarni shevalar ora quyidagicha farqli talaffuz qilishlar anchagina: *dala-* – *tala-*, *bola-* – *bala-*, *mushuk-* – *mushuv-* – *mishiq-*, *köngil-* – *kangul-* – *kongul-* va b. Adabiy nutqqa ana shunday bir necha talaffuz ko'rinishidan biri tanlanadi.

"O'zbek tilining asosiy imlo qoidalari" adabiy talaffuzni ham, so'zlashuv nutqi talaffuzini ham hisobga olib tuzilgan. Quyida adabiy talaffuz bo'yicha tavsiyalar imlo qoidalari asosida bayon qilinadi.

8- §. "O'zbek tilining asosiy imlo qoidalari"da qamrab olingan hodisalarga suyanib adabiy talaffuz bo'yicha quyidagi tavsiyalarni keltirish mumkin:

1) *ko'ngil-*, *o'tin-* kabi birinchi bo'g'inida *u* tovushi keladigan leksemalarning keyingi bo'g'inida *u* emas, *i* aytildi;

2) Leksemaning oldingi bo'g'inida *o* tovushi kelsa, *v* tovushi bilan boshlanadigan keyingi yopiq bo'g'inida *i* emas, *u* talaffuz qilinadi: *sovun-*, *tovush-*, *saksovul-* kabi;

3) Leksemaning oldingi bo'g'inida *u* tovushi kelsa, keyingi yopiq bo'g'inida *i* emas, *u* talaffuz qilinadi: *yulduz-*; *yutuq-*, *turmush-*, *tugun-* kabi;

4) *duk-duk*, *g'ov-g'uv* kabi tasvir birliklarining *dukur-dukur*, *g'ovur-g'uvur* shaklida *r* tovushidan oldin *u* aytildi;

5) *ta'na-*, *la'l-*, *mu'tabar-*, *mo'jiza-*, *e'tiqod-*, *me'yor* kabi arabcha leksemalarda belgisidan oldingi ovoz tovush cho'ziq aytildi;

6) *ehtiyot-*, *ehtimol-*, *mehmon-*, *istehkom-* kabi arabcha leksemalarda *h* tovushidan oldin *i* emas, *e* aytildi;

7) *poeziya-*, *teatr-* kabi o'zlashma leksemalarda ichki bo'g'in boshida *e* tovushidan oldin *y* tovushi qo'shib aytildi: *poyema-* kabi;

8) *sahro-*, *baho-*, *jazo-*, *mojaro-* kabi o'zlashma leksemalarning oxirgi ochiq bo'g'inida cho'ziq *o* aytildi;

9) *savol-*, *bahor-*, *davo-*, *baho-* kabi keyingi bo'g'inida *o* tovushi keladigan o'zlashma leksemalarning oldingi bo'g'inida *o* emas, *a* aytildi;

10) Rus tili orqali olingan so'zlardagi *o* tovushi uch xil talaffuz qilinadi: a) bir bo'g'inli leksemalarda, *ko'p bo'g'inli* leksemalarning urg'uli bo'g'inida *o* aytildi: *gol-*, *domna-*, *kolba-* kabi ; b) *ko'p bo'g'inli* leksemalarda urg'uli bo'g'indan oldingi bo'g'inda *a* aytildi: *montaj-* – *mantaj-*, *kolorit-* – *kalorit-* kabi; d) *ko'p bo'g'inli* leksemalarda urg'uli bo'g'indan keyingi bo'g'inda *i* aytildi: *rektor-* – *rektir-*, *stabilizator-* – *stabilizatir-* kabi ;

11) O'zlashma leksemalarda yonma-yon kelgan ovoz tovushlar quyidagicha talafuz qilinadi: *a)* *uo*, *oa*, *aa*, *oo* tovushlari oraga tovush qo'shmay o'zicha aytildi:

*muomala-, jamoat-, taom-, mudofaa-, koordinatsiya-* kabi; b) leksema boshlanishida yoki ichida *ia*, *io*, *ea*, *oi* tovushlari oralig'iga y tovushi qo'shib aytildi: *diyagramma-*, *idiyoma-*, *teyatir-*, *qoyida-*, *doyim-*, *oyid-* kabi; d) leksema boshlanishida yonma-yon kelgan *ae* tovushlaridan keyingisi o'rniga y tovushi aytildi: *ayradrom-*, *ayrastat-* kabi;

12) -*a* ravishdoshi shaklidagi mustaqil fe'l *ol-* yordamchisi bilan kelganida ikki xil talaffuz qilinadi: a) *ao* tovushlari saqlab aytildi: *ko'ra oladi*, *yoza olmaydi* kabi; b) *ao* tovushlari bitta *cho'ziq o* tovushi sifatida talaffuz qilinadi: *ko'roladi*, *ko'rolmaydi* kabi.

13) Quyidagi hollarda ovozli tovush o'rniga shovqin tovush aytildi: a) leksema(shakl) oxirida *b* o'rniga *p* aytildi: *minglap*; *kelip*; *uslup-*, *garderop-* kabi; Shovqin tovush aytish bunday leksemaga qo'shimcha qo'shilganida ham saqlanadi: *kitopxon-*, *kelipman* kabi; b) Leksema oxirida *d* tovushi o'rniga *t* tovushi aytildi: *umit-*, *vujut-*, *uglerot-*, *sud-* → *sut-* kabi; Shovqin tovush aytish bunday leksemaga qo'shimcha qo'shilganida ham saqlanadi: *maqsatsiz*, *uglerotli* kabi; d) Leksema oxirida *g* tovushi o'rniga *k* tovushi aytildi: *bark-*, *tek-*, *pedagok-* kabi; Shovqin tovush aytish bunday leksemaga qo'shimcha qo'shilganida ham saqlanadi: *barkka* kabi; e) *g'* tovushi bilan tugagan leksemaga *g* tovushi bilan boshlanadigan qo'shimcha qo'shilganida har ikki tovush *qq* tarzida aytildi (lekin asliga *ko'ra g'g* yoziladi): *cho'g'- + ga = cho'g'ga* → *cho'qqa* kabi; *bo'g'ga* leksemashakli shunday aytildi va yoziladi va b.

Yuqorida adabiy talaffuz *bo'yicha* ayrim tavsiyalar bayon qilindi. Qoidalashtirish zarur hodisalar nutqda juda *ko'p* va rang-barang. Bularni sinchiklab o'rganish va mu-kammal adabiy talaffuz qoidalalarini tuzish – nutq madaniyati sohasidagi muhim vazifalardan biri.

diqlanadi va joriy qilinadi. Shunga ko'ra imlo qoidalariga rioya qilish qat'iy tejab-tergaladi.

Imlo qoidasi nutqda namoyon bo'ladigan barcha til hodisalari uchun tuzilmaydi. Avvalo, so'zlashuv nutqiga xos hodisalarning ko'pchiligi nazardan soqit qilinadi. Adabiy nutqqa mansub bo'lib, talaffuzi bilan yozilishi bir xil hodisalar uchun esa imlo qoidalari hojat emas. Adabiy yozishni belgilash har xil talqinga yo'l qo'yiladigan, adabiy talaffuz bilan adabiy yozish orasida biror farq mavjud o'rinnlarda-gina zarur. Bunda ayni bir hodisani bir necha xil yozish imkoniyati bo'ladi, shulardan biri adabiy yozish deb belgilanadi. Ana shunday holatda nima adabiy yozish deb belgilansa, unga orfogramma deyiladi. Orfogrammalarning ko'pchiligi nutq tovushlarini, nutqda sodir bo'ladigan turli-tuman tovush o'zgarishlarini yozuvda aks ettirish yoki aks ettermaslik munosabati bilan yuzaga keladi.

Imlo qoidalari ma'lum me'yirlarga asoslanadi. Agar talaffuz qilinayotgan tovushni ko'rsatuvchi harf yozilsa (*to'g'ridan to'g'ri "tovush → harf"* munosabati yuz bersa, "Eshitganingni yoz" shiori bilan ish tutilsa), fonetik me'yorga amal qilingan bo'ladi: *keldir-* emas, *keltir-* yozish kabi.

Talaffuz qilinayotgan tovush emas, balki asli qaysi tovush ekani hisobga olinib, o'sha tovushni ko'rsatadigan harf yozilsa ("talaffuz qilinayotgan tovush → asli qaysi tovush → o'sha tovushning harfi" munosabati yuz bersa, "Eshitganingni emas, aslini yoz" shiori bilan ish tutilsa), morfologik me'yorga amal qilingan bo'ladi; masalan, *-boz*, *-bon* qo'shib yasalgan leksemalarda bu yasovchilar boshlanishidagi *b* tovushini ν talaffuz qila turib asliga ko'ra *b* yozish: *ishqivoz* — *ishqiboz* kabi.

5- §. Imlo qoidalari morfologik me'yor leksema va morfemalarning talaffuzidan qat'i nazar bir xil yozilishini ta'minlaydi, leksemashakllar tarkibidagi ma'noli qismarni *to'g'ri* va tez ajratishga imkoniyat yaratadi.

"O'zbek tilining asosiy imlo qoidalari"da quyidagilar morfologik me'yor ascsida yozishni aks ettiradi:

1) *govun-*, *tovush-* kabi leksemalarning ikkinchi bo'g'inida, *chirmovuq-* kabi leksemalarning oxirgi bo'g'inida i aytilda ham u yoziladi (4- paragrafning 2- bandi);

2) *shoir-*, *tabiat-*, *radio-*, *teatr-* kabi leksemalarda ikki ovoz tovush oraligida y qo'shib aytilda ham, asliga binoan yoziladi (7- paragraf);

3) *direktor-*, *mikrofon-* kabi olinma leksemalarning urg'usiz bo'g'inida *i*, *a* aytilda ham, asliga ko'ra *o* yoziladi (2- paragrafning 2- bandi);

4) *kitob-*, *kelib* kabi leksema(shakl)lar oxirida *b* o'rniغا *p* aytilda ham (8- paragrafning 2- bandi), *obod*, *badxo'r* kabi leksemashakllarda *d* o'rniغا *t* aytilda ham (13- paragrafning 2- bandi), asliga ko'ra *b*, *d* yoziladi;

5) *kilogramm-*, *metall-*, *kilovatt-*, *kongress-* kabi leksemashakllar oxirida qator kelgan ikki bir xil harfdan biri aytilmasa ham, asliga ko'ra ikki harf yoziladi (31- paragraf);

6) *qog'ozvozlik*, *bog'ven* talaffuz qilib, *qog'ozbozlik*, *bog'bon* yozishda ham mor-

Bosma	Yozma	Nomi	Kir.h.	Bosma	Yozma	Nomi	Kir.h.
A a	А а	a	А а	Q q	Ҷ ј	qe	Қ қ
B b	Б б	be	Б б	R r	Ҵ ҵ	re	Р р
D d	Д д	de	Д д	S s	Ҵ ҵ	se	С с
E e	Е е	e	Е е	T t	Ҵ т	te	Т т
F f	Ф ф	fe	Ф ф	U u	Ҹ ҹ	u	У у
G g	Г г	ge	Г г	V v	Ҹ ҹ	ve	В в
H h	Ҳ ҳ	he	Ҳ ҳ	X x	Ҵ җ	хе	Х х
I i	Ӣ ӣ	i	Ӣ Ӣ	Y y	Ҵ ҵ	ye	Ӣ Ӣ
J j	Ҷ ҷ	je	Ҷ Ҷ	Z z	Ҵ ҵ	ze	Ҷ Ҷ
K k	Ҷ Ҷ	ke	Ҷ Ҷ	O' o'	Ҵ ҵ	o'	Ҷ Ҷ
L l	Ӆ Ӯ	le	Ӆ Ӯ	G' g'	Ҵ ҵ	g'e	Ғ ғ
M m	Ӎ ӎ	me	Ӎ Ӎ	Sh sh	Ҵ ҵ	she	Ш ш
N n	Ң ң	ne	Ң Ң	Ch ch	Ҵ ҵ	che	Ч ч
O o	Ӯ Ӯ	o	Ӯ Ӯ	Ng ng	Ҵ ҵ	nge	Ҥ Ҥ
P p	Ӫ ӫ	pe	Ӫ Ӫ			tutuq belgisi	Ҷ Ҷ

### Adabiy yozish

4- §. Adabiy yozish qoidalari to'plamiga orfografiya deyiladi (yunoncha *orthos* – 'to'g'ri'). Tilshunoslikning adabiy yozish me'yorlarini belgilaydigan bo'limi ham orfografiya deb yuritiladi. Orfografiya (imlo qoidalari) adabiy nutqning yozma ko'rinishiga xizmat qiladi.

Hozirgi adabiy o'zbek tilining yozma ko'rinishi tartibga tushib qoldi. So'zlashuv nutqidagi rang-baranglikni bir xillikka keltirishda, shular orasidan birini adabiy me'yor darajasiga ko'tarishda, so'zlashuv nutqiga va adabiy nutqqa xos talaffuz bilan yozish orasidagi munosabatni to'g'ri belgilashda imlo qoidalarning ahamiyati katta.

Hozirgi adabiy o'zbek tili uchun imlo qoidalarni ishlab chiqishga yetmisht besh yil ilgari kirishilgan bo'lib, bugungi "O'zbek tilining asosiy imlo qoidalari" ko'p yillik kuzatishlar natijasida bir necha marta takomillashtirilgan. Amaliyatga joriy qilingan imlo qoidalari to'g'ri nazariy asoslarga suyangan bo'lib, savodxonlik uchun kurashda ishonchli qo'llanma vazifasini bajara oladi.

Imlo qoidalari til taraqqiyotining ma'lum bir bosqichi asosida tuziladi. Tilning taraqqiyoti, til haqidagi bilimning rivojlanishi natijasida imlo qoidalari ham takomillashtirib boriladi,

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, amaliyatga joriy qilingan imlo qoidalari hozirgi adabiy o'zbek tilida yozilgan asarlarga tatbiq qilinadi, oldingi davr asarlarini nashr qilishda, eski talaffuzni ta'kidlash zarur bo'lgan o'rnlarda esa o'sha davr tili xususiyatlarini hisobga olib yozish lozim.

Imlo qoidalari tilshunos olimlar tomonidan tuziladi, hukumatning qarori bilan tas-

## M U N D A R I J A

K i r i sh .....	3
O'quv predmetining nomlanishi va vazifasi .....	3
Hozirgi adabiy o'zbek tilining boshlanishini belgilash haqida .....	3
Til qurilishi haqida .....	4
Til, lison va nutq; til birligi, lisoniy birlik va nutqiy birlik .....	4
Til qurilishining asosiy birliklari haqida .....	6
T o v u s h l a r t i z i m i .....	9
Kishi tanasining til tovushlarini hosil qilishda qatnashadigan a'zolari haqida .....	9
Til tovushlarining ovoz va shovqinning qatnashuvni asosidagi tasnifi .....	10
Ovoz tovushlar .....	12
Shovqin tovushlar .....	16
Ovozli tovushlar .....	18
Ovozdor tovushlar .....	19
L e k s e m a l a r t i z i m i .....	22
Leksemaning ifoda jihatni .....	22
Leksemalarning fonema jihatni va bo'g'in tuzilishi .....	22
Leksemalar tarkibida voqe bo'ladigan tovush jarayonlari, allofonema va alloleksema haqida .....	31
Ifoda jihatni tub va hosila leksemalar .....	31
Leksemalarda ifoda jihatiga ko'ra voqe bo'ladigan munosabatlar .....	37
Omoleksemalar .....	37
Omoleksemalarga yondosh hodisalar .....	44
Leksemalarda paronimiya .....	45
Leksemaning mazmun jihatni .....	46
Leksik ma'noning semalari .....	50
Baho semasi .....	51
Lisoniy ma'no va nutqiy ma'no .....	53
Leksemalarda ko'pma'nolilik .....	55
Leksik ma'noning taraqqiyot yo'llari .....	56
Leksik ma'no taraqqiyotining natijalari .....	59
Leksik ma'no taraqqiyoti va semik tahlil .....	61
Leksik ma'nolarning turlari .....	63
Leksik ma'noning lug'aviy(lexsik) konteksti .....	68
Leksik ma'noning grammatik tabiatni .....	70
Leksik ma'nolarda semantik bog'lanish .....	71
Semema – mustaqil til birligi .....	72
Leksemalar (leksosememalar) orasidagi semantik munosabatlar .....	73
Leksemalarda (leksosememalarda) sinonimik munosabat (leksosinonimlar) ..	73
Leksemalarda (leksosememalarda) antonimik (oppozitiv) munosabat (leksoan-	

tonimlar) . . . . .	79
Leksemalar (leksosememalar) orasidagi assosiativ semantik munosabatlar . . . . .	82
Leksemalarni (leksosememalarni) semantik guruhlash haqida . . . . .	83
Leksemalarning (leksosememalarning) ishlatalish doirasi . . . . .	88
Leksemalarning (leksosememalarning) zamoniyligi . . . . .	92
Neologizm . . . . .	93
Arxaizm . . . . .	95
Istorizm . . . . .	97
Arxaizm va istorizm . . . . .	98
Leksemalarning (leksosememalarning) tilning vazifaviy ko'rinishlariga xoslanganligi . . . . .	99
Lug'at boyligidagi o'z qatlam va o'zlashgan qatlam . . . . .	105
Hozirgi adabiy o'zbek tili tasvirlangan lug'atlar haqida . . . . .	112
M o r f e m a l a r t i z i m i . . . . .	
Morfemalarning tabiatiga ko'ra tasnifi . . . . .	115
Morfemalarning vazifasiga ko'ra tasnifi . . . . .	117
Morfemaning ifoda jihatni . . . . .	118
Omomorfemalar . . . . .	121
Morfemalarning mazmun jihatni . . . . .	123
Grammatik semema va uning semalar tarkibi . . . . .	123
Morfemalarda ma'no sinkretizmi . . . . .	124
Morfemalarda ko'pma'nolilik (polisememiya) . . . . .	125
Morfemalar orasidagi sinonimik munosabat . . . . .	126
Shakl hosil qiluvchi morfemalarda paradigmatic munosabatlar . . . . .	126
Lug'at birliklarining turkumlanishi . . . . .	127
Grammatik birliklarning turkumlanishi . . . . .	129
Bog'lovchilar turkumi . . . . .	130
Yuklamalar turkumi . . . . .	131
Modallar turkumi . . . . .	135
Undovlar turkumi . . . . .	138
Ot leksemalar turkumiga mansub morfemalar . . . . .	140
Morfem paradigmalar . . . . .	140
Sonlash morfemalari paradigmasi . . . . .	140
Nisbatlovchi morfemalar paradigmasi . . . . .	142
Turlash morfemalari paradigmasi . . . . .	146
Ot turkumi leksemasiga qo'shiladigan nopaladigmalik morfemalar . . . . .	149
Sifat leksemalar turkumida shakl yasalishi . . . . .	151
Son leksemalar turkumida shakl yasalishi . . . . .	153
Fe'l leksemalar turkumiga mansub morfemalar tizimi . . . . .	159
Fe'l leksemalarda o'timli-o'timsizlik . . . . .	159
Nisbat paradigmasi va unga yondosh hodisalar . . . . .	160
Fe'lning bo'lishli-bo'lishsizlik shakllari paradigmasi . . . . .	172

- Hurmat formasi. O'TA, 1973, 1.
- Sememaning semalar tarkibi va semantik bog'lanish masalasi. O'TA, 1974, 1 (hamkor — Yunusov R.).
- Ot leksemalarga qo'shiladigan ayrim forma yasovchilar haqida. O'TA, 1975, 2.
- Ot // "O'zbek tili grammatikasi. I jild", FAN, T.: 1975.
- Polisemem ot leksemalar sememalarining grammatic tabiatiga haqida || ToshDU ilmiy asarlar, 501-chiqishi, 2-qism, 1975.
- Semema — mustaqil til birligi. O'TA, 1984, 5.
- Lug'at boyligini o'rganish va o'rgatishda qayta baholash zarur bo'lgan ba'zi masalalar. O'TA, 1990, 3.
- Ba'zi fikrlarimizga aniqlik kiritaylik. O'TA, 1991, 5.
- O'zbek tilida fe'l frazemalarning bog'lashuvi. "Universitet", T.: 1992.
- O'zbek tilida tobe bog'lanishning turlari. "Universitet", T.: 1992.
- O'zbek tilining tarqqiyoti haqida // ToshDU xabarlari, 1998, 1.
- O'zbek tili grammatic paradigmalarida nol ko'rsatkichli morfemalar // ToshDU xabarlari, 1999, 4.
- Unilarning qadiimgi turkiy tildagi va hozirgi adabiy o'zbek tilidagi tizimi haqida // O'zMU xabarlari, 2001, 3.
- O'zbek tili lug'atining turkiy qatlami. "Universitet", T.: 2001.
- Ayrim sintaktik termin va tushunchalar haqida // Tilshunoslikning dolzarb masalalari. T.: 2002.
- Lug'aviy antonimlar ma'nosini uzvii tahlil asosida o'rganish // O'zbek filologiyasi. T.: 2002.
- Til qurilishining asosiy birliklari. "Universitet". T.: 2002.
- Sintaktik tahlilning ayrim jihatlari // Filologiya (ilmiy maqolalar to'plami). IV. Samarqand, 2002.
- O'zbek tilshunosligidagi ayrim nuqsonli terminlar haqida // O'zbek tilshunosligi masalalari. Ilmiy maqolalar to'plami. O'zMU. T.: 2003.
- O'zbek tilshunosligining hozirgi taraqqiyot bosqichida paydo bo'lgan ayrim munozarali masalalar haqida // O'zMU xabarlari, 2003, 1.
- Gapshaklni yuzaga keltiradigan asosiy omillar haqida // Tilshunoslikning dolzarb masalalari (ilmiy maqolalar to'plami). II. "Universitet", T.: 2004.
- Nisbat paradigmasi va unga yondosh hodisalar // Tilshunoslikning dolzarb masalalari va nutq madaniyati muammolari. Termiz, 2004 (hamkor — Mahmatqulov S.)

## A D A B I Y O T

(xronologik tartibda)

### A k a d e m i n a s h r l a r

Hozirgi zamon o'zbek tili. FAN. T.: 1957.

Kononov A.N. Grammatika sovremennoogo uzbekskogo literaturnogo yazika. Izd. AN SSSR, M.-L.: 1960.

Hozirgi o'zbek adabiy tili. I, II jild. FAN, T.: 1966.

O'zbek tili grammatikasi. FAN. I jild, 1975; II jild, 1976.

### Darslik va o'quv qo'llanmalari

Shoabdurahmonov Sh., Asqarova M., Hojiyev A., Rasulov I., Doniyorov X. Hozirgi o'zbek adabiy tili. I qism. "O'qituvchi", T.: 1980.

G'ulomov A., Asqarova M. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Sintaksis. 3- nashri, T.: 1987.

Tursunov U., Muxtorov J., Rahmatullayev Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili. 3- nashri. "O'zbekiston", T.: 1992.

Ne'matov H., Bozorov O. Til va nutq. "O'qituvchi", T.: 1993.

Ne'matov H., Rasulov R. O'zbek tili sistem leksikologiyasi asoslari. "O'qituvchi", T.: 1995.

Ne'matov H., Sayfullayeva R., Qurbonova M. O'zbek tili struktural sintaksisi asoslari. "O'qituvchi", T.: 1999.

Qurbonova M.M. Hozirgi zamon o'zbek tili (sodda gap sintaksisi uchun materiallar). O'zMU, T.: 2002.

Qurbonova M., Sayfullayeva R., Boqiyeva N., Mengliyev B. O'zbek tilining struktural sintaksisi. O'zMU, T.: 2004.

Mirtojiyev M.M. Hozirgi o'zbek adabiy tili. I jild. O'zMU, T.: 2004.

### Muallifning darslikni yozishda foydalangan asosiy ishlari

Hozirgi o'zbek adabiy tilida son so'z turkumi. O'ODU ilmiy asarlari, 104- chiqishi, T.: 1957.

Modal so'zlar || Hozirgi zamon o'zbek tili. O'zFA nashriyoti, T.: 1957.

O'zbek frazeologiyasining ba'zi masalalari. "Fan", T.: 1966.

O'zbek tilidagi grammatic aloqaning ba'zi turlari haqida. O'TA, 1968, 5.

Gapga, birikmaga doir ba'zi tushuncha va terminlar. O'TA, 1968, 6.

Otlarda negizlar. O'TA, 1971, 1, 2.

Hozirgi o'zbek adabiy tilida ko'lam sifatlari. O'TA, 1972, 3 (hamkor – Abdurahmonov I.).

Izohlovchili birikma . . . . .	259
Ta'kidlovchili birikma . . . . .	261
To'ldiruvchili birikma . . . . .	263
Vositasiz to'ldiruvchi . . . . .	264
Vositali to'ldiruvchi . . . . .	266
Hollovchili birikma . . . . .	268
Yig'iq birikma va yoyiq birikma . . . . .	269
G a p s h a k l l a r t i z i m i . . . . .	272
G a p s h a k l . . . . .	272
Ega . . . . .	273
Kesim . . . . .	273
Kesimning ega bilan muvosiqlashuvi . . . . .	274
Gapshaklni yuzaga keltiradigan asosiy omillar . . . . .	281
Gapshaklning keyin yuzaga kelgan qoliplari . . . . .	284
Kishilik olmoshi bilan ifodalanadigan ega a'zoning gapshakl qolipidan chiqarilishi bilan yuzaga kelgan kesim a'zoga teng gapshakllar . . . . .	284
Ega a'zosi ishlatilmagan gapshakl . . . . .	284
Ega a'zosi ishlatilmaydigan gapshakl qolipi . . . . .	285
"E X K" qolipidagi kesinni shaxsizlantirib, egani gapshakl qurilishidan chiqarish bilan yuzaga kelgan gapshakllar . . . . .	287
Gapshakl deb talqin qilinadigan ayrim hodisalar haqida . . . . .	289
Lisoniy birlik sifatida leksemalarga xos bog'lashuv imkoniyati . . . . .	291
Lisoniy birlik sifatida leksemalarga xos bog'lashuv imkoniyatining nutqiy voqelanishi . . . . .	302
Gapshakl bo'laklarining nutqiy voqelanishi . . . . .	302
Eganing nutqiy voqelanishi . . . . .	302
Eganing leksemashakl bilan ifodalanishi . . . . .	302
Eganing birikmashakl bilan ifodalanishi . . . . .	305
Eganing sodda birikmashakl bilan ifodalanishi . . . . .	305
Eganing murakkab birikmashakl bilan ifodalanishi . . . . .	307
Kesimning nutqiy voqelanishi . . . . .	311
Kesimning leksemashakl bilan ifodalanishi . . . . .	311
Kesimning tuslovchili fe'l leksemashakl bilan ifodalanishi . . . . .	312
Kesimning fe'l dan boshqa leksemashakllar bilan ifodalanishi . . . . .	314
Kesimning tuslovchili birikmashakl bilan ifodalanishi . . . . .	316
Kesimning fe'l birikmashakl bilan ifodalanishi . . . . .	316
Kesimning ism birikmashakl bilan ifodalanishi . . . . .	318
Birikmaning bo'lagi mavqeida ham, gapshaklning bo'lagi mavqeida ham ishlatiladigan sintaktik bo'laklarning nutqiy voqelanishi . . . . .	319
To'ldiruvchining nutqiy voqelanishi . . . . .	319
Vositasiz to'ldiruvchining nutqiy voqelanishi . . . . .	319
Vositali to'ldiruvchining nutqiy voqelanishi . . . . .	322

Fe'lning boshqa turkumlarga monand shakllari .....	174
Fe'lning otdosh shakli .....	174
Fe'lning sifatdosh shakli .....	175
Fe'lning ravishdosh shakli .....	178
Zamon shakllarini yasovchi morfemalar paradigmasi .....	182
Kelasi zamon subparadigmasi .....	183
Hozirgi zamon subparadigmasi .....	184
O'tgan zamon subparadigmasi .....	185
Mayl shakllarini yasovchi morfemalar .....	188
Tuslovchi morfemalar paradigmasi .....	191
Fe'l leksemaga qo'shiladigan nopaladigmatik morfemalar .....	198
Harakatning takrorlanib, kuchli-kuchsiz darajada voqe bo'lishini ifodalovchi affikslar .....	198
Harakatning qay yo'sinda amalga oshishini ifoda'ydigan ko'makchi fe'l morfemalar .....	200
Ravish leksemalar turkumida shakl yasalishi va leksemashakllning ravishga aylanishi .....	203
Ravishlarda shakl yasalishi .....	204
Leksemashakllarning, birikmashakllarning ravishga aylanishi .....	204
Kesimlik leksemalari turkumi haqida .....	209
Olmosh leksemalar turkumi .....	210
Tasvir birliklari turkumi .....	213
L e k s e m a s h a k l l a r t i z i m i .....	216
Ot leksemashakllar tizimi .....	216
Sifat leksemashakllar tizimi .....	226
Ravish leksemashakllar tizimi .....	229
Son leksemashakllar tizimi .....	231
Olmosh leksemashakllar tizimi .....	232
Fe'l leksemashakllar tizimi .....	234
Fe'lning boshqa turkumlarga monand shakllarida leksemashakllar .....	236
Ravishdosh shakllarida leksemashakllar .....	236
Sifatdosh shakllarida leksemashakllar .....	238
Otdosh shakllarida leksemashakllar .....	240
Fe'lning tuslanishli leksemashakllari .....	241
Mayl yasalishlarida leksemashakllar .....	242
Zamon yasalishlarida leksemashakllar .....	243
Fe'l leksemashakllar bilan tuziladigan ayrim murakkab qurilmalar .....	245
Kesimlik leksemashakllari tizimi .....	246
B i r i k m a l a r t i z i m i .....	248
Sifatlovchili birikma .....	249
Qaratuvchili birikma .....	251
Izofa birikmasi .....	257

Vositasiz va vositali to'ldiruvchining birligida nutqiy voqelanishi .....	325
Hollovchining nutqiy voqelanishi .....	328
Tarz hollovchisining nutqiy voqelanishi .....	328
O'rin hollovchisining nutqiy voqelanishi .....	331
Payt hollovchisining nutqiy voqelanishi .....	335
Miqdor hollovchisining nutqiy voqelanishi .....	339
Sabab hollovchisining nutqiy voqelanishi .....	340
Maqsad hollovchisining nutqiy voqelanishi .....	342
O'xshatish hollovchisining nutqiy voqelanishi .....	343
To'siqsizlik hollovchisining nutqiy voqelanishi .....	343
Birikma bo'laklarining nutqiy voqelanishi .....	343
Sifatlovchining nutqiy voqelanishi .....	344
Qaratuvchining nutqiy voqelanishi .....	348
Izofaning nutqiy voqelanishi .....	350
Izohlovchining nutqiy voqelanishi .....	350
Ta'kidlovchining nutqiy voqelanishi .....	351
Sintaktik bo'lakning transformatsiyalangan gapshakl bilan ifodalanishi .....	351
Gapshaklning tashqi transformatsiyalanishi .....	353
Kesimi ism leksema bilan ifodalangan gapshakllarning transformatsiyalanishi .....	353
Kesimi fe'l leksema bilan ifodalangan gapshakllarning transformatsiyalanishi .....	355
Gapshaklning tashqi-ichki transformatsiyalanishi .....	359
Gapshaklning qaratuvchili birikmaga transformatsiyalanishi .....	359
Kesimi ism leksema bilan ifodalangan gapshaklning transformatsiyalanishi .....	359
Kesimi fe'l leksema bilan ifodalangan gapshaklning transformatsiyalanishi .....	360
Gapshaklning sifatlovchili birikmaga transformatsiyalanishi .....	361
Sintaktik bo'lakning uyushiq qator bilan ifodalanishi .....	364
Eganing uyushiq qator bilan ifodalanishi .....	364
Sifatlovchining uyushiq qator bilan ifodalanishi .....	366
Qaratuvchining uyushiq qator bilan ifodalanishi .....	368
To'ldiruvchining uyushiq qator bilan ifodalanishi .....	369
Hollovchining uyushiq qator bilan ifodalanishi .....	370
Kesimning uyushiq qator bilan ifodalanishi .....	371
Yakunlovchi mulohazalar .....	377
Gapshaklga qo'shiladigan sintaktik bo'laklar .....	378
Undalma bo'lak .....	378
Kirish bo'lak .....	381
Yoyiq jummalarda sintaktik bo'laklarning o'rni va tartibi .....	382
Jumlaning noto'liqligi .....	383
Jumlalarning ifoda maqsadiga ko'ra ma'no turlari .....	387
Q o' sh m a g a p sh a k l l a r .....	392
Bog'lovchi vositalar bilan tuzilgan qo'shma gapshakllar .....	394
Teng qismli qo'shma gapshakllar .....	395

Noteng qismli qo'shma gapshakllar . . . . .	399
Shart ergash qismli qo'shma gapshakl . . . . .	399
To'siqsiz ergash qismli qo'shma gapshakl . . . . .	401
Payt ergash qismli qo'shma gapshakl . . . . .	403
O'rin ergash qismli qo'shma gapshakl . . . . .	404
Maqsad ergash qismli qo'shma gapshakl . . . . .	404
Ega ergash qismni qo'shma gapshakl . . . . .	404
Qaratuvchi ergash qismli qo'shma gapshakl . . . . .	405
Qiyos va o'xshatish ergash qismli qo'shma gapshakl . . . . .	405
To'ldiruvchi ergash qismli qo'shma gapshakl . . . . .	406
Sifatlovchi ergash qismli qo'shma gapshakl . . . . .	407
Kesim ergash qismli qo'shma gapshakl . . . . .	407
Natija ergash qismli qo'shma gapshakl . . . . .	407
Sabab ergash qismli qo'shma gapshakl . . . . .	408
Ergash qismli qo'shma gapshakl deb talqin qilinadigan ayrim hodisalar haqida . . . . .	409
Bog'lovchi vositasiz tuziladigan qo'shma gapshakllar . . . . .	410
Teng sanaladigan qismli qo'shma gapshakllar . . . . .	411
Aniqlashtiruvchi qismli qo'shma gapshakllar . . . . .	413
Ba'zi boshqa hodisalar . . . . .	416
F r a z e m a l a r t i z i m i . . . . .	418
Frazemalarning ifoda jihatni . . . . .	418
Frazemalarning grammatic qurilishi . . . . .	419
Allofrazemalar . . . . .	421
Frazemalarda ifoda jihatiga ko'ra voqe bo'ladijan munosabatlar . . . . .	426
Frazemalarning mazmun jihatni . . . . .	428
Frazemalarda ko'pma'nolilik . . . . .	432
Frazemalar orasidagi semantik munosabatlar . . . . .	435
Sinonimik munosabat . . . . .	435
Antonimik (oppozitiv) munosabat . . . . .	437
Frazeologik birliklarning turkumlanishi . . . . .	437
Frazeologik birliklarda grammatic turkumlar . . . . .	442
Frazemalarda bog'lashuv . . . . .	443
A l i f b o . A d a b i y y o z i s h . A d a b i y t a l a f f u z . . . . .	447
Alifbo . . . . .	447
Adabiy yozish . . . . .	449
Adabiy talaffuz . . . . .	452
A d a b i y o t . . . . .	455

## **A n n o t a t i o n**

Darslik kompyuter terimidagi 464 sahifadan iborat bo'lib, universitet o'zbek filologiyasi fakultetining I-III kurs talabalari uchun yozilgan. Darslikda hozirgi adabiy o'zbek tilining qurilishi bir butun tizim sifatida bayon qilinib, "Kirish", "Tovushlar tizimi", "Leksemalar tizimi", "Morfemalar tizimi", "Leksemashakllar tizimi", "Birikmalar tizimi", "Gapshakllar tizimi", "Frazemalar tizimi", "Alifbo. To'g'ri yozish. To'g'ri talafuz" bo'limlaridan tarkib topgan.

## **А н н о т а ц и я**

Учебник состоит из 464 страниц компьютерного набора; предназначен студентам I – III курсов факультета узбекской филологии университета. В учебнике структура современного литературного узбекского языка описана как взаимосвязанный ряд языковых явлений и состоит из разделов "Введение", "Звуки", "Лексемы", "Морфемы", "Лексемоформы", "Лексемо-сочетания", "Предложения", "Фраземы", "Алфавит. Орфография. Орфоэпия".

## **A n n o t a t i o n**

The Textbook consists of 464 pages; intended for students of I – III years of Faculty of Uzbek language. In the textbook the Structure of Modern Uzbek Literary language is described as the interconnection sequence of language phenomena. The Textbook consists of the following Sections: "Introduction", "Sounds", "Lexems", "Morphems", "Lexemoforms", "Combining of Lexems", "Sentences", "Phrasems", "Alphabet. Orthography. Orthoepy".

**Shavkat Rahmatullayev**

**Hozirgi adabiy o‘zbek tili**  
**(darslik)**

Muharir: **Z.Ahmedjanova**  
Musahhih: **M.Djurayeva**

Bosishga ruxsat etildi 07.02.2006. Bichimi 60x80<sup>1/16</sup>  
Nashriyot hisob tabog‘i 31,7. Shartli bosma tabog‘i 48,7.  
Adadi 1000 nusxa. Buyurtma № 27  
Bahosi shartnoma asosida.

“Universitet” nashriyoti. Toshkent – 700174. Talabalar shaharchasi,  
O‘zMU ma’muriy binosi, 2- qavat, 7- xona.

O‘zMU bosmaxonasida bosildi.